O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

Haydarali MUHAMEDOV

XORIJIY MAMLAKATLAR DAVLATI VA HUQUQI TARIXI

(O‘rta asrlar davlati va huquqi tarixi)

II qism

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan huquq yo‘nalishi va tarix yo‘nalishi bo‘yicha Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent-2005

67.3 **UDK 340(09) (100)**
M 96 **BBK 67. 3ya73**

Mas’ul muharrir: A.X.Saidov, huquqshunoslik fanlari doktori, professor.
Taqrizchilar: Sh.Z.O‘razayev, huquqshunoslik fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi.
H.B.Boboyev, huquqshunoslik fanlari doktori, professor,
O.T.Xusanov, huquqshunoslik fanlari doktori, professor,

Muhamedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi:(O‘rta asrlar davlati va huquqi tarixi): Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/Mas’ul muharrir: A.X.Saidov. Qism 2. - T.: Toshkent Davlat yuridik instituti nashriyoti, 2005. - 480 bet.
Sarlavhada: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

Darslik «Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi» fani dasturi asosida huquqiy va tarixiy fanlarning eng so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yozildi. Unda o‘rta asrlarda G‘arbiy, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari: Franklar davlati, Fransiya, Germaniya, Angliya, Vizantiya, Rossiya hamda Sharq mamlakatlaridan Arab xalifaligi, Xitoy, Yaponiya va Hindistonda davlat va huquqning rivojlanishi xususiyatlari va qonuniyatlari xronologik izchillikda yoritildi. Darslik oliy o‘quv yurtlarining huquq, tarix yo‘nalishlari talabalari, magistrlari, o‘qituvchilari va jahon mamlakatlari davlatchiligi va huquqi tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan.

© Haydarali Muhamedov.
© Toshkent Davlat yuridik instituti, 2005 y.

SO‘Z BOSHI

Ma’lumki, tarixshunoslik ilmida o‘rta asrlar tarixi uzoq davrni - milodning V-XVII asrlarini o‘z ichiga olib, uni dunyo xalqlarining deyarli hammasi o‘z boshidan kechirgan. Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixida ko‘rib chiqilganidek, qadimgi dunyo quldorlik jamiyati Sharq dunyosida vujudga kelib, Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy mamlakatlarida o‘zining yuksak taraqqiyotiga erishgan. Uning so‘nggi davrida yuksak rivojlanish markazi asta-sekin G‘arb dunyosiga ko‘chdi.

Feodalizm jamiyati esa xuddi shu insoniyat madaniyati tarixida muhim o‘rin tutgan Yevropa mamlakatlarida ayniqsa tez rivojlanib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Biz quldorlik jamiyati g‘oyalarining yuksalishini, unda paydo bo‘lgan qarama-qarshiliklarni, uning tanazzulini milodning V asridan boshlab, asosan, Rim quldorlik imperiyasi misolida o‘rganamiz. O‘rta asrlar tarixidagi eng muhim voqealar qatorida xristian va islom dinlarining paydo bo‘lishi va keng tarqalishini alohida ta’kidlash lozim.

G‘arb mamlakatlari feodal jamiyati, davlatchiligi hamda huquqshunosligida xristian dinining hukmron dinga aylanishi qanchalik ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, islom dinining yaratilishi va tarqalishi ham Sharq dunyosidagi yuksak madaniyatning vujudga kelishida shunchalik hissa qo‘shdi. O‘rta asrlar Renesansi, Uyg‘onish davrining jahon xalqlari madaniyatiga qo‘shgan hissasi benihoya katta.

O‘rta asrlarda dunyoning turli qismlarida ko‘pdan-ko‘p va turli ijtimoiy-iqtisodiy, davlat-huquqiy jarayonlar sodir bo‘lgan. Bu davrda feodalizmning butun dunyo miqyosida o‘rnatilishi quldorlik va ayniqsa, ibtidoiy-jamoa tuzumiga nisbatan progressiv hodisa bo‘ldi.

Feodalizmning kelib chiqishi dunyoning turli mintaqalarida mazmuni, shakli va paydo bo‘lish vaqti bo‘yicha turlicha yuz bergan. Dastlab qadimgi sivilizatsiya markazlari va tegishlicha davlatlar: Xitoydagi Xan podsholigida, Hindistondagi Guptalar davlatida, O‘rta Osiyodagi Kushon podsholigida, Erondagi Sosoniylar podsholigida va Mesopatamiyada asta-sekin yangi ishlab chiqarish usuli rivojlandi. Yevropada esa avvalo kechki Rim imperiyasida qulchilik munosabatlari yemirildi va ilk feodal elementlar tug‘ildi.

Ba’zi xalqlar feodalizmga va feodal davlatga bevosita ibtidoiy-jamoa tuzumidan quldorlikni chetlab o‘tgan. Bu jarayon kelt, german, slavyan, turk, mo‘g‘ul va ko‘pgina boshqa qabilalarda yuz bergan. Mazkur xalqlar mamlakatlarining tabiiy sharoitlari qadimgi sivilizatsiya mintaqalarinikiga

qaraganda ancha noqulay edi. Bu xalqlarda ishlab chiqaruvchi kuchlar ortiqcha mahsulotning paydo bo‘lishini ta’minlash darajasiga erishgan paytda ularda aholining o‘sishi boshlangan, sinfiy jamiyat va davlatning tug‘ilishi sezilib qolgan.

Feodalizm asoslarining shakllanishi quldorlik va urug‘doshlik jamiyatlari negizlarida vujudga kelgan “ilk feodal” elementlarni sintez qilish yo‘li bilan ham amalga oshgan. Bu holat sobiq Rim imperiyasining qo‘shni qabilalar tomonidan bosib olingan provinsiyalarida yuz bergan edi. Bu yerlarda, bir tomondan, quldorlik munosabatlarining, ikkinchi tomondan, bosqinchi qabilalarda urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi natijasida ilk feodal elementlarning shakllanishi yuz berdi.

Bosqinchi qabilalar Rimdagi dastlabki feodal munosabatlarga duch kelib unga moslashib ketgan edi. Feodalizmning vujudga kelishi insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarning umumiy taraqqiyotida ijobiy rol o‘ynadi. Lekin jarayonning salbiy tomoni bosqinchi qabilalar tomonidan ishlab chiqaruvchi kuchlarning ancha izdan chiqarilganligida, natural xo‘jalikka qaytishda, aholining katta qismi umumiy madaniy-ma'rifiy darajasining ancha pasayganligida namoyon bo‘ldi. Buning oqibatlari uzoq vaqt mamlakat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi va faqat bir necha asrlar mobaynidagina tugatildi.

Shuning uchun XV-XVII asrlardagi Yevropaning gumanist olimlari bu vaqtni Yevropa tarixining ”tongotari” deb hisoblab, uni Antik va Uyg‘onish davrlari oralig‘idagi ”o‘rta” davr deb ataydilar. Oqibatda, ”o‘rta asrlar” degan ibora kelib chiqib, u tarix fanida V-XVII asrlarga nisbatan qo‘llaniladigan bo‘lib qoldi.

Tarix fanida o‘rta asrlarni feodalizm[1] davri deb atash ham qabul qilingan.

Ushbu darslik muallif tomonidan 1999 yilda e’lon qilingan Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi) I qism darsligining mantiqiy davomi hisoblanadi. Kezi kelganda shuni ta’kidlash joizki, u 2000 yilning eng yaxshi darsliklaridan biri sifatida respublika tanlovida sovringa sazovor bo‘lgan edi.

O‘rta asrlar davlati va huquqi tarixiga bag‘ishlangan mazkur darslikda g‘arbiy, markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlaridan Franklar davlati, Fransiya, Germaniya, Angliya, Vizantiya hamda Rossiyada, Sharq mamlakatlaridan Arab xalifaligi, Xitoy, Yaponiya va Hindistonda o‘rta asrlardagi davlatchilik tarixi, huquqning rivojlanishi masalalari batafsil va

[1] **«Feodalizm»** iborasi birinchi marta 1789 yilgi Fransiya burjua inqilobi davrida fransuz adabiyotlarida qo`llanilgan va eski german termini «fedum»dan kelib chiqib, yer mulki ma'nosini anglatadi.

izchil, xronologik tartibda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida bayon qilinadi. Bunda har bir mamlakatning davlat va huquqi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, turkum mamlakatlar davlati va huquqi rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini yoritishga harakat qilinadi.

Darslikni yozishda fanning eng so‘nggi yutuqlaridan, juda ko‘p huquqshunos olimlarning asarlaridan, o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, tarixiy-huquqiy yodgorliklardan foydalanildi. Ushbu darslik o‘zbek tilida birinchi ishlardan bo‘lganligi sababli ayrim kamchiliklardan xoli bo‘lmasligi mumkin. Umid qilamizki, kitobxonlar bu haqdagi o‘zlarining xolisona fikr va mulohazalarini muallif bilan samimiy bahamlashadilar.

BIRINCHI BO‘LIM

O‘RTA ASRLARDA YEVROPA MAMLAKATLARI DAVLATI VA HUQUQI

I BOB. YEVROPADA O‘RTA ASRLAR DAVLATI VA HUQUQI XUSUSIYATLARI

Avvalo shuni aytib o‘tish kerakki, G‘arb va Sharq mamlakatlarida feodal yer mulkchiligini quldorlik davridagi mulkchilikdan farqlaydigan o‘ziga xos xususiyatlari bor. Masalan, G‘arb mamlakatlarida yerning oliy egasi monarx (qirol, knyaz, imperator) hisoblanib, boshqa feodallar undan xizmat evaziga yoki boshqa shartlar bilan yer olganlar. Ular esa bu yerni uchinchi shaxsga ma’lum shartlar evaziga berganlar. Yer bergan feodal syuzeren, olgani esa vassal deb atalgan. Shunday qilib, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida yerga egalik qilishning o‘ziga xos xususiyatlari uning ierarxik (pog‘onama-pog‘ona) xarakterida bo‘lib, bu hodisa maxsus shartnomalar (investitura)da ifodalanadigan syuzerenitet-vassalitet munosabatlarini tug‘dirgan.

Sharq mamlakatlarida bunday egalik bo‘lmay, yer davlat mulki hisoblanardi. Yirik yer egalari davlatga bo‘ysunardilar, dehqonlar va hunarmandlar esa bevosita davlatga renta-soliq to‘lardilar.

Yerga nisbatan davlat mulkchiligining mavjudligi o‘rta asr Sharqida davlatning nisbatan markazlashishida muhim omil hisoblangan, lekin XVI-XVIII asrlarga kelib kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishiga to‘siq bo‘lib qolgan.

Jamiyatning bazisida feodal munosabatlar o‘rin olgach, uning siyosiy ustqurmasida ham bazisning xarakterini ifodalaydigan o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Feodal ishlab chiqarish munosabatlarining taraqqiy etishi bilan davlatchilik ham rivojlandi. Yevropada bu jarayon asosan quyidagi to‘rtta: ilk feodal monarxiyasi, senorlik monarxiyasi (feodal tarqoqlik), tabaqa-vakillik monarxiyasi va mutlaq monarxiya bosqichlaridan o‘tdi. Biroq bu bosqichlarni hamma Yevropa mamlakatlari bir vaqtda va to‘liq bosib o‘tmadi. Har bir mamlakat milliy tarixining o‘ziga xos xususiyatlari ham ana shundan kelib chiqadi.

Shuni ko‘rsatib o‘tish joizki, Sharq mamlakatlari o‘z taraqqiyotida bunday davrlarni to‘liq bosib o‘tmadi. Ko‘pchilik olimlar ko‘rsatishicha,

Sharq feodal davlatlari tashkil topgan vaqtidan boshlaboq mutlaq monarxiya shaklida bo‘lib, bu davr uzoq davom etdi.

Feodal jamiyatida va uning siyosiy tashkilotlarida cherkov mafkurasi katta rol o‘ynab, dindorlar imtiyozli tabaqa hisoblangan. Sharqiy va G‘arbiy Yevropada xristianlik, Osiyoning bir qancha mamlakatlarida islom, Xitoy, Yaponiyada konfutsiylik va buddizm hukmron diniy mafkura hisoblangan.

Xristianlik Yevropada yagona din bo‘lib, u kishilarning butun hayotini o‘ziga bo‘ysundirgan, kishilar tug‘ilganidan to vafot etganlariga qadar cherkov nazorati ostida bo‘lganlar. Xristianlik, garchi kambag‘al va qullarning dini sifatida vujudga kelgan bo‘lsa ham, keyinchalik u butun G‘arbiy Yevropaga yoyildi. 325 yilda xristian cherkovning birinchi sobori (yig‘ilishi) chaqirildi. 1054 yilda Rim va Konstantinopol cherkovlari o‘rtasidagi asriy nizolar tugab, xristianlikda uzil-kesil ikkita cherkov, ikkita mazhab-pravoslaviye va katolitsizm qaror topdi. 1232 yilda Rim papasi dahriylarga oid ishlarning barchasini dominikan-monaxlar jamoasi hal etishi to‘g‘risida farmoyish chiqardi.

1252 yilda endigina shakllanayotgan inkvizitsiya - cherkov sudiga tergov qilishda qiynash usulini qo‘llashga ruxsat berildi. Ana shu tariqa o‘rta asr cherkov inkvizitsiyasi (sudi) tashkil topdi va u dahriylik, folbinlik, dindan qaytish, yaqin qon-qarindoshlarning nikohga kirishlari, bevafolik, yolg‘on guvohlik, tuhmat, hujjatlarni qalbakilashtirish, og‘irlik va uzunlik o‘lchovlarini soxtalashtirish, sudxo‘rlik, shuningdek, nikoh-oila munosabatlaridan kelib chiqadigan barcha ishlarni o‘z sudloviga oldi. Inkvizitsiya sudi, ayniqsa, o‘rta asr Ispaniyasida ko‘plab odamlarni yoqib yuborishga hukm etdi[2].

1481 yilda Ispaniyada ”ilohiy tribunal” tuzildi. Bosh inkvizator Chorkvemada faoliyat ko‘rsatgan 15 yil ichida 8220 kishi dahriylikda ayblanib, yoqib yuborildi, 89326 kishi boshqa jazolarga hukm qilindi. Volterning ma’lumotlariga qaraganda, G‘arbiy Yevropada 100 mingdan ortiq kishi folbinlik, xudosizlikda ayblanib yoqib yuborildi. Bularning ichida Fransiyaning milliy qahramoni Janna D’Ark, Uyg‘onish davrining buyuk olimi Jordano Bruno, chex gumanisti Yan Gus va boshqalar bor[3].

G‘arbiy Yevropa shaharlari X-XI asrlarda savdo va hunarmandchilik markazlariga aylanadi. Shaharlar dastlabki vaqtlarda diniy va dunyoviy feodallar yerlarida tashkil topganligi uchun ularga qaram edi. Ko‘p vaqt

[2] **Qarang:** Хрестоматия памятников феодального государства и права.-М.:Госюриздат, 1961.-505- bet.
[3] **Qarang:** Анашкин Г.С. Смертная казнь в капиталистических государствах. Историко-правовой очерк.-М.:Госюриздат, 1971.-25-bet.

o‘tmay ular o‘z erkinliklarining siqib qo‘yilishiga qarshi kurash natijasida mustaqillikni qo‘lga kiritadi va ayrimlari hatto respublika shaklidagi shahar-davlatlarga aylanadi (Italiyada). Ayrimlari o‘zini-o‘zi boshqarish huquqini qo‘lga kiritadi (Angliyada), ayrimlari esa imperiya erkin shaharlari maqomini oladi (Germaniyada). Shaharlarning eng muhim yutug‘i barcha fuqarolar erkinligining tan olinishi edi.

«Agar krepostnoy, - deyiladi shahar yorliqlarida, - shaharda bir yilu bir kun yashasa, shu vaqt uning xo‘jayini unga bo‘lgan egalik huquqini da’vo qilmasa, u ozod hisoblanadi».

Dvoryanlardan o‘zini himoya qilish hamda shahar soliqlarini tengroq taqsimlash maqsadida shahar aholisi ittifoqlarga birlasha boshlaydi. Hunarmandlar o‘zlarining sexlarini, savdogarlar esa o‘z gildiyalarini tuzadilar. O‘rta asr sexlari bir kasbdagi Hunarmandlar ittifoqidir. Har bir sex, gildiya o‘z ustavi va oqsoqoliga, shuningdek, sudiga ega edi. Sexlarning tuzilishi feodalizmning qonuniy natijasidir. Shuning uchun ham sexlar faqat G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagina emas, Yaponiya, Xitoy, O‘rta Osiyoda ham o‘ziga xos ko‘rinishlarda uchraydi.

Yevropada XVI asrga kelib feodalizmning inqirozi belgilari namoyon bo‘la boshlaydi. Antifeodal inqiloblarning yaqinlashishi bilan davlat va huquq tizimining yangi demokratik tamoyillarini asoslovchi va bunda ko‘pincha antik demokratiya tajribasini misol tariqasida ko‘rsatuvchi siyosiy-huquqiy ta’limotlar rivojlandi.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlari davlatlarining rivojlanishi bilan birga ularning huquqiy tizimlari ham rivojlanib bordi. Feodal tarqoqlik davrida bu jarayonning muhim belgisi huquq «partikulyarizmi”[4], ya’ni butun mamlakat uchun yagona huquqning yo‘qligi edi. Huquq ”partikulyarizmi”ning bartaraf etilishi, ayniqsa, tabaqa-vakillik monarxiyasi davridan boshlab jadallashdi. G‘arbiy Yevropaning qit’a qismi mamlakatlarida huquq shakllarining o‘zaro yaqinlashuvi yuz beradi. Angliya feodal huquqi alohida, mustaqil holda rivojlanib bordi. Shu tariqa, tez orada G‘arbiy Yevropa huquqi ikkiga: ingliz-sakson huquqi va qit’a huquqiga ajralishi belgilari namoyon bo‘la boshladi.

Sharqda o‘rta asrlardagi yirik mamlakatlarning feodal davlati va huquqi tarixi boshqacharoq bo‘lgan. Bu yerda asosan kuchli byurokratik davlat apparatiga asoslangan despotik boshqaruv shakli saqlanib qoldi. Monarx hokimiyatini amalga oshirishdagi ba’zi milliy farqlar asosan uning

[4] **Partikulyarizm –** lotincha “bo`lak”, “qism” so`zlaridan olingan bo`lib, bu yerda bir mamlakat ichidagi provinsiyalar, knazliklar va shaharlar huquqining turli-tumanligi va xilma-xilligi ma'nosida ishlatilmoqda.

mazmuni va mohiyatini o‘zgartirmasdi. Bu yerda davlat boshlig‘i umuman har doim mamlakatdagi butun yerlarning oliy egasi sifatida maydonga chiqdi. Uning bu huquqi avloddan-avlodga meros tariqasida o‘tib turardi. Bundan tashqari, Sharqda yer egaligi munosabatlarida jamoa yer egaligining uzoq vaqt saqlanib qolganligi va turg‘un xarakterga ega bo‘lganligini kuzatish mumkin. Ekspluatatsiyaning asosiy shakllari, birinchi navbatda polizchi-dehqonlardan hukmron sinf foydasiga renta solig‘i olish teng darajada saqlanib qolgandi.

Shaharlarda kustar ishlab chiqarish va savdo rivojlandi. O‘sha vaqt uchun takomillashgan buyumlar, yirik arxitektura inshootlari va boshqa shoh san’at asarlari yaratildi, ko‘p ixtirolar qilindi. Hatto bu sohada o‘z davridan odimlab ketish hollarini ko‘ramiz. Lekin shahar mahsuloti asosan hukmron sinf ehtiyojlarini qondirish va tashqi savdo uchun ketgan. Qishloq jamoalari asosan natural, turg‘un xo‘jalik yuritib, faqat ichki bozorni rivojlantirgan, tovar ishlab chiqarishning o‘sishiga moslashmagan va oqibatda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga to‘sqinlik qilgan. Bu, albatta, mutlaq turg‘unlikni anglatmaydi, jamiyat asta-sekin bo‘lsa-da rivojlanishda davom etdi.

Tabiiyki, feodalizm taraqqiyoti davri faqat ijobiy voqealardan tashkil topmadi. Insoniyat tarixidagi hech qanday jamiyatda hukmron sinf vakillarining shaxsiy erkinliklari va huquqlari feodal jamiyatdagi kabi cheksiz xudbinlik darajasiga ko‘tarilmagan. O‘z navbatida, hech qachon oddiy fuqarolarning ahvoli ham feodalizmdagi kabi og‘ir va tahqirli bo‘lmagan. Insoniyat tarixidagi hech bir davrda mavjud qonunlar va tartiblar feodalizmdagi kabi faqat zaiflar tomonidan bajarilishi talab qilingan jamiyatni uchratmaymiz. O‘rta asrlarda jahon xalqlari o‘z boshlaridan ko‘plab kulfatlarni: ocharchilik, o‘latlar, urushlar va talonchiliklarni kechirdi. Ular o‘zlarining tahqirli, og‘ir hayotlarini o‘zgartirish uchun qo‘zg‘olonlar uyushtirdilar. Bularning oqibati o‘laroq o‘rta asrlarga va o‘z navbatida, absolut monarxiya tuzumiga chek qo‘ygan ingliz va fransuz inqiloblari singari inqiloblar natijasida insoniyat yangi davrga qadam qo‘ydi.

II BOB. FRANKLAR DAVLATI VA HUQUQI (V asr - IX asrning birinchi yarmi)

- ***Franklar davlatining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari.***
- ***Franklar davlatining ijtimoiy tuzumi.***
- ***Franklarning davlat tuzumi.***
- ***Franklar davlatida huquqning asosiy belgilari.***

1. Franklar davlatining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari

Ma’lumki, varvarlarning Rim imperiyasiga bo‘lgan munosabati IV asr oxirlariga kelib juda keskinlashib ketgan edi. Imperiyaning zaiflashuvi varvar qabilalariga imperiya chegarasidan deyarli bemalol o‘tib, uning hududini egallab olish uchun imkon berdi. Imperiya varvarlarning siquvini yana bir oz vaqt to‘xtatib tura olar edi, lekin u ittifoqchilar tarzida xizmat qilayotgan varvarlarning o‘zini yordamiga tayangan chog‘dagina shunday qila olar edi. Ammo ittifoqchilarning dushmanga aylanishi oson edi: buning oldini olish uchun imperiya ularga tobora ko‘proq yon berishga majbur bo‘lmoqda edi.

German qabilalari II-IV asr o‘rtalarida o‘zlarining ishlab chiqarish kuchlarini ancha rivojlantirdilar. Ular o‘z yerlarini Sezar va Tatsit zamonidagidan yaxshiroq ishlay boshladilar. Ularda hayvonlarning nasli (jumladan, otlarning nasli) yaxshilandi. Hunarmandchilik taraqqiy etdi. Chegara viloyatida yashovchi germanlar rimlik savdogarlar bilan savdo-sotiq qila boshladilar. Varvarlarning aholisi tobora ko‘payib borayotganligi sababli yer masalasi juda keskin masala bo‘lib qoldi. Varvarlar aholining oshib-toshib ketayotganligini sezmoqda edi. Ular imperiyaning serhosil va qisman butunlay ishlov berilmagan yerlarini ishg‘ol qilishga intildilar. Butun bir varvar qabilalarining Rim imperiyasiga qarshi keskin kurash olib borishiga olib kelgan eng muhim va asosiy sabab yer tanqisligi edi.

Bu vaqtga kelib german qabilalarining ichida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. German jamiyatining tobora ko‘proq tabaqalanib borishi – zodagonlarning ajralib chiqishi, ularga qaram bo‘lgan kishilar sonining ko‘payishi va hokazolar bilan bir qatorda, qabilalarning katta-katta ittifoqlarga birlashuvi jarayoni ham yuz bermoqda edi. Quyi Reynda ham birlashuv jarayoni vujudga kelayotgan edi. Quyi Reynda hamda Yutlandiya yarim orolida ingliz-saks qabilalari birlashmasi; O‘rta Reynda frank qabilalari ittifoqi; Yuqori Reynda allemanlar ittifoqi; Elbada va Elbaning

narigi tomonida langobardlar, vandallar, burgundlarning ittifoqlari tashkil topdi. Bundan ilgariroq gotlarning ikkita ittifoqi - vestgotlar ittifoqi va ostgotlar ittifoqi vujudga kelib, bularning har biri Dunay va Qora dengiz boʻyi hududida koʻp qabilali davlat tashkil qilgan edi.

IV asrning oxirlaridan boshlab va, ayniqsa, V asrda varvarlar yoppasiga Rim imperiyasi hududiga qarab yoʻl olib, uni asta-sekin istilo qila boshladilar. Toʻgʻri, bu istilo qilish qariyb butun bir asrga choʻzildi. Gʻarbiy Rim imperiyasi tobora qulab borayotgan edi. Chunki varvarlar imperiyani istilo etish bilan bir vaqtda imperiya hududiga oʻzlarining butun oilalari, uy anjomlari, sigir-buzoqlari va hokazolari bilan koʻchib kelib, oʻrnashayotgan edi. Shuning uchun IV asrning oxiri va V asrning hammasini oʻz ichiga olgan bu davrni tarixchilar odatda Xalqlarning buyuk koʻchishi davri deb ataydilar.

V asr oxiriga kelib germanlar Gʻarbiy Rim imperiyasi hududiga: vandallar Shimoliy Afrikaga, vestgotlar (Gʻarbiy gotlar) Ispaniyaga, ostgotlar (sharqiy gotlar) Italiyaga, franklar Galliyaga, inglizlar bilan sakslar Britaniyaga joylashdilar. Germanlar shu joylarda oʻz davlatlarini barpo qildilar.

Rim imperiyasi hududida tuzilgan varvar qirolliklari ichida eng kattasi va kuchlisi franklar qirolligi edi. Franklar bora-bora burgundlarni boʻysundirdilar. Galliyadan vestgotlarni surib chiqardilar. Italiyada langobardlarni zabt etdilar va Reynning narigi tomonidagi german qabilalarining deyarli hammasini oʻzlariga itoat ettirdilar.

Franklarning oʻzlari ham dastlab Reynning narigi tomonida yashar edilar. Ularning ota-bobolari Tatsitning asarida har xil nomlar bilan, chunonchi, xamavlar, sukabrlar, batavlar va boshqa nomlar bilan atalgan. ”Frank” degan nom (bu soʻzni ”jasur”, ”erkin” deb tarjima qilishadi) III asrning oʻrtalaridagina paydo boʻlib, qandaydir bitta qabila emas, balki Reynning oʻrta va quyi oqimlarida yashagan butun bir guruh german qabilalariga taalluqli umumiy bir nom edi, bu qabilalar dastlab Reyn daryosining oʻng qirgʻogʻida yashardilar. Dastlab ular rimliklarga nisbatan dush-manlik munosabatida boʻldilar, keyin bu munosabat ancha doʻstona munosabatga aylandi. 451 yildagi Katalaun jangida ittifoqchilar federatlar sifatida rimliklar tarafida turib gunnlarga qarshi urushdilar. Oʻsha vaqtdayoq ular katta-katta ikki guruhga boʻlingan boʻlib, bir guruhi (ular Reynning quyi oqimida yashardilar) dengiz boʻyi franklari yoki sali franklari deb (lotincha ”salum” - dengiz soʻzidan), ikkinchi guruhi Reynning oʻrta oqimida (har ikki qirgʻoqda) yashagan franklar - qirgʻoq franklari yoki

ripuar franklari deb (lotincha “ripa”- qirg‘oq so‘zidan) atalar edi. Bulardan eng kuchlisi sali franklari bo‘lib, ular Galliyaning G’arbiga qarab bordilar.

Franklar milodning IV asrlarida Rim imperiyasining Galliya viloyatiga ko‘chib kela boshlagan. V asrda G‘arbiy Rim imperiyasining ag‘darilishi bilan franklar uning hududida o‘z qirolliklarini barpo etib, o‘z hududlarini kengaytirib boradilar. Rim yerlarini bosib olish natijasida franklarda davlatning tashkil topish jarayoni nihoyasiga yetadi. Biroq bu yerda urug‘-doshlik tuzumi birdaniga yo‘qolib ketmadi.

Franklar bosib olgan yerlarni boshqarish uchun boshqaruv organlari tashkil etishlari zarur bo‘lib qoldi. Endilikda eski urug‘doshlik organlari - oqsoqollar kengashi, xalq lashkarboshilari Rim imperiyasi yerlarini boshqarishga to‘g‘ri kelmay qolgan edi. Lashkarboshining hokimiyatini kuchaytirish zaruriyati kelib chiqadi. Oddiy lashkarboshi endi haqiqiy yakka hokimga - qirolga aylana boradi. Qirol urug‘doshlik tuzumi sharoitidagi urug‘ jamoalariga tegishli mol-mulklarni o‘ziniki qilib ola boshlaydi. Xalq mulkini tortib olib, hadya va mukofot sifatida o‘z yaqinlariga, askarlariga va xizmatkorlariga ulashib beradi.

Sali franklarining Merovinglar sulolasiga mansub qiroli Xlodvigning podsholik tarixi (481-511yillar) franklar hayotida ro‘y bergan katta-katta o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Xlodvig barcha frank qabilalarini birlashtirib, 486 yilda Galliyani istilo qiladi. Rimning bu viloyati hali varvarlar tomonidan zabt etilmagan bo‘lib, Rim imperiyasi qulagandan keyin Shimoliy Galliyaning amalda qiroli bo‘lib qolgan Siagriy degan rimlik mahalliy magnat tomonidan idora qilinardi, bu viloyatning markazi Parij edi. Siagriy franklarga sal bo‘lsa-da, jiddiy bir qarshilik ko‘rsata olmadi. Suasson shahriga yaqin joyda shiddatli jang bo‘ldi. Rim qo‘shinlari franklar tomonidan tor-mor etildi.

Xlodvig katta va muhim hududni - Sena va Luara daryolari havzasini zabt etib, franklarga mo‘l-ko‘l yerni taqsimlash imkoniga ega bo‘ldi. Daryolari juda ko‘p, yeri serhosil, dehqonchilik uchun qulay va qayinzor o‘rmonlarga boy bo‘lgan keng, lekin rimliklar vaqtida huvullab qolgan bu hududga boshdan-oyoq franklar ko‘chib keldi.

90-yillarning o‘rtasida Xlodvig va uning drujinasi tomonidan, keyinroq esa oddiy franklar va ularning oila a’zolari tomonidan xristianlikning qabul qilinishi Franklar qirolligining yanada rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Galliya va Rimdagi e’tiborli mahalliy ruhoniylar Xlodvigni va boshqa Frank qirollarini zo‘r berib qo‘llab-quvvatladilar. Bu narsa franklarning Galliya janubidagi qolgan yerlarni - Vestgotiya va Burgundiyani bo‘ysundirishini ancha osonlashtirib, franklarning o‘z orasi-

dan ham qirol hokimiyati ta’sirining ortishiga yordam berdi. Xlodvig qolgan barcha sali va ripuar qirollarini sekin-asta qira borib, juda katta yangi qirollikning yakkayu yagona qiroli bo‘lib oldi, u (Reynning narigi tomonidagi yerlardan tashqari) Galliyaning to‘rtdan uch qismini o‘z ichiga olar edi.

Xlodvigning o‘g‘il va nevaralari qirollikni tez-tez taqsimlab va qayta taqsimlab turishlariga, doimo o‘zaro urushlar olib borishlariga qaramay, qirollikning chegaralarini kengaytirishni davom ettirdilar. 534 yilda ular Burgundiyani zabt etdilar, 542 yilda vestgotlarning Galliyadagi oxirgi yerlari ham bosib olindi, Reynning narigi tomonida esa Alemaniya, Tyuringiya, Bavariya hamda saks qabilalarining ba’zilari franklarga bo‘ysundi. VI asrning ikkinchi yarmida Franklar qirolligi barcha varvar qirolliklari ichida eng katta qirollik edi. Ilgari Teodorix davrida ostgotlar qo‘lida bo‘lgan gegemonlik endi franklar qo‘liga o‘tdi.

Merovinglar sulolasi deb nom chiqargan Xlodvig sulolasi o‘zaro urushlar natijasida zaiflashib bordi. Ayniqsa bu Xlodvigning nevara va evaralari o‘rtasidagi qirq yillik urushda juda bilinib qoldi. Qirol Dagoberg (629-639-yillar) mamlakatni qisqa vaqt birlashtirib turishiga qaramay, franklar monarxiyasi inqirozga yuz tuta boshladi. Qirol davlat yerlarining tobora tarkana qilishi, o‘z askarlariga taqsimlayverishi natijasida uning hokimiyati kuchsizlanib, yer egalarining (yer magnatlarining) hokimiyati kuchayib ketdi. Dagoberg o‘lganidan keyin shunday bir davr boshlandiki, 639-751 yillar o‘rtasidagi butun bir davrni o‘sha vaqtdagi kishilarning o‘zlari ham “yalqov qirollar” davri deb atagandilar.

VII-VIII asrlarda Merovinglar faqat nomigagina qirol bo‘lib, ularning haqiqiy hokimiyati yo‘q edi. Ularning qo‘lida qirol yerlarining ozgina qismigina qolgandi. Butun ma’muriy, sud va harbiy hokimiyatni mahalliy magnatlar tortib oldi. Neystriya, Burgundiya va Avstraziyada eng yirik zodagon xonadonlar yetishib chiqib, ular o‘z yurtlarida qirol mayordamlari sifatida butun hokimiyatni o‘z qo‘llariga oldilar. Bir vaqtlar, ya’ni dastlabki Merovinglar davrida qirol saroyida eshik og‘asi lavozimida ishlagan kishi mayordam (lug‘aviy ma’nosi: ”xonadon og‘asi”), ya’ni saroy boshlig‘i deb atalardi. Endi esa mayordamlik haqiqatda parchalanib ketgan Frank davlatining ayrim bo‘laklarida joriy etilgan eng yuqori ma’muriy mansab bo‘lib qolgandi.

Davlatni boshqarishda mayordamlar - saroy boshqaruvchilari hal qiluvchi rol o‘ynay boshladilar. Mamlakatni chuqur inqirozdan saqlab qolishda Avstraziya mayordamlari - Pipinidlar katta rol o‘ynadi. Ayniqsa, mamlakatni siyosiy jihatdan qayta birlashtirishda mayordam Karl Martell

(”To‘qmoq”) hal qiluvchi o‘rin tutdi. U 715 yildan 741 yilgacha mamlakatni idora etib, qirol hokimiyatini mustahkamlash borasida juda katta ishlar qilgan, bir qancha islohotlar o‘tkazgandi. Natijada qirol hokimiyati ancha kuchaydi va mamlakatning qurolli kuchlari mustahkamlandi.

Karl Martellning taxt vorisi Pipin III Pakana (741-768 yillar) ham avval faqat mayordam unvoni bilan yurdi. Meroving qirollari odatdagi tartib bilan biri o‘rniga ikkinchisi kelib turdi, lekin ular davlatni idora qilishda hech bir qatnashmas edilar. Nihoyat, Pipin davlat o‘zgarishi yasab, har qanday hokimiyatdan mahrum bo‘lgan eski sulolani taxtdan tushirdi. Bu o‘zgarish Rim papasining faol yordami bilan amalga oshirildi.

751 yilda Suasson shahrida frank zodagonlari yig‘ilishida Pipin frank qiroli deb e’lon qilindi. Shu vaqtdan boshlab yangi sulola - Korolinglar sulolasiga asos solindi. Pipin o‘z siyosati bilan frank qirolligining ravnaqi uchun zamin tayyorladi. Uning o‘g‘li Buyuk Karl davrida Franklar davlati imperiyaga aylandi.

Buyuk Karl Karolinglar sulolasining eng atoqli namoyandasi edi (sulola ham uning nomi bilan atalgan). U 46 yil (768-814 yillar) hukmronlik qildi. Buyuk Karl katta sarkarda va istilochi edi. Tarkib topayotgan Franklar davlati Buyuk Karl davrida juda katta agressiv siyosat yurgizildi. Juda ko‘p joylarni istilo qilib, Buyuk Karl ulkan va qudratli davlatga boshliq bo‘ldi. Rim imperiyasi qulagandan keyin G‘arbiy Yevropada Buyuk Karl davlatidek katta davlat dunyoga kelmagan edi: bu davlat franklardan tashqari o‘nlab boshqa qabila va xalqlarni o‘z ichiga olgandi.

Frank qiroli qo‘li ostidagi yerlarning juda kengayib ketishi, tabiiy, Buyuk Karl va uning maslahatchilarini qirol unvonini (titulini) o‘zgartirish to‘g‘risida o‘ylashga majbur qildi. 800 yilda Buyuk Karl Rimda bo‘lgan vaqtida papa unga ”rimliklar imperatori” tojini kiydirdi va shu tariqa Buyuk Karl imperator deb e’lon qilindi. Ammo bu uncha mustahkam imperiya emas edi. 814 yilda Buyuk Karl 72 yoshida vafot etganidan so‘ng uning imperiyasi uzoq umr ko‘rmadi. Bu ilk o‘rta asr harbiy-feodal monarxiyasi bo‘lib, unda chinakam markazlashuv uchun yetarli darajada iqtisodiy baza yo‘q edi. Natural xo‘jalik hukmronligi, ayrim viloyat va tumanlarning va hatto, ayrim pomestelarning ham biqiqligi, shaharlar va savdoning kam rivojlanganligi imperiyaning muqarrar tarzda parchalanib ketishiga sabab bo‘ldi.

843 yilgi Verden shartnomasiga ko‘ra Franklar davlati bo‘linib ketdi va Galliya (Fransiya), Bovariya va boshqa yerlar imperiyadan ajralib chiqdi. Oqibatda bu yerlar Germaniya va nihoyat Italiya davlatlari tarkibiga kirdi. Franklar davlati shu tariqa o‘z umrini o‘tab bo‘ldi.

Shunday qilib, franklarning bosqinchilik urushlari ularda davlatning tashkil topish jarayonini tezlashtirdi. Franklarda davlat tashkil topishining asosiy sabablari erkin jamoaning yemirilishi, uning sinfiy tabaqalanishi boʻldi. Ularda bu jarayon yangi eraning birinchi asrlaridayoq boshlanib ketgan edi.

Franklar davlati boshqarish shakli boʻyicha ilk feodal monarxiyasi edi. U ibtidoiy jamoa tuzumidan qulchilikni chetlab, feodal jamiyatga oʻtish yoʻli bilan vujudga keldi. Shu sababli franklar jamiyati koʻp uklad-liligi (quldorlik, urugʻdoshlik, jamoachilik, feodal munosabatlarning qoʻ-shilib ketganligi), feodal jamiyat asosiy sinflarining tashkil topish jarayoni nihoyasiga yetmay qolganligi bilan tavsiflanadi. Shu tariqa ilk feodal dav-latda eski jamoa tashkilotlarining muhim qoldiqlari, qabilaviy demok-ratiya muassasalari saqlanib qolgan edi.

Franklar davlati oʻz rivojlanishida ikkita asosiy bosqichni bosib oʻtdi. Birinchi bosqich V asrning oxiridan VII asrning oxirigacha boʻlgan davrni, ikkinchi bosqich esa VIII asrdan IX asrning oʻrtasigacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu ikki davr faqat ikki hukmron sulolaning almashishi (Merovinglar oʻrniga Korolinglarning kelishi) bilangina ajralib turmaydi. Ikkinchi bosqich frank jamiyatining chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qayta qurilishini boshlab bergan yangi bosqich boʻlganligi bilan tavsif-lanadi. Buning natijasida asta-sekin senorlik monarxiyasi shaklidagi feodal davlati shakllandi.

Ikkinchi davrda asosan yirik feodal yer egaligining, feodal jamiyat-ning ikki asosiy sinflari: feodallar va ularga qaram dehqonlarning tashkil topishi nihoyasiga yetadi.

2. Franklar davlatining ijtimoiy tuzumi

Franklarning V asr oxiri - VI asr boshlaridagi ijtimoiy tuzumi haqida oʻsha davrning muhim huquqiy yodgorligi -”Sali haqiqati”-”Lex Salia” (500-yil atrofida yozilgan) anchagina ma’lumotlar beradi. ”Sali haqi-qati”ga asoslanib, franklarning asosiy mashgʻuloti dehqonchilik boʻlgan, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki undagi bir qancha moddalar erkin franklarning ekin yerlari, turli xildagi dehqonchilik qurollari, ish hayvon-lari boʻlganligidan, boshoqli oʻsimliklar yetishtirganligidan dalolat beradi.

Franklar xoʻjaligida chorvachilik (ayniqsa, choʻchqa boqish) ham katta rol oʻynagan. ”Sali haqiqati”da yana baliqchilik, asalarichilik, bogʻ-dorchilik va dehqonchilikka oid boʻlgan asosiy hunarlar toʻgʻrisida ham gapiriladi. Unda dehqonning hovlisi va bu hovlidagi har turli xoʻjalik bino-

lari, asbob-uskunalar to‘la tasvirlab berilgan. Jamoa a’zosi bo‘lgan frank dehqonlari shaxsiy mulk tarzida tomorqa yerga ega bo‘lganlar, jamoaga qarashli bo‘lgan dalada ma’lum yer uchastkalarini ishlaganlar, jamoaga qarashli keng o‘rmon va yaylovlardan birgalikda foydalanganlar. ”Sali haqiqati”da yerni sotish va sotib olish to‘g‘risida, uni birovga in'om qilish yoki vasiyat yo‘li bilan boshqa kishiga topshirish to‘g‘risi da hech narsa deyilmaydi. Darhaqiqat, franklarda yer o‘sha vaqtda xususiy mulk emas edi. Yer jamoa tashkilotining mulki bo‘lib, ayrim frank o‘z yer uchastkasidan ma’lum shartlar asosida foydalanardi, xolos. Hosil yig‘ib olingandan keyin dalalarda hamma birgalikda mol boqardi.

”Sali haqiqati”da o‘rmon va yaylovdan, suvdan birgalikda foydalanish haqida gapirilgan moddalar bor. Qishloq jamoasi (marka) ushbu qonunnomaga ko‘ra, o‘z hayotining ilk bosqichida hali mutlaqo urug‘chilik tuzumiga xos belgilarga ega edi. ”Sali haqiqati”ga ko‘ra, urug‘ jamoaga qarashli yerlarning asosiy egasi bo‘lish bilan birga, yana siyosiy tashkilot ham edi. Urug‘ a’zolarining hammasi kafillikda qatnashardi, ya’ni sudda aybdor qarindoshi uchun kafolat berardi. Qotillik uchun to‘lanadigan xunning (vergeldning) faqat bir qisminigina qotilning oilasi to‘lardi. Buni urug‘ a’zolari ham to‘lashi lozim edi. Shuningdek, vergeld ham o‘ldirilgan odamning oilasi bilan urug‘ o‘rtasida taqsimlanardi. Er urug‘dan tashqariga chiqib ketmasin uchun yerni ayollarga berish yoki meros qilib qoldirish taqiqlangan edi. Farzandsiz frank o‘lsa, uning yeri aka-ukalariga va o‘zining urug‘idagi boshqa erkak qarindoshlariga o‘tar edi.

Biroq "Sali haqiqati” urug‘chilik tuzumining yemirila boshlaganligidan ham dalolat beradi. Vorislik va kafolat huquqidan voz kechib, urug‘-dan chiqish mumkin edi. Franklarda ijtimoiy va mulkiy bo‘linish (tabaqalanish) ochiq ko‘rinib turardi. Birinchi o‘rinda qirol drujinachilari turardi, bularning vergeldi (xuni) 600 solid[5] belgilangan edi. Oddiy erkin frankning joni uchun faqat 200 solid vergeld to‘lanardi. Yarim erkin kishining - litning vergeldi esa 100 solid edi. Qulni o‘ldirganlik uchun quldorga 30 solid, ya’ni urushda miniladigan otni o‘g‘irlaganlik uchun qancha to‘lansa, qul uchun ham o‘shancha to‘lanardi. Shunisi xarakterliki, rimlikni o‘ldirganlik uchun to‘lanadigan vergeld franknikidan kam edi.

Yirik pomestelar bo‘lgan-bo‘lmaganligi ”Sali haqiqati” da ochiq aytilmagan. Lekin, ba’zi bir alomatlarga (xonaki hunarmandlar sonining ro‘yxatiga, qullar sonining juda ko‘pligiga va boshqalarga) qarab fikr yuritganda, V-VI asrlardayoq erkin frank qishlog‘i bilan bir qatorda yirik

[5] **Solid –** Rim-Vizantiyada chiqqan oltin tanga bo`lib, IV-VI asrlarda franklar o`rtasida ham yurgan.

yer egalarining pomestelari ham bo‘lgan. Katta yer egalari qirolning o‘zi, uning drujinachilari, yuqori tabaqa ruhoniylari va qisman yerlarni saqlab qolgan hamda saroy ahliga yaqin bo‘lgan (”Sali haqiqati”da aytilishicha, ”qirolning hamtovoqlari” bo‘lgan) rimlik yer egalari edi. Shunday bo‘lishiga qaramay, bu davrdagi frank jamiyatida asosiy figura erkin frank edi, u qishloq jamoasining to‘la huquqli a’zosi, jamoa yerining egasi, yirik yer egasiga qaram bo‘lmagan mustaqil, erkin dehqon edi.

Franklarda ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi feodal jamiyatining ildizlari paydo bo‘lishi bilan birga kechdi. Jamiyatning feodallashish jarayoni Vasrning oxirlaridan boshlanib, taraqqiy eta bordi. Asta-sekin yer egalari paydo bo‘ldi va mahalliy aholiga nisbatan siyosiy hokimiyatga ega bo‘lib bordi. Erkin franklar qaram dehqonlarga aylandi.

VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab franklar jamiyatida keskin o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Qirollar yurishlarda qo‘lga kiritilgan yerlarni o‘z drujinachilariga, yaqinlariga va saroy amaldorlariga taqsimlab turgan.

Bu vaqtda yer bemalol qo‘ldan-qo‘lga o‘tishi mumkin bo‘lgan xususiy mulkka aylanadi, ya’ni mulkdor uni o‘z xohishi bilan sotar, alishtirar, sotib olar, boshqa birovga taqdim qilar yoki vasiyat qilib qoldirardi. Bunday yerlarning egalari qirol foydasiga majburiyatlar o‘tashdan ozod qilingan va hech qanday xizmat ham o‘tab bermas edilar. Bunday tartibdagi yer egaligi shakli allod deb yuritilgan.

Ana shunday sharoitda dehqonlarning bir qismi tezlik bilan o‘z yeridan ajrala bordi. Ocharchilik, mollarning qirilishi va boshqa xil stixiyali ofatlar, Xlodvigning o‘g‘illari, nevara va evaralari o‘rtasida uzoq vaqt davom etgan urushlar natijasida mamlakatning xarob bo‘lishi, urug‘-chilik aloqalarining yemirilishi tufayli ayrim oilalar bo‘yniga tusha boshlagan sud jarimalari - mustaqil frank dehqonini xonavayron qildi. Dehqonlarning mayda yer egaligi yemirilib, tushkunlikka uchragan bir vaqtda, yirik dunyoviy va cherkov yer egaligi avj oldi.

Xlodvigning vorislari qirol yerlarini benefitsiy (aynan tarjimasi: ”xayr”, ”saxovat”) tarzida o‘z drujinachilariga bo‘lib berdilar, bular asta-sekin votchinachi - katta yer egalariga aylanib borar va yerlarini meros tariqasida o‘z bolalariga qoldirardilar. Cherkov ham qirol xazinasidan (qirol yer fondidan) in'om (donatio) tariqasida ko‘p yer oldi. Dunyoviy zodagonlar ham, cherkov zodagonlari ham o‘z yerlarini, qiroldan tashqari, birinchi navbatda dehqonlar hisobiga kengaytirdilar. Dehqonlar qo‘shni dunyoviy katta yer egalari homiyligiga (patronat yoki kommendatsiyasiga) o‘tdilar. Shuningdek, dehqonlar cherkovdan madad olish maqsadida yerlarini shu

shaklda bo‘lar edilarki, cherkov dehqonlarga bir uchastka yerni ma’lum miqdorda obrok to‘lab turish yoki barshchina o‘tash sharti bilan umrbod foydalanishga berardi, bu yer uchastkasi prekariy deb atalardi.

Foydalanish uchun cherkovdan ”prekariy” (sof ma’nosi: ”iltimosga muvofiq berilgan uchastka”) olgan dehqonlarning ahvoli yerga o‘rnashtirilgan va xo‘jayiniga biror xil majburiyatni ado etib turadigan kolonlar, litlar va qullarning ahvoliga o‘xshab ketardi. Prekariy olgan dehqonning o‘z yeri ham prekariyga aylanib, asta-sekin cherkov yer egaligining mulkiga qo‘shilib ketardi. Prekariy olgan dehqonning o‘g‘li yoki nevarasi butunlay krepostnoyga aylanib ketardi. ”Sali haqiqati”ga ilova qilingan qo‘shimchalarda kambag‘allashgan franklar to‘g‘risida, qisman, hatto, butunlay xonavayron bo‘lgan kishilar to‘g‘risida juda ochiq gapiriladi, bular jarimalarni to‘lashga qurblari yetmay, o‘rmonlarda daydib, qaroqchilik qilib yurardilar. Ba’zi kambag‘allar esa ovqat uchun o‘zini qul qilib sotib, asoratga tushardi va shunday qilib, shaxsiy erkinlikdan mahrum bo‘lardi.

Erkin va mustaqil dehqonlarning asta-sekin yo‘qolib, krepostnoy kishilar sinfiga aylanishida ifodalangan feodallashuv jarayoni sobiq Rim imperiyasiga ko‘chib kelib joylashgan varvarlarning hammasida sodir bo‘ldi. Franklarda esa bu jarayon hali juda mustahkam bo‘lgan baquvvat erkin dehqonlarning (”Sali haqiqati”da ko‘rsatilgan dehqonlarning) qaramlik-krepostnoylik holatiga ochiq, keskin tusda o‘tishida namoyon bo‘ldi, xolos. Bunda dehqonlar yuridik jihatdan boshqa kishiniki bo‘lgan yerda o‘tirib, shu yer egasining foydasiga biron xil ”tutqinlik” majburiyatini o‘tar edi.

Lekin shu narsani aytib o‘tish kerakki, erkin dehqonlarning yo‘qolib borish jarayoni VI va VII asrlarda Franklar davlatining hamma viloyatlarida bir xil bo‘lgan emas. Yangi tartiblar qirollikning g‘arbiy qismida - Neystriyada, qisman janubi-sharqiy Burgundiyada juda tez tarqaldi; shimoli-sharqiy okruglarda - Avstraziyada esa bu jarayon u qadar kuchli bo‘lmadi. Bu okruglarda Rim ta’siri (yerning xususiy mulkka aylanishi sohasidagi ta’siri) boshqa joylardagidek kuchli emas edi, bu yerda urug‘chilik-jamoachilik munosabatlari uzoqroq saqlanib qoldi. Avstraziyada dehqonlar siyosiy jihatdan ham, xususan umumxalq lashkarining qatnashchisi sifatida VII asrdagina emas, balki VIII asrda ham katta rol o‘ynadi.

Harbiy xizmatlarning asosiy og‘irligi, ko‘pdan-ko‘p soliq va yig‘imlar erkin franklarni tobora xonavayron qilgan. Ular yer egalariga iqtisodiy qaram bo‘lib qolgandilar. Yirik yer egalari dehqonlarning xo‘jayinlariga, boshliqlariga va senorlariga aylana boshlagan edilar.

Davlat hokimiyati yirik yer egalari qo‘liga o‘tib borgan. Yirik yer egalari dastlab qirol hisobiga soliq yig‘ib, uning nomidan sud qilgan bo‘lsalar, keyinchalik o‘zlari nomidan sud qilib, o‘z foydalariga soliq yig‘a boshlaganlar. Bu huquqni qirol ba’zan immunitet yorlig‘i bilan mustahkamlab berardi. Immunitet yorlig‘i olgan mahalliy yer egalari (dunyoviy yer egalari ham, cherkov yer egalari ham) o‘z hududlariga qirol amaldorlari, sud'yalari singari kishilarning tekshirish uchun kirishidan holi edilar. Bundan tashqari, mahalliy yer egalariga yana shunday immunitet yorliqlari ham berildiki, ularga muvofiq o‘zlariga qaram bo‘lgan aholinigina emas, hatto erkin aholini ham sud qilish va undan o‘z foydalariga hukumat soliqlari va majburiyatlari undirish huquqini oldilar. Immunitetlar magnatlarning[6] - yer egalarining erkin aholi orasidan ojizlarini topib, o‘z asoratlariga tushirishlariga juda katta yordam berdi. Barcha davlat majburiyatlari aholi zimmasida edi.

Endilikda davlat majburiyatlari qirol foydasiga emas, immunitet yorliqlarining egalari foydasiga tusha boshladi. VI asrdan boshlab immunitet yorliqlarini berish juda keng tarqaladi. Hatto cherkovlar ham immunitet yorliqlari ola boshlaydilar. Yuqorida aytganimizdek, immunitet yorlig‘i sifatida olingan yerlarga, hatto, qirol amaldorlari ham kira olmas edi. Bu esa qirol hokimiyatining zaiflashuviga olib kelgan. Chunki har qanday majburiyatlardan ozod bo‘lgan va o‘z yerlarida keng hokimiyatga ega bo‘lgan yer magnatlari qirol hokimiyati bilan hisoblashmay qo‘yganlar, ma’lum darajada undan mustaqil bo‘lganlar.

Zaiflashib qolgan qirol hokimiyatini mustahkamlash, uning harbiy va moliyaviy qudratini kuchaytirish maqsadida mayordam Karl Martell yer (agrar) islohoti o‘tkazgan. Bu islohot uning o‘g‘li Pipin Pakana va nevarasi Buyuk Karl tomonidan nihoyasiga yetkazilgan.

Bunga ko‘ra, yerlarni yer magnatlariga to‘la mulk qilib berish, hadya qilish to‘xtatildi. Endi yer ma’lum xizmat evaziga mukofot tariqasida berila boshlandi. Karl Martell davlat fondiga qarashli yerlardan (bu fond yangi istilolar va isyon ko‘targan zodagonlarning yerlarini musodara qilish natijasida kengayib ketgan edi) harbiy benifitsiyalar deb atalgan yer uchastkalari berishni keng suratda qo‘lladi. Agar bunday benifitsiya olgan kishi qirolga ma’lum xizmat o‘tab turmasa, yer qaytarib olingan. Shunday qilib, yer magnatlari qirolga xizmat qilishga majbur bo‘lib, unga bog‘liq edi. Ilgari qirol amaldorlari boshqaradigan ayrim ishlar ularning zimmasiga tushadi.

[6] **Magnat** – lotincha “magnatus” – boy kishi, katta amaldor; katta yer egasi, feodal.

Benifitsiya umrbod muddatga, ya’ni uni olgan kishi o‘lgunicha berilgan. Benifitsiya egasi o‘lgandan so‘ng yer uning merosxo‘riga o‘tgan. Merosxo‘r ham ma’lum xizmat o‘tab turishi lozim edi. Lekin vaqt o‘tishi bilan umrbod benifitsiya asta-sekin avloddan-avlodga o‘tadigan feodga aylanadi. Katta-katta yerlarni xizmat evaziga olganlar o‘zlarini tobora mustaqil his qila boshlaydilar.

Harbiy benifitsiyalar harbiy xizmat o‘tash sharti bilan umrbod foydalanish uchun beriladigan o‘rtacha va mayda pomestelar edi. Bu bilan keyinroq paydo bo‘lgan mayda pomesteli ritsarlarning[7] vujudga kelishi uchun asos solindi, ritsarlar tashkil topayotgan feodallar sinfining juda ko‘pchiligini tashkil etgan quyi tabaqasi edi. Bu pomestelardagi erksiz dehqonlar esa mehnat qilib, o‘z xo‘jayinlarini”- urushuvchi odamlar”ni - ritsarlarni boqishga majbur edilar.

Harbiy xizmat o‘tovchilarga davlat fondiga qarashli yerlardan uchastkalar berish bilangina cheklanmay, Karl Martell shu maqsad uchun cherkov yerlaridan ham qisman foydalandi. U o‘ziga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarda dunyoviy zodagonlar bilan birga qatnashgan yepiskop va abbatlarning[8] pomestelarini musodara qildi. Neystriyada va Akvitaniyada bunday ruhoniy yer egalari ko‘p edi. Ruhoniylardan musodara qilib olingan yerlar ham benifitsiyalarga aylantirildi. G‘arbiy Yevropa tarixida bu narsa birinchi marta o‘tkazilgan katta sekulyarizatsiya, ya’ni cherkov mulkini tortib olib, dunyoviy kishilar qo‘liga topshirish edi. Lekin Karl Martell tomonidan qilingan sekulyarizatsiya to‘la sekulyarizatsiya emas edi. U cherkov yerlarining faqat bir qismiga nisbatan qo‘llanilgandi. Keyinchalik Karl Martellning o‘g‘li Pipin Pakana musodara qilingan yerlarni ham cherkovga qaytarib berishga majbur bo‘ldi, lekin shu shart bilan qaytarib berdiki, bu yerlar haqiqatda foydalanuvchilar, ya’ni ritsarlar qo‘lida bo‘lib, ritsarlar buning evaziga hosilning o‘ndan bir qismini cherkovga alohida, qo‘shimcha ravishda to‘lab turishi kerak edi.

Buyuk Karl va uning vorislari zamonida feodallashuv jarayonining juda tezlashib ketayotganligi imperiyaning parchalanib ketishida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq Buyuk Karl imperiyasi ”qabila va xalqlarning quramasidan iborat” bo‘lishi bilan bir vaqtda, feodallashayotgan jamiyat ham edi. Merovinglar zamonida bo‘lgan hodisa, ya’ni katta yer egaligining o‘sishi, uning mayda erkin dehqon xo‘jaligini ”yutib yuborish jarayoni” Karolinglar zamonida davom etdi va zo‘r berib avj oldi. Prekar

[7] **Nemischa Ritter** – “suvoriy”, “otliq askar”.
[8] **Abbat –** monastir noziri.

munosabatlarining (ko‘proq cherkov yerlarida) rivoj olishi, patronat-komendatsiyalarning (ko‘proq dunyoviy yerlarda) keng yoyilishi, erkin kishilarning qaramlikka tushish hollarining ko‘payayotganligi - bularning hammasi Buyuk Karl podsholigi zamonida odat tusiga kirganligi imperator qonunlarida - kapitulyariylarda[9] o‘zining yorqin ifodasini topdi. Karl magnatlar va boshqa ”nufuzli odamlar” tomonidan dehqonlar yerlarining tortib olinishini cheklashga bir necha marta urindi, biroq yerdor zodagonlar uning farmoyishlariga qarshilik ko‘rsatganlari uchun bu farmoyishlar amalda bajarilmay qolaverar edi. Franklar jamiyatining feodallashuv jarayoni, tabiiyki, siyosiy tuzumga ham ta’sir etdi.

Feodallashuv imperiyani siyosiy tarqoqlikka va pirovardida, siyosiy jihatdan mayda qismlarga bo‘linib ketishiga olib keldi. O‘zining harbiy qudratiga va eng katta istilochilik shuhratiga qaramay, Buyuk Karlning o‘zi ham yerdor zodagonlarga qaram edi. Karl zamonida harbiy benifitsiyalar tizimi ham avj olaverdi.

Buyuk Karlning asosiy daromadlari uning pomestelaridan keladigan daromadlar edi. Qirolning yer fondi butun davlatning hamma joyiga tarqalgan bo‘lib, yuzlarcha katta va bir qadar kichik yerlardan iborat edi. Buyuk Karl zamonidagi eng katta yer egalari monastirlar edi. Parij monastirlaridan biri - avliyo German (yoki Sen-Jermen) monastirining IX asr boshlarida 100 mingdan ortiq krepostnoyi bor edi. Dunyoviy zodagonlar qo‘lida ham, shubhasiz, juda ko‘p katta-katta pomestelar bo‘lgan, biroq ulardagi yerlarning ro‘yxati bizgacha yetib kelmagan.

Karolinglar pomestesini o‘rganishda Buyuk Karlning ”Pomestelar to‘g‘risidagi kapitulyariy”si va ”Abbat irminon poliptigi” deb atalgan hujjat (Parij atrofidagi Sen-Jermen monastiriga qarashli yerlar va bu yerlarda o‘tirgan krepostnoylar ro‘yxati) muhim manbalar hisoblanadi. Ana shu manbalarga qarab, biz G‘arbiy Yevropada ilk o‘rta asrlardagi feodal pomestesining manzarasini ko‘z oldimizga keltira olamiz. Dastlab biz bu pomesteda o‘rta asrlarga xos bir xususiyatni - yerning ikki qismga: xo‘jayin - domeneinal (domen) yeriga va dehqonlar yeriga - chek yerga bo‘linganini ko‘ramiz. Chek yerlarga dehqonlar egalik qilardi. Bu chek yerlar manslar deb atalardi. Dehqonlar o‘z mehnatlari bilan, o‘zlarining ot-ulov va qurol-asboblari bilan xo‘jayinlarining yerini ishlab berardilar.

Korolinglar pomestesi aniq natural xo‘jalik xususiyatlariga ega edi. Bu haqda ”Pomestelar to‘g‘risidagi kapitulyariy”da juda ochiq dalillar

[9] **Kapitulyariy –** lotincha “caput” degan so`zdan olingan bo`lib, bob demakdir, farmon alohida paragraflarga bo`linganligi uchun shunday deb atalardi. Umuman imperatorning yozma farmoyishi kapitulyariy degan nom bilan yuritilgan.

keltirilgan, unda pomestelarda yetishtirilgan mahsulotlarning qirol oilasi va qirol saroy ahllari ehtiyojlarini qoplashga sarflanganligi bir necha marta ta’kidlab o‘tilgan.

Biroq Korolinglarning pomeste to‘g‘risidagi hujjatlarida uchraydigan eng qiziq narsa o‘sha vaqtdagi krepostnoylarning tarkibi haqidagi ma’lumotlardir. Bu material Sen-Jermen monastiri poliptigida juda ochiq ko‘rsatilgan. Unda krepostnoy dehqonlar turlicha nomlar: kolonlar, litlar, qullar degan nomlar bilan ataladi. Litlar va qullarga nisbatan kolonlar, hatto, ”erkin” kishilar deyiladi. Lekin ularning ”erkinligi” juda nisbiy bo‘lib, haqiqatda ularning “tutqunlar”dan hech qanday farqi yo‘q edi. Ular ham o‘zlarining chek yerlariga birkitib qo‘yilgan, me’yorlashtirilgan barshchina, natural obrok va bir oz miqdorda renta puli to‘lash shaklida ”tutqunlik” majburiyatlarini bajarishardi. Ozod franklar ham borgan sari boy va martabali kishilarga iqtisodiy qaramlikka tushgan. Jamoa saqlanib, asta-sekin qo‘shnichilik jamoasiga - markaga aylangan va unga kelgindilar, begonalar jalb qilingan. Erkin jamoachilar yer magnatlariga, o‘z senorlariga qaram kishilarga aylanib borgan.

Qullar ashyo hisoblangan. Ularni o‘ldirish jinoyat sanalmagan. Erkin kishi qul bilan nikohga kirsa, qulga aylangan. Erkin ayol qul erkakka erga tegsa, g‘ayriqonuniy deb e’lon qilingan. Erkin ayolga uylangan qul o‘lim jazosiga mahkum etilgan. Faqat keyinroq bunday nikohlar, agar qullarning xo‘jayinlari tomonidan rozilik bildirilsa, tan olinadigan bo‘lgan.

Qullarni erkinlikka chiqarishga yo‘l qo‘yilgan. Erkinlikka chiqarilganlar, yarim erkin kishilar - litlar egallagan mavqega ega bo‘lib, o‘z xo‘jayinlariga qaram edilar. Litlar - asosan sobiq erkin jamoachilar bo‘lib, o‘z erkinliklarini yo‘qotib, yer egalariga iqtisodiy qaramlikka tushib qolgan kishilar edi.

Karolinglar davrida haqiqatda franklarda krepostnoy dehqonlar tabaqasi tashkil topib, bu tabaqada endi erkin kishilar, yarim erkin kishilar (litlar) yoki tutqun kishilar (qullar) o‘rtasidagi ilgarigi farqlar chindan ham yo‘qolib ketgan edi.

3. Franklarning davlat tuzumi

Franklarda davlat apparatining tashkil topishi va rivojlanishi jarayonlarida uchta asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi yo‘nalish, ayniqsa, boshlang‘ich bosqichga (V-VII asrlarga) xos bo‘lib, bu vaqtda franklardagi qabilaviy demokratiya organlarining yangi davlat organlariga o‘sib chiqishi sodir bo‘lgan. Ikkinchi yo‘nalish votchina boshqaruv organlarining rivojlanishi bilan belgilanadi. Uchinchi yo‘nalish frank

monarxlari davlat hokimiyatining asta-sekin senor-hukmdorlarning ”xususiy” hokimiyatiga aylanishi bilan bog‘liq. So‘nggi yo‘nalish VIII-IX asrlarga to‘g‘ri kelib, franklar jamiyatining oxirgi bosqichi - senorlik monarxiyasining shakllanishi davri hisoblanadi.

Qirol hokimiyatining shakllanishi va rivojlanishi. Galliyaning istilo qilinishi franklarda yangi davlat apparatining tashkil etilishi uchun kuchli turtki bo‘ldi. Chunki bu holat ana shu bosib olingan viloyatlarda boshqarishni tashkil etishni, ularni himoya qilishni talab qilardi. Xlodvig o‘zining qat’iy yakka hokimligini o‘rnatgan franklarning birinchi qiroli edi. U oddiy harbiy boshliqdan monarxga aylandi. Xlodvig bunday mavqega barcha vositalar: munofiqlik, ayyorlik, qarindosh-urug‘larini, boshqa qabila boshliqlarini yo‘q qilish orqali erishgan edi. Xlodvigning muhim siyosiy ishlaridan biri xristianlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri galliya-rim katolik ruhoniylaridan qabul qilishi edi. Bu narsa Franklar qirolligining yanada rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xlodvig tomonidan xristianlikning qabul qilinishi bilan cherkov qirol hokimiyatini mustahkamlashda qudratli omil bo‘lib qolgan.

Franklar davlati feodal yakka hokimligi (monarxiya) shaklida idora etiluvchi davlat bo‘lib, uning tepasida qirol turgan. Qirollik nasldan-naslga meros bo‘lib o‘tgan. Dastlabki frank qirollari ancha keng hokimiyatga egalik qilganlar. Ular odatlarga amal qilib, xalq lashkarlarini chaqirganlar va urush vaqtida ularga qo‘mondonlik qilganlar. Qirollar hamma bajarishi shart bo‘lgan farmoyishlar (bonni - bonni) chiqarib, davlatda oliy sud hokimiyatini amalga oshirganlar va soliqlar yig‘ganlar.

Qirol davlatdagi barcha asosiy mansabdor shaxslarni shaxsan o‘zi tayinlagan va o‘z xizmatchilariga davlat boshqaruvining alohida sohalarini berib qo‘ygan. Qirol hokimiyatining bevosita tayanchi qirolning harbiy drujinasi hisoblangan. Drujina saroyda yashab, xazina hisobidan ushlab turilgan.

Feodallashayotgan zodagonlar dastlabki vaqtlarda qirol va uning ma’muriyatini qo‘llab-quvvatlagan. Chunki kuchli markaziy hokimiyatsiz dehqon jamoalari yerlarini tortib olish, ularda hukmron bo‘lgan o‘zini-o‘zi boshqarishni tugatish, erkin aholini mamlakatning feodal qonunlariga bo‘ysundirish mumkin emas edi. Shuni nazarda tutmoq lozimki, erkin frank o‘sha vaqtda harbiy qo‘shin ishtirokchisi sifatida o‘zini himoya qilishga qodir bo‘lgan, shuningdek, eski tartib-qoidalarga muqaddas narsa sifatida munosabatda bo‘lgan ma’lum darajada kuchli siymo edi.

Xlodvig va uning avlodlari (Merovinglar) ikkita asosiy maqsadni ko‘zlaganlar. Bulardan biri qabilaviy separatizmni (ajralib chiqishga

intilishni) tugatish va mamlakatning hamma qismlarini birlashtirish edi. Ikkinchisi - dastlab saylanadigan dehqonlarning ma’muriyatini siqib qo‘yib, so‘ngra eski boshqaruv shakllarini - qishloqlarning an’anaviy yig‘ilishlarini, yuzliklarni (qishloq birlashmalarini) va boshqalarni tugatish va mamlakatni hududiy okruglarga ajratib, qirol chinovniklari va sudyalariga bo‘ysundirishdan iborat edi.

Xlodvigdan keyin 200 yil o‘tgach, bu ikkala maqsad asosan ro‘yobga chiqarilgan edi. Mamlakatni birlashtirish uchun kurashda Xlodvig avlodlari nihoyat darajada munofiqlik va shafqatsizlik ko‘rsatgan. Xlodvigning o‘g‘li Xlotar o‘lgan akasining bolalarini shaxsan qatl etgan. Chunki ular taxtga da’vogar edilar. Xlotar bu bilan cheklanib qolmay, yuqoridagilarning o‘limi uchun qasos olishi mumkin bo‘lgan barcha kishilarni qirib tashlashga buyruq bergan edi.

Xlodvigning evarasi Xlotar II otasi va amakisi hamda boshqa shahzodalar o‘ldirilgandan keyin 613 yilda franklarning yagona hukmdori bo‘lib qolgan. Xlotar II 614 yilda farmon chiqarib, yerdor aristokratiyaning o‘zaro urushlar vaqtida olgan pomestelarini o‘sha aristokratiya ixtiyorida qoldirish majburiyatini o‘z zimmasiga oldi va graflarni (okrug hokimlarini) faqat mahalliy yer egalari orasidan tayinlashga va'da berdi. Shunday qilib, yerdor aristokratiya Merovinglar xonadoniga mansub bo‘lgan qirollarning o‘zaro urushlaridan o‘z manfaatlari uchun to‘la foydalanadi.

Xlotar II ning hokimiyati kuchli hokimiyat bo‘lmadi. Qirol hokimiyatining e’tibori Xlotar II ning o‘g‘li Dagober zamonida (629-639 yillar) birmuncha oshdi. Lekin undan keyingi davr (639-751 yillar) - ”yalqov qirolliklar” davrida Merovinglar faqat nomigagina qirol bo‘lib, ular qo‘lida haqiqiy hokimiyat yo‘q edi. Butun ma’muriy, sud va harbiy hokimiyatni mahalliy magnatlar tortib olgan edi. Qirollar yerlarni taqsimlab borishlari natijasida yirik yer egalarining hokimiyati o‘sib, qirol hokimiyati zaiflashib borgan va vaqt o‘tishi bilan hokimiyat qirol qo‘lidan chiqib ketgan edi. Xususan, Neystriya, Burgundiya va Avstraziyada juda katta zodagon xonadonlar yetishib chiqib, o‘z yurtlarida qirol mayordamlari sifatida butun hokimiyatni o‘z qo‘llariga olgan edilar.

Dastlab uch mayordamdan eng kuchlisi Neystriya mayordami edi. U Burgundiya mayordamini ham o‘ziga bo‘ysundirdi, lekin Neystriya mayordami tez vaqt ichida kuchliroq bo‘lgan boshqa bir mayordamning - Avstraziya mayordamining qarshiligiga uchradi. Sharqiy frank mayordamining ahvoli qulayroq edi. Avstraziya mayordamlari ko‘p sonli harbiy kuchga tayanish imkoniga ega bo‘ldilar, bu harbiy kuchning bir qismi bu

yerda ham saqlanib turgan erkin dehqonlardan iborat edi. Shu bilan birga Avstraziyada zodagonlar birmuncha kuchsiz bo‘lib, ular o‘z gersogining - mayordamining boshchiligiga bo‘ysunishga majbur edilar. Neystriyada esa, aksincha, ko‘pgina yirik feodal xonadonlari bir-biri bilan raqobat qilmoqda edi. Oxiri, Avstraziyaning Pipinlar xonadonidan chiqqan mayordami gersog Pipin III Geristalskiy 687 yilda o‘zaro jangda raqibi Neystriya mayordamini tor-mor qilib, shu vaqtdan boshlab butun qirollikni bir o‘zi idora qila boshladi. Ammo, shu bilan birga, u Meroving qirollarining nomigina qolgan hokimiyatini saqlab keldi. Haqiqatda esa Pipin Geristalskiy yangi sulolani boshlab bergan edi, bu sulola keyincha uning eng mashhur namoyandasi bo‘lgan Karl Buyuk nomi bilan Karolinglar sulolasi deb ataldi.

VII asrning oxiri - VIII asrning boshlarida Franklar davlati butunlay parchalanib ketdi. Pipin Geristalskiyning g‘alaba qozongan bo‘lishiga qaramay, Neystriya va Burgundiya magnatlari hali ham o‘zlarini markaziy hokimiyatga u qadar qaram emas, deb his qilar edilar. Akvitaniya qirolligidan tamoman ajralib chiqqan Avstraziya gersogi Akvitaniyaning hokimiyatini tan olmagan edi. Reynning narigi tomonidagi qabilalar - allemanlar, frizlar, sakslar va bavarlar ham qirollikdan ajralib chiqadi. Janubi-g‘arbda arablar xavf tug‘dira boshlaydilar, hatto VIII asrning 20- va 30-yillarida butun Franklar davlati arablar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosib olinish xavfi ostida qolgandi.

Lekin yangi sulola ana shunday og‘ir bir sharoitda qirollikning harbiy kuchlarini qaytadan tashkil etib, tashqi dushmanga zarba berishga muvaffaq bo‘ldi. Bu sulola yanada feodallashgan zodagonlarning ta’sirini cheklash hamda o‘rta va mayda harbiy xizmatchilarga suyanib, qirollikni bir qadar markazlashtirishga harakat qildi. Bunda ayniqsa Karl Martell tomonidan amalga oshirilgan islohotlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Karl Martell Franklar davlatida qirol hokimiyatini juda kuchaytirdi. Uning taxt vorisi Pipin III Pakana (741-768 yillar) ham dastlab faqat mayordam unvoni bilan yurgan bo‘lsa-da, lekin davlatni boshqarishda hal qiluvchi rol o‘ynar edi.

Uning davrida ham qirollar odatda davlatni idora etishda qatnashmasdilar. Nihoyat, Pipin davlat o‘zgarishi yasab, har qanday hokimiyatdan mahrum bo‘lgan eski sulolani taxtdan tushirib, 751 yilda franklarning qiroli deb e’lon qilindi (Karolinglar sulolasi shu tariqa rasmiylashgan edi). Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, G‘arbiy Germaniyadagi frank missionerlarining ishiga boshchilik qilib turgan Maynts arxiyepiskopi Bonifatsiy papaning buyrug‘iga ko‘ra Pipinni qirol deb tanish marosimini o‘tkazdi.

Shunday qilib, yangi sulola cherkovdan o‘ziga kerakli sanksiya olishga muyassar bo‘ldi. Pipinning o‘g‘li Buyuk Karl imperator unvonini olib, juda katta hokimiyatni qo‘lga kiritishga erishdi. Buyuk Karl amaldorlar orqali, imperatorning maxsus farmonlarini chiqarish, mahalliy hokimiyatni bir qadar muntazam nazorat qilib turish yo‘li bilan idora etuvchi markazlashgan davlat tuzishga harakat qildi.

Qirol hokimiyati eng kuchaygan va monarxiyaning eng gullab-yashnagan davri aynan Buyuk Karl hukmronligi davriga (VIII asrning ikkinchi yarmi - IX asrning boshiga) to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda katta istilochilik yurishlari natijasida Franklar davlati tarkibiga hozirgi G‘arbiy Germaniya, Shimoliy Italiya, Shimoliy Ispaniya hududlari, shuningdek, ko‘pgina boshqa yerlar qo‘shib olindi.

Biroq shuni e’tiborda tutish lozimki, Buyuk Karl imperator deb e’lon qilingan va o‘z qo‘liga juda katta hokimiyatni kiritib olgan bo‘lishiga qaramay, u mutlaq monarx emas edi. Davlat boshlig‘i rasman bo‘lmasa-da, amalda o‘z hokimiyatini zodagonlar bilan birgalikda amalga oshirishi, ularning roziligi bilan qarorlar qabul qilishi lozim edi.

Markaziy boshqaruvning tashkil etilishi

Qirollar odatda o‘zlarining pomestelarida – villalarida yashaganlar. Villalar ko‘pincha o‘rmonlarning o‘rtasida joylashgan. Qirol saroyi - palatsiy mamlakat siyosiy hayotining markazi hisoblangan. Qirol atrofini uning soqchilari - antrustionlar o‘rab turgan. Ular qirolning yaqin kishilari bo‘lib, ularga alohida muhim topshiriqlar yuklangan. Antrustionni o‘ldirganlik uchun uch baravar ko‘p miqdorda vergeld (qon bahosi) to‘langan.

Qirol o‘z yaqinlaridan iborat saroy amaldorlari va ruhoniylar bilan maslahatlashib ish yuritardi. Ular bilan kengashlar o‘tkazib turardi. Bu **qirollik kengashi** garchand doimiy organ bo‘lmasa-da, ma’lum muddatlarda chaqirilib turmasa-da, yoki o‘zining aniq tarkibiga ega bo‘lmasa ham, mamlakat siyosiy hayotida juda katta o‘rin tutardi. Qirol o‘z qonunlarini ana shu kengash bilan birga qabul qilardi. Bu qonunlar har yili mart oyida va qo‘shinlar ko‘rigi vaqtida maydonda e’lon qilinardi.

Bundan tashqari, imperator tomonidan deyarli har yili kuzda **feodallarning syezdlari** ham chaqirilar edi. Unda eng muhim kapitulyariylarning hammasi muhokama qilinardi. Zodagonlarning haqiqiy siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ana shu kuzgi syezdlariga qarama-qarshi o‘laroq, may dalalari deb atalmish eski harbiy yig‘ilishlar - askarlarning yig‘ilishlari (bu yig‘ilishlar qadimgi german xalq yig‘ilishlarining qoldig‘i edi) Karolinglar zamonida oddiy bir harbiy ko‘rik bo‘lib qolgan edi. Bu ko‘rik-

da endi imperator tomonidan tasdiqlangan farmonlar ma’lumot uchungina e’lon qilinardi.

Qirol huzurida davlatni boshqaruvchi ma’muriy apparat bo‘lib, ularda ministrlar ishlagan. Qirol ma’muriyati quyidagi jihatlari bilan tavsiflanadi. Birinchidan, markaziy boshqaruvda davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, ministrlarning aniq vazifa va funksiyalari o‘rnatilmagandi. Bir davlat organi ayni vaqtda ham ma’muriy, ham sud, ham harbiy, ham xo‘jalik ishlarini bir necha kishi ishtirokida olib boraverardi. Qirolning shaxsiy xizmatchilari bir vaqtda ministrlik lavozimiga ega bo‘lishi mumkin edi. Ministrlar ichida ba’zida erkin bo‘lmagan qirollik qullari ham uchrab turardi. Ikkinchidan, qirol xizmatchilari - mansabdor shaxslar doimiy belgilab qo‘yiladigan maosh olmay, o‘z foydalariga yig‘iladigan soliqlar va yerlar bilan mukofotlanishardi.

Davlatda qiroldan keyin birinchi mansabdor shaxs yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, **mayordam** yoki boshqacha so‘z bilan aytganda, saroy meri edi. Dastlab u faqat qirol saroyining boshqaruvchisi hisoblanib, keyinchalik uning hokimiyati kuchaygan va davlatda oliy mansabdor shaxs lavozimiga - birinchi ministr darajasiga erishgan edi. Mazkur mansabdor shaxs avval qirol tomonidan tayinlanardi, keyinchalik yer magnatlari tomonidan saylab qo‘yiladigan bo‘ldi.

Mayordamning qudrati tobora o‘sib, asta-sekin markaziy va mahalliy hokimiyat vakillarini tayinlashda mayordam qirolni siqib chiqara boshlaydi. Mayordam saroyga tegishli barcha ishlar bo‘yicha farmoyishlar berardi. Saroy amaldorlari ustidan sud hokimiyatini amalga oshirardi. Qirol yo‘qligida qirol sudiga raislik qilardi. Armiyaga qo‘mondonlik qilish ham uning zimmasida edi. U qirollik domenlarini boshqarib, ulardan soliqlar kelib tushishini kuzatgan. Butun mahalliy hokimiyat unga tegishli edi. Amalda mayordam qirol nomidan graf va gersoglarni tayinlagan, almashtirgan va ularga farmoyishlar bergan. Qirol yosh bo‘lsa, mayordam uning tarbiyasi bilan shug‘ullanib, haqiqatda davlat boshlig‘i mavqeiga ega edi.

Yuqori mansabdagi amaldorlarning butun ishi qirol saroyi – palatsiyda markazlashtirilgan edi. Merovinglar va dastlabki Karolinglarning drujina va xizmatkorlari - ministrlari bo‘lib, ular qirolning topshirig‘i bilan eng oddiy ma’muriy-moliyaviy va sud funksiyalarini bajarar edilar. Bular: **seneshal** - qirolning shaxsiy ishlarini yurituvchi va ayni vaqtda butun saroy xizmatchilarini boshqaruvchi mansabdor shaxs; **marshal** - otliq askarlar boshlig‘i; **kamerariy**-qirol xazinasining boshlig‘i; saroy grafi – qirolning huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatchisi (u asosan sud funksiyalarini

bajargan, qirollik sudi tomonidan sud hukmlarining chiqarilishida ishtirok etgan, sud tortishuvlariga rahbarlik qilgan, hukmlarning bajarilishini nazorat qilgan); **referendariy** (arxikansler) - imperator devonxonasining boshlig‘i (u qirol hujjatlarini - ediktlar, diplomlar, kapitulyariy va boshqalarni tahrir qilgan, rasmiylashtirgan, ularga muhr qo‘yib, arxivda saqlagan, unga kotiblar va devonxona bo‘ysungan) va boshqalardan iborat edi.

Karolinglar sulolasi davrida mayordam mansabi tugatiladi. Natijada saroy grafining roli oshadi. Bu davrda diniy ishlar bilan shug‘ullanuvchi **arxikapellana** degan mansab vujudga keladi. Bu odatda dindor shaxs bo‘-lib, unga keyinchalik devonxona ham bo‘ysundirilgan. Endi u farmonlar tayyorlash, ularni saqlash ishlari bilan shug‘ullangan, uning eng birinchi yordamchisi **kansler** edi.

Buyuk Karl zamonida markaziy va mahalliy idora qilish apparati ancha byurokratlashgan edi. Karl imperiyasida Merovinglar va dastlabki Karolinglar davridagi birmuncha ibtidoiy idora apparati o‘rniga amaldorlarning doimiy chinovniklik apparati tarkib topadi. Buyuk Karl byurokratiyasining tashkil topishiga Rim an’anasi shubhasiz ta’sir qiladi. Qirollik - imperatorlik devonxonalarida davlat tili - lotin tili, ya’ni rimliklar tili edi. Karolinglar davlat muassasalari va lavozimlarining nomlari (imperator, palatsiy, komitlar - graflar, notariylar - kotiblar va hokazolar)dan Rim terminologiyasi shundaygina sezilib turadi. Buyuk Karlning eng yaqin maslahatchilari va oliy mansabdorlari Rim tarixini yaxshi bilgan hamda imperatorga jamiyatdagi mutlaq oliy hokimiyat deb qaraydigan, rimcha an’anani o‘zlashtirib olgan kishilar edi.

Shunga qaramay, Buyuk Karl imperiyasi qat’iy markazlashgan davlat emas edi. Buyuk Karl davridagi boshqaruv ham, umuman olganda, ibtidoiy bo‘lgan. Imperiyada rasmiylashtirilgan va ixtisoslashtirilgan sud va moliya idoralari - palatalari, boshqaruvning doimiy soliq tizimi kabi muhim zveno (jumladan, doimiy olib turiladigan yer solig‘i) yo‘q edi. Karl davlatida markaz bilan joylar o‘rtasida muttasil aloqalar o‘rnatilmagandi, qirol missiyalari, ya’ni taftishchilari joylarni nomigagina nazorat qilardi, amalda esa, ayniqsa, chekka hududlarning graflari o‘zlarini markazdan mustaqil deb his qilishardi.

Ikkinchi tomondan, Buyuk Karl davlati o‘zining tarkibi jihatidan ham xilma-xil urug‘larning beqaror siyosiy birlashmasidan iborat edi. Franklar imperiyasi omadi yurishgan bir istilochi tomonidan shoshib-pishib, ko‘p qabila va xalqlardan iborat tuzilgan alohida bir tarzdagi monarxiya bo‘lib, unda na umumiy iqtisodiy baza, na umumiy milliy til, na umumiy madaniyat mavjud edi. Chunonchi, Buyuk Karl imperiyasiga

kirgan qabilalarning har biri o‘zining odatdagi qonun-qoidalariga amal qilib kelganini ko‘rsatib o‘tish kifoya. “Varvarlar haqiqatlari” - Sali, Ripuar, Burgundiya, Bavariya, Saksoniya haqiqatlari Buyuk Karl zamonida ham ayrim qabilalar uchun sud qonunlari bo‘lib qolaverdi; ular qunt bilan ko‘chirilib, o‘zgartishlar kiritildi, shunday qilib, ular imperiyaning ayrim viloyatlari uchun amaldagi qonun bo‘lib qolaverdi.

Mahalliy boshqaruvning tashkil etilishi

Franklar davlati okrug (pag)larga, ya’ni grafliklarga bo‘linib, har bir pagning tepasida graf (comite) turgan. **Graf** odatda yirik yer egalari ichidan qirol tomonidan tayinlangan. U o‘z hududida sud, ma’muriy, moliyaviy, harbiy vakolatlarni amalga oshirgan.

Paglar, ya’ni grafliklar yuzliklarga bo‘lingan. Yuzliklar tepasida **yuzboshilar** turgan. Grafliklarda moliyaviy organlar sifatida graflar bilan birga **satsebaronlar** ham harakat qilganlar. Ular keyinroq graf mansabining rivojlanishi bilan tugatilgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, joylarda **tunginlar** ham mavjud bo‘lib, ular asosan sud funksiyasini bajarganlar. Bular ilgari urug‘-qabilalar boshliqlarining avlodlari hisoblanib, keyinchalik ularning ham vazifasi graflarga o‘tgan.

Graflar o‘zlariga o‘rinbosarlar va yordamchilar tayinlaganlar. Ular **vikariylar** yoki vitse-graflar deb yuritilib, Karolinglar davrida vikariylarga o‘zlarining hududiy okruglari ajratib berilgan edi. Shu tariqa ular yuzboshilardan kam farq qilib, keyinchalik bularning mavqei bilan tenglashtirilgan. Ba’zi joylarga (odatda chegara tumanlarga) qirol **gersoglar** tayinlardi. Gersogning vakolati bir necha (2-12) graflikkacha yoyilgan. Uning asosiy vazifasi mudofaani tashkil etish va mamlakatni himoya qilish edi.

Karolinglar sulolasi davrida mahalliy idora organlarining ishini tekshirish uchun har yili ikki kishidan iborat **elchilar** tayinlanardi. Ularning biri dunyoviy, ikkinchisi diniy kishilardan iborat edi. Bu qirol taftishchilari (missi dominici) deb atalmish tekshiruvchilar odatda ikki kishi - ikki kishi bo‘lib yurib, grafliklardagi ahvolni tekshirar, aholining graf, yepiskop va boshqa amaldorlar ustidan beradigan shikoyatlarini qabul qilishardi.

Sud hokimiyati

Franklar davlatida oliy sud hokimiyati monarxga - qirolga - imperatorga tegishli edi. U bu hokimiyatni zodagonlar vakillari bilan birga amalga oshirardi. Qirollik kengashi eng xavfli huquqbuzarliklarni ko‘rib hal qilardi.

Mamlakatda eng ko‘p huquqbuzarlik haqidagi ishlarni ko‘rib hal qiladigan sud muassasasi - yuzliklar sudi edi. Merovinglar davrida bu sud

organi - yuzliklar sudi -”malberg” - yuzlikning erkin aholisi yig‘ini deb atalib, unda sud ishlari yirik feodallardan saylangan yettita raxinburg ishtirokida (raxinburglar sudida) ko‘rilgan. Ularning ichidan bosh sudya saylab qo‘yilardi. U tungin deb atalgan. Bu sud majlisiga yuzlikning hamma katta yoshli va to‘la huquqli ozod aholisi (erkaklar) ishtirok etishi lozim edi. Bunda qirolning vakillari faqat sud ishlari yuritilishining to‘g‘riligini kuzatib turishgan.

Buyuk Karl muhim sud islohoti o‘tkazib, ozod aholining barcha sud majlislarida ishtirok etish majburiyatini bekor qilib, saylab qo‘yiladigan raxinburglar o‘rniga skabinlar tayinlanadigan bo‘ldi. Skabinlarni qirol elchilari (taftishchilari) mahalliy yer egalari ichidan tayinlanardi. Ular qirol xizmatida turib, graf raisligida sud qilishardi. Bu jamiyatning feodallashuvi oqibati bo‘lib, eski urug‘-qabilachilik qoldiqlariga zarba berdi.

Buyuk Karl zamonida cherkov sudlari ham paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, aralash tarkibdagi sudlar ham vujudga keldi.

Armiya

Franklarda qadimdan mavjud bo‘lgan xalq lashkarlarini dehqonlarning xonavayron bo‘lishi tufayli chaqirish tobora qiyinlashib bordi. Bundan tashqari, u endilikda o‘zining ilgarigi jangovarlik ahamiyatini yo‘qotgan edi. Qo‘shinning hal qiluvchi qismi otliq askarlar bo‘lib qolgandi. Karl Martell islohoti natijasida benifitsiya olganlar harbiy xizmat o‘tashlari, qo‘shinni otliq askarlar bilan ta'minlab turishlari lozim edi. Franklarning Karl Martell tomonidan takomillashtirilgan yangi qo‘shini (yaxshi qurollangan, qisman malakali otliq askarlar tashkil qilingan, piyoda askarlar ham o‘z ahamiyatini qisman saqlab qolgandi) arablar bilan bo‘lgan to‘qnashuvda juda yaxshi ish ko‘rsatgan. Puate yonidagi jangning eng birinchi siyosiy oqibati shu bo‘ldiki, Karl Martell harbiy islohot o‘tkazdi. Harbiy ishda otliq qo‘shin uzil-kesil ravishda asosiy o‘rin tutadigan bo‘lib qoldi (ilgari esa, qadimgi germanlarning hammasida bo‘lgani kabi, franklarda ham asosiy kuch piyoda askarlar edi). Yaxshi qurollangan va ot ustida uzoq yurishlar qilishga qobil otliq askarlar franklar qo‘shinining asosiy kuchiga aylandi.

Tabiiyki, endi bunday qo‘shinning xonavayron bo‘lgan va ilgarigi mustaqilligidan mahrum qilingan dehqonlardan tuzilishi mumkin emas edi. Shunday qilib, Karl Martellning islohoti natijasida dehqonlarning ko‘pchiligi harbiy xizmatdan chetlashtirildi. Bu yangi malakali otliq qo‘shin yoki keyinchalik atala boshlaganidek, ritsarlar qo‘shini katta yer egalari va hali erkinlikdan mahrum qilinmagan dehqonlarning eng badavlat qismidan tuziladigan bo‘ldi.

Buyuk Karl davlatning hamma fuqarolaridan jon boshiga harbiy xizmat talab etishni bekor qilib, faqat yer egalarinigina harbiy xizmatga jalb etdi. Mayda yer egalari 3-4 dehqon uchastkalaridan bittadan qurolli kishi taqdim qilishlari lozim edi. Shu tariqa xalq lashkarlari butunlay malakali jangchilar bilan almashtirildi.

Buyuk Karl zamonida harbiy benifitsiyalar tizimining avj olishi, erkin dehqonlarning zaiflashuvi va tushkunlikka uchrashi oqibatida dehqonlar harbiy xizmatni o‘tashga tobora kamroq chaqiriladigan bo‘ldi. Lekin benifitsiyalarning ham faqat bir qismi imperatorga, ko‘pchiligi esa katta yer egalariga - magnatlarga qaram edi, bu magnatlar harbiy yurishlarga odatda ”o‘z sodiq kishilari”dan butun-butun otryadlar olib kelardilar. Shunday qilib, Buyuk Karl qo‘shini haqiqatda uning o‘ziniki bo‘lmay, balki tobora aniqroq tashkil topgan katta feodallar qo‘shini edi, bu feodallarning esa juda ko‘p pomestelari bo‘lib, ular joylarda keng siyosiy huquqlarga ega edi, ularning qaramog‘ida ko‘plab mayda ritsarlar (suvoriylar) bor edi.

4. Franklar davlatida huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalari

Frank qabilalarida davlatchilikning shakllanishi huquqning yaratilishi bilan birga kechdi. Bu qadimgi german urf-odatlarini yozish yo‘li bilan amalga oshirildi. Shu tariqa Franklar davlatida huquqning muhim manbalari sifatida **«varvarlar haqiqatlari»** paydo bo‘lgan. Bular varvar qabilalarining odat huquqi yozuvlaridir. Yozma «haqiqatlar» Rim imperiyasi hududida joylashgan ko‘pgina qabilalarda V-VI asrlarda vujudga kelgan. V asr oxirida vestgotlar yozma huquqi (qirol Evrik Sudebnigi) vujudga kelgan. VI-VII asrlarda ”Vestgot haqiqati”ning birinchi to‘liq nashri paydo bo‘lgan. Buning asosiga Rim imperatorlaridan mustaqillikni olgan va o‘z egaligini kengaytirib borgan vestgotlar qiroli Evrikning (466-489 yillar) qonunlar to‘plami qo‘yilgan. Vestgotlardan so‘ng burgundlar o‘zlarining xususiy sudebnigini yaratishga kirishganlar. Burgundlar sudebnik yaratishar ekan, bunda amaliy maqsadlar bilan birga siyosiy-ramziy maqsad - Rim hokimiyatidan ozod etilgan hududda o‘z hukmronliklarini mustahkamlash maqsadini ko‘zlagandilar.

Gotlar singari burgundlar ham uzoq vaqt rimliklar orasida yashaganliklari uchun ularning sudebniklarida ma’lum darajada kechki rim imperiyasi tartiblarining ta’siri o‘z aksini topganligini ko‘rish mumkin.

”Varvarlar haqiqatlari” orasida eng qadimgilaridan biri - ”Sali haqiqati” V asrning oxiri - VI asrning boshlarida Xlodvig hukmronligi davrida tuzilgan. Boshqa frank qabilalarining sudebnigi - ”Ripuar haqiqati”ning asosiy qismi VI asrda vujudga keldi, lekin uning to‘liq nashri VIII asrga taalluqlidir. Alleman va Bavar haqiqatlari VIII asrda paydo bo‘lgan. Sakson va Tyuring haqiqatlari esa VIII asrning oxiri - IX asrning boshlarida vujudga kelgan. ”Varvarlar haqiqatlari”, “Alleman haqiqati”da yozib qo‘yilganidek, qirollar tomonidan ”eng aslzodalar” (yepiskoplar, gersoglar, graflar) va ”yig‘ilgan xalq” bilan birga yoki, ”Bavar haqiqati”da ko‘rsatilganidek, ”knyazlar va butun xristian xalqi bilan birga” yaratilgan.

“Sali haqiqati”dan uch va undan ko‘proq asr keyin yozilgan barcha sudebniklar o‘zlarida ancha eskirgan, qadimiy huquq me’yorlarini saqlab qolish bilan birga, feodal munosabatlar rivojlanishining yangi bosqichini ham aks ettirgan. Agar ”Sali haqiqati”da franklar jamiyatining o‘sha davrdagi rivojlanishi, urug‘-qabila aloqalarining yemirilishi jarayoni hali batamom nihoyasiga yetmaganligi, yerga nisbatan feodal xususiy mulkchilik hali to‘liq o‘rnatilmaganligi o‘z aksini topgan bo‘lsa, ancha keyingi ”haqiqatlar”da avlodning boshqa birovga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan yer mulki sifatida paydo bo‘lishi mustahkamlangan hamda ijtimoiy darajalanish, erkin kishilar orasidagi qaramlik munosabatlari va boshqalar ancha aniq ifodalangan. Shuningdek, ularning hammasi rim va cherkov huquqining muhim ta’siri ostida yozilgan edi.

”Varvarlar haqiqatlari” mazmunan ingliz-sakslar odat huquqlari yozuvlariga, xususan, Etelbert haqiqatiga (VI asrdagi), Ine haqiqatiga (690 yilgi), shuningdek, XII-XIV asrlarda tuzilgan skandinav provinsiyalarining sudebniklariga yaqin edi.

Sudebniklar orasida V asrda ostgotlarning qiroli Teodorix tomonidan yozilgan qonun (edikt)lar to‘plami alohida o‘rin tutadi. Mazkur qonunlarni o‘rganar ekanmiz, uning qator moddalari mazmunan ko‘p jihatdan o‘z davridan bir qadar olg‘a ketganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, edikt ”varvarlar haqiqatlari”dan farq qilib, qirollik hududida yashovchi barcha shaxslarga teng darajada tarqatilgan. Ya’ni unga ostgotlar ham, rimliklar ham bir xil darajada amal qilishgan. Ediktning diqqat markazida asosan xususiy shaxslarning yer mulkini rasmiylashtirish va himoya qilish turgan (10-12, 27, 75 va boshqa moddalar).

Teodorix o‘z qonunlari to‘plamini tuzishda ”idrok talablari”ni huquqiy asos qilib olganligini ko‘rsatadi. Bunday asoslash istilo qilingan rimliklardan o‘zlashtirib olingan edi. To‘plamning 155-moddasida ”eski huquq”qa, ya’ni rim huquqi me’yorlariga havola qilish uchraydi. Bunda

rim huquqi me’yorlarining hurmat qilinishi va bu haqida ostgotlarning qiroli doimo g‘amxo‘rlik qilib turishi lozimligi ko‘rsatiladi.

Qirol Rimga nisbatan o‘z sodiqligini, butun aholi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishini ta’kidlab, ediktning sudda ”taniqli va boy kishilar”, shuningdek, “biror harbiy va fuqarolik mansabini egallab turgan” qudratli kishilar tomonidan rahbariy asos qilib olinishi haqida buyruq bergan. Ehtimol, ediktni tuzishda faqat ostgot zodagonlari vakillarigina emas, rim zodagonlari ham ishtirok etgan bo‘lsalar kerak. Edikt bir vaqtlar XII jadval qonunlariga o‘xshab, bronzadan yasalgan doskalarga yozilgan va hamma ko‘rishi uchun maydonlarga osib qo‘yilgan edi.

German xalqlarida odat huquqi me’yorlari yozilishining bunchalik uzoqqa cho‘zilishi g‘arbiy Yevropaning janubida ham, shimolida ham feodal munosabatlarning asta-sekin tarqalishi bilan bog‘liq. ”Varvarlar haqiqatlari” turli davrlardagi tajribani, o‘zlari paydo bo‘lgan muayyan ichki va tashqi sharoitlarni aks ettirgan.

Shu bilan birga o‘sha vaqtdagi ijtimoiy muhitning bir tipdaliligi, xrestian mafkurasi va cherkovining o‘sib borayotgan ta’siri, alohida qabila guruhlarining joylashish chegaralari aniq emasligi, nihoyasiz urushlar davomida aralashib ketgan elitalarning qo‘shilib ketishi ”varvarlar haqiqatlari”ning va boshqa g‘arbiy Yevropa mamlakatlari huquq manbalarining mazmunan bir-biriga o‘xshashligini, yaqinligini belgilaydi. Masalan, ingliz-sakslar qiroli Etelbert o‘z qonunlarini chiqarishda ko‘p jihatdan ”Sali haqiqati”ga taqlid qilgan edi. Jumladan, Etelbert qonunlarining 90 ta moddasidan 19 tasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ”Sali haqiqati” va boshqa haqiqatlardagi moddalar bilan bir xil mazmunga ega edi.

“Varvarlar haqiqatlari” sudyalar uchun qo‘llanma vazifasini bajaruvchi sudebniklardir. Shu bilan birga ular ilk sinfiy jamiyatning barcha tomonlariga taalluqli huquqiy me’yorlalarni batartib bayon qiluvchi to‘plam-lar hisoblanmaydi. Ularning to‘liq emasligi, alohida parchalardan iboratligi (uzuq-yuluqligi), tizimga solinmaganligi - bularning hammasi ularning o‘sha davrga xos odat huquqi asosida vujudga kelganligi natijasidir. Albatta, ”varvarlar haqiqatlari” jamiyatdagi barcha xilma-xil urf-odatlarni o‘zida to‘liq aks ettira olmagan edi.

”Varvarlar haqiqatlari” uchun, shuningdek, turli tartibotlar va marosimlarning batafsil bayon qilinishi ham xarakterlidir. Bu ularning ilk feodal huquqida katta ahamiyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

”Varvarlar haqiqatlari” eski urug‘doshlik tuzumi qoldiqlarini o‘zida saqlab qolgan edi. Ushbu huquq yodgorliklarida shaxs jamoadan ajratilmagan, insonning huquqiy layoqati urug‘ga, jamoaga, katta oilaga

taalluqliligi bilan belgilangan edi. Bu jamoalardan tashqarida inson hech qanday huquqlarga ega bo‘lmasdi. Jamoadan, urug‘dan, oiladan haydab yuborish “Sali haqiqati”da nazarda tutilgan eng og‘ir jazolardan biri edi. Bir shaxs tomonidan sodir etilgan u yoki bu huquqbuzarlik uchun faqat o‘sha shaxsning o‘zigina emas, u taalluqli bo‘lgan ijtimoiy guruh - jamoa, urug‘, oila ham javobgar hisoblanardi.

”Varvarlar haqiqatlari” ilk feodal huquqining yagona manbai emas edi. Qirol hokimiyatining mustahkamlanishi bilan qirollik buyruqlari, farmoyishlari paydo bo‘ldi. Ular dastlab ”haqiqatlar”ni to‘ldirib, so‘ngra alohida rasmiylashtiriladigan bo‘ldi. Bunday manbalarga avvalo frank qirollarining kapitulyariylari kiradi. Birinchi kapitulyariy qirol Xlodvig davrida yozilgan. Kapitulyariylar, ayniqsa, Karolinglar davrida tez-tez chiqarilardi. Karolinglar qonunchiligi, shuningdek, katolik cherkovning ta’siri VIII-IX asrlarda germanlarning ilk feodal huquqi yangi hududiy tamoyilining o‘rnatilishiga olib kelgan.

Ilk feodal huquqi manbalariga, shuningdek, qirollar tomonidan yirik feodallarga berilgan **immunitet - yorliqlari** va boshqa **qoidalar – yorliqlarini** ham kiritish mumkin. Qoidalar - yorliqlarida hujjatlar namunalari o‘rnatilib, ularning yordamida hadya, oldi-sotdi singari bitimlar rasmiylashtirilardi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda ilk feodal huquqining asosiy manbalaridan biri odat huquqi hisoblanadi. **Odat huquqi** xalq (jamoa)ning huquq ijodkorligi mahsuli bo‘lib, shon-sharaf, qasam, qasos olish, murosaga kelish (va uning bahosi), jamoaviy javobgarlik va boshqalarga asoslangan.

Cherkov huquqi germanlarda huquqning muhim manbalaridan hisoblanadi.

Germanlar huquqining rivojlanishida qadimdan boshlab cherkov muhim o‘rin tutgan. Dastlabki asrlardan boshlab ko‘p sonli cherkov qonunlari (kanonlari), cherkov saborlari va sinodlarning qarorlari, alohida yepiskoplarning dekretlari va qarorlari yig‘ilib borgan.

Cherkov, shuningdek, ko‘p sonli ”jazolar haqidagi tuzuklar” ham chiqarib, ularda gunohlar ro‘yxati va bular uchun belgilangan jazolar batafsil bayon qilinardi. Xristianlik taqiqlari dunyoviy sudnomalarda ham mustahkamlangan. Cherkovga qarshi jinoyatlar uchun beriladigan jazolarni asoslashda ko‘pincha muqaddas diniy kitobga murojaat qilinardi. Masalan, Bavar haqiqatida monax ayolni o‘g‘irlaganlik uchun ”o‘zingizdan yovuzlikni yo‘qoting” degan tamoyil bo‘yicha jamoadan haydab yuborish jazosi nazarda tutilgan edi.

Agar dastlab jazolar haqidagi tuzuk faqat ruhoniylarga tadbiq etilgan bo‘lsa, u tez orada u yoki bu mintaqadagi barcha dindorlarga ham qo‘llanilardi. Zero, cherkov va dunyoviy yurisdiksiya chambarchas chatishib ketgandi. Gunohlar va jinoyatlarning tabiatida ham aniq farqlar yo‘q edi. Har qanday jinoyat gunoh hisoblanardi. Odam o‘ldirish, qasamni buzish, o‘g‘irilik eng og‘ir gunohlar sifatida ko‘rilgan. Bunday xatti-harakatlar uchun VI-X asrlarda deyarli butun g‘arbiy Yevropada nisbatan bir xil me’yorlar o‘rnatilgandi.

O‘sha vaqtda jinoyatlarga nisbatan munosabat bundan boshqacha bo‘lishi mumkin emasdi. Chunki ruhoniylar dunyoviy sud ishlarini yuritishda asosiy rol o‘ynardilar, qirollar esa ham dunyoviy, ham diniy hokimiyatga ega edi.

”Xalq huquqi” va cherkov huquqining o‘zaro munosabati va birbiriga ta’siri unisini ham, bunisini ham muhim o‘zgarishlarni boshidan kechirishiga sabab bo‘ldi. Bibliya yordamida cherkov germanlarning odat huquqiga xristianlarning ”o‘nta qat’iy qoidalari”ni va boshqa diniy pand-nasihat nufuziga ega bo‘lgan tamoyillarini tadbiq etgan. Masalan, cherkov jazolar haqidagi qonunnomada qamchi, kaltak bilan savalash singari jazolar bilan bir qatorda, gunohlar uchun omma oldida qilmishiga pushaymon qildirishni ham nazarda tutgan. XI asrda, faqat cherkovning dunyoviy hokimiyatdan nisbatan mustaqilligi o‘rnatilgandan so‘nggina cherkov gunohlarni afv etishni qonunlashtirdi. Cherkov, germanlar ishonadigan sehrgarlikni inkor etib, sehrgarlikni, folbinlikni cherkovning muqaddasligiga shak keltirish sifatida gunoh deb hisoblagan. Cherkov odatlarning diniy xarakterini ham, urug‘, tabiat, suv va olovning oliy muqaddasligini ham shubha ostiga olib, qonli qasos olishga, ordaliyalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshi chiqmagan, lekin ular kishilarni qutqarib qololmaydi, deb o‘rgatgan.

Xristianlik qasam ichishni sudda isbotlashning eng muhim vositalaridan biri sifatida tan olgan. Qasam ichish cherkovda ham qo‘llana boshlangan. 1215 yilga qadar cherkov nizolarni hal qilishda yakka-yakka olishuvga ham ruxsat etardi. Faqat shu yili din xizmatchilarining yakka-yakka olishuvlarda ishtirok etishi taqiqlangan edi.

Biroq, diniy me’yorlarning eski odatlarga kirib kelishi juda qiyinchilik bilan kechgan. VIII asrda Suasonda chaqirilgan cherkov soborlarida butlarga sig‘inishni taqiqlash haqidagi masala qayta-qayta qo‘yilgan edi. Soborlarning me’yoriy hujjatlari esa shundan darak beradiki, soborlarda varvarlarning urf-odatlarini yangi diniy e’tiqod va qoidalarga moslashtirishga qattiq turib harakat qilinardi. Eski odatlarni bartaraf etishning

qiyinligi haqida, masalan, Alleman haqiqatining ”yalmog‘izlarni yoqish va yeyish”ni taqiqlovchi me’yorlari ham guvohlik beradi.

Cherkov germanlarning huquqiga rim huquqi me’yorlarini ham kiritgan. Germanlar cherkovni rim huquqini ko‘tarib turuvchi deb hisoblaganlar. Ripuar haqiqatida cherkov rim huquqi asosida yashaydi, degan qoida bejiz mustahkamlanmagan edi.

German qirollari ”varvarlar haqiqatlari”ni maxsus qo‘llash tamoyilini rim huquqiga ham tarqatganlar. Masalan, 506 yilda vestgotlar qiroli Alarik II o‘z fuqarolari uchun ”Rim vestgotlari qonuni” (Lex Romana Visigothorum) nomi bilan mashhur bo‘lgan sudnoma chiqargan. Xuddi shuningdek, burgundlar qiroli Gundobad ham 437 yilda qisqartirilgan va soddalashtirilgan Feodosiya kodeksini amalga kiritgan edi. Bu ”Burgundlarning rim sudnomasi” degan nom bilan yuritilgan. Xlodvig o‘z podsholigining oxirida uni butun Galliya hududida amalga kiritmoqchi bo‘ladi, lekin ulgurmaydi.

Cherkov va qirollik qonunchiligi yordamida rim huquqining soxtalashtirilgan me’yorlari ”varvarlar haqiqatlari” ga kiritilgan. Bunga ularning lotin tilida yozilganligi ham yordam bergan. ”Varvarlar haqiqatlari”ga asosan yangi tarixiy sharoitlarga zid bo‘lmagan rim fuqarolik huquqi me’yorlari kiritilgan. Bunda nafaqat huquqiy me’yorlarning shakllanish usullari va metodlari, balki rim huquqi fuqarolik va protsessual huquq institutlarining aniq tizimi, rivojlangan yuridik texnikasi va boshqa fazilatlari yo‘qolib ketgan.

Mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi

”Varvarlar haqiqatlari” paydo bo‘lish vaqtiga qarab, yerga nisbatan feodal mulkchilik institutining, shu bilan birga shartnoma va meros huquqining asta-sekin shakllanish jarayonini aks ettirgan.

”Sali haqiqati”da sinfiy jamiyat, davlat va huquq tashkil topishining ancha qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlari o‘z aksini topib, hali mulk tushunchasi haqida yagona qoida o‘rnatilmagan edi. Alohida shaxslar yoki oilalar egaligi ostidagi harakatdagi ashyolarga nisbatan ”o‘ziniki” (suus), ”birovniki” (alienus) degan iboralar qo‘llangan. Franklarda harakatdagi ashyo hech qanday qarshiliksiz begonalashtirilishi, meros bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin edi. ”Sali haqiqati”ning ko‘pgina me’yorlari turli harakatdagi ashyolarga nisbatan mulk huquqining qo‘riqlanishiga bag‘ishlangan. Unda yirik shoxli chorvani, shuningdek, qo‘y, echki, it, kaptar, asalari, cho‘chqa va boshqalarni o‘g‘irlash holatlari

yuzasidan kelib chiqadigan javobgarliklar atroflicha va batafsil ko‘rsatib berilgan.

Chorvachilik germanlarning xo‘jaligida hukmron mavqeni egallardi. Chorva germanlarda boylik timsoli hisoblanib, oilani boqishni ta'minlagan. Franklar boshqa joylarga ko‘chib o‘tganlarida, qochib ketganlarida chorvalarini ham birga olib ketishardi. Ayirboshlash vositasi sifatida chorvadan foydalanilgan. Franklarda ”sog‘lom, ko‘radigan va shoxli” sigir 2,3 solid turardi.

“Sali haqiqati” oila egallab turgan yerga nisbatan egalik huquqini boshqacha tarzda mustahkamlaydi. Bunda tomorqa uchastkasi, haydaladigan yer va yaylov, o‘rmon bir-biridan farq qilingan. Qonunnomada atrofi o‘ralgan uchastka haqida ko‘p marta eslatib o‘tiladi. Unga ko‘ra, atrofi o‘ralgan uchastkaga o‘t qo‘yish va buzish uchun katta jarima nazarda tutilgan (XV bob, 5-modda). “Sali haqiqati”da turar joy, hovli hududi, tomorqa uchastkasiga oila mulki sifatida alohida ahamiyat berilgan. Kreditor qarzdordan qarzni to‘lashni talab qilish, javobgarni sudga chaqirish uchun aynan shu yerga kelardi. Nafaqat uy yoki hovliga kirib o‘g‘irlik sodir etganlik uchun (45-63 solid), balki quyosh botgandan so‘ng villa hududiga oddiy kirganlik uchun ham yuqori jarima jazosi nazarda tutilgan. Agar kimdir birovning villasiga eshikni buzib kirib, qo‘riqchi itni o‘ldirsa va odamlarga jarohat yetkazsa hamda u yerdan nimanidir aravada olib ketsa, bu bosqinchilik yo‘li bilan o‘g‘rilik sodir etish hisoblanib, buning uchun 200 solid jarima jazosi nazarda tutilgan. Bu esa ozod kishini o‘ldirganlik uchun to‘lanadigan vergeld bilan teng edi.

“Sali haqiqati” haydaladigan yer uchastkasining (allodning) xususiy egalikka o‘tkazilishi haqida ham turlicha ma’lumotlar beradi. Shuningdek, unda yaylovlar, o‘tloqlar, o‘rmonlar hali umumiy foydalanishda qolganligi qayd etiladi. “Sali haqiqati” haydaladigan maydon chegarasini xo‘jayinning ruxsatisiz buzganlik faktining o‘ziniyoq jazolaydi. Masalan, unda xo‘jayinning roziligisiz birovning maydoniga kirganlik uchun 3 solid (XXVII bob, 7-modda), birovning maydonini haydaganlik uchun 15 solid (XXVII bob, 24-modda), unga ekin ekkanlik uchun 45 solid (XXVII bob, 25-modda) jarima belgilangan. Agar begona odam jamoat dalasidan birovga ajratilgan uchastkaga kirsa, bu jinoyat hisoblanmagan. Agar u bunday uchastkadan xashak o‘rsa, unda faqat o‘rgan xashagi yaylov egasi foydasiga tortib olingan.

“Sali haqiqati”da yerni olish-sotish haqida hech narsa deyilmaydi. Yerni meros qilib qoldirish instituti endigina tug‘ila boshlagan edi. Yer o‘lgan kishining erkak avlodlariga meros tariqasida o‘tkazilardi (IX bob,

5-modda). ”Allodlar haqida”gi titulda[10], hatto o‘lgan kishining o‘g‘li bo‘lmasa, haydaladigan yer uchastkasi kimga o‘tkazilishi masalasi qo‘yilmagan ham edi. Aftidan, bunday yerlar egasiz qolgan mulk hisoblangan yoki urug‘ga o‘tgan. VI asrda bu masala boshqacha hal qilingan. Qirol Xilperik (561-584 yillar) ediktiga asosan yer meros tariqasida faqat o‘g‘illargagina emas, balki o‘lgan kishining qizlariga, aka-ukalariga, opa-singillari singarilarga ham o‘tishi mumkin edi. Bu vaqtda, shuningdek, alohida o‘tzor va o‘rmon uchastkalari ayrim shaxslarning avlod egaligiga ham o‘tkazilardi. “Alleman haqiqati” bo‘yicha xotin ham, agar uning bolalari bo‘lsa va kalonga emas, ozod kishiga erga tegsa, o‘lgan erining yerini meros tariqasida olishi mumkin edi.

“Sali haqiqati”ning bir qator titullari, jumladan, ”Ko‘chib kelganlar haqida”gi tituli franklarda yerga nisbatan jamoa egaligi saqlanib qolganligidan darak beradi. Jamoa hududiga ”begona” kishining ko‘chib kelishiga faqat butun jamoa a’zolari roziligi bilan ruxsat etilgan. Agar jamoa a’zolaridan, hatto bittasi bunga qarshilik ko‘rsatsa, ko‘chib kelgan ”begona” kishi darhol jamoani tark etishi lozim edi. Shu narsa xarakterliki, jamoa sudining ”begona” shaxsni ko‘chirish haqidagi qarorini ijro etuvchi graf ko‘chib kelgan kishining uyiga emas, u ishlaydigan jamoa yer uchastkasiga kelishi lozim edi.

Biroq “Sali haqiqati” bunday umumiy qoida o‘rnatish bilan birga unga istisno qilinadigan holatni ham belgilaydi. Agar ”begona” kishi jamoa hududiga ko‘chib kelib, bu yerda hech qanday qarshiliksiz bir yilu bir kun yashab ulgurgan bo‘lsa, unday holda uning yerga egalik huquqi qonun bilan himoya qilina boshlagan. “Sali haqiqati” asosan jamoa yerlarini qirolning yaqinlari tomonidan egallab olinishini tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, maxsus qirol yorliqlari asosida ko‘chib kelgan kishilarga qarshi jamoa a’zolarining e'tiroz bildirishi taqiqlangan. Qirol farmoyishlariga nisbatan e'tiroz bildirganlik uchun “Sali haqiqati” 200 solid jarimani nazarda tutadi.

“Sali haqiqati” paydo bo‘lganidan so‘ng bir necha asr o‘tgach, xususiy yer egaligi keng rivojlana boshlaydi. Alleman va Bavar haqiqatlarining birinchi va ikkinchi titullari mazmunan bir-biriga aynan o‘xshash bo‘lib, ular cherkov va cherkov yer egaligiga bag‘ishlanadi. Bu titullar shundan guvohlik beradiki, cherkov haydaladigan katta yer uchastkalariga, o‘rmonlarga, qullarga egalik qilardi. Ikkala haqiqatning birinchi moddalarida aytilganidek, “na qirol, na gersog, na boshqa kishi insonning o‘z jonini saqlab qolish niyatida cherkovga xudo yo‘lida uylar, yerlar, qullar yoki

[10] **Titul –** kitobning nomi, muallifi, nashr etilgan yili va shu kabilar yozilgan varag`i yoki beti.

pullar in'om qilishini taqiqlab qo‘ya olmaydi” (I titul, 1-modda). Cherkovga in'om qilingan yer uning ixtiyorida doimiy ravishda mustahkam saqlanib qoladi. “Bavar haqiqati”da qat’iy ta’kidlanishicha, kimningdir cherkovga hadya qilgan o‘z mulklarini qaytarib olish huquqi mavjud emas.

“Alleman haqiqati”da ham, “Bavar haqiqati”da ham cherkovga hadya qiluvchi kishining merosxo‘rlari tomonidan hadyaga qarshilik ko‘rsatishga qaratilgan har qanday urinishlarining oldi olinadi (II titul, 2-modda). Bundan tashqari, kishilarning mulkni qaytarib olishga qaratilgan urinishi, bir tomondan, ”Xudo sudi va muqaddas cherkovdan chetlashtirilishi”ga olib kelgan, ikkinchi tomondan, bunday kishilarga jarima solingan va mulk cherkovga qaytarilgan (I titul, 2-modda). Hadya qilingan yer faqat umrbod egalik qilish sharti bilan va hadya qiluvchi foydasiga ”tantanali va'da” qilingan hamma narsalarni undirish orqali qaytarilishi mumkin edi.

Xususiy yer egaligini faqat maydonlar emas, balki yaylovlar, o‘rmonlar ham qamrab ola boshlaydi. “Bavar haqiqati”da, masalan, bo‘lishib olingan o‘rmon - silva alterus degan tushuncha paydo bo‘ldi. Bunda o‘rmonlarning alohida oilalarga ajratib berila boshlanganligi e’tirof etilgandi. O‘rmonlarning feodal xususiy mulkchilikka o‘tkazilishi haqida birovning o‘rmonidan daraxtlarni kesish taqiqlanganligi va buning uchun jarima o‘rnatilganligi ham dalolat beradi (XII titul, 11-modda). “Bavar haqiqati”da “Sali haqiqati”dan farqli o‘laroq, yaylov uchastka, xuddi yer maydoni singari, bundan buyon erkin ravishda begonalashtirilishi mumkin edi. Bunda faqat yaylovni sotishning qonuniy ekanligi ”hujjat yoki guvohlar” yordamida tasdiqlanishi talab qilinardi (XVI titul, 2-modda).

Germanlarda birovning yer egaligi chegaralarini buzish qat’iy taqiqlab qo‘yilgan edi. Bu barcha ”varvarlar haqiqatlari”ga xos xususiyat bo‘lib, germanlarning egallab olingan hududlarda kuch bilan mustahkamlanib olishga qattiq urinishlarini aks ettirgan. Germanlarning yerga oid nizolarni, agar boshqa dalillar yetarli bo‘lmasa, ko‘p vaqtlar davomida yakka-yakka olishuv yo‘li bilan hal qilib kelganligi ham yuqoridagi fikrni yaqqol tasdiqlaydi. “Bavar haqiqati”ning butun bir tituli (XII tituli) birovning yer egaligi chegarasini buzganlik uchun jazolarga bag‘ishlangan. Chegarani, maydon yoki yaylovning farqiga bormay, oddiy buzganlik uchun erkin kishiga 6 solid jarima solingan, qulga esa 50 qamchi urilgan. Hatto yer uchastkasiga ”tasodifan”, bilmay, ”boshqa tomonlarning va qarab turuvchining roziligisiz” yangi chegaralar o‘rnatish uchun jarima nazarda tutilgan. Bunday harakat, agar erkin kishi tomonidan sodir etilsa, - jarima, agar qul tomonidan sodir etilsa, - 200 qamchi urish jazosi belgilangan (XII titul, 6-7-moddalar).

Majburiyat huquqi

Majburiyat munosabatlari franklarda uncha batafsil tartibga solinmagan edi. Bu franklarda o‘sha vaqtda hali tovar-pul munosabatlari, xususiy mulkchilik rivojlanmaganligidan, shuningdek, mayda dehqon natural xo‘jaligi hukmronligidan darak berardi.

“Sali haqiqati” majburiyatlarning kelib chiqish asoslari bo‘yicha ikkala turini ham nazarda tutadi. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar ko‘pincha jinoyat sodir etish natijasida vujudga kelgan. Masalan, o‘g‘rilik eshikni, binoni buzib yoki boshqa zararlar yetkazib sodir etilsa, jarima jazosi bilan birga yetkazilgan zararni undirish ham nazarda tutilgan.

“Sali haqiqati”da shartnomalarning ba’zi turlari haqida eslab o‘tiladi. Lekin unda shartnomalarning haqiqiyligi to‘g‘risidagi umumiy shartlar ko‘rsatilmaydi. Shunday bo‘lsa ham, oldi-sotdi, ayirboshlash, yuk tashish, garov, qarz, ssuda, hadya kabi shartnomalarni tuzishda tomonlarning erkin xohish bildirishlari nazarda tutilgan. Xohish bildirish boshqa shaxsga qarata ”yerga shoxcha” tashlash yo‘li bilan amalga oshirilgan yoki, boshqa manbalardan ma’lum bo‘lishicha, uyni sotishda xohish bildirish eshik qulfini o‘tkazish orqali bildirilgan va hokazo. Harakatdagi ashyoning haqiqiy egasi uni sotib olganligini yoki ayirboshlaganligini isbotlashi lozim edi. Aks holda, u o‘g‘ri deb e’lon qilinishi mumkin edi.

Shartnomani buzganligi uchun javobgar nafaqat mulkiy, balki shaxsiy javobgarlikka ham tortilardi. Majburiyatni bajarmagan qarzdor, qoida bo‘yicha, kreditorning quli bo‘lib qolardi. Ba’zi ”haqiqatlar” bo‘yicha, masalan “Bovar haqiqati”ga ko‘ra, qarzdor bilan bir qatorda uning xotini va bolalari ham qulga aylantirilar edi.

“Sali haqiqati”da qarz shartnomasi batafsil ko‘rib chiqilgan. Kreditor sud majlisini chetlab o‘tib, bevosita o‘zi qarzni undirish huquqiga ega edi. Kreditor guvohlar bilan qarzdorning uyiga borib, qarzni to‘lashni talab qilgan. Agar qarzdor ”majburiyat bo‘yicha qarzni to‘lashni xohlamasa, kreditor uni sudga chaqirgan. Agar qarzdor sudga ham kelmasa, kreditor bir haftadan so‘ng ikkinchi marta chaqirgan, shunda ham kelmasa, yana bir hafta o‘tgach, uchinchi marta chaqirgan. Qarzdordan har bir chaqirilganda sudga kelmaganligi uchun jarima undirilgan. Qarz graf va raxinburglar yordamida qarzdor mulkining tegishlicha qismini musodara qilish yo‘li bilan ham undirilishi mumkin edi. Bunday holda undirilgan qarzning uchdan bir qismi grafga kelib tushgan.

“Bavar haqiqati”da shartnomalar haqida ko‘proq qo‘shimcha boblarda gapiriladi. “Bavar haqiqati”ga 722 yilgi dekret bilan qo‘shimcha boblar kiritilgan edi. Ularda shartnoma huquqining ba’zi umumiy tamoyillari:

shartnomalarning qonuniyligi shartlari, ularning bekor qilinmasligi haqida, ”xohishning kamligi” to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi.

Shartnoma yoki bitim, “Bavar haqiqati”da aytilishicha, uch yoki undan ortiq guvoh ishtirokida yozma tuzilgan bo‘lsa, zinhor o‘zgartirilishi mumkin emas, chunki ularning amal qilish kuni va yili aniq ko‘rsatib qo‘yilgan (XVI titul, 16-modda). Agar ashyoni sotish o‘ldirish yoki turmaga qamash bilan qo‘rqitib yoki boshqacha zo‘rlik ishlatib amalga oshirilgan bo‘lsa, haqiqiy emas deb hisoblangan.

“Bavar haqiqati”da, shuningdek, sud qaroriga muvofiq garov, saqlash, ssuda shartnomasi haqida ham me’yorlar mavjud. Agar ashyo saqlashga topshirilib, bunda saqlovchining ”foyda olishi” nazarda tutilmagan bo‘lsa va ashyo ”baxtsiz hodisa tufayli nobud bo‘lsa”, ashyoni saqlovchi javobgar bo‘lmaydi. Saqlashga topshirilgan ashyoning o‘g‘rilanishidan kelib chiqqan zarar teng taqsimlanardi (XV titul, 5-modda). Oldi-sotdi shartnomasi narxning pasayganligi oqibatida bekor qilinishi mumkin emas edi. Agar sotilgan ashyoning nuqsoni yashirilgan bo‘lsa, u holda bunday shartnomani bekor qilishga yo‘l qo‘yilardi (XV titul, 9-modda). Oldi-sotdi shartnomasini ta’minlash uchun zakalat berilgan va kelishuv buzilgan taqdirda, ya’ni biror ashyoni sotib olaman deb, buning uchun zakalat berib, keyin uni sotib olmasa, zakalat qaytarib berilmasdi.

Nikoh va oila

Germanlarda oila patriarxal xarakterga ega bo‘lgan. Ota boshchilik qiladigan oila tarkibiga tug‘ishgan qarindosh-urug‘lar: bolalar, nevaralar, evaralar, ota-ona va boshqalar bilan bir qatorda yon shajara (bir tug‘ishmagan) qarindoshlar: tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar, ularning xotinlari ham kirgan. Oilalar qullar bilan, ba’zi hollarda esa, qurollangan mulozimlar bilan bir uyda yashaganlar.

Biroq, “Sali haqiqati” bo‘yicha ota hokimiyati uncha katta emas edi. Ota hokimiyati ko‘proq xotin, qiz yoki o‘g‘il ustidan qat’iy umrbod homiylikni eslatadi. O‘g‘il 12 yoshga to‘lgunga qadar ota homiyligida bo‘lardi.

“Sali haqiqati” nikohga ham xuddi oilaga o‘xshab juda kam moddalar ajratgan. Nikoh kelinning kuyov tomonidan sotib olinishi shaklida tuzilardi. Qizlarni nikohlab olish maqsadida o‘g‘irlash jarima bilan jazolanardi. Nikoh tuzishga: qonuniy nikohning mavjudligi, shaxsning qonundan tashqari deb e’lon qilinishi, yaqin qarindoshlik aloqasining mavjudligi, kishining erkin emaslik holati kabi holatlar to‘sqinlik qilardi.

Nikoh amalda kuyov va kelinning ota-onalari o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv asosida tuziladigan bitim edi. Nikoh tuzishda ota-ona roziligi talab qilinardi. “Sali haqiqati”ga muvofiq birovning kelinini olib qochganlik

uchun aybdor shaxs kuyovga 15 solid jarima to‘lashi belgilangan. Agar kimdir birovning xotinini o‘g‘irlasa, unga 200 solid jarima solingan (XV titul, 1-modda). Agar uch kishi erkin qizni o‘g‘irlasa, ularning har biri 30 soliddan jarima to‘lagan (XIII titul, 1-modda). Agar o‘g‘irlangan qiz qirol homiyligi ostida bo‘lsa, unda qiz o‘g‘rilarining har biri 62,5 soliddan jarima to‘lashi lozim edi (XIII titul, 2-modda). Qirollik quli yoki liti erkin ayolni o‘g‘irlasa, o‘limga mahkum etilgan (XIII titul, 7-modda). Teodorix edikti bo‘yicha, umuman birovning xotinini o‘g‘irlagan kishi o‘limga mahkum etilgan (11-modda). “Alleman haqiqati”da patriarxal oila elementlari yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Unda ota roziligisiz nikoh tuzish uchun jarima belgilangandi. Mazkur to‘plamga binoan amalda er xotinini sotishi mumkin edi.

Germanlarning odat huquqi alohida ijtimoiy tabaqalarning vakillari o‘rtasidagi, ayniqsa, qullar va erkin kishilar o‘rtasidagi nikohni taqiqlaydi. Qullar bilan nikohga kirish erkinlikning yo‘qolishiga olib kelgan. “Sali haqiqati” bo‘yicha, agar erkin kishi qul ayol bilan nikohga kirsa, u ham qul bo‘lib qolgan (XXV titul, 5-modda). Agar erkin ayol qul bilan nikohga kirsa, u ham qulga aylangan (XXV titul, 6-modda). “Sali haqiqati”ga qo‘shimcha qilingan birinchi Kapitulyariy bo‘yicha, qul bilan erkin ayolning nikohga kirishi qonundan tashqari deb hisoblangan va erkin ayolning mol-mulki davlat xazinasi foydasiga musodara qilingan, qarindoshlari esa uni sudsiz o‘ldirishlari mumkin edi. Erkin ayolga uylangan qul charxpalakka tortib o‘ldirilgan.

“Bavar haqiqati” bunday nikohlarga uncha shafqatsiz munosabatda bo‘lmagan. Erkin ayol erga tekkan odam qul ekanligini ”bilmaganligi”ni ko‘rsatib, undan osongina ketavergan (XXII titul, 17-modda). Franklarda qator qarindoshlar va quda tomondan qarindoshlar bilan nikohga kirish taqiqlangan edi. “Sali haqiqati” bo‘yicha, bunday nikohlar haqiqiy emas deb, bunday nikohlardan tug‘ilgan bolalar esa qonunsiz tug‘ilganlar deb hisoblanardi (XIII titul, 9-modda).

Franklarda erga chiqmagan ayol ba’zi mustaqillikdan foydalanardi. Manbalarda, masalan, beva xotinga nisbatan erining urug‘idagilar tomonidan homiylik qilinishi haqida hech narsa deyilmaydi. Shunday bo‘lsa ham, “Sali haqiqati”da beva xotinning huquqlari ma’lum darajada poymol qilinadi. Masalan, beva xotin sudning ruxsatisiz va o‘lgan erining qarindoshlariga ma’lum summa (reipus) to‘lamay turib ikkinchi marta erga tega olmasdi. Aks holda uning eridan 62,5 solid jarima undirilardi (XXIV titul).

Franklar odat huquqining muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, ayol o‘z mulkiga, sep-sidirg‘asiga ega bo‘lgan. Bunday mol-mulklarni

unga otasi emas, balki eri ”nikoh sovg‘asi” sifatida taqdim qilardi. «Sali haqida»gi qo‘shimcha qilingan birinchi Kapitulyariy sep-sidirg‘aning maxsus huquqiy rejimini mustahkamlaydi. Ayol o‘zining sep-sidirg‘asini hadya qilishi, sotishi mumkin emas edi. U o‘lgandan so‘ng sep-sidirg‘a uning bolalariga o‘tgan. Agar ayol ikkinchi marta nikohga kirgan bo‘lsa, sep-sidirg‘aning bir qismi erining yaqin qarindoshlariga o‘tkazilgan, ular bo‘lmasa xazinaga kelib tushgan. “Bavar haqiqati” ham bevalarning nikohga kirishini unchalik qo‘llab-quvvatlamaydi. Unga ko‘ra, agar beva ayol erga tegsa, birinchi eridan olgan mulklardan foydalanish huquqidan mahrum etilgan (XV titul, 8-modda).

“Sali haqiqati”da nikohni bekor qilish haqida hech narsa deyilmaydi. Lekin franklarning odat huquqi ajralish erkinligini o‘rnatgan edi. Bunda qarindoshlarning roziligi ham, boshqa rasmiy asoslar ham talab qilinmasdi. Bu sohada Teodorix edikti ancha talabchan edi. Unda ”sababsiz ajralish” taqiqlab qo‘yilgandi (49-modda), lekin fohishabozlikka ijozat berilardi (52-modda). Xristian cherkovining ta’siri ostida VII-IX asrlarda franklarning nikoh-oila huquqida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Buyuk Karl tomonidan (789 yilda) tasdiqlangan 744 yilgi Kapitulyariyda xristianlik qonun-qoidalari bilan muqaddas deb e’lon qilingan nikohning bekor qilinmasligi qoidasi o‘rnatildi.

VII-IX asrlar mobaynida nikohning cherkovda rasmiylashtirilishi majburiyligini o‘rnatuvchi, beva ayollarning qayta nikohga kirishini taqiqlovchi va boshqa shu kabi dastlabki qonun hujjatlari chiqarilgan edi.

Meros huquq

Merosning qonun bo‘yicha va vasiyat bo‘yicha turlari ma’lum. Qonun bo‘yicha meros ko‘chadigan va ko‘chmas mulklarga nisbatan turlicha amalga oshirilgan. Ko‘chadigan mulklar: birinchi navbatda bolalar, so‘ngra ona, aka-ukalar va opa-singillar, onaning opa-singillari, otaning opa-singillari, yaqin qarindoshlariga tartibida meros qilib qoldirilardi. Merosni taqsimlashda ona urug‘iga nisbatan bunday imtiyozlarning o‘rnatilganligi matriarxat qoldiqlarining saqlanib qolganligidan guvohlik beradi. Shunisi xarakterliki, ayollar ko‘chmas mulkka nisbatan meros huquqiga ega bo‘lmaganlar. Yer faqat ota shajarasi bo‘yicha meros bo‘lib o‘tgan.

Franklar huquqi vasiyat bo‘yicha meros haqida aniq me’yorlar o‘rnatmagan edi. Franklarda o‘lgan kishining mol-mulki oilaga, urug‘ga, yashab turgan qarindoshlariga tegishli deb hisoblanardi. Vasiyat bo‘yicha meros hadya (affotamiya) yo‘li bilan qoldirilishi mumkin edi. Affotamiya oshkora suratda yuzlik majlisida, tungin raisligida, qat’iy o‘rnatilgan shaklda amalga oshirilardi. Bunda mulk vaqtincha uchinchi shaxsga o‘tka-

zilgan, u esa hadya qiluvchi o‘lgandan so‘ng bir yil o‘tgach va bundan kechiktirmay mulkni ko‘rsatilgan shaxsga o‘tkazishi lozim edi.

Umumiy qoidaga xilof ravishda, rim huquqi ta’siri ostida vasiyat bo‘yicha meros instituti Teodorix ediktida mustahkamlandi. Bunda ham, hadyaga o‘xshash, qat’iy rasmiyatchiliklarga amal qilish talab qilingan. Ya’ni vasiyatni qonuniy deb tan olish uchun bu haqda guvohlar ishtirokida rasmiy hujjat tuzilishi va u chinovnik tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lishi shart edi (53-modda). Vasiyat xohlagan joyda, lekin ”o‘layotgan kishining irodasini so‘zsiz hurmat qilish” ostida tuzilishi belgilangan edi (30-modda).

Xristianlik joriy qilinishi bilan o‘lgan kishining mol-mulki cherkovga hadya tariqasida o‘tkazila boshlangan. Bu o‘lgandan keyingi hadya frank-larda va ingliz-saklarda keng tarqalgan bo‘lib, to‘la ma’nodagi vasiyat emas edi.

Jinoyat va jazo

”Varvarlar haqiqatlari”ning asosiy qismi jinoyat va jazo masalalariga bag‘ishlangan. Albatta, jinoyat va jazo tushunchalari hozirgi ma’noda ifodalanmasdi. ”Varvarlar haqiqatlari”da delikt - jinoyat deganda, avvalo, ozor yetkazish, birovning shaxsiga yoki mulkiga zarar yetkazish, ”qirollik tinchligini” buzish tushunilardi. Shunga monand, jazo, deganda ushbu ozor yoki zarar yetkazganlik uchun badal to‘lash, o‘rnini to‘ldirish tushunilgan.

Shu tariqa, ”varvarlar haqiqatlari” kechki jinoyat huquqi me’yorlarini qabul qilmagan edi. Ularda rim jinoyat huquqida bo‘lgani kabi o‘lim jazosi keng qo‘llanilmagandi. Franklarda jazoning maqsadi va vazifalari rim-liklarga qaraganda boshqacha bo‘lgan.

Franklarda jarima jazosining asosiy maqsadi ko‘p bo‘lib turadigan harbiy harakatlar, qonli qasos olish, o‘zaro urushlar, xonadonlar, urug‘lar, jamoa va boshqalar o‘rtasidagi dushmanliklarning oldini olishga qaratilgan edi.

“Sali haqiqati”da jinoyat tushunchasini anglatadigan qator huquqbu-zarliklar alohida ajratib ko‘rsatilgan. Umuman, “Sali haqiqati”ga ma’lum bo‘lgan barcha jinoyatlar to‘rt turga: 1) shaxsga qarshi jinoyatlar (odam o‘ldirish, tan jarohati yetkazish, tuhmat, haqorat, nomusga tegish va bosh-qalar); 2) mulkka qarshi jinoyatlar (o‘g‘rilik, o‘t qo‘yish, bosqinchilik); 3) sud qilish tartibiga qarshi jinoyatlar (sudga kelmaslik, yolg‘on guvohlik berish); 4) qirol farmoyishlarini bajarmaslikka (bunga ”Ko‘chib kelgan kishilar haqida”gi XLV titul misol bo‘la oladi) bo‘linadi. Biroq “Sali haqiqati”ning mazmunidan yuqoridagilar bilan birga mansabdorlik jinoyat-lari, harbiy jinoyatlar to‘g‘risida ham tasavvur qilish mumkin. Unga ko‘ra,

agar graf qarz undirishda ”qonundan tashqari ortiqcha biror narsa olsa” yoki ”haqiqat va odil sud”ni tiklashni rad etsa, o‘z aybini sotib olishi lozim edi. Aks holda o‘limga mahkum etilardi (L-LI titullar). Shuningdek, birovni jang maydonida o‘z qalqonini tashlagan ”qochoq” deb haqorat qilganlik uchun (XXX titul, 6-modda) jarima (3 solid) to‘lash jazosi nazarda tutilgandi. Demak, jang maydonini tashlab ”qochish” harbiy jinoyat turkumiga kirgan deb hisoblash mumkin. “Alleman haqiqati”da xuddi shunday tarzda jang maydonini tashlab ”qochish” jinoyat ekanligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatib qo‘yilgan.

”Varvarlar haqiqatlari”da ”cherkovni tahqirlash” turkumiga kiruvchi jinoyatlar ham ajratib ko‘rsatiladi. Xristian cherkovi jinoyat va jazo tushunchalarining o‘zgarishiga katta ta’sir o‘tkazgan. ”Cherkovni tahqirlash yoki unga nisbatan hurmatsizlik qilish” kabi tushunchalar “varvarlar haqiqatlari”ga bevosita xristianlik cherkovi ta’siri ostida kirganligi shubhasiz, albatta. Masalan, Alleman va Bavar haqiqatlarida bir qator jinoyatlarning, jumladan, odam o‘ldirish jinoyatining cherkovda yoki cherkov hovlisida sodir etilganligiga qarab kvalifikatsiya qilinishi fikrimizning dalilidir. Bunday jinoyatlar yuqorida aytib o‘tilgan ”cherkovni tahqirlash” jinoyatlari turkumiga kirib, bular uchun jabrlanuvchi va uning qarindoshlari foydasiga emas, balki, avvalo, cherkovning foydasiga katta jarima olinar edi. “Bavar haqiqati” aynan cherkovning ta’siri ostida ”davomiy kompensatsiya” jazosini joriy qilgan edi. Bunga ko‘ra, masalan, biror kishi homilador ayolni urib, homilasini tushurib qo‘ysa, ya’ni hali tug‘ilmagan bolaning o‘limiga sababchi bo‘lsa, u dastlab 12 solid, so‘ngra boyagi ayolning yettinchi tug‘ishiga qadar har safar 1 soliddan jarima to‘lashi lozim edi. (VIII titul, 21-modda).

“Sali haqiqati”da jazolar haqida so‘z ketar ekan, shu narsa ko‘zga yaqqol tashlanadiki, franklarda eski urug‘doshlik tuzumi davridagi barcha jazolarni to‘liq ravishda jarimalarga almashtirishga moyillik kuchli bo‘lgan. Jarima sudsiz jazolarning, uzoqqa cho‘ziladigan qiynoqlarning oldini olishi kerak edi. “Sali haqiqati”ning ba’zi moddalari sudsiz jazolashni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘qqa chiqargan. Masalan, ekin maydonini payhon qilganligi uchun birovning chorvasini o‘z holicha olib ketish taqiqlangan (IX titul, 5-modda), shuningdek, ”o‘g‘rining izidan tushib” o‘z chorvasini undan sudsiz tortib olish ham mumkin emas edi (XXVII titul, 1-modda) va hokazo. “Sali haqiqati” jinoyatchini jamoadan haydash yoki qonundan tashqari deb e’lon qilish deb nomlanadigan jazo turini ham o‘z ichiga olgan (V titul, 2-modda). Bunday odamga ovqat va boshpana berish taqiq-

langan edi, hatto unga xotini va bolalari yordam bersalar, ularga jarima solinardi.

Shuni ta’kidlash joizki, franklarda sudsiz jazolash birdaniga yo‘qolib ketmagan. ”Varvarlar haqiqatlari”da sudsiz jazolashga ham uzoq vaqt ruxsat etib kelingan. Masalan, “Bavar haqiqati”da ”kechasi jinoyat ustida ushlab olingan” o‘g‘rini o‘ldirishga ruxsat etilgandi (IX titul, 4-modda). Bu, aftidan, XII javdal qonunlaridan so‘zma-so‘z ko‘chirib olingan bo‘lsa kerak. “Sali haqiqati”da belgilangan o‘lim jazosining osib o‘ldirish, charxpalakka tortib o‘ldirish kabi turlari asosan qullarga nisbatan qo‘llanilgan. O‘lim jazosi erkin kishilarga nisbatan juda kam hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilgan. “Sali haqiqati”da ko‘rsatilishicha, erkin kishilar o‘t qo‘yishda ayblanib, sudga uzrli sababsiz kelmasalar, o‘limga mahkum etilishlari mumkin (XVI titul, 1-modda).

”Varvarlar haqiqatlari”da eski urug‘doshlik tuzumining qoldig‘i sifatida jamoa javobgarligi tamoyili saqlanib qolgan. Buni avvalo I Kapitulyariyda nazarda tutilgan ”Qadimiy odatga” havola qilish hollaridan ko‘rish mumkin. Shuningdek, “Sakson haqiqati”ning XVIII titulida odam o‘ldirgan litning o‘z yetti qarindoshi bilan birgalikda javobgarlikka tortilishi ham franklarda saqlanib qolgan jamoa javobgarligidan darak beradi.

Franklarda sodir etilgan barcha mulkiy jinoyatlar uchun jarima jazosi bilan birga o‘g‘rilangan mulkning va boshqa yetkazilgan zararning qiymatini undirish talab qilingan. “Sali haqiqati”da o‘rnatilganidek, ”Agar kimdir birovning yaylovidan o‘tlarini o‘rib olsa, mehnati zoe ketgan”. ”Va, agar ushbu xashakni o‘z uyiga olib borib qo‘ysa, o‘g‘rilangan xashakning narxidan qat’i nazar, undan 45 solid jarima hamda yetkazilgan zarar undirilgan” (XXVII titul, 10-11-moddalar). Xuddi shuningdek, ”Agar qul bilan erkin kishi til biriktirib o‘g‘rilik sodir etishsa, ulardan yetkazilgan zararning qiymatini undirish bilan birga, quldan o‘g‘rilangan mulk qiymatining ikki baravar, erkin kishidan to‘rt baravar narxi miqdorida jarima olingan (XL titul, 1-qo‘shimcha).

Franklarda jarima ozor yetkazilganlik uchun to‘lov tariqasidagi asosiy jazo sifatida uzoq vaqt qo‘llanib kelgan. Lekin bu jazo oqibatda astasekin yetkazilgan zararni oddiygina undirishga aylanib bordi, shuningdek, ko‘proq o‘lim jazosi, kaltaklash, mol-mulkni musodara qilish, surgun qilish kabi jazolar bilan almashtirila boshlandi. Masalan, agar turli xildagi o‘g‘irliklar uchun “Sali haqiqati”da asosan jarima va yetkazilgan zararni undirish jazolari nazarda tutilgan (II, III, IX, XI, XII, XIII, XIV va boshqa titullar) bo‘lsa, “Sakson haqiqati”da ko‘proq o‘lim jazosi belgilangan edi (XXIX, XXX, XXXII-XXXV titullar va hokazo).

”Varvarlar haqiqatlari” ancha murakkab va chalkash tuzilganligi sababli ularning barcha jinoiy xatti-harakatlarga taalluqli umumiy qoidalarini aniq ajratib olish qiyin. Lekin alohida jinoyatlar tarkiblarini tahlil qilish shundan darak beradiki, ”Varvarlar haqiqatlari”da ayb shakllari: qasd va ehtiyotsizlik, jinoyatga suiqasd qilish, ishtirokchilik, jinoyatni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar tushunchalari nazarda tutilgan. Masalan, “Sali haqiqati” bo‘yicha, erkin kishi birovning chorvasiga “ehtiyotsizlik” orqasida zarar yetkazsa, undan faqat keltirilgan zarar undirilgan (IX titul, 3-modda). Agar kimdir o‘z dalasida birovning chorvasini ko‘rib qolsa, uni urib mayib qilishi mumkin emas edi. Agar u shunday qilib, aybiga iqror bo‘lsa, mayib qilgan chorvani o‘zi olib, qiymatini chorva egasiga to‘lashi lozim, agar aybiga iqror bo‘lmay, u fosh qilinsa, keltirilgan zararni undan undirish bilan birga 15 solid jarima ham olingan (IX titul, 1-modda).

Bu yerda yetkazilgan zararni tan olish - qilmishiga iqror bo‘lish aybni yengillashtiruvchi holat hisoblangan. Yomon niyat uchun, ”dush-manlik yoki makr-hiyla yo‘li bilan” zarar yetkazganlik uchun bir muncha yuqori jarima ko‘zda tutilgan. “Sali haqiqati”ning ”g‘alamislik haqida”gi XXVIII titulida jinoyat qilishga undash, jinoyatda ishtirokchilik to‘g‘risida ancha aniq me’yorlar o‘rnatilgan. Bunda ”kimdir birovni o‘g‘rilik sodir etish uchun sotib olsa va fosh qilinsa, 62,5 solid jarima to‘lashi (1-modda) hamda o‘g‘rilikka undovchi, unda ishtirok etuvchi va uni bajaruvchi shaxslar alohida-alohida ravishda 60 soliddan jarima to‘lashga tortilishlari (3-modda) belgilangan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda franklar huquqi, jumladan, “Sali haqiqati” aybsiz javobgarlikni ham biladi. Agar bir to‘da kishilar erkin ayolga hujum qilib, zo‘rlik bilan nomusiga tegsa, ularning har biri 200 soliddan jarima to‘lagan. Biroq shu to‘dada bo‘lib, zo‘rlik ishlatilganligini bilmay, unda ishtirok etgan kishilar ham 45 soliddan jarima to‘lashlari lozim edi (XIII titul, 10-modda, 5-qo‘shimcha). Jinoyat qilishga suiqasd qilgan ishtirokchi qoida bo‘yicha jinoyatni bajaruvchisiga qaraganda yengilroq jazolangan. Shu bilan birga o‘g‘rilik yoki odam o‘ldirishga pul berib odam yollagan shaxs jinoyatni bajaruvchi shaxsga nisbatan og‘irroq jazolangan (XXVIII titul, 1-3-moddalar).

Umumiy tan olingan bir qator qadriyatlarni buzish, jumladan, uxlab yotgan odamga, ayol kishiga, yosh bolaga hujum qilish, o‘likni haqoratlash kabilar aybni og‘irlashtiradigan holatlar sanaladi. Masalan, agar qabrni ochib, undan biror narsa o‘g‘irlaganlik uchun 200 solid jarima o‘rnatilgan

bo‘lsa, ayni vaqtda erkin frankni talash maqsadida unga hujum qilishlik uchun - 62,5 solid jarima belgilangan edi.

”Varvarlar haqiqatlari”ning hammasi jazo tayinlashda jinoyatchi va jabrlanuvchining ijtimoiy ahvolini hisobga olgan. Jinoyatchi va jabrlanuvchining erkin kishimi yoki qulmi, taniqli odammi yoki uncha taniqli odam emasmi, boymi yoki kambag‘almi - ana shularga qarab jazolar yengilroq yoki og‘irroq berilgan. “Sali haqiqati”ga binoan, agar rimlik frankning mulkini o‘g‘irlasa, 62,5 solid, va aksincha, agar frank rimlikning mulkini o‘g‘irlasa, 35 solid jarima to‘lashi lozim edi (XIV titul, 1-3-moddalar). Xuddi shuningdek, Teodorix ediktining 59-moddasida o‘rnatilganidek, taniqli urug‘ga mansub bo‘lgan badavlat kishi erkin qizni ”yo‘ldan ursa”, uni xotinlikka olishi lozim edi. Agar qizni ”yo‘ldan urgan” odam badavlat ham, taniqli ham bo‘lmasa, u ”erkin qizning sha’nini poymol qilgan odam sifatida o‘limga mahkum etilgan”.

Franklar jamiyatida davlatga qarshi jinoyatlar haqida hali uncha aniq tasavvurlar bo‘lmasa ham, ”Varvarlar haqiqatlari”da shunday mazmunga ega bo‘lgan xatti-harakatlar jinoyat sifatida e’tirof etilganligi ko‘zga tashlanadi. To‘g‘ri, “Sali haqiqati”da bunday jinoyatlar haqida hech narsa deyilmaydi. Biroq, uning ba’zi moddalarida qirolga, uning mol-mulkiga, irodasiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar alohida e’tiborga olinadi. Teodorix edikti esa bu sohada rim huquqidan o‘zlashtirib olgan me’yorlari bilan ajralib turadi. Masalan, unda ”janobi oliylarini haqorat qilganlik” uchun (49-moddada), shuningdek, ”xalqni va qo‘shinlarni isyonga undashlik” uchun (107-modda) o‘lim jazosi nazarda tutilgan. Umumiy qoidaga qaramay, bunday jinoyatlar bo‘yicha qul, kolon yoki xizmatchilarning o‘z xo‘jayiniga xabar berishiga yo‘l qo‘yilgan.

Alleman va Bavar haqiqatlarida nafaqat qirol, gersog, ularning elchilari va boshqalar, balki xalq, davlat ham jinoiy xatti-harakat sub’yekti sifatida ko‘rila boshlagan. ”Bavar haqiqati”da talonchilik uchun o‘zga xalqni taklif qilish yoki ”davlatning dushman tomonidan bosib olinishiga ko‘maklashish” og‘ir jinoyat hisoblanib, buning uchun mol-mulkni musodara qilish va o‘lim jazosi nazarda tutilgan (II titul, 1-modda). Bundan tashqari, “Bavar haqiqati”da gersogga qarshi fitna uyushtirish, qo‘shinda isyon ko‘tarish (II titul, 3-modda), ”provinsiyaga dushmanni chaqirish” va boshqa jinoyatlar to‘g‘risida ham so‘z yuritiladi. “Alleman haqiqati” bo‘yicha esa, hatto faqat ”shovqin-suronli to‘da”da ishtirok etishning o‘ziyoq davlat xazinasi foydasiga 60 solid jarima jazosi berilishiga asos bo‘lgan.

”Varvarlar haqiqatlari”da jinoyatlarning ma’lum qismi shaxsga tajovuz qilishga taalluqlidir. Bunda avvalo odam o‘ldirish jinoyati ”haqiqat-

lar”ning diqqat markazida turadi. Odam o‘ldirganlik uchun undiriladigan vergeldning miqdori faqat o‘lgan shaxsning ijtimoiy ahvoliga emas, balki uning yoshi, jinsiga ham qarab belgilangan. “Sali haqiqati” bo‘yicha, erkin frankni o‘ldirganlik uchun ancha yuqori vergeld - 200 solid (XLI titul, 1-modda), rimlikni o‘ldirganlik uchun esa 62,5 solid vergeld (XLI titul, 7-modda) ko‘zda tutilgan. Qirollik xizmatida turgan frankni o‘ldirganlik uchun uch baravar ko‘p vergeld undirilgan. Masalan, grafni, qirollik mansabdorini o‘ldirganlik uchun 600 solid miqdorida vergeld o‘rnatilgan edi. Agar o‘ldirilgan graf yarim erkin lit yoki qirolning quli bo‘lsa, u holda vergeldning miqdori 300 solidni tashkil qilgan (XLI titul, 5-modda). Harbiy yurishlar vaqtida qirollik drujinachisini o‘ldirganlik uchun, shuningdek, ruhoniylar vakillarining hayoti uchun ancha yuqori vergeld nazarda tutilgan. Ruhoniyni o‘ldirganlik uchun - 600 solid, yepiskop uchun - 900 solid vergeld to‘langan.

Ma’lumki, V-VI asrlarda franklarda xristian cherkovining ta’siri va nufuzi nihoyatda kuchayishi va buni ”varvarlar haqiqatlari”da o‘z aksini topishi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bu vaqtda qirollar o‘z hokimiyatlarini mustahkamlash va yanada kuchaytirish maqsadida cherkovning, rim papasining asosiy himoyachilari sifatida maydonga chiqardilar. Buyuk Karl doimo ”mening vazifam - cherkovni himoya qilish, cherkovning vazifasi esa - men uchun ibodat qilish” deb ta’kidlar edi.

Ana shundan kelib chiqib cherkovga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun ancha og‘ir jazolar o‘rnatilgan edi. Ruhoniyga, cherkov mulkiga nisbatan tajovuzlar va boshqa shu kabi xatti-harakatlar uchun beriladigan jazolar kuchaytirilgandi. Masalan, “Bavar haqiqati”ga ko‘ra, yepiskopni o‘ldirganlik uchun ”o‘lgan yepiskop bo‘yiga moslab qo‘rg‘oshindan tayyorlanadigan kiyimning og‘irligi” miqdorida oltin to‘lashdan iborat bo‘lgan ramziy xarakterdagi jazo belgilangan edi. Agar bunday qilishning iloji bo‘lmasa, u holda jinoyatchiga uning yerlarini, qullarini, uylarini cherkov foydasiga musodara qilib, o‘zini, xotini va bolalarini qulga aylantirish jazosi qo‘llangan (I titul, 10-modda).

“Alleman haqiqati”da mavhumiy shaklda shunday qoida yozib qo‘yilgan edi: ”cherkovga qarshi har qanday g‘ayriqonuniy xatti-harakat uchun uch baravar to‘lash lozim” (XXI titul). Unga binoan faqat xristian cherkovining yuqori mansabdorlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchungina emas, balki oddiy dyakonlar, monaxlar, ularning qarindoshlariga va hatto cherkov qullariga qarshi jinoyatlar uchun ham jazolar qattiq belgilangan edi (“Alleman haqiqati”, XI-XV titullar). Jinoyat va jazo masalalarida “Sali haqiqati” bo‘yicha qul yoki litning huquqiy holatida

jiddiy farqlar bo‘lmagan. Agar qul yoki lit erkin kishini o‘ldirsa, o‘lgan kishining qarindoshlariga vergeldning yarmini bergan, vergeldning ikkinchi yarmini uning xo‘jayini to‘lagan (“Sali haqiqati”, XXXV titul, 5-modda).

“Varvarlar haqiqatlari”ning barchasida erkin ayolning hayoti, sog‘lig‘i va qadr-qimmati alohida himoya qilinishi ko‘rsatilgan. “Sali haqiqati”-ga ko‘ra, bola tug‘ishi mumkin bo‘lgan ayolni o‘ldirganlik uch baravar ko‘p miqdorda, ya’ni 600 solid vergeld nazarda tutilgan (XXIV titul, 6-modda). Agar o‘ldirilgan erkin ayol o‘limidan ilgari bola tug‘ish qobiliyatiga ega bo‘lmagan bo‘lsa, u holda uni o‘ldirgan kishidan 200 solid jarima undirilgan (XXIV titul, 7-modda). Agar kimdir homilador erkin ayolni urib o‘ldirsa, bunda vergeldning miqdori 700 solidni tashkil etgan (XXIV titul, 3-modda). “Alleman haqiqati”da ayol kishini o‘ldirish umuman aybni og‘irlashtiruvchi holat hisoblangan. Unda ko‘rsatilishicha, ayol kishini o‘ldirganlik uchun ”erkin kishini o‘ldirganga nisbatan ikki baravar ko‘p vergeld” to‘langan (XLIX titul, 2-modda). “Bavar haqiqati”da hali ”ayol qo‘lida qurol bilan o‘zini himoya qila olmasligi” ko‘rsatilib (IV titul, 29-modda), unga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun og‘irroq jazolar o‘rnatilgan edi.

“Sali haqiqati”ga binoan, qirol xizmatida turgan shaxsni uning uyiga bir to‘da bo‘lib bostirib kirib o‘ldirganlik uchun aybdor shaxsga nisbatan to‘qqiz baravar ko‘p miqdorda vergeld - 1800 solid jarima solingan (XLII titul, 1-modda). Agar bunday holda o‘ldirilgan odam qirollik xizmatida turmagan shaxs bo‘lsa, vergeldning miqdori 600 solidni tashkil etardi (XLII titul, 2-modda). “Sali haqiqati”da to‘da va uning odam o‘ldirishdagi javobgarligi tushunchasiga ham izoh berib o‘tilgan. Unga ko‘ra, 5-7 kishi to‘planib turgan vaqtda ularning ichidan bittasi o‘ldirilgan bo‘lsa, qolganlari aybdorni ushlab topshirishlari lozim bo‘lgan, aks holda, bu jinoyat uchun ularning hammasi javob bergan (XLIII titul, 1-modda). Agar bunda to‘planib turgan kishilar 7 tadan ortiq bo‘lsa, u holda odam o‘ldirish jinoyati uchun ularning hammasi emas, balki faqat aybi isbotlangan shaxslar javob bergan va vergeld to‘lagan (XLIII titul, 2-modda).

”Varvarlar haqiqatlari”da nafaqat shaxsning hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun, balki uning sog‘lig‘i, qadr-qimmati va sha’niga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun ham qattiq javobgarliklar o‘rnatilgan. Jumladan, “Sali haqiqati”da tan jarohatlari yetkazish, urish-do‘pposlash, so‘z yoki harakat bilan haqorat qilish kabi jinoyatlarning turli ko‘rinishlari batafsil sanab o‘tilgan. Tan jarohatlari yetkazganlik uchun jarimalarning miqdori 9 soliddan 200 solidgacha belgilangan. ”Agar kimdir erkin kishini

axtalasa, 200 solid jarima to‘lagan” (XXIX titul, 9-modda). ”Agar kimdir birovning qo‘li yoki oyog‘ini mayib qilsa, ko‘zi yoki burnidan mahrum etsa, undan 100 solid jarima undirilgan” (XXIX titul, 1-modda). ”Agar mayib qilingan qul joyida osilib turgan bo‘lsa, aybdordan olinadigan jarimaning miqdori 62,5 solidni tashkil etgan” (XXIX titul, 2-modda). Qo‘l yoki oyoqning katta barmog‘ini uzib olganlik uchun -50 solid, ”ikkinchi piyoz yuladigan barmoqni” uzib olganlik uchun - 35 solid, tishini urib sindirganlik uchun - 15 solid jarima belgilangan (XXIX titul, 3-5-moddalar). ”Agar kimdir birovning tiliga zarar yetkazganligi natijasida, u gapira olmaydigan bo‘lib qolsa, aybdorga nisbatan 100 solid jarima solingan. Birovning to‘rtinchi barmog‘ini uzib olgan shaxs 9 solid jarima to‘lashi lozim edi.

“Alleman haqiqati”da yuqoridagi jinoyatlar yanada ko‘proq aniqlashtirilgan. Ularning ro‘yxatiga haqoratomuz ravishda ”soch yoki soqolini olib tashlash” jinoyati (buning uchun 12 solid jarima nazarda tutilgan) va boshqalar ham kiritilgan edi.

“Bavar haqiqati” ham jinoyatlar ro‘yxatini berishda o‘ziga xosligi bilan ajralib turmaydi.

”Varvarlar haqiqatlari”da so‘z yoki harakat bilan haqorat qilganlik uchun jarima tayinlashda tomonlarning ijtimoiy ahvoliga, haqoratning og‘irligiga e’tibor berilgan. “Sali haqiqati” bo‘yicha erkin frankni oddiy haqorat qilish - ”badbashara, quyon, bo‘ri, yolg‘onchi” kabi xafa qiladigan iboralar bilan kamsitish uchun 3 solid, harakat bilan haqorat qilish uchun esa - 15 solid jarima belgilangan. Unda, ayniqsa, ayol kishini haqorat qilish, asossiz ravishda ”fohisha” deb atash qattiq jazolangan. Bunday holda jarimaning miqdori 45 solidni tashkil etgan (XXX titul, 1-6-moddalar). Xuddi shuningdek, erkak va ayollarni ”jodugarning sherigi” deb haqorat qilganlik uchun alohida jazoga tortilgan.

Franklarda mulk huquqi juda keskin choralar bilan himoya qilingan. Shu sababli ”varvarlar haqiqatlari”da ham, avvalo, mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar to‘g‘risida ko‘pgina me’yorlar o‘rnatilgan edi. “Sali haqiqati” ning dastlabki titullariyoq aynan shunday jinoyatlar uchun javobgarliklar belgilaydi. Uning II tituli ”cho‘chqalarni o‘g‘irlash haqida”gi, III tituli ”shoxli hayvonlarni o‘g‘irlash haqida”gi, X tituli ”qullarni o‘g‘irlash haqida”gi va boshqa qator titullari turli o‘g‘riliklar va talonchiliklar haqidagi jinoyatlarga bag‘ishlanganligi ham bejiz emas. O‘g‘rilik jinoyati uchun jazo tayinlashda, avvalo, uni sodir etgan shaxsning ijtimoiy ahvoli, so‘ngra o‘g‘rilikning qanday usulda qilinganligi, qancha miqdorda bo‘lganligi kabilar hisobga olingan. Albatta, o‘g‘rilangan mulk kimga tegishli

ekanligi jazo tayinlashda muhim edi. “Sali haqiqati”ning o‘g‘rilik jinoyatlari haqida quyida belgilangan qator me’yorlari fikrimizga dalil bo‘lishi mumkin. Birovning cho‘chqasini o‘g‘irlaganlik uchun - 3 solid (II titul, 1-4-moddalar), emadigan buzoqchani o‘g‘irlaganlik uchun ham - 3 solid, bir yoki ikki yoshli qoramolni o‘g‘irlaganga - 15 solid (III titul, 1-2-moddalar), qulini o‘g‘irlasa - 30 solid jarima nazarda tutilgan. (X titul, 1-modda). ”Agar kimdir erkin kishiga to‘satdan hujum qilib, uning mol-mulkini talonchilik yo‘li bilan tortib olsa va bu fosh qilinsa, unga 62,5 solid jarima solingan” (XIV titul, 1-modda). Birovning uyiga, omboriga, qo‘rasiga o‘t qo‘yganlik uchun ham 62,5 solid jarima ko‘zda tutilgan.

Umuman o‘g‘irlangan mulkning qiymatiga va o‘g‘rilikning oddiy yoki malakali sodir etilishiga qarab, uni uch turga: 1) summasi 2 dinardan[11] 40 dinargacha bo‘lgan o‘g‘rilik; 2) summasi 40 dinardan yuqori bo‘lgan o‘g‘rilik; 3) binoni buzib yoki kalit yasash yo‘li bilan qilingan o‘g‘rilikka ajratish mumkin. Erkin kishilar tomonidan sodir etilgan barcha hollardagi o‘g‘rilik uchun tegishli 15, 35 va 45 solid jarima o‘rnatilgan edi. Agar shunday o‘g‘rilikni qul sodir etsa, birinchi holda yetkazilgan zarar undirilgan, ya’ni o‘g‘irlangan narsa egasiga qaytarilgan va qulga 120 qamchi urilgan, ikkinchi holda axtalash yoki jarima jazosi qo‘llangan, uchinchi holda esa - o‘g‘ri qul o‘limga mahkum etilgan.

“Bavar haqiqati”da umuman barcha turdagi o‘g‘riliklar uchun o‘g‘irlangan mulk qiymatining 9 baravari miqdorida jarima o‘rnatilgan edi (IX titul, 1-modda). “Sali haqiqati”da erkin kishilarni o‘g‘irlash (XX titul, 10-modda) kabi jinoyatlar bilan birovning otini yoki o‘rgatilgan hayvonini o‘g‘irlash, uyiga, omboriga, bostirmasiga o‘t qo‘yish, uyini buzish, panjarasini sindirish, begona ashyodan o‘zboshimchalik bilan foydalanish kabi jinoyatlar uchun ham javobgarliklar o‘rnatiladi.

”Varvarlar haqiqatlari”da nazarda tutilgan jinoyatlarning alohida guruhini axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar tashkil etgan. Xususan, “Sali haqiqati” bo‘yicha bunday jinoyatlar turkumiga ”erkin qizni zo‘rlash”, tomonlarning o‘zaro roziligi asosida g‘ayriqonuniy jinsiy aloqa qilishi kabi jinoyatlar kiritilgan. ”Agar kimdir erkin qizni zo‘rlab nomusiga tegsa, unga 62,5 solid jarima solingan” (XXV titul, 1-modda). ”Agar kimdir erkin qiz bilan uning roziligi va o‘zaro kelishuv asosida jinsiy aloqa qilsa, unga 45 solid jarima jazosi” berilgan (XXV titul, 2-modda). ”Agar qandaydir erkin kishi birovning cho‘risi bilan jinsiy aloqada bo‘lsa va bu fosh etilsa, u holda cho‘rining xo‘jayiniga 15 solid jarima” to‘langan (XXV titul, 3-modda). ”Agar erkin kishi begona cho‘ri bilan ochiqdan-ochiq nikohga

[11] **Dinar –** solidning 1/40 qismi.

kirsa, u ham cho‘ri bilan birga qul bo‘lib qolgan” (XXV titul, 5-modda). Xuddi shuningdek, erkin ayol qul bilan nikohga kirsa, cho‘riga aylangan (XXV titul, 6-modda). Shunisi xarakterliki, “Alleman haqiqati” bo‘yicha, erkin kishining begona qiz bilan jinsiy aloqa qilganligi uchun 40 solid jarima belgilangan bo‘lsa, uning erga tekkan ayol bilan jinsiy aloqa qilganligi uchun ikki baravar ko‘p - 80 solid jarima nazarda tutilgan edi.

Sud jarayoni

Franklarda sud jarayoni ayblov-tortishuv xarakteriga ega bo‘lgan. Jinoyat va fuqarolik sud ishlarini yuritish bir xil shakllarda amalga oshirilgan. Ish faqat da’vogarning tashabbusi bilan qo‘zg‘atilgan. Tomonlar sud jarayonida teng huquqlarga ega edi. Sud jarayoni og‘zaki, oshkora bo‘lgan va o‘ta rasmiyligi bilan ajralib turgan. O‘g‘irlangan mulkni qidirib topish, sudga javobgarni, guvohlarni chaqirish jabrlanuvchining majburiyati hisoblangan. Sud jarayonida nafaqat tomonlar, balki ish bo‘yicha guvohlar ham muhim o‘rin tutgan. “Sali haqiqati” javobgar va guvohning sudga uzrli sabablarsiz kelmaganligi uchun 15 solid jarima belgilaydi (I titul, 1-modda).

Javobgar yoki guvohning qirol xizmatida bo‘lishi, kasal bo‘lib qolishi, qarindoshlaridan birining o‘limi, uyiga o‘t ketishi tufayli sudga kelmasligi uzrli sabab sanalgan. “Sali haqiqati”da ko‘rsatilishicha, ”Agar kimdir birovni sudga chaqirmoqchi bo‘lsa, guvohlar bilan birgalikda uning uyiga kelishi va bu haqda uni xabardor qilishi lozim bo‘lgan. Agar sudga chaqiriluvchi javobgar yoki guvoh uyda bo‘lmasa, u holda jabrlanuvchi uning xotini yoki uyidagilardan birini chaqirib, uni sudga chaqirilayotganligini aytib qo‘yishlarini tayinlagan” (I titul, 3-modda).

“Sali haqiqati” sud jarayonida qo‘llaniladigan dalillarning uch turini ko‘rsatadi. Bular: guvohlarning ko‘rsatmalari, qasamxo‘rlar ko‘rsatmalari va ordaliya bo‘lib, ularning ichida guvohlarning ko‘rsatmalari katta ahamiyatga ega edi.

Sudda guvohlarning yolg‘on ko‘rsatma berishi, ish bo‘yicha bilganlarini aytishdan bosh tortishi qattiq jazolangan. Bunday guvohlar qonundan tashqari deb e’lon qilingan va ularga jarima solingan. Guvohga qator talablar qo‘yilgan. Chunonchi, qul erkin kishiga qarshi guvohlik bera olmagan. Shuningdek, ilgari yolg‘on ko‘rsatma berganligi uchun fosh qilingan shaxslar ham guvohlikka o‘ta olmagan (“Alleman haqiqati”, XLII titul, 2-modda). “Bavar haqiqati” bo‘yicha guvoh kimga qarshi guvohlik berayotgan bo‘lsa, u bilan teng mavqeda bo‘lishi lozim edi. Agar yerga oid nizo ketayotgan bo‘lsa, guvohning o‘sha jamoadan bo‘lishi va hech bo‘lmaganda ma’lum boylikka (6 solidga) ega bo‘lishi talab qilingan (XVII titul, 2-modda).

Sud ishlarining amalga oshirilishida guvohlarning muhim o‘rin tutishi sud jarayonida ularga nisbatan talabchanlikning bir muncha yuqori qilib belgilanishiga sabab bo‘lgan. Chunonchi, “Sali haqiqati”ning maxsus XLIX tituli ”guvohlar to‘g‘risida” alohida me’yorlar belgilaydi. ”Agar guvoh, biror qonuniy to‘siq uni ushlab qolmagan bo‘lsa-yu, sudga chaqirilganda kelmasa, 15 solid jarima to‘lashi lozim bo‘lgan” (XLIX titul, 2-modda). Xuddi shuningdek, yolg‘on guvohlik berish uchun ham 15 solid jarima nazarda tutilgan edi (XLVIII titul, 1-modda). Guvohlar o‘z ko‘rsatmalarining to‘g‘riligini qasam ichish yo‘li bilan tasdiqlardilar.

Bu haqda “Bavar haqiqati”ning XVII tituli 6-moddasida ham alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, ushbu moddada ko‘rsatilishicha, agar biror ish yuzasidan guvohlar ko‘p bo‘lsa, bunday holda ularning orasidan sud majlisida ishtirok etib, ko‘rsatmalar berishi lozim bo‘lgan guvohlar qur'a tashlash yo‘li bilan tanlab olinardi. Javobgarning guvoh ko‘rsatmalaridan noroziligi ular o‘rtasidagi yakkama-yakka olishuv (duel)ga sabab bo‘lishi mumkin edi. Tomonlar yakkama-yakka olishuvda o‘z o‘rnilariga qullarini qo‘yishga haqli edilar. (“Bavar haqiqati”, XVIII titul, 1-2-moddalar). Agar ish bo‘yicha guvohlar, ”ishonchli dalillar” yo‘q bo‘lsa va jinoyatni ”lozim darajada isbotlash” mumkin bo‘lmasa, sudga qasamxo‘rlar jalb qilingan (“Sali haqiqati”, XVII titul, 5-modda).

Qasamxo‘rlik institutining ildizlari franklarning uzoq urug‘doshlik o‘tmishiga borib taqaladi. Qasamxo‘rlar - qarindoshlar, qo‘shnilar, do‘stlar bo‘lib, ular sudda tomonlardan birining haqligiga guvohlik berish yo‘li bilan uni himoya qilishlari, qo‘llab-quvvatlashlari lozim edi. Bunda qasamxo‘rlar ish holatlarini bilganliklari uchun emas, balki go‘yoki javobgar, ayblanuvchi va boshqalarning ”halol-pokligi, xushfe'lligi hamda mo‘min-qobil ekanligi uchun himoya qilib chiqqanlar. Qasamxo‘rlar, o‘g‘rilik jinoyati rad etilgan hollarda, o‘g‘irlangan narsaning qiymatini ham belgilaganlar. “Bavar haqiqati” bo‘yicha, qasamxo‘rlar ”maxsus qurbonlik qilinadigan joyda, Injilni ochib qo‘ygan holda, cherkovning noibi ishtirokida qasam” ichganlar.

“Sali haqiqati” jinoyat qilishda ayblanuvchi shaxslarni ”xudo sudi”da sinash hisoblangan ordaliyani ham belgilaydi. Bunga ko‘ra, ayblanuvchi shaxsning qo‘li qozonda qaynab turgan suvga tiqilgan va kuyib yaralangan qo‘l bog‘lab qo‘yilgan, ma’lum muddat o‘tgach, yara yechib ko‘rilganda yaxshi bitmagan bo‘lsa, uning aybdor ekanligi tasdiqlangan. Qaynoq suvda sinashdan uni sotib olish yo‘li bilan qutulish mumkin edi. Bunday holda to‘lovning qiymati aybdordan undirilishi lozim bo‘lgan jarimaning qiymatiga bog‘liq bo‘lgan, lekin jarimaning o‘zidan ancha kam edi. Masalan, sodir etilgan jinoyat uchun 15 solid jarima nazarda tutilgan bo‘lsa, shunday jinoyatni sodir etgan yoki etmaganligini aniqlash maqsadidagi sinov (ordaliya)dan qu-

tulish evaziga 3 solid, 35 solidli jarima uchun esa - 6 solid to‘lov haqi belgilangan edi (“Sali haqiqati”, LIII titul, 1-3-moddalar). Albatta, sinovdan qutulib qolish imkoniyatiga faqat mulkdor va badavlat kishilargina ega bo‘lishgan.

Franklarda sinab ko‘rish usulining boshqacha turlari ham qo‘llanilgan. Masalan, kapitulyariylar bo‘yicha ”qur'a tashlash” yo‘li bilan ham aybni isbotlash mumkinligi o‘rnatilgan edi. Qullarga nisbatan ko‘pincha qiynash usullari qo‘llanilgan. Qul aybiga iqror bo‘lgunicha qiynoqqa solingan. ”Adolatli qiynoqqa solish” uchun o‘z qulini taqdim etish xo‘jayinning majburiyati hisoblangan. Agar xo‘jayin uch marta ”pand-nasihat” yo‘li bilan so‘ralgandan keyin ham o‘z qulini ”adolatli qiynoqqa solish”ga bermasa, undan jarima undirilgan. Shuni aytib o‘tish kerakki, hamma franklarda ”sinash”, ”qiynash” usullari teng darajada qo‘llanilmagan. Masalan, gotlarda suv, olov bilan sinash, shuningdek, yakkama-yakka olishuv taqiqlangan edi. Biroq, Teodorix ediktiga asosan ”qasam” yo‘li bilan sinash saqlanib qolgandi (74-modda). Tomonlar sud qarorini ixtiyoriy ravishda bajarishdan bosh tortgan hollarda, uni grafning o‘zi ijro etgan. Agar kimdir grafning sud qarorini bajarishiga to‘sqinlik qilsa, qattiq jazolangan. Sudning vergeld undirish to‘g‘risidagi qarori kafillar yordamida kechiktirilishi mumkin edi. Kafillik alohida ishonchli bo‘lishi uchun sud majlisida qatorasiga to‘rt marta tasdiqlanardi (“Sali haqiqati”, VIII titul, 1-modda).

III BOB. FRANSIYA DAVLATI VA HUQUQI (IX asrning o‘rtasi - XVIII asr oxiri)

- ***Fransiya davlatining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari.***
- ***Senorlik monarxiyasi (IX-XIII asrlar).***
- ***Tabaqa-vakillik monarxiyasi (XIV-XV asrlar).***
- ***Mutlaq monarxiya davri (XVI-XVIII asrlar)da ijtimoiy va davlat tuzumi xususiyatlari.***
- ***Fransiyada huquqning asosiy belgilari.***

1. Fransiya davlatining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari

Fransiya feodal munosabatlar eng rivojlangan, klassik shaklga ega bo‘lgan davlat edi. U 843 yilda Verden shahrida Karl Buyukning uch nevarasi yig‘ilishida franklar imperiyasining uch qismga bo‘linib ketishi natijasida tashkil topgan. Verden ahdiga muvofiq marhum Ludovik Xudojo‘yning katta o‘g‘li Lotar imperatorlik unvonini saqlab qoldi, lekin ukalari Ludovik Nemis va Karl Yaltiroqboshga nisbatan hech qanday maxsus huquqqa ega emas edi. Ukalarining har qaysisi o‘z holicha mustaqil qirol bo‘lib qoldi, Lotarga Italiya, Sharqda Reyn bilan G‘arbda Mass, Shelda, Sena va Rona daryolari o‘rtasidagi yerlar (bunga Burgundiya ham kiradi), Reynning sharqidagi yerlar Ludovik Nemisga tegdi. Lotarga qarashli yerlarning g‘arbidagi yerlar Karl Yaltiroqboshga tegdi. Keyinroq, Lotar o‘lgandan so‘ng yerlar qaytadan bo‘linadi. Lotarning avlodlari Italiyadagi yerlarnigina o‘z qo‘lida saqlab qoladi, Reyn bo‘yidagi yerlarning hammasini Ludovik bilan Karl o‘zaro bo‘lishib oldi. Burgundiya mustaqil qirollik bo‘lib ajralib chiqdi. Imperatorlik unvoni keyinroq borib Karolinglar xonadonining boshqa avlodlari vakillariga o‘tdi. Masalan, 875-877 yillarda Karl Yaltiroqbosh imperator bo‘ldi, 880-887 yillarda imperatorlik toji Ludovik Nemisning o‘g‘li Karl Semizga o‘tdi. X asrning boshlariga kelib esa imperatorlik unvonining hech kimga hech qanday real ahamiyati qolmadi.

Shu tariqa, Verdenda bo‘lgan taqsimot Yevropada keyinchalik vujudga kelgan uchta katta davlat - Fransiya, Germaniya va Italiyaning tashkil topishini umumiy bir tarzda belgilab berdi. IX asrning o‘rtasida mazkur davlatlarning ichida eng yaxliti "g‘arbiy franklar"ning davlati edi, u keyinchalik vujudga kelgan Fransiyaning kurtagi bo‘ldi. Bu yerdagi aholining asosiy ommasi endi tashkil topayotgan fransuz xalqidan iborat bo‘lib, u alohida bir shimoliy roman tilida, ilk fransuz tilida gapirishar edi. Bu davlatning poytaxti Parij bo‘lib, u Luara daryosi yaqinidagi Sena daryosi bo‘yida joylashgan. "G‘arbiy franklar qirolligi"da yoki, oddiy qilib aytganda, Fransiyada (uni X-

XI asrlarda Fransiya deb atay boshlaydilar) Korolinglar X asrning oxirigacha hokimiyatni o‘z qo‘llarida saqlab keldi.

Germaniya va Italiyada esa Korolinglar ancha ilgari X asrning boshlaridayoq hokimiyatdan mahrum bo‘ldi. Lekin Fransiyada ham feodal tarqoqlik tezlik bilan avj olib bordi. "Birinchi fransuz qiroli" Karl Yaltiroq-bosh o‘z zodagonlariga uzluksiz yon berishga majbur bo‘ldi. 847 yilda u Mersen kapitulyariysini chiqarib, unda har bir erkin kishiga senor topib olishni taklif qildi; qirol o‘z fuqarolari ustidan shunday hokimiyatga ega bo‘ldi. 887 yildagi Kersin kapitulyariysi yer benifitsiylarining, shuningdek, graflik lavozimining ham nasldan-naslga meros bo‘lib qolishini qonunlashtirdi. Shu vaqtdan boshlab benifitsiylar nasldan-naslga meros bo‘lib qoladigan yerlarga - feodlarga, lenlarga; graflik vitse-graflik (vikontlik), markgraflik (yoki markizlik) va gersoglik unvonlari nasldan-naslga qoladigan knyazlik unvonlariga aylandi. Joylarda hududiy hukmdorlarga xos barcha huquqlarga, ya’ni qirollik huquqlariga o‘xshash huquqlarga ega bo‘lgan knyazlik sulolalari vujudga kela boshladi.

Shunday qilib, Fransiya davlati tashkil topgan vaqtda nomigagina yagona davlat bo‘lib, aslida u ko‘pgina (aniqrog‘i o‘n mingga yaqin) xilmaxil senorliklarning yig‘indisidan iborat edi. Bularning ba’zilari qirol hokimiyatini rasman tan olgan, lekin amalda deyarli mustaqil edi. Boshqa senorlar esa faqat qirolga sodiqlik haqida qasamyod qilar, biroq hatto rasman bo‘lsada unga bo‘ysunmagandi. Ular qirolga bo‘ysunishni - vassal bo‘lishni tahqirlanish, deb hisoblardilar.

Bu vaqtda Fransiyada milliy birlik ham, yagona til ham bo‘lmagan edi. Fransuz millati ancha keyinroq - XVI asrda gallar, britlar, rimliklar, franklar va boshqa xalqlarning avlodlaridan shakllangandi.

O‘rta asrlardagi Fransiya davlati va huquqi tarixini quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

1. Senorlik monarxiyasi davri - IX-XIII asrlar.
2. Tabaqa-vakillik monarxiyasi davri - XIV-XV asrlar.
3. Mutlaq monarxiya davri - XVI-XVIII asrlar.

Butun feodal tuzumning chuqur inqirozi 1789 yilgi revolutsiyaga olib keldi. Ushbu revolutsiya natijasida Fransiyada absolutizm va u bilan birga butun eski siyosiy tartib batamom barham topdi.

2. Senorlik monarxiyasi (IX-XIII asrlar)

Ijtimoiy tuzumi

IX-XI asrlarda feodal munosabatlar rivojlanib, hamma yerda hukmron bo‘lib qoldi. XI-XIII asrlarda feodallar tomonidan yerlarning to‘liq egallab olinishi natijasida erkin dehqonlar yer egaligi tugatildi. Natural xo‘jalik hukmronlik qi-

lib, feodal senorliklar parokandaligi davom etadi va yangi-yangi pomestelar vujudga kelib, mamlakatning yagonaligiga putur yetadi. Oqibatda mamlakat hududi parchalanib, katta-kichik bo‘laklarga bo‘linib ketadi va siyosiy tarqoqlik hukm suradi.

Siyosiy tarqoqlik davrida Fransiyada qarama-qarshi sinflar feodallar va ularga qaram dehqonlar bo‘lib qolgan.

Feodallar o‘zlari egallagan yerlar - senoriylarning hajmiga qarab turli tabaqalarga ajralgan. Katta senoriy egalari: gersoglar, graflar, yirik monastirlarning abbatlari, yepiskoplar dastlab o‘zlarini qirol bilan teng perlar deb yuritganlar. Ularning vassallari: baronlar, vikontlar, vitsegraflar ikkinchi guruh yer egalari hisoblangan. Uchinchi guruhdagi yer egalarini ritsarlar tashkil etgandi. Ana shu uchta toifa feodallar o‘rtasida **syuzerenitet-vassalitet munosabatlari** mavjud edi. Buni oliy hukmronlik-qaramlik munosabatlari desa bo‘ladi. Bunday munosabatlar faqat Fransiyada o‘zining to‘liq shakliga ega bo‘ldi. Suzerenitet-vassalitet munosabatlari maxsus shartnoma asosida rasmiylashtirilardi. Bunda vassal senorga sodiqlik haqida qasam ichib, uning oldida tiz cho‘kadi. Bu **ommaj** deb atalardi. Senor esa vassalga yer (feod) berib, shu bilan birga ramziy tayoqcha yoki o‘z qo‘lqopini yoki nayzasini ham uzatardi. Bu **investitura** deb atalardi.

Vassallik shartnomalari tomonlarning majburiyatlarini aniq o‘rnatib qo‘ygandi. Senor vassalga feodni berish bilan birga vassalni va unga berilgan yerni himoya qilishi lozim edi. Vassal esa avvalo senorga harbiy xizmat o‘tab berish majburiyatiga ega edi. XI asrdan bunday xizmat muddati bir yilda 40 kun qilib belgilanadi. Vassal, shuningdek, feodallarning sud va boshqa yig‘inlarida senorning raisligida ishtirok etishi lozim edi. Vassal yuqoridagilardan tashqari, senorni asirlikdan sotib olish, senorning salb yurishlarini moliyaviy ta’minlash, senorning katta o‘g‘liga ritsarlik unvoni berilayotganda, katta qizi erga tegayotganda sovg‘a-salomlar bilan kelish kabilarga ham majbur edi.

Vassallik shartnomalari dastlab tomonlarning hayotligi davrida tuziladigan shartnomalar hisoblanib, personal xarakterga ega edi. Keyin esa u bilan bog‘liq majburiyatlar meros tariqasida o‘tadigan bo‘ldi. XI asrga kelib feod, ya’ni nasliy urug‘chilik pomestesi asosiy feodal mulkchilik shakli sifatida o‘rnatildi.

Agar vassal senorga sodiqlik to‘g‘risidagi qasamini buzsa va o‘z zimmasidagi majburiyatlarini bajarmasa, feodni qaytarishi lozim edi. Lekin senorlar va vassallar o‘rtasidagi nizolarni hal etishning yuridik mexanizmi juda samarasiz bo‘ldi. Yirik feodallar mustaqil harbiy kuchlarga ega bo‘lib, senorlarga itoat etmay, senor sudi qarorlariga bo‘y-

sunishni istamay qo‘ygandi. Bu feodallar o‘rtasidagi ko‘p sonli tartibsizliklar va urushlarni keltirib chiqaradi. XII asrga kelib vassallarning ba’zi huquqlari kengaytirilib, ularning xizmat muddatlari qisqartiriladi.

XI asrda jamiyatning feodallashish jarayoni kuchayib, vassallarning vassallari paydo bo‘ladi. Yuqorida aytilganidek, eng quyi zvenodagi vassallar - **ritsarlar** (mayda feodallar) edi. Asosiy feodallar ommasi qirolga bo‘ysunmay, o‘z senorlari - gersoglar va graflarga bo‘ysunardi. "Vassalimning vassali mening vassalim emas" degan tamoyil mavjud edi.

XII asr o‘rtalarida shaharlar o‘sib, qirolning ahamiyati kuchayadi. Qirollar mamlakatda barcha feodallardan sodiqlik haqida qasam olishga va vassal qaramlikdagi egaliklarini tan oldirishga erishadilar. Bu jarayon vassallarning vassallari (arer-vassallar)ning bevosita qirol vassallariga aylanishiga olib keladi va bu **immediatizatsiya** degan nom oladi.

XII asrda feodal egaliklarga bo‘linish jarayoni amalda tugaydi. Feodal pomestelar tamoman urug‘chilik xarakteriga ega bo‘ladi. Feodallar sinfiga yangi shaxslarning kirib kelishi cheklanib, faqat qirol bo‘ysunmagan feodallar bilan urushlar natijasida qo‘lga kiritilgan yer uchastkalarini taqsimlab turadi.

Feodal titullar va unvonlar meros tariqasida o‘tadi. Shu tariqa, XIII asrdan dvoryanlik tabaqasi o‘zgalar uchun yopiladi.

Feodallarga qaram kishilar servlar va villanlarga bo‘lingan.

Servlarning huquqiy holati aniq belgilab qo‘yilmagandi. Ularni yer bilan birga va yersiz sotish mumkin edi. Ular biror narsalarini sotmoqchi bo‘lsa, albatta buning uchun o‘z xo‘jayinlarining roziligini olishlari lozim edi. Servlar qullardan hamda majbur bo‘lib serv holatiga tushgan ozod kishilardan kelib chiqqan qaram dehqonlar edi. Servga egalik yerga egalik bilan bir xilda ko‘rilgan. Servlar **jon sog‘ligi - shevaj,** har yillik obrok to‘lash, barshchina ishlarini bajarish, ya’ni haftada uch kun ishlab berish majburiyatlariga ega edilar. Serv xo‘jayinning roziligisiz turmush qurish, din xizmatiga o‘tish, sudda guvohlikka o‘tish yoki sud to‘qnashuvlarida ishtirok etish huquqiga ega emasdi. Chunki uning hayoti xo‘jayinga - senorga tegishli bo‘lib, uni xavf-xatarga solishga yo‘l qo‘yilmasdi.

Biroq servning shaxsiy qaramligi uni krepostnoy kishilarga aylantirmagandi. Servlarning majburiyatlari, odatda, feodal huquqiy odatlar bilan tartibga solingan. Serv o‘z yerini sotishi va senordan ketishi mumkin edi. Fransiyada qochoq dehqonlarni umumdavlat miqyosida qidirib topish va egasiga qaytarish mavjud emasdi.

Villanlar feodalga tegishli yerlarni erkin ushlab turuvchilar hisoblanganlar. Villanlar senorga **obrok - tal** to‘laganlar. Bu ham odat huquqi

bilan belgilanardi. Lekin bu servlarga qaraganda yengilroq edi. XII asrga qadar villanlar senorga hurmat tariqasida shevaj ham to‘lab turishgan. Bu shaxsiy qaramlik sifatida emasdi. Villan ham barcha qishloq aholisi kabi senordan uylanish uchun ruxsat olishi lozim edi.

Villanlar pul bilan ijara haqiga o‘xshash yer rentasi - **chinsh** hamda barcha hosildan bir qismini to‘lab turganlar. "Servning majburiyati uning shaxsida, villanniki esa uning yerida yotadi" degan ibora mavjud edi.

Dehqonlar bajaradigan barcha majburiyatlariga yana senorning **muhofazalangan huquqi** yoki **banalitetlar** ham qo‘shilgan. Bunga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: dehqonlar faqat senorning pechkasida non yopishlari, tuzni faqat senordan sotib olishlari lozim edi va hokazo. Dehqonlar bulardan faqat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bir qismini berish bilan qutula olishgan. Yuqoridagilar bilan bir qatorda senor o‘z ixtiyoridagi yangi turmush qurgan er-xotin dehqonlariga nisbatan "birinchi kecha huquqi"dan ham foydalangan.

XI-XII asrlarda shaharlar tez o‘sib, **shahar aholisi** alohida huquqiy holatga ega bo‘la bordi. XII asrdan shaharlarning alohida feodallardan mustaqilligi uchun, o‘zini o‘zi boshqarish huquqini qo‘lga kiritish uchun kurashi boshlanib ketadi. Natijada qirollar ko‘magida shaharlar maxsus erkinlik xartiyalarini qo‘lga kiritadilar.

Shaharliklarning huquqiy holati universal sifatida maydonga chiqmay, balki muayyan shahar assotsiatsiyasi bilan bog‘liq edi. Shu sababli dvoryanlar, ruhoniylar, servlar bunday huquqiy holatni amalda ololmasdilar. Biroq serv shaharda doimiy yashab qolish orqali shaxsiy erkinlik oladi. Agar, hatto, shahar bevosita qirolning yoki alohida feodalning yurisdiksiyasi ostida qolsa ham shaharliklarning senorga nisbatan majburiyatlari cheklangan va qat’iy o‘rnatib qo‘yilgan edi. Majburiy ishlar va banalitetlar bekor qilinib, sud poshlinalari, jarimalari va boshqalarning aniq miqdorlari o‘rnatiladi. Lekin shaharlar aholisi feodal tizim bilan bir butun holga keltirilgan edi. Shahar hayoti ancha barvaqt tabaqa-korporativ xarakter kasb etib, sexlar va gildiyalar tashkil etishga ko‘maklasha boshlaydi.

Davlat tuzumi

IX-XIII asrlarda Fransiyaning davlat tuzumi senorlik monarxiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq edi.

IX-XII asrlarda mamlakatdagi chuqur siyosiy tarqoqlik natijasida qirol hokimiyati o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qotadi. Qirol feodallar tomonidan "tenglar orasida birinchi" (primus inter pares) sifatida ko‘riladi. U yerning o‘zidayam qirol bo‘ysunmagan vassallar bilan doimo qattiq kurashlar olib borishiga to‘g‘ri kelardi. Qirollik domenlaridan boshqa joy-

larda hokimiyat yirik feodallarga (Burgundiya va Normandiya gersoglariga, Flandriya, Tuluza, Shampan va boshqa yerlarning graflariga) tegishli edi. Suzerenitet-vassalitet munosabatlariga asoslangan bunday feodal davlati shaklini **senorlik monarxiyasi** deyish mumkin. Unda siyosiy hokimiyat qirol va turli darajadagi feodallar o‘rtasida taqsimlangan. Ular bir-biriga syuzerenitet-vassalitet munosabatlari bilan bog‘liq edi.

IX-XII asrlarda senorlik monarxiyasining tashkil topishi markaziy hokimiyatning zaiflashishini, mamlakat ichki birligining buzilishini, tashqi siyosiy ahvolining kuchsizlanishini anglatardi. Fransiyada o‘rta asrlar jamiyati rivojlanishining mazkur bosqichida senorlik monarxiyasi o‘zida mavjud ijtimoiy-siyosiy reallikni ancha aniq ifoda etgan edi. Iqtisodiy va siyosiy markazlashtirilmagan sharoitlarda feodallar qirol hokimiyatiga qaraganda ancha samarali tarzda davlat funksiyalarini amalga oshirardilar.

Senorlik monarxiyasiga faqat siyosiy inqirozning namoyon bo‘lishi sifatida qarash kerak emas. U bevosita natural ho‘jalik va yerga feodal mulkchilik bilan bog‘liq munosabatlardan kelib chiqqan. Siyosiy tarqoqlik Fransiya jamiyatining olg‘a harakatini aslo to‘xtatib qo‘ya olmasdi. XII-XIII asrlarda feodalizm rivojlanib, uning zaminida yangi iqtisodiy munosabatlar tug‘iladi. Shaharlar o‘sib, tovar-pul xo‘jaligi taraqqiy eta boshlaydi. Siyosiy tarqoqlik asta-sekin to‘xtab, qirol hokimiyati kuchaya boradi. Ayniqsa, XIII asrda qirol Ludovik IX islohotlari natijasida qirol hokimiyati ancha kuchayib, qirol Fransiyadagi barcha feodallarning suzereniga aylanadi.

IX-X asrlarda qirol hokimiyati kuchsiz edi. Qirol dunyoviy va ruhoniy feodallarning yuqori qismi tomonidan sulola tamoyiliga rioya qilingan holda saylanardi. 987 yilda Fransiya taxtiga Gugo Kapetning saylanishi bilan yangi sulola - Kapetinglar sulolasiga asos solinib, Karolinglar sulolasi tugatiladi. Dastlabki Kapetinglar davrida qirolni saylash tartibi saqlanib qolgan, lekin XII asrdan taxt meros tariqasida o‘tardi.

Dastlab qirolning funksiyasi nihoyatda chegaralangandi. Unda faqat ba’zi an’anaviy imtiyozlar saqlanib qolgan edi. U fransuz qo‘shinlariga boshchilik qilib, qonunlar chiqargan, sud hokimiyatini amalga oshirgan. Lekin birinchi Kapetinglar davrida qirolning qonunlar (kapitulyariylar) chiqarishi amalda tugatiladi. Qirolning boshqa vakolatlari ham faqat nazariy jihatdan saqlanib qolgan, haqiqatda qirol bu vakolatlarni amalga oshira olmasdi. Qirolga "qirollikni va cherkovni himoya qilish", shuningdek, mamlakatda "tinchlikni saqlash" majburiyati yuklangan. Lekin u bularni amalga oshirish uchun real hokimiyatga emas, faqat o‘z domeni doirasida sud hokimiyatiga ega edi.

XII asrdan qirolning mavqei asta-sekin yaxshilanib, ba’zi funksiyalari ancha faolroq amalga oshirila boshlanadi. Masalan, qirol tomonidan

qonun hujjatlari - nizomlar (etablissement) chiqarish amaliyoti tiklanadi. Biroq bunda yirik feodallar (Katta kengash) roziligi talab qilinardi. XII asrda qirol hujjatlari qasamyod qilgan barcha feodallar uchun majburiy bo‘lib qoladi. Qirol yurisdiksiyasining doirasi ham kengayadi.

Markaziy boshqaruvning tashkil etilishi

Markaziy boshqaruv organlari mamlakatning siyosiy tarqoqligi va qirol hokimiyatining kuchsizligi sharoitlarida tarkibiy jihatdan rasmiylashtirilmagan va aniq o‘rnatilmagan edi. Saroy-votchina tizimi vassallik munosabatlariga asoslangan boshqaruv bilan qo‘shilib ketgandi.

Korolinglar davridan qirol saroyi saqlanib qolgandi. U feodallar va saroy xizmatchilari (ministrlar)dan iborat edi. XII asrning oxirigacha qirol ma’muriyatida **seneshal** asosiy rol o‘ynagan. U qirol saroyining boshlig‘i hisoblanib, armiyaga qo‘mondonlik qilar, davlat hujjatlarini imzolardi. Seneshal mansabi Fransiyadagi eng taniqli oilalardan birining qo‘lida edi. Vaqt o‘tishi bilan bu mansab shunchalik kuchayadiki, hatto Filip II Avgust (1191 yilda) uni almashtirmaydigan qiladi. Keyinchalik bu mansab tugatilib, harbiy ishlarda seneshaldan keyin **konnetabl** - qirol otliq askarlarining boshlig‘i turgan. Uning yordamchisi **marshal,** XIII asrdan boshlab **qirollik admirali** hisoblangan. **Qirol xazinachisi** davlat arxivi va xazinaga boshchilik qilgan. Unga **kamerger** yordam bergan. Xazinachining funksiyasi XIII asrda qisqartirilgan edi.

Qirollik devonxonasiga **kansler** rahbarlik qilib, u qirol hujjatlarini tahrirdan o‘tkazib, qirolga imzo uchun taqdim etgan, ularga muhr qo‘ygan. Kanslerning davlat ishlariga ta’siri juda katta edi. Shu sababli XIII asrda qirol hokimiyatining kuchayishi bilan bu mansab uzoq vaqtgacha (Lyudvik IX davridan to 1315 yilgacha) almashtirilmagandi.

Ministrlar dastlab qirollik domenidagi dunyoviy feodallar va ruhoniylardan chiqqan. XIII asrda markaziy boshqaruv organlariga shaharlarning vakillari, mayda va o‘rta feodallar (qirolning ritsarlari), shuningdek, yuristlar (legistlar) tez-tez jalb etilgan.

Feodal munosabatlarning rivojlanishi qirol vassallari yig‘ini - **qirol kuriyasi** (curin regis)da o‘z ifodasini topadi. Bu organ Korolinglar davrida vujudga kelgandi. Ilk Kapetinglar davrida Kuriya deyarli ahamiyatga ega bo‘lmadi, chunki perlar va boshqa qudratli vassallar uning majlislariga kelishmaydi. Dastlab unda faqat qirolning vassallari ishtirok etishadi. Kuriyada siyosiy, moliyaviy, sud xarakteriga ega bo‘lgan masalalar muhokama qilingan. Qirollar Kuriyadan urush va tinchlik, salb yurishlari, rim papasi bilan munosabatlar to‘g‘risidagi va boshqa masalalarni hal

etishda maslahatlar so‘raganlar. Kuriya tasdig‘iga qirolning hujjatlari qo‘yilgan. XIII asrdan murakkab huquqiy masalalarni hal etish uchun Kuriya majlislariga ko‘pincha legistlar taklif qilina boshlagan.

Mahalliy boshqaruv

Bu ham mamlakatning siyosiy jihatdan tarqoqligiga monand tashkil etilgan edi. Qirollik boshqaruvining mahalliy organlari faqat qirol domenlarida tashkil etilgan. Yirik senorliklarda o‘zlarining mahalliy boshqaruv tizimi mavjud edi. Qirol chinovniklari joylarda juda xilma-xil funksiyalarni amalga oshirishgan. Ularning qo‘lida ma’muriy, harbiy, sud, moliyaviy funksiyalar to‘plangan edi. Mahalliy davlat boshqaruvining harakat doirasi qirollik domenlarining ko‘payishi va yirik feodal egaliklarning qo‘shilishi darajasiga qarab kengayib borgandi.

XI asrning o‘rtalaridan qirol o‘z domenida **prevo** mansabini joriy etadi. Prevolar maxsus okruglar - prevotliklarga tayinlanib, ushbu okruglarning boshliqlari, qishloqlarda ularning yordamchilari - **serjantlar,** shaharlarda - **mayorlar** edi. Prevo asosan qirol xazinasiga soliqlar yig‘ish, feodal qo‘shinlarini tuzish, boshqaruv masalalarini hal etish va sud ishlarini ko‘rish bilan shug‘ullanardi (XII asrning oxiridan yirik ishlar prevo yurisdiksiyasidan olingan edi).

Filip II Avgust hukmronligi davrida (1180-1223 yillar) qirol domeniga ko‘p miqdorda yerlar qo‘shib olinishi munosabati bilan muhim ma’muriy islohot o‘tkazildi. Qirollikka qarashli barcha mulklar **balyaj** deb ataluvchi teng ma’muriy okruglarga bo‘linib, ularga qirollik gubernatorlari - **balyalar** boshliq qilib qo‘yildi. Balyajlar ancha yirik hududiy birliklar bo‘lib, ularning soni qirollik domenlarining o‘sishiga qarab ko‘payardi. Balyalar o‘z funksiyalari jihatidan Buyuk Karlning graflarini eslatardilar. Balya prevo ustidan nazorat qilgan, qirol qonunlari va buyruqlari bajarilishini tekshirgan va hokazo. Balyalar qaramog‘ida sud, soliqlar yig‘ish, lashkarlar chaqirish ishlari bo‘lardi. Balyalar vaqti-vaqti bilan qirolga yozma hisobot berib turishlari lozim edi. Balyalar odatda qisqa muddatga va saroyga yaqin turgan kishilardan tayinlanib, ular mahalliy provinsial zadagonlarga qavm-qarindosh bo‘lmasligi yoki biror masalada ular bilan yaqin munosabat bog‘lamasligi shart edi. Filip II davrida jami bo‘lib 20 ta balyaj tashkil qilingandi. Janubda, Langedokda[12], asosan chegara rayonlarida, balyalar o‘rniga **seneshallar** tayinlanardi. Seneshallarning balyalardan farqi, seneshallar mahalliy dvoryanlar orasidan chiqqan amaldorlar

[12] **Langedok** – tor ma'noda Tuluza grafligiga qarashli yer-mulklar demakdir; keng ma'noda Fransiyaning butun janubini o`z ichiga olib, bunda yashovchilar shimoliy parijliklar lahjasidan farq qilib, alohida janubiy provansal lahjasida so`zlashardi.

ekanligida edi. Qirol hokimiyatining janubdagi ta’siri, tabiiy, shimol, g‘arb va xususan qirollik markazidagiga qaraganda zaifroq edi.

Balyalar va seneshallar XIII asrda qirol nomidan "odil sudlov"ni amalga oshirib, muhim jinoyat ishlarini ko‘rardilar, prevo sudlari ustidan apellatsiya hisoblanardilar.

Prevo, balya va seneshallar soliqlar, poshlinalar, jarimalar yig‘ilishini nazorat qilishar va ularni qirol xazinasiga o‘z vaqtida kelib tushishini kuzatib turishardi. Shu tariqa ular qirol hokimiyatining moliyaviy bazasini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaganlar.

Xazinaning muhim daromad manbalari qirollik tanga-chaqalarini chiqarish, qirollik soliqlarini (qirollik talyalarini) yig‘ish, savdo poshlinalari va sud jarimalari undirishdan iborat edi. Qirol favqulodda holatlarni bahona qilib ko‘pincha seneshallar va balyalar orqali dehqonlar, ruhoniylar va notabllar (zadoganlar)dan maxsus pul badallari yoki xayr-sadaqalar talab qilib turgan.

Sud

Fransiyada "tenglar sudi" mavjud bo‘lib, bunga ko‘ra, har bir ozod kishi "o‘ziga teng kishi" tomonidan sud qilinishi lozim edi. Masalan, qirolning vassallari o‘zlariga teng vassallar tomonidan sud qilinishi mumkin bo‘lgan. Bundan faqat servlar mustasno edi, xolos. Ular o‘z senorlari tomonidan sud qilinganlar. Sud hokimiyati ma’muriyatdan ajratilmagandi.

XIII asr oxiriga kelib feodal siyosiy tarqoqlikka qarshi shahar aholisining o‘zini o‘zi boshqarish organlari - kommunal jamoalar tuzish uchun kurashi vujudga keladi. Chunki savdo va sanoatning rivojlanishiga feodal siyosiy tarqoqlik to‘sqinlik qilardi. Bu qirol bilan shaharlar o‘rtasidagi ittifoqni vujudga keltirib, qirol hokimiyatining kuchayishiga olib kelgandi.

XIII asrning boshlarida qirollik nasldan-naslga meros tariqasida o‘ta boshlaydi. Qirol hokimiyatini kuchaytirishda va markaziy boshqaruvni mustahkamlashda qirol **Ludovik IX Avliyo (1226-1270 yilar) tomonidan o‘tkazilgan islohotlar** katta rol o‘ynagan. Islohotlar ichida **harbiy islohot** muhim o‘rin tutadi. Bunga ko‘ra, shahar militsiyasi hamda yollanma qo‘shin tuzilgan. Natijada qirol feodallarning qo‘shiniga uncha bog‘liq bo‘lmay qoldi va bo‘ysunmagan feodallarga qarshi qurolli kuchlar qo‘llay oladigan bo‘ldi.

Ludovik IX tomonidan o‘tkazilgan **ma’muriy - sud va moliya islohotlari** ham juda katta ahamiyatga ega edi. Ludovik IX davrida Fransiyani idora etuvchi markaziy boshqarma tashkil topadi. Qirollik kengashi yoki qirollik kuriyasi XIII asrda feodallar s’yezdidan markaziy

byurokratik muassasaga aylanib, so‘ng u bir qancha boshqarmalarga bo‘linib ketadi. Kichik qirollik kengashi yoki "tor doiradagi kengash" ajralib chiqib, qirol va uning eng yaqin amaldorlarining - kansler, konnetabel va markazlashtirish siyosatiga tortilgan, qirolga yaqin turgan oz sonli feodallarning doimiy ish ko‘ruvchi kengashiga aylanadi. Sud ishlarini yurgizuvchi qirollik kuriyasining boshqa qismi alohida muassasaga aylanadi. Bu so‘nggi muassasa **Parlament** (aynan "sud mahmadonalari" kengashi) degan maxsus nom oladi. Nihoyat, soliqlar yig‘ish va ularni xarajat qilish hamda boshqa qirollik daromadlari ustidan qaraydigan alohida hisoblash palatasi kuriyadan ajralib chiqadi.

Qirol amaldorlarining, ayniqsa, sud boshqarmasidagi amaldorlarning katta bir qismi, universitetlarda "Rim huquqi"dan ta'lim olgan shaxslar bo‘lib, ular ko‘pincha pastki tabaqadan chiqqan, lekin baland martabaga erishganliklari uchun butkul qirolga xizmat qilishga tayyor turgan va unga sodiq kishilar edi. Odatda, ularni **legistlar** (lotincha Lex-“qonun" so‘zidan kelib chiqqan) deb atardilar. Legistlar asosan shaharliklar orasidan chiqar edi. Qirol hokimiyatining shaharlar bilan ittifoqi ana shu vaqtda yana bir marta isbotlandi.

Qirol janjalli masalalar vujudga kelgan paytda ularni hal etish uchun faqat qirollik sudiga murojaat etishga feodallarni majbur qilib, o‘z domenida yakkama-yakka olishuvlarni man etadi. Janjal chiqqan kun bilan urush boshlanishi o‘rtasida 40 kunlik muhlat belgilanib, shu orada kuchsiz tomon qirolni bu janjalga aralashtira olsin degan muddaoda xususiy urush qilish huquqi ancha cheklab qo‘yildi. Ludovik IX ning sud islohoti ham muhim ahamiyatga ega edi. Qirollik sudi butun qirollik uchun oliy shikoyat sudi deb e’lon qilindi, unga, hatto, qirollik domeniga qo‘shib olinmagan hududlarning fuqarosi ham shikoyat bilan murojaat qila olardi. Ba’zi sud ishlari (o‘t qo‘yish, soxta tanga-chaqa chiqarish, xotin-qizlarni o‘g‘irlash va hokazolar) albatta qirol sudida ko‘rilishi kerak edi.

Shunday qilib, sud islohoti natijasida, birinchidan, qirol xazinasiga sud jarimalari, poshlinalari sifatida tushadigan yig‘imlarning miqdori oshdi; ikkinchidan, sud organlarida kasbiy sudyalar (legistlar)ning ishlashi kengaydi.

Qirollik moliyasi

Ludovik IX tanga-chaqa zarb etishda feodallar bilan raqobat qildi. U boshqa gersog va graflarning tanga-chaqa pul chiqarish va uni amalda yurgizishini bekor qilmasa ham qirollik tanga-chaqa pulining shu gersog va graflarning mulklarida o‘zlariniki bilan bab-baravar yurgizilishiga monelik qilmaslikka o‘z vassallarini majbur etdi. Natijada eng salmoqli qirollik tanga-

chaqa puli odatda feodallarning yomon sifatli pullarini siqib chiqarardi. XIII asr o‘rtalarida qirol budjeti juda o‘sdi. Savdo-sotiqdan, sanoat va qirollik yer-mulklaridan (savdo-sotiq iqtisodiy jihatidan rivojlangan rayonlardagi) keladigan daromadlarning tobora ko‘payib borishidan tashqari, Ludovik IX xazinani boyitish maqsadida feodallarning tanho yerlaridan ustalik bilan foydalandi. Ludovik IX zamonida yirik feodallardan undiriladigan vassallik to‘lovi yuqori darajada oshdi. Qirol o‘z vassallaridan ko‘p daromad olgani singari shahar-kommunalardan ham o‘shanchalik ko‘p daromad olardi. Fransuz cherkovi "in'om" sifatida qirolga katta-katta aqcha to‘lardi. Ludovik IX davrida bevosita qirol xazinasiga kelib tushadigan salb solig‘i davlatning doimo olib turadigan solig‘i rolini o‘ynadi. Umuman Ludovik IX davrida qirollik daromadlarining o‘sishi o‘sha zamonda Fransiyaning xo‘jalik jihatdan yuksala borganligini ochiqdan-ochiq ko‘rsatar edi. Pul xo‘jaligining rivojlana boshlashi, shaharlar, sanoat va savdo-sotiqning o‘sishi oqibatida mamlakatning siyosiy jihatdan markazlashuvi xalq xo‘jaligi barcha tarmoqlarining taraqqiy qilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shunday qilib, XIII asrda Fransiyaning ijtimoiy va davlat tuzumida yuz bergan o‘zgarishlar tabaqa-vakillik monarxiyasining kelib chiqishi uchun zamin hozirladi.

3. Tabaqa-vakillik monarxiyasi (XIV - XV asrlar)

XIV-XV asrlarda tabaqalar huquqiy holatidagi o`zgarishlar

Bu davrda shaharlarning va tovar ishlab chiqarishning yanada o‘sishi natijasida shahar aholisi ham son jihatidan, ham siyosiy faolligi nuqtai nazaridan o‘sdi. Bu feodallarning an’anaviy xo‘jaliklarini, dehqonlarni ekspluatatsiya qilish shakllarining qayta tashkil etilishiga olib keldi. Tovar-pul munosabatlarining ta’sirida dehqonlarning xuquqiy holatida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. XIV-XV asrlarga kelib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan feodallar dehqonlarning natural majburiyatlarini pul-obrok majburiyatlari bilan almashtira boshladilar. Rivojlangan iqtisodiy hududlarda esa shaxsan ozod merosiy yerlar - **senzivalar egalari** - dehqonlar mavjud edi. Bunday yer egasi bo‘lgan dehqon - **senzitariy** o‘z xo‘jayiniga yer uchun har yili mustaqil belgilab qo‘yilgan badal to‘lab, ayrim majburiyatlarni bajarardi. Senziva asta-sekin servlarning yo‘qolishiga sabab bo‘lib, dehqonlarning yerdan foydalanishi asosiy shakliga aylana bordi. Ammo Fransiya dehqonlarining qaramlikdan qutulishining asosiy sababi ularning feodallarga qarshi kurashi (masalan, XIV asrdagi Jakeriya boshchiligidagi

dehqonlar urushi)dir. Servlarning ko‘pchiligi ozodlikni sotib olish yo‘li bilan qaramlikdan qutuldilar. Yuz yillik urush vaqtida qirolga xiyonat qilgan ko‘p yirik feodallarning yerlari musodara qilindi. Bu yerlar qirol hokimiyatini faol qo‘llab-quvvatlagan mayda va o‘rta dvoryanlarga taqsimlandi.

XIV-XV asrlarda Fransiyada tabaqa tuzumining qayta tashkil etilishi nihoyasiga yetib, natijada Fransiya aholisi ruhoniylar, dvoryanlar va barcha ozod kishilar (shaharliklar)dan iborat uchta tabaqaga bo‘linadi.

Fransiyada **ruhoniylar birinchi tabaqa** hisoblanardi. Qirol hokimiyati XIV asrda papalik bilan kurashda juda muhim g‘alabani qo‘lga kiritdi. Natijada mamlakatdagi barcha dindorlar yagona tabaqaga birlashtirilib, fransuz dindorlari bundan buyon qirollik qonunlari asosida yashashlari lozimligi tan olindi va fransuz millatining tarkibiy qismi sifatida ko‘riladigan bo‘ldi. Cherkovning mamlakatni siyosiy birlashtirilishiga va oliy qirol hokimiyatining tan olinishiga halaqit qiladigan ba’zi imkoniyatlari cheklanib, cherkov yurisdiksiyasiga tushadigan shaxslar doirasi qisqartiriladi.

Biroq ruhoniylarning yagona huquqiy maqomi o‘rnatilishi bilan uning muhim tabaqa imtiyozlari saqlanib qoldi. Ruhoniylar ilgarigidek desyatina (yer uchastkasi), turli xayr-ehsonlar olish huquqiga ega bo‘lib, soliq va sud immunitetini saqlab qoldilar. Ular har qanday davlat xizmatlari va majburiyatlaridan ozod qilindilar. Lekin, albatta, alohida ruhoniylar qirol tomonidan muhim siyosiy masalalarni hal etishga jalb etilib, qirolning yaqin maslahatchilari sifatida chiqardilar va davlatda yuqori mavqeni egallardilar.

Davlatda **ikkinchi tabaqa dvoryanlar** edi. Garchand, dvoryanlar XIV-XV asrlarda Fransiyaning ijtimoiy va siyosiy hayotida yetakchi rol o‘ynasalar ham, ikkinchi tabaqa hisoblangan. Bu tabaqa barcha dunyoviy feodallarni birlashtirib, unga qirolning vassallari debgina emas, uning xizmatchilari deb ham qaralardi. Dvoryanlik ruhoniylikdan farq qilib, berk (yopiq) va merosiy hisoblanardi. Dastlab dvoryanlik tabaqasiga kirish shaharliklarning yuqori qismi va boyib ketgan dehqonlar uchun ochiq edi. Lekin keyinchalik eski dvoryanlar past tabaqalarning pomeste sotib olishlari ularning dvoryanlarga aylantirmasligiga, bularga dvoryanlik unvoni berilmasligiga erishdilar.

Dvoryanlikning eng muhim imtiyozi ularning yerga nisbatan qat’iy egalik huquqi edi. Ular o‘z yerlarini barcha harakatsiz mulklari bilan meros qilib qoldirishlari mumkin edi. Dvoryanlar dvoryanlik darajasidagi unvonlar, tamg‘alar va boshqa belgilarga egalik huquqlaridan foydalanganlar. Ular davlat soliqlari to‘lashdan ozod edilar. Ularning yagona

majburiyati ilgarigidek xususiy senorga emas, qirolga harbiy xizmat o‘tash hisoblangan.

Dvoryanlik hanuzgacha bir xil emas edi. Unvonli zodagonlar - gersoglar, markizlar, graflar, vikontlar va boshqalar armiyada va davlat apparatida yuqori lavozimlarga da’vogarlik qilardilar. Dvoryanlarning asosiy ommasi, ayniqsa, quyi qismi bunday yuqori martabalarga unchalik harakat qilmasdi. Mayda va o‘rta dvoryanlar ancha quyi lavozimlarni olishlari mumkin edi. Eng quyida turgan dvoryanlar dehqonlarni ekspluatatsiya qilish va buning evaziga kun ko‘rish bilan kifoyalangan. Mayda va o‘rta dvoryanlar qirol hokimiyatining asosiy tayanchi edi. Zero, o‘z navbatida dehqonlarni tutqinlikda ushlab turish va ularning qarshiliklarini bostirishda qirol hokimiyati mayda va o‘rta dvoryanlarning eng ishonchli quroli edi. Shu bois mayda va o‘rta dvoryanlar qirol hokimiyatini faol ravishda qo‘llab-quvvatlardi.

XIV-XV asrlarda uchinchi tabaqaning shakllanishi asosan nihoyasiga yetdi. Bu tabaqa shahar aholisining juda tez o‘sishi va senzitariy dehqonlar sonining ko‘payishi hisobiga to‘ldirilgan. Uchinchi tabaqa o‘z tarkibi bo‘yicha juda zich edi va amalda butun mehnatkashlar ommasi hamda shakllanayotgan burjuaziyasini o‘zida birlashtirib turdi. Bu tabaqa a’zolariga "pastkash, yaramas kishilar" sifatida qaralgan. Ular qandaydir maxsus shaxsiy yoki mulkiy huquqlarga ega bo‘lmay, qirol ma’muriyati va, hatto alohida feodallar tomonidan qilinadigan o‘zboshimchaliklardan himoya qilinmaganlar. Uchinchi tabaqa Fransiyada yagona soliq to‘lovchi tabaqa edi. Uning zimmasiga davlat soliqlarining barcha og‘irliklari yuklangandi.

Uchinchi tabaqa tashkil etilishining o‘zi feodal-korporativ xarakterga ega edi. U avvalo shahar assotsiatsiyalari yig‘indisi sifatida chiqadi. Bu vaqtda hali uchinchi tabaqa a’zolari manfaatlarining tengligi va umumiyligi g‘oyasi vujudga kelmagandi. Uchinchi tabaqa hali o‘zini yagona umummilliy kuch deb bilmasdi.

Tabaqa-vakillik monarxiyasining tashkil topishi

XIV asrning boshida Fransiyada senorlik monarxiyasining o‘rniga feodal davlatning yangi shakli tabaqa-vakillik monarxiyasi keladi. Tabaqa-vakillik monarxiyasining tashkil topishi bu yerda mazkur davr uchun progressiv jarayon bo‘lgan siyosiy markazlashtirish (XIV asrning boshiga kelib mamlakat hududining to‘rtdan uch qismi birlashtirilgan edi), qirol hokimiyatining o‘sishi, alohida feodallar yakka hokimiyatchiligining tugatilishi bilan bog‘liq edi.

Feodallarning senorlik hokimiyati mazmunan o‘z siyosiy xarakterini yo‘qotgan. Qirollar senorlarni siyosiy maqsadlarda soliqlar yig‘ish huquq-

laridan mahrum etgan. XIV asrda shunday tartib o‘rnatilgan ediki, bunga ko‘ra, senorlik o‘lponlarini (talyalarni) yig‘ish uchun qirol hokimiyatining roziligini olish zarur edi. XV asrda Karl VII alohida yirik feodallar tomonidan talyalar yig‘ishni umuman bekor qiladi. Qirol feodallarning bevosita yangi soliqlar o‘rnatishini ham taqiqlagan. Natijada bu holat bunday soliqlar yig‘ishning asta-sekin yo‘qolib ketishiga olib keladi. Ludovik IX feodallardan monetalar chiqarish huquqini tortib oldi. XV asrda butun Fransiyada yagona qirollik monetasi (tanga-chaqasi) muomilada edi.

Qirollar feodallarning an’anaviy imtiyozlaridan - xususiy urushlar olib borish huquqidan ham mahrum etishgan. Faqat ba’zi yirik feodallargina XV asrda o‘z mustaqil armiyalarini saqlab qolgan edi (masalan, Burgundiya, Breten, Armanyak).

Senorlik qonunlari asta-sekin yo‘qolib borgan, shuningdek, "qirollik holati"ni tashkil etuvchi ishlar doirasi kengayib, senorlik yurisdiksiyasi ancha cheklanadi. XIV asrda alohida feodallarning har qanday qarorlari ustidan Parij parlamentiga apellyatsiya tartibida shikoyat qilish mumkinligi o‘rnatiladi. Bu bilan senorlik adliyasining suverenligini o‘rnatuvchi tamoyil batamom buzib tashlanadi.

Mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirishga va shaxsiy hokimiyatini kuchaytirishga harakat qilgan fransuz qirollarining yo‘liga ko‘p asrlardan buyon bitta jiddiy siyosiy to‘siq - rim-katolik cherkovi to‘sqinlik qilib kelmoqda edi. Fransuz taxti papalikning dunyoga hukmronlikni da’vo qilishiga hech qachon rozi bo‘lmagan, lekin zarur siyosiy tayanch his etmay, u bilan ochiqdan-ochiq qarama-qarshilikka bormagan. Bu holat cheksiz saqlanib qolishi mumkin emasdi. XIII asrning oxiri - XIV asrning boshiga kelib ancha mustahkamlangan qirol hokimiyati borgan sari Rim papasi hokimiyatining markaziy organlari bilan sig‘isha olmay qoladi. Qirol Filip IV Chiroyli (1285-1314 yillar) Flandriya bilan urushlar olib borish uchun fransuz ruhoniylaridan muntazam soliqlar to‘lab turishni talab qiladi. Bungacha ular qirolga soliq emas, balki o‘ziga xos "in'om" yoki "yordam" tariqasida pul to‘lab kelardilar. Qirolning ruhoniylardan muntazam soliqlar talab qilishi va shu bilan birga qirollik yurisdiksiyasining ruhoniylarga ham tarqatilishi katolik cherkovi manfaatlariga jiddiy putur yetkazadi. Qirolga papa Bonifatsiy VIII (1294-1303 yillar) keskin qarshi chiqdi va yuqoridagiga javoban 1301 yilda bulla chiqarib qirolni cherkovdan mahrum etishga po‘pisa qilib, papaga to‘la-to‘kis bo‘ysunishini talab qiladi, shuningdek, ruhoniylarning qirolga biron-bir soliq to‘lashini man etadi. Bundan tashqari, papa qiroldan Flandriyaga qarshi urushni to‘xtatishni talab qiladi. Papaning aralashuviga javoban, Filip IV 1302 yilda uch toifa - ruhoniylar,

dvoryanlar va shaharliklar vakillarining yig‘inini chaqirib, ularga qirol bilan papa o‘rtasidagi janjalni muhokama qilishni taklif etadi. General shtatlar (yalpi, bosh toifalar degani) papaning Fransiya ichki ishlariga aralashish haqidagi da’vosini qoralab chiqadi. Jamoatchilik ko‘magiga tayangan Filip IV papalikka qarshi zo‘ravonlik tadbirlarini qo‘llashga o‘tadi. Papaning Fransiyaga yuborgan legati (vakili) qirol buyrug‘iga muvofiq qamoqqa olinadi. Qirol Italiyaga o‘z elchisi Nogareni yuboradi, u papaga qarshi Rim feodallarini qo‘zg‘aydi. Qirol elchisi - Nogare qurolli yollanma askarlar bilan Bonifatsiy VIII ning qasriga bostirib kirib, papani qattiq haqorat qiladi. Haqiqatda papa bir qancha vaqt qamoqqa tushib qoladi. Bu voqealardan keyin, oradan sal o‘tmay, tahqirlanishni ko‘tarolmagan va keksayib qolgan papa vafot etadi. Uning o‘rniga Filipp IV tomonidan taklif etilgan nomzod - bordolik (fransuz) arxiyepiskop - Kliment V papalikka saylanadi. Kliment V o‘z qarorgohini Fransiyaga - dastlab Lionga, so‘ngra Avinon shahriga ko‘chiradi. Bu yerda papalar deyarli 70 yil davomida (1309-1378 yillarda) istiqomat qilishadi.

Shunday qilib, ilgarigi vaqtlarda qirollar va imperatorlarni osonlikcha yengib kelgan papalar bu safar milliy elementlarga tayangan va milliy siyosatni o‘tkazgan fransuz qiroli bilan kurashda tamomila muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Fransuz qirolining Rim papasi ustidan g‘alabasi, feodallar mustaqil huquqlarining asta-sekin yo‘qotilishi XIV-XV asrlarda qirol hokimiyatining obro‘-e’tibori va siyosiy nufuzi qat’iy o‘sib borishi bilan birga kechgan. Bu jarayonni yuridik asoslashda legistlar katta rol o‘ynaydi. Legistlar past tabaqadan chiqqan, lekin yuqori martabaga erishganliklari uchun qirolga xizmat qilishga tayyor turgan, "rim huquqi"dan ta'lim olgan kishilar edi. Ular dunyoviy hokimiyatni diniy hokimiyatdan ustunligini himoya qilib, Fransiyada qirol hokimiyatining ilohiy kelib chiqqanligini inkor etib, "Qirol qirollikni o‘zidan va o‘z nayzasidan boshqa hech kimdan olmagan" deb hisoblardilar.

1303 yilda: "Qirol o‘z qirolligida imperator hisoblanadi" degan qoida ilgari suriladi. Bu qirolning xalqaro munosabatlarda, shu jumladan, german-rim imperatorlari bilan bo‘lgan munosabatlarda to‘la mustaqilligini anglatardi. Fransuz qiroli, legistlarning tasdiqlashicha, Rim imperatori ega bo‘lgan barcha imtiyozlarga ega edi.

Legistlar Rim huquqining ma’lum tamoyiliga havola qilib shuni tasdiqlaydilarki, qirolning o‘zi oliy qonun, demak u o‘z xohishicha qonunlar yaratishi mumkin. Qonunlar qabul qilish uchun qirolga endilikda vassallarni chaqirish yoki qirollik kuriyasining roziligini olish talab qilinmaydigan bo‘ldi. Shuningdek, "har qanday odil sudlov qiroldan kelib chiqadi"

degan tezis ilgari surildi. Bunga ko‘ra, qirol har qanday sud ishlarini bevosita ko‘rib hal qilish yoki buning uchun o‘z xizmatchisini vakil etib tayinlash huquqini oladi.

Tabaqa-vakillik monarxiyasi hali feodal senorliklarning, katolik cherkovning, shahar korporatsiyalari va boshqalarning avtonom huquqlari batamom tugatilmagan bir paytda, mamlakat markazlashuvining ma’lum bosqichida o‘rnatilgan. Qirol hokimiyati muhim umummilliy vazifalarni hal etib va o‘ziga qator yangi davlat funksiyalarini olib, asta-sekin senorlik monarxiyasiga xos siyosiy strukturani sindiradi. Lekin bunda u feodallar oligarxiyasining kuchli muxolifiyatiga duch keladi va ularning qarshiliklarini o‘z kuchi va mablag‘lari bilan bartaraf eta olmay qoladi. Shuning uchun qirolning siyosiy kuch-qudrati ma’lum darajada uni qo‘llab-quvvatlagan tabaqalarning madadidan kelib chiqqan.

Aynan XIV asrning boshiga kelib siyosiy kelishuvchilikka asoslangan, shu sababli ham doimo mustahkam bo‘lib qolmagan ittifoq - qirol va turli tabaqalar, jumladan, uchinchi tabaqalar ittifoqi batamom rasmiylashgan edi. Bu ittifoqning siyosiy ifodasi maxsus tabaqa-vakillik muassasalari - General shtatlar va provinsiyalarning shtatlari bo‘lib qoladi. Bu ittifoqda uning ishtirokchilari o‘ziga xos alohida manfaatlar bilan maydonga chiqadilar.

General shtatlar

General shtatlarning vujudga kelishi Fransiyada davlat shaklining o‘zgarishini boshlab beradi. Fransiya tabaqa-vakillik monarxiyasi shaklida idora etiladigan davlatga aylanib boradi.

Qirol Filip IV Chiroyli tomonidan 1302 yilda General shtatlarning[13] chaqirilishini bir qator aniq tarixiy shart-sharoitlar taqoza etgan edi. Bular: Flandriya bilan bo‘lgan muvaffaqiyatsiz urush, jiddiy iqtisodiy qiyinchiliklar va nihoyat, qirol bilan rim papasi o‘rtasida kelib chiqqan nizo edi. Biroq umummilliy tabaqa-vakillik muassasasining ta’sis etilishi Fransiyada monarxiya davlati rivojlanishining ob'yektiv qonuniyatining namoyon bo‘lishi ham edi.

General shtatlarning chaqirilish muddati o‘rnatilmagan edi. Bu masalani shaxsan qirolning o‘zi sharoitga qarab va siyosiy idroki asosida hal qilardi. Shtatlarning har bir chaqirig‘i o‘ziga xos bo‘lib, qat’iy ravishda qirolning xohishi bo‘yicha belgilanardi. Oliy ruhoniylar (arxiyepiskoplar, yepiskoplar, abbatlar), shuningdek, yirik dunyoviy feodallar shaxsan qirol tomonidan taklif etilardilar. General shtatlarning dastlabki chaqiriqlari dvoryanlardan say-

[13] **General shtatlar** degan nom – “yalpi toifalar” Etats Generaux deb nomlanishi keyinchalik 1484 yildan boshlab qo`llana boshlangan.

langan vakillarga ega bo‘lmagan. Keyinchalik mayda va o‘rta dvoryanlardan vakillar saylash amaliyoti o‘rnatilgan. Saylovlar, shuningdek, cherkovlarda, monastirlarda va shaharlarning konventlarida (2-3 deputatlar bo‘yicha) o‘tkazilgan. Biroq shaharliklar va ayniqsa legistlar ba’zan ruhoniylar va dvoryanlar tabaqalaridan saylanganlar. General shtatlarning taxminan yettidan bir qismini yuristlar tashkil etgan. Shaharlardan deputatlarni patritsiy – byurgerlarning yuqori qismi taqdim qilgan. Shunday qilib, General shtatlar har doim fransuz jamiyatining mulkdor tabaqalari organi bo‘lib qolgan edi.

General shtatlarning ko‘rib chiqishiga kiritiladigan masalalar va ularning majlislarining qachongacha davom etishi ham qirol tomonidan belgilangan. Qirol turli masalalar: tamplierlar ordeni bilan kurash (1308 yilda), Angliya bilan shartnoma tuzish (1359 yilda), diniy urushlar (1560, 1576, 1588 yillarda) va boshqa masalalar bo‘yicha tabaqalar yordamini olish uchun General shtatlarni chaqirgan. Qirolning, garchi, qonunlar qabul qilishida General shtatlar roziligini olishi rasman talab qilinmagan bo‘lsa ham, ammo qirol qator qonun loyihalari bo‘yicha uning fikrini so‘ragan. Biroq ko‘pincha General shtatlarning chaqirilishiga asosiy sabab qirolning pulga muhtojligida edi. Bunday paytlarda qirol tabaqalarga murojaat qilib, ulardan moliyaviy yordam so‘rar yoki faqat bir yil davomida yig‘ilishi mumkin bo‘lgan navbatdagi soliqni joriy etishini iltimos qilardi. Faqat 1439 yildagina qirol Karl VII tomonidan General shtatlardan doimiy qirollik talyalarini olishga rozilik olingan edi. Biroq, agar qandaydir qo‘shimcha soliqlar undirish haqida so‘z ketsa, albatta, ilgarigidek General shtatlarning roziligi talab qilingan.

General shtatlar qirolga iltimosnomalar, shikoyatlar, protestlar bilan murojaat etganlar. Ular takliflar kiritish, qirollik ma’muriyati faoliyatini tanqid qilish huquqiga ega edilar. Qirolning ba’zan General shtatlar bilan hisoblashishiga va ularning iltimoslari bo‘yicha tegishli ordonanslar chiqarishiga to‘g‘ri kelardi.

General shtatlar, garchand davlatda qirol hokimiyatining kuchayishiga va mustahkamlanishiga ob'yektiv yordam bergan bo‘lsa ham, umuman qirol zodagonlarining ishonchli organi bo‘lmagan. Ular qator hollarda qirolga qarshi turganlar va unga ma'qul qarorlar qabul qilishdan bosh tortganlar. Tabaqalar yon berishni istamagan holatlarda qirollar uzoq vaqtgacha ularni to‘plamaganlar (masalan, 1468 yildan 1484 yilgacha). 1484 yildan keyin (1560 yilgacha) General shtatlar umuman yig‘ilmay qo‘ygan.

General shtatlarning qirol hokimiyati bilan kuchli ixtilofi 1357 yilda Parijdagi shaharliklarning qo‘zg‘oloni va fransuz qiroli Ioanning inglizlar tomonidan asir olinishi vaqtida sodir bo‘lgan edi. Buning oqibatida tarkibi

800 kishidan iborat bo‘lgan va uning yarmidan ko‘pini uchinchi tabaqa vakillari tashkil etgan General shtatlar **"Buyuk mart ordonansi"** deb nom olgan islohotlar dasturini ilgari suradi. Qirol hokimiyatiga subsidiyalar (pul undirish huquqi) taqdim etish evaziga General shtatlar ko‘p oliy amaldorlarni almashtirishni, saroy xarajatlarini qisqartirishni va General shtatlarga soliqlar tayinlash huquqinigina emas, balki ularni yig‘ish va xarajat qilish huquqi ham berilishini, so‘ngra bundan keyin muntazam suratda (yilda uch marta) General shtatlarni chaqirib turishni talab qiladi. Urush masalalasida General shtatlar uni davom ettirish tarafdori bo‘lib, faqat shtatlarning roziligini olgandan keyingina dushman bilan sulh shartnomasi tuzishni talab etgan. Bular yuqorida ko‘rsatilgan 1357 yilgi "Buyuk mart ordonansi"da qonunlashtirilgan. Bu vaqtda "bosh islohot-chilar" saylanib, ularga qirol ma’muriyati faoliyatini nazorat qilish, alohida chinovniklarni ishdan bo‘shatish va ularni o‘limga mahkum etishgacha bo‘lgan jazolar bilan jazolash vakolatlari berilgan. Biroq General shtat-larning o‘zlarida doimiy moliyaviy, nazoratchilik va hatto qonunchilik vakolatlarini mustahkamlab olishga bo‘lgan urinishlari muvaffaqiyatga erishmagan. 1358 yilda Parij va Jakeriya qo‘zg‘olonlari bostirilgandan keyin "Buyuk mart ordonansi"da ilgari surilgan talablar qirol hokimiyati tomonidan rad etilgan.

General shtatlarda har bir tabaqa alohida-alohida yig‘ilgan va masalalarni alohida ravishda muhokama qilgan. Faqat 1468 va 1484 yillarda uchchala tabaqa o‘z majlislarini birgalikda o‘tkazgan. Ovoz berish odatda bayajlar va seneshalliklar bo‘yicha o‘tkazilardi. Deputatlar ham shular bo‘yicha saylanardi. Agar tabaqalar mavqeida tafovutlar kelib chiqsa, ovoz berish alohida tabaqalar bo‘yicha o‘tkazilardi. Bunday holda har bir tabaqa bir ovozga ega bo‘lgan va har doim feodallar umuman uchinchi tabaqa ustidan g‘olib chiqqan. General shtatlarga saylangan deputatlar imperativ mandat (buyruq tarzidagi guvohnoma) bilan ta'minlanardilar. Muhokamaga kiritiladigan masalalar bo‘yicha, jumladan, ovoz berishda deputatlarning mavqei saylovchilarning ko‘rsatmalari va yo‘l-yo‘riqlari bilan bog‘liq edi. Majlislardan qaytgandan so‘ng deputatlar o‘z saylovchilari oldida hisobot berishlari lozim edi.

XIII asrning oxiridan boshlab Fransiyaning qator mintaqalarida (Provansda, Flandriyada) mahalliy tabaqa-vakillik muassasalari vujudga kelgan. Ular dastlab "konsilium" "parlament" yoki soddagina qilib "uch tabaqa kishilari" deb atalgan. XV asr o‘rtasidan boshlab "Burgundiya shtatlari", "Dofin shtatlari" va boshqa shu kabi iboralar ishlatila boshlangan. Faqat XVI asrdagina "provinsial shtatlar" degan nom

mustahkamlangan. Agar XIV asrning oxiriga kelganda 20 ta mahalliy shtatlar bo‘lgan bo‘lsa, XV asrga kelib esa ular amalda har bir provinsiyada mavjud edi. Provinsial shtatlarga xuddi General shtatlarga o‘xshab, dehqonlar kirish huquqiga ega bo‘lmaganlar. Qirollar ko‘pincha separatizm siyosatini olib borganlar va ba’zi provinsial shtatlarning ajralib chiqishiga qarshi kurashganlar, chunki ular mahalliy feodallarning (Normandiyada, Langadokda) kuchli ta’siri ostida edilar.

Markaziy va mahalliy boshqaruv

Tabaqa-vakillik monarxiyasining vujudga kelishi va siyosiy hokimiyatning qirol qo‘lida asta-sekin to‘plana borishi birdaniga yangi davlat boshqaruv apparatining tashkil etilishiga olib kelmadi.

Boshqaruvning markaziy organlari jiddiy qaytadan tashkil etilmadi. Bu vaqtda qirol o‘zining maslahatchilari fikriga bog‘liq emas, balki, aksincha, barcha ma’muriy va boshqa davlat chinovniklarining hokimiyatchilik vakolatlari qiroldan kelib chiqadi, degan muhim tamoyil o‘rnatilgandi. Endilikda saroy unvonlariga aylantirilgan ilgarigi mansablardan qirolning yaqin yordamchisi bo‘lib qolgan kansler lavozimi saqlanib qolgandi. **Kansler,** ilgarigidek qirollik konselyariyasining boshlig‘i bo‘lib, endi ko‘p soni qirol hujjatlarini tuzar, sud mansablariga tayinlar, qirollik kuriyasida va qirol yo‘qligida qirol kengashida raislik qilardi.

Markazlashtirish jarayonining yanada rivojlanishi bu vaqtda qirollik kuriyasi bazasida tashkil etilgan **Katta kengash** (1314 yildan 1497 yilgacha)ning markaziy boshqaruv tizimida muhim o‘rin tutganligida o‘z ifodasini topgan edi. Mazkur kengashga legistlar, shuningdek, oliy dunyoviy va diniy zodagonlar (shahzodalar, Fransiya perlari, arxiyepis-koplar va boshqalar) ning 24 vakili kirardi. Kengash har oyda bir marta chaqirilar, lekin uning vakolatlari qat’iy maslahatchilik xarakteriga ega edi. Qirol hokimiyatining mustahkamlanib borishi bilan Kengashning ahamiyati pasayib borgan, qirol ko‘proq tor doiradagi yashirin kengash chaqiradigan bo‘lgan. **Yashirin kengashga q**irol faqat o‘zi xohlagan kishilarni taklif etardi.

Markaziy qirollik apparatida legistlardan tanlab olingan va qirolga sodiq bo‘lgan, uncha taniqli bo‘lmagan dvoryanlardan - klerklar, kotiblar, notarius va hokazolardan iborat yangi mansablar ham paydo bo‘lgan. Bu mansablar har doim ham aniq belgilangan funksiyalarga ega bo‘lavermagan.

Prevo va balyalar ilgari mahalliy ma’muriyatning asosiy organlari bo‘lgan bo‘lsa, XIV asrda ular o‘zlarining qator funksiyalarini, jumladan

harbiy funksiyalarini yo‘qotgan edi. Bu feodallar tomonidan tuziladigan xalq lashkarlarining ahamiyati pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgandi. Ilgari balyalar tomonidan ko‘riladigan ko‘pgina sud ishlari endi ular tomonidan tayinlanadigan leytenantlarga o‘tgan. XV asrning oxiridan boshlab qirollar balyajlardagi **leytenantlarni** bevosita o‘zlari tayinlaydigan bo‘lganlar, balyalar esa oraliqdagi va kuchsiz ma’muriy zvenoga aylantirilgan.

Qirollar mahalliy boshqaruvni markazlashtirishga harakat qilib, yangi - **gubernatorlar** mansabini joriy etganlar. Ba’zi hollarda gubernatorlar qirollik leytenanti unvonini qo‘lga kiritib, sof harbiy funksiyalarga ega bo‘lganlar. Boshqa hollarda ular balyajlarga tayinlanib, balyalarni almashtirganlar va keng vakolatlar, jumladan, yangi qal'alar qurishni taqiqlash, xususiy urushlarga yo‘l qo‘ymaslik singari huquqlarga ega bo‘lib olganlar.

XIV asrda odatda qondosh shahzodalardan va taniqli dvoryanlardan tayinlanadigan **general-leytenant** degan nomdagi mansabdor shaxslar paydo bo‘ladi. Dastlab bu mansab qisqa muddatga va tor vakolatlar bilan ta’sis etilgan. Jumladan, ular ba’zi soliqlarni to‘lashdan xalos edilar, afv etish va boshqa vakolatlardan foydalanardilar.

XV asrda general-leytenantlar soni oshgan va ularning faoliyat ko‘rsatish muddati o‘sgan. Odatda ular bir necha **balyajlarni** yoki XV asr oxiridan **provinsiya** deb atala boshlangan ma’muriy okrugni idora etganlar.

Joylardagi markazlashtirish **shahar hayotiga** ham tegib o‘tgan. Qirollar ko‘pincha shaharlarni kommunalar maqomidan mahrum etar, ilgari chiqarilgan xartiyalarni o‘zgartirar, shaharliklarning huquqlarini cheklar edilar. Qirollik ma’muriyati shahar ma’muriyatiga bo‘ladigan saylovlarni nazorat qilib, unga o‘ziga kerakli nomzodlarni tanlab qo‘yardi. Shaharlar ustidan ma’muriy homiylik tizimi o‘rnatilgan edi. Garchand, XV asrda ba’zi shaharlarda kommunalar qayta tiklangan bo‘lsada, ular qirol ma’muriyati bilan bir butun holga keltirilgan edi. Shahar aristokratiyasi ilgarigidek cheklangan shaklda o‘zini-o‘zi boshqarishdan foydalanardi, biroq shahar kengashlarining barcha muhim majlislarida, qoida bo‘yicha, qirolning chinovnigi raislik qilardi.

Moliyaviy boshqaruvning tashkil etilishi

Davlatning barqaror moliyaviy asosining yo‘qligi qirol hokimiyatining umumiy ahvoliga uzoq vaqt salbiy ta’sir etgan. Ayniqsa, yuz yillik urush vaqtida bu juda bilingan edi. Dastlabki vaqtlarda davlat xazinasini to‘ldirishning muhim manbai domenlardan olinadigan daromadlar va monetalar zarb qilish bo‘lib turardi. Buning

ustiga qirollar o‘z moliyaviy ahvolini mustahkamlashga harakat qilib, tez-tez qadrsiz pullar chiqarardilar. Biroq asta-sekin xazinani to‘ldirishning asosiy manbai qirollik soliqlarini yig‘ish bo‘lib qolgan. 1369 yilda doimiy boj poshlinalarini va tuz solig‘ini yig‘ish qonunlashtirilgan, 1439 yildan boshlab General shtatlar doimiy qirollik talyalarini yig‘ishga ruxsat bergan, qirolning moliyaviy ahvoli ancha mustahkamlangan. Talya miqdori tobora o‘sib borgan (masalan, Ludovik XI davrida (1461-1483 yillarda) u uch baravar o‘sgan).

Bu davrda moliyaviy boshqaruvning ixtisoslashgan organlari vujudga keladi. XIV asr boshida qirollikning moliya muassasasi ta’sis etilgan, so‘ngra esa qirollik kuriyasidan maxsus **hisob palatasi** ajralib chiqqan. Hisob palatasi qirolga moliya masalalari bo‘yicha maslahatlar bergan, balyalardan kelib tushadigan daromadlarni tekshirgan va hokazo. Karl VII davrida Fransiya xazinaga oid maqsadlarda **generalliklar** (jeneralite)ga bo‘lingan. Ularning tepasiga qo‘yilgan generallar qator ma’muriy, ammo hammadan avval, soliqlar yig‘ish funksiyalariga ega edilar.

Qurolli kuchlarning tashkil qilinishi

Boshqaruvning umumiy qayta qurilishi armiyaga ham taalluqli edi. Feodallardan tuziladigan ko‘ngilli qo‘shinlar bu vaqtda saqlanib qolgan. Biroq XIV asrdan qirol barcha dvoryanlardan bevosita harbiy xizmat o‘tashni talab qila boshlagan. 1314 yildan yirik senorlar bu tartibga e'tiroz bildirganlar, lekin yuz yillik urush yillarida bu tartib batamom o‘rnatilgan.

Qirol hokimiyatining asosiy maqsadi - markazlashgan davlat siyosatining ishonchli quroli hisoblangan mustaqil qurolli kuchlarni tashkil etishga asta-sekin erishib borilgan. Qirol hokimiyati moliyaviy asosining mustahkamlanishi unga zarba beruvchi otryadlar sifatida tuzilgan yollanma kuchlar (nemislardan, shotlandlardan va boshqalardan iborat) tashkil etish imkonini bergan. 1445 yilda Karl VII doimiy soliq yig‘ish imkoniyatini qo‘lga kiritib, qirollikning markaziy boshqaruvga va aniq tizimga ega bo‘lgan doimiy armiyasini tuzgan. Shuningdek, butun qirollik hududi bo‘yicha doimiy garnizonlar joylashtirilgan. Ular feodallarning isyonlariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan edi.

Sud tizimi

Qirol ma’muriyati cherkov yurisdiksiyasini cheklab va senorlik yurisdiksiyasini ancha siqib qo‘yib, sud ishlarini bir xillashtirish siyosatini o‘tkazgan. Sud tizimi haliyam juda chalkash bo‘lib, sud ma’muriyatdan ajratilmagandi.

Mayda sud ishlarini prevo hal qilardi, jiddiy jinoyatlar haqidagi (qirollik holatidagi deb nomlanuvchi) ishlar balya sudida, XV asrdan boshlab esa leytenant raisligidagi sudda ko‘rib hal etilardi. Balya sudida mahalliy dvoryanlar, qirollik prokurori ishtirok etardi. Modomiki, prevo, balya, keyinchalik esa leytenantlar qirolning xohishi bo‘yicha tayinlangan va bo‘shatilgan ekan, butun sud faoliyati to‘liq qirol va uning ma’muriyati tomonidan nazorat ostiga olingan edi. Parij parlamentining roli o‘sgan, uning a’zolari ilgarigidek bir yilga emas, balki 1467 yildan boshlab umrbod muddatga tayinlanardi. Parlament feodal zodagonlarning ishlari bo‘yicha oliy sudga aylanib, barcha sud ishlari bo‘yicha muhim apelatsion instantsiya bo‘lib qolgan.

Parlament sud funksiyalarini amalga oshirish bilan bir qatorda, XIV asrning birinchi yarmida qirol ordonanslari va qirollikning boshqa hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish huquqini qo‘lga kiritgan. 1350 yildan boshlab qonun hujjatlarini Parij parlamentidan ro‘yxatdan o‘tkazish majburiy bo‘lib qolgan. Quyi sudlar va boshqa shaharlarning parlamentlari o‘z qarorlarini chiqarishda faqat ro‘yxatdan o‘tgan qirol ordonanslaridan foydalanishlari mumkin edi. Agar Parij parlamenti ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan hujjatda noaniqlikni yoki "Qirollik qonunlari"dan chetga chiqishni topsa, u **remonstratsiya (e'tiroz)** bildirishi va bunday hujjatni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishi, remonstratsiya faqat qirolning parlament majlisida shaxsan ishtirok etishi vositasi bilan bartaraf etilishi mumkin edi. XV asr oxirida parlament o‘zining remonstratsiya huquqidan bir necha marta foydalangan. Bu esa uning boshqa davlat organlari orasidagi obro‘yini oshirgan, lekin oxir oqibatda qirol hokimiyati bilan ixtilof chiqishiga olib kelgan.

4. Mutlaq monarxiya davri (XVI-XVIII asrlar) da ijtimoiy va davlat tuzumi xususiyatlari

Tabaqalarning huquqiy holatidagi

Fransiyada absolutizmning vujudga kelishi mamlakatning ijtimoiy-huquqiy tuzilishida chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar, avvalo, kapitalistik munosabatlarning tug‘ilishi bilan kelib chiqqan edi. Kapitalizmning tarkib topishi sanoatda va savdoda tezroq kechgan, qishloq xo‘jaligida uning uchun yerga nisbatan feodal mulkchilik katta to‘siq bo‘lib qolgandi. Mamlakatning tabaqaviy tuzumi ijtimoiy taraqqiyotga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda va kapitalizm rivojlanishi ehtiyojlariga qarama-qarshi chiqmoqda edi. XIV asrga kelib fransuz monarxiyasi o‘zining ilgari mavjud bo‘lgan vakillik muassasalarini tugatgan, lekin o‘zining tabaqaviy tabiatini saqlab qolgandi.

Davlatda ilgarigidek birinchi tabaqa **ruhoniylar** bo‘lgan. Bu vaqtda Fransiyaning 15 million aholisidan 130 minggi ruhoniylardan iborat edi. Ular barcha yerlarning 1/5 qismini o‘z qo‘llarida ushlab turardi. Ruhoniylar o‘zlarining an’anaviy ierarxiyasini to‘liq saqlab qolib, juda xilma-xilliklari bilan ajralib turardi. Cherkovning yuqori qismi va qavmdosh ruhoniylar o‘rtasida ziddiyatlar kuchayadi. Ruhoniylar faqat tabaqaviy hamda feodal imtiyozlarni qo‘lda saqlab qolish uchungina nisbatan birlashib turardi, xolos.

Mutlaq monarxiya davrida ruhoniylarning qirol hokimiyati va dvoryanlar bilan aloqasi ancha mustahkam bo‘lib qoldi. 1516 yilda Fransisk I (Fransuz I) bilan (1515-1547) papa Lev X o‘rtasida Bolonyada tuzilgan konkordatga ko‘ra, fransuz qiroli barcha fransuz yepiskoplarini cherkov lavozimlariga o‘zi tayinlaydigan bo‘ldi. Katta boylik va hurmat-ehtiromlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha yuqori cherkov lavozimlari dvoryan aslzodalarga taqdim qilinardi. Dvoryanlarning ko‘pgina kichik o‘g‘illari u yoki bu diniy martabani olishga harakat qilar edi. Ruhoniylarning vakillari (Rishele, Mazarini va boshqalar) ham o‘z navbatida davlat boshqaruvida muhim va ba’zan esa hal qiluvchi mansablarni egalladilar. Shunday qilib, ilgari chuqur ziddiyatlar mavjud bo‘lgan birinchi va ikkinchi tabaqa o‘rtasida endilikda ancha mustahkam siyosiy va shaxsiy aloqalar vujudga keladi.

Fransuz jamiyatining ijtimoiy va siyosiy hayotida hukmron mavqeni dvoryanlar egallaydi. Dvoryanlar bu vaqtda taxminan 400 ming kishini tashkil etardi. Davlatda faqat dvoryanlargina feodal pomestelarga egalik qilishi mumkin edi. Shuning uchun ularning qo‘lida yerlarning katta qismi (3/5 qismi) to‘plangandi. Umuman Fransiyada dunyoviy feodallar (qirol va uning oila a’zolari bilan birga) davlatdagi butun yerlarning 4/5 qismini ushlab turardi. Dvoryanlik asosan tug‘ilish bo‘yicha ega bo‘linadigan sof shaxsiy huquqiy maqomga aylanadi. Dvoryanlar o‘zlarining dvoryanlik kelib chiqishini uch-to‘rt avlodgacha isbotlashlari lozim edi. XII asrda dvoryanlik hujjatlarini qalbakilashtirish hollari aniqlangandan so‘ng dvoryanlik kelib chiqishini nazorat qiluvchi maxsus ma’muriyat ta’sis etiladi.

Dvoryanlik, shuningdek, maxsus, qirollik hujjati bilan ham berilardi. Bu, qoida bo‘yicha, boy burjualar tomonidan davlat apparatida mansablarning sotib olinishi bilan bog‘liq edi. Bundan ayniqsa doimo pulga muhtoj bo‘lib turgan qirol hokimiyati juda manfaatdor edi. Bunday shaxslar odatda nasliy dvoryanlardan farq qilib, **mantiya dvoryanlari,** deb atalardi. Eski urug‘ - dvoryanlari (saroy dvoryanlari va unvonli dvoryanlar, provinsiya dvoryanlarining yuqori qismi) "qo‘lidan kelmaydigan mansabga minib olgan" bunday mantiya dvoryanlariga nafrat bilan qarar edilar.

Mantiya dvoryanlarining soni XVIII asrning o‘rtalariga kelganda taxminan 4 mingni tashkil etardi. Ularning bolalari harbiy xizmat o‘tashlari lozim edi, lekin keyinchalik tegishli xizmatni o‘taganlaridan so‘ng (25 yildan keyin) nayzador dvoryan (nasliy dvoryan)ga aylangandi.

Dvoryanlar, o‘zlarining aslzodalik va mansabdorlik farqlariga qaramay, qator umumtabaqaviy imtiyozlarga: unvon olish, ma’lum kiyim kiyib yurish va qurol taqib yurish, jumladan, qirol saroyida qurol taqib yurish va hokazo huquqlarga ega edilar. Dvoryanlar soliqlar to‘lashdan va har qanday shaxsiy majburiyatlardan ozod etilgandilar. Ular saroy, davlat va cherkov mansablariga tayinlanishda imtiyozli huquqlardan foydalanardilar. Ba’zi yuqori maosh beriladigan va qandaydir xizmat majburiyatlari bilan yuklatilmagan saroy lavozimlari (masalan, sinekurlar) dvoryanlar uchun zaxirada ushlab turilardi. Dvoryanlar universitetlarda, qirollik harbiy maktablarida ta'lim olishda imtiyozli huquqlardan foydalanardilar. Shular bilan birga dvoryanlar absolutizm davrida o‘zlarining ba’zi eski feodal imtiyozlari: mustaqil boshqarish, yakkama-yakka olishuv huquqlari va boshqalarni yo‘qotgan edilar.

XVI-XVIII asrlarda Fransiya aholisining eng ko‘p qismini **uchinchi tabaqa** tashkil etardi. Uning tarkibi tobora xilma-xil bo‘lib borgan. Unda ijtimoiy va mulkiy darajalanish (tabaqalashuv) kuchayadi. Uchinchi tabaqaning eng quyi qismida dehqonlar, hunarmandlar, qora ishchilar, ishsizlar, uning yuqori qismida esa moliyachilar, savdogarlar, sex ustalari, notariuslar, advokatlar turardi. Ana shulardan burjuaziya sinfi shakllangan.

Bu vaqtda shahar aholisining soni nihoyatda o‘sishi va uning Fransiya ijtimoiy hayotidagi o‘rni ko‘payishiga qaramay, uchinchi tabaqaning asosiy qismini dehqonlar tashkil etib qolavergan. Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan dehqonlarning huquqiy ahvolida o‘zgarishlar yuz beradi. Bu vaqtda servaj, formaryaj, "birinchi kecha huquqi" amalda yo‘qoladi. Menmort ilgarigidek huquqiy odatlarda nazarda tutilgan, lekin juda kam qo‘llanilgan. Qishloqqa tovar-pul munosabatlarining kirib kelishi bilan dehqonlar orasidan boyigan fermerlar, kapitalistik arendatorlar, qishloq xo‘jalik ishchilari ajralib chiqdi. Biroq dehqonlarning ko‘pchilik qismini **senziva** egalari, ya’ni senorlik yerlarini ushlab turib, turli feodal majburiyatlar o‘tovchilar tashkil etardi. Bu vaqtga kelib **senzitariylar** barshchina ishlaridan to‘liq ozod etilganlar, lekin dvoryanlar doimo senzlarni va boshqa yer soliqlarini oshirib borishga harakat qilganlar, shuningdek, senorning dehqonlar yerlarida ov qilish huquqi dehqonlar uchun qo‘shimcha yuk bo‘lib tushgan edi.

Dehqonlar uchun juda og‘ir bo‘lgan va xonavayron qiladigan ko‘p-dan-ko‘p to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita soliqlar tizimi joriy qilingandi. Qirolning soliq yig‘uvchilari bunday soliqlarni ko‘pincha kuch va zo‘rlik yo‘li bilan yig‘ar edilar. Qirol hokimiyati soliqlar yig‘ish huquqini bankir-larga va sudxo‘rlarga tez-tez sotib turardi. Bunday huquqni sotib olganlar qonuniy va noqonuniy soliqlar yig‘ishni shunchalik kuchaytirar edilarki, oqibatda ko‘p dehqonlar o‘z uy joylari va mol-mulklarini sotib, shahar-larga ish izlab ketishga majbur bo‘lar edilar va shu tariqa ishsiz hamda qashshoqlar safini to‘ldirib turar edilar.

Absolutizmning vujudga kelishi va rivojlanishi

Kapitalistik uklad rivojlanishining va feo-dalizm yemirilishi boshlanishining muqarrar nati-jasi absolutizmning qaror topishi bo‘ladi. Abso-lutizmga o‘tishdan XVI-XVII asrlarda fransuz jamiyatining eng keng tabaqalari manfaatdor edi. Absolutizm dvoryanlarga va ruhoniylarga ham zarur edi. Chunki ular uchun iqtisodiy qiyinchilik-larning va uchinchi tabaqa tomonidan siyosiy siquvning o‘sishi kuchayib borayotgan bir sharoitda faqat markazlashgan va kuchli davlat hokimiyati keng tabaqa imtiyozlarining saqlanib qolishini ta'minlay olardi.

Absolutizmdan mustahkamlanib borayotgan burjuaziya ham man-faatdor edi. Burjuaziya hali siyosiy hokimiyatga da’vo qila olmas, lekin u feodallarning o‘zboshimchaliklaridan va XVI asrdagi Reformatsiya muno-sabati bilan qo‘zg‘algan diniy urushlardan qirol himoyasiga muhtoj edi. Tinchlik, adolat va ijtimoiy tartib o‘rnatilishi fransuz dehqonlarining eng asosiy orzu-umidi edi. Bu dehqonlarning ko‘z o‘ngida faqat kuchli va rahmdil qirol hokimiyati tomonidangina amalga oshirilishi mumkin bo‘lib ko‘rinardi.

Qirolning ichki va tashqi muholiflari tugatilgach, yagona ma'naviy va milliy o‘zlikni anglash keng fransuzlar ommasini toj-taxt atrofida jipslash-tirgach, qirol hokimiyati jamiyatda va davlatda o‘z mavqeini juda mustah-kamlab olishga sazovor bo‘lgan. Qirol hokimiyati keng jamoatchilik om-masiga tayanib absolutizmga o‘tish davrida katta siyosiy kuchga va hatto o‘zini tug‘dirgan jamiyatda nisbatan mustaqillikka ega bo‘lib olgan.

XVI asrda absolutizmning vujudga kelishi progressiv xarakterga ega edi, negaki yagona va kuchli qirol hokimiyati Fransiyaning hududiy birlashishini, yagona fransuz millatining shakllanishini nihoyasiga yetkaz-gan, sanoat va savdoning juda tez rivojlanishiga ko‘maklashgan, ma’muriy boshqaruv tizimining oqilona tashkil etilishi imkonini bergan. Biroq XVI-XVIII asrlarda feodal tuzumning yemirilishi kuchayib borishi bilan absolut monarxiya, jumladan, uning o‘z-o‘zidan rivojlanib borgan hokimiyat

organlari tobora jamiyat ustida yuksala borib, undan ajralgan va u bilan hal etib bo‘lmaydigan qarama-qarshiliklarga uchragan.

Shunday qilib, absolutizm siyosatida reaksion va avtoritar[14] belgilar muqarrar paydo bo‘lib, muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Garchand, qirol hokimiyati o‘zining tub maqsadlari yo‘lida merkantilizm[15] va proteksionizm[16] siyosatidan foydalangan, kapitalizmning rivojlanishini muqarrar tezlashtirgan bo‘lsa ham, ammo absolutizm hech qachon burjuaziya manfaatlarini himoya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan, aksincha u feodal davlatning butun qudratidan halokati muqarrar bo‘lgan feodal tuzumni, shuningdek dvoryanlar va ruhoniylarning sinfiy va tabaqa imtiyozlarini saqlab qolishda foydalangandi.

XVIII asr o‘rtalariga kelganda feodal tuzumning chuqur inqirozi feodal davlatning barcha jabhalari tushkunlikka uchrashiga va yemirilishiga olib keldi. Absolutizmning halokati muqarrar bo‘lib qoldi. Sud-ma’muriy o‘zboshimchalikar eng chekka nuqtasiga erishdi. Qirol saroyining o‘zi behuda va be'mani isrofgarchiliklar va vaqt o‘tkazishlar (nihoyasiz bayramlar, maskaradlar, har xil o‘yin-kulgi kechalari, ovlar va boshqa ko‘ngil ochar o‘yinlar) ramzi bo‘lib qolgan edi. Qirol saroyini "millat qabristoni" deb bejiz atamagan edilar.

Qirol hokimiyatining kuchayishi

Absolut monarxiya davrida oliy siyosiy hokimiyat butunlay va to‘liq qirolga o‘tgan va u hech qanday davlat organi bilan taqsimlanmagandi. Mutlaq hokimiyatga ega bo‘lish uchun qirolga feodallar oligarxiyasi va katolik cherkovning siyosiy oppozitsiyasini bartaraf etishi, tabaqa-vakillik muassasalarini tugatishi, markazlashgan byurokratik apparat, doimiy armiya, politsiya ta’sis etishi zarur edi.

XVI asrda endilikda General shtatlar chaqirilmay qo‘yadi. 1614 yilda General shtatlar oxirgi marta chaqirilib, tezda tarqatib yuboriladi va 1789 yilgacha hech qachon chaqirilmaydi. Ba’zi vaqtlarda qirol muhim islohotlarning loyihalarini ko‘rib chiqish va moliya masalalarini hal qilish uchun notabllar (feodal aslzodalar)ni yig‘ib turardi. XVI asrda (1516 yilgi Bolonya konkordati bo‘yicha va 1598 yilgi Nant edikti asosida) qirol Fransiya katolik cherkovini to‘liq o‘ziga bo‘ysundirgandi.

[14] **Avtoritar –** hokimiyat, diktatura, obro` va shu kabilarga ko`r-ko`rona va so`zsiz bo`ysunishga asoslangan degani.
[15] **Merkantilizm –** XVI – XVII asrlarda savdo burjuaziyasi manfaatlarini aks ettirgan, mamlakat farovonligi ishlab chiqarish tufayli emas, tashqi savdo tufayli yuzaga keladi deb da'vo qilgan iqtisodiy ta'lim; faqat foydani ko`zlash, manfaatparastlik.
[16] **Proteksionizm –** lotin tilidan olinib, davlatning milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan ximoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati. Mamlakat sanoatini moliyaviy rag`batlantirish, eksportni rag`batlantirish, importni kamaytirish vositasida amalga oshiriladi

XVI-XVII asrlarda Parij parlamenti qirol hokimiyatining o‘ziga xos siyosiy muxolifi sifatida maydonga chiqadi. Bu vaqtga kelib, u feodal zodagonlarning tayanchiga aylanib, bir necha marta o‘zining remonstratsiya huquqidan foydalangan hamda qirol hujjatlarini rad qilgan (qaytargan) edi. 1667 yilgi qirol ordonansi bilan shunday qoida o‘rnatiladiki, bunga ko‘ra, qirol ordonansi chiqqandan so‘ng faqat ma’lum muddat ichida remonstratsiya qilinishi mumkin edi va ikkinchi marta (qayta) remonstratsiyaga yo‘l qo‘yilmasdi. 1668 yilda qirol Ludovik XIV Parij parlamentiga kelib, uning arxividan Fronda davridagi, ya’ni XVII asr o‘rtalarida absolutizmga qarshi chiqishlarga taalluqli barcha protokollarni o‘z qo‘li bilan olib tashlagan. 1673 yilda Ludovik XIV tomonidan shunday qoida o‘rnatildiki, parlament endi qirol hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish huquqiga ega emas, remonstratsiya esa faqat alohida bayon qilinishi mumkin edi. Bu amalda parlamentni muhim imtiyozlaridan - qirol qonunlariga protest keltirish va ularni rad etish huquqlaridan mahrum qildi.

Qirol hokimiyati va uning muayyan vakolatlari xarakteri haqidagi umumiy tasavvurlar ham o‘zgardi. General shtatlarning taklifi bo‘yicha fransuz monarxiyasi ilohiy deb e’lon qilinib, qirol hokimiyatiga esa muqaddas deb qaraladigan bo‘ldi. Qirolning yangi: "qirol xudoning sahovati" degan rasmiy unvoni joriy etildi. Qirol hokimiyatining suvereniteti va cheklanmaganligi haqidagi tasavvurlar batamom o‘rnatildi. XVII asrning ikkinchi yarmida Fransiyada cheklanmagan yoki absolut monarxiya uzil-kesil qaror topgan, mamlakatni boshqarish ishi butunlay va to‘liq qirol qo‘liga o‘tgan. Ayniqsa, Ludovik XIV qirollik qilgan (1643-1715) yillar absolut monarxiyaning eng kuchaygan davri bo‘ldi. Bu holat Ludovik XIV ning: "Davlat mening o‘zim" degan so‘zlari bilan ham tasdiqlanadi.

Absolutizm ilohiy huquqqa tayanadi degan qarashlar qirolning shaxsiy hokimiyatchilikka va despotizmga asoslanadi degani emas edi. Qirolning imtiyozlari qonuniy tartib doirasidan chetga chiqmasligi lozim edi va "qirol Davlat uchun xizmat qiladi" deb hisoblanardi.

Umuman fransuz absolutizmi qirol va davlatning chambarchas aloqada ekanligi, birining ikkinchisini o‘ziga olishi konsepsiyasiga asoslanadi. Qirolning o‘zi, uning mol-mulki, oilasi fransuz davlati va millatiga tegishlidir, deb hisoblanardi. Yuridik jihatdan qirol har qanday hokimiyatning manbai deb tan olinadi. Uning hokimiyati hech qanday nazorat qilinmas edi. Bu, jumladan, qirolning qonun chiqarish sohasida to‘la erkinligining mustahkamlanishiga olib keldi. Absolutizm davrida qonun chiqarish hokimiyati faqat tanho qirolga tegishli bo‘lib, "bitta qirol, bitta qonun" degan tamoyil rasmiylashtirildi. Qirol har qanday davlat yoki cherkovga oid man-

sabdor shaxslarni tayinlash huquqiga ega edi. Qirol davlat boshqaruvining barcha masalalari bo‘yicha oxirgi, eng so‘nggi instansiya edi. Qirol eng muhim tashqi siyosiy masalalarni hal qilgan, davlatning iqtisodiy siyosatini belgilagan, soliqlar o‘rnatgan, davlat mablag‘larini oliy taqsimlovchi sifatida maydonga chiqqan. Uning nomidan sud hokimiyati amalga oshirilardi.

Markaziy boshqaruv apparatining

Absolutizm davrida markaziy davlat organlari o‘sgan va murakkablashgan. Biroq boshqaruvning feodal usullarining o‘zi ham barqaror va aniq davlat ma’muriyatini tashkil etishga to‘sqinlik qilgan. Qirol hokimiyati tez-tez o‘z xohishicha yangi davlat organlari tuzib turgan, lekin ular keyin uni qanoatlantirmasdan qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan.

XVI asrda **davlat kotiblari** degan mansabdor shaxslar paydo bo‘ladi. Ulardan biri, ayniqsa, qirol yosh, voyaga yetmagan hollarda amalda birinchi ministr funksiyalarini bajarardi. Bu mansab rasman bo‘lmagan, lekin, masalan, Rishele bir shaxsda 32 ta davlat lavozimi va unvonlarini birlashtirib turgan. Biroq Genrix IV, Ludovik XIV, shuningdek, Ludovik XV davrida (1743 yildan keyin) qirol davlat boshqaruviga rahbarlikni o‘zi amalga oshirgan, atrofidagi unga katta siyosiy ta’sir o‘tkazgan shaxslarni olib tashlagan.

Eski davlat mansablari (masalan, 1627 yilda konnetabl mansabi) tugatilgan yoki har qanday ahamiyatini yo‘qotgan va oddiy serdaromad yengil ishlarga aylantirilgan. Faqat **kansler** o‘zining ilgarigi qudratini saqlab qolgan va davlat boshqaruvida qiroldan keyingi ikkinchi shaxs bo‘lib olgan edi.

Davlatda ixtisoslashgan markaziy ma’muriyatga ehtiyojning o‘sishi natijasida XIV asrning oxirida **davlat kotiblarining** roli oshiriladi. Ularga boshqaruvning alohida sohalari (tashqi ishlar, harbiy ishlar, dengiz ishlari va mustamlakalar, ichki ishlar) topshiriladi. Davlat kotiblari dastlab (ayniqsa Rishele davrida) sof yordamchilar rolini o‘ynagan bo‘lsa, Ludovik XIV davrida qirol shaxsiga yaqinlashib, uning shaxsiy chinovniklari rolini bajargan.

Davlat sekretarlari funksiyalari doirasining kengayishi markaziy apparatning tezda o‘sishiga, uning byurokratlashuviga olib keladi. XVIII asrda davlat sekretarlarining o‘rinbosarlari lavozimi joriy etilib, ularning huzurida katta byuro tashkil qilinadi va u o‘z navbatida seksiyalarga bo‘linadi. Bunda chinovniklar qat’iy ixtisoslashtirilgan va ierarxiyaga (bosqichma-bosqich bo‘ysunish tizimiga) asoslangan edi.

Markaziy boshqaruvida dastlab **moliya superintendanti** (Ludovik XIV davrida u moliya ishlari bo‘yicha Kengash bilan almashtirilgan), so‘ngra **Bosh moliya nazoratchisi** katta rol o‘ynaydi. Bu mansab Kolberdan (1665 yildan) boshlab juda katta ahamiyat kasb etadi. U faqat davlat budjetini tuzish va Fransiyaning butun iqtisodiy siyosatiga rahbarlik qilish bilan shug‘ullanmay, amalda ma’muriyat faoliyatini nazorat ham qilgan, qirollik qonunlarini tuzish sohasidagi ishlarni ham tashkil etgan edi. Vaqt o‘tishi bilan bosh moliya nazoratchisining huzurida 29 ta turli-tuman xizmatlar va ko‘p sonli byurolardan iborat katta apparat paydo bo‘ladi.

Qirol huzuridagi maslahatchilik funksiyalarini bajaruvchi qirollik kengashlari tizimi ham bir necha marta isloh qilingan. Ludovik XIV 1661 yilda **Katta kengash** tuzadi. Unga gersoglar va Fransiyaning boshqa perlari, ministrlar, davlat kotiblari, kansler, shuningdek, maxsus tayinlangan davlat maslahatchilari (bular asosan mantiya dvoryanlardan tayinlangan) kiritiladi. Katta kengashga qirolning o‘zi, u yo‘qligida kansler raislik qilardi. Mazkur kengash eng muhim davlat masalalari (cherkov bilan munosabat va hokazolar)ni ko‘rib chiqar, qonun loyihalarini muhokama qilar, ba’zi hollarda ma’muriy hujjatlar qabul qilar va eng muhim sud ishlarini hal etardi. Tashqi siyosat masalalarini muhokama qilish uchun o‘z tarkibi bo‘yicha ancha tor doiradagi kishilardan iborat **Yuqori kengash ha**m chaqirilardi. Unga odatda tashqi ishlar va harbiy ishlar bo‘yicha davlat kotiblari, bir qancha davlat maslahatchilari taklif etilardi. **Depesh kengashi** ichki boshqaruv masalalarini muhokamadan o‘tkazib, ma’muriyat faoliyatiga taalluqli qarorlar qabul qilardi. **Moliya masalalari bo‘yicha kengash** davlatning moliya siyosatini ishlab chiqib, davlat xazinasiga kelib tushadigan yangi mablag‘larni izlardi.

Mahalliy boshqaruv

Joylardagi boshqaruv o‘ta murakkabligi va chalkashligi bilan ajralib turardi. Ba’zi mansablar (masalan, balya) bu davrda saqlanib qolgan, lekin ularning roli tobora pasaygan. Joylarda juda ko‘p sonli ixtisoslashgan xizmatlar: sud boshqarmasi, moliya boshqarmasi, yo‘llarni nazorat qiluvchi boshqarma va hokazolar paydo bo‘ladi. Bu xizmatlarning hududiy chegaralari va funksiyalari aniq o‘rnatilmagan edi. Bu juda ko‘p shikoyatlarni va nizolarni keltirib chiqarardi. Mahalliy ma’muriyatning xususiyatlari ko‘pincha qirollikning ba’zi qismlarida eski feodal qurilmalar (sobiq senoriylarning chegaralari)ning, cherkov yer egaligining saqlanib qolganligidan kelib chiqqan. Shu sababli qirol hokimiyati tomonidan o‘tkazilgan markazlashtirish siyosati Fransiyaning butun hududiga teng darajada tegmadi.

XVI asrning boshida markazning siyosatini joylarda o‘tkazadigan organ sifatida gubernatorlar mavjud edi. Ular qirol tomonidan tayinlangan va almashtirilgan, lekin vaqti-vaqti bilan bu mansab taniqli dvoryanlarning oilalari qo‘liga o‘tib turgan. XVI asrning oxiriga kelib gubernatorlar qator hollarda markaziy boshqaruvdan mustaqil bo‘lib olgan. Bu, albatta, qirol siyosatining umumiy yo‘nalishiga zid edi. Shuning uchun qirol asta-sekin gubernatorlarning vakolatlarini sof harbiy boshqaruv sohasigagina tegishli qilib qo‘ygan.

Bu davrda fransuz qirollari joylarda o‘z mavqelarini mustahkamlash uchun 1535 yildan provinsiyalarga turli vaqtinchalik topshiriqlar bilan **komissarlar** jo‘natib turganlar. Biroq ular tez orada sudni, shahar ma’muriyatini, moliyani tekshirib turadigan doimiy mansabdor shaxs bo‘lib qolganlar. XVI asrning ikkinchi yarimida ularga **intendantlik** unvoni berilgan. Ular endilikda faqat nazoratchilar sifatida emas, balki haqiqiy ma'murlar sifatida harakat qila boshlaganlar. Ularning hokimiyati avtoritar tusga kirdi. 1614 yilgi General shtatlar, so‘ngra esa notabllarning majlisi intendantlarning xatti-harakatlariga norozilik bildirganlar. XVII asrning birinchi yarmida intendantlarning vakolatlari biroz cheklandi, Fronda davrida esa bu mansab umuman tugatiladi. 1653 yilda intendantlar tizimi yana tiklanib, ular maxsus moliyaviy okruglarga tayinlana boshlaydi. Intendantlar markaziy hukumat bilan, avvalo Bosh moliya nazoratchisi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lganlar. Intendantlarning funksiyalari favqulodda keng bo‘lib, moliyaviy faoliyat bilan chegaralanib qolmagan. Ular fabrikalarni, banklarni, yo‘llarni, kemasozlik va boshqalarni nazorat qilishni amalga oshirganlar, sanoat va qishloq xo‘jaligiga taalluqli turli statistik ma’lumotlarni to‘plaganlar. Ularga jamoat tartibini saqlash, qash-shoqlar va daydilarni kuzatib turish, umumiy tartib-qoidalarga, qarashlarga xilof ish, harakatlar, fikrlarga qarshi kurash olib borish majburiyati yuklangan. Intendantlar armiyaga rekrut yig‘imlari, qo‘shinlarning joy-lashtirilishi ustidan, ularning oziq-ovqat bilan ta'minlanishi va boshqalarni kuzatib turganlar. Nihoyat, ular har qanday sud ishlariga aralasha olganlar, qirol nomi bilan tergov olib bora olganlar, balyaj va seneshalliklar sudlarida raislik qila olganlar.

Markazlashtirish shahar boshqaruviga ham tegishli bo‘lgan. Muni-tsipal maslahatchilar (eshvenlar) va merlar saylanmaydigan bo‘ldi, ular-ning o‘rniga odatda ma’lum haq evaziga qirolning ma'murlari tayinlanardi. Qishloqlarda doimiy qirollik ma’muriyati bo‘lmay, eng quyi zvenoda ma’muriy va sud funksiyalari **dehqonlarning jamoalari va jamoa kengashlari** tomonidan amalga oshirilardi. Biroq intendantlarning cheksiz

qudrati tufayli XVII asrning oxiriga kelib qishloqlarning o‘zini o‘zi boshqaruvi tushkunlikka uchraydi.

Davlat moliyasi

Xazinaga kelib tushadigan pul mablag‘larining asosiy manbai soliqlar edi. Soliqlardan talya eng asosiysi hisoblangan. Shuningdek, **kapitatsiya** - jon solig‘i ham katta ahamiyatga ega edi. Bu soliq dastlab Ludovik XIV tomonidan harbiy xarajatlarni qoplash uchun joriy etilgandi. Oliy tabaqalar juda katta daromadga ega bo‘lsalar ham, soliqlardan to‘la ozod etilgandi.

Qirollik xazinasini to‘ldirib turishning muhim manbalaridan biri qo‘shimcha soliqlar edi. Ularning soni doimo oshib borgan. Aholi uchun ayniqsa tuz solig‘i juda og‘ir edi. Xazinaga, shuningdek, savdo poshlinalaridan, qirollik monopoliyalari (pochta, tamaki va boshqalar)dan keladigan daromadlar ham kelib tushardi. Davlatning qarzlar berishi keng tarqalgandi.

Daromadlar o‘sishiga qaramay davlat budjeti juda taqchillikka keltirib qo‘yilgan. Bu doimiy armiyaga va haddan ziyod kengayib borayotgan byurokratik apparatga ketadigan harajat hisobiga yuz bergan. Qirolni va uning oilasini boqish, qirol ovini tashkil etish, dabdabali qabul marosimlari, maskaradlar va boshqa ko‘ngil ochishlar uchun juda katta mablag‘lar sarflanardi.

Sud tizimi

Sud tizimining markazlashuvi kuchayib borishiga qaramay, u arxaik va murakkab bo‘lib qolaverdi. Fransiyaning ba’zi qismlarida to XVIII asrgacha senorlik adliyasi saqlanib qolgan. Qirollik ordonanslari faqat ularni amalga oshirishni tartibga solgan. Ba’zan qirollar senorlarning sud huquqini sotib olardilar. Masalan, 1674 yilda Parijga tutash senorliklardagi sud huquqini sotib olgandilar. Cherkov sudlari mustaqil sud tizimi hisoblangan, lekin ularning yurisdiksiyasi endi asosan cherkovning ichki masalalari bilan cheklangan. Maxsus ixtisoslashgan tribunallar: kommersiya, bank, admirallik va boshqa tribunallar ham mavjud edi.

Qirollik sudlari tizimi juda chalkash bo‘lgan. XVIII asr o‘rtasida prevotliklardagi quyi sudlar tugatiladi. Balyajlardagi sudlar saqlanib qoladi, lekin ularning tarkibi va kompetensiyasi doimo o‘zgarib turardi. Parij parlamenti va boshqa shaharlardagi sud parlamentlari ilgarigidek muhim rol o‘ynardi. Bu vaqtda apelyatsion shikoyatlarning juda oshib ketishi munosabati bilan parlamentlarning ishini yengillashtirish maqsadida 1552 yilda chiqarilgan edikt bilan ancha yirik balyajlarda jinoyat va fuqarolik ishlarini ko‘rish bo‘yicha apelatsion sud tashkil etish nazarda tutilgan edi.

Armiya

Absolutizm davrida muntazam armiyani tashkil etish ishlari nihoyasiga yetadi. Bu o‘sha vaqtda Yevropadagi eng yirik markazlashtirilgan asosdagi armiyalardan biri edi. Bu vaqtda, shuningdek, doimiy qirollik floti ham tuzilgandi.

Ludovik XIV davrida muhim harbiy islohot o‘tkaziladi. Bunga ko‘ra, chet elliklarni armiyaga yollashdan voz kechilgan va mahalliy aholi orasidan ko‘ngillilarni rekrutlikka olishga o‘tilgan, sohilga yaqin provinsiyalardan matroslar olingan edi. Askarlar uchinchi tabaqaning quyi qismidan, "ortiqcha kishilar" dan olingan edi. Askarlik xizmati sharoitlari juda og‘ir edi. Yollovchilar ko‘pincha aldash va ayyorlik yo‘lini tutishardi. Armiyada qamchi (kaltak) intizomi hukm surardi.

Armiyada yuqori qo‘mondonlik lavozimlari qat’iy unvonli zodagonlarning vakillariga berilgan. Zobitlik lavozimlarini egallashda ko‘pincha nasliy va xizmatchi dvoryanlar o‘rtasida keskin qarama-qarshiliklar kelib chiqqan. 1781 yilda nasliy dvoryanlar zobitlik lavozimini egallashga bo‘lgan huquqni o‘zlarida mustahkamlab olishga erishganlar. Zobitlikni ushlab turishning bunday tartibi armiyaning jangovar tayyorgarligiga salbiy ta'sir etgan.

Politsiya

Absolutizm davrida keng tarmoqli politsiya tashkil etildi. Provinsiyalarda, shaharlarda, yirik yo‘llarda va boshqa joylarda politsiya organlari tuzildi. 1667 yilda **politsiya general-leytenanti** lavozimi ta’sis etilib, unga butun qirollik miqyosida tartibni saqlab turish majburiyati yuklandi. Uning ixtiyorida **ixtisoslashgan politsiya bo‘limlari, otliq politsiya gvardiyasi,** dastlabki tergovni olib boradigan **sud politsiyasi** mavjud edi.

Ayniqsa, Parijda politsiyachilik xizmatini mustahkamlashga alohida e’tibor berilgan. Poytaxt kvartallarga bo‘linib, ularning har birida politsiya komissarlari va serjantlari boshchiligidagi maxsus politsiya guruhlari harakat qilardi. Politsiyaning funksiyasiga tartibni saqlash va jinoyatchilarni qidirib topish bilan bir qatorda, axloqni nazorat qilish, jumladan, diniy namoyishlar ustidan kuzatib turish, yarmarkalar, teatrlar, kafe-restoranlar, kabarelar, fohishaxonalar va boshqalarni nazorat qilish kabilar ham kirardi. General-leytenant umumiy politsiya (xavfsizlik politsiyasi) bilan bir qatorda, shuningdek, **siyosiy politsiyaga** ham boshchilik qilardi. Siyosiy politsiya yashirin qidiruvning keng tarmoqli tizimidan iborat edi. Qirolning dushmanlari va katolik cherkov ustidan, erkin fikr bildiruvchi barcha shaxslar ustidan yashirin nazorat o‘rnatilgandi.

5. Fransiyada huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalari

Fransuz huquqi tarixida G‘arbiy Yevropa o‘rta asrlar huquqining tipik belgilari o‘zining ancha to‘liq ifodasini topgandi. O‘rta asrlarning barcha bosqichlarida feodal jamiyatning ajralib qolganligini o‘zida aks ettirgan huquq manbalarining ko‘pligi va partikulyarizmi[17] Fransiyada yagona milliy huquq tizimining tashkil etilishiga to‘sqinlik qilardi. Mamlakatning siyosiy birlashuviga, diniy-ma'naviy umumiylikka va absolutizm o‘rnatilishiga qaramay, fransuz huquqi 1789 yilgi inqilobga qadar ko‘p sonli huquqiy tizimlarning yig‘indisidan iborat edi. Bunday huquqiy tizimlar yo ma’lum doiradagi shaxslarga (ruhoniylar, savdogarlar va boshqalarga), yoki muayyan, uncha katta bo‘lmagan hududlarga tarqatilgan. Volterning zaharxandalik bilan ta’kidlashicha, "pochta otlarini almashtirib, huquqni ham almashtirganlar".

Huquqning muhim manbai **odatlar** hisoblangan. X asrga kelib Fransiyada Sali haqiqati va boshqa varvar qabilalarining odatlari harakat qilmay qo‘ygandi. Ularning o‘rniga feodal tarqoqlik sharoitlarida alohida mintaqalarning, senorlarning va hatto jamoalarning **hududiy huquqiy odatlari (kutyumlar)** keladi. Yirik feodal egaliklar (Normandiya, Anju, Bretan va boshqalar) doirasida ular juda xilma-xilligi bilan ajralib turardi. Ayniqsa shimoliy Fransiyada kutyumlarning ahamiyati katta edi. Shimoliy Fransiyaning "odat huquqi" mamlakati deb atalishi ham bejiz emas edi.

Odatlar og‘zaki shaklda yuzaga keladi. Shu sababli Fransiyaning shimoli "yozilmagan huquq mamlakati" degan nom bilan yuritiladi. Odat huquqi mahalliy yoki mintaqaviy miqyosdagi muayyan hududda avloddan-avlodga o‘tib kelgan odatlarning tan olinishi asosida shakllangandi. Odat huquqining kuchi va nufuzi shu bilan belgilangan ediki, u feodal jamiyat hududiy jamoalarining haqiqiy ehtiyojlarini aks ettirib, qoida bo‘yicha, kelishuv asosida kelib chiqqan va davlat hokimiyatining zo‘ravonligiga butunlay aloqasi bo‘lmagandi. Shuning uchun kutyumlar garchi majburiy kuchga ega bo‘lsa ham, ko‘p hollarda ularga rioya qilish erkin edi.

Odatlarni sudlarda tan olish uchun ular "qadim zamonlardan buyon", ya’ni hech bo‘lmaganda 40 yildan beri ma’lum bo‘lishi zarur edi. XII asrdan boshlab alohida kutyumlar yozila boshlanib, XIII asr o‘rtasiga kelib esa Normandiyada odat huquqining nisbatan to‘la to‘plami – **Normandiyaning katta kutyumi** (1255 yilda) tuzilgan va sud amaliyotida foydalanilgan. Shu vaqtdan boshlab qirollik sudyalari va legistlar tomonidan yozilgan mahalliy odat huquqining qator xususiy yozuvlari paydo bo‘ladi.

[17] **Partukulyarizm –** ayrim o`lkalarning umumdavlat manfaatlari bilan hisoblashmay, ajralib chiqib, mustaqil bo`lishga intilishi.

Shunday ilk yozuvlardan biri Per de Fonten tomonidan yozilgan "Do‘stga maslahat" (1253 yilda) hisoblanadi. Biroq o‘rta asrda Fransiyada mashhur va keng tarqalgan odat huquqi to‘plami - **Bovezi kutyumlari** (1283 yil atrofida yozilgan) bo‘lgandi. Uning muallifi qirollik balyasi Filipp de Bomanuar hisoblanadi. Bovezi kutyumlari garchi, avvalo, Klermont grafligi (Fransiyaning shimoli-g‘arbi) sud okruglaridan birining yozuviga tayangan bo‘lsa ham, Filipp de Bomanuar o‘z asarlarida boshqa sud okruglarining kutyumlariga havola qilib hamda kanonik va rim huquqining qator qoidalarini qo‘shib, odat huquqining ancha keng tafsilini berdi. To‘plam muqaddima va 70 ta bobdan iborat bo‘lib, garchi unda huquqiy material tizimga solinmagan va bir butun, yaxlit tarzda bayon qilinmagan bo‘lsa ham, huquqning turli masalalari (sud va sud jarayonining tashkil etilishi, turli toifadagi shaxslarning huquqiy holati, yer egaliklarining huquqiy rejimi va boshqalar) bo‘yicha katta miqdordagi kutyumlar mujassamlashtirilgan edi. Bovezi kutyumlari huquqiy odatlarni nafaqat mahalliy aholi uchun, balki davlat hokimiyati uchun ham qat’iyligi tamoyilini - "Qirolning o‘zi odatlarga amal qilishi va boshqalarni bu odatlarga rioya etishga majburlashi lozim"ligini mustahkamladi.

Bovezi kutyumlaridan keyin shu kabi boshqa bir qancha to‘plamlar paydo bo‘ladi. Bular: **Tuluza kutyumlari** (1296 yilda), **Bretanining qadimgi kutyumi** (1330 yilda) kabilar edi. Ayniqsa, 1389 yilda tuzilgan **Fransiyaning katta kutyumlar to‘plami** sudlarda juda yuqori nufuzda foydalanilgan. 1454 yilda Karl VII maxsus ordonans chiqarib, barcha balyalarga o‘z balyajlaridagi kutyumlarning yagona to‘plamlarini ishlab chiqish va ularni umumlashtirish uchun Parij parlamentiga jo‘natish haqida buyruq beradi. Bu buyruq asosida XVI asrda 60 ta "katta" kutyumlar to‘plamlari va 200 taga yaqin "kichik" kutyumlar to‘plamlari tuzilgan va tahrir qilingan edi.

Kutyumlar to‘plamlarining tuzilishi odat huquqining xilma-xilligini tugatmay, uni to‘xtatib qo‘yishga yordam berdi. Tahrir qilingan kutyumlar qonun ega bo‘lgan bir qator sifatlarni: qat’iylik, barqarorlik, o‘zgarmaslik, doimiylik kabilarni o‘z ichiga olardi. Biroq, garchi, ularni tahrir qilish qirol hokimiyati buyrug‘i bilan amalga oshirilganligi ularning davlat tomonidan sanksiyalanishini anglatsa ham, ularga qonun sifatida qaralmagan.

Qayta ishlangan ko‘rinishdagi kutyumlar qiroat bilan bayon etishda ham ancha qulay edi. Shuning uchun XVII-XVIII asrlarda kutyumlarni va alohida huquqiy institutlar bo‘yicha sud qarorlarini bir xillashtirishga va shu tariqa yagona umumfransuz huquqi tashkil etish g‘oyasini asoslashga harakat qiluvchi qator yirik asarlar paydo bo‘ladi. Bularga Lvuazelning,

Domning, Potening asarlarini misol tariqasida koʻrsatish mumkin. Fransiyaning janubida rim huquqi asta-sekin huquqning eng muhim manbai boʻlib qolgan. Galliyaga rim huquqining ta'siri Yuliy Sezarning bosqinchilik yurishlari vaqtidayoq kelib chiqqan edi. U oʻz mavqeini asrlar davomida saqlab qolgan, biroq asta-sekin oʻziga xos **gallo-rim huquqiga** aylangan edi. Gallo-rim huquqi Yustinianning Vizantiya kodifikatsiyasiga emas, Feodosiya qonunchiligining soddalashtirilgan naqllari (rivoyatlari) ga va vestgot qiroli Allarik tomonidan tuzilgan rim huquqining varvarlashgan toʻplamiga tayanadi. Fransuz yuristlari bunda qadimgi matnlardagi soʻz yoki iboralar sharhini, izohini berish metodlaridan foydalanib, rim huquqining ushbu yodgorliklarini sharhlagan va oʻz faoliyatlarini glossatorlarning mashhur italyan maktabini tashkil etishgacha kengaytirib yuborgan edilar. Biroq rim huquqining Fransiyada haqiqiy qayta tiklanishi XIII asrdan mamlakatning janubida boshlangandi. Bu, avvalo, Yustinianning rim huquqi uchun yoʻl ochuvchi glossatorlar[18] maktabining faol faoliyati bilan bogʻliq edi. Bu maktabning taniqli vakillaridan biri - Platsetin XIII asr boshida Montpele universitetida Rim huquqini (hammadan avval Yustinian Digestalarini) oʻqitishni tashkil qilgan. Soʻngra Fransiyaning boshqa universitetlarida ham yuridik fakultetlar ochila boshlangan.

Fransuz professor-glossatorlari tomonidan foydalanilgan metod xuddi shu maktabning italiyalik asoschilari tomonidan qoʻllanilgan metodning oʻzi edi. Fransuz professor-glossatorlari Yustinian Digestalarini sharhlab, ularning matniga sharh va tushuntirish (glossa) lar kiritishgan. Bular ham oʻz navbatida oʻrganilib, umumlashtirilgan va sharhlangan. Shu tariqa vujudga kelgan va glossatorlar tomonidan tushuntirilgan rim huquqi Fransiyaga "olimlar huquqi" sifatida kiritilgan, u qirollik sudlari amaliyotidan uzoqda boʻlib qolgan.

Fransiyada qirol hokimiyatining rim huquqiga munosabati "ikki yuzlama" xarakterga ega edi. Bir tomondan, qirollar oʻz hokimiyatini mustahkamlash uchun rim ommaviy huquqining koʻpgina formulalariga[19] havola etib, legistlardan davlat apparatida foydalanishgan. Biroq, boshqa tomondan, rim huquqining qonunlashtirilishini rim-german imperatorlarining oliyligini tan olish deb tushunish mumkin edi. Shuning uchun qirol Filipp Avgust, hatto Parij universitetida rim huquqini (garchi u qirollik domenlarining boshqa universitetlarida oʻrganilishida davom etgan boʻlsa

[18] **Glossatorlar -** qadimgi matnlardagi so`z yoki iboralar izohini, sharhini ishlab chiquvchilar.
[19] **Formula** – lotincha so`zdan olingan bo`lib, biror fikr yoki qoidaning qisqa va aniq ta'rifi, ifodasi

ham) o‘qitishni taqiqlagan. Parij universitetida rim huquqini o‘qitishga rasman 1679 yilda qirol Ludovik XIV davrida ruxsat berilgan edi.

Fransuz qirollari rim huquqining aqidaparastlik ahamiyatini tan olib, uni amaliyotda qo‘llashni cheklagan edilar. Ludovik Muqaddas (XIII asr-da) uni fransuz qirolligida majburiy emas deb qaror chiqaradi. Filipp Jasur odat huquqi mamlakatida amaliyotdagi yuristlar tomonidan rim huquqidan foydalanishni taqiqlaydi. Janubda esa rim huquqi qirol hokimiyati tomoni-dan (Filipp Chiroyli davrida 1312 yildan boshlab) "yozilgan odatlarning" o‘ziga xos turi sifatida tan olingan. Shundan Fransiyaning janubi dastlab odat huquqi mamlakati hisoblanib, faqat XIV asrdan boshlab uni "yozma huquq mamlakati" deb atash mustahkamlanadi. Shunday bo‘lsa ham Fran-siyaning bu ikki hududiy huquqiy massivlari o‘rtasidagi chegara chiziqlari hech qachon mutlaq aniq va shartsiz bo‘lmagan.

Janubda asta-sekin mahalliy huquqiy odatlar tushkunlikka uchrab, rim huquqi umumiy huquq sifatida tan olinadi va sud amaliyotiga kirib keladi. XIV-XV asrlarda bu jarayon yozilmagan huquq mamlakatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Garchand bu yerda rim huquqi faqat yozma idrok va huquqning qo‘shimcha manbai sifatida ko‘rilgan bo‘lsa ham, kutyumlarga ularni tahrir qilish va yozish davomida muhim ta’sir o‘tkazgan. Bunga parlamentning faoliyati ko‘maklashgan. Parlamentlarda bu vaqtda post-glossatorlar (bartolistlar) katta nufuzdan foydalanganlar. Sxolastika[20] usu-lidan foydalanishda va rim huquqining umumiy tamoyillarini shakllanti-rishda taniqli italyan postglossatori Bartolning izdoshlari Orlean universi-tetining professorlari de Revini va de Belparsh alohida rol o‘ynaganlar. Fransuz bartolistlari rim huquqini o‘rta asr jamiyati sharoitlariga, ya’ni sud amaliyoti (tajribasi) ehtiyojlariga moslashtirganlar. Rim huquqi matnlari-dan huquqning umumiy tamoyillarini olib chiqqan bartolistlarning ta’siri keyingi asrlarda ham aks etgan. Masalan, bundan xususan 1748 yilda taniqli yurist Pote tomonidan chiqarilgan Pandektlar ham dalolat beradi.

XVI asrda Fransiyada gumanistlar maktabi deb nom olgan rim hu-quqi maktabi tashkil topadi. Bu maktabning vakillari Uyg‘onish davri g‘o-yalarini aks ettirib postglossatorlarga xos bo‘lgan sxolastika va deduk-siya[21] usullarini rad etganlar. Agar bartolistlar rim huquqini amaliy ehti-yojlar uchun o‘rgangan bo‘lsalar, yurist-gumanistlar esa uni shundayligi-cha, o‘z holicha olib, bunda tarixiylik usulidan foydalangan holda o‘rgana boshlaydilar. Bu usul Fransiyaga dastlab Avinonda, so‘ngra (1529-1550 yillarda) Buje universitetida o‘qituvchilik qilgan italyan professori Alsiat

[20] **Sxolastika –** cherkovning diniy aqidalarini nazariy asoslashga qaratilgan quruq safsatadan iborat o`rta asrlar falsafasi.
[21] **Deduksiya –** umumiy holatdan xususiy xulosalarga kelish, xususiy hulosalar chiqarish.

tomonidan kiritilgan edi. U rim huquqining asl matnini, haqiqiy mohiyatini o‘rnatish va ularning o‘zini vujudga keltirgan tarixiy sharoitga bog‘lash zarur deb hisoblagan. Yurist-gumanistlar Bujeda antik falsafa, tarix nafis san’at bo‘yicha mutaxassislarni jalb qilgan holda ma'naviy markaz tashkil etishgan. Ular Yustinian kodifikatsiyasi, XII jadval qonunlari va boshqa qadimgi rim huquqshunosligini o‘rganishni ancha yuqori ilmiy darajaga qo‘yishgandi. Bu maktabda "romanistlar knyazi" deb tan olingan Jak Kulyatsiy (1522-1590 yillar) ancha mashhur edi. Uning asarlari asosan Yustinian kodifikatsiyasida berilgan rim yuristlari ishlaridan parchalarga sharhlardan iborat bo‘lgan. Jak Kulyatsiy qo‘shimcha va qayta topilgan hujjatlarni (Ulpiandan, Feodosiya kodeksidan va boshqalardan) jalb qilib, aslida bo‘lmagan va noto‘g‘i aytilgan matnlarni yo‘qotgan va haqiqiy rim matnlarini tiklagandi. Bu yo‘nalishda gumanistlar maktabining boshqa taniqli vakili Jak Godefrey katta ishlarni amalga oshirgandi. U tarixiy metoddan foydalanib, interpolyatsiyalarni[22] aniqlab va bekor qilib, imperator Feodosiya kodeksini ilgarigi holatiga keltiradi. Rim huquqini ilmiy o‘rganishga yo‘naltirilgan yurist-gumanistlar sud amaliyotiga ta’sir o‘tkazmaganlar, shuning uchun XVII-XVIII asrlarda yana bartolistlar mavqeiga o‘rin bo‘shatib berishgan. Lekin ularning asarlari inqilobdan keyingi Fransiya qonunchiligida rim huquqi tuzilmalaridan yanada foydalanish uchun negiz bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, o‘rta asrlarda rim huquqi faqat harakatdagi huquqning eng muhim manbai sifatidagina emas, balki shakllanayotgan milliy huquqiy madaniyatning tarkibiy elementi sifatida ham maydonga chiqqandi.

Huquqning muhim manbalari qatoriga mamlakatning butun hududida teng darajada harakatda bo‘lgan **kanonik huquq me’yorlari** ham kirgan. Cherkovning o‘z ichida foydalanishi uchun xususiy yuridik tizimini tashkil etish huquqi Rim imperiyasida va franklar monarxiyasida ham tan olingandi. Ana shu yerdan Fransiyaga kanonik huquq o‘tib kelgan. Kanonik huquq o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga XII-XIII asrlarda chiqqandi. Bu vaqtda cherkov tribunlarining kompetensiyalari kengayib, ular ham diniy, ham dunyoviy aholi ustidan o‘z yurisdiksiyalarini kengaytirganlar. Keyingi asrlarda qirol hokimiyatining o‘z sud vakolatlarini mustahkamlash uchun olib borgan kuchli kurashi davomida Fransiyada kanonik huquqning harakat doirasi qisqara boshlagan. 1539 yilgi qirollik ordonansi cherkov sudlarining kliriklar (butxona xodimlari, ruhoniylar)ga emas, dunyoviy shaxslarga tegishli ishlarni ko‘rishini taqiqlagan. Bu vaqtga kelib qirol qirollikda tanho hokimiyatni amalga oshiradi, degan qoida o‘rnatilgan, shuning

[22] **Interpolyatsiya –** ko`chiruvchi va tarjimon tomonidan kiritilgan, o`zgartirilgan so`z va qo`shimcha.

uchun rim papalarining dekretlari va cherkov yig‘inlarining qarorlari fransuzlar uchun majburiy bo‘lmagan. Absolutizmning tashkil topishi davrida qirolning vakolatlari doirasiga kanonik huquq me’yorlariga majburiylik (qonun) kuchini berish huquqi ham kiritilgan. Oxir oqibatda Fransiyada kanonik huquq harakati asosiga quyidagi tamoyillar qo‘yilgan.

O‘rta asrlarda ishlab chiqilgan va kanonik huquq to‘plamiga kiritilgan eski kanonik huquqqa nisbatan prezumpsiya[23] harakatda bo‘lgan. Bunga ko‘ra, eski kanonik huquq qirol hokimiyati tomonidan e'tirozsiz tan olingan. Faqat Bonifatsiy VIII va Filipp Chiroyli o‘rtasidagi janjal keskinlashgan davrda e’lon qilingan "Oltinchi kitob"ning yuridik kuchi tortishuvli bo‘lib qolgandi.

Cherkov tomonidan qabul qilingan kanonik huquq me’yorlari kanonik qonunlar to‘plamida tasdiqlangandan so‘ng (1582 yilda) endi maxsus qirollik sanksiyasini (roziligini) talab qilgan. Amalda qirol sudlari faqat qirol yorliqlari bilan rasman promulgatsiya[24] qilingan cherkov to‘plamlarining va rim papalarining hujjatlarini e’tiborga ola boshlagan edilar. Bundan tashqari, bunday yorliqlar parlamentlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim edi. Masalan, 1516 yilgi papa bullasi[25] ko‘rinishida e’lon qilingan Boloniya konkordati faqat uning matniga maxsus qirollik yorlig‘i kiritilgandan va Parij parlamentida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng Fransiyada majburiy kuchga ega bo‘lib qolgandi. Ana shunday yuridik tartibot sharofati tufayli ba’zi cherkov qarorlari (masalan, Treten sobori qarorlari) to‘liq hajmda harakatga kiritilmagan. Kanonik huquq me’yorlarini qo‘llashga qirol hokimiyatining aralashuvi shunga olib kelgan ediki, alohida cherkov kanonlari[26] (ayniqsa oila-nikoh munosabatlariga bag‘ishlangan XXIV kanon) ko‘pgina milliy xususiyatlari bilan harakatda bo‘lgandi.

O‘rta asrlarda **shahar huquqi** ham katta ahamiyatga ega edi. Unga o‘ziga xos odat huquqi sifatida qaralgan. Shahar huquqi o‘zining xilmaxilligi bilan ajralib turgan, lekin uning umumiy belgilari ham bo‘lgandi. Shahar huquqining asosiy manbai shahar xartiyalari hisoblangan. Shahar xartiyalari me’yoriy xarakterga ega bo‘lib, shahar aholisining qirol bilan yoki alohida senorlar bilan kelishuvini aks ettirgan. Xartiyalarda va ularga asoslangan shaharlarning ichki reglamentlarida tinchlikni va tartibni saqlash nazarda tutilgan, feodal odat huquqi bilan himoya qilinmagan fuqarolarning muhim huquq va erkinliklari (shaharliklarning yashash va mulk

[23] **Prezumpsiya –** ehtimol tutish, faraz qilish.
[24] **Promulgatsiya -** qonunlar va xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda davlat ichida e'lon qilish.
[25] **Bulla –** o`rta asrlarda Rim papalari tomonidan yuboriladigan noma yoki farmoyish. Ba'zan imperator yorlig`i ham bulla deb ataladi.
[26] **Kanon –** xristianlarda diniy qonun-qoidalar. Kanonik huquq deb ham shunga nisbatan ishlatiladi.

huquqi, turar-joy daxlsizligi va boshqalar) tan olingan, savdo, hunarmandchilik faoliyati tartibga solingan.

Ichki va, ayniqsa, xalqaro savdoning asta-sekin rivojlanishi mahalliy partikulyar[27] xarakterga ega bo‘lgan shahar huquqining aniq kamchiliklarini oshkor etgan. Shuning uchun XII asrdan boshlab savdogarlar o‘rtasidagi munosabatlarda italyan va ispan shaharlari (Piza, Barselona va boshqalar)dan yozib olingan, dengiz va savdo odatlari to‘plamlaridan o‘zlashtirib olingan xalqaro dengiz va savdo huquqi me’yorlaridan foydalanila boshlangan. Vaqt o‘tishi bilan bunday to‘plamlar Fransiyada ham tuzila boshlanadi. Ularning ichida XIII asrda tuzilgan savdo va dengiz odatlari Reestri (ro‘yxati, ro‘yxatlar daftari) ancha mashhur edi. U Oleronda tuzilib, Fransiya va Angliyaning ko‘p port shaharlarida qo‘llanilgan. Qirol hokimiyatining mustahkamlanib borishi bilan boshqa huquq manbalari ichida **qirollarning qonun hujjatlari:** nizomlar, ordonanslar, ediktlar, buyruqlar, deklaratsiyalar va boshqalar juda muhim o‘rin egallagan. Filipp Chiroylidan boshlab (XIII asr oxiri - XIV asr) qirol hujjatlari ko‘proq ordonanslar deb atala boshlandi. XVII asrning ikkinchi yarmigacha qirol qonunchiligi tizimga solinganligi va undagi materialning guruhlashtirilmaganligi bilan ajralib turmadi. Ordonans ko‘pincha bir necha sohani o‘z ichiga olgan. Masalan, 1566 yilgi Mulen ordonansi ipotekalarga[28], sud dalillariga, provinsiyalar gubernatorlarining vakolatlariga taalluqli me’yorlarni o‘z ichiga olgan edi. Qirollik qonunchiligi ko‘pincha deklarativligi (tantanaliligi) bilan ajralib turgan. Bu esa ularni sudlarida qo‘llashda doimo qiyinchiliklarni tug‘dirardi.

XVI asrning o‘rtasiga kelib qirollarning ordonanslari shunchalik ko‘payib ketgan ediki, General shtatlar qiroldan qonunchilikdagi anglashilmovchiliklarni va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida kodifikatsiya qilishni bir necha marta talab qilgan. Shu munosabat bilan taniqli yurist Brisson tomonidan harakatdagi qirollik qonunlaridan tuzilgan keng kompilyatsiya[29] (qurama asar) tayyorlangan. U Genrix III kodeksi nomi bilan ma’lum bo‘lib, 1587 yilda huquqiy asar sifatida e’lon qilingan va sudlarda katta nufuzga ega bo‘lgan. XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda, ayniqsa, qirol Ludovik XIV davrida kodifikatsiya ishlari ancha yuqori darajaga ko‘tariladi. Kolber rahbarligi ostida qonunlarni isloh qilish

[27] **Partikulyarizm –** lotincha particule so`zidan olinib, “bo`lak”, “kichraymoq” degani. O`rta asrlarda bir davlat doirasidagi provinsiyalar, knazliklar va shaharlar huquqiy tizimining zichligi va xilma-xilligiga nisbatan partikulyarizm deyilgan.

[28] **Ipoteka -** qo`zg`almas mulkni garovga olib beriladigan qarz yoki shunday qarz olish uchun garovga qo`yilgan mulk.

[29] **Kompilyatsiya –** o`z fikr-mulohazalari bo`lmay, boshqa asarlardan qurama qilib yozilgan asar. Qonunlarning juz'iy yoki maxsus to`plami.

bo‘yicha maxsus Kengash tuzilgan. Bu vaqtda katta ordonanslar deb ataluvchi ko‘pgina qirollik qonunlari chiqariladi. Ular mazmunan jinoyat huquqi va jarayoni, savdo va dengiz huquqi, vasiyatlar va boshqa huquq sohalarida huquqiy me’yorlarni kodifikatsiya qilgan. Biroq nisbatan uncha katta bo‘lmagan ijtimoiy munosabatlarga daxldor bo‘lgan, asosan ommaviy tartib bilan bog‘liq qirollik qonunlari fransuz huquqini tizimga sola olmas edi.

O‘rta asrlarda fransuz huquqining qo‘shimcha va nisbatan uncha ahamiyatga ega bo‘lmagan manbai sifatida **parlamentlarning,** ayniqsa, **Parij parlamentining sud tajribasi** maydonga chiqadi. Ko‘pgina masalalar, xususan, kutyumlarni qo‘llash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha, alohida ishlar yuzasidan chiqarilgan parlament qarorlari me’yoriy-majburiy kuchga ega edi.

Feodallarning yerga egalik huquqi

Fransiyada huquqning feodal asosi shunda yaqqol ko‘rinadiki, huquq dvoryanlar va ruhoniylarning yerga nisbatan qat’iy imtiyozlarini mustahkamlaydi. XII asrga kelib erkin dehqonlar yer egaligi va boshqa shakllardagi allod egaliklar to‘liq yo‘qolib ketgandi. Feod asosiy va yagona yer mulkchiligi sifatida o‘rnatilgandi.

XIII asrda butun Fransiyada "senorsiz yerlar bo‘lmaydi" degan tamoyil qaror topgan edi. Qirol hokimiyatining kuchayishi bilan legistlar va qirol sudyalari mamlakatdagi butun yerlar qirol nomidan ushlab turiladi degan tamoyildan kelib chiqdilar.

Fransiyada yerga egalik huquqining boshqa sof feodal belgisi uning bo‘linib ketganligida edi. Qoida bo‘yicha, yer bir shaxsning cheklanmagan mulki bo‘lmagan, balki turli darajalarda turuvchi ikki yoki undan ortiq feodallar mulki sifatida maydonga chiqqan.

Mulk huquqining bo‘linib ketganligini ayniqsa glossatorlar yuridik jihatdan asoslab berganlar. Dastlab ular vassallarning yerga egalik huquqini yer uchastkasidan foydalanish va hosil olish huquqi sifatida klassik rim qoidasi (formulasi) (jus utendi ac fruendi) yordamida belgilaganlar. Lekin keyinroq ular rim huquqining klassik tamoyillaridan voz kechib, bir ashyoning o‘ziga bir vaqtda bir necha mulk huquqining mavjudligi haqidagi yangi qoidani tuzadilar. Senorning "to‘g‘ridan-to‘g‘ri mulk huquqi" tan olingan (dominium directum), vassalning esa "foydali mulk huquqi" (dominium utile) tan olingan.

Bu shuni anglatardiki, vassalning dehqonlarni turli yig‘imlar olish yo‘li bilan ekspluatatsiya qilish huquqi mustahkamlanadi. Senor yerning oliy egasi sifatida chiqib, ma’lum ma’muriy-sud huquqlarini va o‘tkazil-

gan yer uchastkasidan foydalanish ustidan nazorat qilish huquqini saqlab qoladi. Senordan yer olgan vassal bu yerni arer vassalga o‘tkazish uchun XII asrgacha senorning roziligi olinishi lozimligi talab qilinar edi. Keyinchalik u mustaqil amalga oshirilishi mumkin bo‘ldi, lekin bunda odat huquqida nazarda tutilgan taqiqlarga rioya etish lozim edi. Qoida bo‘yicha, kutyumlar arer-vassallarga senordan olingan feodning 1/3 qismidan 1/2 qismigacha miqdorini o‘tkazishga ruxsat beradi. Biroq XIII asrdan senorning, so‘ngra esa qirolning roziligisiz cherkovlarning yer egaligini o‘tkazish taqiqlangan, zero, bunda "lenning[30] jonsizlantirilishi" sodir bo‘lgan edi. Shu tariqa mulkning oliy egasi bunday yerlarini yo‘qotib borgan. Cherkov harbiy xizmat o‘tash majburiyatiga ega bo‘lmay, yerni tobora o‘z qo‘lida mustahkamlar edi.

Yer egasining ko‘chmas mulkka oid huquqlari xususiy emas, balki oila-urug‘ huquqi sifatida ko‘rilgan. Shuning uchun urug‘ yerlariga egalik qilish qarindosh-urug‘lar tomonidan nazoratga olinar edi. XIII asrga qadar yer egasining yerni sotishi uchun qarindosh-urug‘larining roziligi talab qilinardi. Keyinchalik bu talab biroz yumshatilgan, lekin qarindoshlar oila mulkini bir yil-u bir kun ichida qayta sotib olish (retrak) huquqini saqlab qolganlar. Agar oila boshlig‘i vafot etsa va uning bolalari bo‘lmasa, oila mulki oilaga qaysi shajara bo‘yicha kelib tushgan bo‘lsa, o‘sha shajaraga qaytarilgan.

Odat huquqi mamlakatida yerga egalik huquqining o‘ziga xos ko‘rinishi (konstruksiyasi) ishlab chiqilgan. Bu yerdagi kutyumlar boshqacha, maxsus egalik huquqi (sezina)ni tan olgan. Sezina - senorga qarashli yerga egalik qilishni bildiradi. Biroq sezina an’anaviy huquq deb tan olinar va mulk sifatida sud orqali muhofaza qilinardi. Amalda sezina feod shaklini olishi va vassalga investitura yo‘li bilan o‘tkazilishi mumkin edi. Yerga egalik qilish huquqi yer uchastkasiga egalik muddatining o‘rnatilishi munosabati bilan turg‘un xarakter kasb etgan. Dastlab odat huquqi buning uchun qisqa muddat (bir yil va bir kun) nazarda tutgan. Keyinchalik esa bu muddat 10 yildan 30 yilgacha uzaytirildi. Feodal yer egaligi huquqining o‘ziga xosligi, shuningdek, dehqonlarning egalik qilish huquqlari bilan chambarchas bog‘liqligi bilan ham xarakterlanadi. Bu huquqlar cheklangan, lekin doimiy edi. Dastavval dehqon o‘z chek yerini senorning roziligisiz begonalashtira olmasdi. Biroq senor ham, hatto, shaxsiy qaram servni o‘zboshimchalik bilan yerdan haydab yubora olmasdi.

XIII asrdan boshlab **senziva** dehqonlarning yerga egalik qilishining asosiy shakli bo‘lib qoladi. Senziva egasi shaxsiy majburiyatlardan ozod

[30] **Len –** o`rta asrlarda feodal tomonidan o`z vassallariga berilgan yer-suv; mulk va undan olinadigan soliq, o`lpon.

etilib, yerni tasarruf etishda katta erkinlik oldi. Biroq dehqonlarning yerga nisbatan huquqi ilgarigidek senorning yer egaligi huquqining hosilasi sifatida ko‘rilardi. Shuning uchun ham dehqon xo‘jaligi turli feodal yig‘imlarni yelkasida og‘ir yuk sifatida ko‘tarib turishga majbur etilgan edi.

O‘z dehqonlaridan kun sayin o‘sib borayotgan rentani olishga intilayotgan senorlar ham, shuningdek, dehqon xo‘jaliklaridan soliqlar undirib turgan qirol hokimiyati ham senzitariylarning egalik huquqlari kengaytirilishidan manfaatdor edilar. Shu sababli dehqon (ayniqsa, mutlaq yakka hokimlik davrida) o‘z senzivasini sotish, hadya qilish, garovga qo‘yish yoki boshqa yo‘l bilan birovga o‘tkazish huquqlarini olgan. Biroq, bunda dehqon yer egasi bilan tegishlicha hisob-kitob qilishi va o‘rnatilgan tsenzni o‘z vaqtida to‘lashi lozim edi. Qirollik yuristlari, xazina manfaatlaridan kelib chiqib, senzivani deyarli to‘liq mulk deb hisoblanishi lozimligi haqidagi tezisni asoslab chiqdilar. Zero, ularning tasdiqlashlaricha, rasman faqat mulkdan qirollik soliqlari - talyalar olinishi mumkin edi. Bunda ular senor mulki bilan senziva o‘rtasidagi farqni, xususan, senorning senz va boshqa yig‘imlar, ya’ni feodal renta olishdan iborat azaliy va abadiy huquqini ta’kidlashni ham unutmadilar. 1789 yilgi inqilobga qadar yerga nisbatan feodal mulkchilik huquqi dehqonlarning jamoa yerlaridan foydalanish huquqlari bilan ham uyg‘unlashib (qo‘shilib) ketgan edi. Chunonchi, chorva boqish, o‘tin tayyorlash uchun jamoa mulki (o‘rmonlar, o‘tloqlar va boshqalar)dan foydalanish, shuningdek, jamoa a’zolarining birovning yer uchastkasidan hosil yig‘ishtirib olingandan so‘ng qolgan boshoq, somon va hokazolarni yig‘ishtirib olish huquqlari nazarda tutilgan.

XVI asrdan boshlab dastlabki kapital jamg‘arish jarayoni jamoa yerlari taqdiriga sezilarli ravishda ta’sir qila boshladi. Fransuz dvoryanlari tovar-pul munosabatlariga muqarrar tarzda tortildilar, lekin Angliyada bo‘lganidek tsenzitariylarni er mulklaridan haydab yubora olmadilar. Shu tufayli fransuz dvoryanlari jamoa yer-mulklarini talon-taroj qilish siyosatini juda faol yuritdilar. Qirol hokimiyati xazina manfaatlaridan kelib chiqib, dastavval jamoa yerlarining egallab olinishiga to‘sqinlik qildi. Biroq Ludovik XIV davrida maxsus farmon chiqarilib, unga ko‘ra, dvoryanlar xazinaga ma’lum miqdorda haq to‘lash sharti bilan dehqonlar jamoasiga qarashli yerlarning uchdan bir qismini olib qo‘yishlari mumkin edi. Haqiqatda esa jamoa yerlarining uchdan ikki qismi, ba’zan undan ham ko‘prog‘i olib qo‘yilardi. Faqat shaharlarda yer mulkchiligi asosan patritsiy-byurgerlarning yuqori qismi qo‘lida to‘planib, rim huquqi ta’sirida o‘z huquqiy rejimi bo‘yicha ba’zi munosabatlarda cheklanmagan xususiy mulkchilikka yaqinlashdi.

Majburiyat huquqi

Feodal xo‘jalikning mahdudlilik xarakteri va mamlakatning hududiy tarqoqligi uzoq vaqtgacha tovar-pul munosabatlarining va demak, shartnoma huquqining rivojiga to‘sqinlik qilardi. Biroq o‘rta asrning so‘nggi bosqichi davrida va kapitalizm vujudga kelishi arafasida ham, garchi shartnoma munosabatlari keng tarqalgan bo‘lishiga qaramay, u o‘zida feodalizm qoldiqlarini saqlab qolgan edi.

Huquqning feodal xarakteri, hatto, oldi-sotdi shartnomasida ham namoyon bo‘lgan. Ilk davrlarda ashyolarni, ayniqsa ko‘chmas mulkni sotish tantanali shaklda amalga oshirilardi. Bu shartnomaning qat’iyligini ta’minlashi lozim edi. XIII asrdan boshlab, ayniqsa Rim huquqi ta’siri endilikda tobora sezilib borayotgan mamlakatning janubida muhim oldi-sotdi bitimlari yozma shaklda tuzila boshlandi, keyinroq esa notariuslar tomonidan tasdiqlanadigan ham bo‘ldi. Bunday bitimlarning matni ko‘pincha yagona shakllardagi ko‘rinishda maydonga chiqqan. Chunonchi, sotuvchi "halol va qora niyatsiz" ekanini, sotilayotgan ashyo unga meros bo‘yicha qolganligini yoxud 30 yillik halol egalik qilish natijasida (yoki egalik qilib turishning boshqacha muddati orqali) o‘tganligini, sotilgan ashyo xaridordan begonashtirilgan bo‘lsa (eviksiya qilinsa - qonunga muvofiq olib qo‘yilsa), javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini va hokazolarni maxsus ko‘rsatib o‘tardi. Dastlab nafaqat sotib olingan ashyoning narxini to‘lash, balki sotilgan ashyoni o‘tkazish ham lozim edi. XIII asrdan esa, savdo munosabatlari rivojlana borgani sari bunday shartnoma tomonlar uni tuzgan paytdan boshlab vujudga kelgan hisoblanardi va hali tayyorlanmagan ashyolar ham shartnoma ob'yekti bo‘lishi mumkin edi.

Odat huquqida yerning oldi-sotdi shartnomasi ayniqsa, batafsil tartibga solingandi. Senor vassal tomonidan sotilayotgan feodni sotib olishda doimo ustuvor huquqqa, shuningdek, sotuvchining qarindoshlari singari sotilgan yerni kutyumlarda belgilangan muddat mobaynida qaytarib sotib olish huquqiga ega edi. Vaqt o‘tishi bilan kelgusidagi oilaviy mojarolarning oldini olish maqsadida notariuslar ko‘chmas mulkni sotish shartnomasini rasmiylashtirishda sotuvchining oila a’zolarining, jumladan, 14 yoshga to‘lgan bolalarning ham ishtirok etishlarini talab qila boshlagan.

Kapitalistik munosabatlarning tug‘ilishi va feodal xo‘jalikning inqirozga yuz tutishi natijasida dvoryanlarning senoriylarini va dehqonlarning yerlarini (senzivalarni) sotish odatiy holga aylangan edi. XVII asrdan e’tiboran burjuaziya, avvalo, shaharlar atrofidagi dvoryanlarning yerlarini bajonidil sotib ola boshlaganlar. Ular bunday yerlarda yangi xo‘jalik metodlarini joriy qilish maqsadini emas, balki dehqonlardan feodal renta

olish imkoniyatiga ega bo‘lishni ko‘zlar edilar. Ko‘pincha oldi-sotdi shartnomasining ob'yekti yerning o‘zi emas, balki aynan yer bilan bog‘liq renta huquqlari bo‘lib qolardi.

X-XI asrlarda hali mulk olish-sotish nisbatan kam uchraydigan hodisa bo‘lib, feodallarning obro‘-e’tiboriga to‘g‘ri kelmaydi deb hisoblangan bir paytda, hadya shartnomasi keng tarqalgan edi. Ko‘pincha bu shartnoma oldi-sotdi bitimini niqoblagan, amalda ikki tomonlama va to‘lovga asoslangan bo‘lib qolgan. Mulkni hadya tariqasida oluvchi hadya qiluvchiga minnatdorlik belgisi sifatida ma’lum mulk (ot, qurol-yarog‘ va boshqalar)ni berish majburiyatini olardi. Hadya shartnomasidan, shuningdek, ko‘pgina kutyumlarda nazarda tutilgan cheklashlarni chetlab o‘tish uchun ham foydalanilgan. O‘z navbatida odat huquqida hadya qiluvchi uchun, jumladan, urug‘ mulkini hadya qilish bilan bog‘liq cheklashlar o‘rnatilgan edi. 1731 yilda hadyalar haqidagi maxsus qirollik ordonansi chiqarilib, unga binoan odat huquqi tartibga solindi va kodifikatsiya qilindi. Bunga ko‘ra, agar nikoh shartnomasi bilan maxsus ko‘rsatilmagan bo‘lsa, biror kishining o‘limidan keyingi hadyalar (niqoblangan vasiyat) taqiqlandi.

Mutlaq yakka hokimlik davrida Fransiyada yerlarni ijaraga berish (arenda) shartnomasi keng tarqalgan. Bunday shartnoma qishloqqa kapitalistik munosabatlarning kirib kelishiga ko‘maklashdi. XVI-XVIII asrlarda ko‘p dvoryanlar o‘z xo‘jaliklarini tashlab qo‘yganlar, haydaladigan yerlaridan voz kechganlar, ularni qismlarga bo‘lib, ma’lum to‘lov yoki hosilning bir qismi evaziga ijara tariqasida taqsimlaganlar. Bunday shartnomalar dastlab bir yilga tuzilgan, biroq asta-sekin ularning amal qilish muddati bir, ikki, uch va hokazo yillarga uzaytirib borilgan va, hatto, ba’zan ijarachining butun hayoti davomida kuchini saqlab qolgan. Dehqonlarni bunday shaklda ekspluatatsiya qilish dvoryanlarga katta foyda keltirgan. Chunki ijara to‘lovining miqdori (senzdan farqli o‘laroq) odatlar bilan belgilanmagan va vaqti-vaqti bilan oshib borishi mumkin edi. Bundan tashqari, ijaraga berilgan yerlar, senziva yerlardan farq qilib, shartnoma muddati tugagandan so‘ng senorning ixtiyoriga qaytarilardi. Inqilob arafasidagi davrda burjuaziya dvoryanlarning yerlarini sotib olib, tez-tez qisqa muddatli (5-10 yilga) ijaraga berib turdi. Ijara munosabatlari borgan sari mulkning keng doirasini qamrab ola boshlagan. Ko‘pincha boyigan dehqonlar va burjuaziya senorlardan yerlarni bir yilga ma’lum to‘lovlar evaziga yoki bir necha yilga banalitetlar huquqi bilan yoki feodal rentaning boshqa turlari bilan ijaraga olardilar.

Ishlab chiqarish va savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi

O‘rta asrlarda Fransiya huquqida qarz shartnomasi muhim o‘rinni egallagan. XII-XIII

asrlardagi bir qator qarz hujjatlarida qarz shart-nomasining rimcha formulasi (mituum) dan foydalanilgan, lekin u keng tarqalmagan edi. Kanonik huquq qarz uchun foyizlar olishni taqiqlardi. Biroq Fransiyada bu vaqtda eng yirik qarz beruvchi cherkov bo‘lganligi sababli, uning o‘zi bunday taqiqni chetlab o‘tish yo‘lini topgan. Ba’zi hollarda qarzdor kreditorga oldindan ma’lum summani (qarzga olgan summasining 25 foizigacha) to‘lar va bu foiz hisoblanmasdi. Boshqa hollarda qarzdor o‘z zimmasiga kreditorga daromadning ma’lum qismi ko‘rinishida belgilanadigan renta to‘lash majburiyatini olardi. Vaqt o‘tishi bilan qarz shartnomasida yerlarni garovga qo‘yish tez-tez qo‘llanila boshlanadi. Bunga ko‘ra, qarzdor yer uchastkasini garovga qo‘yar, bunday yer uchastkasidan olingan daromad kreditorga kelib tushar va bu esa qarzni to‘lashda hech qanday hisobga olinmas edi.

XIV-XV asrlardan boshlab Fransiyada endi shahar a'yonlari, sudxo‘rlar qarz beruvchilar sifatida chiqa boshladilar. Ular garovga qo‘yilgan yer yoki renta olish huquqi evaziga yirik feodallarga va hatto qirolning o‘ziga ham pul qarz berar edilar. Absolutizm davrida sudxo‘rlik operatsiyalari shunchalik keng tarqaldiki, natijada bu dvoryanlarning umumiy noroziligiga sabab bo‘ldi. XVIII asrda maxsus qirollik ordonansi bilan garovga qo‘yilgan yerning kreditorga o‘tishiga olib keladigan mulkning garovga qo‘yilishi taqiqlandi. Biroq, hali XII asrdan buyon, ayniqsa cherkovning sudxo‘rlik operatsiyalarida, qarz shartnomasi bo‘yicha kafolat uchun ipoteka (ko‘chmas mulkni garovga olib beriladigan qarz)dan foydalanib kelinardi. Bunda garovga qo‘yilgan yer qarzdorning o‘zida qolardi, lekin u o‘rnatilgan rentani to‘lab turishi lozim edi.

Savdo va sudxo‘rlik kapitalining rivojlanishi, bank opertsiyalarining o‘sishi savdogarlar, bankirlar, dallol va boshqalarning faoliyatini maxsus tartibga solishni talab qilgan. Xalqaro savdo amaliyotini hisobga olgan holda, 1673 yilda savdo haqidagi qirollik ordonansi chiqarilgan va u mazkur hujjatning muallifi nomi bilan Savari kodeksi deb ataldi. 1681 yilda esa dengiz savdosi haqida ordonans chiqariladi. Bu hujjatlarda savdogarlarning huquqiy holati va savdo shirkatlari tashkil etish tartibi belgilangan, shuningdek, xalqaro va dengiz savdosi amaliyotida ishlab chiqilgan maxsus institutlarga oid me’yorlar, jumladan, veksel, bankrotlik, straxovanie va boshqalar belgilangan. Shu tariqa Fransiyada mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy me’yorlar (fuqarolik huquqi) bilan bir qatorda savdo huquqining alohida me’yorlari vujudga kela boshlaydi va oqibatda bu mamlakatda xususiy huquqning dualizmiga olib keladi.

O‘rta asrlarda Fransiya huquqining feodal xarakteri, shuningdek, savdo va ishlab chiqarish faoliyatining har tomonlama siqib, cheklab qo‘yilishida ham namoyon bo‘ldi. Bu qirol xartiyalari va shahar huquqi me’yorlarida shahar hayotining tabaqaviy korporativ tuzilishining mustahkamlanishi bilan tarixan bog‘liq edi. Hunarmandchilik sexlari va savdogarlar gildiyalari uchun imtiyozlar nazarda tutuvchi o‘rta asrlar huquqi xususiy tadbirkorlik yo‘liga o‘tib bo‘lmas to‘siqlar qo‘yib, shartnoma munosabatlaridagi erkinlikni cheklab qo‘yardi. Fransiyadagi huquqiy tartibotlar sexlar va savdogarlarning savdo faoliyatigagina emas, balki ishlab chiqarishning ichki tizimi va uning texnologiyasiga ham taalluqli bo‘ldi. Bu xom ashyo turlari va uni qayta ishlash usullarini, ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot turlari va tayyor mahsulotlar sifati va hokazolarning batafsil belgilanishida o‘z ifodasini topdi.

Dastlabki vaqtlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, ayniqsa feodal o‘zboshimchaliklar sharoitida, ishlab chiqarish va savdo faoliyati uchun aniq huquqiy chegaralarning o‘rnatilishi ularning tartibga solinishiga va hatto himoya qilinishiga ko‘maklashdi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan ishlab chiqarish va savdo monopoliyasining chakana tartibi ancha ilg‘or kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi yo‘liga to‘siq bo‘la boshladi. Aynan shu sababli XVI asrdan boshlab Fransiyada ayrim sexlarga qirol qonun hujjatlari bilan ba’zi qo‘shimcha imtiyozlar berilishiga qaramay, sex tizimi o‘z o‘rnini monofaktura ishlab chiqarishiga bo‘shatib, tanazzulga yuz tutadi.

Fransiyada monofakturalarning tez o‘sishiga absolutizm davrida o‘tkazilgan va davlatning xo‘jalik hayotga faol aralashuvini nazarda tutgan merkantilizm va proteksionizm siyosati yordam berdi. Proteksionizm siyosati ayniqsa XVII asrning ikkinchi yarmida J.Kolber davrida keng qo‘llanildi. Davlat daromadlarini oshirishga urinib, Kolber chetdan keladigan mahsulotlarning mamlakatga kiritilishini chekladi, xom ashyoning chetga chiqarilishini taqiqladi, tayyor mahsulotlarning chetga chiqarilishini esa rag‘batlantirdi va bu bilan Fransiyada xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun ancha qulay shart-sharoitlar yaratdi. Kolber manufaktura tashkilotchilariga monopol imkoniyatlar o‘rnatuvchi qirollikning imtiyozli patentlarini berdi, ularga davlat subsidiyasi (yordamga beriladigan pul, mablag‘-lar)ni taqdim qildi. Tashkil etilgan qirollik monofakturalari (inqilob arafasida ular 514 ta bo‘lgan) ko‘pincha zarar keltiradigan bo‘lib chiqdi. Biroq, ular Fransiyada kapitalistik sanoatning vujudga kelishiga ko‘maklashdi.

Xalqaro savdo bilan shug‘ullanuvchi ba’zi savdo kompaniyalari (Ost-Indiya, Vest-Indiya, Levantiya va boshqalar) ham davlat kapitali

ishtirokida tashkil etilib, ular xazinaga foydadan hissa ajratib turgan. Bu davrda hukumat davlat zayomlari tizimidan ham foydalandi va vaqti-vaqti bilan foizli davlat obligatsiyalarini chiqarib turadi. Bunday qimmatli qog‘ozlarni oluvchilar hammadan avval sudxo‘r burjuaziya bo‘ldi. U qiroldan qarz olib, o‘zi uchun muhim imtiyozlarni qo‘lga kiritgan edi.

Savdo va sanoatning sof feodal usullar bilan tartibga solinishi absolutizmning soliq siyosatida, jumladan, qo‘shimcha soliqlarning, masalan, tuz, vino sotish uchun soliqlarning ancha oshirilganligida ham o‘z ifodasini topdi. Soliq zulmi dehqon xo‘jaliklarining yelkasidagi og‘ir yuk edi. U Fransiyada savdo-sanoat kapitalini shakllantirish uchun va ayni vaqtda burjuaziyaning sudxo‘r va savdogar doiralari faoliyati uchun to‘sqinlik qilmoqda edi. Sudxo‘r va bankirlardan iborat ijarachilarning maxsus kompaniyasi Qirol xazinasiga katta miqdorda pul o‘tkazib, ma’-lum hududda davlat soliqlarini olish huquqini qo‘lga kiritardilar. Bu kompaniyalar o‘zlarining xususiy soliq yig‘uvchilariga ega edilar. Ular davlatning majburlov apparatidan foydalanib, aholidan o‘rnatilgan miqdor-dan ortiqcha yig‘imlar (garchand bu amalda rasman g‘ayriqonuniy hisob-lansa ham) olar edilar. Otkup[31] tizimi dehqonlarni xonavayron qilgan, o‘sib kelayotgan burjuaziya uchun esa og‘ir yuk bo‘lgan. Qirol hokimiyati alohida janjalli holatlarda haddan oshgan otkupchiklar ("zuluklar") ustidan sud jarayonlari o‘tkazdi, vaqti-vaqti bilan (XVI asrning oxiri - XVII asr-ning boshlarida) otkup tajribasini qo‘llamay qo‘ydi. Biroq, umuman otkup tizimi 1789 yilgi inqilobga qadar gullab-yashnadi.

Fransiyada ishlab chiqarish va savdoning davlat tomonidan tartibga solinishi oxir-oqibatda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ochiq-dan-ochiq to‘sqinlik qila boshlaydi, jamiyatdagi sinfiy ziddiyatlarni kes-kinlashtiradi va nihoyat, burjua inqilobini yaqinlashtirgan omillardan biri bo‘lib qoladi.

Oila va meros huquqi

Fransiyada nikoh va oila munosabatlari aso-san kanonik (diniy) huquq bilan tartibga solinardi. XVI-XVII asrlarda qirol hokimiyati nikoh-oila munosabatlariga davlat ta’sirini kuchaytirish maqsadida bir qator farmon-lar (ordonanslar) chiqarib, nikoh tuzishga oid cherkov me’yorlaridan che-kindi. Nikoh, garchand, ilgarigidek cherkov daftarlarida qayd etilsa ham, endi faqat diniy marosim emas, balki fuqarolik holati dalolatnomasi sifatida ham ko‘rila boshlandi. Nikoh tuzishda ota-onaning roziligi talab qilinmaydigan eski diniy qoida qayta ko‘rib chiqildi. Endilikda ota-ona xohish-irodasini buzgan farzandlar meros huquqidan mahrum etilishi

[31] Aholidan biror turdagi yig`im yoki soliq undirish huquqini hukumatdan sotib olish va sotib olingan shunday huquq.

mumkin edi. Bundan tashqari, XVII asrda ota-onalar ularning roziligisiz nikoh tuzgan **kyure** (katolik ruhoniysi) harakati ustidan Parij parlamentiga shikoyat bilan murojaat qilish huquqini oldilar. Bunday holda kanonik huquq bo‘yicha nikohni buzish mumkin bo‘lmaganligi sababli, parlament uni noqonuniy tuzilgan deb e’lon qilishi mumkin edi, xolos. (Zero, parlament nikohni haqiqiy emas deb topa olmasdi). Natijada nikoh yuridik oqibatlar chiqarmagan.

Er-xotinning shaxsiy munosabatlari (erning hukmronligi, xotinning unga so‘zsiz itoat etishi, birgalikda yashash va hokazolar) ham kanonik huquq bilan belgilangan edi. Biroq oilada bolalarning ahvoli va er-xotinning mulkiy munosabatlari mamlakatning shimoliy va janubiy qismlarida turlicha bo‘lgan.

Odat huquqi mamlakatida ota-ona hokimiyati o‘ziga xos homiylik sifatida ko‘rilgan va bu asosan bolalarning voyaga yetguniga qadar saqlanib qolgan. Bu yerda, shuningdek, er-xotin mulkining umumiyligi va uning er tomonidan boshqarilishi tartibi uzoq vaqtgacha harakatda bo‘lgan. Janubda rim huquqi ta’siri ostida bolalar ustidan kuchli ota hokimiyati o‘rnatilgan, lekin er va xotin mulkining alohidaliligi tartibi mavjud edi. O‘rta asrlarning so‘nggi davrida rim huquqi ta’sirida xotinning mulk huquqi sub'yekti sifatidagi huquqlari qisqargan. Janubda xotinning er roziligisiz tuzgan barcha bitimlari ahamiyatsiz deb tan olingan. Shimolda esa, aksincha, mulkning umumiyligi rejimi majburiy bo‘lmay qoldi va er-xotinga mulkiy munosabatlarni o‘zaro kelishuv asosida hal etishda katta erkinlik berilgan.

Bu vaqtga kelib, Fransiyaning hamma joyida ota-onalarning (avvalo otaning) farzandlar ustidan hokimiyati kuchaydi. Farzandlar rim huquqida o‘rnatilganidek, ota-onalar roziligisiz yuridik xatti-harakatlarni amalga oshira olmasdilar. Ota qirol ma’muriyatiga bo‘ysunmaydigan bolalarni turmada saqlashni so‘rab murojaat qilish huquqini qo‘lga kiritgan.

O‘rta asrlarda Fransiya meros huquqida ayniqsa, mayorat instituti, ya’ni o‘lgan kishining yer mulki meros bo‘yicha katta o‘g‘ilga o‘tkazilishi tartibi xarakterli edi. Bunday tartib feodal senoriylarning, shuningdek, dehqon xo‘jaliklarining bo‘linib ketishidan saqlar edi. Merosxo‘rga o‘zining voyaga yetmagan ukalariga yordam berish, opa-singillarini erga berish majburiyati yuklangan. Fransiyaning janubida rim huquqi ta’sirida vasiyatlar keng tarqalgan edi. Bundan ayniqsa ruhoniylar manfaatdor bo‘lardi. Chunki, vasiyat qilgan shaxsning vasiyati (xohish-irodasi)ni ijro etuvchisi ruhoniy hisoblanib, vasiyat qilingan mulkning bir qismi cherkov ixtiyoriga o‘tardi. Garchi, shimolda vasiyat erkinligi qonuniy merosxo‘rlar

foydasiga ancha cheklangan bo‘lsa ham, cherkov ta’siri ostida vasiyat borgan sari odat huquqiga ham kirib kela boshlaydi. Biroq, qonuniy meros-xo‘rlarni qandaydir maxsus asoslar bo‘lmasa, vasiyat yo‘li bilan merosdan mahrum qilish mumkin emas edi.

Jinoyat huquqi

IX-XI asrlarda Fransiyada asosan ilk o‘rta asrlardagi jinoyatlar va jazolar tizimi harakatda davom etgan. Jinoyat alohida shaxslarning manfaatlariga daxldor xatti-harakat (xususiy ozor yetkazish) sifatida ko‘rilgan. Jazo esa, avvalo, xususiy shaxslarga yetkazilgan ziyonni qoplashga qaratilgan bo‘lib, hali uncha qattiq va shafqatsiz ko‘rinish olmagan edi.

Biroq, XI-XII asrlarga kelib, jinoyat huquqining feodal belgilari ancha to‘liq namoyon bo‘la boshladi. Jinoyat xususiy ish bo‘lmay qoldi. Endilikda feodal tartib bilan o‘rnatilgan "tinchlikni buzish"ga jinoyat deb qarala boshlandi. Jinoyat huquqining aybsiz jinoiy javobgarlik, jazolarning qattiqligi, jinoyatlar tarkiblarining belgilanmaganligi kabi jihatlari rivojlandi. Agar hali, bir tomondan, feodallar o‘rtasidagi jinoyatlar va jazolar haqidagi masala huquqiy odatlar va feodal shon-sharaflar haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, "tenglar sudi"da ko‘rilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, senor o‘z hokimiyati ostidagi dehqonlar uchun jinoyat ishlarida bir vaqtda ham qonun chiqaruvchi, ham sudya edi. U bo‘ysunmagan dehqonlarga qarshi jinoiy repressiya qo‘llay olardi. Senor o‘z majburiyatlarini bajarmagan dehqonlarni ham jazolashi mumkin edi.

Davlatning asta-sekin markazlashuvi va qirol hokimiyatining kuchayishi bilan XIII-XV asrlarda senorlik yurisdiksiyasi zaiflashadi va jinoyat huquqining rivojlanishida qirol qonunlarining roli oshib boradi. Jinoyat huquqi tobora faqat jazo uchun qo‘llaniladigan (repressiv) xarakter kasb eta boshlaydi. Og‘ir jinoyatlar sifatida ko‘riladigan ishlar doirasi kengayadi va "qirollik holatlari" (qalbaki pul yasash, odam o‘ldirish, nomusga tegish, o‘t qo‘yish va h.k.) deb nomlanadigan turkumga kiritiladi. Qirollar o‘z qonunlari bilan kanonik huquq me’yorlarini to‘ldirib, diniy sohaga ham faol aralasha boshlaganlar. Masalan, 1268 yildayoq Ludovik IX dinni, xudoni tahqirlaganlik uchun maxsus jazoni nazarda tutuvchi ordonans chiqargan. "Hazrati oliylarini haqorat qilish" tushunchasi bilan bog‘liq qator yangi jinoyatlar paydo bo‘lgan. 1357 yilgi Buyuk mart ordonansi jinoyatga "xususiy ish" sifatida qarashga batamom chek qo‘yilishiga yordamlashgan. Bunga ko‘ra, jazolarning pul to‘lash (jarima) bilan almashtirilishi taqiqlandi. Tabaqalar talabi bilan qirol og‘ir jinoyatlar sodir etgan shaxslarni afv etish huquqidan mahrum etilgan edi.

1789 yilgi inqilobga qadar u yoki bu shaxsning jinoiy javobgarligi uning qaysi tabaqaga mansubligi bilan bevosita bog‘liq edi. Dvoryanlarga faqat alohida hollardagina tan jazolari qo‘llanilardi, boshqa hollarda esa bunday jazolar ko‘pincha jarimalar va mol-mulkni musodara qilish bilan almashtirilardi. Ularni dorga osish yo‘li bilan o‘limga mahkum etishga yo‘l qo‘yilmasdi. Ruhoniylar uchun jinoiy javobgarlikning alohida tizimi mavjud edi. Shu bilan birga shaharliklar va dehqonlar qo‘zg‘olonlarini bostirishda qonuniylik haqidagi har qanday tushunchalar uloqtirib tashlanar, sudda jazo berish bilan suddan tashqari jazo berish o‘rtasidagi chegaralar tamomila yo‘qolib ketar edi. Chunonchi, Jakeriya qo‘zg‘olonini bostirishda faqat ikki hafta mobaynida 20 ming kishi qatl etilgandi.

O‘rta asrlarda Fransiya jinoyat huquqida ob'yektiv ayblovga, ya’ni aybsiz jinoiy javobgarlikka yo‘l qo‘yilardi. Chunonchi, qirollik qonunlarida ba’zi siyosiy jinoyatlar uchun shahar korporatsiyalari a’zolarining, shuningdek, jinoyatchi oila a’zolarining, jumladan, uning bolalarining birgalikdagi javobgarligi nazarda tutilardi. Qonunlar va kutyumlar umuman olganda o‘z qilmishiga javob bera olmaslik (aqli norasolik) tushunchasini, ya’ni kishining ruhiy kasalligi tufayli o‘z xatti-harakati ahamiyatini tushunishga qodir emasligini e’tiborga oladi. Lekin qator jinoyatlar bo‘yicha, jumladan, "a'lo hazratlarini haqorat qilish" uchun aqli norasolar va voyaga yetmaganlar ham jinoiy javobgarlikka tortilardi. Hatto jinoyatchilarning murdalari, shuningdek, odam o‘ldirishga sabab bo‘lgan hayvonlar va jonsiz narsalar ham jinoiy ta’qib ostiga olinardi.

Absolutizm davrida qonunlar qirolga, davlatga va katolik cherkovga qarshi qaratilgan jinoyatlar tarkibini alohida batafsil ishlab chiqqan. Shu munosabat bilan "hazrati oliylarini haqorat qilish" tushunchasiga mos keladigan xatti-harakatlar doirasi ancha kengaydi. Qirolga yoki uning oila a’zolariga suiqasd qilish va davlatga qarshi fitna uyushtirish eng og‘ir jinoyat hisoblangan. XVII asrda Rishele davrida "hazrati oliylarini haqorat qilish" sifatida ko‘riladigan jinoyatlarning "ikkinchi pog‘onasi" yaratildi. Bunga qirol ministrlariga, qirollik qo‘shinlariga qo‘mondonlik qiluvchilarga, provinsiyalarning gubernatorlariga va boshqa oliy qirollik chinovniklariga qarshi fitna uyushtirish, urush vaqtida xiyonat qilish, qochoqlik, josuslik qilish, qirollikning ruxsatisiz qal'alar qurish va boshqalar kirgan.

Diniy jinoyatlar ham turlicha edi. Bular xudoni (dinni) tahqirlash, muqaddas joylarni va narsalarni oyoq osti qilish, kufrlik, jodugarlik, bid'at (din aqidalariga xilof ish, harakat yoki ta’limot) bilan shug‘ullanish va boshqalarni o‘z ichiga olgan. Bid'at tushunchasi boshqa diniy jinoyatlar tushunchasi singari juda noaniqligi bilan ajralib turgan va fransuz davlati

rivojlanishining turli bosqichlarida o‘zgarib turgan. Bid'atchilarni ommaviy suratda ta’qib qilish Reformatsiya davrida, ayniqsa, Genrix II ning 1547 yilda barcha protestantlarni o‘tda kuydirishga buyurganidan keyin avjiga chiqqan edi. Kalvinistlar (gugenotlar)ni quvg‘in qilish bu vaqtda ommaviy sudsiz jazolar (1572 yil Varfolomey kechasi 2 ming kishi o‘ldirilgan) da, XVI-XVII asrlardagi qonli diniy urushlarda namoyon bo‘ldi.

Dastlabki kapital jamg‘arilishi va dehqonlarning ommaviy xonavayron bo‘lishi jarayoni munosabati bilan qirol ordonanslarida daydilarga, ishsizlarga qarshi maxsus jinoiy repressiya (ta’qib) choralari nazarda tutiladi. Bunda albatta avvalo yollanma mehnat tizimini yaratish asosiy maqsad qilib olingan edi. Keyinroq, 1764 yildagi maxsus qirollik ordonansi bilan yashash uchun mablag‘i bo‘lmagan shaxslar ko‘p eshkakli kemalarda og‘ir ishlarga jo‘natilgan.

Jazolar ham xuddi jinoyatlar singari qirollik qonunlari bilan aniq belgilanmagandi. Ularni qo‘llash ko‘p hollarda sudlarning xohishiga, ayblanuvchining tabaqaviy ahvoliga bog‘liq edi. Hukmlar xalq oldida oshkora ijro etilardi. Bunda mahkumning azob-uqubatlari barcha ishtirokchilarda qo‘rquv tug‘dirishi maqsadi ko‘zlanardi. O‘lim jazosi turli shakllarda: otga bog‘lab bo‘laklarga bo‘lib tashlash, to‘rtga bo‘lish, yoqib yuborish va boshqa shakllarda qo‘llangan. Jazolarning ichida eng ko‘p qo‘llaniladigani tana a’zolariga shikast yetkazish va tan jazolari (tilini kesish, barmoqlarini kesish, qizdirilgan qisqichlar bilan qiynash va boshqalar) edi. Turmaga qamash jazosi ham keng qo‘llana boshlangan. Bu jazo ilk davrlarda asosan cherkov sudlarida nazarda tutilgan. Asosiy va qo‘shimcha jazo sifatida mol-mulkni musodara qilish ham qo‘llanilgan. Bu ko‘pincha, ayniqsa, burjuaziyaning katta boyligiga taalluqli bo‘lsa, qirol xazinasiga katta foyda keltirib turgan.

Fransiya jinoyat huquqida o‘rta asrlarga xos bo‘lgan belgi - jazoning og‘irligi jinoyatning xarakteriga tamomila mos kelmasligi yaqqol namoyon bo‘lgan. Ayniqsa, bu qirollik sudlari tomonidan mol-mulkni musodara qilishdagi o‘zboshimchaliklarida yanada ko‘proq ko‘zga tashlanar edi. Bu esa o‘z navbatida fransuz burjuaziyasining kuchli noroziligini tug‘dirib, XVIII asrda ilg‘or ideologlar tomonidan inqilobdan ilgarigi butun jinoyat huquqi tizimining tanqid qilinishiga sabab bo‘ldi.

Sud jarayoni

XII asrning oxirigacha sud jarayoni ilgari franklarda bo‘lgani kabi asosan ayblov xarakterini saqlab qolgan. Sud to‘qnashuvi keng tarqalgan edi. Bu ikkala tomonning o‘zaro roziligi bilan yoki tomonlardan biri ikkinchisini yolg‘onchilikda

ayblagan hollarda amalga oshirilardi. Huquqiy odatlarda sud duelini[32] o‘tkazish tartibi batafsil ishlab chiqilgan edi.

Senorlik sudlarida dehqonlar ishlarini ko‘rib hal qilishda XI asrdayoq an’anaviy dalillar bilan bir qatorda qiynash usuli ham qo‘llanila boshlandi va sud jarayoni o‘zining ilgarigi tortishuvchilik xarakterini yo‘qotgan edi. Bu vaqtga kelib cherkov sudlarida hali «rim-katolik» deb nomlangan jarayonning qidiruv (inkvizitsiyaga[33] oid) shakli o‘rnatilgandi. Qidiruv jarayoni XII asrdan boshlab asta-sekin qirollarning va yirik feodallarning sudlarida ham joriy etilgandi. XV asrgacha qidiruv va ayblov jarayonlari parallel ravishda amal qilardi. Lekin ayblov jarayoni asta-sekin ordaliyalar va sud to‘qnashuvlarining bekor qilinishi bilan yo‘qolib bordi.

Qidiruv jarayonining batamom mustahkamlanishi absolutizmning o‘rnatilishi natijasida qator qirollik hujjatlari: 1498 yilgi ordonans, 1539 yilgi edikt va 1670 yilgi Katta jinoyat ordonansining chiqarilishi yo‘li bilan sodir bo‘ldi. To‘g‘ri, dastlab bu jarayon ekstraordinar (favqulodda, g‘ayriodatiy) deb nomlangan, biroq aynan ushbu jarayon ko‘p muhim jinoiy ishlarda qo‘llangan. Aynan mazkur davrda kishini turmaga qamash uchun faqat qamoqqa olish haqidagi qirol buyrug‘ining bo‘m bo‘sh blankiga uning ismi yozib qo‘yilishi (letters de cachet) kifoya qilar edi.

Qidiruv jarayonining birinchi bosqichi surishtiruv, ya’ni jinoyat va jinoyatchi haqidagi dastlabki va yashirin ma’lumotlarni yig‘ish edi. Sud ishi qirollik prokurorining ayblovi, shuningdek, ayblanuvchi uchun mazmuni noma’lum bo‘lib qolgan chaquvlar va shikoyatlar asosida qo‘zg‘atilgan. So‘ngra sud tergovchisi yozma dalillar to‘plagan, guvohlar va ayblanuvchini so‘roq qilgan, yuzlashtirish o‘tkazgan. Qidiruv jarayonida ayblanuvchining aybdorligi nazarda tutilardi, shuning uchun qiynoqlar qo‘llash uchun bitta guvohning ko‘rsatmalari kifoya qilardi. Qiynoqlar usulini qo‘llashdan asosiy maqsad "dalillar sarasi"ni, ya’ni ayblanuvchidan aybiga iqrorlikni olishga erishish edi.

Sud ishlari yopiq sud majlislarida ko‘rib chiqilardi. Bundan tashqari, sudlarda ishni ko‘rishda tergov davomida yig‘ilgan materiallar hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Shaxsan aybga iqror bo‘lishdan tashqari, ikkita "ishonchga sazovor" guvohlarning ko‘rsatmalari, ayblanuvchining o‘z xatlari, jinoyat sodir etilgan joyda tuzilgan bayonnomalar va boshqalar ham ayblanuvchining aybini isbotlovchi to‘laqonli dalillar bo‘lib hisoblangan. Garchand 1670 yilgi ordonans dalillarni oqlovchi va ayblovchi dalillarga

[32] Dvoryanlarning qilichbozlik yoki to`pponchabozlik bilan o`zaro yakkama-yakka olishuvi.

[33] **Inkvizitsiya –** katolik cherkovning asoratiga qarshi kishilarni ta'qib va sud qilish uchun XIII-XIX asrlarda ta'sis etilgan sud-politsiya tashkiloti; qiynoq, azoblash degan so`zlardan olingan.

bo‘lishni nazarda tutgan bo‘lsa-da, sud asosiy e’tiborni aynan keyingilariga qaratardi. Agar ayblovchi dalillar yetarlicha bo‘lmasa, sudya qo‘shimcha qiynovlar o‘tkazishga ko‘rsatma berishi mumkin edi. XIII asrgacha hukmlar qat’iy hisoblangan va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas edi. Sudyalarning qaroridan norozi bo‘lgan shaxs ularni sud to‘qnashuvlariga chaqirishi va navbatma-navbat ularning har biri bilan urushishi mumkin bo‘lgan. Yuqori turuvchi syuzeren sudiga faqat "huquqda xato bo‘lgan" holda shikoyat qilish mumkin edi.

XIII asrdan boshlab asta-sekin senorlik sudining har qanday qarori ustidan qirollik sudiga shikoyat qilish huquqi tan olinadi. O‘z navbatida qirollik sudlarida ancha yuqoriroq turgan instantsiyaga apellyatsiya bilan murojaat qilishga yo‘l qo‘yiladi. Vaqt o‘tishi bilan Parij parlamenti fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha oliy apellyatsion sud bo‘lib qolgan. Fransiyada, ayniqsa, inqilob arafasida ko‘p sonli apellyatsion instantsiyalarning mavjudligi sud jarayonlarining uzoqqa cho‘zilishiga va juda qimmatga tushishiga sabab bo‘lardi.

IV BOB. GERMANIYA DAVLATI VA HUQUQI (IX asrning o‘rtasi - XVIII asr)

- ***Germaniya davlatining tashkil topishi, rivojlanish xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlari.***
- ***Ilk feodal monarxiyasi. «German millatining muqaddas Rim imperiyasi» (X-XIII asrlar).***
- ***Germaniyada kurf-yuristlar oligarxiyasi va tabaqa-vakillik monarxiyasi davri (XIII-XVII asrlar)da ijtimoiy-siyosiy tuzumda yuz bergan o‘zgarishlar.***
- ***«Knyazlik absolutizmi» davrida (XVII-XVIII asrlarda) Germaniya.***
- ***O‘rta asrlarda Germaniyada huquqning asosiy belgilari.***

1. Germaniya davlatining tashkil topishi, rivojlanish xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlari

843 yilda Verden shahrida bo‘lgan taqsimotga muvofiq «Sharqiy Frank yerlari» - bo‘lg‘usi Germaniya hududi Ludovik Nemisga o‘tdi. Aslida bu yerlar bir necha qabilaviy knyazliklarning yerlari edi. Bu vaqtda mamlakatning milliy birligi to‘g‘risida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas edi. Gersogliklar shimoldan janubga qarab quyidagicha tartibda joylashgan edi: Saksoniya, Frankoniya, Shvabiya (ilgarigi Allemaniya), Bovariya. Birmuncha keyinroq borib g‘arbda joylashgan beshinchi bir gersoglik - Lotaringiya Fransiyadan tortib olindi va Germaniya tarkibiga kiritildi. Shuningdek, qator fransuz, italyan va slavyan yerlari - Burgundiya, Shimoliy Italiya, Bogemiya, Avstriya va boshqalar ham tez orada Germaniyaga qo‘shib olindi. Shu tariqa vaqtincha nisbatan yagona Germaniya qirolligi tashkil topdi. Dastlab bu qirollik «Sharqiy franklar qirolligi», X asr o‘rtalarida esa Tevtonlar davlati deb atalgan. Bu davlat keyinroq - XI asrdan Germaniya deb yuritila boshlandi.

O‘rta asrlarda Germaniya davlati va huquqining tashkil topishi va rivojlanishida, shuningdek, german feodalizmining o‘ziga xos bir qancha xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin[34]:

1. Germaniya davlati urug‘doshlik tuzumining yemirilishi natijasida paydo bo‘lmasdan, balki o‘rta asrlarda feodalizmni o‘z boshidan kechirayotgan davlat - franklar davlatining inqirozi (bo‘linib ketishi) natijasida, uning bir qismida tashkil topdi.

[34] **Bu haqda qarang:** Muqimov Z. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. Qadimgi dunyo hamda o`rta asrlar davlati va huquqi tarixi.I qism. O`quv qo`llanmasi.– Samarqand SamDU nashri, 1992.-99-100-betlar.

2. Germaniyada jamoa - marka slavyanlar va franklardagiga nisbatan ancha turg‘un bo‘lib, dehqonlarni qaramlikka tashlash jarayoni ancha uzoq vaqtga cho‘zilgan.

3. Germaniyada tovar-pul munosabatlarining barvaqt rivojlanishi ishlab chiqarishning natural xarakterini birdaniga buzib tashlamadi. German knyazliklarining notekis iqtisodiy rivojlanishi sezilib turdi. Lekin bu yerda feodalizm sust rivojlangan bo‘lsa-da, XI-XII asrlarda jamiyatning feodallashish jarayoni nihoyasiga yetib, asosiy sinflar - yer egalari va ularga qaram dehqonlar shakllangan edi.

4. Ijtimoiy tuzumi bo‘yicha Germaniya aholisi juda tabaqalashib ketgan edi. Masalan, hukmron tabaqa - ritsarlarning[35] o‘zi 7 ta darajada turardi.

5. XIV asrga kelib, agarda Angliya va Fransiya davlatlarida siyosiy tarqoqlik tugatilib, markazlashuv ro‘y berayotgan bo‘lsa, Germaniyada buning teskari jarayoni - siyosiy tarqoqlik kuchayayotgan edi. Buning asosiy sababi Germaniyada o‘ziga xos tabaqa-vakillik hokimligining vujudga kelganligida edi. O‘rta asrlarda Germaniya davlatining tashkil topishi va rivojlanishida quyidagi bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

6. Ilk feodal monarxiyasi davri (X-XIII asrlar).

7. Kurfyurstlar oligarxiyasi hamda tabaqa-vakillik monarxiyasi davri (XIV-XVII asrlar).

8. German qirolliklari absolutizm davri (XVII-XVIII asrlar).

Biroq, davlat va huquq tarixi fanida ba’zi olimlar o‘rta asrlarda Germaniya davlati tarixini boshqacharoq tarzda ham davrlarga bo‘lib o‘rganadilar. Jumladan, moskvalik huquqshunos olim S.V.Chirkin uni quyidagicha ikkita katta davrga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi:

1. Germaniya imperiyasi doirasida nisbatan markazlashgan ilk feodal monarxiyasi davlatining tashkil topishi va rivojlanishi davri (X-XII asrlar).

2. Germaniyada hududiy tarqoqlik va german knyazliklari - davlatlarining rivojlanishi davri (XIII asr-XIX asrning boshi)[36].

Bizningcha, o‘rta asrlarda Yevropa davlatlari rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, xususan ularda monarxiyaning rivojlanish bosqichlarini hisobga olganda Germaniya davlati tarixini yuqoridagicha uch davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

---

[35] **Ritsar –** nemis tilidan olingan so`z bo`lib, o`rta asrlar Yevropasida harbiy-dvoyanlar tabaqasiga mansub bo`lgan feodal, og`ir qurollangan jangchi. Ritsarlar dubulg`a va sovut kiyganlar, ularning otlariga ham sovut kiydirilgan. Jang vaqtida ikki tomonlama tig`li qilich va nayzadan foydalanganlar.

[36] **Qarang:** История государства и права зарубежных стран.Часть 1. Учебник для вузов/ Под ред. проф. Крашенинниковой Н.А. и проф. Жидкова О.А.-М.:Издательство НОРМА, 1996.-240-bet.

2. Ilk feodal monarxiyasi. «German millatining muqaddas Rim imperiyasi» (X-XIII asrlar)

Germaniya davlati XI-XII asrlarda nisbatan yagona davlat bo‘lib turgan. XII asrdan e’tiboran bu yerda ham siyosiy tarqoqlik jarayoni boshlandi. Biroq bu jarayon boshqa mamlakatlardan, jumladan, Fransiyadan farqli o‘laroq, orqaga qaytmas xarakter kasb etgan. Buning esa qator tarixiy-siyosiy shart-sharoitlari mavjud edi. Ularning ichida tashqi siyosiy omillar muhim o‘rin tutgan. German feodallarining asosiy yo‘nalishda - sharqda slavyanlar va vengerlarga qarshi, janubda Italiyaga qarshi olib borgan bosqinchilik yurishlari german gersogliklarining sun’iy (nomiga) birlashishlariga olib kelgan.

“German millatining muqaddas Rim imperiyasi” ning tashkil topishi

Ma’lumki, Germaniyada X asrlarda xuddi Fransiyadagi singari bir necha mustaqil davlatlar (viloyatlar) tashkil topib, ular faqat rasmiy jihatdangina qirol hokimiyatini tan olar edi. Zero, qirollar bu vaqtda hali urug‘doshlik tuzumi davridan beri odat huquqi asosida saylanib qo‘yilar edi. Faqat Otton I davri (936-973 yillar)dan boshlab bu tartib o‘zgargan. Otton I otasi Genrix I ning qirol hokimiyatini mustahkamlash siyosatini davom ettirdi. U, dastavval boshqa gersoglar ustidan nazoratni kuchaytirdi, buning uchun nikoh va boshqa qarindoshlik aloqalaridan foydalandi. Qirol ta’sirini butun mamlakatga yoyishning ikkinchi bir usuli yepiskoplik tizimi bo‘ldi. Otton cherkov bilan do‘stona aloqa bog‘ladi. U yepiskoplarga keng miqyosda immunitet huquqlar berdi va ularga juda ko‘plab yerlar ulashdi. Shu bilan birga, u yepiskoplarni ham o‘zi tayinlardi. Cherkov yerlaridan keladigan daromadlardan qirol xazinasiga ko‘pdan-ko‘p hissalar ajratildi. Shunday qilib, Germaniyada cherkov manfaatlari bilan davlat manfaatlari bir-biriga chatishib ketdi. Germaniyaning turli viloyatlaridagi yepiskoplar mahalliy knyazlarga-gersoglarga e’tibor bermay, bevosita qirolga bo‘ysundilar. Shu bilan bir vaqtda yepiskoplarning qirolga tobeligi ularning Rim papasiga deyarli bo‘ysunmay qo‘yishiga olib keldi.

Otton I ham otasi kabi agressiv tashqi siyosat yuritib, slavyanlar va vengerlarni o‘z ta’siriga oldi, ularni xristianlashtira boshladi. Lekin u asosiy e’tiborni Italiyaga qaratgan edi, chunki Italiya german imperatorlarining «dunyoga hokim bo‘lish» rejalarida asosiy o‘rin tutar edi. Otton I dastlab 951 yilda Italiyaning Paviya shahrini bosib oldi, shimoliy Italiya knyazlaridan bir nechtasini tor-mor qilib, Provans bilan Italiya qiroli Lotarning beva qolgan xotini qirolicha Adelgeydaga uylandi. Germaniyaning

shimoliy Italiyaga ta’siri va german qirolining Italiya siyosati ham shundan boshlandi.

961 yilda Otton Italiyaga yana yurish qildi. Bu safar Ottonni papa Ioann XIIning o‘zi yordamga chaqirgan edi, chunki papaga uning vassallari - rim baronlari xavf solayotgan edi. Karl Buyuk o‘lgandan keyin kuchaygan va IX asrning o‘rtalarida diniy hokimiyatni dunyoviy hokimiyatdan ustun turadi[37] degan nazariyani ko‘tarib chiqqan papalikning o‘zi endi Italiyada feodallashuv jarayonining yanada kuchayishi munosabati bilan qattiq inqirozga uchrab, qirol hokimiyatining yordamiga muhtoj bo‘lib qolgan edi. Otton I Rim feodallarini bostirib, papani taxtga o‘tkazdi. Bunga minnatdorchilik bildirib papa 962 yilning boshida Ottonga imperatorlik tojini kiygizdi. Shunday qilib, yangi «imperiya tiklandi». Shu narsa xarakterliki, ilgari Karl Buyuk bo‘lgani singari, bu safar Otton ham Rim imperatori deb e’lon qilindi. Yangi imperiyaga «Muqaddas Rim imperiyasi» deb nom berildi. Shundan keyin german imperatorlari o‘zlarini rim sezarlari (imperatorlari)ning vorislari deb hisoblay boshladilar. Faqat keyinroq borib, XII asrdagina bu iboraga ikki so‘z qo‘shilib, «German millatining muqaddas Rim imperiyasi»[38] deb ataladigan bo‘ldi va bu nom 1806 yilgacha saqlanib qoldi. «Muqaddas» deb atalishining asosiy sababi shunda ediki, davlatning tepasida rasman imperator va papa turgan. Amalda esa butun hokimiyat imperator qo‘lida to‘plangan edi.

German imperatorlari aslida ana shu vaqtdan e’tiboran dunyoga hukmronlikni da’vo qila boshlaganlar. Hatto ayrim huquqshunoslar german imperatorlarini «jahon hukmronlari» deb atab, bunday da’voni nazariy jihatdan asoslashga harakat qilganlar. Masalan, Boloniya huquq maktabidan Fridrix Barbarossa Germaniyadan boshqa Yevropa mamlakatlarining qirollari saltanatning bo‘laklarigagina hukmronlik qilishlari mumkin deb da’vo qilgan. Bu tarixiy an’anadan keyinchalik, ikkinchi jahon urushi arafasida fashistlar o‘zlarining jahonga hukmron bo‘lish haqidagi rejalarida foydalandilar.

Ijtimoiy tuzumi

X-XII asrlarda Germaniya iqtisodiy jihatdan Yevropa mamlakatlari ichida qoloq davlatlardan biri edi. Bu yerda feodal munosabatlar Fransiyaga nisbatan ancha kech - XI asrdan rivojlana boshladi. Feodalizmning rivojlanishi turli german gersogliklarida juda notekis suratda kechdi. Ayni paytda urug‘doshlik tuzumining qoldiqlari mustahkam saqlanib qoldi. Masalan, Saksoniyada aholi eski qabilachilik odatlariga qattiq amal qilardi. Germaniyada jamoalarga-markalarga

[37] Bu nazariyaning ifodachisi papa Nikolay I (858-867 yillar) bo`lgan edi.
[38] Rasmiy hujjatlarda va yozishmalarda german imperatori «Rim qiroli» deb ham atalar edi.

uyushgan erkin dehqonlar uzoq vaqtgacha o‘z mustaqil-liklarini saqlab keldilar. Krepostnoylashtirish yo‘lidagi urinishlarga deh-qonlar katta qo‘zg‘olonlar ko‘tarish bilan javob berdilar. Shunday katta qo‘zg‘olonlardan biri, masalan, 841-842 yillardayoq Saksoniyada bo‘lib, u «Stelling» degan nom bilan mashhur bo‘lgan edi. Bu qo‘zg‘olon dehqon jamoalarining ittifoq bo‘lib, eski majusiylik bayrog‘i ostida ish ko‘rgan edi. Bu ittifoq ham kelgindi frank zodogonlariga, ham mahalliy saks zodogonlariga qarshi qaratilgan edi.

Rim ta’sirini o‘tkazishning, jumladan, xususiy mulkchilikning va yerga birkitib qo‘yib shaxsiy qaram qilishning yangi shakllarini kiritish Reynning narigi tomonida ancha sekin amalga oshirilmoqda edi. Biroq, XI asrlarga kelib bu yerda ham feodallashuv jarayoni ancha muvaffaqiyat qozondi. Marka, ya’ni jamoa tushkunlikka yuz tutdi. Katta dunyoviy va cherkov yer egalari tobora ko‘p yerlarni o‘z qo‘liga ola bordi. Xususiy mulkchilikning rivojlanishi natijasida yer qo‘ldan-qo‘lga o‘ta boshladi. Dehqonlarning bir qismi o‘z yeridan ajralib, feodal yer egalariga qaram bo‘lib qoldi. Kommendatsiya, ya’ni o‘zini qudratli qo‘shnisining, yirik yer egasining homiyligiga topshirishi, immunitet, ya’ni yer egasining davlat funksiyalarini olib borishi va birinchi navbatda tevarak-atrofdagi aholini sud qilishi, Reyn bo‘yidagi cherkov yerlarida (asosan Frankoniyada) juda ham avj olib ketgan prekariylik munosabatlari X-XI asrlarda Reynning narigi tomonida tobora tez-tez uchraydigan bo‘ldi. Bu jarayonlarning hammasi shuni ko‘rsatadiki, yuz-ikki yuz yil ilgari g‘arbiy Frank davlatida feodal munosabatlar qanday avj olgan bo‘lsa, Germaniyada ham, garchi kechikib bo‘lsada, shunday avj oldi. Germaniyada katta yer egaligining avj olishida qirol xazinasiga qarashli yerlarning talon-taroj qilinishi katta rol o‘ynaydi. Karolinglarning keyingi kuchsiz qirollari bu yerlarni o‘z qo‘lida saqlab qololmadi.

XI-XII asrlarda Germaniyada jamiyatning asosiy tabaqalari shakllangan. Jamiyat ikkita asosiy tabaqa: harbiy-ritsarlar hamda o‘lpon va soliqlar to‘laydigan dehqonlarga ajralgan.

Germaniyaning ko‘p sonli urushlar olib borishi harbiylar - ritsarlar tabaqasining jipslashuviga ko‘maklashgan. Ritsarlarning yuqori qismini turli xil nasliy va xizmatchi aristokratik elementlar tashkil etgan. Ulardan birinchisi **gersoglar** - qabilaviy knyazlar bo‘lib, yirik yer egalariga aylangan edilar. Ikkinchi turkumdagi yirik yer egalari asosan mansabdor aristokratlar - **graflar** darajasidagi shaxslar bo‘lib, ular ma’muriy okruglarda (grafliklarda) muhim dunyoviy va cherkov mansablarini o‘z qo‘lida to‘plagan edilar. Shuningdek, qirol chinovniklari - **fogtlar** ham yirik yer egalari bo‘lib, ular cherkov votchinalarida harbiy va sud funksiyalarini amalga oshirardilar. Germaniya jamiyatining feodallasha borishi bilan XI-XII asr-

lar bo‘sag‘asida bu yuqori tabaqalarning jipslashuvi yuz berdi. Ular endilikda kuchli markaziy hokimiyatdan manfaatdor bo‘lmagan va ajralib chiqishga intilayotgan kuchlarning qudratli ittifoqini tashkil eta bordilar. Ularning hududiy knyazlar tabaqasiga qo‘shilib ketishi sodir bo‘ldi. Unga yirik cherkov magnatlari - «cherkovlarning knyazlari» ham kiradi. Ruhoniy va dunyoviy knyazlarning maxsus tabaqasi XIII asrning o‘rtasiga kelib batamom rasmiylashdi.

O‘rta va mayda ritsarlar tabaqasi mayda yer egalari - dvoryanlardan va erkin dehqonlarning yuqori qismidan shakllandi. Germaniyada tabaqalarning tashkil topishida Genrix I Qushboz (919-936 yillar)ning islohotlari muhim o‘rin tutadi. Genrix I slavyanlarga va vengerlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish maqsadida erkin dehqonlarning yuqori tabaqalaridan, qisman ministrlardan olinadigan ritsarlar sonini ko‘paytirishga harakat qildi. Uning harbiy islohotiga ko‘ra, ot minib urusha oladigan har qanday erkin kishi harbiylar (ritsarlar - chavandozlar) tabaqasiga kiritildi, boshqa kishilar esa o‘lpon to‘laydiganlar tabaqasiga kiritilgan.

Davlatdagi barcha boshqaruv va harbiy ishlar ritsarlar qo‘lida to‘planib bordi, XIII asrga kelib ritsarlik yopiq tabaqaga aylandi va nasldan-naslga meros tariqasida o‘ta boshladi. Ritsarlar o‘zlarining mol-mulki, mansabiga qarab rang (martaba, daraja)larga bo‘lindi. Masalan, Saksoniya viloyati sharqiy qismining odat huquqi to‘plami - «Sakson zertsalosi»da (XIII asrning 20-yillarida tuzilgan) xuddi shunday yettita harbiy darajalar (ranglar) ajratib ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, birinchi darajada qirol (imperator) turgan, ikkinchi darajaga imperatorning vassallari - oliy martabali ruhoniylar (yepiskoplar, abbatlar), uchinchi darajaga imperatorning bevosita dunyoviy vassallari - knyazlar, graflar, gersoglar, markgraflar, landgraflar, to‘rtinchi darajaga knyazlarning vassallari, beshinchi darajaga «ozod janoblar» - graflarning vassallari, oltinchi darajaga «ozod janoblar»ning vassallari va nihoyat, yettinchi darajaga oltinchi darajadagi ritsarlarning vassallari kirgan (3-modda, 2-band).[39] Oxirgi darajadagi ritsarlar o‘z vassallariga ega bo‘lmagan.

Bu vaqtda Germaniyada o‘lpon to‘laydiganlar tabaqasini asosan dehqonlar tashkil etib, ular XIII asrda ikki toifaga: ozod dehqonlar va qaram dehqonlarga bo‘lingan.

«Sakson zertsalosi»da ko‘rsatilishicha, «ozod dehqonlar uch turda bo‘lishgan: sheffen kishilar, chinsh to‘lovchilar va ko‘chmanchilar». Bularning barchasi dunyoviy sudlarda teng darajada ishtirok etishlari lozim

[39] **Qarang:** Хрестоматия по Всеобщей истории государства и права.Т.1./ Под ред. К.И. Батыра и Е.В. Поликарповой.-М.:Юристь , 1996.-285-bet.

edi. Sheffen kishilar Franklar davlatidagi skabinlarning avlodlari bo‘lib, qirol buyrug‘i bilan har 18 xaftada graf sudida qatnashishlari shart edi. Chinsh to‘lovchilar hukmdorlar yerlarini ushlab turib, ma’lum pul majburiyatlari (chinsh) to‘lardilar. Ular ham ikkiga bo‘lingan: ulardan ba’zilari yerlarni meros qilib qoldirish, sotish huquqlariga ega bo‘lsa, boshqalari esa bunday huquqlardan foydalana olmaganlar. Ko‘chmanchilar asosan ijarachi dehqonlar bo‘lib, ular o‘z yerlariga ega bo‘lmaganlar va yer egalaridan yerlarni vaqtincha ishlab turish uchun ijaraga olganlar.

Qaram dehqonlarga yarim ozod litlar, batraklar va shaxsan qaram krepostnoy dehqonlar kirgan.

Germaniyada salb yurishlari boshlanishi bilan Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi singari, feodal krepostnoylik qaramligining zaiflashishi yuz berdi. Dehqonlarning bir qismi muayyan yillik chinsh to‘lash evaziga shaxsiy majburiyatlar o‘tashdan tamomila ozod bo‘ldi. Boshqa dehqonlar qaram dehqonlar bo‘lib qolaverdi, lekin ular o‘taydigan barshchinalar kamaytirildi, eng og‘ir obroklar («o‘lim» solig‘i va boshqalar) haq to‘lab qutilishga yoki belgilangan ma’lum badallarga almashtirildi. Uzoq-uzoq joylarga yurishlar qilish bilan band bo‘lgan german feodallari, odatda, xo‘jalik bilan o‘zlari shug‘ullanmay, domenlarini ijaraga (arendaga) berardilar. Domenlarning ko‘pchilik qismi yirik bo‘laklarga bo‘linib, so‘ng ijaraga berilardi. O‘rta asr Germaniyasida bunday yirik ijara **meyer** ijarasi deb atalardi, chunki hammadan avval sobiq krepostnoy oqsoqollar - meyerlar ijarachi bo‘lardilar. Shimoliy-G‘arbiy Germaniyada (Vestfaliyada) eng ko‘p tarqalgan meyer ijarasi badavlat, qisman qoloq dehqonlar tabaqasining tashkil topishiga imkon berdi. Ammo qishloqning boshqa tomonida kam yerli dehqonlar maydonga kelib, ular boy hamqishloqlari uchun ishlaydigan batraklarga aylandilar.

XI-XII asrlarda shaharlar rivojlanib, ozod kishilarning maxsus tabaqasi - shaharliklar paydo bo‘ldi. Ular alohida huquqlardan va avtonomiyadan foydalanishgan. Masalan, ular soliqlarni jamoa bo‘lib to‘lashgan.

Davlat tuzumi

X-XII asrlarda Germaniya nisbatan yagona davlat hisoblangan. Feodalizmning kuchsiz rivojlanishi, tashqi xavf va dastlabki german qirollarining faol markazlashtirish siyosati natijasida qirol hokimiyati vaqtincha mustahkam bo‘lib turdi, ilk feodal monarxiyasi tashkil topdi. Dastlab qirol saylab qo‘yilsa ham, lekin keyinchalik (Otton I davridan) u imperator unvonini qo‘lga kiritdi va butun oliy hokimiyat tanho uning qo‘lida to‘plandi.

Mamlakatda oliy davlat hokimiyatining markazi qirol saroyi bo‘lgan. Bu davrda davlat apparati saroy-votchina boshqaruv tizimidan iborat edi.

Qirol saroyida qirolning oila a’zolari, ularning xizmatchilari, ministrlari va erkin xizmatchilar bo‘lib, ular hukumat apparatini tashkil etardi. Bu xizmatchilar va qirolning shaxsiy xizmatkorlari o‘rtasida aniq farqlar yo‘q edi. Ularning vazifalari, funksiyalari qisman qo‘shilib ketgan edi.

Qirol saroyida cherkov va dunyoviy feodallarning kattagina qismi doimiy xizmatda turardi. Ularning orasida ayniqsa **saroy dasturxonchisi, kamerariy, marshal, kapellan, saroybon, kansler** va boshqalar ajralib turardi. **Kansler** - asosiy mansabdor shaxs bo‘lib, u deyarli barcha boshqaruv ishlarini yuritgan. **Saroybon** (mayordam) ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, saroy ishlarini yuritardi.

Mamlakatda xizmatchilar tabaqasi ministrlardan iborat tarkibda bo‘lib, ularning funksiyalari faqat saroy xizmatlari bilan cheklanmas edi. Madomiki, davlatda boshqa ijroiya hokimiyat organlari bo‘lmagan ekan, ministrlar hukumat ishlarini yuritishgan. Asta-sekin ular chinovniklarni ikkinchi o‘ringa siqib chiqara borgan.

Mamlakatning siyosiy hayotida **feodallarning s’yezdlari** juda katta rol o‘ynagan. Feodallarning s’yezdlarida eng muhim ichki va tashqi siyosiy masalalar hal qilinardi. Ular mustaqil organ sifatida ba’zan qirollarni hokimiyatdan chetlashtirardilar. Ularda qirolning vakolatlari belgilangan, qonunlar chiqarilgan, papa bilan muzokaralar olib borilgan, oliy davlat mansabdorlari tayinlangan, lenlar taqdim qilingan va hokazo. Aynan ana shunday feodallarning s’yezdlaridan oqibatda reyxstag kelib chiqqan edi. Bunday s’yezdlarda hal qiluvchi kuch eng yirik feodallar - knyazlar edi.

XI asrning boshida qirol huzurida yirik zadogonlar vakilidan iborat kengash - **goftag** (qirollik kengashi) tashkil etilgan. U imperator bilan birgalikda ancha muhim davlat ishlarini hal qilardi.

Germaniya **mahalliy boshqaruvi** tizimidagi o‘ziga xos hususiyatlardan biri shunday ediki, bu yerda uzoq vaqt davomida alohida qabilaviy gersoglar mavjud bo‘lib turadi. X-XI asrlarda feodal yer egaligining o‘sishi va mamlakat aholisining etnik jipslashuvi natijasida ilk feodal tashkilotlar tizimi yemirildi. Gersogliklar yopiq siyosiy tashkilotlar bo‘lmish hududiy knyazliklarga aylandi. Knyazlar deyarli to‘la suverenitetga ega edi va faqat nomigagina qirolga itoat etardilar. Feodallarning knyazlarga aylanishi ularning o‘z hududlari doirasida butun yerlarga nisbatan oliy huquqlarining o‘rnatilishi va immunitet va imtiyozlarni qo‘lga kiritishi yo‘li bilan amalga oshirildi.

XI asr oxiriga kelib monarxiyaning saylov tamoyillari tantana qildi. Qirollar knyazlar tomonidan saylab qo‘yiladigan bo‘ldi. Kimda-kim

qirolni saylashda ishtirok etmasa, u o‘zini qirol hokimiyatidan mustaqil deb hisoblagan.

Imperiya **qurolli kuchlari** ikkiga: imperiya armiyasi va knyazliklar qo‘shinlari ajralgan. Qirollik (imperatorlik) qo‘shini uning vassallari tomonidan taqdim qilinadigan jangchilardan iborat edi. Dunyoviy va diniy knyazlar tomonidan taqdim qilinadigan jangchilar sonini imperator o‘rnatgan. Shu bilan birga harbiy yurishlarda ishtirok etish shartlari feodal odatlar va feodallar s’yezdlarining qarorlari bilan ham belgilangan.

Armiyaning oliy bosh qo‘mondoni imperator bo‘lgan. Feodallar, shuningdek, imperiya shaharlari qirolga harbiy xizmat o‘tash majburiyatiga ega edilar. Qo‘shinlar feodal egaliklar bo‘yicha joylashtirilgan va feodallar qo‘mondonligi ostida bo‘lgan. Bu asosan graflar va yuzboshilar orqali amalga oshirilardi. Og‘ir qurollangan kavaleriya (ritsarlar) armiyada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan.

XII asrga qadar mamlakatga tashqaridan hujum bo‘lgan paytlarda dehqonlar ham armiyaga xalq lashkarlari sifatida chaqirilib turilardi. Biroq, umuman, Germaniya armiyasi german imperatorlarning «dunyoga hokim bo‘lish» rejalarini amalga oshirishlari uchun xizmat qilgan.

Germaniyaning **sud tizimi** korolinglar monarxiyasidan meros qilib olingandi. Imperator oliy sudya hisoblangan. Lekin uning sud hokimiyati qisqarib borgan. Knyazlik boshqaruvining shakllana borishi bilan imperatorning sud hokimiyati qisqarib, dunyoviy va diniy knyazlarning sud hokimiyati kengayib borgan, sud tizimi tobora murakkablashgan va ko‘p bosqichli xarakter kasb eta boshlagan. Feodallar dastlab o‘z krepostnoy dehqonlari ustidan sud qilish huquqiga ega edilar. Endi esa ularning yurisdiksiyasi (sud qilish huquqi) ularga qarashli yerlarda yashovchi barcha aholiga tarqaldi. Germaniyada «tenglar sudi» tamoyili asosida harakat qiluvchi tabaqa sudlari: knyazlik, graflik, sheffen sudlari va boshqalar mavjud edi. Feodallarning sudlari oliy va quyi pog‘onaga bo‘lingan. Shuningdek, cherkov sudlari ham mavjud edi. Shaharlar ham o‘z yurisdiksiyasiga ega bo‘lgan. Feodallarga qaram bo‘lgan shaharlarda sud senorlarning vakillari qo‘lida edi. Erkinlik xartiyalarini qo‘lga kiritgan shaharlarda esa shahar huquqi normalari asosida harakat qiluvchi shahar sudlari ayni vaqtda shahar huquqining yanada rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Germaniyada joylarda o‘zini o‘zi sud qilish va mushtumzo‘rlar sudi keng tarqalgan edi. Vassallar o‘z nizolarini qurol yo‘li bilan hal qilishlari mumkin edi. 1285 yilda Fridrix II o‘zini o‘zi sud qilishni faqat sud qaroridan qanoatlanmagan taqdirdagina qonuniy ekanligini o‘rnatdi.

3. Germaniyada kurfyuristlar oligarxiyasi va tabaqa-vakillik monarxiyasi davri (XIII-XVII asrlar)da ijtimoiy-siyosiy tuzumda yuz bergan o‘zgarishlar

Ijtimoiy tuzumdagi o`zgarishlar

XIII-XIV asrlardan Germaniya iqtisodiy yuksala boshladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar ko‘zga ko‘rinarli darajada o‘sdi. Ayni zamonda, Germaniyada shaharlarning rivojlanishi bu asrlarda juda avj oldi. Savdo-sanoat taraqqiy eta boshladi. Biroq, mamlakatda tovar xo‘jaligi rivojlana boshlanishiga qaramay, Germaniya har qalay tarqoq va qoloq feodal mamlakat bo‘lib qolmoqda edi. Gersogliklarda ham boshqa dunyoviy va ruhoniy knyazliklar soni ko‘paymoqda edi. Imperator boshqa yirik feodallar orasida syuzeren, ya’ni oliy senor bo‘lib qolmoqda edi. Yirik feodallar bu vaqtda uzil-kesil voris hududiy knyazlarga aylanib bormoqda edi. Mahalliy tovar aloqalarining rivojlanishi ularning mahalliy hokim sifatidagi rolini kuchaytirardi. Markaziy qirollik-imperatorlik hokimiyati esa shaharlar bilan zaif bog‘langan edi. Ma’lumki, Fransiya va Angliyada shaharlarning qirol hokimiyati bilan siyosiy ittifoqi mavjud bo‘lgan. Germaniyada esa shaharlarning qirol hokimiyati bilan bunday siyosiy ittifoqi yuzaga kelmadi. Germaniya qirollari, jumladan, shaharlarning mahalliy feodallarga qarshi olib borgan kurashida shaharlarga biror-bir jiddiy ko‘mak berganlari yo‘q. Qisman bunga sabab shuki, nemis shaharlari siyosiy sahnaga keyinroq chiqdi. Bir qancha hollarda ichki savdoga nisbatan tashqi, qisman tranzit savdo-sotiqning ustunligi ham bu yerda ma’lum rol o‘ynaydi. Biroq Germaniyada qirol hokimiyatining shaharlar bilan ittifoqining yo‘qligiga asosiy sabab - german imperatorlarining agressiv tashqi siyosat olib borishlari edi. Italiyadagi urushlar, boy italyan shaharlarining ekspluatatsiya qilinishi, «dunyoga hokim bo‘lish» rejalari, Sharqiy Yevropadagi va Yaqin Sharqdagi bosqinchiliklar - mana bularning hammasi qirollar - imperatorlarni Germaniyadagi ichki siyosat vazifalaridan chetga chalg‘itib, ularni nemis shaharlari taqdiriga befarq qaraydigan qilib qo‘ygandi. Ayni vaqtda tugalmas urushlar imperatorlarni yirik va mayda feodallarga (knyazlar va ritsarlarga) tamomila qaram qilib qo‘ydi. Chunki imperatorning harbiy resurslari ana shu yirik va mayda feodallarning o‘z zimmalaridagi vassallik majburiyatlarini bajarishlariga butkul bog‘liq edi.

Germaniyada krepostnoy huquqning zaiflashishi muvaqqat hodisa bo‘ldi. XIV asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran feodallar reaktsiyasi maydonga kela boshlab, u pomeshchiklarning barshchinani qaytadan

tiklash hamda har qanday natural va pul yig‘imlarini kuchaytirish yo‘lidagi urunishlarda ifodalandi. Ayni vaqtda feodallar jamoa yerlari (almenda)ni bosib olaverdilar va shu tarzda dehqon xo‘jaligi resurslariga qattiq putur yetkazdilar.

Elba daryosining sharq tomonidagi kolonizatsiya qilingan slavyan yerlarida istiqomat qiluvchi nemis dehqonlarining ahvoli ancha qulay edi. Dehqon - kolonistlarning katta chek yerlariga ega bo‘lishi va mahalliy hududiy knyazlarga belgilab qo‘yilgan to‘lovlarnigina to‘lashi Elba daryosining bu tomonidagi dehqonlarga iqtisodiy mustaqillikni va shaxsiy erkinlikni uzoq vaqtgacha saqlab qolish imkoniyatini berdi. Biroq dehqonlar bilan bir qatorda ularning qo‘shnisi - pomeshchik (ritsar yoki dvoryanlik unvonini olgan shults[40]) yashar va xo‘jalik bilan shug‘ullanardi. Shuls qishloqqa asta-sekin o‘z ta’sirini kuchaytira bordi.

Pomeshchiklar dehqonlardan soliqlar undirish huquqini knyazlardan sotib olardilar, kam quvvat dehqonlarning xo‘jalik (ro‘zg‘or) qiyinchiliklaridan foydalanar va turli yo‘llar bilan o‘z yer-mulklarini ko‘paytirardilar. Dastlabki paytda 4-6 dehqon gufiga teng keladigan ritsarlik chek yeri XV asrga kelganda o‘rta hisobda 20 gufgacha edi. Shu tariqa Elba daryosining bu tomonida ham krepostnoy huquqning avj olishi uchun shart-sharoit yaratildi.

Germaniyada tabaqa-vakillik monarxiyasi davrida joylarda knyazlarning mavqei juda oshib ketdi va ular imperatordan deyarli mustaqil bo‘lib qoldilar. O‘rta hol dvoryanlar kamayib ketdi. Ularning bir qismi knyazlarning mavqeigacha ko‘tarildi, bir qismi xonavayron bo‘ldi, boshqa bir qismi knyazlarga yoki imperatorga feodal qaramlikka tushib qoldi.

O‘q otish qurolining paydo bo‘lishi va harbiy ishlarning takomillashib borishi natijasida ritsarlar (chavandozlar)ning ilgarigi ahamiyati yo‘qoldi. Feodallar tabaqasining o‘zgalar uchun bekiqligiga chek qo‘yildi.

Ruhoniylar holatida ham katta o‘zgarishlar ro‘y bergan. Shahar aholisi ancha tabaqalashib ketdi. Dehqonlarning ahvoli juda yomonlashdi.

Feodalizmning rivojlanishi jamiyatning tabaqa-sinfiy tuzilishida o‘zgarishlar yasadi. Yuqori tabaqalar - aristokratlar va quyida turuvchi dvoryanlar o‘rtasida juda katta farq mavjud edi. Kam sonli dunyoviy va ruhoniy feodallar - kurfyurstlar jamiyatning yuqori tabaqasini tashkil etib, o‘z qo‘lida juda katta yer-mulklarni va boyliklarni ushlab turardi. O‘rta hol dvoryanlar deyarli yo‘qolib ketgandi. XIV asrdan boshlab quyi dvoryanlarning asosiy qismini ministrlar tashkil etgan. Ular hukmdorlarning xizmatchilari sifatida ritsarlikka kirish huquqiga ega edilar. Shu tariqa ular erkin bo‘lib qolar va dvoryanlik unvonini olardilar. Bu jarayon ritsarlik-

[40] **Shuls –** Elba daryosining bu tomonida mayda sud huquqlariga ega bo`lgan qishloq oqsoqoli bo`lib, ko`rsatgan xizmati badaliga odatda ikki va uch hissa ortiq chek yer olardi.

ning rivojlanishiga mos kelgan. Bu vaqtda faqat dvoryanlardan kelib chiqqan shaxslar ritsar bo‘lishi mumkin degan qarash batamom rasmiylashdi. Keyinchalik, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan ritsarlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, ko‘pgina ritsarlar xonavayron bo‘lgan.

Bu davrda nemis shaharlari uch turga: 1) ilgari bevosita qirolning vassallari bo‘lgan imperiya shaharlari; 2) soliqlar to‘lamaydigan va to‘la o‘zini o‘zi boshqarish huquqiga ega bo‘lgan shaharlar; 3) knyazliklardagi va statusi knyazlar tomonidan belgilanadigan shaharlarga bo‘lingan. Shaharlarning aholisi o‘z ijtimoiy tarkibi bo‘yicha bir xil emasdi. Shahar aholisining yuqori qatlamlari - patritsiatni savdogarlar va yer egalari tashkil etgan. Ulardan keyingi pog‘onada hunarmandlar turgan. Eng quyi zvonada esa plebeylar ommasi: shogirdlar, mardikorlar, yollanib ishlaydigan kishilar bo‘lgan.

Qishloq xo‘jaligiga tovar-pul munosabatlarining kirib kelishi natijasida Germaniyaning ijtimoiy tuzumida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu avvalo, dehqonlarning krepostnoy qaramligi kuchsizlanganligida o‘z ifodasini topdi. Ko‘pgina dehqonlar shaxsiy qaramlikdan ozod bo‘la boshladi. Ancha boyigan dehqonlar feodallardan yirik yerlarni ijarachiga olish va buning uchun ijara haqini to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lishgan edi. Ijrachilar bunday yerlarning bir qismini o‘zlarida xususiy xo‘jalik yuritish uchun qoldirgan bo‘lsalar, boshqa qismini kambag‘al dehqonlarga ijaraga berganlar. Yirik ijarachilar vaqt o‘tishi bilan mayda pomeshchiklar bo‘lib qolishdi. Shular bilan bir qatorda dehqonlarning bir qismi erkin emas edi. Ular yer bo‘yicha qaram va shaxsiy qaram dehqonlarga bo‘lingandi. Yer bo‘yicha qaram dehqonlar yerga biriktirib qo‘yilgan bo‘lib, yerdan foydalanganliklari uchun qat’iy o‘rnatib qo‘yilgan turli majburiyatlarni o‘tab turishardi. Shaxsiy qaram dehqonlar zimmasidagi majburiyatlarning miqdori esa aniq o‘rnatib qo‘yilmagan edi. Bu xo‘jayinlarining o‘zboshimchaligi va «ishtahasi»ga bog‘liq edi.

Davlat tuzumi

XIII-XV asrlarda Germaniyaning siyosiy tuzumi Fransiya va Angliyanikidan farqli o‘laroq, tarqoqligi va imperator hokimiyatining zaifligi bilan xarakterlanadi. Bu vaqtda Germaniya siyosiy jihatdan tarqoq bo‘lib, ko‘pgina mustaqil feadal knyazliklarga bo‘linib ketgan edi.

Shtaufenlar halokatidan keyin (1268 yilda fransuzlar bu sulolaning so‘nggi vakili Konradinni asirga olib, uning boshini tanasidan judo qilgan edilar) Germaniyadagi imperatorlik hokimiyati tamomila orqaga ketdi. Uzoq fursat davomida (1254-1273 yillarda) Germaniyada haqiqatda butunlay imperator bo‘lmadi. Germaniyada markaziy hokimiyatning bo‘lmasligi

mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishini butkul to‘xtatib qo‘ydi. Feodallarning urushlari mamlakatni xarob qildi.

Shu tariqa bu davrda knyazlarning hokimiyati kuchayib, imperator hokimiyati zaiflashib ketdi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik kelib chiqdi.

XIII asr oxirlarida Germaniya amalda yettita eng yirik knyazlar: uchta ruhoniy knyaz - Maynts, Kyoln va Trir arxiyepiskoplari va to‘rtta dunyoviy knyaz - Bogemiya qiroli (Chexiya qiroli), Reyn pfaltsgrafi, Saksoniya gersogi va Brandenburg markgrafi tomonidan idora qilinardi. Ular «Shvab zertsalosi»da aytilganidek, kurfyurstlar (saylovchilar) deb atalib, imperatorni saylab qo‘yardilar. Kurfyurstlar imperatorni saylash huquqigagina emas, balki uni taxtdan ag‘darib tashlash huquqiga ham ega edilar. Bu, keyinchalik, **1356 yilgi «Oltin bulla»**da ham yanada mustahkamlandi. «Oltin bulla» kurfyurstlarni o‘z knyazlik mulklarida tamomila suveren hokimlik huquqlariga egadirlar, deb tan olgan edi.

Kurfyurstlar, tez orada imperiya toj-taxtini tassarruf qilish huquqlaridan batamom foydalandilar. Karl IV ning o‘g‘li imperator Vatslav feodallarga qarshi kurashayotgan shaharlarga ko‘mak berishga harakat qilganligi uchun knyazlar 1450 yilda uni taxtdan ag‘dardilar[41]. Bu sulolaning ikkinchi imperatori, ya’ni Karl IV ning boshqa o‘g‘li - Sigzmund (1410-1437 yillar) kurfyuristlar qo‘lida endi itoatgo‘y qurol bo‘lib qoldi.

«Oltin bulla»da kurfyurstlarning soni, tarkibi o‘rnatilib, har yili kurfyuristlar s’yezdi chaqirilishi ko‘rsatilgan. Unga yuqoridagi yettita kurfyurstlar kirgan. Kurfyurstlar o‘z mol-mulklarini, tog‘-kon boyliklariga egalik qilish kabi huquqlarini o‘zlarida saqlab qoldilar. Kurfyurstlarga keng sudlov huquqi ham berilib, ular umumimperiya sudida qatnashganlar hamda daxlsizlik huquqidan foydalanganlar. Kurfyurstlar asta-sekin imperatorni saylashda uning oldiga maxsus shartlar qo‘ya boshlaganlar. Bu shartlar XVI asrdan boshlab «saylov kapitulyatsiyasi»[42] degan nom olgan. Bunda imperator kurfyurstlarning shartiga ko‘nib, ularning talablariga javob beradigan bo‘ldi.

Bu davrda imperatordan tashqari yana ikkita imperiya muassasasi - **reyxstag** va **imperiya sudi** mavjud edi.

Vaqti-vaqti bilan yig‘ilib turadigan imperator reyxstaglarida ham kurfyurstlar katta rol o‘ynar edilar. German shaharlari (imperiya shaharlari deb ataladigan shaharlar) ham ana shu imperiya toifa vakillarining s’yezd-

[41] Imperatorlik taxtidan ag`darilgan Vatslav Chexiya qiroli bo`lib qolaverdi (1419 yilda vafot etdi).

[42] **Kapitulatsiya –** lotincha capitulatio, capitulo-shartlashaman, kelishaman degan so`zdan olinib, taslim bo`lish, tiz cho`kish, tengsiz, bir tomonlama imtiyozli shartnoma, tan berish, ma'nolarini anglatadi.

larida qatnashardilar. Ammo ularning ishtiroki to‘liq bo‘lmasdi. Shaharlar vakillarining qaramog‘iga odatda umumdavlat masalalari topshirilmay, balki shaharlarning o‘zlariga bevosita taalluqli masalalargina topshirilardi. Yirik feodal-knyazlarga nisbatan mayda ritsarlarning reyxstaglardagi ta’siri ham juda oz edi. Mayda dvoryanlar va dehqonlar reyxstagdagi o‘zlarining maxsus vakillariga ega emas edilar.

Shu tariqa reyxstag XIV asrdan doimiy tuziladigan organ bo‘lib qoldi. U imperiya seymi deb ham yuritilgan va quyidagi uchta kollegiya: kurfyuristlar kollegiyasi; knyazlar, graflar va ozod hukmdorlar kollegiyasi; shahar vakillari kollegiyasidan iborat bo‘lgan. Bu kollegiyalar odatda alohida-alohida yig‘ilishardi. Faqat tantanali va favqulodda hollarda birgalikda majlislar o‘tkazishgan (XVII asrdan boshlab kollegiya imperiya tabaqalari yoki chinlari degan nom olgan edi).

Reyxstag odatda imperator tomonidan bir yilda ikki marta, ba’zan esa bir necha yilda bir marta chaqirilardi. Shuni aytib o‘tish lozimki, XI asrning boshidanoq kurfyurstlar kollegiyasi reyxstagni o‘z vaqtida (har olti oyda) chaqirilishini kuzatib turish huquqini qo‘lga kiritib olgan edi. Masalalar kuriyalar bo‘yicha alohida-alohida muhokama qilinib, so‘ngra barcha kuriyalarning umumiy yig‘ilishida oxirgi qaror chiqarilardi.

Reyxstagning kompetensiyasi ancha keng bo‘lgan. U knyazlar o‘rtasida tinchlik o‘rnatish, umumimperiya qurolli kuchlarini tashkil etish, urush va tinchlik, boshqa davlatlar bilan aloqalar o‘rnatish, umumimperiya soliq va majburiyatlarini belgilash, imperiya va knyazliklar doirasida hududiy o‘zgartishlar qilish, imperiya hududini o‘zgartirish va boshqa shu kabi masalalarni hal qilgan. Reyxstag qarorlari imperiya tarkibiga kiruvchi o‘lkalarning idoralari tomonidan ijroga kiritilgan. Shu sababli reyxstag qarorlarining bajarilishi yetarlicha qattiq bo‘lmagan. Reyxstag majlislari orasidagi davrda imperator o‘z kengashi a’zolari ishtirokida farmonlar chiqarishi mumkin edi, lekin ular reyxstag tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kiritilardi.

Imperator hokimiyati juda kuchsiz edi. Imperator doimiy umumimperiya mablag‘ va vositalariga ega emasdi. Unda hech qanday real hokimiyat: na umumimperiya qo‘shini, na umumimperiya soliqlari, na markaziy sud va ma’muriy apparat bor edi. Ilk feodal qirolliklarda bo‘lganidek, imperator o‘ziga teng boshqa yirik feodallar o‘rtasida avvalgicha birinchi feodal, qirolni saylash va yiqitish huquqiga ega bo‘lgan knyazlar konfederatsiyasining boshlig‘i bo‘lib qolaverdi.

Mamlakat ichida bo‘lib turadigan doimiy nizo va g‘alayonlar knyazlar va imperiya shaharlarini imperator Maksimilian davrida (1493-

1519 yillar) Germaniyada imperator hokimiyatini mustahkamlash choralarini ko‘rishga majbur etdi. Xususan, Maksimilian butun Germaniya ustidan markaziy hokimiyatni kuchaytirmoqchi bo‘ldi. U Germaniyada ham markaziy muassasalar tuzib, hamma tabaqalarni, shu jumladan yirik feodallarni ham bu muassasalar hokimiyati ostiga olishga urindi.

1495 yilda Vormusda chaqirilgan reyxstagda uchta muhim qarorlar qabul qilingan edi. Ularga binoan yerliklar o‘rtasida abadiy tinchlik o‘rnatilgan, ya’ni xususiy urushlar man etilgan; armiya va ma’muriyatni ushlab turish maqsadida imperiya ehtiyojlari uchun soliq joriy qilingan (bu imperiya pfennigi deb atalardi); reyxskamergerixt - imperiya sudi ta’sis etilgan. Lekin bu qarorlar o‘z maqsadiga erisha olmagan. Imperatorning doimiy soliq («imperiya puli») joriy qilish va imperiyaning doimiy armiyasini tuzish yo‘lidagi urinishlari natija bermadi. 1495 yilda to‘plangan reyxstag umumimperiya sudini tuzish lozim deb topdi. Bu sud tarkibida knyazlar ko‘pchilikni tashkil qilishi kerak edi. Knyazlar harbiy ishlar sohasidagi islohotni ham shunday o‘tkazmoqchi bo‘ldilarki, mo‘ljallangan doimiy umumimperiya qo‘shini islohot natijasida knyaz-larga tobe bo‘lib qolishi kerak edi. Pul yetishmasligidan Maksimillian Italiyada harbiy harakatlarni boshlab yubora olmadi, shu tufayli fransuzlarning XV asrning 90-yillari oxiridagi harbiy yurishlari muvaffaqiyatli bo‘lib chiqdi.

Imperator Maksimilian I ning nabirasi Karl V (1519-1555 yillar) ham, garchand ayni vaqtda bir yo‘la bir necha mamlakat (Ispaniya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya va boshqalarning) qiroli bo‘lsa ham, imperator hokimiyatini kuchaytira olmagan. Chunki bunday sharoitda Germaniyada markazlashgan siyosiy hokimiyat o‘rnatish qiyin edi. Karl V ko‘proq jahon davlati tuzish rejasi hamda Fransiya qiroli Fransisk I ga qarshi kurashish masalasi bilan band bo‘lganligi tufayli Germaniyaning ichki ishlariga ko‘p e’tibor berolmas edi, shuning uchun u imperiya hokimiyatining obro‘sini mustahkamlay olmadi, aksincha, imperatorligining so‘nggi yillarida o‘z obro‘sini ancha pasaytirib qo‘ydi.

Xullas, bu davrda Germaniyada reyxstag va reyxskamergerixt (imperiya sudi) kabi umumimperiya organlarining mavjudligi imperiyaning birligini ta'minlay olmadi. Imperiyaning doimiy armiyasi yo‘q edi.

Ma’lumki, Germaniya ko‘p davlatlardan (knyazliklardan) iborat edi. Har bir alohida davlatda ham bir qancha tabaqalar (dindorlar, ritsarlar va shaharliklar) hamda tabaqa-vakillik organlari - **lantaglar** vujudga kelgan edi. Lantaglar knyazliklarda knyazlarning hokimiyatini biroz cheklab turgan. Ba’zi knyazliklarda mazkur tabaqalar majlislariga (lantaglarga) erkin dehqonlarning vakillari ham kirar edi. Lantaglarda odatda tabaqalar

uchta palatani tashkil etganlar, lekin ba’zi yerlarda palatalar ikkita bo‘lgan - ruhoniylar va dvoryanlar birgalikda majlislar o‘tkazishgan. Vakillar o‘z saylovchilaridan majburiy mandatlar xarakteriga ega bo‘lgan yo‘l-yo‘riqlar (instruksiyalar) olishardi. Agar vakillar bunday instruksiyalardan u yoki bu masalani hal etish uchun ko‘rsatmalar topa olmasalar, u holda yana o‘z saylovchilariga tegishlicha ko‘rsatmalar olish uchun murojaat qilardilar.

Lantaglarning kompetensiyasi turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Lantag knyazlikda maxsus sudlarning tashkil etilguniga qadar oliy sud hisoblangan. Keyinroq, maxsus sudlar tuzilganidan so‘ng lantaglarning yurisdiksiyasi ushbu sudlarning ixtiyoriga o‘tgan va lantaglar qator knyazliklarda bunday sudlarga nisbatan appelyatsion instantsiya bo‘lib qolgan. Lantag, shuningdek, sudlarning kompetensiyasiga kirmaydigan masalalarni (masalan, siyosiy masalalarni) ham hal qilgan. Lantaglar knyazliklar kengashlari tarkibini tuzishga va yuqori chinovniklarni tayinlashga ta’sir ko‘rsatib, davlatni boshqarish ishlariga ham aralashganlar.

Lantaglarning kompetensiyasiga hukmron sulolalarda uzilish bo‘lib qolgan hollarda davlat boshlig‘ini saylash, tashqi siyosat sohasida ba’zi funksiyalarni amalga oshirish (masalan, qator german knyazliklarida urush e’lon qilish uchun lantaglarning roziligi talab qilinardi), ba’zi diniy ishlar, politsiyachilik vazifalari (tanga-chaqa pullar chiqarishining sifatliligini kuzatib turish, o‘rmonlarni qo‘riqlash va h.k.), harbiy ishlar kirgan. Soliqlarni ovoz berib tasdiqlash lantaglarning eng muhim huquqi bo‘lgan. Davlat ehtiyojlarining o‘sishi va knyazlar domenlarining kamayishi darajasiga qarab knyazlarning lantaglarga tobora tez-tez subsidiya[43] so‘rab murojaat qilishlariga to‘g‘ri kelgan. Lantag qo‘shinni ushlab turish uchun pul mablag‘lari ajratardi. Bu unga armiyani boshqarishda, qal'alar qurishda va boshqalarda ishtirok etishiga imkoniyat yaratardi.

Shunday qilib, lantaglar ma’lum darajada knyazlarning hokimiyatini cheklab turgan va o‘z mohiyati bo‘yicha reyxstagga qaraganda ko‘proq tabaqa-vakillik organi bo‘lgan. Demak, Germaniyada tabaqa-vakillik monarxiyasi butun imperiya miqyosida emas, alohida knyazliklar doirasida rivojlangan.

Germaniyada **shaharlar** katta rol o‘ynagan. Shaharni boshqarish uning huquqiy holati bilan belgilangan. Imperiya shaharlari ancha katta mustaqillikdan foydalanganlar. Erkin shaharlar imperiya shaharlariga yaqin huquqiy holatga ega edi. Knyazliklarning shaharlari kam huquqlardan foydalangan. XIII-XIV asrlarda bir qancha shaharlar siyosiy erkinliklarni qo‘lga kiritgan va o‘zini o‘zi boshqaradigan bo‘lgan. Shaharlarda

[43] **Subsidiya –** yordamga beriladigan pul, mablag`; pul bilan beriladigan yordam; pul bilan ta'minlash.

qonun chiqarish hokimiyati shahar xo‘jaligining alohida tarmoqlari bo‘yicha komissiyalardan iborat tarkibdagi kengash tomonidan amalga oshirilardi. Ijroiya hokimiyat bir yoki bir necha burgomistrlar boshchiligidagi magistratga tegishli edi. Kengash a’zolari va burgomistrlar xizmatlari evaziga davlatdan (budjetdan) maosh olmasdilar. Dastlab butun shahar boshqaruvi patritsiat[44] qo‘lida to‘plangan. XIV asrda bir qancha shaharlarda patritsiylarga qarshi hunarmandlarning chiqishlari («sex inqiloblari») bo‘lib o‘tgan. Ba’zi shaharlarning g‘olib chiqqan hunarmandlari shahar tuzumida u yoki bu o‘zgarishni amalga oshirishga erishganlar. Hunarmandlar shahar kengashlari tarkibiga kirganlar yoki ilgarigi kengashning tarkibida maxsus kollegiya tuzganlar. Ba’zi shaharlarda shahar qurilishi asosiga sex tuzumi qo‘yilgan.

XIV asrning ikkinchi yarmida shaharlarning mayda ritsarlar va knyazlar tomonidan siqib qo‘yilishiga qarshi kurashish zaruriyatidan shaharlarning ittifoqlari vujudga kela boshlagan.

Sud tuzilishi

Franklar imperiyasining yemirilishi va feodalizmning rivojlanishi yer egalarining pomestyelarida **feodal sudlar**ning tuzilishiga olib keldi. Dastlab yer egasi faqat o‘z krepostnoy dehqoni ustidan sud qilish huquqiga ega edi. Biroq keyinchalik uning yurisdiksiyasi o‘z yerida yashovchi barcha aholiga tarqatilgan. Feodal sudlar XVI asrga qadar tashkil topgan.

Feodal sudlar bilan bir qatorda **cherkov sudlari** ham mavjud edi. Bunday sudlarning yurisdiksiyasi ma’lum doiradagi kishilarga (ruhoniylar va ba’zi darajadagi dunyoviy kishilarga) hamda ma’lum darajadagi ishlarga (nikohlar, diniy vasiyatlar va boshqalar haqidagi ishlarga) tadbiq qilingan.

Uchinchi xil ko‘rinishdagi sudlarni **shahar sudlari** tashkil etgan. Shahar sudlarining tuzilishi alohida shaharlarda turlicha bo‘lgan. Ba’zi shaharlarda sud sudyalar va maslahatchi-sheffenlar tomonidan, boshqa shaharlarda esa shahar kengashlari tomonidan amalga oshirilgan. Ko‘pchilik shaharlarda sudyalarni shahar jamoasi saylardi.

Knyazlik hokimiyatining mustahkamlanishi bilan knyazlikda **oliy sud** tashkil etilgan. Okrug boshqaruvchilari -atamanlar ham sud funksiyalariga ega bo‘lishgan. Bundan tashqari, okruglarda turli-tuman kompetensiyalarga ega bo‘lgan **quyi sudlar** ham mavjud edi.

[44] **Patritsiat –** o`rta asrlarda german imperiyasi erkin shaharlarida badavlat byurgerlar aristokratiyasiga mansub bo`lgan, shahar boshqarmasida ustunlik rolini o`ynovchi kishilar, aslzodalar, oqsuyaklar, zodagonlar.

Vestfaliyada **femlar sudi** deb nomlanadigan maxsus sudlovlilik keng tarqalgan edi. Bu yerda erkin aholining keng qatlamlari saqlanib qolgan bo‘lib, oqibatda sud ishlari «erkin graflar» va «erkin sheffenlar» tomonidan amalga oshirilardi. Ular bunday vakolatni feodal knyazlardan emas, bevosita imperatordan olar edilar.

Sud ishlari asosan ochiq majlislarda o‘tkazilgan. Lekin maxsus hollarda uning majlislari yopiq bo‘lgan. Ba’zi sud ishlari bo‘yicha tergov harakatlari ham olib borilar edi. Hukm odatda ayblanuvchini sudga chaqirmay chiqarilardi. Femlar sudlarida ko‘pincha o‘lim jazosi tayinlanardi. Hukm sud a’zolaridan bittasi tomonidan ijro etilgan. Bunday sudlar Vestfaliya bilan birga boshqa german davlatlarida ham paydo bo‘lgan edi.

4. «Knyazlik absolutizmi» davrida (XVII-XVIII asrlarda) Germaniya

Prussiy

XIV va XV asrlarda nemis sanoati bir qancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu vaqtda sanoatda hali asosan sex tuzumi ustunlik qilardi. Ammo kon sanoatida ancha chuqur shaxtalar ishga solinishi munosabati bilan manfaktura usuli tobora kengroq yoyilib bordi. To‘qimachilik sanoatida shahar atrofidagi va qishloq joylaridagi sexlar bilan bir qatorda korchalon kapitalistcha ishlaydigan xonaki «tarqoq» mafaktura tizimi rivojlanib bordi. Ba’zi joylarda markazlashgan mafaktura ham uchrab turardi. XV asrda va XVI asr boshlarida Germaniya xalqaro savdo-sotiq ishlarida katta rol o‘ynadi. XVI asr boshlarida Germaniyada juda katta bank-sudxo‘rlik firmalari bor edi; bu firmalarning bir qism mablag‘lari ishlab chiqarishda (ko‘proq kon sanoatida) band bo‘lsa, bir qismini ular imperatorga va katta knyazlarga qarzga berardilar.

Umuman, XV asrning oxiri - XVI asrning birinchi yarmi Germaniyaning iqtisodiy yuksalish davri bo‘ldi. Biroq, bu yerdagi iqtisodiy yuksalish Angliya va Fransiyaga qaraganda boshqacharoq bo‘lgan. Germaniyaning bironta ham shahari, masalan, Angliyadagi Londonga o‘xshab, mamlakatning xo‘jalik markaziga aylanmadi. Germaniya iqtisodiy jihatdan juda notekis taraqqiy qilmoqda edi. Juda yaxshi taraqqiy qilgan viloyatlar va okruglar bilan bir qatorda mamlakatning markazida mayda tovar sex tuzumi hukm surardi. Bu yerda juda tor doirada savdo olib boradigan, chet el savdosida ishtirok etish u yoqda tursin, hatto Germaniyaning boshqa rayonlari bilan mol ayirboshlashdan mutlaqo chetda turgan qoloq viloyatlar ham bor edi. Bu vaqtda Angliya va Fransiyada savdo va sanoatning

rivojlanishi mamlakatning markazlashuviga olib keldi. Germaniyada esa bu jarayon alohida knyazlik doirasida yuz berdi va siyosiy tarqoqlikning yanada mustahkamlanishiga sabab bo‘ldi. Germaniya absolutizmining o‘ziga xos xususiyati ham ana shu bilan tavsiflanadi. Germaniyada absolutizm umumimperiya miqyosida emas, XVII asrda har bir german davlatida o‘rnatilgan edi. Bu «knyazlik absolutizmi» degan nom olgan.

Germaniyada absolyut monarxiyaning kelib chiqishiga XVI-XVII asrlarda bo‘lib o‘tgan yirik voqealar: keng antikatolikchilik harakati, 1524-1525 yillardagi dehqonlar urushi va 1618-1648 yillardagi 30 yillik urush shart-sharoitlar yaratgan edi. XVI asrning ikkinchi yarmidagi reformatsiya[45] Germaniyani har jihatdan ajratib tashlash bilan birga yana bir mazhabga asos soldi. Germaniya protestant (shimol) va katolik (janub) qismlarga bo‘linib ketdi.

Reformatsiya qator ijtimoiy harakatlar bilan birga kechdi. Ularning ichida ayniqsa 1524-1525 yillardagi dehqonlar urushi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu urush natijasida ruhoniylar va dvoryanlarning bir qismi hamda urushda qatnashgan knyazlik shaharlarining aholisi xonavayron bo‘ldi, o‘z imtiyozlaridan mahrum etildi va knyazlarga batamom qaramlikka tushdi. Qo‘zg‘olonchilar oldida ob’yektiv ravishda ikkita vazifa: feodal ekspluatatsiyani tugatish va mamlakatni siyosiy birlashtirish vazifalari turardi. Bu vazifalarning ijobiy hal etilishi Germaniyaning burjua yo‘lidan rivojlanishiga yordam berishi mumkin edi. Shuning uchun bunda nemis byurgerlarining mavqei hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Lekin byurgerlar antifeodal urushga rahbarlik qilishga qodir emas edi. Dehqonlarning urushi faqat knyazlar uchun foyda keltirdi. Shaharlarning kuchsizlanishi, dehqonlar urushi davomida dvoryanlarning kamayib ketishi va bir qismini knyazlar hokimiyatidan madad istashga majbur bo‘lishi hisobiga knyazlik hokimiyati kuchayib ketdi. Knyazlar yangi protestant ruhoniylarni ham o‘zlariga bo‘ysundirdilar.

Diniy shiorlar bilan olib borilgan 1618-1648 yillardagi o‘ttiz yillik urush bir qator siyosiy vazifalarni hal qildi. Shimoliy german knyazlari imperator hokimiyatining kuchayishiga va yagona milliy davlat barpo qilishga qarshi kurashganlar. Bu kurashda knyazlarning qo‘li baland kelgan, ularning hokimiyati yanada kuchaygan. Ular imperator hokimiyatidan deyarli mustaqil bo‘lib qolganlar. Vestfaliya sulhida Germaniyadagi knyazlarning oliy huquqlari tan olindi. Ular nafaqat o‘zaro, shuningdek, boshqa xorijiy davlatlar bilan ham ittifoqlar va shartnomalar tuzish

[45] **Reformatsiya –** XVI asrda G`arbiy Yevropada katolik cherkovi va papa hokimiyatiga qarshi olib borgan diniy shakldagi ijtimoiy siyosiy harakat.

huquqlariga ega bo‘ldilar. Vestfaliya sulhi Germaniya davlat tuzumidagi partikulyarizmning to‘la tantana qilishiga olib keldi. Knyazliklar ichida knyazlarning hokimiyati kuchayishda davom etdi.

Shunisi xarakterliki, Germaniyada absolutizm Angliya va Fransiyadagidan farq qilib, siyosiy tarqoqlikni mustahkamladi. Shu tariqa Germaniyada absolutizmning progressiv roli - ijobiy davri bo‘lmadi. Knyazlik absolutizmi mamlakatning iqtisodiy va siyosiy tarqoqligini mustahkamladi.

XVII-XVIII asrlarda Germaniya imperiyasining davlat tuzumi deyarli o‘zgarishsiz saqlanib qoldi. Imperator lavozimi bor-yo‘g‘i faxriy unvon bo‘lib qolgan edi. Knyazlar harbiy majburiyatlardan ozod bo‘lib, imperatorga hech qanday o‘lponlar to‘lamas edilar.

Vestfaliya sulhidan keyin reyxstag deyarli hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Imperiya sudi juda kuchsiz bo‘lib qoldi. Knyazlar uning yurisdiksiyasidan chiqqan edi. German knyazlari o‘z yerlarida imperiyadan mutlaqo mustaqil bo‘lib qoldilar. Dindorlar ham knyazlar hokimiyati ostiga tushib qoldilar. Lantaglar deyarli chaqirilmay qo‘ydi.

Shunday qilib, XVII asrda german knyazliklarida absolutizm o‘rnatilgan va u o‘zining qator xususiyatlari bilan boshqa G‘arbiy Yevropa davlatlari, jumladan, Angliya va Fransiyadagi absolut monarxiyalardan farq qilgan. Birinchidan, Germaniyada absolutizm tabaqa-vakillik monarxiyasi singari butun imperiya miqyosida emas, alohida knyazliklar doirasida vujudga keldi. Ikkinchidan, Germaniyadagi knyazlik absolutizmi feodal reaksiyaning to‘la tantana qilishi, uning burjua harakati ustidan g‘alabasi va kuchsiz nemis burjuaziyasining knyazlar tomonidan bo‘ysundirilishi ifodasi bo‘ldi. Bu vaqtda boshqa mamlakatlarda absolutizmning o‘rnatilishi dvoryanlar va burjaziyaning kuchlari vaqtincha barobar bo‘lib turishi natijasi bo‘lgan edi.

Ko‘pdan-ko‘p german davlatlari orasida ulardan ikkita eng yirigi - Prussiya va Avstriya XVII-XVIII asrlardayoq Yevropa tarixida ancha katta rol o‘ynadi.

XVIII asrga kelganda german davlatlari orasida eng kuchaygani Brandenburg markgrafligi edi. U 1701 yilda Prussiya qirolligiga aylandi. Shu yili Brandenburg kurfyuristi Fridrix III (1688-1713 yillar) imperiyaning xalqaro munosabatlardagi qiyinchiliklaridan foydalanib, Ispaniya merosi uchun olib borilgan urushda o‘zining ishtirok etishi evaziga dastlabki shartlardan biri sifatida Prussiya qiroli unvonini olgan edi. Brandenburg - Prussiya davlati slavyan yerlarini bosib olish yo‘li bilan hamda boshqa nemis knyazliklari hisobiga o‘sib bordi, uning siyosiy

sohadagi yutuqlari esa imperator hokimiyatining zaiflashuvi bilan bevosita bog‘langan edi.

Prussiya monarxiyasi XVIII asrda batamom pruss yunkerlarining harbiy-politsiya davlatiga, dvoryan-krepostniklarning, pruss yunkerlarining sinfiy manfaatlariga xizmat qiladigan monarxiya - harbiy despotiyaga aylandi. Aynan shu vaqtdan boshlab «yunkerlar» degan so‘z feodal-krepostniklik tuzumida burjuaziya talablariga yon berish tomon islohotlar o‘tkazish yo‘lidagi har qanday urinishlarga qarshi o‘zining feodal huquqlari va imtiyozlariga mahkam yopishib olgan eng reaksion dvoryanlar degan tushunchaning sinonimi bo‘lib qolgan edi.

Prussiya XVIII asrdan absolut monarxiya shaklidagi davlatga aylandi. Absolut monarxiya kuchli boshqaruv apparatini, ko‘p sonli byurokratiya va armiyani vujudga keltirdi. Prussiyada boshqaruvning politsiya-mirshablik tizimi joriy qilindi. Bu yerda fuqarolarning har qanday shaxsiy huquqlari to‘la inkor etilardi. Pruss qirollari, ayniqsa, Fridrix II (1740-1786 yillar) o‘z davlat tuzumini «ma'rifatli absolutizm» niqobi bilan pardalashga harakat qildi.

Prussiya monarxiyasining ichki siyosati deyarli armiya to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishdangina iborat bo‘ldi. Byurokratik idora apparati shu armiyaning zarur bir qo‘shimchasi bo‘lib, bu apparat faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasa, soliqlarning muntazam suratda kelib tushishini ta'minlab bo‘lmas edi. Nemis tarixchilaridan birining bergan bahosiga qaraganda, Prussiya amaldorlari aksizlar undirish, ya’ni shaharliklardan harbiy soliq yig‘ish jarayonida o‘sib yetishdi. Byurokratik apparatni aqlli va itoatgo‘y ijrochilar bilan to‘ldirish vaqtida Fridrix-Vilgelm I indigenat deb atalgan qoida bilan, ya’ni mahalliy dvoryanlarning provinsiyalardagi lavozimini egallashga bo‘lgan favqulodda huquqi bilan hisoblashib o‘tirmadi. Aksincha, bunga qarama-qarshi tizim qoida bo‘lib qoldi, ya’ni ayrim provinsiyalardagi amaldorlar davlatning boshqa viloyatlaridagi dvoryanlardan, ba’zan esa byurgerlardan ham olinadigan bo‘ldi. Saroyda va yuqori idoralar tepasida odatda dvoryanlardan bo‘lgan ofitserlar turar edi.

Prussiyada markazlashtirilgan boshqaruv tashkil etilgan edi. Davlat tepasida qirol turardi. U imperiyaning kurfyuristlar kollegiyasi tarkibiga kirardi. Fridrix-Vilgelm, hatto «buyuk kurfyurist» degan nom olgan edi, u kuchli harbiy-byurokratik monarxiyaning asoschisi hisoblandi.

Qirol huzurida **Yashirin kengash** mavjud bo‘lib, u davlat boshqaruvining oliy organi edi. Biroq, keyinchalik, Yashirin kengash uchta mustaqil: tashqi ishlar, adliya va ichki ishlar departamentlariga bo‘linib ketganidan so‘ng oliy davlat boshqaruv organi bo‘lmay qoldi.

Markaziy boshqarma 1723 yildan boshlab «moliya, qo‘shin va yer-mulklar oliy bosh boshqarmasi» shaklida tashkil qilingan bo‘lib, bevosita qirolga bo‘ysundirilgan edi. Prussiyada ichki ishlar departamenti ana shunday nomlanar edi. Unga alohida provinsiyalardagi harbiy ishlarni va domen xo‘jaligini yuritishni kuzatib turuvchi harbiy ishlar va domen palatalari bo‘ysundirilgandi. Mamlakatdagi keng tarmoqli politsiya apparati ham ana shu departament qaramog‘ida edi. Politsiyaning o‘zboshimchaligi shunchalik darajada avj olgan ediki, qirolning buyrug‘i bilan hatto Berlin ko‘chalarida ayollarni, agar ularning ko‘ylagi chet eldan keltirilgan gazlamadan tikilgan bo‘lsa, yechintirardilar. Qirolning shaxsan o‘zi har qanday fuqaroni, agar u bekorchi, daydib yurgan bo‘lsa, kaltak bilan savalay berar edi. Fuqarolar faqat qirol omborxonalaridan kofe sotib olishga (albatta ancha yuqori narxlarda) majbur etilgandi. Ana shunday ishlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus amaldorlar mavjud edi.

Armiya va chinovniklar qirol hokimiyatining tayanchi hisoblanardi. Pruss ma’muriyati chinovniklari «nemischa sodiqlik» an’analari ruhida tarbiyalangan edilar. Chinovniklarning xizmatga o‘tishi martabalar haqidagi jadval bilan tartibga solinardi. Xizmat mansabini suiste’mol qilish, tartibga rioya etmaslik va buyruqni bajarmaslik qattiq jazolanardi. Chinovniklik apparati aniq, uyushqoqlik bilan harakat qilardi. Uning boshqa nemis davlatlari uchun namunali hisoblangani ham bejiz emas edi.

Prussiyada **mahalliy boshqaruv** to‘liq markaziy hokimiyatga bo‘ysundirilgan edi, viloyatlarda lantaglar saqlanib qolgandi, lekin ular qirol chinovniklari - landatlar nazorati ostiga olingandi. Landatlar - zemstvo kengashlari dvoryanlar yig‘inlarida tavsiya qilingan nomzodlar orasidan qirol tomonidan tayinlanadigan dvoryanlardan iborat tarkibda edi.

Landatlarning a’zolari dvoryanlarning majlislariga raislik qilardilar. Landatlar dvoryanlar komitetlari bilan birgalikda o‘z tabaqa ishlarini yuritardilar, ya’ni ular toifaviy muassasa bo‘lishgan. Shu bilan birga landatlar zimmasiga umumdavlat funksiyalari ham yuklatilgan edi: ular markaziy hokimiyat organlari hisoblanganlar va soliqlar undirish, politsiyaga boshchilik qilish, rekrut yig‘imlarini uyushtirish ishlari bilan shug‘ullanganlar. Shaharlarni boshqarish ishlari shahar kengashlari (magistratlar)ning a’zolari tomonidan amalga oshirilgan. Yer egalariga votchina politsiyasi va sud ishlarini yuritish, shuningdek, cherkov va maktablar ustidan homiylik qilish huquqlari tegishli edi. Erkin dehqonlarning jamoalarida boshqaruvni oqsoqollar amalga oshirardi. Oqsoqollar ba’zan qishloq aholisining umumiy yig‘inida saylangan, ko‘pincha mulkiy senz asosida yoki meros tariqasida o‘z mansabini egallagan.

Prussiyada **sud mahkamasiga** juda kam e’tibor berildi. Qirolning so‘zlariga qaraganda, dvoryan arzandalaridan armiyaga ham, soliqlar yig‘ishga ham yaramaydigan «kaltafahm mal'unlar» shu mahkamaga yuborilar edi. Fridrix-Vilgelm I ning o‘zi sud idoralarida «bilimdonlik o‘rniga kaltak» ishlatish uchun ko‘p mehnat sarf qildi, chunki bu tadbir pomeshchiklarning krepostnoylar ustidan hukmronligini mustahkamlashga yordam berar edi.

Prussiya armiyasi o‘sha vaqtda Yevropadagi eng ko‘p sonli va intizomli edi. Fridrix II (1740-1786 yillar) davrida Prussiya armiyasi (186 ming soldat) Yevropada birinchi o‘rinni olishga da’vo qildi, bu armiyani boqish uchun 13 million taler[46], ya’ni butun davlat daromadlaridan uchdan ikki qismi ketib turdi.

Ko‘ngildagidek dvoryanlar davlatida, - deb ta’kidlagan edi Fridrix II o‘zining «siyosiy vasiyati»da, - hukumat shunday siyosiy tuzumni tutmog‘i kerakki, unda hamma tadbirlar oldindan yaxshi o‘ylangan bo‘lishi hamda moliya, siyosat va harbiy ish o‘sha bitta maqsadga - davlatni mustahkamlash va uning kuch-qudratini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Avstriya

XVIII asrda G‘arbiy Yevropada Volter, Russo, Didro, Monteske va boshqalarning asarlarida asoslab berilgan ma'rifatparvar-faylasuflar eski ijtimoiy va davlat tuzumlarini sindirib tashlash zarurligini asoslab bergan edilar. Ma'rifatparvarlik ruhidagi adabiyotlar ta’siri ostida qator davlatlarning hukmdorlari o‘z ijtimoiy va davlat tuzumlarini qisman yangilash maqsadlarida ba’zi islohotlar o‘tkazdilar. Ma'rifatparvarlik g‘oyalarining yoyilishi absolutizm davriga to‘g‘ri kelgan edi. Monarxlarning cheklanmagan hokimiyati bilan ma'rifatparvar-faylasuflar tomonidan tavsiya qilingan ba’zi islohotlarni amalga oshirishga intilishlarining qo‘shilib ketishi «ma'rifatli absolutizm» siyosati nomini olgan edi. Avstriya monarxlari tomonidan olib borilgan siyosat ana shunday «ma'rifatli absolutizm» siyosatining yorqin namunasi bo‘ldi.

Knyaz Ventsel Anton Kaunits 1753 yildan boshlab kanslerlik lavozimida ishlab, Avstriyaning atoqli diplomati, degan nom bilan shuhrat qozondi va «ma'rifatli absolutizm» ruhida o‘tkaziladigan islohotlar tarafdori bo‘ldi.

Ma'rifatli absolutizm deb atalmish idora usuli XVIII asrda Yevropadagi, ayniqsa Yevropaning sharqidagi qoloq davlatlar uchun xos bir narsa edi. Bu nom shundan kelib chiqqan ediki, bu monarxiyalarning podsholari o‘z islohotchilik faoliyatida fransuz burjua «ma'rifatchilari» tomonidan ilgari surilgan ba’zi g‘oyalardan foydalangan edilar. Biroq bu

[46] **Taler –** eski nemis kumush tangasi.

monarxiyalarda mazkur g‘oyalar xizmat qilgan maqsadlar fransuz ma'rifatli mafkurasining progressiv tomonlariga mutlaqo qarama-qarshi edi. Haqiqatda feodal monarxlar «ma'rifatchilar» mafkurasining konservativ tomonidangina mo‘'tadil burjuaziyaning (dehqon-plebeylar revolutsiyasidan qo‘rqib) «ma'rifatli» qirollarga ishonishidangina foydalandilar. Sharqiy Yevropadagi qoloq davlatlarda «ma'rifatchilik» mafkurasi absolut monarxiyani mustahkamlash vositasi bo‘lib xizmat qildi, xususan kelib chiqishi juda murakkab va o‘zi ko‘p millatli bo‘lgan Avstriya kabi monarxiya o‘lkalari va viloyatlarining partikulyarizmiga asos bo‘lgan mahalliy, toifaviy va korporativ imtiyozlarga qarshi kurash vositasi bo‘lib xizmat qildi.

Absolut monarxlar o‘rta asrlarda vujudga kelgan katoliklar cherkovi kabi muassasani ham davlatga bo‘ysundirdi. Dinni davlatning quroliga aylantirishga qaratilgan bu intilishni absolut monarxlar «ma'rifatchilar»dan olingan diniy skeptitsizm bilan va hatto dinni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mazax qilish bilan xaspo‘shladi. XVIII asrda o‘tgan yuqori martabali «erkin fikr yurituvchilar» dinni avom xalqdagi nodonlik va xurofotning namoyon bo‘lishi deb bilar edi. Ammo, ular ma'rifatchilik bilan har qancha «erkin fikr yuritishlari»ga qaramay, dinga xalqni itoatgo‘ylikda saqlash ishiga naf yetkazadigan narsa sifatida qarar edilar.

Shu bilan bir vaqtda «ma'rifatli» monarxlar kapitalistik xo‘jalik rivojini rag‘batlantirish, sexlarning o‘rta asrlardan qolgan ba’zi imtiyozlarini bekor qilish yo‘li bilan burjua oppozitsiyasining kuchini qirqib qo‘ygan edilar. O‘z-o‘zidan ma’lumki, ular banday qilish bilan o‘z daromadlarini ko‘paytirishga intilgan edilar. Ular Avstriyada savdo-sotiq ishlarining va manufakturaning rivojini rag‘batlantirdilar, hatto ba’zan dehqonlarni shaxsiy qaramlikdan ozod qildilar (kapitalistik sanoat uchun erkin ishchilar kerak edi), maktab va universitetlar ochib, o‘zlarini fan bilan san’at homiylari deb e’lon qildilar. Ikkinchi tomondan, «ma'rifatli absolutizm» islohotlarining o‘tkazilishiga ba’zan dehqonlar harakatining yuksalib, dahshat solishi sabab bo‘ldi.

Avstriyada ayniqsa Iosif II faoliyati «ma'rifatli absolutizm»ning yaqqol namunasidir.

Avstriya ko‘p millatli davlat edi. Bu yerda XVIII asrda kuchayib borayotgan Prussiyadan farqli o‘laroq, murakkab vaziyat vujudga kelgandi. Bu asosan toj-taxt uchun kurash bilan bog‘liq bo‘ldi. Karl VI o‘limidan so‘ng taxtga yagona voris Mariya-Tereziya edi. Lekin german qonunlariga binoan ayol kishi taxt vorisi bo‘lolmasdi. Shu sababli Mariya-Tereziya Avstriya hukmdori bo‘lib olgach, o‘z islohotlarini avvalo harbiy

sohaga qaratdi. Rekrut olish usullari keskin suratda o‘zgardi, oqibatda armiyadagi oddiy askarlar tarkibi ham o‘zgardi. Ilgarigi vaqtlarda keng rasm bo‘lgan rekrut olish tizimi o‘rniga harbiy okruglar bo‘yicha alohida («konskriptsion») ro‘yxatlar asosida quyi darajali rekrutlar olish joriy etildi. Dvoryanlar, ruhoniylar, amaldorlar, hatto badavlat byurgerlar ham rekrutlik majburiyatidan ozod qilindi. Harbiy xizmatning butun og‘irligi kambag‘al dehqonlar, manufaktura ishchilari, hunarmandlar ustiga tushdi. Rekrutlarning aksar qismi, elementar harbiy ta'lim olganidan keyin hukumatga ortiqcha tashvish tug‘dirmasin deb, muddatsiz ta'til berilib, uyiga jo‘natilar edi; ular chaqirilishi bilanoq harbiy qismga yetib borishlari kerak edi. «Muddatsiz ta'tildagilar»ning butun umri harbiy xizmatga chaqirilish xavfi ostida o‘tar edi.

Bu konskripsion tizimdan hamma norozi edi: undan pomeshchiklar ham (ular xizmatkorlaridan ayrilib qolmoqda va hovli-joylariga zo‘rlik bilan askarlar joylashtirilishi natijasida musibat tortmoqda edi), shahar magistratlari ham (armiya tuzish va uning ta’minoti uchun qilinadigan xarajatlar shu magistratlar ustiga tushayotgan edi) norozi edi.

Avstriya hukumati, shu yo‘sinda Prussiyaga qarshi kurashni davom ettirishga tayyorgarlik ko‘rayotib, 1749 yilda armiyani Prussiya armiyasi taxlitida qayta tashkil qilishga kirishdi; askarlar soni ko‘paytirilib, avval 108 mingga yetkazildi, 80-yillarda esa 278 mingga yetkazildi. Ofitserlarni ishga tayinlashda ularning ijtimoiy kelib chiqishiga kam e’tibor berib, ko‘rsatgan xizmatiga ko‘p e’tibor beriladigan bo‘ldi. Dvoryan va byurgerlardan ko‘plab generallar yetishib chiqdi. Ofitserlardan polk ishlariga doimiy ko‘z-quloq bo‘lib turish, rekrutlar bilan kundalik mashg‘ulotlar o‘tkazish va hokazolar talab qilindi. Ofitser kadrlar tayyorlash uchun harbiy akademiya tashkil etildi.

Dehqonlar qo‘zg‘olonining kuchayib borishidan cho‘chigan Avstriya hukumati XVIII asrning boshlarida bir necha farmon chiqarib, bu farmonlarda pomeshchiklarning dehqonlarga nisbatan qilib kelayotgan beboshligini cheklashga urindi, biroq bu farmonlar qog‘ozdagina qolib, mutlaqo amalga oshmadi. Lekin Yetti yillik urushdan keyin yana katta qo‘zg‘olonlar ko‘tarildi. Natijada 1771 yil 6 iyulda va 1775 yil 13 avgustda dehqonlar tomonidan o‘taladigan barshchina va to‘lanadigan obroklarning aniq me’yorini belgilovchi farmonlar chiqarildi. Barshchina ish kuni 10 soat bo‘lishi sharti bilan haftada uch kun o‘taladigan bo‘ldi, ot-aravada yuk tashib berish majburiyati kamaytirildi, pomeshchiklarning votchina sudi hamda ularning dehqonlarga qarashli yer-suvlariga egalik

qilish huquqlari cheklab qo‘yildi, imperatorning yer-mulklaridagi krepostnoy huquq bekor qilindi.

Mariya-Tereziya chiqargan qonunlar qishloq xo‘jaligidagi mavjud tartiblar negizini o‘zgartirmadi. Yerga egalik qilish shakllariga, krepostnoylikka, butun agrar munosabatlar tuzumiga islohotlar oqibat-natijada uncha daxl qilmadi; dehqonlar yerga biriktirilganicha qolaverdi, barshchina hamda dehqonlar o‘taydigan boshqa ko‘pdan-ko‘p majburiyatlar saqlanib qoldi, nihoyat, pomeshchiklarning mavqei, ularning dehqonlarga hukmronlik qilishi daxlsiz qoldi.

Mariya-Tereziyaning o‘g‘li Iosif II Germaniya imperatori etib saylangach, dehqonlar masalasini yumshatish tadbirlarini ko‘rishda ancha ilgari ketdi. 1781 yil 1 noyabrda Chexiyada, Moraviyada va Avstriya monarxiyasining boshqa o‘lkalarida krepostnoy tutqunlikni yo‘qotish to‘g‘risida mashhur yorliq chiqarildi. Bu yorliqda dehqonlarning krepostnoy tutqunligi bekor qilinib, bu tutqunlik o‘rniga yengil fuqarolik munosabatlari o‘rnatildi, bunday munosabatlar Avstriyaning o‘z o‘lkalarining bir qismida qadimdan hukm surib kelar edi. Fuqarolar shundan keyin ham pomeshchiklarga itoat qilishi kerak bo‘lsa-da, lekin shaxsiy erkinlikka chiqdilar. Dehqonlar endi o‘z xohishicha uylana olar edilar, ular pomeshchiklarning yer-suvlarini o‘z ixtiyorlari bilan tashlab ketish huquqiga ega bo‘lib, o‘zlari xohlagan kasb va hunarni o‘rganishlari mumkin edi.

Fuqarolar xo‘jayinning hovli ishini bajarish majburiyatidan ozod qilingan edilar. Biroq dehqonlar o‘z chek yerlari uchun yer egalari foydasiga barshchina va boshqa majburiyatlarni o‘tashda davom etishlari lozim edi. Dehqonlarning uchastkalari uchun «pomeshchiklar bilan fuqarolarning (dehqonlarning) ixtiyoriy kelishuvi» asosida haq to‘lanadigan bo‘ldi, shu sababli dehqonlarning uchastkalari uchun haq olish keng yoyiladi. 1783-1789 yillarda hukumat dehqonlar o‘taydigan majburiyatlarni birlashgan yer solig‘i joriy qilish va yangidan yer ro‘yxati tuzish yo‘li bilan tartibga solishga urindi.

Hamma majburiyatlar pulga chaqib undiriladigan bo‘ldi, keyin bu pul shunday bir hisob bilan olinar ediki, yalpi daromadning 70 foizi dehqonning o‘zida qoldirilib, 12 foizchasi davlat solig‘i uchun, qolgan 18 foizi esa yer egasiga - pomeshchikka to‘lanardi. Iosif II qo‘shimcha mahsulotni, ya’ni yer rentasini bunday qayta taqsimlash yo‘li bilan davlat daromadini ko‘paytirmoqchi va hukmron sinfni agrar revolutsiya xavfidan saqlab qolmoqchi bo‘lgan edi. Shu tariqa, Iosif II krepostnoy huquqni bekor qildi.

Avstriya imperiyasi siyosiy taraqqiyot sohasida Yevropadagi boshqa davlatlardan juda ham orqada qolgan edi. Gabsburglar qo‘l ostidagi o‘lkalar Iosif II islohotlariga qadar xiyla darajada viloyatlar yoki «yerlar» yig‘indisiligicha qolib ketmoqda edi.

Mamlakat ichida ko‘pdan-ko‘p boj chegaralari va bojxona bo‘lishi siyosiy tarqoqlikni kuchaytirib yuborgan edi, bu boj chegaralari va bojxonalar ichki bozorning tashkil topishini juda ham qiyinlashtirib qo‘ygan edi. O‘rta asr sexchilik tuzumi, ayrim viloyat, shahar va toifalarning imtiyozlari ham davlatning iqtisodiy taraqqiyotiga va birlashuviga to‘g‘anoq bo‘lib kelmoqda edi. Shu sababli davlat qishloq xo‘jaligi va sanoatni rivojlantirish choralarini ko‘rdi, ko‘pdan-ko‘p ichki savdo poshlinalari tugatildi, tashqaridan keltiriladigan tovarlarga nisbatan poshlinalarning miqdori oshirildi, yangi sanoat korxonalari 10 yil muddatga soliqlardan ozod etildi.

Davlatni idora qilish ishining bir qadar bo‘sh markazlashtirilishi katta yer magnatlaridan iborat hukmron to‘dalarning manfaatlariga mos tushar edi, bu magnatlar o‘rta asrlardagi feodallarning siyosiy an’analarini davom ettirar va davlatni mudofaa qilish manfaatlari yoki dehqonlarning qo‘zg‘olonlarini bostirish zarurati talab qilgan vaqtdan boshqa mahalda qirol hokimiyatining haddan tashqari kuchaytirilishiga qarshi edi.

Tabaqa-vakillik monarxiyasining qoldiqlari asosan mahalliy vakolatli muassasalar - lantaglarda yoki seymlarda saqlanib kelmoqda edi, bu muassasalarda to‘rtta toifaning («darajaning»): 1) katoliklar cherkovining prelotlaridan iborat ruhoniylarning; 2) «xo‘jayinlar», ya’ni oqsuyak feodal aristokratiyaning; 3) «ritsarlar», ya’ni asosiy feodallar ommasining va 4) «qirol shaharlari», ya’ni davlat boshlig‘iga bevosita feodal qaram bo‘lgan shahar jamoalarining vakillari bor edi. Bu shaharlarga birinchi ikki toifa (ruhoniylar va «xo‘jayinlar») namoyondalari qo‘l ostidagi shaharlar ham kirar edi. Krepostnoy dehqonlar yuqorida ko‘rsatilgan toifalardan birortasiga ham kirmay, mutlaqo huquqsiz bir ahvolda edilar. Qirolning shaxsan erkin dehqonlari bundan mustasno bo‘lib, ular mahalliy to‘rtinchi toifa - shaharliklar tarkibiga kirar edilar. Viloyatlarning boshliqlari - noiblar bo‘lib, ular toifalar tomonidan mahalliy yer egalaridan saylanar va qirol tomonidan tasdiqlanar edi. Ko‘pincha bu noiblar haqiqatda markaziy hokimiyatning mahalliy vakili bo‘lishdan ko‘ra, ko‘proq viloyat partikulyarizmini umumdavlat muassasalaridan himoya qilar edilar. Markazlashtirish kuchaya borgan sari, ayniqsa XVIII asrda, ular markaziy hokimiyatga tobora ko‘proq tobe bo‘la bordilar.

Juda katta xarajatlarga olib kelgan va dehqonlarga haddan tashqari og‘ir soliqlar solinishiga sabab bo‘lgan harbiy islohot moliya ishlarining tartibga solinishini talab etar edi. Shu maqsad bilan 1749 yilda ichki ishlarni va moliya ishlarini idora etuvchi markaziy organ sifatida Direktoriya tashkil qilindi. 1760-1761 yillarda yuqori davlat muassasalari yana qayta tashkil etildi. Oltita a’zodan iborat Davlat kengashi tuzildi. Bu Kengash a’zolari «din, tartib va kreditni himoya qilishlari» kerak edi. Butun davlat idorasi shu oltita a’zo qo‘lida edi. Byurokratik markazlashtirishni kuchaytirish tadbirlari amalga oshirildi.

Avstriyada sud tizimi tartibga solinmagan edi. Son-sanoqsiz sudlar (shahar sudi va zemstvo sudi, Vena shahar magistrati, gofmarshal sudi) bo‘lib, ularning ish doirasi qat’iy belgilanmagan edi; sudda ko‘riladigan bitta ish ko‘pincha bir suddan ikkinchi sudga yuborilaverardi. Birgina shu narsa qat’iy ediki, u ham bo‘lsa, sudlarning pastdan turib to yuqorigacha toifaligidir. Dvoryanlarni dvoryanlar sud qilar edi, shaharliklar shahar magistratida sud qilinar edi; sud sohasida faqat dehqongina hech qanday huquqqa ega bo‘lmay, ularni pomeshchik o‘z votchina-politsiyachilik hokimiyati bilan ezar edi. Sud ishlarini yuritish sohasida Iosif II ma'rifatchilarning talablaridan kelib chiqib bir qator qonunlar to‘plamlarini tuzdi. Sudda qiynash tartibi bekor qilindi, o‘lim jazosini qo‘llash cheklandi.

Maktabdagi ta'limga dunyoviy yo‘nalish berildi. Cherkov islohotlari katolik cherkov imtiyozlarini chekladi, din erkinligi haqida edikt chiqarildi. Amaldorlar to‘g‘ri soliqlarni qiyinchilik bilan arang yig‘ib olar edi, bir qancha o‘lkalarda egri soliqlar xususiy kishilarga sotilar edi. Bu sotish tizimi davlat daromadlarini kamaytirib yuborish bilan bir vaqtda aholini xonavayron qilardi.

5. O‘rta asrlarda Germaniyada huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalariga umumiy tavsif

V asrdan XI asrgacha bo‘lgan davrda sharqiy franklarning arxaik «xalq» huquqi qabilaviy xarakterga ega edi va uning asosida quyidagi qator prinsiplar: urf-odatlarning muqaddasligi, qarindosh-urug‘larning umumiy «diyonati» va birgalikdagi javobgarligi, qonli qasos olish (bu asta-sekin pul jarimasi bilan almashtirilib borgan), «xudo sudi»ni qo‘llash orqali kollektiv odil sudlovning amalga oshirilishi, ya’ni ordaliyaning qo‘llanishi, qasamxo‘rlik va boshqa ramziy odatlarning saqlanib qolishi kabi prinsiplar yotardi.

Germaniyada qirol hokimiyatining vujudga kelishi va so‘ngra uning tamomila zaiflashib ketishi bu yerda butun o‘rta asrlar mobaynida huquqiy partikulyarizmning mavjud bo‘lib turishiga shart-sharoit yaratgan edi. Rasmiy nuqtai nazardan Germaniyada XII-XIII asrlardan boshlab, agar alohida masalalar bo‘yicha imperator qonunlarini hisobga olmaganda, «umumgerman huquqi» mavjud bo‘lmagan, turli hududiy birliklar va shaharlarning huquqi bo‘lgan.

Bundan tashqari, Germaniyaning o‘rta asrlardagi huquqiy tizimi len huquqi deb nomlanuvchi oliy feodal tabaqaga taalluqli huquqiy normalar kompleksining yaqqol ajratilishi bilan tavsiflanadi. Agar Angliya va ma’lum darajada Fransiyada XIII asrdan boshlab vassalliklenlik munosabatlarini tartibga soluvchi huquq normalari boshqa huquq normalari bilan mustahkam aloqada harakat qilgan bo‘lsa, Germaniyada esa huquqning zemstvoga oid huquqqa (yerlar, hududlar huquqi) va len huquqiga bo‘linishi an’anaviy bo‘lib qolgan edi. Germaniyada len huquqi, zemstvo huquqi, shahar huquqi, kanonik huquq ayni paytda bir xil munosabatlarni (yerga oid, mulkiy, nikoh-oila, meros munosabatlarini) turlicha tartibga solgan. Bunda huquq sub’yektlarining qaysi tabaqaga yoki hududga taalluqliligiga qaralardi. Bu ko‘pincha sud tomonidan aniqlanardi.

Umuman o‘rta asrlar huquqida, xususan german huquqida sud tartibotiga o‘ta sodiqlikni yaqqol ko‘rish mumkin edi. Sud ishlarini yuritish chog‘ida inson «o‘z huquqini izlashi» mumkin.

Germaniyada shunday umumiy huquqiy prinsiplar va institutlar ishlab chiqilgan ediki, kelajakda ular Germaniyaning «umumiy huquqi» asosini tashkil etgan. Bunday prinsiplar germanlarning odat huquqi universal normalari bazasida va XII-XIII asrlardagi german imperatorlarining qonunchilik faoliyatida shakllangan edi. XII-XIII asrlarda imperatorlar va reyxstag tomonidan vaqti-vaqti bilan chiqarilib turgan «tinchlik statutlari»da shaxs mulkini va hayotini qo‘riqlashga va o‘g‘rilarni, o‘t qo‘yuvchilarni, odam o‘ldiruvchilarni va boshqa «tinchlikni buzuvchilarni» turli jazolar bilan qo‘rqitishga qaratilgan me’yorlar mavjud edi. 1103 yildan 1235 yilgacha bo‘lgan davr oralig‘ida ana shunday «tinchlik statutlari»dan 20 tasi chiqarilgan edi. Ularning orasida 1235 yilgi Maynts statuti ancha mashhur bo‘lgan. Unda butun Germaniya aholisi uchun «o‘rnatilgan huquq»ning ba’zi umumiy prinsiplari e’lon qilingan edi. Masalan, unga binoan Germaniyada sudsiz jazolash odati bekor qilinib, majburiy sud tartibi joriy qilingan edi.

German huquqining rivojlanishida odat huquqining mahalliy tizimlashtirilishi ham muhim rol o‘ynagan. Bunda imperiya qonunlari va

sud amaliyoti qoidalari ham hisobga olingan, albatta. Bularga misol tariqasida «Sakson zertsalosi», «Shvab zertsalosi», «Frankon zertsalosi» va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bu to‘plamlarning normalari va prinsiplari ko‘pincha o‘z huquqiy doirasidan ancha chetga chiqib, huquqning birxillashtirilishiga ko‘maklashgan.

“Sakson zersalosi”

1220 yilda sheffen Eyke fon Repgau tomonidan yozilgan ushbu qonunnomada odat huquqining ancha keng tarqalgan normalari va Germaniyaning shimoliy-sharqiy qismida qo‘llanib kelgan sud amaliyoti o‘z aksini topgan. Qonunnoma ikki qismga bo‘lingan. Birinchi qism zemskiy (umumdavlat) huquqiga, ikkinchi qism esa len huquqiga bag‘ishlangan. Birinchi qismda odat huquqi normalari bilan bir qatorda umumdavlat sudlarida «razil, qabih, past» erkin kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan imperator qonunchiligi ham mustahkamlangan. Len huquqi[47] «olijanob, aslzoda» erkin kishilar o‘rtasidagi lenga oid vassallik munosabatlarining tor doirasini tartibga solgan. Qonunnomada rim huquqiga, shahar yoki savdo huquqiga mutlaqo murojaat qilinmaydi va, shuningdek, unda huquq va boshqa yerliklarning huquqi normalari kamdan-kam hollarda eslab o‘tiladi. «Sakson zertsalosi»da fuqarolik, jinoyat, protsessual va qisman davlat huquqi normalari belgilangan.

Shahar huquqi

«Sakson zertsalosi» ko‘pgina german o‘lkalari va shaharlarida tan olingan va 1900 yilga qadar o‘z kuchini yo‘qotmagan.

Yuqori darajadagi bir xillik germanlarning shahar huquqida vujudga kelgan. Bu yerda huquq bir qancha yetuk shaharlarning huquqidan o‘zlashtirib olingan edi. Masalan, Magdeburg qonunlari 80 dan ortiq shaharlarda, Frankfurt qonunlari 49 ta, Lubek qonunlari 43 ta, Myunxen qonunlari 13 ta shaharlarda amalda bo‘lgan. Germaniyada shahar huquqining ikki asosiy «Oilasi» - lyubek huquqi va magdeburg huquqi tashkil topgan. Lubek huquqi Shimoliy shaharlarga va Boltiq bo‘yi mintaqalariga, jumladan Novgorod va Tallinga tarqatilgan va Tamza ittifoqi doirasida hal qiluvchi, belgilovchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Magdeburg shahar huquqi ancha keng hududlarda - sharqiy o‘lkalarda, shuningdek, Sharqiy Saksoniyada, Brandenburgda, Polshaning alohida viloyatlarida harakatda bo‘lgan.

Magdeburg shahar huquqining 1261 yilda Breslauga jo‘natilgan 63 ta moddasi va Gerlitsga 1304 yilda yuborilgan 140 ta moddasi ancha mashhur edi. XIV asrda muayyan tizimga solingan magdeburg-breslau

[47] **Len huquqi –** len olgan vassal bilan feodal o`rtasidagi munosabatlarni belgilovchi huquqlar. Len-feod feodal tomonidan o`z vassaliga berilgan yer-suv, mulk va undan olinadigan soliq, o`lpon.

huquqining 500 ta moddadan iborat 5 ta kitobi nashr qilingan. Birinchi kitob shahar sudyalariga bag‘ishlanib, unda sudyalarning mansabga o‘tirish tartibi, vakolatlari, huquq va majburiyatlari belgilangan. Ikkinchi kitob sud ishlarini yuritish masalalarini o‘z ichiga olgan. Uchinchi kitob turli da’volarga taalluqli bo‘lgan, to‘rtinchi kitob oila va meros huquqiga, beshinchisi - boshqa kitoblarda nazarda tutilmagan turli masalalarni hal etishga bag‘ishlangan.

Shahar huquqi doirasidan asta-sekin huquqning yanada umumiyroq tizimi - **savdo huquqi,** yoki «savdogarlar huquqi» ajralib chiqib, dastlabki vaqtlardanoq milliy xarakter kasb etgan. XIII asrdagi Lubek, Brigga shaharlarining, Ganza ittifoqi ishtirokchilari bo‘lgan boshqa bir qator german shaharlarining statutlarida savdo huquqining bir qancha normalari mavjud edi. Boltiq bo‘yining barcha mamlakatlarida XIV asrning o‘rta-lariga mansub Visbi qonunlari juda katta nufuzga ega bo‘lgan. Unda dengizda yuk tashish va dengiz savdosi masalalari tartibga solingan. Bu port shaharda german, shved, latviyalik va novgorodlik savdogarlar o‘z assotsiatsiyalariga ega bo‘lishgan, biroq Visbi huquqining rivojlanishiga hammadan avval Gamburg va Lubek shahar statutlari ko‘proq ta’sir o‘tkazgan.

German imperiyasining shimoliy-italyan o‘lkalarida ham shahar hu-quqi ancha rivojlangan. Bu yerda Lombard ligasi deb atalgan uyushmaga birlashgan shahar kommunalari tashkil topgan edi. Unga Verona, Venetsiya, Bergamo, Milsi, Parma, Bolonya va boshqalar kirardi. Aynan shu yerda birinchi marta savdo odatlari muayyan bir tizimga solingan (1216 yilgi Milanning «Odatlar kitobi») va turli xil (dengiz, yarmarkaga oid va h.k.) dengiz sudlarining qarorlarini yozish amalga oshirilgan.

Germaniya savdo huquqining muhim manbalaridan biri xalqaro shartnomalardir. Bunday shartnomalar boshqa shaharlar bilan, ularning ittifoqlari bilan va hatto xorijiy monarxlar bilan ham tuzilishi mumkin edi. Ularda savdo ishlarini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar ta'minlanishi haqida kelishib olinardi. Masalan, Kyoln shaharlari bilan ingliz qiroli Genrix II o‘rtasida xuddi shunday shartnoma tuzilganligi ma’lum. Unga binoan, qirol Kyoln savdogarlariga Angliyada savdo ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishni va'da qilgan edi.

XIV-XVI asrlarda Germaniyada ma’lum darajada huquqiy birlikning o‘rnatilishiga rim huquqining o‘zlashtirib olinishi ko‘maklasha boshlagan. XV asrning oxirida davr talabi bilan qayta ishlangan Yustinian Digestalari 1495 yilda tavsiya etilgan Oliy imperiya sudi uchun asosiy huquqiy manba

sifatida tan olingan. XVI asrda rim pandekt huquqi butun imperiya doirasida asosiy huquq manbai bo‘lib qolgan va 1900 yilgi Germaniya fuqarolik qonunnomasining qabul qilinishiga qadar Germaniyaning «umumiy huquqi» sifatida harakatda bo‘lgan.

“Karolina”

1532 yilda Karl V ning jinoiy va jinoiy-protsessual qonunlari to‘plami - «Karolina»ning nashr qilinishi jinoyat huquqining umumgerman prinsipini yaratishga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan. Umum imperiya qonuni sifatida chiqarilgan «Karolina» imperiya huquqini barcha o‘lkalar huquqidan ustunligini, «joylardagi va o‘lkalardagi» jinoiy sud ishlarini yuritishda «o‘ylamasdan qilingan va yomon» odatlarini bekor qilinishini e’lon qilgan. Shu bilan birga u kurfyurstlar, knyazlar va tabaqalar uchun ularning «azaliy va adolatli odatlari»ning saqlanib qolishiga yo‘l qo‘ygan. Biroq qonunnoma knyazlikning yuqori tabaqalari siyosiy manfaatlariga to‘la mos kelganligi, shuningdek, jinoyat huquqi va protsessining o‘z davri talablariga javob berganligi sababli barcha o‘lkalarda huquq manbai sifatida umumiy tan olingan. «Karolina» asosida umumgerman jinoyat huquqi tashkil topgan.

German huquqining bunday birxillashtirilishi jarayoniga qaramay, «umumgerman huquqi» normalari asosan tavsiya etuvchi (maslahat beruvchi) xarakterga ega bo‘lgan va ularning german o‘lkalarida «tan olinishi» darajasiga bog‘liq bo‘lgan. Huquqiy tizimlar ko‘proq alohida hududlar - Germaniya davlatlari bo‘yicha shakllangan.

XIII asrdan Germaniya davlatlarida knyazlik qonunchiligi jadal rivojlana boshladi, odat huquqidan foydalanish cheklanib bordi. Knyazliklarning qonunlarida jinoyat huquqi, meros va savdo huquqiga oid yangi normalar belgilandi. Bunday huquqiy normalar barcha erkin kishilarga qo‘llaniladigan bo‘ldi. Knyazliklar xususiy huquqiy tizimlarining rasmiylashishi jarayoni XVII-XVIII asrlarda, ya’ni «knyazlik absolutizmi»ning o‘rnatilishi davrida mahalliy huquqning kodifikatsiya qilinishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Masalan, XVIII asrning o‘rtasida Bovariyada Fuqarolik kodeksi va jinoyat qonunnomasi qabul qilingan. Avstriyada 1768 yilda jinoyat qonunnomasi - «Tereziana» chiqarilgan, 1787 yilda esa shu yerda yangi jinoyat qonunnomasi qabul qilingan.

Ayniqsa, 1784 yilda chiqarilgan Prussiya umumdavlat qonunnomasi juda mashhur bo‘lgan. Uning manbalarini «Sakson zertsolasi», rim huquqi, Magdeburg va Lubek huquqi, Berlin oliy sudining amaliyoti tashkil etgan. Qonunnoma ikki qismdan iborat bo‘lgan. Birinchi qism fuqarolik huquqiga bag‘ishlangan. Ikkinchi qismda asosan davlat huquqi va jinoyat huquqi normalari, shuningdek tabaqalarning huquqiy holati haqidagi, maktab va

cherkovlar haqidagi normalar belgilangan. Ushbu «kodeks» «ma'rifatli absolutizm» ning hurmatini bajo keltirish sifatida mulkchilikning hozirgi zamon nuqtai nazaridan talqin qilishning ba’zi elementlarini va inson «tabiiy huquq» larining ayrim ko‘rinishlarini o‘zida aks ettirgan. Biroq pruss huquqida amalda boshqacha prinsiplar, jumladan, pruss qirolining cheklanmagan hokimiyati, ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini hech zaruriyatsiz tartibga solish, krepostnoy dehqonlarning huquqsizligi va dvoryanlarning imtiyozli holati kabi prinsiplar ustun turgan. Kodeks axloqiy qoidalarining serobligi, yuridik talqinlarining noaniqligi va kaltak bilan urush singari eskirib qolgan jazo choralari bilan ajralib turgan.

Umumimperiya qonunchiligi

Yuqorida ta’kidlanganidek, XII-XIII asrlarda imperiya markaziy organlarining qarorlari asosan «umumdavlat tinchligi»ni saqlab turish funksiyasini bajargan. Shunga muvofiq, umumimperiya huquqi an’anaviy tarzda asosan jinoiy-huquqiy normalarni belgilagan.

Dastlab tinchlikni saqlab turish mexanizmi shundan iborat bo‘lganki, ularga zo‘ravonliklar qilmasliklari haqida majburiyat (qasam orqali) yuklatilgan edi. Keyinchalik qabul qilingan **statut**larda fuqarolarning hayoti va mulkini himoya qilish to‘g‘risidagi normalar qasamyodlardan mustaqil, imperativ xarakter kasb etgan va ancha keng darajadagi munosabatlarni qamrab ola boshlagan. Masalan, Maynts statutida cherkov yurisdiksiyasiga bo‘ysunmaslik, noqonuniy tarzda yo‘l haqi va boshqa yig‘imlar undirish, fuqarolar va chet elliklarning bexatar erkin ko‘chib yurishiga to‘sqinlik qiluvchi g‘ayriqonuniy soliq va o‘lponlar olish, fuqarolarning turli huquqlarini poymol qiluvchi asossiz da’vo (homiylik huquqida va h.k.) arizalarni berish kabilar tinchlikni buzish hisoblangan va bular uchun jazolar belgilangan. Unda, shuningdek, qalbaki pullar yasash, garovga olingan shaxsni egallab olish, odam o‘ldirish (ayniqsa o‘z otasini o‘ldirish), davlatga xiyonat qilish kabi jinoyatlar uchun ham og‘ir jazolar nazarda tutilgan.

Tinchlik statutlariga muvofiq, jabrlanuvchilar o‘zboshimchalik bilan, o‘z hollaricha sud qilmasliklari lozim edi va bunda «o‘lkalarning oqilona odatlariga asosan adolat bo‘yicha» ishlarni hal qilish uchun sudga murojaat qilishlari kerak edi. Bu prinsip jabrlanuvchi yoki sudya tomonidan buzilsa, ularga kamida jarima solingan, chunki «qayerda huquqning hokimiyati tugasa, o‘sha yerda shafqatsiz o‘zboshimchalik hukm suradi». Sudga murojaat qilmay, g‘ayriqonuniy qasos olish, sud oldida tuzilgan yarashish ahdini buzish, qarzni undirish maqsadida sudyalarning ruxsatisiz birovning mulkini egallab olish qonunga xilof hisoblangan. Bunday xatti-

harakatlarni sodir etgan shaxslar - aybdorlar «qonundan tashqari» deb e’lon qilinishi mumkin edi. Lekin, shu bilan birga ba’zan, agar tomonlar sud qaroridan qanoat hosil qilmasalar, ma’lum qoidalarga rioya etgan holda sudsiz jazolash, urish-kaltaklashga yo‘l qo‘yilgan.

Statutlarda sudlarning tashkil etilishi va faoliyati prinsiplariga alohida e’tibor berilgan. Sudyalik mansabini faqat adolatli kishilar egallashi zarurligi e’lon qilingan, mavqei bo‘yicha yuqori yoki teng guvohlar ishtirokidagi tenglar sudi prinsipi o‘rnatilgan. Imperator yo‘qligida sud ishlariga boshchilik qiluvchi yustitsiariy o‘z shaxsiy sifatlari bilan mansabiga loyiq bo‘lishi, erkin kishilar tabaqasiga mansub bo‘lishi va mansabida «o‘zini yaxshi tutsa», kamida bir yil ishlab berishi lozim edi. Fuqarolarning «huquqlari va mulklari»ga taalluqli sud majlislari yakshanba va bayram kunlaridan tashqari har kuni o‘tkazilar edi. To‘g‘ri, knyazlar va boshqa yuqori martabali shaxslarning huquqlari yoki mulkiy manfaatlari bilan bog‘liq sud majlislari bundan mustasno edi. Juda muhim ishlar bevosita imperator tomonidan ko‘rib hal qilinardi. Yystitsiariyning huzurida dunyoviy kishilardan tanlab olingan maxsus notarius mansabdorlarining bo‘lishi nazarda tutilgan edi. Notarius ariza va shikoyatlarni qabul qilib olish va saqlash, imperatorlik sudida bayonnomalarni yuritish va qarorlarni yozish bilan shug‘ullanishi lozim edi. Ayniqsa, nizoli masalalarni odat huquqiga asosan hal qilinishi mumkin bo‘lgan joyini ko‘rsatgan holda yozib qo‘yilishi tavsiya qilingan.

Shunday qilib, ishlarni «umumiy» german huquqi asosida hal qilish imkonini beruvchi sharoitlar yaratila boshlandi. Shu maqsadda sud qarorlarini saqlash, tizimga solish va o‘rganish uchun doimiy devonxona tuzishga harakat qilingan.

Jazo prinsiplari jinoyat va jinoyatchining xarakteri bilan belgilangan. Jinoyatning «qo‘polligi», shuningdek, retsidivligi (qayta sodir etilganligi) hisobga olingan. Mulkiy huquqbuzarliklar uchun asosan yetkazilgan zararni undirish ko‘zda tutilgan. Jinoyat ishtirokchilari teng darajada jazolanganlar.

«Podshoning g‘azabiga uchrash» - imperator tomonidan kishining «qonundan tashqari» deb e’lon qilinishi alohida ta’kidlangan. Bunday shaxslar obro‘-e’tibori va barcha huquqlaridan mahrum etilgan. «Qonundan tashqari» deb e’lon qilingan kishini bila turib yashirgan kishilarga ham u bilan teng jazo berilgan. Agar shunday jinoyatchini shaharda yashirgan bo‘lsalar, shahar ham jinoiy ta’qib ostiga olingan va devorlari buzilgan.

Tinchlik statutlari imperatorlik huquqining bir qismi bo‘lib, imperiyaning shaxsan german hududlari uchun mo‘ljallangan edi. Italiya

uchun esa ancha keng va chuqur ishlab chiqilgan qonunlar to‘plami chiqarilgan edi.

Imperator qonunchiligining turli huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga jazo berish haqidagi an’anasi XVI asrda «Karolina» nomli huquqiy hujjat chiqarilishi bilan qayta tiklandi. «Karolina»da jinoyat huquqining ba’zi umumiy prinsiplari, shuningdek, jinoyatlar va jazolarning katta ro‘yxati berilgan. Bu qonun sheffenlar uchun sud ishlarini yuritish bo‘yicha amaliy qo‘llanma bo‘lib hisoblangan. Unda jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi normalari aniq tizimga solinmagan va bir-biridan ajratilgan tarzda joylashtirilmagan edi.

«Karolina»da jinoyat huquqiga oid qasd va ehtiyotsizlik, javobgarlikni istisno qiluvchi, yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar, ishtirokchilik kabi umumiy tushunchalar o‘z aksini topgan. Biroq, bu tushunchalar hamma holatlar bo‘yicha aniq ifoda etilmagan edi va faqat alohida turdagi jinoyatlar va jazolarga nisbatan bayon qilingandi.

«Karolina» bo‘yicha, jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik, odatda ayb - qasd yoki ehtiyotsizlik mavjud bo‘lganda kelib chiqqan. Lekin, o‘rta asrlardagi Germaniya huquqi ko‘pincha aybsizlik holatida, boshqa shaxslarning aybi uchun («ob’yektiv ayblash») ham javobgarlik o‘rnatgan. Bundan tashqari, aybni o‘rnatish usullarining qo‘llanilishi ko‘pincha aybsiz kishini javobgarlikka tortilishiga olib kelgan.

«Karolina»da jazoni istisno qiluvchi holatlar odam o‘ldirish jinoyati misolida batafsil bayon qilingan. Masalan, zaruriy mudofaa holatida, ya’ni «uchinchi shaxsning hayoti, tanasi va mulkini himoya qilish» hollarida, xizmat burchi bo‘yicha jinoyatchini qo‘lga olayotganda va boshqa ba’zi holatlarda odam o‘ldirish uchun javobgarlik kelib chiqmasdi. Agar bir kishi boshqa bir kishiga o‘ldiradigan qurol bilan hujum qilsa va jabrlanishi mumkin bo‘lgan shaxs boshqacha tarzda himoyalanishi mumkin bo‘lmay, hujum qilgan shaxsni o‘ldirsa, bu - zaruriy mudofaa hisoblanib, jinoiy javobgarlik keltirib chiqarmagan. Jinoyatchini qo‘lga olish uchun qilingan «qonuniy hujum» natijasida u o‘ldirib qo‘yilsa, bu - zaruriy mudofaa emas, qonuniy chora sifatida jinoiy javobgarlik uchun asos bo‘lmagan. Biroq, hujum qilishni to‘xtatib, niyatidan qaytgan shaxsni ta’qib qilib o‘ldirish ham zaruriy mudofaa hisoblanmagan va bunday holatda odam o‘ldirgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin edi. «Karolina»da zaruriy mudofaaning har bir holatini chuqur va atroflicha qunt bilan tekshirib chiqish zarurligi ko‘rsatilgan. Bunda zaruriy mudofaaning qonuniy ekanligini odam o‘ldirgan shaxsning o‘zi isbotlashi lozim edi. Agar u buni isbotlay olmasa, jazolangan.

«Karolina»da aybni yengillashtiradigan ba’zi holatlar ham nazarda tutilgan. Bularga qasdning yo‘qligi («qo‘pollik», «mulohazasizlik», «yengiltaklik» va «kaltabinlik» oqibatida odam o‘ldirish), jinoyatni «g‘azab va nafrat» natijasida sodir etish kabilar kirgan. O‘g‘rilik jinoyati 14 yoshga to‘lmagan shaxslar tomonidan yoki «bevosita ochlik, yetishmovchilik» natijasida sodir etilgan bo‘lsa, bular aybni yengillashtiruvchi holatlar hisoblangan. Qonunnomada ko‘proq aybni og‘irlashtiruvchi holatlarga e’tibor beriladi. Jinoyatni ochiqdan-ochiq (oshkora), qo‘pol tarzda, «buzuq niyatda», «tahqirlovchi» xarakterda, shuningdek, qayta sodir etilishi, yetkazilgan zararning katta miqdorda bo‘lishi, jinoyatchining «yomon nom chiqargan»ligi, jinoyatning bir guruh shaxslar tomonidan qilinganligi, o‘z xo‘jayiniga nisbatan sodir etilganligi va boshqalar aybni og‘irlashtiruvchi holatlar qatoriga kiritilgan.

«Karolina» jinoyat sodir etishning alohida bosqichlarini bir-biridan ajratib ko‘rsatadi. Jinoyatga suiqasd qilish jinoyatchining istak-irodasiga qarshi amalga oshmay qolgan va qasddan qilingan xatti-harakat sifatida ko‘rilgan. Jinoyatga suiqasd uchun beriladigan jazolar odatda tugallangan jinoyatlar uchun beriladigan jazolar bilan teng darajada bo‘lgan. Qonunnomada ishtirokchilik masalasida ko‘proq sheriklik to‘g‘risida eslatiladi. Bunda asosan uch turdagi sherikchilik ajratib ko‘rsatiladi. Bular: jinoyat sodir etilgunga qadar yordam berish, jinoyat sodir etilayotgan joyda yordam berish va jinoyat sodir etilgandan so‘ng yordam berishdir. Oxirgi holatda jinoyatga «g‘araz maqsadda hamkorlik» qilish va jinoyatni «rahmdillik bilan yashirish» bir-biridan farqlangan, ya’ni keyingi holda yengilroq jazo nazarda tutilgan.

«Karolina»da jinoyat tarkiblari tasniflashtirilmagan, lekin har qalay ularning ba’zi ko‘proq yoki kengroq guruhlari alohida-alohida joylashtirilgan holda sanab o‘tilgan. Unda avvalo dinga qarshi jinoyatlar - dinni, xudoni tahqirlash, muqaddas joylarni tahqirlash, jodugarlik bilan shug‘ullanish, qasamni buzish, shuningdek, xristian axloqi bilan sig‘isha olmaydigan jinoyatlar - tuhmat qilib yozilgan xatlarni tarqatish, monetalar, hujjatlar, og‘irlik o‘lchovlari, savdo ob’yektlarini qalbakilashtirish kabilar ko‘rsatilgan. Ularga axloqqa qarshi jinoyatlar: er yoki xotinning bir-biriga nisbatan xiyonat qilishi, ikki nikohlilik, yaqin qarindoshlar bilan jinsiy aloqa qilish, qo‘shmachilik, nomusga tegish, xotin va qizlarni o‘g‘irlash jinoyatlari ham qo‘shilgan.

Davlatga qarshi jinoyatlar tarkibiga davlatga xiyonat, hokimiyatga qarshi isyon ko‘tarish, «o‘lka tinchligi»ni buzishning turli-tuman ko‘rinishlari: dushmanlik va qasos, bosqinchilik, o‘t qo‘yish, buzuq niyatda

darbadarlik qilish va boshqalar kirgan. Qonunnomada imperator hazrati oliylarini haqorat qilish uchun javobgarlik haqida ham qisman eslab o‘tiladi.

Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar guruhida turli ko‘rinishlardagi odam o‘ldirish jinoyatlari, shuningdek, jinoyatchining o‘zini o‘zi o‘ldirishi alohida ajratib ko‘rsatiladi. Agar jinoyat sodir etgan shaxs o‘z joniga suiqasd qilsa, ya’ni o‘zini o‘zi o‘ldirsa uning merosxo‘rlari merosdan mahrum qilinishi mumkin edi.

Mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlarga turli ko‘rinishlardagi bir qancha o‘g‘irliklar, ishonib topshirilgan mulkni noinsoflik bilan boshqarish kabilar kirgan. Qonunnomada cherkovdagi o‘g‘irlik, shuningdek, asosan aholining kam mulkli tabaqasi tomonidan sodir etiladigan o‘g‘irliklar, ya’ni birovning meva va hosilini, baliqlarini, o‘rmonini kesib, daraxtlarini o‘g‘irlash haqida maxsus ko‘rsatib o‘tilgan. Nihoyat, sudlovga qarshi ba’zi jinoyatlar ham eslab o‘tiladi. Masalan, yolg‘on guvohlik berish, qo‘riqchi tomonidan mahkumning g‘ayriqonuniy suratda ozod qilinishi, qiynash asosida nohaq so‘roq qilish kabilar Qonunnomaga binoan jinoiy javobgarlik keltirib chiqargan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, «Karolina»ning preambulasida garchand «kambag‘al va boylar»ning sud oldidagi tengligi haqida gapirilgan bo‘lsa ham, ammo uning ko‘p moddalarida buning teskarisini kuzatish mumkin. Xususan, Qonunnomaning bir qancha moddalarida jazo tayinlashda jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsning qaysi tabaqaga mansubligi hisobga olinishi zarurligi ta’kidlangan. Masalan, 160-moddada ko‘rsatilishicha, sudya o‘g‘irlik uchun jazo tayinlayotganda o‘g‘irlangan ashyoning qiymatini va boshqa holatlarini, ayniqsa «o‘g‘irlik sodir etgan shaxsning unvoni va mavqeini hisobga olishi lozim». Shuningdek, 158-moddada aslzoda shaxs o‘g‘irlik uchun jinoiy javobgarlikka emas, balki «fuqarolik-huquqiy jazoga» tortilishi mumkinligi nazarda tutilgan. «Umumdavlat tinchligi»ni buzishlik qonunga binoan qattiq jazolangan. Lekin yetkazilgan ozor uchun yoki o‘z xo‘jayinining dushmanidan qasos olishga imperatordan ruxsat olgan shaxslarning «umumdavlat tinchligi»ni buzishi butunlay qonuniy hisoblangan. Aslzoda bo‘lmagan, kambag‘al kishilar jinoyat sodir etganda ularga nisbatan boshqacha jazolar berilgan. To‘g‘ri, Qonunnomada kunduz kuni uncha katta bo‘lmagan miqdorda yoki «bevosita ochlik-nochorlik ehtiyoji»dan o‘g‘irlik sodir etish jinoyati uchun faqat mulkiy javobgarlik nazarda tutilgan. Biroq kambag‘al kishilarning mulkiy zararni to‘lashi nihoyatda og‘ir bo‘lgan. Bundan tashqari, kambag‘al kishilar birovning hosilini, baliqlarini, o‘rmonidan daraxtlarini

kechasi o‘g‘irlasa, ularga nisbatan jazolar yoki sudyalarning xohishiga qarab va mahalliy odatlar bo‘yicha boshqacha jazolar ham berilishi mumkin edi. Qonunnomada, ayniqsa, shubhali bo‘lib ko‘ringan daydi va gadoylar «mamlakat uchun xavfli zulmkorlar» sifatida zudlik bilan va shafqatsiz jazolanishi lozimligi ko‘rsatilgan(39-, 128-moddalar).

Sudyalar sud ishlarini yuritishda va jazolar tayinlashda keng imkoniyatlarga ega bo‘lganlar. Ularning bunday imkoniyatlari faqat bitta ko‘rsatma bilan cheklangan edi, xolos. Qonunga binoan, eng oliy jazo belgilash huquqi rasman imperatorga tegishli edi. Sudlar o‘z xohishlari bo‘yicha tavsiya etilgan jazolardan bittasini yoki bir nechtasini tayinlashlari, mahalliy odatlarni qo‘llashlari, mushkul hollarda esa qonunshunoslarning tushuntirishlariga murojaat qilishlari mumkin bo‘lgan.

Jazolar tizimining asosiy maqsadi - qo‘rqitish edi. «Karolina»da jazolarning quyidagi asosiy turlari nazarda tutilgan: o‘lim jazosi, tana a’zolaridan mahrum etish (tilini, quloqlarini va tananing boshqa a’zolarini kesish) jazolari, tan jazolari (xipchin bilan savalash), sharmanda qiluvchi jazolar (huquqidan mahrum etish, temir bo‘yinbog‘ qo‘yish, tamg‘a bosish), haydab yuborish, turmaga qamash, yetkazilgan zararni undirish va jarima. Qonunnomada o‘lim jazosini anchagina jinoyat uchun qo‘llanilishi mumkinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatib qo‘yilgan edi. U ko‘p hollarda murakkab shaklda - yoqib yuborish, to‘rt bo‘lakka bo‘lib tashlash, charx-palakka tortib o‘ldirish, suvga cho‘ktirish, ayollarga nisbatan - tiriklayin ko‘mish kabi ko‘rinishlarda amalga oshirilgan. Tan jazolari va tana a’zolaridan mahrum qilish jazolari firibgarlik va o‘g‘irlik uchun tayinlanishi mumkin edi. Turmaga qamash, haydab yuborish va sharmanda qilish jazolari ko‘proq qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanilgan. Shuningdek, mol-mulkni musodara qilish, qatl etishdan oldin qizigan ombur bilan siqib qiynash va qatl etish joyiga sudrab borish kabilar ham xuddi shunday qo‘shimcha jazolar edi. Shu bilan birga Qonunnomada «niyati buzuq» va «kelajakda jinoyat qilishga qodir» shaxslar noma’lum muddatga turmaga qamalishi ko‘rsatilgandi.

«Karolina» **jinoyat jarayoni**ning yangi turi o‘rnatilganligidan guvohlik beradi. Germaniyada ilk feodalizm davrida sud ishlari yuritishning ayblov (tortishuvchanlik) jarayoni qo‘llanilgan. Fuqarolik jarayoni jinoyat jarayonidan ajratilmagan edi.

XIII-XIV asrlarda ta’qib qilishning xususiy huquqiy prinsipi ommaviy hokimiyat nomidan ayblash va jazo berish bilan to‘ldirila boshlandi. Dalillar tizimi o‘zgargan. XIII asr oxirida sud dueli qonunan

bekor qilindi. Biroq, Germaniyada yangi, tergov-qidiruv (inkvizitsion[48]) jinoyat jarayonining butunlay o‘rnatilishi rim huquqining andoza (retsepsiya) qilinishi bilan bog‘liq bo‘lgan.

«Karolina» ayblov jarayonining ba’zi belgilarini saqlab qolgan edi. Jabrlanuvchi yoki boshqa da’vogar jinoiy da’vo qilishi, ayblanuvchi esa - ushbu da’voga e'tiroz bildirishi va uni asossiz ekanligini isbotlashi mumkin bo‘lgan. Tomonlarga hujjatlar va guvohlar taqdim qilish, yuristlarning xizmatidan foydalanish huquqi berilgan. Agar ayblov tasdiqlanmasa, da'vogar «yetkazilgan zararning, sharmandalikning o‘rnini to‘ldirishi va sud harajatlarini to‘lashi» lozim edi (13-modda). Biroq tomonlarning bu huquqlari ko‘pdan-ko‘p rasmiy cheklovlar bilan bog‘liq bo‘lgan, ayblanuvchi esa juda kamsitilgan ahvolda edi.

«Karolina»da ko‘rsatilishicha, jinoiy ishlarni ko‘rishning asosiy shakli - inkvizitsion jarayon (zulmga, qiynashga asoslangan qidiruv-tergov jarayoni) bo‘lgan. Ayblov «xizmat vazifasi bo‘yicha» davlat kishisi tomonidan sudyaga taqdim qilingan. Tergov sud tashabbusi bilan olib borilgan va ma’lum muddatlar bilan chegaralanmagan. Gumondor shaxsga nisbatan jismoniy ta’sir etish vositalari keng qo‘llanilgan. Bu vaqtga kelib sud ishlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri, oshkora yuritilishi o‘rniga yashirin va asosan yozma tarzda olib borilishi joriy qilingan.

Inkvizitsion jarayonning asosiy bosqichlari: surishtiruv, umumiy tekshiruv va maxsus tergov bo‘lgan surishtiruvning vazifasi jinoyat sodir etilganlik faktini va bunda gumon qilinuvchi shaxsni o‘rnatish hisoblangan. Buning uchun sudya jinoyat va jinoyatchi haqidagi dastlabki maxfiy ma’lumotlarni yig‘ish bilan shug‘ullangan. Agar sudya kimnidir «umumiy ovoz bilan (ko‘pchilik fikriga ko‘ra-*H.M*.) yoki boshqa ishonarli dalillar, gumonlar va isbotlar bilan aybdor deb hisoblagan» bo‘lsa, u qamoqqa olingan. Umumiy tekshiruvda qamoqqa olingan shaxs ish holatlari haqida, jinoyat haqidagi ba’zi ma’lumotlarni aniqlash maqsadida dastlabki qisqacha so‘rov qilingan. Bunda gumonlanuvchi shaxsning «aybsizlik prezumpsiyasi» prinsipi harakatda bo‘lgan. Nihoyat, yuqoridagi tekshiruv ishlari amalga oshirilib bo‘lingach, maxsus tergov o‘tkazilgan. Bunda jinoyatchi va uning sheriklarini batamom fosh etish va mahkum qilish uchun ayblanuvchi va guvohlar batafsil so‘roq qilingan, dalillar yig‘ilgan.

Maxsus tergov inkvizitsion jarayonning hal qiluvchi bosqichi hisoblangan va hukm chiqarish bilan tugagan. Bu tergov rasmiy dalillar

[48] **Inkvizitsiya –** katolik cherkovining asoratiga qarshi kishilarni ta'qib va sud qilish uchun XIII-XIX asrlarda ta'sis etilgan sud-politsiya tashkiloti; qiynash, azoblash, iskanjaga olish.

nazariyasiga asoslangan. Dalil qonun bilan mufassal va bir xil ma’noda tartibga solingan. Har bir jinoyat uchun «to‘liq va asil dalillar, isbotlar va gumonlar» turlari sanab ko‘rsatilgan. Shu bilan birga umumiy qoida bo‘yicha, barcha dalillar, isbotlar va gumonlar to‘la va oxirgi hukm chiqarilishiga olib kelishi mumkin emas edi. Hukm faqat ayblanuvchining shaxsan tan olishi va guvohlantirilishi asosida chiqarilishi mumkin edi (22-modda). Modomiki, ayblanuvchilar aybini har doim ham ixtiyoriy ravishda tan olavermaganligi sababli ular ko‘pincha qiynash-azoblash yo‘li bilan so‘roq qilinardilar. Inkvizitsion jarayonning mohiyati ham ana shunda edi. Shunday qilib, butun dalillar yig‘ishning maqsadi haqiqatda qiynoq qo‘llash uchun sabablar qidirish bo‘lib qolgan edi.

Qiynoqlar qo‘llash rasman bir qator shart-sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Masalan, agar ish bo‘yicha yetarlicha dalillar topilmagan bo‘lsa, shuningdek, jinoyat u yoki bu shaxs tomonidan sodir qilinganligi «gumon» qilinayotgan bo‘lsa, qiynoqlar qo‘llanilishi mumkin emas edi. Qiynash asosida so‘roq qilish uchun yetarlicha dalillar to‘plangan bo‘lishi lozim edi. Masalan, ikkita asl guvohlarning ko‘rsatmalari qiynoq-azoblash yo‘li bilan so‘roq qilishga yetarli dalil bo‘lgan. Agar bunda faqat bitta guvoh bo‘lsa, bu yarimta dalil va «gumon» hisoblangan. Faqat bir nechta «gumonlar»ning mavjudligi sudyaning xohishi bo‘yicha qiynoqlar qo‘llashga olib kelishi mumkin edi. Shu narsa xarakterliki, «gumonlar» orasida, shuningdek, insonning «oqibatini o‘ylamay ish tutishi va yomon ot chiqarganligi», jinoyat sodir etishga «layoqatligi» ko‘rsatilgan (25-modda). Qiynash ostida tan olishlik, shuningdek, ma’lum shartlar mavjud bo‘lganda ham haqiqiy hisoblanardi. Masalan, qiynash vaqtida emas, undan keyin, kamida bir kun o‘tgach kameradan tashqarida qaytadan qiynash paytida olingan va yozilgan hamda ish bo‘yicha tegishli boshqa ma’lumotlarning tan olinishi haqiqiy deb topilgan. «Karolina»da qiynash ostida so‘roq qilishning barcha shartlariga rioya qilish talab qilinadi. Agar sudya bu shartlarga rioya qilmasa va g‘ayriqonuniy so‘roq qilsa, jazolanishi va yetkazilgan zararni to‘lashi lozim edi.

Biroq, bu yuqorida ko‘rsatilgan cheklashlar uncha muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan. Birinchidan, qiynoqni o‘lim jazosi nazarda tutilgan jinoyat sodir etilish fakti aniqlangandan keyin darhol qo‘llash lozimligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, davlatga xiyonat qilishda hatto ozginagina gumon qilingan shaxsni qiynoq yo‘li bilan so‘roq qilish mumkin edi (42-modda). Ikkinchidan, agar ayblanuvchi o‘z aybiga avvaliga iqror bo‘lib, so‘ngra uni inkor qilsa yoki bu «iqror»lik boshqa ma’lumotlar bilan tasdiqlanmasa, sudya qiynoq asosida so‘roq qilishni qayta tiklashi mumkin

bo‘lgan. Natijada sudyalarning qiynoqni «g‘ayriqonuniy» ravishda qo‘llaganligini amalda isbot qilib bo‘lmas edi. Shuningdek, «Karolina»da ko‘rsatilishicha, agar ayb tasdiqlanmasa, sudya va da’vogar qiynoq qo‘llanganligi natijasida yetkazilgan zararni to‘lash majburiyatiga ega bo‘lmaganlar.

«Karolina»da qiynoq qo‘llash tartibi va usullari haqida hech qanday normalar belgilanmagan edi. Unda faqat qiynoq ostida so‘roq qilish sudya, ikkita sud maslahatchilari va sud kotibining ishtirokida amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Qiynoqning muayyan usullari haqidagi ko‘rsatmalar qonunshunoslarning sharhlarida berilgan. Shu narsa ma’lumki, Germaniyada XVI asrda qiynoqlarning 50 dan ortiq turi qo‘llanilgan.

Sud majlisi sud jarayonining yakunlovchi bosqichi bo‘lgan. Lekin u haqiqatda sud jarayonining mustaqil bosqichi hisoblanmagan. Madomiki, sudning o‘zi tergov olib borish, ham ayblovchi, ham oqlovchi dalillarni yig‘ish ishlari bilan shug‘ullanar ekan, oxirgi hukm tergov davomidayoq aniqlab qo‘yilgan. Sudya va sud maslahatchilari maxsus tayinlangan «sud kuni» oldidan tergov bayonnomalarini ko‘rib chiqqanlar va ma’lum shakldagi hukmni tuzganlar. Shunday qilib, «sud kuni»da asosan hukm e’lon qilingan va ijro etilgan. Hukm omma oldida qo‘ng‘iroq chalib e’lon qilingan. Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad qo‘rqitish edi. Hukmlar ayblovchi, gumon ostida qoldiruvchi va oqlovchi bo‘lgan.

Umumdavlat huquqi

XIII asrdan e’tiboran knyazliklarda umumdavlat huquqi - butun erkin aholi uchun umumiy bo‘lgan huquq normalari faol rivojlana boshladi. Uning manbalarini asosan knyazliklar «davlat» organlarining huquq ijodkorligi, XII-XIII asrlardagi umumdavlat tinchligi haqidagi mahalliy qarorlar, shuningdek, graflik sudlarining qarorlari tashkil etgan. Aynan umumdavlat huquqida fuqarolik, oila va boshqa «noommaviy» huquq sohalari rivojlangan.

XIII asrga oid «Zertsalolar»da umumdavlat huquqi ancha batafsil yoritilgan. Ularda umumdavlat huquqiga bag‘ishlangan maxsus bo‘limlar mavjud bo‘lgan. Masalan, «Sakson zertsalo»sining umumdavlat huquqiga bag‘ishlangan birinchi qismida «imperiya konstitutsiyasi», tabaqalarning huquqiy holati, qarindoshlik, oila va meros huquqiy munosabatlari, jinoyat huquqi va jarayoni masalalariga taalluqli normalar belgilangan.

Imperiya tashkil etilishining «konstitutsiyaviy» prinsipi, «Sakson zertsalosi»dan kelib chiqib aytish mumkinki, huquqning ustunligi (oliyligi) va «ikkita qilich» doktrinasi bo‘lgan. Huquqning ustunligi uning ilohiy kelib chiqqanligi («Xudoning o‘zi huquq») natijasi edi. Bu oqibatda har

qanday qonunsiz va adolatsiz hokimiyatga qarshilik ko‘rsatish prinsipining e’lon qilinishiga olib kelgan. XII asrda cherkov mafkurachilari tomonidan e’lon qilingan «ikkita qilich» doktrinasiga binoan, diniy «qilich» (hokimiyat) papaga, dunyoviy «qilich» esa - imperatorlarga tegishli bo‘lgan. Diniy va dunyoviy hokimiyat bir-biriga yordam berardi va bir-birini qo‘llab quvvatlardi. Agar kimdir «papaga qarshilik ko‘rsatsa», dunyoviy sud yordamida itoat etishga majbur qilinishi lozim edi.

Feodallarning xizmat zinapoyasidagi «birinchi daraja» imperatorga tegishli edi. Imperator «Zertsalo» mualliflarining fikricha, yer osti boyliklariga egalik qilish, «hamma yerda» oliy sud qilish, monetalar chiqarish, soliqlar undirish huquqiga ega edi. Biroq, tabiiyki, imperator har doim «hamma yerda bo‘la olmas va har vaqt barcha jinoyatlarni sud qila olmas edi». Shu sababli u o‘zining grafliklardagi vakolatlarini knyazlarga o‘tkazgandi.

Imperator knyazlar tomonidan saylanishi lozim edi. U mahalliy yepiskoplar taqdimidan keyin qirollik hokimiyati va unvonini, papaning taqdimidan keyin imperatorlik huquqlarini olgan. Imperator quyidagi uchta holat: haqiqiy e’tiqodiga «shubha»ning mavjudligi, qonuniy xotinini tashlab ketishi va ibodatxonani buzishi, vayron qilishidan tashqari cherkovdan ajratilishi mumkin emas edi.

Inson huquqiy holati uning tabaqaviy mansubligiga qarab belgilangan. «Sakson zertsalosi»da yozilishicha, «hech kim tug‘ilishi bo‘yicha xos bo‘lgan huquqlardan tashqari, boshqa huquqlarga ega bo‘lishi mumkin emas». Shu bilan birga unda krepostnoy huquq qoralanadi, uningcha, «kimdir boshqa birovning mulki bo‘lishi kerak emas». Krepostnoylik holati, uning fikricha, adolatsiz hamda nikoh odatlaridan kelib chiqqan va huquqqa kiritilgan.

Umumdavlat huquqida **oila va meros huquqiy munosabatlari** masalalari muhim o‘rin tutadi. German huquqi oilada va mulkni meros qilib qoldirishda ayollarning kamsitilgan holatini o‘rnatuvchi eski an’analarni davom ettirdi. Nikoh tuzishda ayollar erkaklar bilan teng huquqlarga ega emas edilar. Bunda yerning boyliklari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Bolalar huquqiy holati past darajadagi ota-onasining mulkini meros qilib olganlar. «Sakson zertsalosi» er va xotin mulkining umumiyligi prinsipini tasdiqlaydi. Biroq, bu mulk to‘liq erning ixtiyori va boshqaruvida edi. Erning roziligisiz xotin hech qanday mulkni boshqara olmasdi. Er xotinining qonuniy homiysi hisoblangan. Shu bilan birga oila mulkidan ma’lum qismi ajratilishi va bunday mulkning xotin tomonidan alohida meros qilib qoldirilishi ham hisobga olingan. Bularga xotinning

shaxsiy foydalanishiga oid mulklar, uy jihozi va pardoz-andoz buyumlari («ayollar hissasi»), ajralish yoki erining o‘limi hollarida ayollarni umrbod boqish uchun ajratiladigan mol-mulk, ayollarning sep-sidirg‘asi, shuningdek, erning xotiniga tuhfa sifatida bergan to‘y sovg‘alari kabilar kirgan. Nikoh bekor qilinganda xotin unga eri tomonidan taqdim qilingan mol-mulk, «xotinning hissasi» va sep-sidirg‘adan umrbod foydalanishi mumkin bo‘lgan. Eri o‘lgan xotin esa to‘y sovg‘alari, «xotinning hissasi» va umrbod boqish uchun taqdim qilingan mulkini o‘zida saqlab qolgan, zero «xotinning hissasi» faqat ayollar liniyasi bo‘yicha meros qilib qoldirilgan. Bolalar mulkka egalik qilish huquqiga faqat otasining roziligi bilan va oiladan ajralib chiqib ketgandan keyin ega bo‘lganlar.

Prinsiplari yerlarni erkak kishilarning qo‘lida saqlanib qolishi vazifasiga bo‘ysundirilgan va, shuningdek, tabaqaviy xarakterga ega bo‘lgan.

Meros huquqi

Meros olish uchun merosxo‘r meros qoldruvchi bilan teng (yoki yuqori) huquqiy holatga ega bo‘lishi lozim edi. Agar len huquqi bo‘yicha len faqat o‘g‘illardan bittasiga o‘tkazilgan bo‘lsa, umumdavlat huquqi bo‘yicha esa merosni barcha o‘g‘illar yoki boshqa qarindoshlar teng hissada olishgan. Meros olishga qarindoshchilikning yettinchi darajasiga-cha bo‘lgan qondosh qarindoshlar chaqirilgan. Bunda aka-ukalar opa-singillari oldida ustunlik huquqiga ega bo‘lishgan. Asosiy merosxo‘rlardan tashqari «hissa oluvchilar» ham bo‘lib, ular ma’lum mulkdan birinchi navbatda o‘z hissalarini olardilar. Bularga beva yoki tul qolgan xotin, yaqin qarindosh, harbiy aslaha-anjomlar olgan shaxs kabilar kirgan.

Germaniyaning o‘rta asrlardagi umumdavlat huquqi faqat qonun bo‘yicha merosni haqiqiy deb hisoblagan. Biroq, nikoh-oila munosabatlariga kanonik huquqning ta’siri kuchayishi oqibatida hadya ko‘rinishida niqoblangan vasiyat shakli o‘rnatilgan. Bundan tashqari, mulkni cherkov foydasiga taqsimlashda «o‘lgan kishining hissasi» ajratila boshlangan. German huquqida qonuniy merosxo‘rlarning majburiy hissasi saqlangan holda vasiyat bo‘yicha meros instituti rim huquqining andoza qilinishi munosabati bilan paydo bo‘lgan.

«Sakson zertsalosi» ko‘p sonli bitimlar - oldi-sotdi, ssuda, shaxsiy ijara, saqlash va hokazolarga oid normalarni belgilaydi. Lekin umuman shartnoma majburiyatlari savdo-sotiq uncha rivojlanmaganligi sababli bo‘sh darajada ishlab chiqilgan edi. Mulkni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlar odatda sud tomonidan guvohlantirilgan. Qonunlarda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar ancha batafsil tartibga solingan edi. Bu sohadagi normalar asosan yer egaligining himoya

qilinishiga, unga yetkaziladigan zararlarni, ekinlarning payhon qilinishini, chegaralar buzilishini oldini olishga va boshqalarga qaratilgan edi. Zarar yetkazilganlik uchun zararni qoplash va jarima to‘lash nazarda tutilgan.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi asta-sekin yangi fuqarolik-huquqiy normalarining, institutlarining qaror topishiga, andoza qilib olingan rim huquqi normalaridan foydalanishga olib kelgan. Yer uchastkalarini «majburiyatlar bilan» mulk qilib o‘tkazishning yangi shakli paydo bo‘lgan. Yer uchastkasining bunday tartibda sotilishi natijasida sotib oluvchi va mulkni undan keyin egallab olishi mumkin bo‘lgan kishilar mulkning dastlabki egasiga yer uchastkasidan olingan daromadning bir qismini to‘lashi lozim edi. Harakatdagi ashyolarning oldi-sotdi bitimida halol egalarning huquqlarini himoya qilish nazarda tutila boshlandi. Bunda rim huquqiga nisbatan ashyo egasining huquqi ancha chegaralandi. Agar mulkdor o‘z ashyosini birovga ishonib topshirsa, u bu mulkni uchinchi shaxsga sotsa, mulkdor sotib oluvchiga nisbatan da’vo qilish huquqidan mahrum bo‘lgan. Mulkdor faqat undan o‘g‘irlangan ashyoni talab qilishi mumkin edi. Bu prinsip german huquqida «qo‘l qo‘lni asrashi (tanishi) lozim» degan qoidada ifodalangan.

Umumdavlat huquqi tinchlik statutlaridan ancha og‘ir jinoyatlar tarkiblarini qabul qilib olgan. Biroq, bu jinoyatlar ma’lum tizimga solinmagan edi hamda qasd va «shafqatsizlik» bilan sodir etilganda, asosan murakkab shakldagi o‘limga mahkum etish bilan jazolangan. Ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatlar uchun o‘limga mahkum etish va tan jazolari berilishi mumkin emas edi. Buning uchun vergeld to‘lash talab qilingan.

Vaqt o‘tishi bilan alohida german o‘lkalarida jinoiy jazoga loyiq huquqbuzarliklar turlarining yanada ko‘payishi sodir bo‘ldi. Qisman bu fuqarolik huquqbuzarliklar bilan jinoyatlar o‘rtasidagi farqlarning ancha aniq ajratila borishi bilan bog‘liq edi. Jinoyatlarni «haqiqiy» va «nohaq» jinoyatlarga yangicha bo‘lish joriy qilindi. Masalan, oddiy odam o‘ldirish yoki og‘ir tan jarohati yetkazish «haqiqiy» jinoyatlar deb, o‘g‘irlik, davlatga xiyonat, firibgarlik esa - «nohaq» jinoyatlar deb hisoblangan. Shunga qarab «nohaq» jinoyatlarda aybdor bo‘lgan shaxslar ancha og‘ir jazo - qiynab o‘ldirish jazosiga mahkum etilgan; «haqiqiy» jinoyatchilar esa zararni qoplash yoki surgun bilan jazodan qutilishi mumkin edi.

XVI asrdan boshlab jinoyat huquqi va umuman yuridik ta’limot ham Germaniyaning turli knyazliklarida «Karolina»ning prinsiplariga asos-langan. Uning yanada taraqqiy etishi jazolarga ko‘proq jinoyatchini tuzatish vositasi, jumladan, majburiy mehnatga jalb qilish yordamida

tuzatish vositasi sifatidagi qarashlarning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu munosabat bilan jazolarning majburiy ishlarga jalb qilish, sharmanda qilish va axloq-tuzatish uylariga qamash kabi turlarini qo‘llash o‘sgan.

«Sakson zertsalosi» davridagi umumdavlat huquqi fuqarolik ishlari bo‘yicha ham, jinoiy ishlar bo‘yicha ham tortishuvchilik jarayonini nazarda tutgan. Har kim buzilgan huquqining tiklanishi haqida da’vo qo‘zg‘ashi va javobgarni sudga chaqirishi mumkin edi. Da’vogar va javobgar sud jarayonida odatda o‘z vakillari («gapiruvchilari») orqali qatnashardilar. Vakillar sudda protsessual formulalarni bayon qilganlar. Agar ular so‘zlaridan yanglishsalar ishda yutqazganlar. Tomonlar sudga qonuniy asossiz kelmasalar ham ishda yutqazgan hisoblanganlar. Sudga kelmaslik uchun faqat quyidagi to‘rtta holat: qamoqqa olinganlik, kasallik, imperiya xizmatida bo‘lish va salib yurishda ishtirok etish qonuniy sabab bo‘lgan.

Sudda guvohlarning ko‘rsatmalari va qasam asosiy dalillar bo‘lib hisoblangan. Jinoiy ishlar bo‘yicha sheffenlarning roziligi bilan sudda yakkama-yakka olishuv ko‘rinishidagi «xudo sudi»ga yo‘l qo‘yilgan. Sudda yakkama-yakka olishuvning tayinlanishi tabaqa tengligi prinsipi, shuningdek, «Sakson zertsalosi»da batafsil bayon qilingan ma’lum protsessual qoidalar bilan cheklangan. Yakkama-yakka olishuv natijasiga qarab mag‘lub bo‘lgan javobgar odatdagi sudda jinoyat uchun aybdor sifatida javobgarlikka tortilgan, g‘olib chiqqan javobgar esa aybdan, jarima to‘lashdan va da’vogar hamda sudga keltirilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod etilgan.

Agar yakkama-yakka olishuvda tomonlardan biri uch marta chaqirilganda (taklif qilinganda) «maydon»ga chiqmasa, ishda yutkazgan deb topilgan va ishi sudga o‘tkazilgan. «Sakson zertsalosi» sud jarayonida tomonlarning dalillariga katta e’tibor bergan, aybdorning tegishli darajada fosh qilinishi lozimligini talab qilgan. Aks holda sudning jazo berish haqida qaror chiqarishi taqiqlangan.

Umumdavlat huquqida «qarorga e'tiroz bildirish»ning o‘ziga xos qiziq instituti mavjud edi. Qarorga e'tiroz bildiruvchi kishi buni o‘rnidan turib, tabaqaviy teng maslahatchilar bilan yuzma-yuz holda amalga oshirishi lozim edi. E'tiroz bildiruvchidan tomonlar uchun birmuncha adolatli ko‘rinadigan boshqa qaror chiqarish uchun taklif berish so‘ralgan. Lekin agar e'tiroz bildiruvchi shaxs o‘z talablarini qanoatlantirilishiga erisha olmasa, u kimning qaroriga e'tiroz bildirgan bo‘lsa, o‘shanga badal to‘lashi, shuningdek, jarima va sud harajatlarini ham to‘lashi lozim edi.

XV-XVI asrlarda tortishuvchilik jarayonining o‘rniga inkvizitsion jarayonning kelishi mutlaqo yangi shakl va qoidalarning o‘rnatilishiga olib keldi. (Bu haqda yuqoriroqda «Karolina» misolida aytib o‘tgan edik). Shunday bo‘lsa-da, XVIII asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran sudlarda qiynoqlarning qo‘llanilishi cheklana boshladi. 1768 yilgi «Tereziana»da qiynoq anjomlari ko‘rsatilgan. Ularni faqat o‘lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha oliy jinoiy sudlarning roziligi bilan, ayblanuvchi aybini tan olmasa va boshqa dalillar bo‘lmasa, qo‘llash mumkin edi. Qiynoqlardan kasallar, nogironlar, keksalar va yosh bolalar, shuningdek, agar sodir etgan jinoyatlari uncha og‘ir bo‘lmasa, oliy tabaqaga mansub shaxslar ozod etilganlar. Sud jarayonida qiynoqlarning qo‘llanishi 1764 yil Prussiyada, XVIII asrning 20-yillarida boshqa bir qator mayda german knyazliklarida batamom bekor qilingan edi.

Ma’lumki, ruhoniylar tabaqasi o‘z huquq normalariga -**cherkov huquqiga** amal qilganlar. Cherkov huquqi shuningdek barcha tabaqalarning oila va meros huquqiy munosabatlarini ham tartibga solgan. «Sakson zertsalosi» bo‘yicha har bir xristian bir yilda uch marta cherkov sudida va, shuningdek, yiliga uch marta dunyoviy sudda ishtirok etishi lozim edi. Germaniyaning bir qancha knyazliklarida ko‘pgina german zodagonlarining vakillari ham dunyoviy, ham cherkov yurisdiksiyasini o‘z qo‘llariga olgan edilar. Lekin shunga qaramay, cherkov huquqi Germaniyada ancha tor doirada qo‘llanilgan va umumdavlat huquqining rivojlanishiga uncha ta’sir ko‘rsatmagan.

Len huquqi

O‘rta asrlarda Germaniyadagi yerga oid munosabatlar boshqa g‘arb «feodal davlatlari»dagi kabi prinsiplar asosida qurilgan edi. Biroq, Germaniyaning len huquqida ma’lum o‘ziga xos xususiyatlar mavjud bo‘lgan.

Shu narsani alohida ta’kidlash joizki, Germaniyada monarx imperiya lenlarini erkin tasarruf qilish huquqiga ega emas edi. Ancha faxriy imperiya lenlarini knyazlarga «majburiy hadya qilish» prinsipi imperatorning bo‘shagan lenlarni taqdim qilish va ularni o‘z domeniga qo‘shib olish huquqidan mahrum qilardi. Shuningdek, ma’lum okrug aholisining ustidan sud qilish huquqiga ega bo‘lgan lenlarning maxsus turi ham mavjud edi. Imperator tomonidan berilgan «sud leni»ni olgan len egalari, knyazlar va graflar qirol buyrug‘i bilan, ya’ni qirol nomidan sud qilish huquqini ham qo‘lga kiritardilar.

Germaniyadagi len huquqining xususiyatlaridan biri shunda ediki, unda len olishni «kutish» huquqi mustahkamlangan. Bir kishi lenga egalik qilish huquqini olgan, boshqa kishi (yoki bir necha kishilar) esa

xo‘jayindan ushbu lenning qonuniy egasi vafot etganda va uning qonuniy merosxo‘ri bo‘lmaganda o‘sha lenga nisbatan da’vo qilish huquqini olishlari mumkin edi. Yana shuni ta’kidlash joizki, Germaniyada vassal tomonidan olingan lenning begonalashtirilishini taqiqlovchi qoida ancha uzoq vaqt harakatda bo‘lgan. Lenni sotish, garovga qo‘yish faqat xo‘jayinning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin edi.

Germaniya len huquqida egalik instituti katta ahamiyatga ega bo‘lgan. «Egalik qilish huquqi» maxsus huquq hisoblangan. U yerni haqiqatda ushlab turishdan farq qilgan va xuddi Angliya va Fransiyadagi sezina singari maxsus da’volar bilan himoya qilingan. Bu huquq odatda egalik qilishga kirishishning ramziy marosimi (investitura) natijasida qo‘lga kiritilgan, lekin ba’zan lenga haqiqiy egalik qilib turish muddati (bir yilu bir kun xo‘jayinning e'tirozisiz egalik qilib turishi) bo‘yicha ham vujudga kelishi mumkin edi.

Len huquqi bo‘yicha majburiyatlar asosan vassallik munosabatlarini tartibga soladigan va deyarli butun Yevropa mamlakatlari uchun umumiy bo‘lgan feodal odatlar bilan belgilangan. Len egasi xo‘jayinga sodiqlik haqida qasam ichib, «uning odami» sifatida ma’lum «majburiyat»larni zimmasiga olgan. U avvalo xo‘jayinga harbiy xizmat o‘tab berishi lozim edi. Xo‘jayin «Germaniya o‘lkalari» doirasida harbiy yurish uyushtirmoqchi bo‘lsa, bu haqda vassaliga olti hafta oldin ikkita guvoh ishtirokida ma’lum qilgan. Bundan tashqari, len egasi o‘z senorining sud majlisida ishtirok etishi shart edi. O‘z navbatida, senor vassal qaramlikni qabul qilishni rad etishi va len egasini o‘z egaligidan mahrum qilishi mumkin bo‘lmagan. Chunki «Sakson zertsalosi»ga binoan, «agar sud tomonidan tortib olinmagan bo‘lsa, hech kim yer egaligidan mahrum qilinishi mumkin emas» edi. Agar xo‘jayin vassalidan yerni asossiz ravishda tortib olsa va len ajratishni adolatsizlik bilan rad etsa, len oluvchi yuqori turuvchi (katta) senorga shikoyat qilishi mumkin bo‘lgan. Katta senor kichik senordan bu masalani tegishlicha adolatli hal etishni talab qilgan. Aks holda bunday yer egaligi va vassallik sud orqali yuqori turuvchi senor ixtiyoriga o‘tkazilishi mumkin edi.

Shahar huquqi

O‘rta asrlar huquqi shaharga «korporatsiya» - fuqarolarning yagona, bir butun yig‘indisi statusini va shu tariqa yuridik shaxs huquqini bergan. Germaniyaning shahar huquqi to‘plamlarida uning nufuzli ekanligi va qirollikdan kelib chiqqanligi ta’kidlanadi, chunki qirol «savdogarlarga huquq bergan, bunday huquqqa qirolning o‘zi doimo o‘z saroyida ega bo‘lgan». Shu sababli savdo maydonidagi krest (xoch) va osib qo‘yilgan qirol qo‘lqopi

shaharning ramzi bo‘lib qolgan, zotan «bu joyda qirollik tinchligi va qirol xohish-irodasi harakatda ekanligi ko‘rinib turishi» lozim edi.

Germaniyaning shahar huquqi dastlab umumdavlat va len huquqlarining prinsiplari va institutlariga asoslangan. Bu ayniqsa nikoh-oila va meros munosabatlari sohasida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Biroq, german shaharlari mustaqilligining kuchayib borishi jarayonida shahar huquqining o‘z xususiy prinsiplari va normalari borgan sari ko‘payib, mazmunan boyib bordi. Bozorlar va yarmarkalarni tartibga solish, mulkni tasarruf qilish va qarzlarni undirish masalalariga alohida e’tibor berila boshlandi. Germaniya shaharlarida yarmarkalarga oid qonunlar va veksel ustavlari juda erta qabul qilingan edi. Ularda oldi-sotdi, qarz, garov, ssuda, topshiriq kabi shartnomalar juda batafsil huquqiy tartibga solingan edi. Shahar huquqidan asta-sekin ajralib chiqa boshlagan savdo huquqida veksel va savdo shirkati institutlari yanada rivojlandi.

Shaharlik o‘z xususiy mablag‘iga sotib olgan mol-mulkni tasarruf etishda to‘la erkin edi. U uch shillingdan ortiq mulkni faqat bitta shart - «sog‘lom holatda bo‘lishlik» sharti bilan erkin ravishda vasiyat qilib qoldirishi mumkin edi.

Germaniyaning o‘rta asrlardagi huquqi, jumladan, shahar huquqi ham qarzdorlarga nisbatan juda shafqatsiz bo‘lgan. Agar javobgar sud qarori asosida da’vogarga qarzini va sudga jarimani to‘lay olmasa, uning mol-mulki musodara qilingan yoki uning qarzini to‘lash istagini bildiruvchi shaxs topilguniga qadar qamoqqa olingan. Bundan tashqari, qarz beruvchi o‘zining ta’sir ko‘rsatish usullaridan foydalanishi, masalan, qarzdorni ozgina ovqat bilan kishanda saqlashi mumkin bo‘lgan. Lekin bunda qarzdorga «azob berish kerak emas» deb qo‘shimcha shart qo‘yilgan edi. Germaniyaning shahar huquqi qarz masalalarida len huquqi hamda cherkov huquqidan farqli o‘laroq, boshqa o‘ziga xos prinsipni ham mustahkamlagan. Bunga ko‘ra, o‘g‘il o‘lgan otasining qarzini to‘lashdan ozod etilgan. Albatta, bunda «qonun bo‘yicha talab qilinadigan qarz haqida xabar qilinmagan bo‘lishi» kerak edi.

Shahar jinoyat huquqi «shahar tinchligi»ni muxofaza qilib, jazolarning juda oddiy turlarini belgilagan. Odam o‘ldirish yoki o‘limga sabab bo‘luvchi tan jarohati yetkazish, zo‘rlab nomusga tegish, birovning uyiga bostirib kirish kabi jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarning boshi kesilgan. Birovga boshqacha tan jarohati yetkazganlik uchun qo‘lni kesish jazosi tayinlangan. Og‘irlashtiruvchi holatlarsiz oddiy o‘g‘irlik uchun, shuningdek, savdo qoidalarini buzishlik uchun sharmanda qiluvchi jazolar (sochini qirqib tashlash va qamchi bilan savalash) nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, savdo sohasidagi qoidalarni buzgan shaxslar ratmanlarning[49] maxsus roziligisiz savdo faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etilgan. Shahar hayotiga xos bo‘lgan boshqa jinoyatlar - birovning mulkini egallab olish, yer egaligini buzish, sheffenni haqorat qilish, topshiriqni buzish kabilar uchun jarima nazarda tutilgan. Birovning mulkiga ataylab «insofsizlik» bilan tajovuz qilish - kechasi o‘g‘irlik qilish, uxlab yotgan kishiga nisbatan o‘g‘irlik qilish paytida qo‘lga tushib qolgan jinoyatchiga nisbatan osib o‘ldirish va uyini buzib tashlash kabi jazolar tayinlangan.

Germaniya shahar huquqida sud ishlari yuritishni tashkil qilish, isbotlash va jarayon qoidalarini belgilash masalalari o‘ziga xos puxta va atroflicha ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi.

Shahar sudiga shaharning senori tomonidan tayinlanadigan **burggraf** va uning o‘rinbosari (shultgeys) boshchilik qilardilar. Ular qirol yoki knyaz buyrug‘i bilan sud ishlarini yuritishgan. Burggraf sud ishlarini bir yilda uch marta ko‘rishi lozim edi. Uning yo‘qligida bu ishlarni **shultgeys** bajargan. Bundan tashqari, burggrafning yurisdiksiyasiga, agar aybdor jinoyat ustida ushlab olingan bo‘lsa, zo‘rlik, ta’qib qilish, uyiga bostirib kirish haqidagi barcha ishlar, shuningdek, burggrafning rasmiy sud ishlari boshlanishiga qadar «14 kecha oldin» vujudga kelgan barcha ishlar taalluqli bo‘lgan. Tayinlab qo‘yiladigan sud amaldorlaridan tashqari ikkita toifadagi sudyalar - **shahar sheffenlari** (umrbod muddatga) va **ratmanlar - maslahatchilar** (bir yilga) saylab qo‘yilgan. Ratmanlar asosan «donishmandlar maslahati bo‘yicha» shahar savdosi qoidalarining buzilishi haqidagi ishlarni ko‘rib hal qilish uchun chaqirilgan. Shunday qilib, eng ko‘p ishlar shaharning **sheffenlar** hay'ati tomonidan ko‘rib hal etilgan. Ushbu **sheffenlar** hay'ati shaharliklar va chet elliklarga nisbatan umumiy yurisdiksiyaga (sud qilish huquqiga) ega bo‘lgan. Bunda shaharliklarning faqat shahar sudi sudlovligiga taalluqli ekanligi qayd qilingan. Ular shahardan tashqarida sudga murojaat qilishlari mumkin emas edi.

Har qanday darajadagi sudyalarning, ratmanlardan tortib shultgeyslargacha sud majlisini to‘xtatib (uzib) qo‘yishi, sudga kelmasligi ishda qatnashuvchi tomonlar singari jarima to‘lashiga olib kelgan. Shahar sudiga faqat quyidagi uchta qonuniy sabablar bo‘lganda: kasal bo‘lsa, asirga tushib qolsa va mamlakat tashqarisida davlat xizmatida bo‘lsa kelmasligi mumkin edi.

Shahar protsessual huquqi ayblanuvchi huquqlarining kafolatlariga, jumladan, ishlarning qisqa muddatda hal qilinishi, dalillarning ob’yektiv-

[49] O`rta asrlarda shahar magistratlariga saylab qo`yilgan shaxslar.

ligi, sudsiz jazolashga yo‘l qo‘yilmasligi kabilarga alohida urg‘u beradi. Javobgar yoki ayblanuvchi, agar sheffenlar yoki ratmanlar hay'ati ishni ko‘rib chiqmagan bo‘lsa, burggraf yoki shultgeys sudida, agar burggraf yoki shultgeys bo‘lmasa, joylardagi shaharliklar tomonidan saylangan har qanday sudya tomonidan ishni zudlik bilan ko‘rib chiqilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan. Shaharlik va begona yerlik kishilar o‘rtasidagi sud ishlari kechiktirilmasdan zudlik bilan ko‘rib chiqilishi va ular bo‘yicha o‘sha kunning o‘zidayoq qaror chiqarilishi lozim edi.

Jinoyat sodir etilgan joyda qo‘lga olingan shaxsning aybini yoki o‘zini aybdor emas deb e’lon qilgan shaxsning aybsizligini oltita guvoh yordamida va «o‘zim yettinchi» tamoyili asosida bir ovozdan tasdiqlovchi ko‘rsatmalar asosida isbot qilish talab qilingan.

Jinoyat sodir etilganligini ko‘p hollarda guvohlarning ko‘rsatmalari bilan bir qatorda boshqa dalillar asosida ham isbotlash talab etilgan. Agar shunday dalillar mavjud bo‘lsa, ularni qasam bilan inkor qilish mumkin bo‘lmagan. Agar bunday dalillar bo‘lmasa, shahar huquqi, hatto guvohlar bo‘lsa ham, ayblanuvchini oqlash zarur deb hisoblagan. Bundan tashqari, jinoyatchini jinoyat sodir etgan joyda qo‘lga olinsa ham, uni sudsiz jazolash mumkin emas edi. Shuningdek, ayollarga nisbatan aybni isbotlashning ancha yengil qoidalari joriy qilingandi. Agar ayol kishi jinoyat ustida qo‘lga tushmasa, u o‘zining aybsizligi haqida qasam ichib javobgarlikdan qutilib ketishi mumkin edi.

V BOB. ANGLIYA DAVLATI VA HUQUQI (V asr-XVII asrning o‘rtasi)

- ***Angliya davlatining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari.***
- ***Ingliz-sakslarning ilk feodal monarxiyasi (IX-XI asrlar).***
- ***Angliyada markazlashgan senorlik monarxiyasi (XI-XII asrlar).***
- ***Tabaqa-vakillik monarxiyasi (XIII asrning II yarmi-XV asr).***
- ***Absolut monarxiya davrida Angliyaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi (XVasrning oxiri-XVII asrning o‘rtasi).***
- ***Huquqning asosiy belgilari.***

1. Angliya davlatining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari

Angliya feodal davlatining tashkil topishi Britaniya orollariga german va skandinav qabilalarning ko‘p sonli bosqinchilik yurishlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Ma’lumki, Rim legionlari Britaniyadan V asrning boshlaridayoq chiqib ketgan edi. Biroq oradan ko‘p vaqt o‘tmay, bir qancha mayda qirolliklarga bo‘lingan "britaniya mustaqilligi" barham topdi. V asrning o‘rtalaridan boshlab (449 yil atrofida) bu orolga turli xil shimoli-g‘arbiy german qabilalari - inglizlar, sakslar, yutlar bostirib kira boshlaydi. Bu istilo qariyb bir asrga - VI asrning ikkinchi yarmigacha cho‘zilib, orol oz-ozdan istilo qilinib bordi. Ingliz-sakslar istilosi natijasida ilgarigi Britaniya hududida o‘ndan ortiq mayda varvar qirolliklari vujudga keldi. Bu varvar qirolliklari chekka Uels, Kornuel va Shotlandiyadan tashqari, orolning butun hududini egallab oldi. VII asrga kelib ingliz-sakslar xrestianlikni qabul qilib, o‘zlarining bir qadar yirikroq yettita (geptarxiya deb ataladigan) qirolliklarini barpo etdilar. Bular: janubda sakslarning uchta qirolligi – Uesseks, Sesseks, Esseks (g‘arbiy, janubiy va sharqiy saks) qirolliklari, markazda va shimoli-sharqda asosan angllarning uchta - Mersiya, Nortumbriya va Sharqiy Angliya qirolliklari hamda chekka janubi-g‘arbda yutlarning Kent qirolligi edi. 827 yilda Uesseks qiroli Ekbert (802-839 yillar) bu qirolliklarni o‘z hukmronligi ostida birlashtirib, yagona ingliz-sakslar qirolligiga asos soladi. X asrdan boshlab bu yagona davlat Angliya deb atala boshlaydi. XI asrning boshida ingliz taxti daniyaliklar tomonidan egallab olinadi. Daniyaliklar Angliyani Eduard Ispovednik (1042-1066 yillar) tomonidan ingliz-sakslar sulolasi qayta tiklangunga qadar boshqardilar. 1066 yilda Angliyani Normandiya gersogi Vilgelm istilo qilib, shu tariqa Fotix

(istilochi) nomi bilan Angliya qiroli bo‘lib oladi. Bunda unga, bir tomondan, Rim papasi xayrixohlik qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fransuz qiroli bevosita ko‘p sonli harbiy qo‘shinlari bilan yordam bergan edi. Normandlar hokimiyati kuchayib, markazlashgan davlat barpo qilishga asos solingan.

O‘rta asrlarda Angliya feodal davlatining rivojlanish bosqichlarini quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin: 1) ingliz-sakslarning ilk feodal monarxiyasi davri (IX-XI asrlar); 2) markazlashgan senorlik monarxiyasi va qirol hokimiyatini cheklash uchun fuqarolar urushi (XII asr) davri; 3) tabaqa-vakillik monarxiyasi davri (XIII asrning ikkinchi yarmi -XV asr); 4) absolut monarxiya davri (XV asrning oxiri - XVII asrning o‘rtasi).

2. Ingliz-sakslarning ilk feodal monarxiyasi (IX-XI asrlar)

Ingliz-sakslarning ijtimoiy tuzumi

German qabilalarining Britaniyadagi feodal jamiyatlarining shakllanishi juda sekinlik bilan yuz bergan. Bu ma’lum darajada ingliz-sakslarning qabilaviy urf-odatlari orolda darhol buzilmaganligi va skandinav an’analarining turg‘unlik ta’siri bilan bog‘liq edi. VI-VIII asrlardagi ko‘pgina "haqiqat"larda, ya’ni turli ingliz-saks qirollarining qonunlar to‘plamlarida ingliz-sakslarning o‘sha davrga oid ijtimoiy tuzumi haqida anchagina ma’lumotlar beriladi. Ularning ijtimoiy tuzumi ko‘p jihatdan franklarning "Sali haqiqati"da tasvirlangan ijtimoiy tuzumiga o‘xshar edi. Inglizlar, sakslar va yutlardan iborat german qabilalari o‘zlari bosib olgan mamlakat xalqlariga nisbatan ijtimoiy va madaniy rivojlanishning ancha quyi darajasida turar edi. Ular bosib olgan mamalakatda nisbatan rivojlangan qishloq xo‘jaligiga duch kelganlar. Shu sababli istilodan keyin tez orada ularning asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lib qolgan. Ingliz-sakslar davlati aholisi, manbalarning darak berishicha, qadimgi davrlardayoq erkin, yarim erkin kishilarga va qullarga bo‘lingan edi. Franklardagi singari, ingliz-sakslarda ham aholining asosiy ommasi, ingliz-sakslar "haqiqatlari" da ishlatilgan ibora bilan aytganda, **kyorllardan** - erkin kishilardan iborat edi. Bular mustaqil xo‘jalik yurituvchi jamoachi dehqonlar bo‘lib, **gayda** deb atalgan katta-katta yer uchastkalariga ega edilar (ba’zi qirolliklarda har bir kyorl oilasiga tegishli chek yerning miqdori 120 akr, bizning hisobimizcha 50 gektarga to‘g‘ri kelardi). Kyorlning vergeldi 200 shilling edi. Urug‘-qabila zodagonlari - **erllar** bo‘lib, ular jamiyatning hukmron tabaqasini tashkil etgan. Erlning vergeldi dastlab faqat 400 shilling bo‘lgan

bo‘lsa, keyinchalik 600 shillingga, undan keyin yanada oshib 1200 shillingga yetgan. Erllar va kyorllar jamiyatda erkin kishilar edi. "Haqiqatlar"da yuqoridagilardan tashqari, yana **letlar yoki uillar** tilga olinadi. Bular o‘z ahvoli jihatidan frank litlariga o‘xshagan yarim erkin kishilar edi. Ularning o‘z yeri bo‘lmay, ma’lum majburiyat evaziga erllarning yerini ishlab berar edilar. Ularning vergeldi 80 shilling atrofida edi. Letlar Britaniyaning bo‘ysundirilgan mahalliy aholisidan (uil so‘zi Britaniyaning g‘arbiy qismi - Uelsdan) kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Zodagon ingliz-sakslarning, erllarning (va hatto ba’zi bir eng boy kyorllarning) qullari ham bo‘lib, ularning bir qismi hovlida xizmat qiladigan, bir qismi obrokchi qullar bo‘lib, dehqonchilik bilan shug‘ullanardi. Qullar jamiyatning eng quyi po-g‘onasida turgan. Ingliz-sakslarda asirga olish, qullardan tug‘ilish va og‘ir jinoyatlar uchun qullikka sotish qullikning asosiy manbalari edi. Qulni o‘ldirish qul egasining mulkiga yetkazilgan zarar sifatida ko‘rilgan va aybdorga faqat yetkazilgan zararni to‘lash majburiyati yuklatilgan xolos. Shuni ta’kidlash joizki, cherkov qullarga nisbatan o‘zboshimchalikni va shafqat-sizlikni qoralardi. Xo‘jayinning buyrug‘i bilan yakshanba kuni ishlagan qul erkinlikka chiqarilardi.

Huquqiy yodgorliklarda, shuningdek, ruhoniylar va qirol ham eslatiladi. Ularda yepiskopning vergeldi hatto qirolning vergeldidan yuqori belgilangan.

VIII asrda shaxsiy patronat tajribasi tarqala boshladi. Bunda har bir odam o‘ziga homiy (glaford) izlashi lozim edi va homiysining roziligisiz undan ketish huquqiga ega emasdi.

VII-IX asrlardagi yodgorliklarda **drujinnik-tanlar** alohida tilga olinadi. Drujinnik-tanlar qatoriga erllar ham, kyorllar ham kirib, ular qirol foydasiga harbiy xizmat o‘tashlari lozim edi. Bu toifaga kirishning yagona mezoni ma’lum miqdordagi (5 gayd) yer uchastkasiga egalik qilish bo‘lgan. Shunday qilib, erkin kishilarning turli ijtimoiy guruhlari o‘rtasidagi chegaralar yopiq bo‘lmagan va qat’iy cheklab qo‘yilmagan edi. Ingliz dehqoni va hatto, erkinlikka chiqarilgan kishining avlodlari xo‘jayin yoki qiroldan yer uchastkasi olib, tan bo‘lib qolishi mumkin edi. Tarixchilarning darak berishicha, o‘sha davrda ingliz tanlarining deyarli to‘rtdan bir qismi dehqonlar va hunarmandlardan kelib chiqqan.

Bu davrda yuqoridagi jarayonlar bilan bir vaqtda hukmronlik va bo‘ysunish munosabatlari ham rivojlanishda davom etgan. X asrda o‘zi uchun sudda javob bera olmaydiganlarning hammasiga o‘ziga glaford topish buyurilgan, ya’ni majburiy kommendatsiya joriy etilgan. Angliyada

kommendatsiya VII-VIII asrlarga oid esdaliklardayoq uchraydi, lekin bu narsa IX-X asrda ayniqsa ko‘paydi.

Angliya qiroli Etelstan (Buyuk Alfredning nevarasi) 930 yilda har bir erkin kishiga o‘zi uchun bir xo‘jayin (ingliz-sakscha "lord", fransuzcha "senor" degan iboraga to‘g‘ri keladi) topib olishni buyurgan. Etelstan qonunlariga binoan, agar dehqon ma’lum muddat mobaynida qandaydir feodalning himoyasida bo‘lmasa, u qochoq deb topilgan va har kim uni jazo bermay o‘g‘ri sifatida o‘ldirishi mumkin edi. Dehqonning o‘z yonidagi katta yer egasiga bo‘lgan qaramligini davlat hokimiyati immunitet tarzida rasmiylashtirgan. Qirol katta yer egalariga o‘z atrofidagi aholini sud qilish va undan tegishli sud bojlari olish huquqini bergan. Bunday xususiy sud qilish huquqi **soka** deb, xususiy sud qilingan dehqonlar esa **sokmenlar** deb atalardi. Har qanday odam qirol sudiga murojaat qilishdan avval o‘zining glafordiga murojaat qilishi lozim edi. Xo‘jayinning hayoti erllar uchun ham, kyorllar uchun ham daxlsiz deb e’lon qilingan. Yuqoridagilar bilan bir vaqtda kafillik instituti har qanday kishiga uning glafordi va ma’lum (12 tadan ortiq bo‘lmagan) miqdordagi erkin kishilarning kafolat berishi mustahkamlangan.

XI asrga kelib, tanlarning ham, qaram dehqonlarning ham yerga oid xizmatlari belgilangan. Tanlar qirollik hujjatiga asoslangan yerlarga egalik qilish huquqiga ega bo‘lganlar va uchta asosiy majburiyatlarni bajarishlari lozim edi. Bular: yurishlarda, istehkomlar qurishda va ko‘priklar tuzatishda ishtirok etish majburiyatlari edi. Bundan tashqari, ko‘pchilik dehqon uchun qirol buyrug‘i bilan boshqa xizmatlar: qo‘riqlanadigan qirollik bog‘larini yaratish, kemalarni jihozlash, qirg‘oqlarni qo‘riqlash, cherkov yerlariga qarab turish va boshqalar ham joriy etilishi mumkin edi. Tanlar asta-sekin harbiy tabaqani tashkil etganlar.

Kambag‘allashgan kyorllardan ko‘p sonli qaram dehqonlar tashkil topgan. Bunday dehqonlarning majburiyatlari ba’zan aniq o‘rnatilgan, ba’zan esa aniq belgilanmagan edi. Majburiyatlar joylardagi urf-odatlar bilan belgilanardi. Dehqon o‘lgandan keyin uning barcha mol-mulki glafordda qolardi.

Erdor lordlar **manorlar** (bu so‘z ham ingliz-sakslar vaqtida paydo bo‘lgan) deb atalgan o‘z pomestyelarida qisman qullar mehnatini, qisman esa krepostnoylar mehnatini ekspluatatsiya qilardilar. 1000 yilga oid bir manbada[50] dehqonlarning turli guruhlari tasvirlanadi, lekin ilgari kyorl degan nom o‘rniga mazkur hujjatda genitlar va geburlar degan yangi nomlar ishlatiladi; **genitlar** xususiy yer egalari bo‘lib, qisman qirolga,

[50] Bu manba «Ayrim shaxslarning burchlari» (“Rectitudinrs singularum personrum”) deb atalar edi.

qisman yonidagi lordlarga soliqlar to‘lab turuvchi erkin dehqonlar edi, **geburlar** esa o‘z yeri bo‘lmay, pomeshchiklarning yerida dehqonchilik qilib, unga yil bo‘yi har haftada uch-to‘rt kun juda og‘ir barshchina o‘tab beruvchi va bundan tashqari, lordga mol, g‘alla, pul shaklida turli soliqlar to‘lab turuvchi dehqonlar edi. Kam yerli dehqonlarning yana bir guruhi bo‘lmish **kassitlar** (kotterlar) ham tilga olinadi, bularning kichik bir parcha yerlari va kulbalari bo‘lib, ular evaziga uncha katta bo‘lmagan barshchina majburiyatini o‘tar edilar.

VIII-IX asrlarda, ayniqsa, X asrda ingliz-sakslarning patriarxal jamoa tartiblari tobora tushkunlik sari yuz tutdi. Hali kuchli bo‘lgan qishloq jamoasi bilan bir qatorda katta aristokratik yer egaligi avj oldi. Qirol maxsus yorliqlar berib, yerni dunyoviy zodagonlarga va cherkovga xususiy mulk qilib bera boshladi. Odatdagi qonun-qoidalarga asoslangan yer mulkiga, ya'ni jamoalarning, dehqonlarning yer mulkiga (folklendga) qarama-qarshi o‘laroq, mamlakatda pomeshchiklar mulki (boklend), ya’ni yerga qirol yorlig‘i - bos yoki book asosida egalik qilish tobora kuchayib bordi, qirol yer feodallarning xususiy mulki bo‘lishini tan olish bilan birga, boklend egalariga ko‘pincha yana bir qancha imtiyoz va immunitetlar (mahalliy dehqon aholisini sud qilish va ulardan soliq olish huquqi)ni ham berdi.

Dehqonlarning chek yeri borgan sari maydalanib bordi. Katta dehqon oilasining ilgarigi o‘rtacha chek yeri - gayda[51] o‘rniga IX-X asrlarda hamma joyda dehqonlarning miqdor jihatidan ancha oz bo‘lgan yangi chek yeri - virgata[52] uchraydi.

Daniyaliklarning hujumi dehqonlarning ahvoliga juda yomon ta’sir qiladi. Daniyaliklar o‘z hujumlari vaqtida dehqonlarning xo‘jaligini butunlay vayron qilardilar. Dehqonlar burglar, ko‘priklar va yo‘llar qurish, lashkarlar safida turib qo‘riqchilik qilish va harbiy xizmatni o‘tash uchun juda ko‘p vaqt sarflashga majbur edilar. Har bir chek yerga solinadigan va tobora ortib borgan "daniyaliklar puli", ya’ni daniyaliklarga qarshi kurashish uchun yig‘iladigan soliq ham dehqonlar zimmasidagi og‘ir yuk edi.

Biroq ingliz-sakslarda jamiyatning feodallashuvi jarayoni normanlar istilosi vaqtida tugallanmagan edi. Dehqonlarning loaqal yarmi hali erkin jamoa a’zosi bo‘lib, ularning lordlar bilan bo‘lgan munosabati hali butunlay krepostnoylik munosabatlari tusini olmay, balki homiylik munosabatlarigina edi. Hatto krepostnoylashtirilgan geburlarning ahvoli ham

[51] **Gayda -** taxminan 120 akrga teng. Akr - 0,4047 gektarga teng yer o`lchovi.
[52] **Virgata –** gaydaning to`rtdan bir qismi.

turlicha bo‘lib, har qaysi manor har xil edi. Bir qancha joylarda geburlar qaram kishilarga o‘xshardi, lekin ular chinakam krepostnoylik holatida emasdilar. Shimoli-sharqiy Angliyada, daniyaliklar o‘rnashgan mintaqada erkin dehqonlar ("erkin kishilar") hali juda ko‘p edi. Skandinavlar jamiyatining ancha keyin taraqqiy etishi, sharqiy Angliyadagi daniyalik-skandinaviyalik aholi orasida urug‘chilik tuzumi elementlarining saqlanib qolishi natijasida shunday hol yuz berdiki, hatto janubi-sharqdagi ingliz-saks dehqonlari ilgarigi erkinligi va mustaqilligidan butunlay mahrum bo‘lgan bir vaqtda ham "daniyaliklar mintaqasi"dagi dehqonlar o‘z mustaqilligini birmuncha saqlab qolgan edi.

Angliya ruhoniylari arxiyepiskop Kenterberiyskiy boshchiligida papa hokimiyati bilan bo‘lgan munosabatda, qit’adagi cherkovga qaraganda, ancha mustaqil mavqedan foydalanganlar. Ibodat qilish mahalliy tilda olib borilgan. Ruhoniylarning vakillari mahalliy va qirollik majlislarida dunyoviy ishlarni hal qilishda ishtirok etganlar.

Angliya cherkovi katta yer egasi edi. Unga mamlakatdagi butun yerlarning uchdan bir qismigacha tegishli bo‘lgan. Shu bilan birga dindor shaxslar umumdavlat soliqlari va majburiyatlaridan ozod qilinmagan edilar.

Umuman olganda, normandlar istilosi arafasida ingliz-sakslar jamiyatining feodallashuvi, feodal yer egaligining, vasallik-lenlik ierarxiyasining rasmiylashishi hali nihoyasiga yetmagandi. Mamlakatda, ayniqsa, uning sharqiy qismida hali erkin dehqonlarning anchagina qatlamlari mavjud edi. Lekin shunga qaramay, XI asrga kelib, butun Angliya hududida jamoa munosabatlari o‘z o‘rnini allaqachon feodal munosabatlarga bo‘shatib bergan edi.

Ingliz-sakslarning davlat tuzumi

Ingliz-sakslar davlatida davlat hokimiyatining tashkil etilishi ular vujudga kelgan va rasmiylashgan sharoitlar bilan belgilanadi. Davlat tuzumida urug‘-qabila tashkilotlarining anchagina qoldiqlari saqlanib qolgan edi.

Keltlarga qarshi kurash davomida german qabilalarida mulkiy tabaqalanish va sinflarning tashkil topish jarayoni tezlashdi. Bu esa o‘z navbatida ularda urug‘chilik tuzumining yemirilishi va davlatning tashkil topishini tezlashtirdi. Dastlab german qabilalari Britaniyadagi bosib olgan yerlarida ko‘p sonli mayda davlatlar tashkil etdilar. VII asrga kelib Britaniya hududida yettita nisbatan yirik davlatlar (Geptarxiya) vujudga keldi.

Yagona ingliz-sakslar davlatining tashkil topishi daniyaliklarning ikki marotaba bosqiniga qarshi shiddatli kurash sharoitida sodir bo‘ldi va ingliz qiroli Eduard Ispovednik davri (1042-1066 yillar)da nihoyasiga yetdi.

Mamlakatning birlashtirilishiga qadar yagona davlatda har bir kichik qirollikning o‘z qiroli bo‘lgan. Bu davlatlarning ko‘pchiligida qirollar saylab qo‘yilardi. Bu xuddi ilgarigi qabila boshliqlari (dohiylar)ni saylash tartibiga o‘xshash edi.

Davlat tashkil topgandan so‘ng dastlabki bosqichda ingliz-sakslar qirollarining hokimiyati kuchsiz bo‘lgan. Hatto qirol mulkini o‘g‘irlashda ayblanganlar oddiy dindorning mulkini o‘g‘irlaganlar bilan teng miqdorda jarima - o‘g‘irlangan mulkning to‘qqiz baravar miqdorini to‘lardilar. Qirol shaxsi arxiyepiskop shaxsi bilan teng darajada himoya qilingan. Biroq, qirol oliy hokimiyat egasi bo‘la borgan sari uning mavqei ancha mustahkamlangan. Qirol shaxsiga nisbatan qilingan har qanday tajovuz jinoyat hisoblangan, uning hayotiga suiqasd uchun esa aybdor o‘limga mahkum etilgan.

Qirol harbiy hokimiyat egasi sifatida davlatdagi "tinchlik va xavf-sizlik"ni qo‘riqlab turgan. Qirollik tinchligini buzish eng og‘ir jinoyat hisoblangan. Qirol oliy sudya bo‘lgan. Hukmron tabaqalar uchun ancha xavfli jinoiy ishlar bevosita qirol sudida ko‘rib, hal etilgan. Bunday hollarda qirol ishlarni vitanlar (donishmandlar) ishtirokida hal qilardi. Vitanlar yangi qonunlar ishlab chiqishda ham bevosita qatnashardilar. Ingliz-sakslar davrida qirol hokimiyati ancha o‘sgan va mustahkamlangan bo‘lishiga qaramay, qirolga harbiy sarkarda sifatida qarash va taxtni almashtirishda saylovlar tamoyili saqlanib qolgan edi. Biroq, monarx asta-sekin o‘zining yerga oliy egalik qilish, monetalarni tanho o‘zi chiqarish, butun erkin aholidan soliq va bojlar olish, harbiy xizmatlar talab qilish kabi huquqlarini o‘rnatgan. Ingliz-sakslarda qirol foydasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq olish mavjud edi. Har bir chek yerga solinadigan va tobora ortib borgan "daniyaliklar puli" aynan shunday soliq edi. Bundan tashqari, harbiy yurishlarda ishtirok etishdan voz kechganlardan ham qirol foydasiga jarima olinardi.

Yuqoridagilar bilan birga, IX-XI asrlardagi huquqiy yodgorliklar qirol hokimiyati huquq va vakolatlarining, xususan, o‘z hududida odamlarni sud qilish, jarimalar va yig‘imlar undirish, qo‘shin to‘plash kabi huquqlarining yirik yer egalariga o‘tkazilishi tendensiyasi bo‘lganligi haqida ham xabar beradi. Qudratli tanlar ko‘pincha qirollik vakillari ma’muriy okruglarning boshqaruvchilari etib tayinlanardi.

Ingliz-sakslar davrida oliy davlat organi - **vitanagemot -** vitanlar, ya’ni "donishmandlar" kengashi bo‘lgan. Bu munosib, "ko‘p mulkli" erkaklar yig‘inida qirol, oliy ruhoniylar, dunyoviy zodagonlar, shuningdek, qirol tomonidan shaxsan taklif etilgan qirollik tanlari ishtirok etgan. Uning tarkibi 30 tadan 100 tagacha yetgan. Eduard Ispovednik davrida vitanagemotda qiroldan yer va saroy mansablarini olgan ko‘pgina normandlar ham ishtirok etgan. Bundan tashqari, vitanagemot majlislariga Shotlandiya va Uels qirollari hamda Londondan saylanganlar ham taklif etilardi.

Barcha muhim davlat ishlari mazkur yig‘inning "maslahati va roziligi bilan" hal etilardi. Uning asosiy funksiyalari - qirollarni saylash va oliy sudni amalga oshirish edi. Qirol hokimiyati IX-X asrlarda vitanagemotning ijtimoiy siyosatning ancha muhim masalalariga, jumladan, yerlarni taqsimlashga aralashuvini cheklashga erishdi.

Vitanagemot kompetensiyasi turli davrlarda va turli ingliz-sakslar davlatlarida turlicha bo‘lgan. U qirol hokimiyatining qanchalik kuchli yoki kuchsiz bo‘lganligiga bog‘liq edi. Ko‘pincha qirolning funksiyalarini vitanagemotning funksiyalaridan ajratish qiyin bo‘lgan. Barcha muhim ishlarni hal etish, qonunlarni muhokama qilish, yangi soliqlar o‘rnatish vitanlar yig‘inining vakolatiga kirardi. Vitanagemot qirolni saylagan, urush va tinchlik masalasini hal etgan, yepiskoplarni saylagan va qirollik sudida sud ishlarini ko‘rishda qatnashgan, qirol in'omlarini tasdiqlagan, agar ularni tasdiqlamasa, amalga oshmas edi.

Qirol saroyi mamlakatni boshqarish markaziga, qirolning yaqinlari esa davlatdagi yuqori mansabdor shaxslarga aylanib, oqibatda vitanagemotning ahamiyati tobora pasayib bordi.

Qirol saroyining asosiy boshqaruvchilari ichida kamerariy, marshal, qirollik kapelanlari katta ahamiyatga ega edi. **Kamerariy** qirollik mol-mulki va moliyasi ahvoliga javob bergan. **Marshal** esa qirollik otliq askarlarining qo‘mondoni hisoblangan. **Qirollik kapelanlari** davlatning devonxona ishlarini yuritganlar.

Armiya

Ingliz-sakslar qirollarining armiyasi drujinachilar va xalq lashkarlari (fyrd) dan tuzilgan. Qirollarning drujinalari kam sonli, lekin yaxshi qurollangan edi. Drujinachilar armiyaning yadrosi hisoblangan. Armiyaning asosiy qismini har bir graflikdan to‘planuvchi ko‘ngillilar otryadlari (xalq lashkarlari) tashkil etgan. Xalq lashkarlari qurol ko‘tarishga qodir barcha erkin fuqarolardan to‘plangan.

Buyuk Alfred armiyada islohotlar o‘tkazgan. U daniyaliklarga qarshi kurashishda qisman eski umumiy xalq lashkarlariga tayandi, qisman harbiy-feodal turdagi katta, o‘rtacha va mayda yer egalaridan iborat feodal

qo‘shinning kuchaytirilishini quvvatladi. Shu tariqa, Angliyada ritsarlar vujudga kela boshladi. Bundan tashqari, Alfred daniyaliklarga qarshi kurashda juda ko‘p burglar - qal'alar qurib, ularga qo‘riqchi otryadlar qo‘ydi va dengizning qirg‘oq bo‘ylarini daniyaliklar hujumidan qo‘riqlash uchun dengiz floti qura boshladi. U doimiy soliq olishni joriy etdi, aynan shu soliq "daniyaliklar puli" deb ataldi.

Buyuk Alfredning armiyada o‘tkazgan islohoti og‘ir qurollangan jangchilar sonini oshirish maqsadini ko‘zlagan edi. Besh gaydadan ortiq yerga ega bo‘lgan har bir yer egasi o‘z qiroliga harbiy xizmat o‘tashi va uning yurishlarida oti bilan to‘liq qurollangan holda ishtirok etishi lozim edi.

Hokimiyat va boshqaruvning mahalliy organlari

Ingliz-sakslarda asosiy ma’muriy-hududiy birlik **graflik (shire)** bo‘lgan. Taxminan o‘sha vaqtda mamlakat hududi, asosan harbiy maqsadlarda 32 ta katta graflikka (okrugga) bo‘lingan edi. Graflikning markazi, odatda, mustahkamlangan shahar bo‘lgan. Ba’zi grafliklar ilgarigi kichik qirolliklarning hududini to‘liq qamrab olgan bo‘lsa, boshqalari ancha yirik qirolliklarning bir qancha grafliklarga bo‘linishi natijasida tashkil topgan edi. Grafliklar tepasida e**ldormenlar** turgan. Eldormenlar qirol tomonidan vitanlar bilan kelishib, mahalliy feodallar orasidan tayinlanardi. Eldormen va uning uyi qirollik himoyasi ostida edi. Eldormen asosan graflik yig‘iniga va uning qurolli kuchlariga rahbarlik qilardi. Grafliklardagi sud jarimalarining bir qismi eldormenlarga xizmat vazifalarini ado etganligi uchun mukofot tariqasida kelib tushardi. Eldormenlar faqat qirol va grafliklar manfaatlarining rasman ifoda etuvchi vakillari bo‘lishgan. Amalda ular mahalliy yer egalarining manfaatlarini himoya qilardilar. Shu sababli ingliz-sakslar qirollari grafliklarga o‘zlarining shaxsiy vakillari - **sheriflarini**[53] tayinlab qo‘ya boshladilar. Sheriflar dastlab faqat qirol xazinasi foydasiga pul yig‘ish bilan shug‘ullanardilar. X asrdan boshlab, qirol hokimiyatining kuchayishi bilan sheriflar eldormenlarning birinchi yordamchilariga aylantirilganlar va graflikni boshqarishning asosiy iplarini o‘z qo‘llariga olganlar. Shunday qilib, mahalliy boshqaruvda sheriflarning roli xuddi franklar davlatidagi graflarning roliga o‘xshash edi. Bir qancha grafliklar tepasida bitta eldormen turgan joylarda sheriflarning vakolatlari va boshqaruvdagi o‘rni katta ahamiyatga ega edi. Sherifning majburiyatiga graflikda qirol imtiyozlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish va qirol foydasiga o‘talishi lozim bo‘lgan majburiyatlarning bajarilishi ustidan kuzatib turish kabilar kirardi. Sherif

[53] **«Sherif»** so`zi ikki so`z: gerefa («oqsoqol») va shir (ingliz – sakcha graflik nomi) – «shayr» - «gerefa» so`zlarining qo`shilishidan kelib chiqqan.

barcha moliya masalalarida va sudda qirol hokimiyatining vakili sifatida chiqqan. Unga politsiyachilik funksiyalari ham yuklangan edi.

Graflikdagi muhim organ **graflik yig‘ini - folkmot** bo‘lgan. U X asr oxiridan boshlab sherif tomonidan bir yilda ikki marta chaqirilib turgan. Folkmot tarkibiga eldormen, sherif, graflikning yepiskopi, barcha yer egalari va har bir qishloq jamoasidan oqsoqol, ruhoniy va to‘rttadan aholining hurmatga loyiq kishisi kirgan. Grafliklar yig‘inlarida asosan muhim mahalliy ishlar, jinoiy va fuqarolik sud ishlari ko‘rib hal qilingan. Bundan tashqari, ularda qirolga soliqlar to‘lash, grafliklardan drujinalar tuzish va graflikda xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq masalalar ham muhokama qilinardi.

Ingliz-sakslar davlatlaridagi grafliklar yuzliklarga bo‘lingan. Yuzlik tepasida **yuzboshi** turgan. Yuzboshi yuzlik yig‘inida saylab qo‘yilgan. Yuzlik yig‘inlari (yuzboshilar majlislari) oyda bir marta to‘plangan. Ularda oqsoqol, ruhoniy, har bir qishloq jamoasidan to‘rttadan eng hurmatli dehqonlar va okrugning barcha yer egalari ishtirok etgan. Yuzliklar yig‘inlarida jinoiy va fuqarolik masalalari bo‘yicha sud ishlari ko‘rib hal qilingan. Bunday yig‘inlarning kompetensiyasiga okrug doirasida yerga egalik huquqining bir shaxsdan boshqasiga o‘tkazilishini guvohlantirish va jamoalar o‘rtasida soliqlarni taqsimlash kabilar taalluqli edi.

Ingliz-sakslar davlatining eng quyi zvenodagi ma’muriy-hududiy birligi **qishloq (tun) jamoasi** bo‘lgan. **Jamoa yig‘ini - galimot** qishloqning yuqori organi edi. Unda jamoaning barcha katta yoshli erkaklari ishtirok etib, xo‘jalik masalalari (ekin ekish, chorva boqish va hokazolar) hal qilingan, jamoa tarkibiga kiruvchi qishloq aholisi o‘rtasidagi mayda jinoiy va fuqarolik ishlari ko‘rib hal qilingan. Jamoa tepasida saylab qo‘yiladigan q**ishloq oqsoqoli (tungerefa)** turgan.

Politsiyalik maqsadlarida jamoa o‘**nta tomorqaga** - oilaga bo‘lingan. Jinoyat sodir etilgan hollarda ana shu o‘nta tomorqa a’zolariga jinoyatchini ushlab, hokimiyatga topshirish majburiyati yuklangan. Aks holda, ular jamoaviy javobgarlikka tortilganlar. Yuzliklarning xalq yig‘inlarida yiliga ikki marta o‘nta tomorqaning faoliyati tekshiruvdan o‘tkazib turilgan. Bunda o‘nta tomorqaliklarning o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligi, barcha huquqbuzarliklarning aniqlanganligi va aybdor shaxslarning tegishlicha hokimiyatga topshirilganligi tekshiruvdan o‘tkazilardi. Shunisi xarakterliki, o‘nta tomorqa tarkibiga yirik yer uchastkasiga egalik qilib turgan jamoa a’zolari kirmagan. Yirik yer egalari imtiyozli tabaqa sifatida yuqoridagi majburiyatlardan ozod edilar.

Ingliz-sakslar davlatlari yashagan davrda **shaharlar** vujudga keldi. Shaharlar asosan qirollik yerlarida joylashgan edi. Shaharlarni boshqarish yo grafliklarning sheriflari tomonidan yoki buning uchun maxsus tayinlangan qirol chinovniklari tomonidan amalga oshirilgan.

Shaharlar va portlar o‘zlarining xalq yig‘inlariga ega bo‘lganlar. Ular keyinchalik shahar va savdo sudlariga aylantirilgan edi.

O‘nliklar, yuzliklar va grafliklar aniq o‘rnatilgan ierarxiya (bosqich-ma-bosqich bo‘ysunish) tizimi asosida tashkil etilmagan edi. Ular ma’lum darajada bir-biridan mustaqil, avtonom tarzda idora etilardi.

Biroq, grafliklarda sherif lavozimining ta’sis etilishi shuni ko‘rsatadiki, ingliz-sakslar davridayoq joylarda markazlashtirilgan byurokratik boshqaruv, qirolga hisob beradigan va qirol buyruqlari asosida harakat qiladigan ma’-muriy okruglarning mansabdor shaxslar tomonidan bosh-qarilishi joriy qilina boshlagan.

Sud hokimiyati

Ingliz-sakslar davrida ko‘p jinoiy va fuqarolik ishlari grafliklar va yuzliklarning yig‘inlarida ko‘rib, hal qilingan. Grafliklarning yig‘inlarida jinoiy, fuqaro-lik va diniy ishlar ko‘rilgan. XI asrga kelib grafliklar yig‘inlarining yuris-diksiyasi (sud qilish huquqi) yanada kengaydi. Ko‘p ishlarni ko‘rib hal qilish ularning qat’iy huquqi bo‘lib qoldi.

Ingliz-sakslar qirollari tomonidan o‘z feodallariga berilgan immunitet yorliqlari yer egalariga qaram dehqonlar ustidan keng sud hokimiyatini berar edi. Votchina sudida dehqonlar jinoyatini ko‘rishda o‘lim jazosi tayinlash mumkin emas edi. Bu yuzliklar yig‘ini yurisdiksiyasining ma’lum darajada cheklanishiga olib kelgan.

Davlatda oliy sud qirol sudi bo‘lgan. U davlatga xiyonat, qirol vassallari o‘rtasidagi nizolar va yerga egalik bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar haqidagi ishlarni ko‘rib, hal qilgan. XI asrga kelib qirol sudining hamda graflik va yuzliklar yig‘inlarida ishlarni ko‘rishda qirol chinovniklari rolining kuchayishi sodir bo‘ldi. Bu vaqtga kelib, erkin aholi sud ishlarini hal qilishda ishtirok etishdan butunlay chetlashtirila bordi.

Sud hokimiyatining yer egalari va qirol chinovniklari qo‘lida to‘planishi natijasida sudlar krepostnoylashtirilgan dehqonlar ommasiga qarshi kurash quroliga aylantirilgan edi.

3. Angliyada markazlashgan senorlik monarxiyasi (XI-XII asrlar)

Ijtimoiy tuzum

Angliyaning Vilgelm boshchiligida normandlar tomonidan istilo qilinishi (1066 yil) ingliz jamiyati feodallashuvining chuqurlashishiga olib kelgan.

Normand istilosidan keyin Angliya feodal xo‘jaligining asosini manor tashkil etgan. **Manor** - alohida feodalning yer egaliklari yig‘indisi bo‘lgan. Manordagi dehqon o‘z lordi tomonidan sud qilinib, uning ahvoli manordagi urf-odatlar bilan belgilangan. Yuzliklar sudining yarmidan ko‘pi manor sudlariga - feodallarning xususiy kuriyalariga aylantirilgan. Shular bilan bir qatorda, Vilgelm Fotix o‘z mavqei va ingliz siyosiy an’analaridan foydalanib, davlatni markazlashtirish va qirol hokimiyatini mustahkamlash siyosatini olib borgan.

Ingliz-sakslar zodagonlaridan musodara qilingan yerlarning ko‘p qismi qirollik domeni tarkibiga kirgan, qolganlari esa normand va ingliz-saks feodallari o‘rtasida taqsimlangan. Bosqinchilar o‘zlari bilan birga shiddatli "o‘rmon huquqi"ni ham olib kelganlar. Bunga ko‘ra, ko‘p o‘rmon massivlari qirollik qo‘riqxonasi deb e’lon qilinib, uning chegaralarini buzganlik uchun qattiq jazo o‘rnatilgan. Bundan tashqari qirol o‘zini barcha yerlarning oliy egasi deb e’lon qilgan va barcha erkin dehqonlardan o‘ziga sodiqlik hamda qasamyod talab qilgan. Bunday qasamyod hamma darajadagi feodallarni qirolning vassaliga aylanishiga olib kelgan. Feodallar avvalo qirol uchun harbiy xizmat o‘tashga majbur edilar. Qit’a uchun xos bo‘lgan "vassalimning vassali - mening vassalim emas" degan tamoyil Angliyada o‘rnatilmagan. Barcha feodallar ikkita asosiy turkumga: qirolning bevosita vassallari - yirik yer egalari (graflar, baronlar); ikkinchi pog‘onadagi vassallar (vassallarning vassallari) - o‘rta va mayda yer egalariga bo‘lingan. Ruhoniylarning ham asosiy qismi, xuddi dunyoviy vassallar singari qirol foydasiga xizmat o‘taganlar.

Shunday qilib, Angliya feodallari qit’a feodallari foydalangan mustaqillik va immunitetlarni olmagan edilar. Qirolning barcha yerlarga oliy egalik qilish huquqi unga yer uchastkalarini qayta taqsimlab turish va yer egalari o‘rtasidagi munosabatlarga aralashish imkonini berib, qirollik adliyasining (sud qilish ishlarining) barcha darajadagi feodallar sudiga nisbatan ustunligi (yuqori turishligi) tamoyilining o‘rnatilishiga xizmat qilgan.

Soliq siyosatini muvaffaqiyatli olib borish va mamlakat aholisining ijtimoiy tarkibini aniqlash maqsadida 1086 yilda mamlakatdagi barcha yerlar va aholi ro‘yxatga olingan. Ro‘yxatga olish natijasida tuzilgan varaqalar xalq orasida **"Dahshatli sud kitobi"** deb atalgan. Qirol xazinasi yer egaligining hajmi to‘g‘risida endi aniq ma’lumotlarga ega ekan, aholi ro‘yxati hukumatga "Daniya puli" deb atalgan eski yer solig‘ini ko‘paytirilgan miqyosda undirish imkonini berdi. Yangi normand-fransuz lordlarining ingliz qishlog‘idagi krepostnoy ahvolni rasmiylashtirishga intilishi ana shu ro‘yxatda ravshan aks etdi. 1086 yilgi ro‘yxatda dehqonlar turli nomlar:

ozod kishilar (kelajakda ular frigolderlar yoki yerni erkin tasarruf qiluvchilar deb ataldilar), sokmenlar, villanlar, bordarilar[54], kottarilar, shuningdek, ko‘pgina miqdorda qullar nomi ostida gavdalandilar. Ammo villanlar ro‘yxatda tez-tez uchrab turadi. XI-XII asrlar sharoitida krepostnoy tabaqa xususiyatlariga ega bo‘lgan dehqonlarning bu toifasi (feodal yer-mulkida qo‘yilgan) ingliz qishlog‘ining feodal-krepostnoylik qiyofasini hammadan ko‘ra ochiqroq xarakterlab beradi. Ammo Angliyaning shimoli-sharqiy qismida, hatto 1086 yilgi ro‘yxatda ham dehqonlarning salkam yarmi "erkin kishilar", qisman sokmenlar holatida qolaverdi. Ularga faqat manordagi lordning sud hokimiyati tarqatilgan edi.

XI-XII asrlarda erkin dehqonlar ommasi ziddiyatli omillar ta’siri ostida bo‘lgan. Bir tomondan, qirol hokimiyati erkin dehqonlarning quyi toifasini krepostnoylashtirishga, ularni villanlarga aylantirishga imkoniyat yaratgan. Boshqa tomondan, XII asrning oxirida bozorning rivojlanishi ancha boyigan dehqon egaliklarining paydo bo‘lishiga va bularga qirol hokimiyatining yirik feodallar separatizmi bilan kurashda siyosiy ittifoqchi sifatida qarashiga olib kelgan. Qirollik sudlari ko‘pincha bunday boyigan dehqonlarni lordlarning o‘zboshimchaliklaridan himoya qilib turgan. Qirollik "umumiy huquqi" tomonidan har qanday erkin yer egaliklari (freehold)ning (ritsarlarga, shaharlarga, dehqonlarga qarashli bo‘lgan yerlar) rasman, bir xil himoya qilinishi XII asr oxirida erkin dehqonlarning yuqori qismi, shaharliklar va mayda ritsarlar o‘rtasidagi huquqiy va ijtimoiy farqlarning yo‘qolishiga imkon tug‘dirgan. Bu tabaqalar iqtisodiy manfaatlarining ma’lum darajada umumiyligi ham ularni yaqinlashtirgan.

Davlatning nisbatan yagonaligi, Normandiya va Fransiya bilan o‘rnatilgan aloqalar savdoning rivojlanishiga ko‘maklashdi. Ingliz savdogarlari qirol hokimiyatining kuchayishidan tez orada foyda ko‘radigan bo‘ldilar. Mamlakatda savdo-sotiq jonlana boshladi. Vilgelmning quruqlik bilan aloqasi ham bunga yordam berdi. Ingliz savdogarlariga Normandiya va Flandriya bilan savdo-sotiq qilish imkoniyati berildi. Chunki Vilgelm hamon normand gersogi bo‘lib hisoblanar, ingliz qirolichasi esa flandriyalik edi.

Angliyada markaziy hokimiyatning kuchayishi sharoitida shaharlar, qit’aning janubidagi yoki Germaniyadagi singari, muxtoriyat olmaganlar va tobora tez-tez qirollik xartiyalarini sotib olishga majbur bo‘lganlar. Xartiyalarda esa faqat ba’zi savdo imtiyozlarigina berilardi.

[54] **Bordari va kottarilar –** o`rta asrlar Angliyasidagi kam yerli dehqonlarning nomlari. Bordarilarning bir qismida villanlarga qarashli to`liq chek yerning qariyib yarmigacha keladigan yer bo`lardi, kottarilarda juda ozgina chek yer bo`lib, u asosan tomorqa yer uchaskalari edi.

Shunday qilib, normand bosqini Angliya uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Buning natijasida jamiyatning feodallashish jarayoni nihoyasiga yetdi, qirol hokimiyati kuchaydi, mamlakatning siyosiy birligi mustahkamlandi, Angliyaning qit’a bilan aloqalari kuchaydi.

Normand bosqinidan keyin Angliyada kuchli qirol hokimiyatiga asoslangan markazlashgan davlat tashkil topdi. Bu vaqtda qirol hokimiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi: birinchidan, mamlakatning barcha yerlariga qirolning oliy huquqi o‘rnatilib, bu qirolning hamma feodallar ustidan hokimiyatini ta'minlardi; ikkinchidan, davlatda qonun chiqarish va oliy sud hokimiyati qirol qo‘lida to‘plangan edi; uchinchidan, oliy harbiy hokimiyat ham qirol qo‘lida edi.

Davlat tuzumi

Normand qirollarining tadbirlari jamiyatning feodallashuvi jarayonining chuqurlashishiga qaramay, davlatning markazlashuvini va davlat birligining saqlanishini ta'minladi. Biroq, XII asr oxirigacha davlatning markazlashuvi asosan ingliz-normand qirollarining senorlik xususiy huquqlari hisobiga ta'minlangan va ularning feodal-ierarxiya tizimi va mahalliy cherkovning obro‘-e’tiborli boshlig‘i bo‘la olishi qobiliyatiga bog‘liq edi. Qirollikning o‘z fuqarolariga nisbatan sud va xazinaga oid huquqlari faqat oliy senorning o‘z vassallariga nisbatan huquqlari bo‘lib, sodiqlik haqidagi qasamyodga asoslangan. Ular ma’lum darajada feodal odatlardan kelib chiqqan (garchand endilikda uning doirasidan o‘sib chiqa boshlagan bo‘lsa ham).

Bu vaqtda qirollikning sud va moliya huquqlari har daqiqa norozi vassallar tomonidan inkor qilinishi mumkin edi. Bundan XI-XII asrlardagi o‘z senorlik huquqlarini suii'ste'mol qilishlikda toj-taxtni ayblab uyushtirilgan baronlarning tuganmas isyonlari ham dalolat beradi. Normand istilosidan boshlab, butun XII asr mobaynida qirollar ingliz-sakslarning azaliy urf-odatlariga va erkinliklariga o‘zlarining sodiqliklarini doimo tasdiqlab turishga, baronlar va cherkovga esa "erkinliklar xartiyalari" in'om etib turishga majbur edilar. Mazkur xartiyalar tinchlik, azaliy, "adolatli" urf-odatlarni qo‘llab-quvvatlash va "yaramaslari"ni tugatish, toj-taxtning feodal, cherkov va shaharlarning imtiyozlari va erkinliklariga rioya etish majburiyatlari to‘g‘risidagi me’yorlarni o‘z ichiga olgan edi. Biroq, XII asrning o‘rtasidan boshlab qirol hokimiyatini feodal urf-odatlar va xususiy qasamyodlar doirasida ushlab turishga qaratilgan harakatga qaraganda markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo‘lgan harakat kuchaya boshladi.

XII asrning ikkinchi yarmigacha Angliyada professional ma’muriy-sud organlari bo‘lmagan. Boshqaruv markazi - qirol saroyi doimo ko‘chib

turgan va Angliyada uzoq vaqt bo‘lmagan. Chunki qirol ko‘pincha Normandiyada yashardi.

Angliyada qonun chiqarish hokimiyati qirolga tegishli bo‘lsa ham, ko‘pincha u **qirollik kuriyasi** (curia regis) bilan birgalikda amalga oshirilgan. Lekin qirollik kuriyasi qirol huzuridagi maslahatchi organ edi. Kuriya boshqaruvning u yoki bu sohalarini yuritadigan qirolning bevosita vassallari va yaqinlaridan iborat yig‘in bo‘lib, uning tarkibi aniq belgilanmagan edi. U davlat boshqaruvining oliy organi, oliy sud organi va mamlakat moliyasini yurituvchi organ hisoblangan. Davlatning muhim masalalarini hal etishda kuriyaning majlislariga oliy dunyoviy va diniy zodagonlar ham taklif etilganlar. Bunday hollarda u ingliz-saks qirollarining vitanagemotini eslatadi.

Qirollik kuriyasi oliy sud organi sifatida toj-taxt manfaatlariga daxldor bo‘lgan ishlarni, qirol vassallari o‘rtasidagi nizolarni, mahalliy sudlar qarorlari ustidan tushgan shikoyatlarni (apellyatsion tartibda) ko‘rib hal qilgan.

Genrix I davrida (1100-1135 yillar) markaziy davlat apparati ancha takomillashtirilgan. Qirollik kuriyasi **katta kengash** va **doimiy hukumat organi (kichik kuriya)**ga ajralgan. **Katta kengash** bir yilda uch marta (rojdestvo, pasxa va troitsada) chaqirilgan. Uning tarkibiga qirol chinovniklari, asosiy xizmatchilari va mamlakatning eng yirik zodagon vakillari kirgan. Uning kompetensiyasiga muhokamaga kiritilgan barcha masalalar bo‘yicha va qirollik qonunlari bo‘yicha maslahatlar berish kirgan. Kengash tavsiyalari majburiy kuchga ega bo‘lmagan. Biroq qirol bunday muassasaning mavjudligidan manfaatdor edi, chunki shu yo‘l bilan ta’sirli feodallar tomonidan o‘zining siyosiy harakatlari tan olinishiga erishardi. **Kichik kuriya** oliy sud, ma’muriy va moliyaviy hokimiyatni amalga oshirardi. Uning tarkibiga qirol chinovniklari: lord-kansler, lord-xazinachi, kamerger, saroy styuardi, qirolning shaxsiy muhrini saqlovchi va saroy xizmatchilari, shuningdek, maxsus taklif etilgan yuqori mansabli ruhoniylar va baronlar kirgan. Genrix I davrida kichik kuriya oliy sud hamda ma’muriy organ funksiyalarini bajaruvchi xususiy qirollik kuriyasiga va qirolning moliyaviy ishlarini yurituvchi hisob palatasi ("shaxmat taxtasi" palatasi)ga ajralib ketdi. Kuriyaning majlisiga qirol raislik qilgan, u yo‘qligida bu vazifani bosh yustitsiar amalga oshirgan.

Genrix I davrida qirollik sudi kuchayib, mutaxassis-sudyalari bo‘lgan va muntazam ish olib boruvchi sud palatasiga aylandi. Qirol sudyalari vaqti-vaqti bilan mamlakat bo‘ylab safarga chiqib, ayrim grafliklarda sud ishlarini olib borardilar (shuning uchun ular sayyor sudyalar deb atalardi).

Sud palatasi qirol kursisi sudi degan nom olgan edi. Genrix I davrida moliya boshqarmasi ham tashkil topdi. Oliy moliya palatasi «shaxmat taxtasi palatasi» deb atalardi, chunki bunda ustiga katakli movut yopilgan (shaxmat taxtasini eslatadigan) stol turardi. Bu stollarda pul sanalardi. Shaxmat taxtasi palatasi oliy hisob palatasi va joylardagi moliyaviy idoralar chinovniklari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar haqidagi ishlar bo‘yicha sud organi edi. Shaxmat taxtasi palatasida, shuningdek, tomonlardan biri toj-taxt bo‘lsa, mulkiy nizolar ham ko‘rib hal qilinardi.

Bu davrda davlatning oliy mansabdor shaxslaridan, ayniqsa, bosh yustitsiar, kansler, marshal, kamerariy va boshqalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. **Bosh yustitsiar** qirol Angliyada yo‘qligida amalda davlatni idora etib turuvchi ruhoniy shaxs, kanonik va rim huquqining bilag‘oni hisoblangan. Uning yordamchisi kansler bo‘lgan. **Kansler** dastlab franklardagi kabi qirolning shaxsiy kotibi hisoblangan, keyinchalik esa davlat devonxonasining boshlig‘i bo‘lib qolgan, davlat kotibi rolini bajargan. **Marshal** - qo‘shinlar qo‘mondoni, **kamerariy** - xazinabon, qirollik mol-mulki, xazinasi va yer egaliklarining boshqaruvchisi, hisob palatasi boshlig‘i edi.

Genrix I tomonidan tashkil etilgan davlat apparati Genrix II (1154-1189 yillar) hukmronligi davrida yanada rivojlantirildi. Qirollik imtiyozlarining mustahkamlanishi, davlat apparatining byurokratlashtirilishi va professionallashtirilishi, oqibat natijada davlat hokimiyatining qat’iy markazlashtirilishi asosan Genrix IIning tadbirlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Boshqaruv va sudning umumdavlat byurokratik tizimini tashkil etgan Genrix II islohotlari asosan: 1) qirollik adliyasini yagona tizimga solish va aniq tuzilishga ega qilish (jarayon shakllarini takomillashtirish, an’anaviy va o‘rta asrlar sudlari bilan raqobat qiladigan qirollik sayyor sudlari va doimiy harakatdagi markaziy sudlar tizimini tashkil etish); 2) xalq qo‘shinlari va yollanma askar yig‘ish tamoyillarining qo‘shilishi asosida armiyani isloh qilish; 3) aholi to‘laydigan soliqlarning yangi turlarini o‘rnatish kabi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan.

Monarx hokimiyatining sud, harbiy va moliyaviy vakolatlari bir qancha qirollik farmonlari bilan rasmiylashtirilgan. Bulardan, ayniqsa, 1166 yilgi Buyuk Klarendon, 1176 yilgi Nortgempton assizalari, 1181 yilgi "Qurollanish haqida"gi assiza va boshqalar diqqatga sazovor.

Genrix II tomonidan sud-ma’muriy tizimining qayta qurilishida amalda ba’zan ingliz-sakslar, normandlar va cherkov mahkamalaridan ham foydalanilgan. Ilk o‘rta asrlar uchun tipik bo‘lgan sayyor boshqaruv amaliyoti Angliyada ancha doimiy va tartibga solingan xarakter kasb etgan.

Shu vaqtdan boshlab Angliyada sayyor sudlar faoliyati - qirollik sudlarining sayyor sessiyalari mustahkam o‘rnatilgan. Agar 1166 yilda graflikларni aylanib chiqish uchun faqat ikkita sudya tayinlangan bo‘lsa, 1176 yilda oltita sayyor okruglar tashkil etilgan va sayyor sudyalarning soni 20-30 tagacha ko‘paytirilgan edi. Ushbu buyruq bilan sudyalarga favqulodda vakolatlar (faqat sud qilish emas, balki ma’muriy, moliyaviy vakolatlar ham) berilgan, sayyor sudlarda qirol sudlovligiga tegishli barcha da’volar ko‘rib hal qilingan, jinoyatchilar qamoqqa olingan, mahalliy chinovniklarning suiiste’molliklari tekshirilgan.

Ayni zamonda qirollik idoralari tizimi tartibga solingan va yerga oid nizo va huquqbuzarlik ishlarini tekshirish uchun maxsus tartibot qonunlashtirilgan. Bunday tartibot faqat qirollik sudlarida qo‘llaniladigan "imtiyoz" va "muruvvat" sifatida barcha erkin kishilarga in'om qilingan. Dastlab bunday tartibot uchun qirollik devonxonasining maxsus farmoyishini - huquq haqidagi buyrug‘ini (writ of right) sotib olish lozim edi. Busiz qirollik sudlarida fuqarolik yoki jinoiy da’vo qo‘zg‘atish mumkin bo‘lmagan. Shundan so‘ng sayyor sudyalar yoki sheriflar o‘z aytganlarining to‘g‘riligini ont (qasam) ichib tasdiqlaydigan 12 ta to‘la huquqli fuqarolar – qasamxo‘rlar yordamida tergov ishlarini o‘tkazishlari lozim edi. Qasamxo‘rlar odatda guvohlar yoki qoralovchilar, ayblovchilar sifatida chiqqanlar. Tergovning bunday tartibi ordaliyalar va feodal sudlardagi sud to‘qnashuvlariga nisbatan ishlarni ancha ob’yektiv hal qilish imkonini berdi. Asta-sekin rivojlanib borgan qirollik idoralari tizimi yerga egalik huquqi haqidagi da’volar bo‘yicha manorial kuriyalar yurisdiksiyasining cheklanishiga olib keldi. Endilikda, hatto, villan ham jinoiy da’vo bilan qirollik sudiga murojaat qila olardi. Sheriflar, feodallarning huquqlari bilan hisoblashmay, jinoyatchilarni qo‘lga tushirish va o‘zaro kafillikka rioya etilayotganligini tekshirish maqsadlarida ularning yer egaliklariga kirishlari mumkin edi.

Shunday qilib, XII asrning ikkinchi yarmida Genrix II tomonidan fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha qirollik sudining maxsus mexanizmi tashkil etilgan. Bu mexanizm qirollik sudlarining obro‘sini oshirgan va yurisdiksiyasini kengaytirgan.

Takomillashgan sud tartibotning joriy qilinishi munosabati bilan XII asr o‘rtasidan boshlab markaziy boshqaruvning oliy organi - qirollik kuriyasining tuzilishi va vakolatlari murakkablashdi va o‘sdi. Funksiyalarning ixtisoslashtirilishi va kuriya tarkibidan qator alohida idoralarning ajratilishi jarayonida kansler boshchiligidagi devonxona, qirolning markaziy ("shaxsiy") sudi va moliya muassasasi batamom shakllandi. Qirollikning "shaxsiy" sudi tarkibiga 1175 yildan e’tiboran ruhoniy va dunyoviy shaxslardan doimiy

sudyalar saylana bordi. Mazkur sud Vestminsterda o‘zining doimiy qarorgohiga ega bo‘la borib, undan asta-sekin **Umumiy tortishuvli sud** ajralib chiqdi. Bu sud qirol ishtirokisiz ham yig‘ilishi va qirol boshqa yerga ko‘chib o‘tganda uning ketidan ergashib yurmasligi lozim edi. Umumiy tortishuvli sud faoliyati Angliyada "umumiy huquq"ni yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Qirol hokimiyati bilan ingliz cherkovi, dunyoviy sud bilan cherkov sudi o‘rtasidagi munosabatlar ancha murakkab edi. Normand istilosidan keyin cherkov va dunyoviy sudlar bir-biridan ajratilgan, shu bilan birga, cherkov sudlari barcha diniy va qisman dunyoviy (nikoh, vasiyat va boshqa) ishlarni ko‘ra boshlagan. Normand qirollari yepiskoplarni o‘zlari tayinlay boshlaganlar, Angliya va Normandiya uchun cherkov qarorlarini chiqara boshlaganlar, vakant yepiskoplardan daromadlar olganlar. Biroq, papa hokimiyatining va Rimdagi katolik markazning kuchayib borishi bilan ingliz taxti tez-tez cherkovning qarshiligiga duch kela boshlagan va "erkin cherkov" haqidagi masala Angliyada kelajakda cherkov va dunyoviy hokimiyat o‘rtasidagi nizolar uchun sabab bo‘lib qolgan.

Genrix I davrida Normandiyada papa bilan konkordat[55] tuzildi. Unga ko‘ra, keyinchalik Germaniyada bo‘lganidek, kanoniklarning diniy tartib-qoidalarini belgilash papaga, dunyoviy hokimiyat esa qirolga o‘tdi.

Genrix II mahalliy cherkov ustidan qirol ta’sirini kuchaytirishga harakat qilib, **1164 yilda Klarendon konstitutsiyalarini** chiqardi. Ularga ko‘ra, qirol cherkov sudlarida ko‘riladigan ishlar bo‘yicha oliy sudya deb tan olindi. Cherkov ishlariga oid barcha nizolar qirollik sudida hal qilinishi lozim edi. Qirol yurisdiksiyasi cherkov mulkchiligi haqidagi tekshiruvlarga, qarzlar haqidagi da’volarni ko‘rishga, og‘ir jinoyatlarda ayblanayotgan klerklarga nisbatan hukmlar chiqarish va ijro etishga ham yoyiladi. Qirolning ruxsatisiz uning vassallaridan va chinovniklaridan birortasi cherkovdan chetlashishi mumkin emasdi. Qirolning dunyoviy tartib-qoidalar o‘rnatishi tamoyillari va uning oliy cherkov mansablari saylovlariga aralashish imkoniyati o‘rnatildi.

Genrix II "yepiskoplar va abbatlarning saylovi mening ishtirokimda o‘tkazilishi kerak" deb talab qildi. Ruhoniylar jinoiy ishlar bo‘yicha boshqa hamma fuqarolar singari qirollik sudi tomonidan sud qilinishi lozim edi. Arxiyepiskoplar qirolning roziligini olgandan keyingina papa bilan munosabatda bo‘la olardilar. Biroq, papa va mahalliy ruhoniylarning tazyiqi ostida qirol Klarendon konstitutsiyalarining qator qoidalaridan voz kechishga majbur bo‘lgan.

[55] **Konkordat –** hukumat bilan Rim papasi o`rtasida tuziladigan shartnoma.

Genrix II ning XII asrning ikkinchi yarmida o‘tkazgan harbiy islohoti harbiy majburiyatlarning barcha erkin kishilarga - feodallarga, dehqonlarga, shahar aholisiga tarqatilishidan iborat edi. **1181 yilda** chiqarilgan **"Qurollanish haqida"**gi assizaga binoan erkin kishilarning har biri mulkiy ahvoliga qarab o‘z qurol-yarog‘iga ega bo‘lishi lozim edi. Qo‘shin o‘z qurol-yarog‘iga ega bo‘lsa-da, davlat xazinasi hisobidan ushlab turilgan. Bu vaqtda xazinaga kelib tushadigan tushumlar ancha o‘sgan edi.

Genrix II doimiy qo‘shin tuzmoqchi bo‘ldi. Chunki vassallarning ritsarlik xizmati bir yilda ma’lum kunlar bilan cheklangan bo‘lardi, bu esa quruqlikda uzoq urushlar olib borishda o‘ng‘aysizlik tug‘dirardi. Shu sababli Genrix II ritsarlarning bir qismini harbiy xizmatdan bo‘shata boshladi. Bunday ritsarlar shaxsiy xizmat qilish o‘rniga harbiy yoki qalqon solig‘i to‘lashlari lozim edi. Bu pulga qirol yil bo‘yi xizmat qilishga rozi bo‘lgan ritsarlarni o‘ziga yollashi mumkin edi. Shu tariqa qirolda yollanma ritsarlar qo‘shinini ushlab turish imkoniyati tug‘iladi. "Qalqon puli"ning joriy etilishi muhim ijtimoiy oqibatlarga ega bo‘ldi. Bu tadbir tufayli ingliz ritsarlari harbiy xizmatdan ertaroq ozod bo‘lib, tinch qishloq xo‘jayinlariga aylana boshladilar. Kelgusida bu holat quyi ingliz dvoryanlarini shahar burjuaziyasi bilan yaqinlashtirishda katta rol o‘ynadi.

Qurolli kuchlarning qayta tashkil etilishi natijasida qirol hokimiyati harbiy sohada feodallarga uncha bog‘liq bo‘lmay qoldi. Bu esa davlatning markazlashuviga ko‘maklashdi. Bu davrda feodallardan «qalqon puli» va shaharlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq (talya) olinishi bilan bir qatorda asta-sekin harakatdagi mulklarga soliq o‘rnatildi.

Genrix II ning harbiy va moliyaviy islohotlari qirolga sodiq qo‘shinlar sonining birdaniga o‘sishiga va qo‘shinlarga yirik feodallar tomonidan qo‘mondonlik qilinishi tartibining buzilishiga, shuningdek, professional chinovniklar ushlab turish uchun mablag‘lar hosil qilishga imkon yaratdi. Bundan tashqari, sud ishlarini amalga oshirish davlat budjetining juda muhim daromad manbai bo‘lib qolaverdi.

Mahalliy boshqaruv tizimi normand istilosidan keyin o‘zgarmadi. Mamlakatning grafliklarga va yuzliklarga bo‘linishi saqlanib qoldi. Grafliklarda sheriflar, yuzliklarda - ularning yordamchilari - beyliflar qirollik ma’muriyatining vakillari bo‘lib qoldi. Sherif graflik hududida harbiy, moliyaviy va politsiyachilik hokimiyatiga ega edi, qirollik devonxonasidan yuborilgan buyruqlarning asosiy ijrochisi hisoblanardi.

Sheriflar o‘zlarining ma’muriy va sud funksiyalarini grafliklar va yuzliklar yig‘inlari bilan mustahkam aloqada amalga oshirardilar. Ular bunday yig‘inlarni chaqirib, ularning sessiyalariga raislik qilardilar.

Yuqoridagi muassasalar, garchand asta-sekin mustaqillikni yo‘qotib borsalar-da, Angliyada keyingi davrlarda ham saqlanib, borgan sari markaziy hukumatning joylardagi asosiy quroliga aylangan. Ularning sud vakolatidan ko‘pgina fuqarolik da’volarining olinishiga qaramay, jinoiy ishlar bo‘yicha tergovlarda qatnashuvchi shaxslarning (ayblovchi qasamxo‘rlarning) tayinlanishi munosabati bilan mahalliy hokimiyat vakillarining roli o‘sdi. Qirollik sudlovida aholining ishtirok etishi ingliz mahalliy boshqaruvi tizimining xarakterli belgisi bo‘lib qoldi.

4. Tabaqa-vakillik monarxiyasi (XIII asrning ikkinchi yarmi - XV asr)

Ijtimoiy tuzumi

XIII asrda mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy kuchlar nisbati markazlashuv va butun hokimiyatning monarx qo‘lida tobora kuchli to‘planishi foydasiga o‘zgarib boraverdi.

Baronlar qirolning bevosita vassallari sifatida o‘z syuzereni oldida ko‘p sonli moliyaviy va shaxsiy majburiyatlar o‘tardilar. Agar baronlar o‘z zimmalaridagi bunday majburiyatlarni qasddan bajarmasalar, ularning yerlari musodara qilingan.

XIII asr mobaynida yirik feodallarning immunitet huquqlari ham ancha cheklandi. 1278 yilgi Gloster statuti ingliz feodallarining immunitet imtiyozlari sud yo‘li bilan tekshirilishini e’lon qildi. Umuman, Angliyada dvoryanlik tituli qandaydir o‘lponlar yig‘ish va sud qilish imtiyozlarini bermagan. Feodallar rasman boshqa erkin kishilar bilan teng darajada soliqlar to‘laganlar va bir xildagi sudlar tomonidan sud qilinganlar. Biroq ingliz oliy dvoryanlarining siyosiy qudrati ancha yuqori bo‘lgan. Oliy dvoryanlar qirol huzuridagi oliy maslahatchilar edi. Ular boshqa ba’zi davlat organlarining ishlarida doimo va albatta ishtirok etib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutardilar. XIII asrda Angliyaning yirik feodallari o‘zaro va qirol bilan yer va daromadlar manbai uchun, mamlakatda siyosiy nufuz uchun doimo qattiq va shafqatsiz kurash olib borganlar.

XIII asrda Angliyadagi ijtimoiy ziddiyatlarning boshqa bir yo‘li, bir tomondan, yirik feodallar, ya’ni lordlar, yepiskoplar, yirik monastirlarning abbatlari o‘rtasida yuz bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mayda ritsarlar o‘rtasida kelib chiqqan. Yuqorida sanab o‘tilgan yirik feodallar mamlakatdagi yerlarning ko‘pchilik qismini egallab olgan edilar. Mamlakatda yirik baronlarning yerlari parchalanib ketishi va alohida feodallar o‘rtasida

taqsimlanishi natijasida XIII asrning oxiriga kelib Angliya hukmron tabaqalarining 3/4 qismini o‘rta va mayda feodallar tashkil etardi. Ingliz feodallarining ana shu tabaqasidan oqibatda yangi dvoryanlar guruhi (jentri) shakllandi. Yirik feodallarning har biri bir necha o‘nlab, ba’zan esa yuzlab manorlarning egasi edi; krepostnoy dehqonlar, asosan shularga qarashli edi. Mayda ritsarlar ozgina haydaladigan yeri bo‘lgan kichik manorlarga egalik qilardilar, shu sababli ularda krepostnoylar juda oz bo‘lardi yoki hatto butunlay bo‘lmasdi. Mayda ritsarlar o‘z xo‘jaliklarida asosan batraklar mehnatidan foydalanib, ularni kam yerli dehqonlar-kotterlar hisobidan yollardilar.

Shunday qilib, ritsarlar garchi feodallar sinfiga mansub bo‘lsalarda, faqat o‘z mulklarining katta-kichikligi va qirol saroyidan ancha uzoqda turishlari bilangina emas, balki xo‘jalik yurgizish jihatidan ham yuqori tabaqa-baron aristokratlardan keskin farq qilardilar. Savdo-sotiq zaminida ritsarlar shaharliklar bilan tobora yaqinlashdilar. Ritsarlar soliq to‘lovchilar sifatida ham shaharliklar bilan yaqinlashdilar, chunki Angliyada ritsarlar yer solig‘i va boshqa soliqlardan ozod qilinmagan edilar. Fransiyada esa buning aksi edi. Bularning hammasi ritsarlar bilan shaharliklarning birgalikda siyosiy chiqishlar qilishi uchun sharoit yaratib berdi. XIII asrning ikkinchi yarmidagi siyosiy voqealar xuddi shuni ko‘rsatdi.

Bu davrda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi **dehqonlarning** ahvoliga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Dehqonlarning tabaqalashuvi kuchaydi, shaxsan erkin dehqonlar ommasi yuqori qismining soni o‘sdi. Boyigan dehqonlar - **frigolderlar** tez-tez ritsarlik unvonini olib turardilar va feodallarning quyi tabaqasiga yaqinlashardilar. Ammo frigolderlarning boshqa qismi kam yerli kishilarga aylanib, lordlar tomonidan barshchina to‘lashga (garchi villanlarga qaraganda kichikroq masshtabda bo‘lsa ham) majbur qilinar edilar.

XIII asr Angliyada dehqonlar ommasini eng ko‘p asoratga tushirish davri bo‘ldi. Bu vaqtda ingliz qishlog‘ida asosiy siymo hisoblangan **villanlar** turar joyiga biriktirilgan bo‘lib, haftalik barshchinani (yozgi mavsumda haftada 5 kungacha) o‘tashga majbur bo‘lgan, lordga nikoh solig‘i va boshqa nohaq soliqlar to‘laydigan, uning sudiga bo‘ysundirilgan tamomila krepostnoy kishi edi. XIII asrdagi ingliz dehqoni aslida villanga emas, balki servga o‘xshab ketardi. Ingliz yuristlari "Rim huquqi"ni dalil qilib, villanlar Rim qulining bir turi edi, deb ochiq-oydin fikr bildirgan edilar. XIII asrda turli manorlarda ko‘plab tartibsizliklarning yuz berishi, dehqonlarning tez-tez qochishlari, butun jamoa dehqonlarining lord uchun majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishlari sodir bo‘lganligi bejiz emas.

Bu vaqtda villanga tegishli barcha mol-mulklarning egasi lord deb tan olingandi. Shu bilan birga, XIV asrdagi huquqiy nazariya va qonunlar villanlarning, hatto, o‘z xo‘jayiniga qarshi qirol sudiga jinoiy da’vo qilish huquqini tan olgan edi.

XIII asrning ikkinchi yarmi - XIV asrda pul xo‘jaligining rivojlanishi Angliyadagi krepostnoy yer-mulkning - manorning yemirilishiga sabab bo‘ldi. Lordlar barshchinani pul obrogi bilan ayirboshlashni (kommutatsiya qilishni) foydaliroq deb bildilar. Bunday paytda ular o‘zlariga qarashli yerlarni (domenlarni) kam yerli dehqonlar orasidan chiqqan yollanma ishchilar mehnati bilan ishlaydigan bo‘ldilar. Ba’zi bir lordlar hech qanday xo‘jalik yurgizmay, pul rentasi olishni afzal ko‘rib, o‘z domenlarini ijaraga berardilar. Kommutatsiya XIII asrdayoq katta yutuqlarga erishdi. XIV asrning birinchi yarmida bir qancha tumanlarda kommutatsiya barshchinani batamom siqib chiqardi. Butun mamlakatda pul rentasi tobora ko‘proq tarqaldi. Shu munosabat bilan ingliz krepostnoy dehqoni ham shaxsan ozod dehqonga aylandi. Chunki villanlar endilikda asta-sekin o‘z shaxsiy ozodliklarini sotib ola boshlagan edilar. Villanning lordga munosabati faqat muayyan pul rentalari to‘lashdan iborat bo‘lib qoldi, xolos. Chek yer, avvalgidek uning tasarrufida edi. U pul ishlashi uchun shaharga ketishi va, umuman, o‘z istiqomat joyini o‘zgartirishi mumkin edi. Feodallar asta-sekin yollanma mehnatni ekspluatatsiya qilishga o‘tdilar. Qishloq xo‘jaligini kapitalistik usullarda yuritish ritsarlar orasida keng tarqaldi.

Badavlat villanlar yerlarni feodallardan ijara (arenda) ga olardilar, shuningdek, xonavayron bo‘lgan feodallardan hamda ish izlab ketgan kotterlardan sotib ola boshlagandilar.

XV asrga kelib, ingliz dehqonlarining aksariyat qismi erkinlik oldi. Bu, albatta, qurolli qo‘zg‘olonlargacha borib yetgan kuchli sinfiy kurashlar natijasida qo‘lga kiritilgandi.

Yollanma mehnatga asoslangan dehqonchilikning rivojlanishi qishloq jamoasining yanada parchalanib ketishiga, uysiz va kambag‘allar sonining oshishiga, ekspluatatsiyaning kuchayishiga olib keldi. 1349 yilgi "qora ajal" Angliyada juda katta qirg‘in keltirdi: mamlakatdagi aholining uchdan bir qismi qirilib ketdi, Angliyaning ko‘p okruglarida ishchi kuchi yetishmasligidan yer maydonlari haydalmay tashlab qo‘yildi. Yollanib ishlashga tayyor turgan kishilar kamaydi, omon qolganlar o‘z mehnatlariga katta haq to‘lashni talab qilardilar. Yirik feodallar qaram dehqonlarni yana barshchinaga hayday boshladilar. Ko‘pgina mayda, o‘rta feodallar va shahar boylari parlamentdan arzimagan haq baravariga ishlashdan bosh tortgan kambag‘allarni qattiq jazolash bilan qo‘rqituvchi qonunlar chiqar-

dilar. Mazkur qonunlarni buzgan kishilarni qamchi bilan savalar, turmaga qamar, badanlariga qizigan temir bilan tamg‘a bosardilar.

Shu tariqa Angliyada boshqacha shakldagi krepostnoy huquq qayta tiklandi. Ingliz qo‘shinlarining yuz yillik urushda birin-ketin mag‘lubiyatga uchray boshlashi dehqonlarning ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Fransiyaga qarshi urushni davom ettirish uchun qirolga pul zarur edi. Soliqlar birdaniga o‘sib ketdi. Mehnatkash xalq yangidan-yangi soliqlar to‘lashga majbur bo‘ldi. 1380 yilda parlament jon solig‘i joriy qildi. Bunday soliq Angliyada ilgari hech qachon bo‘lmagan edi. 14 yoshli va undan yuqori har bir erkak va ayol, mulkiy ahvolidan qat’i nazar, ushbu soliqni to‘lashga majbur etildi. Qari-qartanglar va o‘smirlar ko‘p bo‘lgan katta oilalarda yangi soliq yig‘indisi katta summani tashkil qilardi. Jon solig‘i dehqonlar ommasi gardaniga og‘ir yuk bo‘lib tushdi.

Shunday qilib, ekspluatatsiyaning kuchaytirilganligi, kambag‘allarga qarshi chiqarilgan qonunlar va soliqlarning ko‘payganligi xalqni g‘azabga keltirib, 1381 yildagi Uot Tayler boshchiligidagi ulkan dehqonlar qo‘zg‘oloniga sabab bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olon davomida dehqonlarning ikkita petitsiyasi (talabnomasi) taqdim etildi. Ulardan biri ancha mo‘'tadil hisoblangan Mayl-Endsk (yoki Esseks) petitsiyasi edi. Mazkur petitsiya to‘rt modda, ya’ni: 1) krepostnoy huquq (villanlik)ni bekor qilish; 2) qo‘zg‘olonchilarga umumiy afv berish; 3) butun mamlakatda savdo-sotiq qilishga erkinlik berish; 4) 1 akr hajmidagi yer uchun 4 pens miqdorida ijara haqi belgilashdan iborat edi. Bu dastur Angliyadagi eng badavlat dehqonlarning manfaatlarini aks ettirardi.

Ikkinchi Smifildsk (yoki Kent) dasturida ancha qat’iy talablar bayon etilgandi. Dehqonlar o‘zlariga cherkov yer fondidan yer berilishini, jamoaga qarashli yer-suvlardan erkin foydalanishni va barcha toifaviy tafovutlarning yo‘q qilinishini talab qildilar. Ikkinchi petitsiya kentlik kam yerli kambag‘al dehqonlarning ehtiyojlarini ravshan aks ettirdi.

Qirol dastlab ularning qator talablarini bajarishga va'da berdi. Lekin, oqibatda, feodallarning tazyiqi ostida u o‘z va'dasidan voz kechdi. Uot Tayler xoinona o‘ldirildi, so‘ngra qo‘zg‘olonchilar qattiq jazolandi. Yuzlab dehqonlar sud hukmi bilan va sudsiz o‘ldirildi, dorga osildi. Feodallar qo‘zg‘oloni qonga botirildi, yangi qo‘zg‘olonlar ko‘tarilishidan cho‘chib, dehqonlarning to‘lovlari oshirilib, barshchina yo‘q qilindi. Kambag‘allarga qarshi qaratilgan qonunlarni ancha-muncha yumshatishga to‘g‘ri keldi. XV asr davomida Angliyadagi dehqonlarning deyarli hammasi to‘lov evaziga erkin bo‘lib oldi. Shaxsan ozod dehqonlar chek yerlardan foydalanganligi evaziga yer-mulk egalariga aniq belgilangan haq to‘lardi.

XIII-XIV asrlarda shaharliklar orasida ham, aholining boshqa qatlamlari orasida bo‘lganidek ijtimoiy farqlar kuchaydi. Bu jarayon butun mamlakat miqyosida shaharliklar tabaqasining jipslashuvi bilan birga kechdi. Angliya shaharlari, Londondan tashqari, uncha katta emasdi. Shahar korporatsiyalari, umuman shahar singari, Yevropa qit’asidagi shaharlar olgan mustaqillikka ega emasdi.

Shunday qilib, Angliyada davlatning markazlashish jarayoni (XIII asrda) erkin dehqonlar ommasi barcha qatlamlarining o‘sib borishi, ritsarlar, shaharliklar va boyigan dehqonlarning iqtisodiy va huquqiy jihatdan o‘zaro bir-biriga yaqinlashishi, feodallarning yuqori qismi bilan boshqa qatlamlari o‘rtasidagi farqlarning kuchayishi natijasida tezlashdi. Ritsarlar va butun frigrolderlar ommasi iqtisodiy va siyosiy manfaatlarining umumiyligi ularning siyosiy ittifoqi o‘rnatilishiga yordam berdi. Ushbu aholi qatlamlarining iqtisodiy va siyosiy rolining o‘sishi, oqibatda, ularning siyosiy tan olinishi va kelajakda tashkil etilajak parlamentda ishtirok etishini ta'minladi.

Erkinliklarning buyuk xartiyasi (Magna Charta)

XIII asrning boshlarida Angliyada feodal davlatning yangi shakli-tabaqa-vakillik monarxiyasiga o‘tish uchun qulay va ob’yektiv shart-sharoitlar vujudga keldi. Biroq qirol hokimiyati o‘z mavqeini mustahkamlab, hukmron tabaqa vakillarini davlat ahamiyatiga molik masalalarni hal qilishga jalb etishni unchalik xohlamasdi. Genrix II ning tashqi siyosatda mag‘lubiyatga uchragan avlodlari davrida monarx hokimiyatining haddan oshishi o‘sdi, qirol va chinovniklarning ma’muriy va moliyaviy o‘zboshimchaliklari kuchaydi. Shu munosabat bilan Angliyada tabaqalarning muhim siyosiy va moliyaviy masalalarni hal etishda qatnashish huquqining tan olinishi kuchli ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar ostida sodir bo‘ldi. Bu ziddiyatlar markaziy hokimiyat suiiste'-molliklarini cheklashga qaratilgan harakat shaklini oldi. Mazkur harakatga baronlar boshchilik qildi.

Ularga vaqti-vaqti bilan ritsarlar va haddan ziyod favqulodda yig‘imlar hamda qirol chinovniklarining ta'magarliklaridan norozi bo‘lgan frigolderlar ommasi qo‘shilib turdi. Qirolga qarshi chiqishlarning ijtimoiy xarakteri XIII asrdagi siyosiy ziddiyatlarning o‘ziga xos xususiyati hisoblandi. XIII asrdagi ijtimoiy chiqishlar XI-XII asrlardagi baronlar isyonlaridan farq qilardi. Shu sababli XIII asrdagi kuchli chiqishlar, oqibatda, katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlarning qabul qilinishiga olib kelganligi ham tasodifiy emas edi. Quyidagi muhim voqealar: 1215 yilgi qirol hokimiyatiga qarshi ko‘tarilgan baronlar

boshchiligidagi qo‘zg‘olon va 1258-1267 yillardagi fuqarolar urushi XIII asr ziddiyatlarining asosiy bosqichlari hisoblanadi. Bu kurashlardan birinchisi Erkinliklarning buyuk xartiyasi qabul qilinishi bilan tugagan bo‘lsa, ikkinchisi Angliyada parlamentning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Erkinliklarning buyuk xartiyasi ob’yektiv sharoitlar natijasida qabul qilindi. Ma’lumki, Genrix II ning o‘g‘illari Richard I Sher Yurak (1189-1199 yillar) va Ioann (Jone) Ersiz (1199-1216 yillar) davrlarida qirol hokimiyati ancha zaiflashib qolgandi. Richard deyarli Angliyada yashamadi ham, chunki hamisha yo Sharqda salb yurishi yoki Fransiyadagi urushlar bilan band bo‘ldi. Ioann Ersiz Filipp II Avgust bilan kurashda doimo muvaffaqiyatsizlikka uchradi va pirovardida, Normandiyani, Anjuni va Fransiyadagi boshqa bir qancha mulklarni qo‘ldan boy berdi. Bundan tashqari, yangi Kenterbedi arxiyepiskopini saylash masalasiga aralashib, papa Innokentiy III bilan to‘qnashib qoldi. Papa Ioanni cherkovdan quvib, butun Angliyada ibodat qilishini man etdi (1208 yilda). Taxtdan ajralishi xavfi ostida qolgan va jamiyatning yetarlicha qo‘llab-quvvatlashiga ko‘zi yetmagan qirol taslim bo‘lishga majbur bo‘ldi. U o‘zini papaning vassali deb tan olib, har yili papaning xazinasiga bir ming funt sterling hiroj to‘lash majburiyatini oldi (1213 yil).

Papa bilan to‘qnashuvdagi muvaffaqiyatsizlik mamlakatda qirol obro‘-e’tiborini juda tushirib yubordi. Ioann va uning amaldorlari qo‘llab kelgan har xil tamagirliklar, nohaq soliq-yig‘imlar yig‘ilishi va zo‘ravonliklar qilinishi faqat baronlar va yepiskoplar orasidagina emas, balki ritsarlar va shaharliklar orasida ham qirolga qarshi noroziliklar tug‘dirdi. Ayni zamonda kuchayib borgan qirol hokimiyatining nazorati malol kelgan yirik feodallarda mahalliychilik kayfiyatlari paydo bo‘lib qoldi. Qirol o‘ylab chiqargan, lekin ritsarlar befoyda deb bilgan quruqlikdagi yangi urushga ritsarlarning ko‘pchiligi qatnashishdan bosh tortdi. Ana shular natijasida 1215 yilning yozida Ioann Ersizga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Eng yirik baronlar qo‘zg‘olonga rahbarlik qildi. Ammo qo‘zg‘olonga ko‘pgina ritsarlar, shuningdek, London shahri ham qo‘shildi. Qo‘zg‘olonchilar asir qilib olgan Ioann 1215 yil 15 iyulda Erkinliklarning buyuk xartiyasiga imzo chekishga majbur bo‘ldi.

1215 yildagi Xartiya ma’lum tizimga solinmagan 63 ta moddadan iborat muhim siyosiy, tarixiy-huquqiy hujjat bo‘lib, rasman Angliyadagi birinchi konstitutsiyaviy qonun hisoblanadi. U lotin tilida tuzilgan va asosan feodallar sinfining manfaatlarini ko‘zda tutuvchi ko‘pdan-ko‘p yon berishlar va imtiyozlarni o‘z ichiga olgan. Xartiyaning barcha moddalarini quyidagicha uchta guruhga bo‘lish qabul qilingan:

1. Aholi turli ijtimoiy guruhlarining moddiy manfaatlariga taalluqli moddalar (1-,2-,9-,13-,15-,18-moddalar).

2. Angliya qirolligi davlat mexanizmini isloh qiluvchi va "konstitutsion" deb ataluvchi moddalar (12-,14-,61-moddalar).

3. Sud-ma’muriy apparat faoliyati tamoyillarini o‘rnatuvchi moddalar (17-, 20-, 21-, 39-, 40-moddalar).

Xartiya baronlarga va feodallarga o‘z feodlarini meros qilib qoldirishni va "odatga ko‘ra" mo‘tadil vassallik to‘lovlari to‘lashni ta'minlardi.

Xartiyaning ko‘pgina moddalari (2-11-moddalar va boshqalar) qirol va baronlarning vassalliklenlik munosabatlariga bag‘ishlangan va qirolning yerga egalik bilan bog‘liq bo‘lgan senorlik huquqlaridan foydalanishida o‘zboshimchaliklarini cheklashga harakat qildi. Bu moddalar homiylik, relyef[56] olish, qarz undirish tartiblarini va shu kabilarni belgiladi. Masalan, Xartiyaning 2-moddasiga binoan, harbiy xizmat evaziga yerga egalik qilib turgan graf yoki baron vafot etsa, uning voyaga yetgan merosxo‘ri yer uchun relef to‘langandan so‘ng merosni olishi mumkin edi. 4-modda bo‘yicha, len homiysi o‘z foydasiga evi bilan (mo‘'tadil) daromad olishi va homiyligi ostida bo‘lgan egalikdagi kishilarga ham, ashyolarga ham zarar yetkazmasligi lozim edi. Xartiyaning qirollikning qo‘riqlanadigan o‘rmonlari va daryolari haqida so‘z yuritilgan moddalari (44-,47-,48-moddalar)da ham yirik feodallarga yon berilgandi.

Yuqoridagilar bilan birga, Xartiyada sof "baronlik" moddalari orasida umumsiyosiy xarakterga ega bo‘lgan alohida moddalar mavjud. Xususan 61-moddada baronlarning siyosiy talablari ancha ochiq ifoda etildi. Unda belgilanishicha, agar qirol Xartiyadagi feodallarga imtiyozlar in'om qilingan moddalarga rioya qilmasa, 25 barondan iborat tuziladigan alohida komitet qirolga qarshi feodallarni qo‘zg‘olonga chaqirish huquqiga ega edi. Bundan tashqari, Xartiyada baronlar va ritsarlardan iborat buyuk qirollik kengashi tuzilganligi (12- va 14-moddalar) eslatib o‘tiladi. Shu kengashning roziligidan keyingina qirol feodallardan qo‘shimcha mablag‘lar olishi mumkin edi. Bu "umumiy" kengash tarkibi ham faqat bevosita qirolning vassallaridan iborat bo‘lishi belgilandi. Shunisi xarakterliki, London shahridan yordam tariqasida olinadigan to‘lovlar haqidagi masalani ham kengash hal qilishi lozim edi. Boshqa turdagi soliqlar va yig‘imlarni, jumladan, shaharlardan olinadigan og‘ir soliq - talyani ilgarigidek qirolning yakka o‘zi olardi.

[56] **Relyef –** o`tmishdoshi o`lgandan so`ng merosiy yerga (feodga, baroniyaga) egalik qilishga kirishish huquqi uchun senorga beriladigan feodal to`lov. Uning miqdori ko`pincha yerga egalik bahosining yarmigacha bo`lgan.

Xartiyaning 21- va 34-moddalari toj-taxtning sud imtiyozlarini zaiflashtirishga qaratildi. 21-modda graflar va baronlarni sud qilishni qasamxo‘rlar ishtirokidagi qirollik sudlari ixtiyoridan olib, ular uchun imtiyozli bo‘lgan "tenglar sudi" (perlar sudi)ga topshirdi. Xartiyada tenglar sudining qonuniy hukmidan va mamlakat qonunlaridan tashqari, Angliyada birorta erkin kishi qamoqqa olinmaydi, avaxtaga tashlanmaydi, mol-mulkidan mahrum etilmaydi yoki yurtdan haydab yuborilmaydi, deb qirol tantanali va'da berdi (39-modda). Bu modda avvalo yirik feodallarga taalluqli edi. 34-modda baronlarning sud manfaatlarini himoya qilib, unda baronlarga qarashli sudlar saqlab qolinishi ta’kidlangan va qirollik sudlari bu sudlarning ishlariga aralashmasligi ko‘rsatilgandi.

Xartiyada ritsarlarning manfaatlarini nazarda tutuvchi moddalar ancha kam edi. Bu haqda 16 - va 60-moddalarda birmuncha umumiy tarzdagi me’yorlar belgilandi. 16-moddada "hech kim o‘z ritsarlik leni uchun yoki boshqa erkin egalikdagi yeri uchun keragidan ortiqcha xizmatlarga majbur qilinishi mumkin emas", deb belgilangan. 60-moddada esa qirolning o‘z vassallariga nisbatan munosabatlariga oid qoidalar baronlarning o‘z vassallariga nisbatan munosabatlariga ham taalluqli ekanligi uqtiriladi.

Xartiyada shaharliklarning va savdogarlarning huquqlari haqida juda kam moddalarda ko‘rsatildi. 13-modda shaharlar uchun eski erkinliklar va odatlarni tasdiqlaydi, 41-modda barcha savdogarlarga ichki va tashqi savdo-sotiq erkinligini, suv yo‘llarida monesiz safar qilishni va savdodan g‘ayriqonuniy bojlar olinmasligini belgilaydi va nihoyat, 35-modda savdo-sotiqning rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan uzunlik va og‘irlik o‘lchovlari birliklarini o‘rnatdi.

Xartiyaning qirollikning sud-ma’muriy apparati faoliyatini tartibga solishga qaratilgan ko‘pgina moddalari katta ahamiyatga ega. Bu guruhga kirgan moddalar (18-, 19-, 20-, 38-, 39-,40-, 45- va boshqa moddalar) XII asrdan boshlab vujudga kelgan sud-ma’muriy va huquqiy institutlarni tasdiqlaydi va mustahkamlaydi, markazda va joylarda qirol chinovniklarining o‘zboshimchaliklarini cheklaydi. Masalan, 38-moddada belgilanishicha, chinovniklar faqat og‘zaki shikoyat bilan hamda ishonchga loyiq guvohlarsiz qandaydir javobgarlikka tortilishi mumkin emas. 45-moddada qirol mamlakat qonunlarini bilmaydigan va ularni o‘z ixtiyori bilan bajarishni istamaydigan shaxslarni sudya, konstebl, sherif va beylif lavozimlariga tayinlamaslikka va'da beradi. Xartiya, shuningdek, 40-moddada asossiz va nomutanosib sud poshlinalari undirishni man etdi. Ayniqsa, Xartiyaning 39-moddasi juda mashhur edi. XIV asrda bu modda barcha

erkin kishilar uchun shaxs daxlsizligi kafolati sifatida parlament tomonidan bir necha marta o‘zgartirilgan, tahrir qilingan va aniqlashtirilgan.

Xartiyada dehqon - frigolderlar ritsarlar bilan birgalikda o‘zlariga qarashli yerlarga hech kimning tiqilmasligi kafolatini olgan edilar. Lekin jamiyatning eng mazlum qismi bo‘lgan krepostnoy dehqonlar - villanlar undan hech qanday erkinlik olmadilar. Xartiya krepostnoy huquqni bekor qilmadi. Hatto qirol amaldorlarining nohaq yig‘imlar solib villanlarni xonavayron qilishi taqiqlangan moddada ham, shu villanlarning real manfaatlari emas, balki ular ustidan turgan lordlarning manfaatlari (garchi bular ziyon ko‘rsa-da) nazarda tutilgandi.

Shunday qilib, Buyuk xartiya XIII asr boshida Angliyadagi ijtimoiy-siyosiy kuchlar munosabatini va avvalo qirol bilan baronlarning o‘zaro kelishuvini aks ettirdi. Xartiyaning siyosiy moddalari shundan darak beradiki, baronlar markaziy hokimiyatning alohida imtiyozlari amalga oshirilishini o‘z nazorati ostiga olib yoki cheklab, qisman o‘zlarining immunitetlari va imtiyozlarini saqlab qolishga harakat qilgandilar.

Xartiyaning taqdiri shuni yaqqol ko‘rsatdiki, bu vaqtga kelib Angliyada baronlarning talablari istiqbolsiz, davlatning markazlashish jarayoni esa orqaga qaytmas bo‘lib qolgandi. Oradan bir necha oy o‘tgach, Ioann Yersiz papaning qo‘llab-quvvatlashiga tayanib, Xartiyaga rioya etishdan voz kechdi. Keyinchalik qirollar Xartiyani bir necha marta (1216-,1217-,1225-,1297-yillarda) tasdiqlaganlar, lekin undan 20 dan ortiq modda, jumladan, 12-, 14- va 61-moddalar chiqarib tashlandi.

Feodallar hujjati bo‘lgan va avvalo yirik baronlarning manfaatlarini ta'minlagan ushbu Xartiya, har holda, progressiv ahamiyatga ega edi. Xartiya faqat baronlarning ayrim guruhlari talabigina bo‘lib qolmadi. U, shuningdek, siyosiy markazlashish tamoyilini rad etmagan, bu tamoyil bilan hisoblashgan va davlatni idora qilishni ma’lum darajada tartibga tushirishga intilgan feodal dvoryanlar barcha toifasining ham talabi edi. Xartiyada shaharliklar talabining hisobga olinishi juda muhim bo‘ldi. Angliyadagi uchinchi toifa birinchi marta shu yerda siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdiki, feodallar u bilan hisoblashishga majbur bo‘ldilar. Buyuk qirollik kengashi yoki Xartiyada eslatib o‘tilgan baronlar va ritsarlar parlamenti tez orada (shu XIII asrda) ingliz parlamentiga aylandi. Bu parlamentda fransuzlarning General shtatlaridagiga o‘xshash qirollikdagi uchta toifaning vakillari bor edi. U XIII asr o‘rtasida tez-tez "parlament" degan nom bilan atalgan bo‘lsa-da, ammo hali tabaqaviy organ ham, vakillik muassasasi ham emas edi.

Parlamentning vujudga kelishi va vakolatlarining kengayishi

1258-1267 yillardagi baronlar urushi o‘z siyosiy natijasi bo‘yicha juda murakkab va muhim bo‘lgan. Ma’lumki, Ioann Yersiz Erkinliklarning buyuk Xartiyasini imzolar ekan, haqiqatda uni bajarmoqchi emas edi. Ioann Yersizni o‘zi ichgan qasamiga rioya qilish majburiyatidan xalos etgan papa Innokentiy III ham qirol tomoniga o‘tdi. Ioann baronlar bilan yangi urushga tayyorlana boshladi, bu urush tez orada boshlandi ham, ammo urush harakatlari ayni qizib turgan paytda qirol vafot etdi. Uning vorisi – kichik yoshli o‘g‘li Genrix III (1216-1272 yillar) baronlar oligarxiyasi qo‘lida uzoq vaqtgacha qurol bo‘lib qoldi. Lekin u hatto balog‘atga yetgandan keyin ham mamlakatni idora qilishda deyarli o‘zgarish bo‘lmadi. Lapashang va beqaror Genrix III papani va yepiskoplarni, shuningdek, fransuz xotini bilan birgalikda Fransiyadan Angliyaga kelgan qarindosh-urug‘lari va ularning do‘stlarini baronlarga qarshi qilib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Genrix bu feodallarga saxiylik bilan mansablar va yer-mulklar ulashdi. Bu esa ingliz baronlari o‘rtasida qaxr-g‘azab uyg‘otdi. Shaharlar papa kuriyasiga ketayotgan yuqori to‘lovlardan norozi bo‘ldilar. Ritsarlar va erkin dehqonlar qirol amaldorlari va sudlarning suiiste’molliklaridan va baronlarning o‘z yerlarida davom ettirayotgan bemaza o‘zboshimchaliklaridan g‘azablanardilar. Qirol bundan avvalgi yili mamlakatda hosil yomon bo‘lganligiga va ocharchilik yuz berganiga qaramay, shahzoda Edmund (qirolning kenja o‘g‘li)ning Sitsiliya taxtini[57] istilo qilishi uchun 1258 yil bahorda baronlar va ritsarlardan ular oladigan daromadlarning to‘rtdan uch qismini to‘lashlarini talab etdi. Qirolning talabiga javoban, qurollangan va o‘zlariga ko‘p ritsarlarni ergashtirib olgan baronlar saroyga kirib keldilar hamda barcha "fransuzlar"ni idora ishlaridan chetlatib, "qirollikda islohotlar" o‘tkazish uchun alohida komissiya tayin etishni talab qildilar. Shundan so‘ng, tez orada baronlarning Oksfordda to‘plangan "quturgan parlamenti" alohida konstitutsiya -**"Oksford proviziyalari"**ni ishlab chiqdi. Bu o‘ziga xos konstitutsiya qirolni baronlarning doimiy nazoratiga topshirdi. Unda mamlakatda butun ijroiya hokimiyat 15 ta baronlardan iborat Kengashga o‘tkazilishi nazarda tutildi. Ijroiya Kengash bilan birga muhim masalalarni hal qilish uchun har yili kamida uch marta 27 ta a’zodan iborat magnatlarning Katta kengashi yig‘ilib turishi lozim edi. Shunday qilib, bu baronlarning 1215 yilda amalga oshmay qolgan o‘z oligarxiyasini o‘rnatish uchun yangidan qilgan harakati bo‘ldi.

[57] Papa bu paytda o`zining ikkala Sitsiliya qirolligining senori deb hisoblagan nemis shtaufenlari bilan kurash olib borgan va Sitsiliya toj-taxtini egallashni Genrix III ga taklif etgan edi.

Dastlabki paytlarda baronlar ritsarlar bilan kelishib harakat qildilar. Ammo baronlar hokimiyatni faqat o‘zlari uchun bosib olishga intilayotganliklarini, ritsarlar masalasida noaniq va'dalar berish bilan cheklanayotganliklarini ritsarlar tezda payqadilar. Ritsarlar norozilik bildirdilar. Ularning talablari boshqa bir hujjatda - 1259 yilgi **"Vestminstrlik proviziyalari"** nomli mashhur hujjatda ifodalangan edi. "Vestminstrlik proviziyalari" ritsarlarning o‘z senorlari - baronlari bilan bo‘ladigan munosabatlarini tartibga solib turardi, shuningdek, qirol sheriflari, eschitorlari[58] va sudyalarining suiiste’molliklarini yo‘qotish to‘g‘risida bir qancha takliflar kiritdi. Biroq, ritsarlarning mamlakatning markaziy boshqaruvida ishtirok etish haqidagi talablari qondirilmadi.

Baronlar va ritsarlar harakatiga keyinchalik shaharliklar va bir qancha joylarda dehqonlar, qisman frigolderlar, qisman villanlar kelib qo‘shildilar. Baronlar to‘dasi bo‘linib ketdi. Demokratik elementlarning faolligidan, xususan, boshlanib ketgan dehqonlar harakatidan qo‘rqib qolgan baronlarning ko‘pchiligi tez orada qirol tomoniga o‘tdi. Ammo Simon de Monfor[59] boshchilik qilgan yirik feodallarning bir qismi qirol bilan kurashni davom ettirib, ritsarlar va shaharliklar bilan ittifoq tuzdi.

1264 yilda Simon qirolning tarafdorlari bo‘lgan baronlarni yakson qilib, Genrix III ni va uning katta o‘g‘li Eduardni asr qilib oldi. Simon de Monfor bir necha vaqt Angliyaning diktatori bo‘lib oldi va ritsarlarni davlat boshqaruvida ishtirok etish haqidagi talablarini ro‘yobga chiqardi. Fuqarolar urushining eng muhim natijasi 1265 yilning boshida Angliya tarixida birinchi tabaqa-vakillik muassasasi - parlamentning chaqirilishi bo‘lgan. Simon de Monfor bu parlamentni keng tarkibda chaqirdi: parlamentga baronlar va yepiskoplardan tashqari, ritsarlarning (har bir 37 ta graflikdan ikki kishidan) va shaharlarning (har bir shahardan ikki kishidan) vakillari taklif qilindi. Shunday qilib, fransuz General shtatlariga o‘xshash, Angliyada birinchi marta uch toifa vakillaridan iborat parlament chaqirildi.

Parlamentning chaqirilishi Angliyada feodal davlat shaklining o‘zgarishiga, tabaqa-vakillik monarxiyasining vujudga kelishiga olib keldi.

Simon de Monforga hokimiyat tepasida uzoq vaqt qolish nasib etmadi. Baronlarning ko‘pchilik qismi dushmanlar lageriga o‘ta boshladi. Shahzoda Eduard asirlikdan qochib, qirollik kuchlarining asosiy tashkilotchisi bo‘lib oldi. 1265 yil avgustda Ivzem yonidagi jangda Monfor mag‘lubiyat-

[58] **Eschitor** - vorissiz tanho yerlarni boshqaruvchi amaldor.

[59] Simon de Monfor kelib chiqishi jihatidan fransuz edi, lekin XIII asr o`rtasida u Angliyada endi tanildi va ingliz zodagonlari qatoridan ko`zga ko`rinarli o`rin egalladi.

ga uchradi va o‘ldirildi. Uning tarafdorlari jazoga tortildilar. Parlament yana birgina yirik feodallar tarkibida yig‘iladigan bo‘ldi.

Eduard I (1272-1307 yillar) 50-60-yillardagi "g‘alayon"dan katta saboq olgan hiyla g‘ayratli qirol edi. Ayni zamonda 1265-1285 yillardagi baronlar urushi mahalida o‘rta va quyi sinflarning harakatidan qo‘rqib qolgan feodallar endi qirollik toj-taxti tevaragida mustahkamroq jipslashdilar. Eduard I o‘z mavqeini yanada kuchaytirish uchun istilochilik urushlari uyushtirdi va 1282 yilda Uelsni bosib oldi, lekin Shotlandiya bilan uzoq va og‘ir urush olib bordi. Urushni davom ettirish uchun yetarlicha mablag‘i bo‘lmagan qirol juda mushkul ahvolga tushdi. Oppozitsiyaning yangidan bosh ko‘tarib chiqishining oldini olish va zarur mablag‘ga ega bo‘lish maqsadida 1295 yili qirolning o‘zi umumtoifaviy parlament chaqirdi. Bu parlamentning tarkibi kelajakda ana shunday yig‘ilishlar uchun namuna bo‘lganligidan uni keyinchalik "namunali parlament" deb atadilar.

Ammo 1265 yilda Monfor parlamenti qanday tarkibda to‘plangan bo‘lsa, bu parlament ham xuddi shunday tarkibda yig‘ildi. Bu parlamentda lordlar, dunyoviy va ruhoniy feodallar, ritsarlar va shaharliklar yig‘ilgan edi. Shu paytdan e’tiboran Angliya parlamenti muntazam suratda yig‘iladigan bo‘ldi. XIV asrning o‘rtalarigacha ingliz tabaqalari birgalikda majlislar o‘tkazardilar, 1343 yildan e’tiboran esa ikkita palataga ajraldi. Yuqori palata **lordlar palatasi** deb atalib, u ruhoniy lordlar, arxiyepiskoplar, yepiskoplar, eng yirik monastirlarning abbatlari va dunyoviy lordlar (baronlar)dan iborat bo‘lardi. **Umum palatasi** deb atalmish quyi palata grafliklarning vakillari bo‘lgan ritsarlar va shaharliklardan iborat edi. Dastlab parlamentni tuzishda saylov senzi bo‘lmagan. Keyinchalik 1430 yilgi Statut saylov senzi o‘rnatib, unga ko‘ra, grafliklar majlislarida frigolderlarning ishtirok etib, parlamentga saylanishi uchun yiliga 40 shillingdan kam bo‘lmagan daromad olishlari lozim edi.

Dastlabki vaqtlarda parlamentning qirol hokimiyati siyosatiga ta’sir etish imkoniyati uncha katta bo‘lmadi. Uning funksiyalari harakatdagi mulklarga solinadigan soliqlarning miqdorini belgilash va qirol nomiga jamoaviy petitsiyalar berish bilan chegaralab qo‘yilgan edi. To‘g‘ri, 1297 yilda Eduard I parlamentda Erkinliklarning buyuk xartiyasini tasdiqlaydi va buning natijasida "soliqlarning hal qilinmasligi haqida"gi Statut paydo bo‘ldi. Bunda soliqlar, nafaqalar va yig‘imlar endilikda ruhoniylar, dunyoviy magnatlar, ritsarlar, shaharliklar va qirollikning boshqa erkin kishilari umumiy roziligisiz olinmasligi aytildi. Biroq, Statutda qirolga ilgari mavjud bo‘lgan yig‘imlarni undirish imkoniyatini beruvchi izohlar ham bor edi.

O‘rta asrlar Angliyasining parlamenti asta-sekin quyidagi uchta eng muhim vakolatlarni: qonunlar chiqarishda ishtirok etish, qirol xazinasi foydasiga aholidan soliqlar olish haqidagi masalalarni hal etish, oliy mansabdor shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ba’zi hollarda maxsus sud ishlarini yuritish huquqlarini qo‘lga kiritib oldi.

Parlamentning qonun tashabbuskorlik huquqi qirolga parlamentning jamoa petitsiyalari berishi amaliyotidan kelib chiqdi. Ular hammadan ko‘proq eski qonunlarning buzilishini taqiqlash va yangilarini chiqarish haqidagi iltimoslarda namoyon bo‘ldi. Qirol parlamentning iltimosini qondirishi yoki rad etishi mumkin edi. Biroq, XIV asr mobaynida birorta ham qonun qirol va parlament palatalari roziligisiz qabul qilinishi mumkin emasligi o‘rnatildi. XV asrda o‘rnatilgan qoidaga ko‘ra, parlamentning iltimosnomasi "bill" degan nom olgan qonun loyihasi shaklida ifodalanmog‘i lozim edi. Shu tariqa qonun (statut) tushunchasi qirol, lordlar palatasi va umum palatadan kelib chiqadigan hujjat sifatida rasmiylashtirildi.

XIV asr mobaynida asta-sekin parlamentning moliyaviy masalalardagi vakolatlari mustahkamlandi. 1340 yilgi Statut parlamentning roziligisiz to‘g‘ri soliqlar undirilishiga mutlaqo yo‘l qo‘yilmasligini e’lon qildi. 1362 yilgi va 1371 yilgi statutlar esa bu qoidani qo‘shimcha soliqlar uchun ham joriy etdi. XV asrda parlament o‘zi tomonidan taqdim etilgan subsidiyalarning maqsadini ko‘rsata boshladi va ularning xarajat qilinishi ustidan nazorat qilishga erishdi.

Parlament davlat boshqaruvini o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qilib, XIV asrning oxiridan asta-sekin **impichment** protsedurasini joriy etdi. U umum palataning lordlar palatasi oldida mamlakatning oliy sud organi sifatida u yoki bu qirol mansabdor shaxsiga qarshi hokimiyatni suiiste’mol qilganlikda ayblov qo‘zg‘atishdan iborat edi. Bundan tashqari, parlamentning u yoki bu suiiste’molliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy deb e’lon qilish huquqi o‘rnatildi. Bunda qirol tomonidan tasdiqlanadigan maxsus hujjat chiqarilib, u "podsho g‘azabi haqidagi hujjat" degan nom oldi.

XIII asr davomida, shuningdek, yangi ijroiya organ - **Qirollik kengashining** rivojlanishi sodir bo‘ldi. U qirolning yaqin maslahatchilaridan iborat tor doiradagi organ bo‘lib qoldi va o‘z qo‘lida oliy ijro etish va sud hokimiyatini to‘pladi. Uning tarkibiga odatda kansler, xazinachi, sudyalar, qirolga ancha yaqin bo‘lgan, asosan ritsarlar tabaqasidan chiqqan ministrlar kirardi. Qirolning eng yirik vassallari yig‘ini - Katta kengashi o‘z funksiyalarini yo‘qotdi. Bu funksiyalar parlamentga o‘tdi.

Mahalliy boshqaruv tizimining rivojlanishi va sud organlari

Shunday qilib, parlament tashkil topgan davridayoq o‘z vakolatlarini asta-sekin kengaytirib bordi. Tabaqa-vakillik monarxiyasi davrida mahalliy boshqaruvda eski sudlarning va grafliklar majlislarining roli juda pasayadi. Ularning funksiyalari yangi mansabdor shaxslarga va yangi turdagi sayyor sudlarga o‘tadi. Bularning vakolatlari tobora kengayib boradi.

Grafliklarning majlislari XIII asr oxiri - XV asrda asosan parlamentga vakillarni va mahalliy mansabdor shaxslarni saylash uchun chaqirilardi. Ular summasi 40 shillinggacha bo‘lgan da’volar bo‘yicha nizolarni ko‘rishlari mumkin edi.

XIII asrda grafliklarda ilgarigidek **sherif,** yuzlikda uning yordamchisi - **beylif** qirol ma’muriyati tepasida turardi. Ulardan tashqari joylarda qirol ma’muriyati vakillari sifatida **tojdorlar va konstebllar** bo‘lardi. Ular mahalliy majlislarda saylanardi. Tojdorlar odam o‘ldirish jinoyatlari bo‘yicha tergovni amalga oshirganlar, konstebllar politsiyachilik funksiyalariga ega bo‘lganlar. Sherifning juda katta hokimiyatga ega ekanligi vaqt o‘tishi bilan qirollikda ishonchsizlik keltirib chiqara boshlaydi. Qirol bu mansabning "feodallashuvi"ni, merosiy bo‘lishga aylanishining oldini olishga harakat qiladi. XIII asrda o‘zaro urushlardan so‘ng sherif mansabining qisqa muddatli bo‘lib qolganligi va qirollik tomonidan nazorat ostiga olinganligi tasodifiy hol emas edi. 1215 yilgi Erkinliklarning buyuk xartiyasining 24-moddasi sheriflarning qirollik da’volarini hal qilishini taqiqladi va shu vaqtdan e’tiboran sherif lavozimi asta-sekin, har holda sud qilish sohasida, o‘z ahamiyatini yo‘qota boshladi.

XIII asrning oxiridan boshlab grafliklarda mahalliy yer egalaridan tinchlikni saqlovchi yoki, boshqacha so‘zlar bilan aytganda, murosaga keltiruvchi sudyalar tayinlash amaliyoti batamom o‘rnatiladi. Ular dastlab politsiyachilik va sud qilish vakolatlariga ega bo‘lganlar, lekin vaqt o‘tishi bilan sheriflar o‘rniga mahalliy boshqaruvning ancha muhim funksiyalarini bajara boshlaydilar. 1390 yilgi statut bo‘yicha har bir graflikka sakkiztadan murosaga keltiruvchi sudyalar tayinlandi. Murosaga keltiruvchi sudyalar oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini nazorat qilganlar, uzunlik va og‘irlik o‘lchov birliklarini, jun olib chiqilishini kuzatib turganlar, ishchilar haqidagi (1349 va 1351 yillardagi), bid'atchilar haqidagi (1414 yilgi) qonunlarning hayotga tadbiq qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirganlar va hatto ish haqi miqdorlarini (1427 yilgi statutda) o‘rnatardilar. Bu mansabni egallash uchun mulkiy senz yillik daromadning 20 funt sterlingini tashkil etgan.

Murosaga keltiruvchi sudyalarning sud vakolatlariga odam o‘ldirish va o‘ta og‘ir jinoyatlardan tashqari, barcha jinoiy ishlarni ko‘rib hal qilish kirardi. Ishlarni ko‘rib hal qilish bir yilda to‘rt marta chaqirib turiladigan sessiyalarda amalga oshirilgan. Bu majlislar "chorak sessiyalar" sudlari degan nom olgandi.

XIII-XIV asrlarda turli darajadagi qirollik sudyalarining soni o‘sdi, ularning ixtisoslashuvi kuchaydi. Shu bilan birga ko‘pgina muassasalarning sud va ma’muriy funksiyalari hali ajratilmagan edi. Bu davrda Angliyada: **Qirol kursisi sudi, Umumiy tortishuvli sud va Xazina sudi** oliy sudlar hisoblanardi.

Xazina sudi birinchi bo‘lib XII asrning 20-yillaridayoq o‘z majlislari bayonini yozib qo‘ya boshlaydi. Bu sud asosan moliyaviy nizolarni ko‘rishga ixtisoslashtirilib, avval xazina va qirollikdan qarzlarga taalluqli nizolarni ko‘rib hal qilardi.

Umumiy tortishuvli yoki "umumiy kursili" sud ko‘pgina xususiy fuqarolik da’volarini ko‘rib hal qilardi va umumiy huquqning asosiy sudi bo‘lib qolgandi. Sudda barcha debatlar yozilib va manfaatdor tomonlarga tanishish uchun tarqatilardi, XIV asrdan boshlab esa doimo e’lon qilib turilardi. Bu sud huquqni o‘rganuvchi barcha talabalar uchun amaliyot o‘tash joyi ham bo‘lgandi.

Umumiy tortishuvli sud, shuningdek, mahalliy va manorial sudlar ustidan nazoratni amalga oshirardi. Devonxonadan chiqarilgan buyruq bo‘yicha shikoyatlar har qanday boshqa quyi sudlardan olinib, bu sudning ixtiyoriga o‘tkazilishi mumkin edi. Maxsus sud buyruqlari sharofati bilan Umumiy tortishuvli sud boshqa sudlarning sudda yo‘l qo‘ygan xatolarini to‘g‘rilay olardi.

Qirolning shaxsiy sudidan asta-sekin Qirol kursisi sudi shakllanadi. Bu sud XIV asrning oxirigacha faqat qirol va uning yaqin maslahatchilari ishtirokida majlislar o‘tkazardi. U boshqa barcha sudlar uchun, jumladan, Umumiy tortishuvli sud uchun ham, oliy apellyatsion va nazorat instantsiyasi bo‘lib qolgan edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan u jinoiy ishlar bo‘yicha apellyatsiyalarni ko‘rishga ixtisoslashtiriladi.

Fuqarolik ishlarining rivojlanishi bilan oliy qirollik sudlarining umumiy tizimidan **Lord-kansler** sudi ajralib chiqadi. U masalalarni "adolat yuzasidan" hal qilardi. Bu sudning faoliyati bilan yangi shakldagi jarayonning va huquq normasi (adolat huquqi)ning vujudga kelishi bog‘liq bo‘lgan.

XIII-XIV asrlarda qirollikning sayyor sud ishlarini yuritish tizimi ancha keng tarmoqli va turlicha edi.

Umumiy sudlarning aylanib yurish tartibi juda noqulay bo‘lganligi va qimmatga tushishi sababli XIII asrda sayyor sudlarning umumiy aylanib chiqish muddati yetti yilda bir marta qilib o‘rnatilgan. XIV asrda umumiy sayyor sudlar o‘z ahamiyatini yo‘qotdi va o‘rnini ancha ixtisoslashgan sayyor komissiyalarga bo‘shatib berdi. Sayyor komissiyalar orasida assizlar sudlarini (yerga egalik qilishda imtiyoz huquqi haqidagi nizolarni ko‘rish bo‘yicha), isyonlar haqidagi ishlar bo‘yicha komissiyani va turmalarni umumiy tekshirish bo‘yicha komissiyani alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Sud ishlarini yuritishda qasamxo‘r maslahatchilarning katta va kichik jyurilari muhim rol o‘ynardi. **Katta** yoki **ayblovchi jyuri** ayblovchi qasamxo‘r maslahatchilarning sayyor sudlar tomonidan so‘roq qilinishi protsedurasi munosabati bilan rasmiylashgan. U sudga berish organi bo‘lib qolgan. Katta jyurining bor-yo‘g‘i 23 ta a’zosi bo‘lgan. 12 ta jyuri a’zosining yagona fikri gumon qilinuvchiga nisbatan ayblov hujjatining tasdiqlanishi uchun kifoya qilardi.

Kichik jyuri 12 ta qasamxo‘r maslahatchilardan iborat tuziladigan ingliz sudining tarkibiy qismi bo‘lib qoldi. Bu jyuri a’zolari ishlarning mazmunan ko‘rib chiqilishida ishtirok etib, qasamxo‘rlarning yagona fikrini talab qiluvchi verdikt (hukm) chiqarardi. 1239 yilgi qonun bo‘yicha qasamxo‘rlar uchun yillik daromadning 40 shillinggi miqdorida mulkiy senz o‘rnatiladi.

Manorlik sudlarining yurisdiksiyasi (sud qilish huquqi) XIII asrda tobora cheklanib borishda davom etdi. Faqat ba’zi juda ozchilik yirik feodallargina toj-taxtga daxldor ishlar bo‘yicha sud qilish huquqini saqlab qoldi. 1260-1280 yillardagi statutlar magnatlarning kuriyaga kelishlarini ta’minlash maqsadida ularning erkin dehqonlarga tazyiq o‘tkazishini, apellyatsion instantsiya sifatida chiqishini taqiqlaydi. Sheriflarga lordlar tomonidan egallab olingan chorvani musodara qilish uchun, shuningdek, agar lord yoki uning yordamchisi hatto bir marta qirollik buyrug‘ini bajarmagan barcha hollarda, ularning immunitetlarini buzishlariga ruxsat etilardi.

Dunyoviy va cherkov sudlarining o‘zaro munosabatlari vakolatlarni chegaralash masalalarida ilgarigidek keskinligi va murakkabligi bilan ajralib turardi. Ko‘p sonli qarama-qarshi qarashlar natijasida shunday tamoyil o‘rnatilgan ediki, unga ko‘ra, ikkala turdagi sudlarning sudlovligi jazolarning xarakteriga qarab belgilanar va faqat dunyoviy sudlar dunyoviy jazolar berishi, masalan, jarimalar solishi mumkin edi. Qirol hokimiyati doimo cherkov sudlarining vakolatlarini cheklashga harakat qilardi. Biroq, ma’lumki, bu urinishlar uncha muvaffaqiyatga erishmagan. Oxir oqibatda qirol

an’anaviy vositalardan foydalanib, "taqiqlash haqidagi" sud buyrug‘ini chiqarish yo‘li bilan cherkov sudining vakolatlarini cheklashga erishgan. Toj-taxt, aniqrog‘i, qirol kuriyasi chinovniklari fikricha, cherkov sudlari o‘z vakolatlari doirasidan chiqqan, deb topilgan har bir alohida holatda ana shunday sud buyruqlari chiqarilardi.

Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, tabaqa-vakillik monarxiyasi davrida Angliyaning sud tizimi xilma-xil sudlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

5. Absolut monarxiya davrida Angliyaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi (XV asrning oxiri - XVII asrning o‘rtasi)

Angliyada absolut monarxiya boshqa mamlakatlarda bo‘lgani kabi, feodalizmning inqirozi va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining vujudga kelishi davrida o‘rnatilgandi. Shu bilan birga ingliz absolutizmi o‘ziga xos qator xususiyatlariga ham ega edi. Shunday o‘ziga xos xususiyatlariga qarab ingliz absolutizmi adabiyotlarda "tugallanmagan" degan nom olgan. Angliyada o‘tgan davrga xos eski siyosiy institutlarning saqlanib qolganligi, shuningdek, fransuz klassik absolutizmiga o‘xshash ba’zi yangi elementlarning yo‘qligi absolutizmning "tugallanmaganligi"ni, to‘liq ko‘rinishda namoyon bo‘lmaganligini tavsiflaydi.

Ingliz absolut monarxiyasining asosiy xususiyati shundan iborat ediki, Angliyada kuchli qirol hokimiyati bilan bir qatorda parlament ham faoliyat ko‘rsatishda davom etgan. Shu tariqa Fransiya hamda Yevropa qit’asidagi boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, ingliz absolutizmi parlament bilan vakolatli muassasa sifatida chiqishib keldi, chunki parlament bu yerda o‘z ijtimoiy tarkibi jihatidan rivojlanayotgan absolutizmning muhim tayanchi va madadi edi. Ingliz absolutizmining yana bir xususiyati shundan iborat ediki, Angliya grafiklarida bu vaqtda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish (yarim saylanadigan sheriflar va mahalliy sudyalar, maslahatchi sudyalar, shaharlarning saylanadigan munitsipalitetlari va hokazolar) saqlanib qolgandi. Buning sababi shunda ediki, bu organlarga ham odatda o‘sha "ittifoqchi sinflar" - o‘rta dvoryanlar bilan burjuaziya kirib, ular absolutizmning ijtimoiy tayanchi sifatida umuman juda katta rol o‘ynardi. Nihoyat, ingliz absolutizmi qit’adagi absolutizmga o‘xshash muntazam armiya tuzmadi, bunga Angliyaning orolda joylashish mavqei ko‘p jihatdan sabab bo‘ldi. O‘rta asrlarda va hatto yangi davrning dastlabki asrlaridagi harbiy-texnika vositalarining, quruqlikdagi kuchlarning Angliyaga hujum qilishi juda qiyin vazifa hisoblanardi. Ammo XVI asrdagi ingliz qirollari munta-

zam armiya tuzmasalar ham, parlament bilan birgalikda harbiy flotni muttasil mustahkamlab bordilar. Buning oqibatida harbiy flot dushmanning dengizdan hujum qilishidan mamlakatning xavfsizligini to‘la ta'minlabgina qolmay, ingliz mustamlaka va savdo ekspansiyasi uchun qudratli vosita bo‘lib ham xizmat qilardi.

Shunday qilib, Angliyadagi absolutizm yuqoridagi jihatlari bilan qit’adagi, xususan, Fransiyadagi absolutizmdan farqlanardi.

Ingliz absolutizmi XV asrning oxiridan XVII asrning o‘rtasigacha bo‘lgan davrda hukm surdi.

Ijtimoiy tuzumdagi o`zgarishlar

XIV-XV asrlar mobaynida Angliyaning iqtisodi va ijtimoiy tuzumida absolutizmning qaror topishiga shart-sharoitlar yaratuvchi muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Feodal yer egaligining asta-sekin kapitalizmga o‘sib o‘tishi yuz berdi. Tovar-pul munosabatlarining va sanoatning rivojlanishi, Angliya juniga bo‘lgan talabning ortishi feodal yer egaligi xo‘jaligining tovar xo‘jaligiga aylanishiga olib keldi. Bularning hammasi kapital jamg‘arilishiga va dastlabki manfakturalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Dastlabki manfakturalar hammadan avval kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanishi yo‘liga to‘sqinlik qilayotgan sex tizimi mavjud bo‘lmagan port va qishloqlarda vujudga keldi.

Angliyada vujudga kelayotgan kapitalistik munosabatlarning o‘ziga xos tomoni shunda ediki, bu yerda kapitalistik munosabatlar shaharga qaraganda qishloqlarga ancha erta kirib kelgandi. Shu munosabatlarning vujudga kelishi jarayonida Angliya feodal davlati mutlaq yakka hokimlikka-absolutizmga o‘tadi.

Feodallar o‘z yer egaliklarini qo‘ylar o‘tlatadigan yaylovlarga aylantirish maqsadida ularni kengaytirishga harakat qilib, dehqonlarni o‘z uchastkalaridan haydab, jamoa yerlarini tortib ola boshladilar ("g‘ov tutish"ni eslang). Bu qishloq aholisining fermerlarga, kam yerli ijarachilarga va yersiz batraklarga bo‘linib ketishini ancha tezlashtirib yubordi.

XV asrning oxiriga kelib ingliz dehqonlari ikkita asosiy guruh – **frigolderlar** va **kopigolderlarga** bo‘linadi. Kopigolderlar - ilgarigi krepostnoy dehqonlarning avlodlari frigolderlardan farqli o‘laroq, feodallar foydasiga qator natural va pul majburiyatlari o‘tashda davom etardi. Ularning yer uchastkalariga nisbatan huquqlari manorlik sudlari qarorlarining nusxa (kopiya)lariga asoslanardi.

XV asrning ikkinchi yarmida feodallar sinfining o‘zida ham tarkibiy jihatdan muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. O‘zaro qizil va oq gullar urushi

yirik yer egaligining qudratini sindirdi, eski feodal zodagonlarning qirib tashlanishiga olib keldi. Dunyoviy va ruhoniy feodallarning katta-katta yerlari qirollik tomonidan sotuvga qo‘yildi va shahar burjuaziyasi hamda dehqonlarning yuqori qismi tomonidan sotib olindi. Ayni vaqtda manfaatlari burjuaziyaning manfaatlari bilan yaqin bo‘lgan dvoryanlar o‘rta tabaqasining roli oshdi. Xuddi shu tabaqadagi dvoryanlar orasidan o‘z xo‘jaligini kapitalistik usullarida yurituvchi yangi dvoryanlar shakllandi.

Yagona milliy bozorning rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy kurashlarning keskinlashuvi yangi dvoryanlar va shahar burjuaziyasining markaziy hokimiyatni yanada kuchaytirishga bo‘lgan manfaatdorligiga sabab bo‘ldi.

Dastlabki kapital jamg‘arish davrida dengiz orti hududlarini mustamlakaga aylantirish kuchaydi: Tyudorlar davrida Shimoliy Amerikada birinchi ingliz mustamlakasi - Virginiyaga asos solindi, XVII asrning boshida esa mustamlakachilikka oid Ost-Indiya kompaniyasi tashkil qilindi. Kompaniyalarda qatnashgan savdogarlar savdodan juda ko‘p foyda olardilar. Angliya qirollari kompaniyalar tuzishga jon-dili bilan rozi bo‘lardi, chunki savdogarlar ularning xazinasiga katta-katta mablag‘ to‘lab turardilar.

Sex tuzumining kuchsizlanishi shaharda kapitalistik elementlarning rivojlanishini yengillashtirdi. Shahar aholisi orasida tabaqalanish boshlandi. Savdogarlar va ustalardan iborat shaharliklarning yuqori qismi ajralib chiqdi. Kapitalistik manufakturalarning vujudga kelishi bilan mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilish kuchaydi. Bu esa shaharlarda sinfiy kurashning keskinlashuviga olib keldi. Bu kurash dehqonlarning yer uchun va yashash uchun kurashi bilan qo‘shilib ketgan edi (1549 yilgi Robet Ket boshchiligidagi kuchli dehqonlar qo‘zg‘olonini eslang).

Angliyada sinfiy kurashning keskinlashganligi "gadoy va daydilar"ga qarshi chiqarilgan qonunlarda va ish haqini tartibga soluvchi qonunlarda o‘z aksini topdi.

Dehqonlar va shahar kambag‘allarini tutqinlikda ushlab turish va qarshiliklarini bostirish uchun Angliya hukmron doiralari byurokratik boshqaruv apparatiga asoslangan kuchli davlat mashinasini tashkil qiladi.

Davlat tuzumi

Absolut monarxiya davrida Angliyada hokimiyat va boshqaruvning oliy organlari **qirol, Yashirin kengash** va **parlament** edi.

Biroq, bu davrda Angliyada real hokimiyat **qirolning** qo‘lida to‘plangandi. U ko‘p sonli va faqat o‘ziga bo‘ysunadigan organlar orqali qonun chiqarish, ijro etish va oliy sud hokimiyatini amalga oshirardi.

Yashirin kengash bundan oldingi davrda vujudga kelgan, lekin absolut monarxiya davrida batamom rasmiylashgan edi. U davlatning oliy mansabdor shaxslari: **lord-kansler, lord-xazinachi, qirolning shaxsiy muhrini saqlovchi lord** va boshqalardan iborat edi.

Kengash tarkibi doimiy bo‘lmagan. Oliy mansabdor shaxslar bilan bir qatorda boshqa mansabdor shaxslar ham Kengash ishlariga taklif qilinardi. Genrix VIII ning reglamentiga (1426 yilgi) asosan kengash tarkibiga 14 ta davlat va saroy mansabdor shaxslari, 4 ta per va 2 ta yepiskop kirardi.

Yashirin kengash qirol huzuridagi maslahatchi organ bo‘lgan. Uning vakolatlarini qirol belgilardi. Qirol hokimiyatning kuchayishi bilan mamlakatni boshqarishga taalluqli ko‘p hujjatlar qirol tomonidan kengashni chetlab o‘tgan holda chiqarilgan. Yashirin kengashning majlislarida ko‘pincha qirollar ishtirok etmasdilar. Ular bunday hollarda kengash majlislarini yuritishni uning a’zolaridan biriga topshirardilar.

Yashirin kengashning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organi sifatidagi roli va ahamiyati uning komissiyalari va komitetlari faoliyatida namoyon bo‘lgan. Ularning ichida fuqarolik va asosan jinoiy ishlar bo‘yicha favqulodda sud organi bo‘lgan "Yulduz palatasi" alohida o‘rin egallaydi.

Yashirin kengashning asosiy vazifasi monarx hokimiyatiga qarshi har qanday chiqishlarga qarshi kurashish edi. U farmonlar, reglamentlar, yo‘riqnomalar, manifestlar, proklamatsiyalar chiqarish bilan markaziy va mahalliy davlat organlari ustidan nazoratni amalga oshirardi. Kuchayib borayotgan qirol hokimiyati bu davrda parlamentni tugata olmadi. O‘tgan davrda asos solingan jentri va burjuaziya ittifoqi parlamentning mustahkam saqlanib qolishini ta'minladi. Bu ittifoq qirol hokimiyatining tabaqalar o‘rtasidagi ixtiloflardan foydalanib, markazda va joylarda vakillik muassasalarini tugatishiga yo‘l qo‘ymasdi.

Qirol hokimiyatining parlament bilan o‘zaro munosabatlarda ustunligi 1539 yilgi statut bilan rasmiylashtirildi. Unga ko‘ra, Yashirin kengashning chiqargan farmonlari va ordonanslari parlament hujjatlari bilan tenglashtirilgan edi. Garchand, parlament 1547 yilda rasman bu statutni bekor qilgan bo‘lsa ham, qirol hokimiyatining parlamentdan ustunligi amalda saqlanib qolgan edi.

Absolutizm davrida ingliz parlamentining vakolatlari rasman ilgarigidek qoldi. Parlament ilgarigidek soliqlar va yig‘imlar miqdorini o‘rnatish imtiyoziga ega edi. Parlamentning qirol hokimiyati tomonidan yangi soliqlar o‘rnatilishiga qarshi turishi qirollarni zayomlarga murojaat

etishga, tovarlarni chetdan olib kelish va chetga chiqarishda bojlar joriy qilishga, katta to‘lovlar evaziga kompaniyalarga qat’iy savdo huquqi (savdo monopoliyasi) imtiyozlarini berishga majbur etdi.

Absolut monarxiya davrida qirol hokimiyatining ingliz cherkovi ustidan ustunligi batamom o‘rnatildi. Angliyada qirol hokimiyatiga bo‘ysunadigan cherkov ta’sis etish maqsadida Reformatsiya[60] o‘tkazildi. Buning natijasi o‘laroq cherkov yerlari tortib olingan va davlat mulkiga aylantirilgan (sekulyarizatsiya qilingan)di. Angliya parlamenti Genrix VIII davrida 1529 yildan 1536 yilgacha qator qonunlar chiqarib, qirolni cherkov boshlig‘i deb e’lon qilib, unga oliy cherkov lavozimlariga nomzodlar ko‘rsatish huquqini beradi. XVI asrning oxirida qonun chiqarish yo‘li bilan yangi cherkovning diniy ta’limoti mazmuni, shuningdek, ibodat qilish tartibi o‘rnatilgan. Shunday qilib, ingliz cherkovi yoki lotincha aytganda, anglikan cherkovi Rim papasiga bog‘liq bo‘lmay qolgan va davlat apparatining bir qismiga aylangan.

Mamlakatdagi oliy cherkov organi **Yuqori komissiya** bo‘lgan. Uning tarkibiga ruhoniy shaxslar bilan bir qatorda Yashirin kengash a’zolari va boshqa mansabdor shaxslar ham kirardi. Komissiyaning vakolatlari juda katta edi. U qirol hokimiyatning cherkov ishlarida ustunligi haqidagi qonunlarning buzilishini, "diniy va cherkov xarakteridagi tartibsizliklar" bilan bog‘liq ishlarni tekshirardi. Komissiyaning asosiy vazifasi reformatsiya qilingan cherkovning dushmanlari - katoliklar va protestantlarning ancha radikal va demokratik tarafdorlariga qarshi kurashish edi. Komissiyaning har qanday uchta a’zosi, agar ularning orasidan bittasi yepiskop bo‘lsa, cherkovga kelmaydigan shaxslarni jazoga tortish, bid'atlarni to‘xtatish, pastorlarni almashtirish huquqiga ega edi. Yuqori komissiya yuqoridagilar bilan birga juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan qator dunyoviy ishlarni - Londondagi daydilar haqidagi, senzura haqidagi va hokazo ishlarni ham yuritardi. Reformatsiya qilingan cherkov tuzilishi jihatidan ham, ibodat sohasida ham katolitsizmning qator belgilarini saqlab qolgani holda qirol hokimiyatining ilohiy kelib chiqqanligini targ‘ib qilishni o‘z vazifalaridan biri qilib olgan organga aylandi.

Absolutizmning o‘rnatilishi bilan **mahalliy boshqaruv** organlari tizimi ancha uyg‘un bo‘lib qoldi, ularning markaziy hokimiyat organlariga bog‘liqligi o‘sdi. Bu davrda mahalliy boshqaruvdagi asosiy o‘zgarishlar **lord-leytenant** mansabining ta'sis qilinishida va mahalliy birlik - cherkov prixodi (qavmi) ning ma’muriy rasmiylashtirilishida o‘z ifodasini topdi.

[60] **Reformatsiya –** XVI asrda G`arbiy Yevropada katolik cherkoviga va papa hokimiyatiga qarshi olib borilgan diniy shakldagi ijtimoiy-siyosiy harakat.

Lord-leytenant bevosita qirol tomonidan graflikka tayinlanib, mahalliy ko‘ngilli qo‘shinlarga boshchilik qilardi hamda murosaga keltiruvchi sudyalar va kons-tebllar faoliyatiga rahbarlik qilardi.

Prixod (biror butxonaga qatnovchi dindorlar, qavm) quyi zvenodagi o‘zini o‘zi boshqaruvchi birlik bo‘lib, mahalliy cherkov va hududiy boshqaruv funksiyalarini birlashtirib turardi. Ibodatxona qavmlari soliq to‘lovchilar hisoblanardi. Ularning yig‘inida soliqlarni taqsimlash, yo‘llar va ko‘priklarni tuzatish kabi masalalar hal qilinardi. Bundan tashqari, ibodatxona qavmlari yig‘ini prixodning mansabdor shaxslarini (cherkov oqsoqolini, kambag‘allarni kuzatuvchini va boshqalarni) saylardi. Prixodda cherkov ishlarini yuritish bosh ruhoniy tomonidan amalga oshirilardi. Uning butun faoliyati murosaga keltiruvchi sudyalar nazorati ostiga qo‘yilgan edi, ular orqali esa, grafliklarning boshqaruv organlari va markaziy organlari nazorati ostiga olingandi. Murosaga keltiruvchi sudyalarning chorak sessiyalari prixodni boshqarish ishlariga taalluqli barcha masalalar bo‘yicha oliy instansiyaga aylantirilgandi. Bu vaqtga kelib, hali ilgarigi davrdan saqlanib qolgan grafliklar majlislari batamom o‘z ahamiyatini yo‘qotdi.

Absolutizm davrida markaziy Vestministrlik sudlarining, shu jumladan, Haqiqat sudi va Admiralteystvo[61] oliy sudining tuzilishi va yurisdiksiyasi batamom rasmiylashadi. Biroq, ular bilan bir qatorda Yulduz palatasi va "isyonchi" grafliklarda sud kengashlari kabi favqulodda sudlar tashkil etildi. **Yulduz palatasi** Yashirin kengashning maxsus bo‘linmasi sifatida qirol hokimiyatining dushmanlariga qarshi (dastlab - bo‘ysunmagan feodallarga qarshi) kurashish quroli bo‘lgan. Unda sud ishlarini yuritish asosan inkvizitsiya[62] xarakteriga ega bo‘lgan, qarorlar esa sudyalarning xohishi bo‘yicha chiqarilgan. Oqibatda Yulduz palatasi senzorning va qasamxo‘rlar tomonidan verdiktlar chiqarilishining to‘g‘riligi ustidan nazorat qiluvchi organ funksiyalarini bajaradigan bo‘lib qolgan. Yashirin kengashga bo‘ysunuvchi sud kengashlari Angliyaning "ijtimoiy tinchlik" tez-tez buziladigan tumanlari (Uels, Shotlandiya)da tuzildi.

Absolutizm davrida murosaga keltiruvchi sudyalarning sud vakolatlari kengayadi. Barcha jinoiy ishlar ular bo‘yicha katta jyurining ayblov hujjati tasdiqlagandan keyin sayyor va murosaga keltiruvchi sudyalar tomonidan qo‘rilishi buyurilgan. Qasamxo‘r maslahatchilar sud tarkibiga kiritiladi. Qasamxo‘rlar uchun mulk senzi Elizaveta I ning qonuni bilan 40 shillingdan 4 funt sterlinggacha oshiriladi.

[61] Angliyada va Chor Rossiyada harbiy flot boshqarmasi.

[62] **Inkvizitsiya sudi –** shafqatsiz, zolimlarcha, vahshiylarcha, yovuz, qiynash, azoblashga asoslangan sud.

Armiya tashkil etishning asosiy tamoyillari uncha o‘zgarmadi. Absolut monarxiya o‘rnatilishi davrida Genrix VII (1485-1509 yillar) eski aristokratiyaning harbiy qudratini batamom sindirish maqsadida feodallarning o‘z ofitserlariga ega bo‘lishini taqiqlovchi qonun chiqargan va artilleriya qurollaridan foydalanishda toj-taxtning monopol huquqini o‘rnatgan.

Yirik feodallar qurolli kuchlarining yo‘q qilinishi armiyada doimiy qirollik qo‘shinining tashkil etilishiga olib kelmadi. Qal'alarning soqchilari va qirollik gvardiyasi kam sonli bo‘lib qolaverdi. Quruqlikdagi armiya militsiya otryadlari ko‘rinishidagi ko‘ngillilar qo‘shiniga asoslanishda davom etdi. Angliya davlati orolda joylashganligi sababli o‘z hududini himoya qilish uchun kuchli dengiz flotiga muhtoj edi. Harbiy flot Angliyaning qurolli kuchlari asosi, dengizlarda hukmronlik qilish va boshqa hududlarni mustamlakaga aylantirish quroli bo‘lib qoldi.

Britan orollarining noingliz hududlari shiddat bilan mustamlakalarga aylantirilishi natijasida ingliz boshqaruv tizimi asta-sekin butun Britaniyaga yoyiladi. 1536-1542 yillarda Uels batamom ingliz davlati tarkibiga qo‘shib olinadi. 1603 yilda Irlandiyaning shimoli-sharqiy provinsiyasi – Olster ingliz qirolligi hokimiyati ostiga o‘tdi. 1603 yildan boshlab Angliyaning Shotlandiya bilan shaxsiy uniyasida taxtning sulolaviy meros bo‘lib o‘tishi natijasida Shotlandiya ham yagona ingliz qiroli hokimiyati qo‘li ostiga o‘tadi. Lekin amalda bu birlashuv nomigagina bo‘lib, Shotlandiya o‘zining mustaqil davlat sifatidagi mavqeini saqlab qoladi.

6. Huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalari

Angliya feodal huquqi o‘zining murakkabligi, chalkashligi, ustamonlik bilan qilinganligi (kazuistikligi) bilan ajralib turardi. Bu ushbu huquqning rim huquqi, rim huquqi g‘oyalarining ta'sirisiz, alohida yo‘llar bilan shakllanishi bilan bog‘liq edi.

XV asrdagi normand istilosiga qadar Angliyada huquqning asosiy manbalari odatlar va qirollik qonunlari hisoblangan. Ingliz-sakslar davlatida huquqning asosiy manbai sifatida **odat huquqi va uning to‘plamlari** - Etelbert sudnomasi, Ine qonunlari, Buyuk Alfred sudnomasi, Etelstan va Knut qonunlari yetakchi rol o‘ynardi. Bulardan tashqari Xlotar (673-685 yillar) va Edrik (685-686 yillar), Eduard Katta (899-925 yillar), Edmund (939-946 yillar), Edgar (959-975 yillar), Etelred II (979-1014 yillar) va boshqalarning qonunlari ham ingliz-sakslar davlatida huquqning muhim manbalari bo‘lgan edi.

601-604 yillarda Kentda e’lon qilingan va 90 ta moddadan iborat **Etelbert sudnomasida**[63] tinchlik, bosqinchilikka qarshi kurashish, odam o‘ldirish, nomusga tegish jinoyatlari uchun javobgarliklar, nikoh-oila huquqi, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, vorislik huquqi va hokazolar to‘g‘risida me’yorlar belgilangan. Sudnoma tuzilgan vaqtda ingliz-sakslar davlatida cherkovning roli dunyoviy hokimiyatga qaraganda ancha kuchli edi. "Agar, - deyiladi sudnomaning 2-moddasida, - ozod kishi qirolning mulkini o‘g‘irlasa, o‘g‘irlangan mulk qiymatining 9 baravar miqdorida jarima to‘lasin". Cherkov mulki esa xudo mulki deb atalib, uni o‘g‘irlaganlik uchun mulk qiymatining 12 baravar, yepiskopniki uchun - 11, ruhoniyniki uchun - 9, dyakniki uchun - 6 va klerkniki uchun - 3 baravar miqdorda jarima nazarda tutilgan.

Qirol Ine davrida Uesseks g‘arbiy sakslarining 688-695 yillardagi odat huquqi yozilib, to‘plam holiga keltirilgan va **Ine qonunlari**[64] degan nom olgandi. Bu qonunlar qullar va dehqonlarning qarshiligini bostirish hamda mulkdor sinflarning hukmronligini ta’minlashga qaratilgan edi. Ine qonunlarida jinoyat huquqi va fuqarolik huquqiga oid juda ko‘p me’yorlar mavjud. Taniqli o‘zbek olimi Z.Muqimov haqli ravishda ta’kidlaganidek: "Etelbert hamda Ine pravdalari o‘zining tuzilishi, deyarli ko‘p holda jinoyatlarga bir xil jazo berilishi, vergeld (odam bahosi) tarzida belgilanadigan jarimalarni belgilash bilan franklarning Sali pravdasiga juda o‘xshab ketadi"[65]. Lekin shuni ta’kidlash joizki, yuqorida yodga olingan barcha huquqiy yodgorliklarda ayni bir xildagi huquqbuzarliklar uchun turlicha jazolar va turli miqdordagi jarimalar nazarda tutilgandi. Bu, albatta, o‘sha qonunlarning qabul qilinishi vaqtidagi ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq edi.

Buyuk Alfred sudnomasi[66] IX asrning 90-yillarida o‘zigacha bo‘lgan odat huquqlari to‘plamlarining tizimlashtirilishi natijasida vujudga kelgan bo‘lib, kirish qismi 49 ta moddadan, asosiy qismi 77 ta moddadan iborat. Qirol Alfred o‘z sudnomasini yaratar ekan, shularni ko‘rsatadiki, u "o‘ziga yoqqan" ko‘pgina ilgarigi qonunlarni, Ine, Etelbert qonunlarini o‘zlashtirgan, lekin "donishmandlar" maslahati bo‘yicha ulardan ko‘plarini tushirib ham qoldirgan. Sudnomaning 1-moddasida qirol shunday deydi: "Biz hammadan avval o‘rgatamizki, har kim o‘z qasamini va qonuniy ravishda bergan va'dasini avvalo oqibatini o‘ylab ado etishi lozim"[67].

---

[63] **Qarang:** Хрестоматия по Всеобщей истории государства и права.Т.1./ Под ред. К.И. Батыра и Е.В. Поликарповой.-М.:Юристь, 1999. 325-328-betlar.

[64] **O`sha joyda,** 334-344-betlar.

[65] **Muqimov Z.** Chet mamlakatlar davlat va huquqi tarixi. (Qadimgi va o`rta asrlar davlati va huquqi tarixi). – Samarqand, 1992. – 84-85-betlar.

[66] Хрестоматия по Всеобщей истории государства и права.Т.1./ Под ред. К.И. Батыра и Е.В. Поликарповой.-М.:Юристь, 344-351-betlar.

[67] O`sha joyda, 345-bet.

Shuning o‘ziyoq mazkur sudnoma huquqning yozib qo‘yilayotganligiga ishora qilib turibdi.

Ingliz-sakslar huquqining ilk to‘plamlari boshqa xalqlarning huquqi ta’siridan mutlaqo xalos bo‘lgan bo‘lsalar, Buyuk Alfred sudnomasidan boshlab ularga daniyaliklar tomonidan olib kelingan skandinav huquqining ta’sirini ko‘rish mumkin. Buyuk Alfred sudnomasi ham ilgarigi qonunnomalarga o‘xshab ko‘proq jinoiy huquqiy xarakterdagi me’yorlarni belgilagan.

925-939 yillarda qirol **Etelstan qonunlari** vujudga kelib, ular asosan quyidagi 6 ta turkumdagi qonunlardan iborat edi:

1. Qirolning o‘nliklar haqidagi qarorlari.
2. Zodagonlar yig‘ilishida qabul qilingan qonunlar.
3. Qirol tinchligini saqlash to‘g‘risidagi dekret.
4. Tinchlikni saqlash haqida yepiskoplar va Kentning boshqa donishmand kishilarining qarorlari.
5. Angliya donishmandlarining maslahati bilan qabul qilingan dekretlar.
6. London shahar sudnomasi.

Knut qonunlari 1017 yil atrofida Angliyaning Daniya qiroli Knut tomonidan bosib olinishi natijasida vujudga kelgan. Knut (1016-1035 yillar) o‘z qonunlariga Angliya qonunlari bilan teng huquq berdi. U qonunsizlikka qarshi qattiq kurash olib bordi va mamlakatda jinoyatning oldini olishga harakat qildi.

Vilgelm Fotix (Istilochi)dan boshlab dastlabki normand qirollarining siyosati "ingliz-sakslarning eski va asl odatlari"ga rioya etishga qaratilgan. Bu vaqtda, shu tariqa, endi ingliz huquqi turg‘unligining tarixiy meros bo‘lib o‘tishligi boshlangan, uning me’yorlariga rioya qilishning asosiy kafillik roli kuchli qirol hokimiyatiga, shakllanib borayotgan umumdavlat qirollik sudlariga o‘tgandi.

Genrix II davrida (XII asrda) qirollik sayyor sudlarining doimiy ravishdagi faoliyati bilan mamlakat **"umumiy huquqi" (Common law**)ning tashkil topishi bog‘liq edi. Ilk feodal monarxiyasi davrida Angliya qirollari juda ko‘plab assizalar, konstitutsiyalar chiqargan bo‘lsalar ham, lekin yangi huquqiy qoidalarni yaratishda eng katta rolni sayyor sudyalar o‘ynagan. Sayyor sudyalar normand va ingliz-sakslar odat huquqlaridan butun Angliya uchun yagona umumiy huquqni yaratdilar. Umumiy huquq **sud pretsedenti huquqi h**am deyiladi, chunki u qonunchilikdagi kamchilik natijasida vujudga kelgan sud qarorlari sifatida ham tashkil topdi.

Sudlar qonunchilikda yetarli ravishda tartibga solinmagan nizoli kazuslarni yechishlarida ularni o‘zlarining xususiy qaror va qoidalaridan

kelib chiqib hal etishlari mumkin edi. Bunday holda sudya barcha hollarda harakatdagi huquq normasini qo‘llaydi, degan prezumpsiyadan foydalanilgan. Shunday qilib, ular tomonidan o‘rnatilgan tamoyil sud odatiga aylanib, barcha sudyalar uchun bajarilishi majburiy bo‘lib, faqat yuqori sud organlari tomonidangina bekor qilinishi mumkin edi. Bu hodisa Angliya feodal huquqining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Qirollik sayyor sudlari avvalo "toj-taxt da’volashuvlari" ni, ya’ni xazinaga daromad bo‘lishi nuqtai nazaridan manfaatlarni ifodalovchi ishlarni: monarxning feodal huquqlari, xazina topilmalari, shubhali o‘limlar va qirollik tinchligining buzilishi, qirol mansabdor shaxslarining suiiste’-molliklari to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib, hal qilardi.

Bundan tashqari, ular tomonidan qirolga kelib tushgan shikoyatlar bo‘yicha "umumiy tortishuvlar" yoki "xalq tortishuvlari" ham ko‘rib, hal qilingan. Dastlabki qirollik sudlaridan biri ham aynan 1180 yilda tashkil etilgan "umumiy tortishuvli" sud bo‘lgan. XIII asr boshida qirolga tushgan shikoyatlar bo‘yicha ishlarni hal etish funksiyalari "Qirol kursisi sudi"ga o‘tadi.

Sayyor sudlar mahalliy odat huquqi me’yorlarini birxillashtira boshlaganlar va qirollik devonxonasi yordamida "umumiy huquq" yarata borganlar. Qirollik devonxonasi odatda jabrlanuvchi tomonlarning arizalari bo‘yicha maxsus **buyruqlar (writ)** chiqarardi. Bunday arizalarda biror kimsani ranjitgan odamga yoki sherifga talab qo‘yilib, uni bajarish va shikoyatchining buzilgan huquqini tiklash haqidagi da’volar o‘z aksini topar edi. Bunday arizalar bo‘yicha dastlab qirollik devonxonasi maxsus buyruqlar chiqargan bo‘lsa, keyinchalik **maxsus sud buyruqlari** chiqarila boshlanadi. Sud buyruqlarida bevosita biror kimsani xafa qilgan odamga murojaat qilinib, "Vestminstrda bizning oldimizda yoki sudyalarimiz oldida" hozir bo‘lib, shikoyatga javob berish, ya’ni boshqa shaxsning huquqlari buzilganligini rad etish yoki tan olish haqida talab qo‘yilar edi.

Vaqt o‘tishi bilan buyruqlarda talab, da’vo turi aniq ifoda qilinadigan bo‘lgan, buyruqlar ma’lum turdagi huquqbuzarliklar bo‘yicha guruhlashtirila boshlandi. Da’vogarning, shu tariqa, agar uning buzilgan huquqi tegishli buyruqda ifoda etilgan va sudda isbotlanadigan bo‘lsa, ishda yutishiga ishonchi komil edi.

Bunga avvalo yer haqidagi fuqarolik da’volarini yagona usulda ko‘rishni o‘rnatuvchi Genrix II ning **assizalari** yordam berdi. Ushbu assizalar ichida yerga huquqiy unvon o‘rnatish haqidagi da’voning maxsus shaklini nazarda tutuvchi "Buyuk assiza", shuningdek, egalik bilan bog‘liq bo‘lgan qator assizalar: "O‘tmishdoshining o‘limi haqida"gi (erkin egalikdagi

yerlarning merosxo‘rlarga o‘tkazilishi haqidagi), "Yangi istilo haqida"gi ("yangi istilolar" yo‘li bilan qirolning domen yer egaligining cherkov ruhoniysi o‘rniga o‘z nomzodini qo‘yish huquqi haqidagi) assizalar ancha mashhur edi. Ikkita yirik assizalar - 1166 yilgi Klarendon va 1176 yilgi Nortgempton assizalari sayyor sudyalarga yo‘riqnomalar shaklida chiqarilgan edi.

«Umumiy huquq» shakllanishining ilk bosqichida qirollik buyruqlari har bir alohida holat bo‘yicha chiqarilib turganligi sababli XIII asrning boshiga kelganda ularning soni shunchalik ko‘payib ketgan ediki, ularni tartibga solish juda qiyin bo‘lib qolgandi. Shu munosabat bilan XII asrda "umumiy huquq" bo‘yicha o‘ziga xos ma’lumotnomalar - **buyruqlar ro‘yxatlari (reestrlari)** chiqarila boshlanadi. Bunday reestrlarda buyruqlar da’volar namunalari ko‘rinishida, qat’iy yuridik shaklda yozib qo‘yiladigan bo‘ldi.

Tomonlar shu vaqtdan boshlab o‘z huquqlarini erkin asoslay olmaydigan bo‘ldi. Endi ular ushbu da’volar namunalariga tayanishlari lozim edi. Bu esa buyruqlar tizimining rivojlanmay bir joyda qotib qolishiga, da’vo talablarining yangi shakllari ko‘payishini qisqarishiga olib kelishi kerak edi. Shunday bo‘ldi ham. Agar lord-kansler qirollik devonxonasining boshlig‘i sifatida o‘z tashabbusi bilan qandaydir buyruq chiqarsa, sudyalar ko‘pincha uni qo‘llashdan voz kechardi. Yangi buyruqlar chiqarishning cheklanishi yirik feodallar (baronlar)ning qirol bilan kurashi keskinlashgan davrda, 1258 yilgi Oksford proviziyalarida o‘z aksini topdi.

Qirolga kelib tushadigan va sud himoyasida bo‘lmagan shikoyatlar oqimi shunchalik ko‘payib ketgan ediki, bu ingliz qirolini 1285 yilda Vestminstrlik statuti bilan lord-kanslerga "buyruqlar reestri"ni saqlovchi sifatida ilgarigi buyruqlarga o‘xshash yangi buyruqlar chiqarish yo‘li bilan "umumiy huquq"ning harakat doirasini kengaytirish uchun farmoyish berishga majbur etdi. "Buyruqlar reestri" shundan keyin "mazkur holatga muvofiq ravishda"gi universal da’vo bilan to‘ldirildi. Biroq, ushbu vaqtinchalik choralar yordami bilan hamma hayotiy vaziyatlarni nazarda tutish mumkin emas edi. "Umumiy huquq" rivojlanmay qolishda davom etdi. XV asrdan kansler endi buyruq formulasini tuzmay qo‘ydi. U da’vogar tomonidan mustaqil yozilib, faqat qirolga muhr qo‘ydirish uchun taqdim qilinar edi.

"Umumiy huquq" me’yorlari shakllanishining boshqa yo‘li qirollik sudlari amaliyotining o‘zi bo‘lgan. Sud ishlari bo‘yicha yozuvlar dastlab qisqa, keyinchalik tomonlarning batafsil arizalari va sud qarorlari asoslari shaklida sayyor sudlar institutining kelib chiqishi paytidan boshlab yuritildi. XIII asr boshidan sud protokollari "Da’volashuvlar nomalari"da e’lon

qilina boshlaydi. Ulardagi materiallar, da’voni qondirish asoslari u yoki bu odatlarning mumkinligini tasdiqlaydi. Biroq, yozuvlarning tartibsiz va chalkashligi sudyalarning o‘zlariga kerakli ma’lumotlarni izlab topish imkoniyatlarini juda qiyinlashtiradi. XIII asrning o‘rtasidan sudyalar ancha muhim sud ishlari yuzasidan bunday ma’lumotlarni rasmiy hisobotlar - "Yillik to‘plamlar"dan "kovlab" ola boshlaydilar. 1535 yilda ularning o‘rniga xususiy tuzuvchilarning tizimlashtirilgan sud hisobotlari kelgan.

Sud ishlari materiallarining e’lon qilinishi bilan birga sud **pretsedenti** nazariyasi ham shakllandi. Qirollik sudlarining huquqiy masala bo‘yicha ilgarigi qarorlarida mustahkamlangan rahbariy tamoyil kelajakda shunga o‘xshash masalalarni ko‘rishda asta-sekin namuna kuchiga ega bo‘la boshladi.

XIV asrda Angliyada bozor, xususiy mulkchilik munosabatlari gurkirab rivojlandi, lekin ular "umumiy huquq" me’yorlarida o‘zining aynan bir xil ifodasini topmadi. Bunga qat’iy rasmiyatchiliklar xalaqit qilardi.

Normandlar istilosi Angliyani qit’aning ma'naviy hayotiga yaqinlashtirdi. Shundan so‘ng Bolonyada Irneriy Yustinian Digestalari bo‘yicha ma'ruzalar o‘qiy boshladi, so‘ngra esa Gratsion o‘zining kanonik huquqning asosi bo‘lib qolgan "dekretlar" ini yaratdi. Oksfordda Rim va kanonik huquqi kurslari o‘qitila boshlandi, monastirlar qoshida kanonik huquq maktablari tashkil etildi.

Dastlabki ingliz sudyalari, o‘sha kliriklar va chinovniklarga rim huquqiy madaniyatining cho‘qqilarini egallashi uchun yo‘l ochiq edi. Biroq, XIII asrning oxiridan Eduard I davrida ular professionallardan tayinlanadigan bo‘ldi. Xuddi o‘sha vaqtda sudyalarning tegishlicha qo‘rg‘onlari bilan (Inn's of Court) yopiq korporatsiyalari tashkil topdi. Bu yerda bo‘lajak sudyalar va huquq himoyachilari (baristerlar va solistorlar) tayyorlandi. Ular inglizlar tinchligini qo‘riqlashni o‘z qo‘llarida monopoliyaga aylantirib, avvalo o‘zlarining professional manfaatlarini himoya qilib, "umumiy huquq"ni ashaddiy madh etib, uning Rim huquqi oldida tengi yo‘q imtiyozini isbotlashga harakat qilib maydonga chiqdilar. Bunda shuni tasdiqlaydilarki, ular huquq yaratishmaydi, balki faqat uning abadiy yashaydigan normalarini ochishadi. Shunga qaramay, "umumiy huquq" ning o‘ziga xos mustaqil tizimi XIV asrda Angliyada allaqachon mustahkam mavqeni egallagan edi.

"Umumiy huquq"ning rasmiyatchiligi, qimmatliligi, juda sekinligi, qat’iy bir shakldan boshqa shaklga o‘tishga qodir emasligi natijasida o‘zgarib borayotgan tarixiy sharoitlar munosabati bilan Angliyada XIV

asrda " adolat sudi" paydo bo‘la boshladi va shu bilan birga yana bir huquqiy tizim - **«adolat huquqi» (eguity)** shakllanib boradi.

"Adolat sudi"ning vujudga kelishi lord-kansler - "qirollik diyonatini tarqatuvchi" faoliyati bilan bog‘liq edi. Lord-kansler dastlab qirol nomidan, 1474 yildan esa o‘z nomidan "yomon sudlovlilik" ustidan shikoyat qilgan da’vogarlarni himoya qila boshlaydi. Bunday holda da’vogarlar ko‘pincha o‘z shikoyatlarida ularni xafa qilganlar ta’qib qilinmaganligini, o‘zlarini "umumiy huquq" sudlarida himoya qilinmaganliklarini ko‘rsatar edilar.

Jabrlanuvchilarning qirolga "xudo haqi va shafqat" bilan o‘z huquqlarining himoya qilinishini so‘rab iltimos bilan qilgan murojaatlari asosida lord-kansler ozor yetkazgan kishini jarima bilan qo‘rqitib, kansler sudiga chaqirish haqida buyruqlar chiqara boshlaydi. Bunday sudda shikoyatlar hech qanday rasmiy tartiblarsiz hal qilinardi, qaror chiqarilardi, bu qarorlarni bajarmaganlar sudga hurmatsizlik qildi deb hisoblanib, maxsus buyruq asosida turmaga qamalardi. XIV asrning boshida Eduard I davrida lord-kansler huzuridagi apparat "umumiy huquq" me’yorlariga bog‘liq bo‘lmagan hamda "adolat" me’yorlarini rahbar qilib olgan sud organiga aylanardi.

"Adolat huquqi" ko‘p masalalarni hal qilishni sudyalarning ixtiyorida qoldirib, qat’iy determenizm[168] xususiyatiga ega bo‘lmadi. Bu haqiqatning "vositalarini" tegishlicha cheklashga, qator tamoyillarini yaratishga olib kelishi lozim edi. Bunday tamoyillar "adolat sudlari" qarorlarining to‘planish darajasiga qarab tashkil etila bordi. Ko‘rilgan ishlar bo‘yicha sud hisobotlari keyinroq, 1557 yildan, haqiqat sudlaridagi ishlarning soni birdaniga oshgandan keyin e’lon qilina boshlaydi.

"Adolat huquqi" asosiy tamoyillarining bir qismi "umumiy huquq" dan o‘zlashtirib olingan edi. Bu tamoyillar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Ulardan asosiysi shundan iboratki, "adolat huquqi" - "qirolning marhamati", jabrlanuvchining azaldan qolgan huquqi emas. "Adolat huquqi"ga huquqlar buzilishining barcha hollarida da’vo qilish mumkin emas, negaki u diskretsion xarakterga ega, ya’ni sudning ixtiyoriga bog‘liq.

"Adolat huquqi"ning boshqa tamoyillari orasidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: a) "adolat huquqi" "umumiy huquqqa" asoslangan shaxslarning huquqlariga, agar ular qandaydir g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etmasalar, zid berilishi mumkin emas; b) qayerda adolat huquqi" bilan "umumiy huquq" me’yorlari o‘rtasida qarama-qarshilik kelib chiqsa,

[68] **Determenizm –** tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarning umumiy obyektiv qonuniyatlari borligini va ular bir-biriga bog`liq bo`lib, bir-birini taqozo qilishini, biri ikkinchisining sababi ekanligini e'tirof etuvchi nazariya.

"umumiy huquq" me’yorlari harakatda bo‘ladi; v) qayerda "adolat huquqi" va "umumiy huquq" bo‘yicha huquqlarda qarama-qarshiliklar kelib chiqsa, ulardan qaysi biri vaqt nuqtai nazaridan oldin vujudga kelgan bo‘lsa, o‘sha huquqlar himoya qilinishi kerak; g) tenglik - bu adolat, adolatni kim izlasa, uning o‘zi haqqoniyat yuzasidan ish tutishi lozim; d) "adolat huquqi" qonun ustunligini tan oladi, lekin yomon niyatlarga erishish maqsadlarida qonunga havola qilishga yo‘l qo‘ymaydi va hokazo.

«Adolat huquqi» «umumiy huquq"ni almashtirish uchun emas, balki eski rasmiy qoidalardan voz kechish yo‘li bilan uning samardorligini oshirish, "umumiy huquq" me’yorlari bilan tartibga solinmagan ijtimoiy munosabatlar doirasida buzilgan huquq va manfaatlarni himoya qilish vositalarini yaratish uchun tashkil etiladi. Agar dastlabki "adolat huquqi" "umumiy huquq"ni to‘ldirgan bo‘lsa, biroq vaqt o‘tgani sari tarixiy sharoitlar o‘zgarishi munosabati bilan unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zid kela boshlaydi.

"Adolat sudlari" bilan "umumiy huquq" sudlari o‘rtasidagi to‘qnashuv 1616 yilda boshlandi. Shu yili Vestminstrdagi "Umumiy tortishuvli sud"ning bosh sudyasi E. Kok " adolat sudi" "umumiy huquq" sudining tegishlicha qaroridan keyin yoki uning o‘rniga qaror chiqarishi mumkinmi, degan savolni o‘rtaga tashlaydi. Hammadan avval "umumiy huquq" sudlarining ba’zi qarorlarining bajarilishini taqiqlovchi kansler sudining buyruqlari keskin nizoli vaziyatni keltirib chiqardi.

Yakov I bu nizoni "adolat sudi"ning foydasiga hal qilgan. Chunki uning sudyalari absolut va cheklanmagan monarx hokimiyatini yoqlab chiqqan edi. Qirol tomonidan farmon chiqarilib, unga ko‘ra, "umumiy huquq" va "adolat huquqi" me’yorlari bir-biriga zid kelib qolsa, keyingilari imtiyozli ahamiyatga ega edi.

Pretsedent huquqi rivojlanishining maxsus xarakteri ingliz huquqshunoslarining asarlariga ham murojaat qilishni talab qilardi. Ingliz huquqshunoslarining asarlari juda barvaqt ingliz huquqining ikki murakkab (chalkash-chulkash) tizimida yo‘riqnomalar rolini bajara boshlaydi.

Angliyada birinchi huquqiy traktat[69] XII asrdayoq paydo bo‘lgan. U Genrix II davrida uning yustitsiari Glenvill Ranulf tomonidan yozilgan. Bu "Angliya qonunlari va odatlari haqida"gi traktat qirollik sudlari buyruqlariga sharhlar bergan, o‘zida umumiy, kanonik va rim huquqi me’yorlarini saqlagan. Garchand, traktatda rim huquqi me’yorlariga mos tushadigan me’yorlarni topib bo‘lmasa ham, ammo rim huquqi ruhiga yaqin ko‘pgina qoidalar mavjud.

[69] **Traktat –** ayrim masalaga bag`ishlangan ilmiy asar, boshqacha ma'nosi – xalqaro bitim, shartoma.

XIII asrda "Qirol kursisi sudi"ning sudyasi Genri Brakton "umumiy huquq" me’yorlarini yanada batafsilroq bayon qildi. Braktonning 6 tomdan iborat "Angliya qonunlari va odatlari haqida"gi traktati, shuningdek, qirol sudlarining 2000 dan ortiq namunaviy sud protokollaridan iborat "Genri Braktonning yon daftarchasi" "umumiy huquq" me’yorlarini tizimga solishga va sharhlarga qaratilgan muhim huquqiy manbadir. Bunda Braktonning Yustinian Digestalarining 500 dan kam bo‘lmagan parchalaridan ularga havola qilmay foydalanganligi diqqatga loyiq. "Hamma joyda va hamma mamlakatlarda yozma qonunlar qo‘llanilgani holda, - deb yozadi G.Brakton, - faqat Angliyadagina yozilmagan qonunlar va odatlar amaldadir". G.Braktonning odat huquqiga bergan ta’rifi ayniqsa diqqatga sazovordir. Unda: "Odat bu ayrim joylarda, uzoq joylarda, uzoq muddat foydalanib kelinganligi natijasida qaror topgan va qonun sifatida ijro etiladigan narsadir"[70], deyiladi.

XV asrdan olimlarning muhim va murakkab huquqiy masalalar bo‘yicha traktatlari paydo bo‘la boshladi. Bulardan Littltonning "Yer egaliklari haqida"gi asari, shuningdek, Forteskoning "Ingliz qonunlarining maqtovlari" traktati alohida o‘rin tutadi. Ingliz huquqshunoslarining diqqat-e’tiboriga tez-tez statut huquqi me’yorlari ham tusha boshlaydi.

XVII asrning boshida mashhur huquqshunos E.Kok tomonidan to‘rtta kitobdan iborat "Angliya qonunlari institutsiyalari" tuzilgan. Birinchi kitob Littlton traktatiga sharhlarni o‘z ichiga olgan. Ikkinchi kitob ancha muhim ahamiyatga ega bo‘lgan statutlarni bayon qilgan. Uchinchi kitob jinoyat huquqi me’yorlariga, to‘rtinchisi - sud tuzilishi va sud ishlarini yuritishga bag‘ishlangan. Ingliz sudlari amaliyotida asta-sekin ancha taniqli huquqshunoslar asarlariga havola qilish odati o‘rnatilgan va shu tariqa ularning asarlari ingliz huquqining o‘ziga xos manbai xarakteriga ega edi.

Angliyada pretsedent huquqining rivojlanishida barcha davrlarda qirol qonunlari, statut huquqi muhim ahamiyatga ega edi.

Normand istilosidan keyingi vaqtlarda qirollarning qonun ijodkorligi Vilgelm Fotixdan boshlanadi. Uning birinchi qonunlari qirol hokimiyatining xristian cherkovi bilan munosabatlariga taalluqli bo‘lgan. 1067 yilda Vilgelm qonun (dekret) chiqarib, unda Normandiya va Angliyada cherkov rim papasini tan olishi lozimligi yoki lozim emasligi masalasini faqat qirol hal qilishga haqli ekanligi, qirolning o‘zi u tomonidan tashkil etilgan cherkov sinodi orqali cherkov qonunlarini chiqarish, shuningdek, cherkov baronlari va xizmatchilariga berilgan cherkov jazolarini bekor qilish huquqiga ega ekanligi e’lon qilingan. 1072 yilda esa Vilgelm papa tomonidan

[70] Хрестоматия памятников феодального государства и права.-М.:Госюриздат, 1961. 144-bet.

uning ingliz taxtiga nisbatan huquqlari tan olinishiga minnatdorchilik ramzi sifatida cherkov sudlarining dunyoviy sudlardan ajratilganligi haqida qonun qabul qilgan. Bularning ketidan odamlarni mamlakat tashqarisiga sotishni ta’qiqlash haqida, normandni "xufiyona o‘ldirilganlik" uchun "uning ingliz ekanligini isbotlovchi ishonarli dalillar taqdim qilinmagunча" yuzlikka jarima solinishi haqida qonunlar e’lon qilindi. 1114 yilda qirollik qonunlarining qadimgi to‘plamlaridan biri paydo bo‘ldi.

Qirollarning qonunlari assizalar, xartiyalar, ammo ko‘proq ordonanslar, statutlar deb atalgan. Genrix I ning (XII asr), Eduard I ning (XIII asr) qonunlari ma’lum darajada "umumiy huquq"ning shakli va mazmunini belgilagan, uning asosiy qoidalari va tamoyillarini ishlab chiqqan.

Parlamentning vujudga kelishiga qadar, aniqrog‘i, Eduard I podsholigigacha qirollik ordonanslari va statutlari o‘rtasida farqlar yo‘q edi. 1235 yilgi Merton statuti parlament tashkil etilgunga qadar paydo bo‘lgan. Eduard I ning 1275, 1285, 1290 yillardagi Vestminstrlik statutlari "umumiy huquq"dagi kemtiklarni bartaraf etishga, sudlar ustidan qirol hokimiyatining nazoratini kuchaytirishga, feodallarning immunitet huquqlarini va cherkov yer egaligini cheklash va boshqalarga qaratilgan bo‘lib, parlament ishtirokida qabul qilingan edi[71].

Asta-sekin statutning nomi parlament tomonidan qabul qilingan va qirol tomonidan imzolanadigan hujjatga nisbatan ishlatiladigan bo‘lgan. Statutlar - parlament hujjatlari Angliyaning o‘rta asrlardagi boshqa huquq manbalaridan ularning qonunchiligi sharhlanishi mumkinligi, ammo sud tartibida muhokama qilinishi mumkin emasligiga qarab ajralib turardi.

Hozirgi kundagi parlament hujjatiga ancha yaqinroq bo‘lgan statut tushunchasi faqat 1327 yilda, jamoalar "umumiy petitsiyalar"ni ma’lum qilinishini va "qiroldan javob olishni va uning yozma maslahatlarini qirollikning katta muhri bilan berilishi"ni so‘rab qirolga iltimos bilan murojaat qilgan vaqtda paydo bo‘lgan. Shu vaqtdan boshlab ba’zi qonun hujjatlari "Kengash roziligi bilan", boshqalari "parlament roziligi bilan" qirol tomonidan qabul qilinardi. Parlament qirolning "Kengashda farmonlar" chiqarish huquqini tasdiqlab, bundan buyon faqat statut ilgari qabul qilingan statutning mazmunini o‘zgartirishi mumkinligini o‘rnatdi.

Absolutizm davrida qirol farmonlarining eng muhim davlat masalalariga kirib kela boshlashi, parlamentning tez-tez qirolga farmonlar

[71] **Statutlar** deb dastlab ular qabul qilingan joylarning nomi bilan atalgan (1235 yilgi Merton statuti, 1276 yilgi Gloster statuti va hokazo), lekin parlamentning Vestministrda doimiy majlislar o`tkazib turishi munosabati bilan ular qonun matnining dastlabki ikkita so`zi bo`yicha atala boshlagan.

chiqarish vakolatini berib turishi munosabati bilan parlament statutlarining mazmuni ancha o‘zgardi. Bunday tajriba 1539 yilgi statut bilan mustahkamlangan. Unda parlament yig‘ilmagan vaqtda, "agar sharoit taqazosi bilan tezkor harakat qilish zaruriyati kelib chiqsa, qirolga proklamatsiyalar, farmonlar chiqarishda keng huquqlar taqdim etilgan edi.

Angliyaning o‘rta asrlardagi huquq manbalari ichida **savdo va kanonik huquqi** me’yorlari alohida o‘rin tutadi. "Umumiy huquq"ning bozor munosabatlari rivojlanishiga yordam bermaydigan konservativ rasmiyatchiligi ingliz huquqi tomonidan savdo va kanonik huquqning qator me’yorlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirib olinishiga sabab bo‘lgan. Ko‘p sonli savdo rasm-rusumlarining paydo bo‘lishi ingliz savdo sudlarining faoliyati bilan ham bog‘liq edi. Ularning huquqiy kuchi ko‘pincha qirollik statutlari bilan mustahkamlangan.

Gap shundaki, Angliyaning XIII asr oxirida muhim xalqaro savdo markazlari bo‘lib qolgan port shaharlarida jun, movut, metallar savdosi bo‘yicha ulgurji yarmarkalar bilan bir qatorda, maxsus sudlarning (court of the staple) butun bir tarmog‘i ham rivojlangan. XIV asrda ulgurji savdo bo‘yicha sudlar endilikda 614 ingliz shaharlarida harakat qilmoqda edi. Ingliz qirollari xazinaga katta daromadlar keltiruvchi xalqaro savdoning himoyachisi sifatida maydonga chiqib, savdogarlarning faoliyatini (1215 yilgi Erkinliklarning buyuk xartiyasi 41-moddasi) ham, savdo sudlarining faoliyatini ham rag‘batlantirgan. Masalan, 1353 yilda ulgurji savdo va shaharlarning savdo sudlari haqida maxsus statut qabul qilingan.

Bunga ko‘ra, shahardagi savdo sudlari mahalliy va dengiz savdogarlari tomonidan ingliz shaharlari merlari raisligida tashkil etilishi lozim edi. Bunday sudlarning qarorlari ustidan qirol sudiga yoki kansler sudiga apellyatsion shikoyat qilish mumkin edi.

Statut savdo sudlarini "umumiy huquq" me’yorlariga emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo huquqi me’yorlariga murojaat qildirgan[72]. 1471 yilda ingliz parlamenti shuningdek yarmarkalar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha shaxslarning "chang bosgan oyoqlar"[73] sudini talab qilish huquqiga egaligi to‘g‘risida qaror qabul qilgan.

O‘rta asrlar Angliyasida cherkov sudlari faoliyati va shunga mos ravishda kanonik huquq me’yorlarining ahamiyati dunyoviy va cherkov hokimiyatlarining o‘z yurisdiksiyalarini kengaytirish uchun tinimsiz olib

[72] Savdo sudlarida savdo huquqining o`tkaziladigan veksel, sug`urta polisi (sug`urta qildirlganlik uchun hujjat), yuklarni garovga qo`yib ssudalar olish va boshqa muhim institutlari vujudga kelgan.

[73] **“Chang bosgan oyoqlar” sudi** deb Brakton tomonidan umumiy yurisdiksiyaga ega bo`lgan yarmaka sudlariga aytilgan. Bu sudlarda ishlarni ko`rish tartibi juda sodda tashkil etilgan bo`lib, bu ishlarni tezda ko`rib hal qilinishini ta'minlagan.

borgan kurashlariga qarab ba’zan o‘sib, ba’zan pasayib turgan. «Cherkov tinchligining biron bir tarzda buzilishida ayblangan har kimsa,- deb e’lon qiladi Vilgelm Fotix qonuni, - yepiskop tayinlagan joyga yetib kelishi va o‘sha erda yuzlik talabi bo‘yicha emas, balki kanonlarning va cherkov huquqining talablari asosida keltirilgan zararni to‘lashi lozim».

Cherkov yurisdiksiyasi faqat cherkov mulkchiligi, nikoh-oila munosabatlari, vasiyatlar bilan bog‘liq ishlargagina emas, bid'at, xudoni, dinni tahqirlash va boshqa jinoyatlarga ham tarqatilgan. U sof dunyoviy ishlarga ham kirib kela boshlagan. Masalan, shartnomalar bo‘yicha, "va'dani buzish" haqidagi da’volar bo‘yicha nizolar "ishonchni oqlamagan" gunoh sifatida cherkov yurisdiksiyasiga taalluqli edi. Genrix II cherkov sudlari yurisdiksiyasining kengayishiga qarshi qattiq kurash olib borgan. Uning hukmronligi boshlarida qirollik sudlarining da’volari shakllari ro‘yxatida endi "cherkov sudlari tomonidan mulk va qarzlar haqidagi tortishuvlarning hal qilinishini taqiqlash to‘g‘risida"gi da’volar uchraydi. Eduard I ning 1283 yilgi statutida cherkov sudlari tomonidan "va'dani buzish haqida"gi ishlarni ko‘rish taqiqlangan, bunday ishlar "axloq tuzatish" talab qilmaydigan, juda muhim "diniy ishlar"ga taalluqli emas, deb hisoblangan.

Yuqoridagilarga qaramay, XVI asrga qadar, aniqrog‘i, Genrix VIII davrida ingliz cherkovining o‘rnatilishiga qadar, hech kim e’tiqod va ibodatning sobitqadamligi, axloqning sofligi, nikohning qonuniyligi, bolalarning qonuniy tug‘ilganligi va vasiyatlarining tuzilishi masalalarida papa yurisdiksiyasining qonuniyligini inkor qilmagan. XVI asrda parlament hujjati bilan kanonik huquq Angliyada o‘z kuchini saqlab qolganligi o‘rnatilgan edi. Faqat Genrix VIII tomonidan "Letters of business" nomi bilan harakatga kiritilgan Kenterberiya va York soborlarining kanonik huquqni qaytadan ko‘rib chiqishga taalluqli qarorlari yagona qonun bo‘lgan edi. Unga ko‘ra, kanonik huquq me’yorlari, agar ular qirollik qonunlari va taxt imtiyozlariga mos kelsa hamda "ularga zid bo‘lmasa va ularni buzmasa", harakat qilishi mumkin bo‘lgan. Shu bilan birga kanonik huquq me’yorlarini, masalan, qonun va vasiyat bo‘yicha meros haqidagi me’yorlarni sharhlash "umumiy huquq" sudlariga tegishli edi.

Mulk huquqi

Feodal mulk huquqi, ayniqsa yerga egalik huquqi ko‘p jihatdan mamlakatning butun huquqiy tizimi xarakterini belgilagan.

Uning murakkabligi qator tarixiy sharoitlar bilan, jumladan, o‘rta asrlarda ma’lum miqdordagi erkin dehqonlar qatlamining saqlanib qolganligi bilan bog‘liq edi. Erkin dehqonlar o‘z chek yerlariga ega

bo‘lgan, lekin mamlakatda barcha yerlarning egasi qirol hisoblangan. Qirol davlat yerlarini turli yo‘llar bilan taqsimlab turardi.

Ingliz huquqida ko‘chuvchi (harakatdagi) va ko‘chmas (harakatsiz) mulklar bir-biridan farqlangan, lekin ashyolarni an’anaviy tarzda real mulklar (real property) va personal mulklar (personal property)ga bo‘lish mavjud edi. Ashyolarning bunday tarixan shakllangan bo‘linishi real va personal mulklarni himoya qilishga qaratilgan da’volarning turli shakllari bilan bog‘liq edi.

Feodal yer huquqi hammadan avval real da’volar (real action), ya’ni muvaffaqiyat qozonganda yo‘qolgan ashyo egasiga qaytariladigan da’volar bilan himoya qilinadigan alohida qo‘riqlashga loyiq yer huquqining maxsus turini tan oladi. Bu da’volar mutlaqiy xarakter kasb etgan va har qanday kishiga taqdim etilishi mumkin edi.

Real da’volar bilan urug‘ning ko‘chmas mulklari va qiroldan yoki boshqa lorddan olingan feodal egaliklar va erkin yer egaligi xarakteridagi yerlarga nisbatan huquqlar himoya qilingan. Ularga feodal titulga bo‘lgan huquqlar ham kirgan, boshqa barcha ashyolar personal da’volar bilan himoya qilingan. Personal da’volar yo‘li bilan yetkazilgan zararni undirish talab qilinishi mumkin edi.

Ingliz-saks qabilalarining Britaniyada egallab olgan yerlari azaldan ikkita asosiy turga: **folcland va boclan**dga ajrala boshlagan. Folklend - bu "xalq yeri", unga egalik qilish jamoaga mansublikka asoslangan va davlatga nisbatan ma’lum majburiyatlar o‘tashga olib kelgan. Bunday yerlarni tasarruf qilish erkinligi cheklangan. Folklendni boshqa shaxsga o‘tkazish uchun oilaning barcha a’zolari roziligi talab qilingan.

Yerga egalikning boshqa ko‘rinishi - **boklend** esa qirolning in'omiga asoslangan. Bunday yerlarga egalik huquqi qirollik yorliqlari (bos) bilan tasdiqlangan.

Folklend yerning egasi davlatga turli majburiyatlarni o‘tab turgan. Bu yerlarning boklend darajasiga o‘tkazilishi bilan uning egasi bunday majburiyatlardan ozod qilingan. Feodalizmning rivojlanishi boklendning rivojlanishi bilan mustahkam chatishib ketgandi. Boklend egasi uni hadya qilishi, sotishi, vasiyat qilib qoldirishi mumkin edi. Boklendning vujudga kelishi va rivojlanishi ingliz-sakslarda yirik yer egaligining shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Normandlardan keyingi ingliz huquqida cheklanmagan, shartsiz yer egaligi tushunchasi mavjud emas edi. Yer huquqlari ikkita asosiy tushunchalar: **tenancy** - egalik, ushlab turish va **estaty -** egalik huquqlari, huquqiy manfaatlar (ularning davomiyligi, begonalashtirish imkoniyati va

boshqalar) hajmi bilan belgilangan. Egalik (tenancy) o‘z navbatida erkin va noerkin bo‘lgan. Erkin egalik (freehold) - bu ritsarlik xizmatini o‘tash shartlari asosida yoki shaxsiy xizmat huquqi bo‘yicha olingan egalik, shuningdek, erkin dehqonlarning yer egaligi hisoblangan. Bunday yerga egalik qilgan dehqon lordga belgilab qo‘yilgan pul summasini to‘lardi va uning yurisdiksiyasi ostiga tushardi.

Dehqonning lord foydasiga shaxsiy va iqtisodiy majburiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan noerkin yer egaligi vaqt o‘tishi bilan feodal ijaraning merosiy huquqiga aylandi va **copyhold** degan nom oldi, chunki ijaraning bunday sharti manorlik sudlarining bayonnomalari nusxalari bilan belgilab qo‘yilgan edi. Noerkin yer egaligi dastlabki vaqtlarda qirollik sudlarida himoya qilinmasdi. XV asrda u bilan bog‘liq da’volar kansler sudida, XVI asrda esa bu sudning ta’siri ostida "umumiy huquq" sudlarida ham ko‘rila boshlandi.

Hozirgi ingliz va amerika yer huquqida mavjud bo‘lgan **estate** tushunchasi nafaqat ko‘chmas mulkka nisbatan egalik huquqlarining hajmi haqida, balki mulkni o‘tkazish uchun texnik vositalar yig‘ish haqida ham tasavvur beradi. U egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish va mulk ustidan nazorat qilish munosabatlariga kirishgan turli shaxslarning yoki hali tug‘ilmaganlarning huquqlarini qamrab oladi.

Bu tushuncha tarixan shakllanib borgan. Ingliz o‘rta asr huquqining butun rivoji feodallarning xizmat majburiyatlari munosabati bilan ko‘p sonli cheklashlar yuklatilgan yerlarni erkin tasarruf etish huquqi uchun kurashlari bilan bog‘liq edi. 1290 yilgi "Quia Emptores"[74] statuti bo‘yicha lordlarning yerlarni sotish huquqi tan olingandi. Bunda lordning barcha xizmat majburiyatlari ham yerning yangi egasiga o‘tkazilardi. Mazkur statut, shuningdek, 1279 yilda chiqarilgan va yerlarni cherkovning "o‘lik qo‘llariga" sotish va boshqacha tarzda o‘tkazilishini taqiqlagan statutning mazmunini ham tasdiqlaydi. Yerning bunday tarzda o‘tkazilishi uni feodal oborotdan to‘liq chiqarilishiga olib kelgan, chunki ilgarigi lord ham, qirol ham, lordning merosxo‘ri bo‘lmagan holda, uni qaytarilishiga umid qila olmagan.

Feodallarning yerga egalik huquqlarining yanada kengayishi Angliya feodal huquqida yerga erkin egalikning o‘ta istiqbolli shakli - **estate in free simple**ning o‘rnatilishiga olib kelgan. Bu o‘z ko‘lami bo‘yicha mulkka yaqin bo‘lgan ancha to‘liq egalik huquqini anglatadi.

Uning xususiy mulkdan farqi faqat shunda ediki, yerlar agar merosxo‘rlar bo‘lmasa, egasiz bo‘lib qolmagan, balki oldingi lordga yoki

[74] **“Quia Emptores” –** 1290 yilgi statutning dastlabki ikki so`zi, ya'ni: “Chunki sotuvchi…”

uning qarindoshiga (hatto juda uzoq qarindoshiga bo‘lsa ham) o‘tgan[75]. Ko‘chmas mulklarning yoki "qo‘riqlanadigan yerlar"ning huquqiy holati boshqacha edi. Bunday yerlar meros tariqasida faqat tug‘ishgan qarindoshlarga, qoida bo‘yicha, katta o‘g‘ilga o‘tkazilishi mumkin edi. Yerga nisbatan qo‘riqlanadigan huquqlarni yaratish imkoniyati meros huquqida cheklashlar belgilovchi 1285 yilgi statut natijasida vujudga kelgan. Bu statutda "umumiy huquq" bilan himoya qilinadigan oila mulki barcha holatlarda ko‘chmas mulk bo‘lib qolishi nazarda tutilgan edi. Bu mulkdan kreditor foydasiga qarz undirilishiga ham yo‘l qo‘yilmagan. Statutni yaratuvchilar bu bilan mulk egasining o‘z imeniyasini butun hayoti davomida merosxo‘rlar zarariga sota olmasligiga va og‘ir yuk qilib qo‘yilmasligiga harakat qilganlar. Biroq tez orada bu barcha taqiqlar chetlab o‘tila boshlanadi. Ko‘chmas mulkning egasi imeniyaga "oddiy mulk" sifatida murojaat qilish imkoniyatini qo‘lga kiritish uchun juda qimmatga tushadigan soxta jarayondan o‘tishi lozim edi.

Egalik huquqining ikkita boshqa shakllari: umrbod egalik qilish (estate for life) va ma’lum muddat egalik qilish (for years) dan iborat edi. Ko‘chmas mulkka for life huquqi faqat mulkka egalik qilib turgan shaxsning hayotligi chog‘idagi muddatga emas, balki uchinchi shaxsning, masalan, xotinining hayotligi chog‘idagi muddatga ham o‘rnatilishi mumkin edi. Yerga nisbatan bunday huquqlar "umumiy huquqqa" ma’lum eng qadimiy huquqlardan hisoblanadi. Yerning for life egasi for simple egasiga qaraganda kam huquqlarga ega bo‘lgan, lekin uning huquqlari for years egasi yoki yerni ijaraga olganlarning huquqlariga nisbatan kengroq edi. U faqat yerning ustiga emas, balki in free simple egasi (mulkdor) sifatida uning ostidagi narsalarga nisbatan ham huquqlarga ega bo‘lgan. Biroq ko‘chmas mulk ijarachisiga o‘xshab, u yerga keltirilgan zarar uchun javob berardi.

Yerlarni ijaraga olish muddati qanchalik uzoq bo‘lmasin, o‘rta asr yuristlari asrlar davomida uning real mulk (real property) ekanligi, ya’ni real da’vo yordamida huquqi tiklanishini tan olmasdilar. "Adolat huquqi" juda kam hollarda noqonuniy ushlab turilgan ijaraga olingan yerlarning qaytarilishini talab qilardi. Bunda yerlarga ijara egaligi, garchand, to‘g‘ri ma’noda real da’vo ob’yekti bo‘lmasa ham, ammo "sud orqali tortib olish haqida"gi (action of ejecment) maxsus da’vo bilan tiklanishi mumkin edi. Ijara huquqlarining nonormal xarakteri harakatdagi, real mulklar - chattels real tushunchasini shunga mos nonormal ifoda etardi.

[75] Bu qoida Angliyada 1925 yilgi Mulkchilik haqidagi qonun qabul qilingunga qadar saqlanib qolgan.

O‘rta asrlar ingliz huquqi rim huquqiga (yoki hozirgi huquqqa) ma’lum bo‘lgan ko‘rinishdagi yerni garovga qo‘yish institutini bilmaydi.

Shunga qaramay, Angliyada qarzni undirish vositalari juda erta paydo bo‘lgan. XII asrdayoq qarzdor qarzini to‘lash evaziga o‘z yerini kreditorga ishonchga asoslangan bitim asosida o‘tkazishi mumkin edi. Bunda kreditor yer egasi bo‘lib qolgan, lekin u ishonchni buzmasdan, qarzdor o‘z majburiyatlarini bajargandan so‘ng uning yerini qaytarishi lozim edi.

Agar qarzdor majburiyatlarini ko‘rsatilgan muddatda bajarmasa, kreditorning garovga qo‘yilgan yerga nisbatan egalik huquqi shak-shubhasiz bo‘lib qolgandi. Bunda kreditorning, hatto qarzni qoplashda garovga qo‘yilgan yerdan olgan daromadlari, garchand, bunday "o‘lik garov" cherkov tomonidan "gunoh" sifatida tanbeh qilinsa ham, hisobga olinmasligi mumkin edi.

XIII-XIV asrlarda garovga qo‘yuvchilarning huquqlari "umumiy huquq" sudlarida himoya qilinardi. Bu sudlar, agar qarzdor majburiyatlarini o‘z muddatida bajarmasa, yerlari qaytarib berilishini talab qila boshlaganlar.

XVI asrda kansler sudi yanada olg‘a borib, yerni garovga qo‘yib qarz olgan va uni ko‘rsatilgan muddatda qaytarib bera olmagan qarzdorlar uchun imtiyozli muddat joriy etgandi. Bunga ko‘ra, qarzdor garovga qo‘yilgan ashyoning kreditorga to‘la mulk qilib o‘tkazilishi to‘g‘risidagi sudning qarori chiqqunga qadar, qarzini to‘lashi va garovga qo‘yilgan yerini "haqqoniy sotib olishi" mumkin edi.

Ashyo huquqining sof inglizcha instituti - ishonib topshirilgan (vakolat beruvchi) mulk (trust) instituti mavjud bo‘lgan. Ingliz yuristlari, ayniqsa F.Maytlend (1850-1906 yillar), bu institut "inglizlarning yurisprudentsiya sohasidagi buyuk va juda aniq yutuqlari" deb zavq-shavq bilan gapiradilar.

Ishonib topshirilgan mulk institutining kelib chiqishi, shuningdek, feodal yer egaligi xususiyatlari bilan ham bog‘liq. Bu xususiyatlar qatoriga yerga merosxo‘rlar doirasining qisqartirilishi va yerlarning cherkovlarga, monastirlarga, diniy jamiyatlarga, ayniqsa, umuman yerga egalik huquqiga ega bo‘lmagan kambag‘allashgan jamiyatlarga sotishning cheklanishi kabilar kirardi.

Mazkur institutning mohiyati shunda ediki, bunda bir shaxs - ishonib topshiriladigan mulkning egasi (settler of trust) o‘z mulkini boshqa shaxsga - mulkini ishongan kishi (trustee)ga mulkni boshqarish hamda mulk egasi sifatida boshqa shaxsning, foyda oluvchining (beneficiary)

manfaatlari yo‘lida yoki boshqa maqsadlarni, masalan, muhtojlarga yordam berish maqsadini amalga oshirish uchun o‘tkazadi.

Yerlarni biror maqsad yo‘lida foydalanish uchun o‘tkazilishi amaliyoti XII asrdayoq vujudga kelgan va salib yurishlari davrida gurkirab rivojlangan. Bu davrda yerlar o‘g‘illar voyaga yetguniga qadar yoki ilgarigi egasi qaytib kelguniga qadar ishonch asosida qarindoshlarga yoki do‘stlarga berilgan.

Qashshoqlashgan monarxlar dunyoviy kishilarga o‘z yerlarini ularning manfaatlari yo‘lida foydalanish uchun o‘tkazib, nafaqat huquqiy va diniy taqiqlarni chetlab o‘tganlar, balki katta boyliklar ham to‘plaganlar. Faqat XV asrdan ishonib topshirilgan mulk kansler sudida himoya qilinadigan bo‘ldi, chunki endilikda ishonch, adolat buzila boshlagan edi. Shu vaqtdan boshlab ishonib topshirilgan mulk "umumiy huquq" bilan himoya qilinadigan mulk - legal ownershipdan farqli o‘laroq, equitable ownership deb ataladigan bo‘ldi.

Ishonib topshirilgan mulk instituti birinchi marta 1375 yilgi qonun bilan mustahkamlangan. XV asrdayoq ko‘p yer maydonlari - ko‘chmas mulklar ishonib topshirilgan mulkka aylanadi. Genrix VIII ingliz cherkovini isloh qilish davomida cherkov yerlarini musodara qildi, lekin bunda shu narsaga duch keldiki, garchand, cherkov va monastirlar yirik yer egalari bo‘lsalar ham, rasman o‘z yerlarining egalari bo‘lmaganlar.

Ingliz parlamenti cherkov yerlarini tortib olish maqsadida 1535 yilda "foydalanish haqida" deb nomlangan statut (statute of uses) chiqaradi. Unga ko‘ra, bir shaxs mulkka boshqa shaxsning manfaatlari nuqtai nazaridan egalik qilib turgan bo‘lsa, mulk kimning manfaatlari yo‘lida foydalanilsa, o‘sha shaxs amalda yerning haqiqiy egasi deb tan olingan. Bu statut bir qancha vaqt ishonib topshirilgan mulk institutining tarqalishini to‘xtatib qo‘ydi, lekin uni yo‘qotmadi. Sudlar "foydalanishga nisbatan foydalanish huquqi" degan murakkab konstruksiya yordamida statutni muvaffaqiyatli ravishda chetlab o‘ta boshladilar. Bu "ikkilamchi foydalanish" kansler sudi tomonidan himoya qilinadigan trust, ya’ni tom ma’noda ishonib topshirilgan mulk sifatida ma’lum bo‘lib qolgan.

Ishonib topshirilgan mulkchilik reformatsiyadan keyin cherkov yer egaligining juda cheklanishi va cherkov xayr-sahovatining deyarli yo‘qolib ketishi natijasida qaytadan keng jonlana boshlagan.

1601 yilda qirolicha Yelizaveta davrida, hatto, "xayr-ehsondan foydalanish" haqida statut qabul qilingan. Bu statut asosida parlament maxsus komissiyasining oliy vakili lavozimi joriy etiladi. Oliy vakilning majburiyatiga muhtojlarga xayr-ehson qilinishini nazorat qilish va shu

bilan bog‘liq suiiste’molliklarga chek qo‘yish kabilar kirardi. Statutning preambulasida xayr-ehson faoliyatining ancha keng tarqalgan va tan olingan turlari sanab o‘tiladi. Bular: kambag‘allarga, zaiflarga, qariyalarga, bemorlarga va yarador askar va matroslarga, maktab, kollej va universitetlarga yordam berish; yetimlarni o‘qitish va moddiy ta’minlash, axloq tuzatish muassasalariga ko‘maklashish, harbiy asirlarni sotib olish va mahkum etilganlar uchun jarimalar to‘lash va boshqalardan iborat edi. Bu maqsadlarning noaniq va munozarali belgilari sud amaliyotida batafsil tekshirilgan. Sudlar "ijtimoiy foydalar" doktrinasini ishlab chiqqanlar. Bunda jamiyatga hech qanday foyda keltirmaydigan barcha xayr-ehsonlar xususiy, ya’ni muhtojlarga yordam berishga mutlaqo qarama-qarshi ish deb topilgan edi.

Majburiyat huquqi

Angliyada ingliz-sakslar davridayoq shartnoma munosabatlari rivojlana boshlaydi. Lekin len, vassal qaramlik munosabatlari keng tarqalganligi munosabati bilan bu davrda ikki rasman teng huquqli tomonlarning bitimini anglatuvchi shartnoma tushunchasi hali vujudga kelmagandi. Ine haqiqatida sotuvchining mahsulot sifati uchun javobgarligi haqidagi da’vogar va javobgar o‘rtasidagi tortishuvda qasamyod qabul qilish haqidagi qoidalarni topish mumkin. Biroq bular ko‘proq shartnoma munosabatlariga emas, balki ma’muriy munosabatlar sohasiga taalluqli edi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, shartnoma ikki va undan ortiq tomonlarning huquq va majburiyatlarini keltirib chiqaruvchi majburiy bitim sifatida ingliz huquqida oddiy bitim - agreement tushunchasidan (masalan, do‘stona xizmat haqidagi va boshqalardan) farq qilardi. Shunday qilib, ingliz huquqi bo‘yicha har qanday shartnoma (contract) - bitim, biroq har qanday bitim (agreement) - shartnoma emas.

Angliyada bozor munosabatlarining taraqqiy etishi bilan majburiyat huquqi ham rivojlangan. Deliktlar va shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar "umumiy huquq" me’yorlarining uzoq vaqt tadrijiy rivojlanib borishi natijasi bo‘ldi.

"Umumiy huquq" sudlarida himoya qilinadigan da’volarning eng qadimgi shakllaridan biri "qarz haqida"gi da’vo (action of debt) edi. Da’voning bu shaklini XII asrdayoq Glenvill eslatib o‘tgandi. Glenvill uni deliktlar qatorida, "nohaq ushlab qolingan pul" haqidagi da’vo sifatida ko‘rib chiqadi. "Qarz haqida"gi da’voning asosi shartnoma bo‘yicha majburiyat emas, balki haqiqatda olingan foyda bo‘lgan. Shu sababli bunday da’vo juda kam hollarda qo‘llanilishi mumkin edi.

Da’voning qadimgi shakllaridan yana biri «hisob-kitob haqida»gi da’vo (action of account) hisoblanadi. Uning predmeti juda aniq shaklda ifodalanadigan shartnoma majburiyati bo‘lib, unga binoan bir tomon boshqa tomonning foydasiga ma’lum harakat sodir etishi lozim edi.

"Hisob-kitob haqida" da’vo dastlab lord bilan manor boshqaruvchisi o‘rtasidagi munosabatlarda qo‘llanilib, birovning ishonib topshirilgan pulini ushlab turgan va undan qanday foydalanganligi haqida mulk egasiga hisob berishi lozim bo‘lgan shaxsning hisob-kitobi bilan bog‘liq edi. Bunday da’vo oqibatda savdo amaliyotida, sherikchilik faoliyatida qo‘llana boshlanadi. Glenvill bu da’voni "nohaq ushlab qolingan pul" haqidagi deliktlar qatorida ko‘rib chiqib, bunda undan qarz, oldi-sotdi, ijaraga berish, yuk tashish va boshqa hollarda foydalanish mumkinligini asoslaydi. "Hisob-kitob haqidagi" da’vo oradan ko‘p o‘tmay Eduard I ning 1267 va 1285 yillardagi statutlarida ham mustahkamlangan.

Ushbu da’voning qo‘llanish doirasi go‘yo ancha keng bo‘lib ko‘rinishiga qaramay, ingliz shartnoma huquqini unchalik boyitmaydi.

Bitimning majburiy shartnoma sifatida paydo bo‘lishi XIII asrda "umumiy huquq" sudlarida boshqa da’vo - "bitim haqidagi" da’vo (action of covenant)ning tan olinishi bilan bog‘liq. Bu da’voning mazmuni qarzdorga bitim bilan o‘rnatilgan majburiyatni, agar u muhr bilan mustahkamlangan bo‘lsa, bajarish talabidan iborat edi. Bu bitim faqat "muhr" bilan tuzilish shakliga rioya qilinmaganda va bu shaklning nuqsonlari bo‘lganda da’vo himoyasi huquqiga ega edi. Lekin bunda endi hal qiluvchi jihat (moment) tomonlardan birining nohaq bo‘lishi emas, huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradigan bitimning tuzilish fakti, ma’lum harakat bo‘lib qolgan. Shunday qilib, shartnoma tuzgan shaxslar uchun uning qonun kuchiga ega ekanligini keltirib chiqaradigan shartnomaning "muqaddasligi" haqidagi shartnoma huquqining asosiy tamoyili kelajakda tan olinishi yo‘lida yana bir qadam tashlangan.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bitimlar, shartnomalar tuzilishining rasmiyatchiligini uloqtirib tashlashi muqarrar edi. Shuning uchun "umumiy huquq" sudlari norasmiy, og‘zaki tuzilgan bitimlarga (kelishuvlarga) ham himoya taqdim qila boshlaganlar. XV asrda ingliz huquqida shaxs va mulkni tajovuzlardan himoya qilish maqsadiga qaratilgan "huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi (trespass) da’vo"ning xilma-xil turlaridan biri "og‘zaki bitimlarni himoya qilish to‘g‘risidagi da’vo" edi.

Bu da’volar Eduard I davrida paydo bo‘lib, Vestministrlik statutlarida mustahkamlangan edi.

"Huquqbuzarlik to‘g‘risida"gi da’voning ham qo‘llanish doirasi unchalik keng emasdi, chunki dastavval qarzdorning aybi isbot qilinishi talab etilardi. Bunday da’volar, masalan, tuhmat natijasida keltirilgan zararni undirish uchun qo‘llanilganligi tasodifiy emas.

XV asrda bunday da’vo uchun endi aybni isbotlashni talab qilish sharti bekor qilingan va huquqbuzarliklar haqidagi da’volar (trespass on the case) da’vogarga zarar keltirilgan barcha holatlarda qo‘llaniladigan bo‘lgan. Hatto, javobgar tomonidan "lozim darajadagi g‘amxo‘rlik"ning yo‘qligi yoki oddiy ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yilganligi oqibatida kelib chiqqan mulkiy yo‘qotishlar bo‘yicha ham da’volar "huquqbuzarlik to‘g‘risidagi da’vo" sifatida sudda himoya qilinardi.

Shartnoma huquqining yanada rivojlanishi "o‘ziga qabul qilib olish to‘g‘risidagi da’vo" (action of assumpsit)ning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. "O‘ziga qabul qilib olish to‘g‘risidagi da'volar" dastlab barcha norasmiy bitimlarni emas, balki faqat tomonlardan birining shartnoma shartlarini bajarmasligi natijasida zarar yetkazilgan bo‘lsa, ana shunday norasmiy bitimlarnigina himoya qilardi. Bunda kelajakda bajarilishi lozim bo‘lgan shartnomalarga hech qanday himoya berilmasdi. Biroq zararni tomonlardan biri keltirishi mumkin bo‘lgan, masalan, shartnomani bajarishni kutib, u qandaydir harakatlar qilgan. "Umumiy huquq" sudlari mazkur holatni ham hisobga ola borib, bunday shartnomani himoya qilishga qaratilgan va'daning buzilishi faktining o‘zi uchun javobgarlikni kuchaytirish yo‘li bilan "o‘ziga qabul qilib olish to‘g‘risidagi da’vo"larning qo‘llanish doirasini kengaytirgan edilar. "O‘ziga qabul qilib olish to‘g‘risidagi da’vo"ning bunday tarzda bir shakldan boshqa shaklga o‘tishi 1589 yilda "Uokerga qarshi Stengboro" ishi yuzasidan bo‘lib o‘tgan sudda mustahkamlangandi. Bu shartnoma huquqning rivojlanishida muhim qadam edi. Ushbu sudning qarorida "Va'da o‘rniga berilgan va'da da’vo asosi bo‘lishi mumkin", - deb e’lon qilingandi. Shartnoma, shu tariqa, o‘zining delikt kelib chiqishidan "kovlab" olingan. Endilikda va'da berish orqali o‘ziga olgan majburiyatni bajarmagan shaxs jabrlanuvchi tomonga keltirilgan barcha zarar uchun javob berishi lozim edi.

Asta-sekin "umumiy huquq" sudlari har qanday norasmiy shartnomani tan olish sharti sifatida "qarshi qanoatlantirish" doktrinasini ishlab chiqqan. Bu vaqtga kelib ingliz sudlari yarim shartnoma xarakteriga ega bo‘lgan faqat bir tomonlama bitimlar (masalan, hadya) bilan bog‘liq ba’zi da’volarni qo‘llashda endi ancha katta tajribaga ega edilar. Shartnoma huquqining rivojlanishi yo‘lidagi muhim bosqich shartnomaning tuzilishi shartlari to‘g‘risidagi qoidaning paydo bo‘lishi edi. Bunga ko‘ra, har

qanday shartnoma yo "muhr bilan" yozma shaklda tuzilgan bo‘lishi yoki qarzdor tomonidan olinadigan shartnoma bilan bog‘liq ma’lum foydada yoki kreditorga keltirilgan zararda ifodalanadigan "qarshi qanoatlantirish"ni nazarda tutishi lozim edi.

Ingliz shartnoma huquqining rivojlanishiga bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq qator muhim huquqiy masalalarni hal etishda savdo sudlari tajribasiga tayangan va "umumiy huquq" sudlarini ortda qoldirgan qirollik qonunlari ham o‘z hissasini qo‘shgan.

Angliyada qarzni to‘lamaslik muammosi juda qadimdan qirollik kafilligi institutining qo‘llanilishiga olib kelgandi. Bu institut qirolning kreditorlardan o‘z yaqinlariga qarz berishini iltimos qilib yozgan ochiq xatlarida o‘z ifodasini topgan. Qarz undirishning amaliy usullarini izlab topishga qaratilgan harakatlar 1283 yilda "Savdogarlar haqida"gi maxsus statutning chiqarilishiga olib keldi. Unga ko‘ra, kreditor tovar, pul va boshqa narsalarni shahar meri ishtirokida qarzga bera olardi. Bunda qarz majburiyati shahar protokollarida qayd etilardi. Agar qarzdor qarzini to‘lamasa, mer hech qanday sud qarorisiz qarzdor mulkining qarz summasiga mos qismini kreditorga o‘tkazilishini buyurishi mumkin edi.

1285 yilda "Savdogarlar haqida" ikkinchi statut chiqariladi. Unga asosan, qarzni to‘lash muddatini o‘tkazib yuborgan qarzdor qamoqqa olinardi. Qarzdor uch oy ichida o‘z mol-mulkini sotishi va qarzini to‘lashi lozim edi. Agar u bunday qilmasa, sherifga tegishlicha sud buyrug‘i bilan mulkni "sotuvdan qutqarib qolish" va kreditorga qarzni qaytarish buyurilgan.

Oqibatda XVI asrda maxsus qonun bilan qarzini to‘lashga qurbi yetmaydigan qarzdorning mulkini uning kreditorlari o‘rtasida mutanosib ravishda taqsimlanishiga majburlovchi sanksiyalar joriy etildi. Agar u ilgari faqat savdo sudlarida savdogarlarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, XVI asrdan boshlab esa barcha qarzdorlarga nisbatan qo‘llana boshlangandi. 1571 yilgi qonun kreditorlarga, hatto qarzdorning qarzini to‘lashga qodir emas (bankrotga uchragan), deb e’lon qilinishi protsedurasi (rasmiy marosimi)ga murojaat qilmay, uning "to‘lov muddatini kechiktirish, kreditorlarga to‘siqlar yaratish va ularni aldash maqsadida qilingan mulkiy tasarruflarini bekor qilish"ga ijozat berdi.

Sudyalar bu qonunni keng miqyosda sharhlab, qator hollarda qarzdorlarning o‘z mulkidan kreditorlar zarariga hech qanday to‘siqlarsiz tasarruf etish imkoniyatini qirqib qo‘yish maqsadida, hatto "aldash niyatini" isbotlovchi dalillarni talab qilmay qo‘yadi. Shundan keyin, 1585 yilgi statut bilan yerni uning keyingi egasi, shu jumladan, kreditor zarariga

ixtiyoriy, to‘lovlarsiz o‘tkazilishi taqiqlanadi. Bu statut sudlarda juda qat’iy va aniq talqin qilinadi.

"Huquqbuzarlik to‘g‘risida"gi (trespass) da’vo feloniyada (og‘ir jinoyat sodir etishlikda) ayblash bo‘yicha da’voga muqobil da’vo sifatida ko‘chmas mulkka, harakatdagi ashyolarga yoki shaxsga qasddan kuch ishlatib, va bevosita yetkazilgan zararni undirishda qo‘llanilgan. O‘z navbatida trespass da’vo zo‘rlik ishlatmay yetkaziladigan zardan himoya qilishni ham nazarda tutadi. Bunda zarar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazilganmi yoki zarar yetkazilganligi keyinchalik ma’lum bo‘lib qolganmi yoxud u o‘sha vaqtning o‘zida ma’lum bo‘lganmi, qat’i nazar, barcha holda ham trespass on the case uchun asos bo‘lardi.

Bundan tashqari, mulkka egalik qilishga ozgina bo‘lsada xalaqit qilish, bunda mulk egasi real zarar ko‘radimi yoki yo‘qmi qat’i nazar, "egalikni buzish haqida"gi trespass da’vosining qo‘llanishiga asos bo‘lgan.

Nikoh va oila huquqi

Angliyada feodal nikoh-oila huquqi ma’lum darajada feodal yer egaligini qo‘riqlash va himoya qilish manfaatlari bilan belgilangan. U kanonik huquqning kuchli ta’siri ostida bo‘lgan. Kanonik huquqning qator juda muhim me’yorlari, masalan, nikohning cherkov shakli, ikki xotinlikning taqiqlanishi singarilar bevosita qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgandi. Jumladan, 1606 yilgi statut ikki xotinlikni feloniya (og‘ir jinoyat) safiga qo‘shgan edi.

O‘rta asrlarda ingliz oilasi patriarxal xarakterga ega edi. Erga tekkan ayolning - xotinning huquqiy holati juda cheklangandi. Uning harakatdagi mulklari erining to‘liq ixtiyoriga o‘tgan, ko‘chmas mulklariga nisbatan esa erning boshqaruvi o‘rnatilgan edi. Erga tekkan ayol mustaqil ravishda shartnoma tuza olmas, sudda o‘z huquqlarini himoya qilib chiqa olmas edi.

Shuni aytish joizki, tegishlicha odat huquqi me’yorlari harakatda bo‘lgan dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarning oilalarida erga tekkan ayollar nisbatan kattaroq huquqiy layoqatga, xususan, o‘z mulklarini boshqarish, shartnomalar tuzish, savdo bilan shug‘ullanish huquqlariga ega bo‘lganlar.

Ingliz-sakslarning odat huquqi ajralishni tan olgan. Ajralish yoki erining o‘limi natijasida oiladan ketayotgan ayol oila mulkidan (harakatdagi mulkdan, chorvadan, puldan) o‘z hissasini olardi. Kanonik huquq, ma’lumki, ajralishga yo‘l qo‘ymasdi. U faqat ma’lum hollarda er-xotinning alohida yashashiga, "stoli va to‘shagining ajratilishiga" ruxsat berardi.

Kamdan-kam hollarda ajralishga rim papasi tomonidan, oqibatda parlament tomonidan ruxsat etilishi mumkin edi. Ma’lumki, Genrix VIII

ga ajralishni papa tomonidan rad qilinishi oqibatda ingliz taxtining rim kuriyasi bilan aloqasi to‘liq uzilishiga va ingliz cherkovi ustidan uning ustunligi o‘rnatilishiga bevosita sabab bo‘lgandi.

Nikohsiz tug‘ilgan bolalar faqat katolik cherkov tomonidan emas, balki baronlar tomonidan ham tan olinmagan. Cherkovning nikohsiz tug‘ilgan bolalarni kelajakda ularning ota-onalarini nikohdan o‘tkazishni nazarda tutib qonuniylashtirishga qilgan urinishlari baronlarning qattiq qarshiligiga duch kelgan. Bu, albatta, feodal yer egaliklarining qattiq qo‘-riqlanishi bilan bog‘liq edi. Negaki, nikohsiz tug‘ilgan bolalar qonun-lashtiriladigan bo‘lsa, bu merosxo‘rlar doirasining kengayishiga olib kelar-di. 1235 yilgi Merton statuti nikohsiz tug‘ilgan bolalarning qonuniylash-tirilishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlagan.

Meros huquq

O‘rta asrlarda Angliyada meros qoldirishning qan-daydir yagona tizimi mavjud emas edi. Real mulkning me-ros bo‘yicha o‘tishini maxsus, sekin almashinadigan tartibi shaxsiy mulkning meros bo‘lib o‘tishidan farq qilgan. "Umumiy huquq" vasiyat bo‘yicha merosni nazarda tutmaydi. Vasiyat amalda ishonib topshirilgan mulk instituti bilan birga joriy etilgandi. Vaqt o‘tishi bilan ishonib topshirilgan mulk voyaga yetmaganlar tomonidan qonun bo‘yicha ham, vasiyat bo‘yicha ham meros qilib olinishi tartibini belgilaydigan bo‘ldi, chunki har ikki holda ham ularning mulkini boshqarish uchun mulk ishonib topshiriladigan shaxsni tayinlash talab etilardi.

1540 yilda birinchi marta ko‘chmas mulkni vasiyat asosida hech qan-day to‘sqinliksiz, agar u "man etilgan" bo‘lmasa, tasarruf qilishga rux-sat be-rilgan. Lekin bunda vasiyat bo‘yicha meros olganlarga meros olma-gan bola-larni moddiy ta’minlash majburiyati yuklangan. Zero, bunday majbu-riyatlarni amalga oshirish uchun "umumiy sudlar" tegishlicha qurol-vositaga ega bo‘lmaganligi sababli bu nizolarni ko‘rish kansler sudiga o‘tgan.

Vasiyat qoldirmagan shaxsning harakatdagi mulklariga dastlabki da’vo qilish huquqi beva qolgan xotinga (agar eri o‘lsa) yoki erga (agar xotini o‘lsa) tegishli edi. Bu institut ingliz huquqida curtesy - "iltifot" degan nom olgan.

Jinoyat huquqi

Angliyada o‘rta asrlar jinoyat huquqi me’yorlari ma’lum darajada sud amaliyoti bilan yaratilgan. Jinoiy statut huquqi jinoyat huquqining boshqa manbalari orasi-da "umumiy huquq"ning tegishli me’yorlarini to‘liq yoki biroz o‘zgar-tirilgan ko‘rinishda aks ettirishdan boshqa narsa emas edi. Bunda qiyin-chiliklar shundan ham kelib chiqardiki, jinoyat va fuqarolik huquq buzar-ligi bir-biridan ko‘proq huquqqa xilof xatti-harakatlari tabiati bo‘yicha

ajratilardi. Aynan bitta xatti-harakat ham fuqarolik, ham jinoiy huquq-buzarlik bo‘lishi mumkin edi, chunki huquq yuqorida ko‘rsatil-ganidek, da’voning har ikkala shakliga va unga mos ravishda fuqarolik (ma’lum huquqlarning tasdiqlanishi yoki tiklanishiga qaratilgan) yoki jinoiy (huquqbuzarlik xatti-harakatini sodir etganlik uchun huquqbuzarni jazolashdan iborat o‘z ob’yektiga ega bo‘lgan) jarayoniga yo‘l qo‘ygan.

Ingliz jinoyat huquqi "umumiy qism"ga taalluqli me'yorlar majmuiga ega bo‘lmagan. XII asrga qadar huquqda ob’yektiv javobgarlik haqidagi tasavvur hukmronlik qilardi. Uzoq vaqtgacha ingliz jinoyat tushunchasi asosan jinoiy xatti-harakatlar (odam o‘ldirish, bosqinchilik, bolalarni o‘g‘irlash, ayollarni zo‘rlash, tunda devor, eshik va boshqalarni buzib o‘g‘irlik qilish)ga taalluqli bo‘lgan, biroq jinoiy harakatsizlikka daxldor bo‘lmagan. Yuqorida zikr etilgan barcha jinoiy xatti-harakatlar yomon niyat (maluce)ni ko‘zlagan.

XII asrning boshidan rim va kanonik huquqi ta’siri ostida javobgarlik asosi sifatida aybning mavjudligi haqidagi qarashlar tasdiqlana boshlagan. Birinchi marta marhum Avgustin ta’limotidan o‘zlashtirib olingan «harakat aybdor qiladi, agar iroda aybdor bo‘lmasa» degan tamoyil 1118 yilda Genrix I ning qonunida o‘z aksini topgan. XIII asrda aybning shakllarini tushunishda ingliz huquqshunoslarining ta’limotlari, asarlari juda katta ta’sir o‘tkazgan. Masalan, Brakton qasddan va ehtiyotsizlikdan odam o‘ldirish tushunchalarini talqin qilib, "agar odam o‘ldirgan kishi taqiqlangan ish bilan shug‘ullanib, odam o‘ldirish sodir etsa", hatto uning aybi bo‘lmasa ham "javobgarlik kelib chiqadi", deb ko‘rsatadi. U bunda qilmishga o‘zi javob bera olishlik to‘g‘risidagi diniy-axloqiy ta’limotning: "Noqonuniy ish bilan shug‘ullangan kishi zimmasiga jinoyatdan kelib chiqqan barcha javobgarlik yuklatiladi" degan qarashiga asoslangan. XIII asrda, hatto, tasodifan birovni o‘ldirib qo‘ygan odam ham qirolning afv etishiga muhtoj edi. Odam o‘ldirish quroli hamma holatlarda musodara qilingan. U sotilgan va bundan tushgan pullar marhumning tinch yotgan jonini "saqlash uchun" xayrli maqsadlarga sarf qilingan.

Oddiy tasodif va jinoiy ehtiyotsizlik o‘rtasidagi farq haqidagi ta’limotlarning rivojlanishiga Kokning "ajoyib, hayratda qoldiradigan ta’limoti" muhim hissa qo‘shgan. "Agar kimdir, - deydi Kok - yovvoyi qushni otsa... va uni otgan kishining hech qanday yomon niyatisiz u o‘q narida turgan biror kishiga tegsa - bu tasodif, negaki yovvoyi qushni otish qonuniydir..., biroq u boshqa birovga tegishli xo‘rozni... yoki qandaydir qo‘lga o‘rgatilgan qushni otsa, bunday holda sodir etilgan tasodifiy odam

o‘ldirish - chindan ham og‘ir (murder), negaki harakat noqonuniy bo‘lgan"[76].

XIV asrning boshidan Angliya huquqida "aqli zaif yoki aqli noraso kishi jinoyat uchun javob bermaydi" degan tamoyil qattiq o‘rnatilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarda o‘zini o‘zi mudofaa qilish hollarida javobgarlik kelib chiqmagan. Sud amaliyotida ishlab chiqilgan ishtirokchilik haqidagi ta’limot - "kimda-kim birov orqali jinoyat sodir etsa, buni uning o‘zi qilgan hisoblanadi" degan tamoyildan kelib chiqqan. Ishtirokchilar aybining og‘irlik darajasi ko‘pincha, ishtirokchi jinoyat sodir etilishidan oldin harakat qilganmi yoki undan keyinmi, shunga qarab belgilangan. Agar ishtirokchi jinoyat sodir etilishidan oldin, masalan, dalolat qilish shaklida unda ishtirok etsa, u jinoyatning "bosh ijrochisi"ga teng darajada javobgarlikka tortilgan. Agar ishtirokchi jinoyat sodir etilgandan keyin unda ishtirok etsa, masalan, o‘g‘irlangan buyumlarni bila turib uyida yashirsa, jinoyatning boshqa ishtirokchilarini javobgarlikdan qochishiga yordamlashsa va shu kabi harakatlar sodir etgan bo‘lsa, unga yengilroq jazo berilgan. Ishtirokchilik tushunchasi bilan birga "jinoyatning turli darajasi haqida"gi ta’limot ham yaratilgan. Bunga ko‘ra, ishtirokchilarning quyidagi toifalari: 1) jinoyat sodir etgan "jinoyatning birinchi darajali asosiy ishtirokchisi"; 2) jinoyatni sodir etishda bevosita qatnashmagan, lekin jinoyat sodir etilgan joyda hozir bo‘lgan "jinoyatning ikkinchi darajali asosiy ishtirokchisi" va 3) jinoyat sodir etilishidan oldin jinoyatchiga maslahatlar berish yo‘li bilan yordamlashgan va jinoyatning sodir etilishiga to‘sqinlik qilmagan "qo‘shimcha ishtirokchisi" ayb darajasiga qarab bir-biridan farq qilingan.

O‘rta asrlar jinoyat huquqida barcha jinoyatlarni an’anaviy tarzda quyidagicha uch guruhga: xiyonat (treason), feloniya (felony) va misdiminor (misdimeanour)ga bo‘lish vujudga kelgan. Jinoyatlarning boshqacha guruhlashtirilishi ham mavjud bo‘lib, u sof jarayonga oid xarakterga ega edi. Bu - ayblov hujjati bilan ta’qib qilinadigan (pleas of the Crown yoki indictable offences) va qasamxo‘rlar sudida ko‘riladigan jinoyatlar hamda umumiy tartibda ko‘riladigan (summari conviction) kam ahamiyatli huquqbuzarliklar (petty offences)ga qarab guruhlashtirilgan.

Dastlab XIII asrda **feloniya** tushunchasi paydo bo‘lgan. Angliya jinoyat huquqida o‘lim jazosi bilan bir qatorda mulkni musodara qilish nazarda tutilgan barcha jinoyatlar feloniya deb atalgan[77]. Aynan felony

[76] **Qarang:** История государства и права зарубежных стран.Часть 1. Учебник для вузов/ Под ред. проф. Крашенинниковой Н.А. и проф. Жидкова О.А.-М.:Издательство НОРМА, 1998. – 153-bet.

[77] **Feloniya** turiga oid jinoyat sodir etganlik uchun mol-mulkning musodara qilinishi faqat XIX asrga kelib bekor qilingan.

degan iboraning lug‘aviy ma’nosi ham shundan darak beradi, ya’ni bu ibora fee - feodal egalik va lon - baho degan so‘zlarning birikmasidan kelib chiqqan.

Feloniyalar qatoriga og‘ir holatlarda odam o‘ldirish (murder), oddiy odam o‘ldirish (manslaughter), feloniya sodir etish maqsadida birovning uyiga kechasi zo‘rlik bilan bostirib kirish (burglary), mol-mulkni o‘g‘irlash (larceny) va boshqa shu kabi og‘ir jinoyatlar ham kirgan. Eng og‘ir jinoyat xiyonat (treason) hisoblangan. U XIV asrda boshqa jinoyatlardan alohida ajratilgan. Bu jinoyatning nomi fransuzcha trahir va lotincha tradere degan so‘zlardan kelib chiqqan va xiyonatkorona sotqinlik xatti-harakatini anglatgan. Xiyonat "umumiy huquq" bo‘yicha yoki fuqarolar tomonidan qirolga sodiqlik burchini buzish (buyuk xiyonat - high treason) orqali yoki tobe kishining o‘z xo‘jayiniga sodiqlik burchini buzish (kichik xiyonat - petty treason) yo‘li bilan sodir etilishi mumkin edi. Bu holda faqat yuqori turgan shaxsning o‘ldirilishi, masalan, vassal tomonidan o‘z senorining o‘ldirilishi, xotin tomonidan erning yoki ruhoniy tomonidan - o‘z yepiskopining o‘ldirilishi xiyonat deb tan olingandi.

"Buyuk xiyonat"da ayblash kuchli qirol hokimiyatining qo‘lidagi o‘z dushmanlari, baronlar va bo‘ysunmagan ruhoniylar bilan kurashda keng foydalaniladigan qudratli qurol bo‘lgan. Xususan, ruhoniylarga qarshi kurashda bunday ayblov, ayniqsa, amaliy natija bergan, zero, bunday holda cherkov vakillari "diniy unvonga ega bo‘lish imtiyozlaridan", ya’ni ular ustidan qo‘zg‘atilgan ishlarni cherkov sudlarida ko‘rilishi huquqidan mahrum bo‘lganlar. Shu tariqa ruhoniylar ham cherkov sudlarining o‘lim jazosi qo‘llashni istisno qiluvchi qoidasidan ("cherkov qon to‘kishi mumkin emas") o‘z hayotlarini saqlab qolishda foydalana olmaydigan bo‘lganlar.

Qirol "buyuk xiyonat"da ayblashdan moddiy jihatdan ham manfaatdor edi. Chunki "buyuk xiyonat" uchun mahkum etilgan feodal o‘zining yer egaligidan mahrum bo‘lardi va bu yer u qatl etilganidan so‘ng merosxo‘rlarga emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qirolga o‘tardi.

Shu munosabat bilan xiyonat tushunchasi qirollik sudlarida barcha choralar bilan kengayib borgan. Bundan o‘sha vaqtdagi ingliz parlamenti ham chetda qolmadi. Parlament o‘zgarib turuvchi siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, "qirolga sodiqlik burchini buzish" bilan umuman aloqasi yo‘q bo‘lgan xatti-harakatlarni ham "buyuk xiyonat" qatoriga qo‘yuvchi statutlar chiqara boshladi. Masalan, parlament dastlab Genrix VIII ning ko‘pdan-ko‘p nikohlaridan birini noqonuniy nikoh sifatida qoralagan bo‘lsa, keyinchalik uni qonuniy deb tan olgan edi.

Yuqoridagi suiiste’molliklar feodallarning noroziligini keltirib chiqargan. Ular bir necha marta ushbu suiiste’molliklarga chek qo‘yishga harakat qilganlar. Lekin faqat 1351 yilga kelib Eduard III tomonidan xiyonatni ma’lum chegarada sharhlashni nazarda tutuvchi statut qabul qilingan. E.Kokning ta'kidlashicha, "1351 yilgi statut umumiy huquq qoidasini o‘zgartirmadi, balki faqat unga qonun ifodasini berdi".

"Buyuk xiyonat" tushunchasiga qirolni, uning xotinini yoki ularning katta o‘g‘lini va merosxo‘rini o‘ldirishga qasd qilish; qirolning xotinini, uning erga tegmagan katta qizining yoki katta o‘g‘li va merosxo‘ri xotinining nomusiga tegish (bunda xotinning roziligi bo‘lganda ham baribir bu xatti-harakat "buyuk xiyonat" sifatida ko‘rilgan[78]); qirolga qarshi urush olib borish; qirolning dushmani tomoniga o‘tish; kanslerni, bosh xazinabonni yoki qirollik sudyasini o‘ldirish kiritilgan.

Bu ro‘yxat «umumiy huquq»qa ma’lum bo‘lgan davlat xavfsizligiga qarshi boshqa jinoyatlar: isyonga chaqirish (sedition), tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadlarida noqonuniy olomon to‘plash (riot), shuningdek, ikki yoki undan ortiq shaxslarning qonunga xilof niyatlarda til biriktirish (conspirasy) jinoyatlari bilan to‘ldirilgan. "Til biriktirish" tushunchasi aniq ishlab chiqilmagan edi. Bu holat undan mavjud rejimga qarshi har qanday shakldagi noroziliklarga nisbatan keng foydalanish imkonini bergan. Masalan, xususiy deliktlar (tort)ga yoki hatto "jamiyat uchun zararli" deb hisoblangan fuqarolik huquqbuzarligiga – shartnomalarni buzishga nisbatan ham "til biriktirish" sifatida qaralishi mumkin edi.

Misdiminor ilgari fuqarolik tartibida yetkazilgan zararning undirilishiga olib keluvchi huquqbuzarliklardan asta-sekin rivojlanadi. Vaqt o‘tishi bilan bu guruhga firibgarlik, qalbaki hujjatlar tayyorlash, soxta narsalar yasash kabi jiddiy jinoyatlarning kiritilishi bilan feloniya va misdiminor o‘rtasidagi qat’iy chegaralar yo‘qolib bordi. Bunga jinoyat sodir etilganda u yoki bu shakldagi da’voni tanlash imkoniyati ham ko‘maklashgan. Feloniya haqidagi da’vo qanoatlantirilgan holda, masalan, badanga shikast yetkazganda jinoyatchi hayoti bilan javob bergan, agar jabrlanuvchi huquqlari buzilgani haqida da’vo qilsa, unda bu jinoyat misdiminorga taalluqli bo‘lgan va jinoyatchiga turma yoki jarima jazosi nazarda tutilgan.

Mulkiy jinoyatlar orasida, avvalo, birovning uyiga o‘t qo‘yish va zo‘rlik bilan bostirib kirish ancha og‘ir jinoyatlar sifatida tan olingan. Bu feloniyalarning ajratilishi inglizlarning uyga zarar yetkazilishidan

[78] Masalan, Genrix VIII ning ikkinchi xotini Anna Boleyn xuddi shunday asosda qatl etilgan edi.

qo‘riqlanadigan qal'a (mening uyim - mening qal'am) sifatida muqaddas deb qarashlari bilan bog‘liq edi. Shu munosabat bilan, hatto, juda eskirgan, omonat uyga o‘t qo‘ygan jinoyatchining o‘zi ham yoqib yuborilardi.

O‘g‘rilik (larensy) jinoyatini Brakton o‘ziga xos tarzda tushuntirib beradi. U bu tushunchani oddiy o‘g‘rilik sifatida emas, balki ancha kengroq ma’noda ta’riflaydi. Brakton o‘g‘rilikni "mulkdorning irodasiga qarshi birovning mulkiga yovuz niyat bilan, bu mulkni o‘ziniki qilib olish niyati bilan murojaat qilishi» deb tushuntiradi. Eduard I davrida har qanday o‘g‘rilik feloniya sifatida o‘lim jazosi bilan ta’qib etilgan. Biroq Eduard III davrida (XIV asrda), hatto mayda o‘g‘rilikni feloniyaga kiritilishi qat’iy noroziliklar keltirib chiqara boshlaydi. Shuning uchun "kichik o‘g‘rilik" (o‘g‘rilangan mulkning qiymati 12 pensdan kam bo‘lgan o‘g‘rilik) feloniyaga emas, misdiminorga taalluqli qilingan.

Mutlaq monarxiya davrida Angliyada och-yalang‘ochlar, daydilar va tilanchilarga qarshi bir qancha qonunlar qabul qilinadi. Ulardan birinchisi 1495 yildagi "Daydi va tilanchilarga qarshi" qonun edi. Shu qonunning birinchi moddasi sherif va merlarga mana shunday kishilarni izlab topib, birinchi marta oyog‘iga kunda urib uch sutkaga, ikkinchi marta olti sutkaga qamash ko‘rsatilgan.

Genrix VIII va Yelizaveta I davrida ko‘plab mana shunday qonunlar chiqarildiki, ular tilanchilar va daydilarga nisbatan og‘ir jazolar belgilaganliklari bilan tavsiflanadi. 1530 yildagi qonunga ko‘ra, shunday kishilar birinchi marta qonga botirib urilgan, ikkinchi marta qulog‘i qirqilgan, uchinchi marotada esa qatl etilgan. Bunday qonunchilik Angliya tarixida **"Qonli qonunchilik"** nomini oldi.

Jazolarning maqsadlari ingliz feodal huquqi rivojlanishining alohida bosqichlarida o‘zgarib turgan. Dastlab jazoning asosiy maqsadi jabrlanuvchi va uning qarindoshlarini yetkazilgan zararni undirish bilan qanoatlantirish bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish uchun qo‘rqitish bo‘lib qolgan. Keyingi maqsadda juda og‘ir jazo turlaridan, masalan, tirik tandan ichak-chavoqlarni sug‘urib olish, o‘lguncha darra bilan savalash va boshqa shu kabilardan keng foydalanilgan. XVII asrda Angliyada 50 ga yaqin jinoyatlar uchun o‘lim jazosi belgilangan edi. O‘lim jazosi turli shakllarda amalga oshirilgan. Ularning ichida o‘tda kuydirish, osib o‘ldirish, to‘rt bo‘lakka bo‘lib tashlash, charxpalakka tortib o‘ldirish jazolari keng qo‘llangan. Qirollik tinchligini buzganlik uchun, cherkovda odam o‘ldirganlik uchun, o‘z xo‘jayinini o‘ldirganlik uchun va turli o‘g‘riliklar sodir etganlik uchun o‘lim jazosi nazarda tutilgan. Tan jazolari juda xilma-xil jinoyatlar uchun qo‘llanilgan.

Bunday jazolarga qo‘llarini, quloqlarini, burnini va boshqa tana a’zolarini kesish kabilar kirgan. Jazolardan yana bir turi tamg‘a bosish jazosi bo‘lib, u asosan jinoyatchini sharmanda qilish maqsadini ko‘zlagan. Lekin, o‘rta asrlar ingliz jinoyat huquqida eng ko‘p tarqalgan jazo jarima bo‘lgan. Bulardan tashqari hukmron tabaqa uchun ro‘zaga amal qilish jazosi ham qo‘llangan. (Ro‘za xristianlarda: go‘shtli, sutli, tuxumli taomlarni yeyish man qilingan kunlar).

Sud jarayoni

Ingliz-sakslar davlatining dastlabki davrida sud tekshiruvi jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlari tashabbusi bilan boshlangan. Davlat va uning organlari kuchayishi bilan ta’qib qilish funksiyasi ularga o‘tgan.

XII-XIII asrlarda sud jarayoni ayblov xarakteriga ega bo‘lgan, ya’ni ishlarning yuritilishi haqida tomonlarning o‘zlari jon kuydirganlar. XIII asrda hali "xudo sudi" - ordaliyalar mavjud edi. Amaliy dalillardan biri qasam hisoblangan, uni buzish jinoiy jazo keltirib chiqargan. Bundan buyon tortishuv-ayblov sud jarayoni "umumiy huquq" sudlarida fuqarolik ishlari bo‘yicha ham, jinoiy ishlar bo‘yicha ham hukmron bo‘lib qolgan. Ishning bevosita sudyalar tomonidan tergov qilinishi kansler sudlarida va cherkov sudlarida amalga oshirilgan. Biroq ma’lum holatlarda "umumiy huquq" sudlarida ham qiynoqlar qo‘llanilgan. Agar ayblanuvchi o‘zini aybdor deb tan olsa, u darhol jazoga tortilgan. Agar "indamay tursa", u "g‘azabdan" indamayaptimi yoki uni "xudo urganmi"- shular aniqlangan.

"Umumiy huquq" xiyonat va misdiminorlar haqidagi ishlar bo‘yicha sukut saqlash - aybga iqror bo‘lish degan prezumpsiyadan[79] kelib chiqqan. Feloniyada ayblashga indamay turgan shaxs qiynoqqa solingan. Uni temir plitaga yotqizganlar va ochlikda qiynaganlar. Ko‘pchilik qiynoq ostida o‘lib ketishni afzal ko‘rgan, negaki ular mahkum etilmasdan o‘lish orqali o‘z mol-mulklarining musodara qilinishidan saqlab qolganlar. Aslini olganda, dastlabki tergov bo‘lmagan. Oilaviy ishlarni ko‘ruvchi cherkov sudlari (1857 yilga qadar) tekshiruvchilar xizmatidan foydalanganlar. Bunday tekshiruvchilar dalillarni tekshirganlar va faktlarni aniqlaganlar. Ularning xulosalari ish bo‘yicha sud qarorining asosi bo‘lardi. "Umumiy huquq" sudlarida dalillar tomonlarning o‘zlari tarafidan yig‘ilgan. XV asrning oxirida ayblov materiallarining ishonchliligini tekshirish maqsadida ayblovchi qasamxo‘rlar deb nomlanadigan maxsus jyurilar chaqirila boshlangan. Agar ular ayblash uchun dalillar yetarli deb hisoblasalar, unda ayblov haqidagi hujjatni tuzib, himoya vajlarini eshitmay, ishni "kichik

[79] **Prezumpsiya –** ehtimollikka yoki taxminga asoslangan faraz; yuridik faktning aksi tasdiqlanmaguncha, shu faktni yuridik to`g`ri deb topish.

jyuri" sudiga o‘tkazardi. Bunday tekshiruvni murosaga keltiruvchi sudya ham o‘tkazishi mumkin edi. Qizig‘i, yolg‘on ko‘rsatma berish har doim ham ingliz sudlarida jinoyat deb hisoblanavermagan. Hatto cherkov sudlari, ishonchni buzish haqidagi ishlar ularning vakolatiga kiradi deb hisoblasalar ham yolg‘on guvohlik berishni o‘zlarining e’tiborlaridan chetda qoldirganlar. 1540 yilgi qonun guvohlarni sotib olishga qarshi jarima joriy etgan. 1562 yildan esa yolg‘on guvohlik berish fuqarolik tartibida jarima bilan jazolanadigan bo‘ldi. "Yulduz palatasi" yolg‘on guvohlik berishni "sudda yolg‘on ko‘rsatmalar berish" shaklidagi jinoyat sifatida tan olgan.

Tomonlar o‘z dalillarini to‘liq taqdim etganlaridan keyin sudya ish holatlarini umumlashtirishi va ish bo‘yicha huquqiy masalalarni ko‘rsatib qasamxo‘rlarga maslahat berishi, qasamxo‘rlar sudi bir ovozdan aybdorning aybdorligi yoki aybdor emasligi haqida verdikt chiqarishlari lozim edi. Sud jarayoni, "Yulduz palatasi"dagi jarayonni istisno qilganda, ochiq xarakterga ega edi. Angliyada sud jarayonining ayblov xarakteriga ega bo‘lganligi munosabati bilan bu yerda maxsus mansabdor shaxslar tomonidan taqdim qilinadigan davlat ayblovi instituti rivojlanmagan.

XIII asrdan professional huquq himoyachilari paydo bo‘lgan. Ular ikki toifaga: baristerlar va solisitorlarga, yoki attoreylarga bo‘lingan. Baristerlar sudda so‘zga chiqqanlar: ya’ni agar ishni shaxsan o‘zlari yuritayotgan bo‘lsalar, xuddi mijozlari singari jarayonda ishtirok etganlar. Solisitorlar - ish bo‘yicha iltimoschilar (advokatlar singari) asosan ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash bilan shug‘ullanganlar. Dastlab baristerlar faqat sudyaning ruxsati bilan sudda so‘zga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. XV asrning oxiridan "umumiy huquq" sudlari o‘z reestrlariga tomonlarning vakillari deb tan olgan shaxslarning ismi-shariflarini yozib qo‘ya boshlaganlar. Shu tariqa, ularga sudda ishtirok etuvchi o‘ziga xos mansabdor shaxs maqomi berilgan edi.

VI BOB. VIZANTIYA DAVLATI VA HUQUQI (V - XV asrlar)

- ***Vizantiya davlatining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari.***
- ***Sharqiy Rim imperiyasining ijtimoiy tuzumi.***
- ***Vizantiyaning davlat tuzumi.***
- ***Vizantiyada huquqning asosiy belgilari.***

1. Vizantiya davlatining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari

Vizantiya davlati IV asrning oxirida Rim imperiyasidan uning sharqiy qismining ajralib chiqishi natijasida tashkil topdi va ming yildan ortiq, ya'ni 1453 yilda uning poytaxti - Konstantinopol turklar tomonidan bosib olungunga qadar yashadi.

G'arbiy Rim imperiyasi German qabilalari tomonidan istilo qilingandan keyin ham Rim imperiyasining Sharqiy qismi yana uzoq vaqt hukm surdi. U, hatto, o'zini rasmiy suratda Rim (Romeya) imperiyasi deb atayverdi. «Rim imperiyasi» degan nom bora-bora yo'qolib, «Vizantiya imperiyasi» degan nom bilan yuritila boshladi (imperiyaning poytaxti qadimgi vaqtda Vizantiya deb atalgan bo'lib, 330 yilda Konstantin Buyuk unga Konstantinopol deb nom bergan edi). Ba'zi olimlar xuddi shu yilni Vizantiya imperiyasiga asos solingan yil deb hisoblaydilar. Lekin tarixchilarning ko'pchiligi Vizantiya imperiyasi 395 yilda, ya'ni Feodosiy I o'lgach, imperiya uning o'g'illari o'rtasida taqsimlanib, sharqiy yarmi Konstantinopol shahri bilan birga Arkadiyga o'tgan vaqtda tuzilgan deb hisoblaydi. Bolqon yarim orolidan va Egey dengizidagi ko'pdan-ko'p orollardan tashqari, Vizantiya imperiyasiga yana Kichik Osiyo, Suriya bilan Falastin, Misr, Mesopatamiya bilan Kavkazortining bir qismi, Qrimning janubiy qirg'oqlari kirar edi. Vizantiya davlatining rivojlanishini quyidagi **uch bosqichga** bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich (IV asr oxiri - VII asrning o'rtasi) quldorchilik tuzumining yemirilishi va uning o'rnida ilk feodal munosabatlarga asoslangan Vizantiya jamiyatining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda davlat markazlashgan monarxiya shaklida bo'lib, unda harbiy-byurokratik apparat taraqqiy etgan edi, lekin imperator hokimiyati biroz cheklanardi.

Ikkinchi bosqich (VII asr oxiri - XII asr oxiri) feodal tartiblarning shakllanishi davri bo'lgan. Bu davrda davlat o'ziga xos cheklanmagan monarxiya shaklida bo'lib, imperator hokimiyati o'zining eng yuqori darajasiga erishdi.

Uchinchi bosqich XIII-XV asrlarga to‘g‘ri kelib, bu davrda jamiyatning feodallashish jarayonining kuchayishi natijasida Vizantiyada siyosiy inqiroz chuqurlashdi, turklarning harbiy agressiyasi kuchaydi. Bu bosqich Vizantiya davlatining birdaniga zaiflashuvi va XIII-XIV asrlarda amalda tushkunlikka yuz tutishi va oqibatda XV asrda qulashi bilan tavsiflanadi.

Vizantiya Janubiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek, Kavkaz orti xalqlarining siyosiy rivojlanishiga muhim ta’sir o‘tkazgan. U uzoq vaqt antik davlatchilik va huquqiy merosining saqlovchisi va davom ettiruvchisi bo‘lib turgan. O‘rta asrlardagi Bolgariya, Serbiya, Kiyev Rusi va Gruziya davlatlari tomonidan Vizantiya davlatining keng madaniy merosining qabul qilinishi ularning progressiv rivojlanishiga ko‘mak bergan.

2. Sharqiy Rim imperiyasining ijtimoiy tuzumi

Vizantiya o‘rta asrlar jamiyati rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari uning daslabki bosqichidayoq ko‘zga yaqqol tashlanadi. Quldorchilik tartiblarining yemirilish jarayoni Vizantiyada juda sekinlik bilan yuz bergan. Tovar-pul munosabatlarining nisbatan yuqori darajada rivojlanganligi, ko‘pdan-ko‘p Vizantiya shaharlari (Antioxiya, Aleksandriya, Damashq, Konstantinopol va boshqalar)ning kuchli iqtisodiy va siyosiy mavqelarining uzoq vaqt saqlanib qolganligi Vizantiyaning siyosiy yaxlitligiga ta’sir etib, quldorchilik tuzumining yemirilishiga ancha vaqt to‘sqinlik qilib turgan.

IV-VII asrlarda Vizantiyaning hukmron tabaqasini jamiyatda turlicha iqtisodiy va ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan eski senatorlar, aristokrat va provinsial boylar, zadagonlar tashkil qilar edi. Ularning hukmronlik asosini yerga nisbatan yirik xususiy egalik tashkil qilar edi.

Ular bilan bir qatorda imperiyaning yirik shaharlari, ayniqsa, poytaxt Konstantinopolning munitsipial yuqori tabaqasi Vizantiya jamiyati ijtimoiy tuzumida ancha yuqori o‘ringa ega edi.

Ijtimoiy tuzumining eng quyi qismini qullar tashkil qilar edi. Ularning huquqiy holati, kechki rim huquqi normalari bilan belgilanib, boshqa ozod aholining huquqiy holatidan keskin farq qilar edi. Vizantiya aholisini asosan erkin dehqonlar tashkil qilar edi.

IV-VI asrlarda erkin dehqonlarning saqlanib qolganligi Vizantiya ijtimoiy tuzumining asosiy xususiyatlaridan biri edi. Erkin dehqonlar qo‘shnichilik jamoalarida yashar edilar va yerga nisbatan xususiy mulk huquqiga ega edilar. Ular faqat bevosita Vizantiya davlati tomonidan ekspluatatsiya qilinar edi: soliqlar to‘lar edilar, turli xil og‘ir mulkiy va shaxsiy maj-

buriyatlarni bajarar edilar. Bu davrda Vizantiya davlatida kechki rim imperiyasi davridan meros bo‘lib qolgan dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning o‘ziga xos shakli - kolonat keng rivojlangan edi. Vizantiya qonunlariga asosan kolonlar ikki guruhga: erkin va yerga «yozib qo‘yganlar»ga bo‘lingan edi. Erkin kolonlar yirik yer egalaridan yerni ijaraga olib ishlashga majbur bo‘lib va shu tariqa yer egalariga iqtisodiy jihatdan qaram holatda edilar. Ayniqsa, «yozib qo‘yilgan» kolonlarning ahvoli og‘ir edi. Ular yerga mustahkam bog‘langan edilar. Erkin va «yozib qo‘yilgan» kolonlar ham o‘z xo‘jayinlariga, ham davlat foydasiga majburiyatlar o‘tardilar. Bu ikkala guruhning holati VI asrga kelib keskin yomonlashadi.

Vizantiyaning ijtimoiy tuzumi VI asr oxiri - VII asr birinchi yarmida keskin siyosiy va ijtimoiy inqiroz natijasida ancha o‘zgardi. Arablarning bosqini, varvarlarning bostirib kirishlari va imperiya hududida ommaviy o‘troqlashib qolishlari, shaharlarning vayron etilishi Vizantiyada quldorlik tuzumining yemirilishini va feodal munosabatlarning paydo bo‘lishini tezlashtirdi.

Bo‘lib o‘tgan urushlarda va ijtimoiy to‘qnashuvlarda Vizantiyaning ko‘pgina hukmron tabaqalari vakillari qirilib ketdi. Shu bilan birga davlat mulkchiligi shaklining, jamoa yer egaligining saqlanib qolganligi va yerga nisbatan cheklanmagan xususiy mulkchilikning keng tarqalganligi Vizantiyada yangi feodal munosabatlarning taraqqiy etishiga jiddiy to‘sqinlik qilar edi.

VI asrning birinchi yarmi va VII asrning birinchi yarmi o‘rtasida Vizantiyaning ijtimoiy tuzumidagi ziddiyat ayniqsa avj oldi. Bu vaqtda Vizantiyadagi quldorlik tuzumining yemirilayotganligi ochiq ko‘rinib turardi, qishloq xo‘jaligida, hunarmandchilikda erkin mehnat qul mehnatini tobora siqib chiqarayotgan edi. Shunday bo‘lsa ham qulchilik tamoman tugatilmagan edi. Yangi, ancha progressiv bo‘lgan feodal munosabatlar nisbatan sekinlik bilan tarkib topib kelayotgan va buning natijasida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi to‘xtalib qolmoqda edi. Bu, masalan, Bolqon yarim orolida va Kichik Osiyo viloyatlarida bir vaqtlar juda serhosil bo‘lgan yerlarning ancha ko‘p qismi endilikda bo‘m-bo‘sh, qovjirab yotganligida ko‘zga tashlangan. Shahar kambag‘allari, qullar, kolonlar va jamoachi-dehqonlarning turli xalq harakatlari Yustinian imperatorligining so‘nggi yillarida tez-tez ko‘tarilib, VI asr oxirlari va VII asrning birinchi yarmida bu harakat yanada kuchayadi.

Vizantiyadagi kelgindi slavyan dehqon aholining ahvoli «Dehqonchilik qonuni»da juda yaxshi ta’riflangan; bu manba VIII asrga oiddir, lekin unda VII asrdagi agrar munosabatlar ham aks etgan. Ushbu manbaga

qarab fikr yuritilganda, dehqonlar erkin aholi bo‘lib, ularning o‘z ekinzorlari, tokzorlari va bog‘lari bo‘lgan. Dehqonlar xo‘jaligida dehqonchilikning o‘zidan tashqari, chorvachilik ham katta rol o‘ynagan. Har bir dehqonning yer uchastkasi ekinzor, tokzor va bog‘dan iborat bo‘lib, uning o‘z xususiy mulki hisoblangan, lekin unda jamoa yer egaligining alomatlari ochiq ko‘rinib turardi. Uchastka «ulush», «qur'a» deb atalgan.

Bu narsa yerlarning taqsimlanganligidan dalolat beradi. Qonunda, dastlabki taqsimlash noto‘g‘ri qilingan bo‘lsa, yerni qayta taqsimlash ham nazarda tutilgan. «Dehqonchilik qonuni»da dalalardan ekin yig‘ishtirib olingandan keyin yerlarning hammasi ochiq o‘tloqqa aylantirilib, unda butun qishloq chorvasining boqilishi ham pisanda qilingan. Egasi tashlab ketgan taqdirda yer jamoaga topshirilishi kerak edi. Qishloqning asosiy aholisi, ya’ni qo‘shnichilik jamoasining to‘la huquqli a’zosi bo‘lgan dehqonlardan tashqari, «Dehqonchilik qonuni»da yana kambag‘al dehqonlar to‘g‘risida ham gapiriladi, kambag‘al dehqonlar qisman katta yer egalaridan, qisman esa jamoachi dehqonlarning o‘zidan yer uchastkalarini hosilning yarmisini berish sharti bilan (teng sherikka) ijaraga olardilar. Dehqonlarning yana bir turkumi tilga olinadi, ular katta yer egalariga maxsus ushr (mortita) to‘lar edilar. Aftidan, bular ham ijarachi-dehqonlar bo‘lganlar-u, lekin ularning ahvoli yerni teng sherikka olgan dehqonlar ahvolidan yaxshiroq edi. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, ularning ham bir vaqtlar o‘z yerlari bo‘lgan, biroq keyinchalik yirik yer egalariga qaram bo‘lib qolganlar. Nihoyat, «Dehqonchilik qonuni»da aytilishicha, yer egalarining yerlarida ishlash uchun yollangan batraklar, qishloq xo‘jalik ishchilari (mistotlar) guruhi bo‘lgan.

Shunday qilib, «Dehqonchilik qonuni» jamoaning tabaqalarga ajrala boshlaganligidan, jamoa a’zolarining o‘z yonidagi katta dunyoviy yer egalari yoki cherkov-monastir yer egalariga qaram bo‘la boshlaganligidan ham dalolat beradi. Slavyanlar imperiyani xuddi muhtoj narsasiga - juda ko‘p erkin dehqonlarga ega qildilar. Vizantiyada tushkunlikka yuz tutgan va umri tugab qolgan quldorlik tuzumi o‘rniga, erkin dehqonlar zaminida yangi feodal munosabatlar rivojlana olardi.

Son jihatidan ko‘paygan, iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan, jamoalarga uyushgan Vizantiya dehqonlari VIII-IX asrlarda ishlab chiqarish kuchlarini muvaffaqiyatli rivojlantirdi, mamlakatni g‘alla bilan, dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, tokchilik mahsulotlari bilan to‘la ta'minlab turdi. Shu bilan bir vaqtda hukumat dehqonlardan muntazam ravishda yer solig‘i olib turardi. Bu davlat moliyasini ancha tartibga soldi. Nihoyat, dehqonlar Vizantiyada barpo etilayotgan yangi qo‘shin uchun manba bo‘lib xizmat qildi.

IX-XI asrlarda Vizantiyaning feodallashuv jarayoni tez avj olib bordi. Erkin dehqonlarning soni shu qadar tez kamayib bordiki, mamlakat mudofaa qobiliyatining pasayishidan, shuningdek, aholidan tushadigan soliq mablag‘larining kamayishidan qo‘rqib, imperatorlarning o‘zlari ham tashvishga tusha boshladilar. Dinatlar tomonidan dehqon yerlarining bosib olinishiga qarshi X asrning birinchi yarmida imperatorlar bir necha marta farmonlar - novellalar (922, 934 va 947 yillardagi novellalar) chiqardi. Imperator Vasiliy II bir necha yangi farmon chiqardi. Uning novellalaridan birida (996 yil) katta yer egalarining jamoachi-stratiotlardan ilgari tortib olingan hamma erlarni dehqonlarga qaytarib berilishi talab qilindi[80]. Biroq bu farmon hamda shu kabi boshqa farmonlar yaxshi bajarilmadi. Feodal zodagonlar shu qadar kuchayib ketgan ediki, 1057 yilda makedoniyaliklar dinastiyasining o‘rnini olgan va Kichik Osiyodagi zodagon yirik yer egalaridan chiqqan Komninlar dinastiyasi erkin dehqonlarning qolgan-qutganlarini ham feodallarga yem qilishga har tomonlama ko‘maklashdi. Komninlar ayrim-ayrim qishloqlarnigina emas, balki butun-butun okruglarni katta yer egalarining proniyasiga (aynan tarjima qilganda: g‘amxo‘rligiga, vasiyligiga) berdi. Bu esa o‘zlariga tobe aholini bevosita krepostnoyga aylantirish yo‘lidagi tadbir edi. Proniar - immunist davlat soliqlarining bir qismini o‘z foydasiga yig‘ib olish huquqiga ega bo‘ldi. Qo‘l ostidagi aholini uning o‘zi sud qilar edi. Bu yerlar asta-sekin feodalning nasldan-naslga o‘tadigan xususiy mulki bo‘lib qoldi.

XI-XII asrlardan boshlab Vizantiyada xususiy egalikdagi dehqonlarning soni juda tez o‘sa boshladi, erkin dehqonlarning va hatto davlat dehqonlarining soni bir muncha kamayib ketdi. Xususiy egalikdagi dehqonlar **pariklar** deb yuritilgan. Feodallarning yerida dehqonchilik qilib, unga obrok - feodal rentasi to‘lovchi krepostnoy dehqonlar - pariklar Vizantiya qishloqlarida ko‘pchilikni tashkil etadigan bo‘lib qoldi. Ular yerga egalik qilish huquqidan mahrum bo‘lib, faqat o‘z merosiy yer ulushlarini ushlab turuvchilar hisoblanardilar, xo‘jayinga ishlab berish, natural yoki pul shakllarida renta solig‘i to‘lash majburiyatiga ega edilar. Ular davlat dehqonlaridan farq qilib XIII-XV asrlarga qadar yerga biriktirib qo‘yilmagan edi.

Vizantiya jamiyatining eng quyi qismida ilgarigidek qullar turardi. Qulchilikning uzoq vaqt saqlanib qolganligi Vizantiya ijtimoiy tuzumining xarakterli belgisi hisoblanadi. Qul mehnatidan uy xo‘jaligida keng foydalanilgan. Ular asosan hovli ichidagi har xil ishlarni bajarishardi. Ulardan qishloq xo‘jalik ishlarida, ayniqsa sug‘orish, yo‘l qurilishi ishlarida, tosh

[80] 996 yilgi novella stratiot va dehqonlarning yerlarini qo`lga kiritib olgan katta yer egalarining «huquqlari»ni muhofaza qilib kelgan va qirq yil muhlat deb atalgan narsani bekor qilgan.

konlarida va shu kabilarda ham foydalanardilar. Deyarli har bir Vizantiya zodagonining uyida xizmatkor qullar bor edi. X-XI asrlarga kelib ularning ijtimoiy ahvoli biroz yaxshilandi. Masalan, ular cherkovda nikohdan o‘tish huquqini qo‘lga kiritadilar. Erkin kishilarni qulga aylantirish taqiqlangan. Qullar tez-tez pariklar holatiga o‘tkazib turilgan. XI-XII asrlarda qullar bilan boshqa ekspluatatsiya qilinuvchi kishilar o‘rtasidagi farq deyarli yo‘qoladi.

3. Vizantiyaning davlat tuzumi

IV-VII asrlardagi Vizantiya davlati kechki rim imperiyasi davlat tuzumining asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan edi. Davlat boshida imperator - rim sezarlari hokimiyatining merosxo‘ri turardi. Imperator davlatda butun qonun chiqaruvchi, sud va ijro etuvchi hokimiyatlarning boshlig‘i bo‘lib, xristian cherkovining homiysi va himoyachisi hisob-lanardi.

Vizantiyaning provoslav cherkovi imperatorning obro‘-e’tiborini ko‘tarishda juda katta rol o‘ynadi. G‘arb (katolik) cherkovidan farqli o‘laroq vizantiya cherkovi iqtisodiy va siyosiy jihatdan imperatorga to‘la qaram edi, chunki u qudratli markazlashgan davlat sharoitida mavjud edi.

Ilk Vizantiya cherkovi imperatorlarga to‘la qaram edi. Cherkov ishlariga rahbarlik qilishga imperator Yustinian ayniqsa ko‘p aralashar va yuqori diniy vakillar bilan xuddi o‘zining noiblaridek muomala qilardi.

Lekin IV-VII asrlarda imperator hokimiyati tiraniya shaklida emas, ya’ni u o‘zboshimchalik bilan, o‘z xohishicha hokimiyatni amalga oshirmas edi. Imperatorlar imperiyaning «umumiy qonunlariga» amal qilishlari shart edi. Yana bir xususiyati Vizantiyada imperator hokimiyati nasldan-naslga meros bo‘lib o‘tishi mumkin emasdi. Yangi Vizantiya imperatori senat, «Konstantinopol xalqi» va armiya tomonidan saylanar edi.

Bu davrda Vizantiya siyosiy hayotidagi muhim omil imperator nomzodini «Konstantinopol xalqi» tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi edi. IV asrdayoq imperator farmoni bilan «Konstantinopol xalqi»ga – Konstantinopol ippodromiga yig‘ilgan poytaxt aholisining turli ijtimoiy qatlamlari va guruhlariga iltimoslar bilan chiqish va imperatorga talabnoma bildirish huquqi berilgandi. Vizantiyada maxsus siyosiy tashkilotlar - shahar partiyalari (dimlari) tuziladi. Ularning orasida ancha yirik ikkitasi «zangori» va «yashil» partiyalar muhim o‘rin tutgan.

Bu partiyalarning ijtimoiy asosini turli xil hukmron sinf vakillari tashkil qilardi. «Zangori» dimlarni senatorlar va munitsipial aristokratlar, ikkinchisini Vizantiya shaharlarining savdo-moliya hukmron doiralari

qo‘llab-quvvatladilar. Dimlar ma’lum tartibda tuzilgan tashkilotlariga va hatto qurollangan otryadlariga ega edilar. V asrda poytaxt dimlariga o‘x-shash dimlar Vizantiya imperiyasining boshqa shaharlarida ham tuziladi. Ular asta-sekin bir-biri bilan chambarchas bog‘liq o‘ziga xos umum-imperiya tashkilotlariga aylanadi. IV-VI asrlarda dimlar siyosiy hayotda juda muhim rol o‘ynaydi. Vizantiya imperatorlari o‘z siyosatlarida tez-tez shunday partiyalar ko‘magiga tayanishga majbur edi.

Imperator o‘zboshimchaligini cheklab turuvchi yana bir boshqa omil Vizantiya aristokratiyasidan tashkil topgan maxsus davlat organi - Konstantinopol senatining mavjudligida edi. Senatda imperiyaning har qanday ishlari ko‘rilishi mumkin edi. Uning tarkibiga Vizantiya hukmron tabaqalarining deyarli barcha vakillari kirardi. Bu uning ta’siri va kuchini oshirardi. V asrga kelib senatorlar soni ikki mingtaga yetadi. Davlat ishla-rining senat tomonidan muhokama qilinishi, shuningdek, uning yangi imperatorni saylashda qatnashish huquqi Vizantiya zodagonlariga davlat ishlarida ishtirok etishlari uchun ma’lum imkoniyatlar yaratadi.

Xuddi shuning uchun ham dastlabki Vizantiya imperatorlari, qudratli Yustinian I ham o‘z qonun hujjatlarini chiqarishda «buyuk senat va xalqning roziligi» zarurligini tan olardilar. Bu esa respublika davlatchiligidan meros bo‘lib qolgan ayrim siyosiy odatlarning mustahkamligidan dalolat berardi.

VIII asrdan Vizantiya markaziy hokimiyatini yanada mustahkamlash boshlanadi. Bu esa uzoq vaqtgacha Vizantiya davlatchiligining rivojlan-tirish yo‘llarini belgilab bergan edi. IX-X asrlarda yangi - feodal asosdagi iqtisodning barqarorlashuvi Vizantiya davlatining markazlashuviga va keng bosqinchilik siyosatini yuritishiga asos bo‘ldi. Vizantiya davlati Makedoniyaliklar sulolasi tomonidan idora qilingan davr (867-1057 yillar) da o‘z rivojlanishining yuqori cho‘qqisiga erishdi va ulkan byurokratik apparat yordamida mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha tomonlarini nazorat qilishga harakat qildi. Imperiyaning qattiq markazlashtirilganligi Vizantiyani o‘sha vaqtdagi Yevropa feodal davlat-laridan keskin ajratib turardi.

VIII asrda imperatorning mutlaq hokimiyatini ilgari chegaralab turuv-chi siyosiy tashkilotlar va muassasalar faoliyati IX asrdan boshlab, hatto, im-peratorning «Konstantinopol xalqi» tomonidan nomigagina e’lon qilinishi ham to‘xtatilgan. VII asrning oxiridanoq qulab borayotgan Konstantinopol senatining siyosiy roli IX asrning oxirida imperatorning maxsus farmoni bilan batamom yo‘qqa chiqarildi. Unga ko‘ra, senat imperiya qonunlarini qabul qilishda ishtirok etish huquqidan mahrum etilgan edi.

Pravoslav (yunon) cherkovi Vizantiyada yagona yirik kuch sifatida o‘z mavqeini saqlab qoldi. Uning obro‘si va ta’siri mustahkamlandi. Xususan, Vizantiyaning ijtimoiy-siyosiy hayotida Konstantinopol patriarxining cherkov boshlig‘i sifatidagi roli o‘sdi. Patriarxlar ko‘pincha kichik yoshli imperatorlarning regentlari (muvaqqat podsho) bo‘lib qoldi va bevosita toj-taxt uchun bo‘lgan siyosiy kurashlarga aralashdi. Lekin Vizantiya cherkovi bu davrda ham hali imperator hokimiyatidan to‘la mustaqillikka erisha olmagan edi. Imperator cherkov amaldorlari tomonidan taqdim qilingan uchta nomzod orasidan patriarx tayinlash va o‘ziga yoqmagan patriarxni vazifasidan chetlatish huquqini saqlab qoldi.

VIII-IX asrlarda imperator hokimiyati asoslarining mustahkamlanishi bilan uning o‘ziga xos xususiyatlari ham o‘zgardi. Vizantiya imperatorlari vasilevs (podsho) va avtokrat (hokimi mutlaq) degan yunon unvonlarini to‘la-to‘kis qo‘lga kiritdi. Imperator - vasilevsga hurmat-ehtirom, sajda qilish misli ko‘rilmagan darajada o‘sdi. Uning shaxsi hatto ilohiy darajaga ko‘tarildi. Imperatorning imtiyozlari cheklanmagan. Vasilevs qonunlar chiqargan, oliy chinovniklarni tayinlagan va almashtirib turgan, oliy sudya va armiya hamda flotning bosh qo‘mondoni hisoblangan.

Biroq, shularga qaramay, imperatorning bunday mutlaq hokim sifatidagi mavqei mustahkam emas edi. Manbalardan ma’lumki, Vizantiyada barcha imperatorlarning taxminan yarmi majburan hokimiyatdan mahrum etilgan. Vizantiyaliklarda taxtni meros qilib o‘tkazish tartibi uzoq vaqtgacha mavjud emas edi. Vasilevsning o‘g‘li taxtning qonuniy merosxo‘ri sifatida ko‘rilmasdi. Imperator tug‘ilishdan emas, balki «Xudoning tanlashi» dan hokimiyatni olardi. Shu sababli imperatorlar hayot chog‘larida amaliyotda ko‘pincha o‘zlariga hokimdoshlar saylab, merosxo‘rlarni tayinlardilar. Vizantiyada XI asrga kelib qonuniy taxt vorisligi prinsipi o‘rnatilgan edi.

Vizantiyada marosimlarning an’anaviyligi, mutaassibligi, eskirib qolganligi, ularga ikir-chikirlarigacha amal qilinishi imperatorning shaxsiy imkoniyatlarini jiddiy kishanlar edi. Imperatorlarning real hokimiyati tobora kuchsizlanib boradi. Bunga feodal munosabatlar ta’sirida tug‘ilgan yangi tendensiyalar ham sabab edi. Feodalizm rivojlanishi bilan imperatorlar va yirik feodal yer egalari (dinatlar) o‘rtasida Vizantiya davlatchiligi amaliyoti uchun yangi hisoblangan senorlik-vassallik munosabatlari shakllanadi. X asrdan boshlab Vizantiya hukmdori o‘zining ba’zi fuqarolari – dinatlari bilan tez-tez feodal shartnomalar tuzishga va o‘ziga senorlik majburiyatlarini olishga majbur bo‘ladi.

Vizantiya davlat tuzumi uchun uning rivojlanishining asosiy bosqichlarida juda katta markaziy va mahalliy byurokratik apparatning mavjudligi

xarakterli edi. Mazkur apparat qat’iy iyerarxiyaga asoslangan edi. Vizantiyaning barcha chinovniklari ranglar (titullar)ga bo‘lingan. Ularning tizimi juda chuqur ishlab chiqilgandi. X asrdagi Vizantiyaning «martabalar haqidagi jadvali»da 60 ta shunday ranglar (martabalar) bo‘lganligi hisoblab chiqilgan. Imperiyaning markaziy boshqaruvi **Davlat kengashi (konsistoriya,** keyinchalik **sinklit)** qo‘lida edi. U imperator huzuridagi oliy organ bo‘lib, davlatning kundalik ishlariga rahbarlik qilardi. Uning funksiyalari aniq o‘rnatilmagan va u davlat hayotida muhim siyosiy rol o‘ynardi. Davlat kengashi imperatorning yaqin yordamchilari hisoblangan oliy davlat va saroy chinovniklaridan iborat tarkibda edi. Bu chinovniklar qatoriga **ikkita pretoriya prefekti, Konstantinopol prefekti, magistr va saroy kvestori, ikkita moliya komitasi** kirgan. Imperiyaning ushbu oliy chinovniklari keng vakolatlarga, shu jumladan, sud funksiyalariga ega bo‘lganlar. Masalan, ikkita pretoriya prefekti mahalliy davlat apparatining oliy rahbarlari hisoblangan; Konstantinopol profekti poytaxtning fuqarolik ishlari bo‘yicha hukmdori va senatning raisi edi.

Oliy saroy chinovniklari hisoblangan magistr va kvestor ham muhim funksiyalarga ega edi. Magistr - saroy boshlig‘i, kvestor - bosh yurist va konsistoriya raisi hisoblangan. Ular keng byurokratik apparat yordamida bevosita imperiyaning ichki ishlarini idora qilardilar. Bu vaqtda Vizantiya chinovniklarining umumiy soni juda katta edi. Faqat ikkita pretoriya prefekti idoralarining o‘zida 10 mingdan ortiq fuqarolik chinovniklari xizmat qilardi.

IX-XI asrlarda markaziy davlat appartining roli o‘sgan. Byurokratik davlat apparati bu vaqtda Vizantiyaning siyosiy, iqtisodiy va hatto madaniy hayotining barcha sohalarini nazorat qilardi. Uning tarkibiy tuzilishi yanada murakkab va ulkan edi. Idoralar («sekretlar») soni 60 taga oshgandi. IX asrdan e’tiboran imperator xo‘jaligi va saroyining o‘sishi oqibatida saroy ma’muriyati murakkablashgan. Davlat idoralari va saroy xizmatchilari o‘rtasidagi farqlar ancha aniq tus oladi. Saroy ma’muriyati tez-tez umumdavlat ishlariga rahbarlik qilishga kirib kela boshlaydi. Bu davrda Vizantiya markaziy boshqaruvi uchun xarakterli bo‘lgan yana bir jihat shundan iborat ediki, alohida davlat funksiyalari turli, ko‘pincha bir-birini takrorlaydigan davlat idoralari o‘rtasida maydalanib ajratila boshlangandi. Masalan, moliyaviy boshqaruv VII asrdan boshlab bir-biriga bo‘ysunmaydigan bir qancha «sekretlar»ga bo‘lingan edi. Sud funksiyalari turli muassasalar: patrik sudi, shahar prefekti sudi (eperx), imperatorning saroy xizmatchilari uchun maxsus sud va boshqalar o‘rtasida taqsimlangandi.

Mahalliy boshqaruv

Imperiyaning mahalliy davlat apparati IV-VII asrlarda to‘la kechki rim imperiyasining boshqaruv tizimiga asoslangandi. Imperiya prefekturalarga, diosezlarga va provinsiyalarga bo‘lingan edi. Fuqarolik hokimiyati harbiy hokimiyatdan ajratilgan hamda undan ustun mavqeda edi. Imperiyaning mahalliy boshqaruvi tepasida ikkita pretoriya prefekti turardi. Bu oliy fuqarolik chinovniklari keng ma’muriy, sud va moliyaviy hokimiyatga ega edilar. Diotsezlar va provinsiyalarning fuqaroviy hukmdorlari ushbu prefektlarga bevosita itoat etardilar. Mahalliy boshqaruvning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan provinsiyalarning hukmdorlari keng ma’muriy va moliyaviy vakolatlar bilan birga, sud hokimiyatiga ham ega edilar. Ular o‘z provinsiyalari doirasida barcha muhim sud ishlari bo‘yicha birinchi instantsiyadagi sudyalar hisoblanardi.

VII asrda eski mahalliy boshqaruv tizimi o‘rniga yangi **fem tizimi** yuzaga keldi. Femlar harbiy okruglar sifatida vujudga kelib, dastlab eski provinsiyalardan ancha katta edi. Femlar tepasida **stratiglar** turib, butun harbiy va fuqarolik hokimiyatini o‘z qo‘lida to‘pladi. Imperiya mahalliy boshqaruvining harbiylashtirilishi tashqi siyosiy ahvolning va Vizantiya jamiyatidagi ijtimoiy-sinfiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi natijasi edi. Keyinchalik, jamiyatning feodallashuvi kuchayishi oqibatida mahalliy boshqaruvning fem tizimi kuchsizlana bordi va XI asrga kelib batamom inqirozga uchradi.

Armiya

IV-VII asrlarda Vizantiyada armiya kechki rim imperiyasi armiyasi namunasida chegara va harakatchan qo‘shinlarga bo‘linish asosida tashkil qilingandi. Vizantiya imperatorlari hokimiyatni harbiy daholar tomonidan egallab olinishining oldini olish maqsadida armiyaga oliy boshqaruvni beshta rahbar (magistr) o‘rtasida taqsimlab qo‘ygandi. Vizantiya armiyasining tarkibi sekin-asta o‘zgarib bordi. VI-VII asrlarda armiyada varvarlar soni ko‘payib, ahamiyati tobora oshdi.

Vizantiya davlati rivojlanishining ikkinchi davri (VII asr oxiri - IX asr) boshlanishi bilan armiyaning asosini stratiotlar (dehqonlar)dan iborat ko‘ngilli qo‘shinlar tashkil etdi. Bu vaqtda Vizantiyaning qudratli harbiy floti ham tuziladi.

X-XI asrlarda Vizantiya armiyasining qiyofasi yanada o‘zgardi. Jamiyatning feodallashuvi jarayonining kuchayishi bilan stratiotlarning ko‘ngilli qo‘shini o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Stratiotlarning iqtisodiy va ijtimoiy mustahkamlangan yuqori qismidan iborat otliq askarlar armiya-ning yadrosi bo‘lib qoldi. Endi bu professional qo‘shin bo‘lib, hali yuqori

darajadagi jangovar armiya emas edi. Shuning uchun Vizantiya imperatorlari tez-tez chet mamlakatlarning (asosan, G‘arbiy Yevropa va Kiyev Rusining) yollanma qo‘shinlari yordamiga murojaat qilardilar. Tashkiliy jihatdan Vizantiya armiyasi ilgarigidek ikki qismga: poytaxt va mahalliy (femlar bo‘yicha) kontingentga bo‘lingandi. Bunda femlar bo‘yicha qo‘shinlarning roli va ahamiyati tobora pasayib boradi.

XI-XII asrlar bo‘sag‘asida juda yuqori darajada markazlashgan Vizantiya davlati o‘z tarkibidagi xalqlarning progressiv rivojlanishi yo‘lida ob’yektiv jihatdan to‘g‘anoq bo‘lib qolgandi. XIII asrda Vizantiyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozi oqibat natijada Vizantiya davlatining tarixan qonuniy halokatga uchrashiga sabab bo‘lgan. To‘rtinchi salib yurishi (1202-1204 yillar) buyuk davlat bo‘lgan Vizantiyani yo‘q qildi.

4. Vizantiyada huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalariga umumiy tavsif

Ming yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan Vizantiya huquqi o‘rta asr Yevropasi uchun noyob hodisa edi. U nisbatan yuqori darajada barqarorligi, turg‘unligi, mustahkamligi, ichki yaxlitligi, shuningdek, o‘zgarib boruvchi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga moslashuvchanligi bilan tavsiflanadi. Vizantiyada huquqning bu jihatlari qator tarixiy omillar bilan belgilanadi. Bunday omillar orasida Vizantiyadagi an’anaviy kuchli markazlashgan imperatorlik hokimiyatining mavjudligi, rim huquqining meros qilib olinganligi, xristian cherkovining tutgan o‘rni kabilar muhim ahamiyatga ega edi. Bu omillar huquqning yaxlit holga keltirilishiga ta’sir etadi, uni tizimga solingan huquq sifatidagi xususiyatini belgilaydi.

Vizantiya davlati rivojlanishining ilk bosqichidayoq o‘ziga xos huquqiy tizim shakllanadi. U bevosita rim huquqidan o‘sib chiqqan, lekin u o‘zida jamiyatning feodalizmga o‘tish xususiyatlarini aks ettirar, ijtimoiy va irqiy xilma-xilligi bilan ajralib turardi. Albatta vaqt o‘tishi bilan va mahalliy sharoitlar ta’sirida rim huquqiy institutlari o‘zgarib bordi, lekin rim huquqining asosiy xususiyatlari o‘zgarmadi, uning asoslari to‘la saqlanib qoldi. Chunki Vizantiyada quldorchilik tuzumi uzoq vaqt o‘zgarmay hukm suradi.

Rim huquqining vizantiya huquqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri meros bo‘lib o‘tishini avvalo imperator qonunlarida ko‘rish mumkin. Vizantiya davlati Rim imperatorlarining qonunlarini huquqning asosiy manbai sifatida qabul qiladi. Vizantiya siyosiy tizimining nisbatan mustahkamligi bu yerda birin-

chi marta rim iperatorlari konstitutsiyalarining va keyin butun rim huquqining kodifikatsiya qilinishiga shart-sharoit yaratadi. Masalan, birinchi rim qonunlari to‘plami - Feodosiy kodeksi 438 yilda tuzilgandi. Unga Konstantin hukmronligi vaqtidan (312 yildan) boshlab barcha rim imperatorlarining konstitutsiyalari kiritiladi. Shu tariqa, Vizantiyada bu to‘plamga kiritilmay qolgan ancha qadimgi rim qonunlari o‘z kuchini yo‘qotadi.

IV-VI asrlarda Vizantiyada huquqiy qarashlar va ta’limotlar ancha yuqori darajada rivojlandi, mustaqil huquqiy maktablar tashkil topdi. Masalan, Bayrut va Konstantinopoldagi huquqiy maktablar ancha mashhur edi. Bayrut huquqiy maktabida faoliyat ko‘rsatgan va o‘qituvchilik ishlarini imperatorlikning kodifikatsiya ishlari bilan qo‘shib olib borgan Domnin, Skiliatsiy, Kirill, Patrikiy va boshqalar ayniqsa mashhur edi.

Vizantiya yuristlari faqat antik huquqiy va madaniy an’analarni saqlab qoluvchilar emas, balki bularni yangi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga moslab o‘zgartiruvchilar, rim huquqiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kirituvchilar sifatida ham maydonga chiqadilar.

Shu tariqa, Vizantiyada juda yirik miqyosda kodifikatsiya ishlarini o‘tkazish uchun zamin yaratiladi. Aynan shu paytda, aniqrog‘i VI asr o‘rtalarida, mashhur yurist Tribonion boshchiligida rim huquqini tizimga solish ishlari amalga oshiriladi va natijada **Yustinianning qonunlari to‘plami** (Corpus juris civilis) vujudga keladi. Mazkur qonunlar to‘plami XI asrga qadar Vizantiya huquqining asosiy manbai bo‘lib, uning asosida Vizantiyaning huquqiy tizimi to‘la-to‘kis shakllanadi.

Yustinian qonunlari to‘plami mazmunan rim huquqining bayoni bo‘lishi bilan birga, ayni paytda vizantiya huquqining ba’zi o‘ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Bu Digestalarning matniga, Kodeksga va ayniqsa Yustinian novellalariga kiritilgan o‘zgarishlarda ko‘zga yaqqol tashlanadi. To‘plamning oxirgi qismi lotin tilida emas, yunon tilida yozilib, Yustinianning 160 ga yaqin konstitutsiyalarini o‘z ichiga oldi va ular ma’lum darajada o‘sha vaqtdagi vizantiya jamiyatining o‘ziga xos shart-sharoitlarini aks ettirdi.

Vizantiya yuristlari klassik davrdagi o‘z o‘tmishdoshlaridan farq qilib, huquqiy normalarni bayon qilishda eskirgan usullardan foydalanmaslikka, ularni oddiy va aniq ifoda qilishga, iboralarga tushuntirishlar berishga, sodda va tushunarli tushunchalar ishlab chiqishga harakat qildilar. Masalan, Digestalarning so‘nggi - 50-kitobidagi maxsus 16- va 17-titullarida turli so‘zlar va asosiy tushunchalarga sharhlar beriladi. Iboralarga ta’rif berish ayniqsa huquq bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalariga, jumladan Yustinian Institutsiyalariga ham xosdir. O‘sha vaqtda Kirill Katta tomonidan yozil-

gan «Ta’riflar haqida»gi qo‘llanma ancha sodda va tushunarli bo‘lib, juda ommabop hisoblanardi.

Vizantiya huquqiy tizimining shakllanishiga sharqiy provinsiyalarda ko‘proq saqlanib qolgan huquqiy odatlar ham ma’lum darajada o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Odat huquqi o‘ziga xos qadimiyligi va eskirganligi bilan rim huquqining mantiqan mukammalligiga putur yetkazdi, lekin shu bilan birga yangi ijtimoiy munosabatlar jamoa va feodal munosabatlarining rivojlanishini aks ettiruvchi hayotiy muhim oqimni keltirib chiqardi. Masalan, kechki yunon huquqidan Yustinian qonunlari to‘plamiga emfitevzis[81] instituti, shuningdek, farzandlikka olishning va hokimiyat ostidagi shaxslarning emansipatsiya (ozod) qilishning yangi shakllari va boshqalar kirib kelgan edi. Sharq huquqi ta’sirida esa yozma ish yuritish va sud ishlari olib borish joriy qilindi. Bu o‘z navbatida da’volarning eski tizimini bekor qilinishiga va ekstraordinar[82] jarayonning o‘rnatilishiga olib keldi.

Yustinianning qonunlari to‘plamiga kiritilgan ko‘pgina qo‘shimchalar yuridik amaliyotdan kelib chiqmagan, balki Vizantiyada tarqalgan g‘oyaviy oqimlar (platonizm, stoitsizm[83], xristianlik)ni aks ettiradi. Yustinian qonunlariga ayniqsa xristian dini ko‘proq ta’sir etdi. Masalan, Institutsiyalar va Kodeks bevosita imperatorning Xristosga murojaati bilan ochiladi, qonunlarning o‘zida esa muqaddas kitoblarga havolalar ko‘plab uchraydi. Ba’zi huquqiy institutlar sof diniy ruhda talqin qilinadi, chunonchi, nikohga endilikda «ilohiy aloqa» (nexum divinum) sifatida qaraladi. Xristianlik ta’siri ostida rim huquqining ratsionalistik sxemasiga ba’zi etik (axloqiy) konstruksiyalar kiritildi. Masalan, Yustinian o‘z Digestalarida huquq (jus) tushunchasi bilan birga an’anaviy «odil sudlov» (justitia) tushunchasidan ham foydalandi, lekin «odil sudlov»ni xristian axloqi ruhida «adolat» sifatida izohlaydi. Yustinian o‘z qonunlari to‘plamiga «tabiiy huquq» konstruksiyasini kiritdi, lekin uni III asrda klassik yuristlar tushungan ma’noda emas, balki ilohiy taqdim asosida o‘rnatilgan huquq sifatida sharhladi. Klassik rim huquqining to‘la-to‘kis qayta ishlanishi asosan Vizantiya huquqi rivojlanishining keyingi davrlariga to‘g‘ri keladi.

Vizantiya sudlarida Yustinian qonunlari to‘plamini qo‘llash katta qiyinchiliklarga olib keldi. Uning ko‘pgina qoidalari eskirib qolgandi, lekin asosiysi - u imperiya aholisi uchun juda murakkab va amalga oshirib bo‘lmaydigan edi. Shu sababli VI-VII asrlarda Vizantiya yuristlari tomonidan

[81] **Emfitevzis** (yunoncha emphyteusis so`zidan olingan bo`lib, «odatlantiraman, joriy qilaman» degani) qadimgi qator davlatlar (Misr, Yunoniston, Rim va boshqalar)da yer uchastkasini uzoq muddatga ijaraga berish turi.

[82] **Ekstraordinar jarayon –** Qadimgi Rimda ishni sudda ko`rishga davlat vakili tayyorlaydigan jarayon.

[83] **Stoitsizm –** Yunon va Rim falsafasida materalizm bilan idealizm o`rtasida turgan ratsionalistik falsafiy ta'limot; lug`aviy ma'nosi-matonat, mardlik, sabot.

yunon tilida amaliy maqsadlar uchun Yustinian qonunlariga soddalashtirilgan sharhlar tuziladi. Bunday sharhlar hikoyalar, ro‘yxatlar (ko‘rsatkichlar), izohlar, eslatmalar kabi ko‘rinishlarda chiqariladi. Xususan, Feofan tomonidan huquqshunos talabalar uchun yunon tilida tuzilgan Yustinian Institutsiyalari haqidagi hikoyalar, shuningdek, Stefan tomonidan tuzilgan Yustinian Digestalariga izohlar ancha mashhur edi. Vizantiya yuristlari Yustinian qonunlari to‘plamidan parchalar keltirish asosida amaliy to‘plamlar ham tuzdilar. Ularda shartnomalarning ro‘yxatlari va namunalari, da’volarning formulyarlari (nomai a'mollari) va boshqalar berildi.

Aynan shu vaqtda Vizantiyada qator yangi imperator qonunlari qabul qilindi. Ularda jamoa tartibining rivojlanishi ta’siri ostida tobora ko‘proq odat huquqi normalari qabul qilina bordi. Shu tariqa, Vizantiya huquqiy tizimi rivojlanishining xarakterli tendensiyalaridan biri, xususan, imperator hokimiyatining butun huquqini yozma qonunda mustahkamlashga urinishi namoyon bo‘ldi.

VIII-XIV asrlarda Vizantiya huquqining asosiy yodgorliklari. VII-VIII asrlarda Vizantiya huquqiy tizimi chuqur iqtisodiy inqiroz, shaharlarning tanazzuli, davlat yerlariga varvarlarning o‘rnashishi, arablarning bostirib kirishi va boshqalar natijasida og‘ir sinovlarni boshidan kechiradi. Aynan shu vaqtda Vizantiya huquqining kechki rim huquqidan o‘rta asrlar huquqiga aylanishi jarayoni asta-sekin nihoyasiga yetdi. VIII asrda umumiy iqtisodiy va madaniy ko‘tarilish munosabati bilan Vizantiya imperatorlarining va huquqiy maktablarining qonun chiqarish faoliyati yana jonlandi.

Vizantiya huquqi tarixining ikkinchi bosqichida qonunchilik nafaqat rim huquqiy an’analari va odat huquqi bilan, balki Vizantiya yuristlarining shaxsiy tajribalari sharofati bilan ham ancha moslashuvchan va hayotiy mustahkam bo‘lib qoldi. Aynan Vizantiya jamiyatining hayotiy ehtiyojlari qonunlarni tizimga solish bo‘yicha va Yustinian kodifikatsiyasini qaytadan ishlab chiqish bo‘yicha yangi ishlarni amalga oshirishni talab qildi. Chunki Yustinian kodifikatsiyasi lotin tilida bajarilgan bo‘lib, uni faqat tor darajadagi shaxslargina tushunar edilar, xolos. Garchand Yustinian Digestalarida ko‘pgina iboralar va Modestin, Papanian va boshqa klassik yuristlarning asarlaridan olingan butun-butun parchalar yunon tilida berilgan bo‘lsada, bu sud amaliyotini to‘la qanoatlantira olmasdi. Vizantiyaning amalda yunon-slavyan davlatiga aylanishi qonun hujjat-larining tilini ham o‘zgartirishni qattiq talab qilmoqda edi.

Sud amaliyoti ehtiyojlari Yustinianning qonunlar to‘plamini qayta ishlab chiqishni va uning qisqa hamda tushunarli shaklda bayon qilinishini

zarur qilib qo‘ydi. 726 yilda (ba’zi ma’lumotlar bo‘yicha-741 yilda) imperator-«butga qarshi kurashuvchi» Lev III Isavrning (717-740) ko‘rsatmasi bo‘yicha **Ekloga** («tanlangan qonunlar») nashr etiladi. Ekloganing chiqarilishi Vizantiya huquqi rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi.

Eklogani tuzuvchilar Yustinian qonunlarining faqat ozgina qismini qoldirib, uning ko‘p qismini chiqarib tashladilar. Shu sababli Ekloga 18 ta kichik-kichik titullardan iborat tuzilib, ba’zi titullarda bor-yo‘g‘i bittadan modda mavjud edi. Ekloganing qo‘shimcha sarlavhasining o‘zidayoq ko‘rsatilganidek, u «Buyuk Yustinian»ning qonunlarini «yanada inson parvarlik ruhida» qisqartirish va tuzatishdan iboratdir. Eklogada butga qarshi iboralar faqat uning kirish qismida uchraydi. Unda «chin haqiqatga» faqat «so‘zda tahsin aytmasdan», hayotda amal qilish lozimligi aytiladi va hatto «ishda» kambag‘al va nochorlarni afzal ko‘rish ko‘rsatiladi. Ekloganing VIII tituli maxsus tarzda qullarga bag‘ishlangandi. Unda erkin kishilarni qulga aylantirishning ba’zi holatlari nazarda tutilgan. Masalan, dezertirlik uchun qulga aylantirish mumkin edi. Biroq, Ekloda qullarni erkinlikka chiqarishning yangi usullari va shakllariga ko‘proq e’tibor berildi. Masalan, qullarni cherkovda erkinlikka chiqarish va shu kabilar haqida ko‘rsatmalar mavjud. Bular mamlakatda tobora rivojlanayotgan feodal munosabatlarning in'ikosi edi, albatta.

Eklogaga xristianlik dini va axloqining ta’siri to‘liq darajada o‘z aksini topdi. Xususan, unda Injilga havola qilishlardan foydalanish orqali qator huquqiy qoidalarni asoslashga harakat qilindi. Xristianlik g‘oyalari, ayniqsa, nikoh-oila huquqiga (I-VII titullarga) chuqur kirib keldi. Ekloga shu vaqtgacha Vizantiya huquqiga ma’lum bo‘lmagan unashtirish (7 yoshdan) tartibini joriy qildi. Bunda rasman unashtirilayotganning roziligi, amalda ularning juda yosh bo‘lganliklari munosabati bilan ota-onalarining roziligi talab qilindi. Nikoh yoshi erkaklar uchun - 15 yosh, ayollar uchun - 13 yosh qilib o‘rnatildi. Xristian cherkovi ta’siri ostida ajralishga sabab bo‘luvchi qonuniy asoslarning doirasi qisqartirilgan. Ayollar xristianlik axloqiga binoan oilada tobe mavqeda edilar. Lekin klassik rim huquqidan farqli o‘laroq, Ekloga er va xotinning mulkiy huquqlarini tenglashtirishga harakat qildi. Unga ko‘ra, xotin olgan sep-sidirg‘a va nikoh sovg‘alari erining mulki sifatida emas, balki unga boshqarish uchun berilgan mulk sifatida ko‘riladi. Vasiyat bo‘yicha meros qoldirishda bolalarga berilishi lozim bo‘lgan majburiy hissalar - (merosning 1/3 qismidan kam bo‘lmagan miqdorda) o‘rnatildi, merosxo‘rlarning 7 ta darajasi belgilandi.

Ekloganing shartnoma huquqiga bag‘ishlangan IX-XIII titullarida Yustinian qonunlari to‘plamida nazarda tutilgan ko‘pdan-ko‘p bitimlardan

faqat oldi-sotdi, qarz, omonat (saqlab berish), sheriklik eslab o‘tildi. Og‘zaki yoki yozma shaklda tuziladigan oldi-sotdi shartnomasida yunon huquqi ta’sirida zakalat berish joriy qilindi. Qarz shartnomasida nazarimizda cherkov ta’limoti ta’sirida rim huquqiga ma’lum bo‘lgan foizlar olish haqidagi me’yorlar eslanmaydi. Eklogada ijara, jumladan yerni arendaga olish haqida qisqacha gapiriladi. Bunda yerni ijaraga berish muddati 29 yildan oshmasligi lozim edi. Vizantiyada xususiy yerlarni arendaga berish uncha keng tarqalmagan bo‘lsa kerak. Chunki, Eklogada faqat davlat, imperatorlik va cherkov yerlarini ijaraga berish va buning uchun yillik ijara to‘lovlari to‘lash haqida gapiriladi.

Eklogada feodalizmning rivojlanishiga xos bo‘lgan muhim institut - emfitevzis haqida aniq me’yorlar belgilandi. Emfitevzis abadiy yoki cheklangan tarzda yerni vasiyat bo‘yicha yoki vasiyatsiz bir-biridan meros qilib oluvchining uchtagacha avlodlari muddatiga ijaraga berish sifatida o‘rnatildi. Emfitevzisni, odatda yerni ijaraga oluvchi shaxs - emfitevt mulk egasiga hech qanday «vaj-bahona ko‘rsatmay» yillik to‘lov to‘lashi, shuningdek, «yerning saqlanishi va yaxshilanishi» haqida g‘amxo‘rlik qilishi lozim edi. Agar emfitevt uch yil davomida shartlashilgan to‘lovni to‘lamasa, u holda unga berilgan yerdan mahrum qilinishi mumkin edi.

Eklogada jinoyat va jazolarga bag‘ishlangan XVII titul ancha keng va aniq ishlangan. Jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib borishi jinoyat qonunlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xususan, Eklogada jinoiy xatti-harakatlar uchun davlat tomonidan ta’qib qilishning ancha kuchaytirilganligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ekloganing aynan ushbu titulining keyingi qonunlar to‘plamlarida o‘zgarishsiz foydalanganligi ham bejiz emas edi.

Eklogada davlatga qarshi jinoyatlar: dushman tomoniga qochib o‘tish, qalbaki pul yasash va boshqalar uchun javobgarliklar belgilovchi me’yorlar mavjud. Ayniqsa, imperatorga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taruvchi yoki unga yoxud davlatga qarshi isyonda qatnashuvchi shaxslar haqida gapirilgan modda alohida ajratib ko‘rsatilgan. Bunday shaxslar «hamma narsani buzishni» maqsad qilganlar sifatida o‘sha vaqtning o‘zidayoq o‘limga mahkum etilishi lozim edi.

Eklogada, shuningdek, xristian diniga qarshi jinoyatlarga ham katta e’tibor berildi. Injilni ushlab turib yolg‘on qasam ichgan, ibodat vaqtida ruhoniyga qo‘l ko‘targan, «pokdamon xristianlik e’tiqodlari»dan voz kechgan shaxslar, jodugarlar, duoxon - azayimxonlar, tumorlar va shunga o‘xshash narsalarni tayyorlovchilar, xristian diniga dushman bo‘lgan boshqa

dinga ergashuvchilar, majusiylikka yoki bid'atga oid harakatlarda qatnashuvchilar qattiq jazolangan.

Eklogada shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun ham javobgarliklar nazarda tutilgan. Odam o‘ldirganlik uchun va tan jarohati yetkazganlik uchun beriladigan jazolar ko‘pincha bunday jinoyatlarning qasddan yoki tasodifan, ehtiyotsizlikdan sodir etilganligiga bog‘liq edi. Masalan, Eklogada «agar kimdir o‘z qulini qamchi yoki tayoq bilan ursa va qul o‘lib qolsa, unda xo‘jayin odam o‘ldirgan kishi (qotil) sifatida mahkum etilmaydi», deyiladi. Agar xo‘jayin qulini qasddan, ataylab o‘ldirsa javobgarlikka tortilardi. Masalan, xo‘jayin o‘z qulini «haddan tashqari qiynoqqa solsa, yoki og‘u bilan zaharlasa, yoki uni o‘tda kuydirsa» va buning natijasida qul o‘lsa, u holda odam o‘ldirganlikda ayblanishi mumkin edi.

Eklogada, shuningdek, qator mulkiy jinoyatlar ham sanab o‘tiladi. O‘g‘rilik, bosqinchilik, birovning mulkini yo‘q qilish, o‘tda kuydirish, birovning qabrini o‘g‘rilash kabi jinoyatlar uchun qattiq jazolar belgilandi. Biroq uning ko‘pgina moddalari davlat va muqaddas cherkov tomonidan o‘rnatilgan oilaviy va axloqiy munosabatlar tuzilishiga tahdid qiluvchi jinoyatlar uchun javobgarliklar belgilaydi. Ularning orasida yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqada bo‘lishi, nomusga tegish, erning xotiniga yoki xotinning eriga nisbatan xiyonat qilishi, rohiba (monax ayol) bilan, cho‘qintirilgan qiz bilan, qiz bola bilan, hayvonlar bilan jinsiy aloqa qilish, homilani tushirish va boshqalar alohida ajratib ko‘rsatilgan.

Eklogada jazolar tizimi, hatto Yustinian qonunlariga nisbatan ham, ancha mukammal ishlab chiqilganligi va juda qattiqligi bilan ajralib turgan. Unda o‘lim jazosini nazarda tutuvchi holatlar ko‘pgina edi. Lekin qonunga muvofiq tana a’zolariga shikast yetkazish va tan jazolari: burnini kesish, tilini sug‘urib olish, qo‘lini qirqish, ko‘zini o‘yish, axtalash jazolarini berish ayniqsa keng qo‘llanilgan. Bunday jazolar ancha og‘ir va shavqatsiz bo‘lib, klassik rim huquqida asosan qullarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, Eklogaga muvofiq esa erkin kishilarga ham tadbiq qilinardi. Sharmanda qiluvchi jazolar (masalan, soch va soqollarini qirqib tashlash), shuningdek, mol-mulkini musodara qilish ham mavjud edi.

Eklogada ba’zi jinoyatlar bo‘yicha jazolar aybdorning ijtimoiy holatiga qarab belgilangan. Masalan, 22-moddaga muvofiq mansabdor shaxs birovning cho‘risi bilan jinsiy aloqa qilsa, katta miqdorda jarima to‘lashi lozim edi. Xuddi shunday jinoyat uchun «oddiy kishi» bir vaqtda ham jarima to‘lagan, ham kaltak bilan savalangan. Shuningdek, Ekloganing XVII tituli 29-moddasida ko‘rsatilishicha, «ota-onasining ruxsatisiz» qiz bola bilan jinsiy aloqa qilganlik uchun yuqori martabali shaxslarga,

«o‘rta xol mavqedagi shaxslarga» hamda «kambag‘al va mulksizlarga» nisbatan beriladigan jazolar turlicha edi. Bunda mansabdor shaxslar qayg‘uga hamdardlik tarzidagi jarimani to‘lasalar, kambag‘al va mulksizlar qamchi bilan savalanganlar, soch-soqollari olib tashlangan va haydab yuborilgan. Biroq, boshqa moddalarda juda ko‘p holatlarda jinoiy javobgarlik aybdor shaxsning ijtimoiy ahvoliga qarab belgilanmagan. Bu qator tadqiqotchilar fikricha, Eklogani yaratuvchilarning ijtimoiy keskinliklarni biroz yumshatishga uringanliklarini namoyon qiladi.

Ekloganing dalillarga bag‘ishlangan XIV tituli ham ijtimoiy tengsizlikni ochiqdan-ochiq mustahkamlaydi. Bu yerda «unvonga, yoki mansabga, yohud mashg‘ulotga (yoki boylikka) ega bo‘lgan guvohlar ko‘rsatmalari oldindan qabul qilsa bo‘ladigan» deb hisoblangan. «Noma’lum guvohlar»ning, ya’ni past ijtimoiy mavqedagi shaxslarning ko‘rsatmalari, agar sudda bahs-munozaralarga sabab bo‘lsa, ular qamchi bilan savalanganlar.

Ekloganing nihoyatda qisqaligi, unda mulk huquqiga ega bo‘lish va uni yo‘qotish usullari, muddat va boshqa shu kabi muhim masalalar haqida me’yorlar belgilanmaganligi uchun sudlarning, qator holatlarda bevosita Yustinian Kodeksiga murojaat qilishlariga to‘g‘ri kelardi.

Ekloga tez orada Dehqonchilik, Dengiz va Harbiy Qonunlar bilan to‘ldiriladi. Ularning ichida **Dehqonchilik qonuni** muhim ahamiyatga ega edi. U o‘z mazmun-mohiyati bilan G‘arbiy Yevropa davlatlarining «varvarlar haqiqati»ni eslatadi. Bu qonun Ekloganing muhim kamchiliklarini to‘ldirishga qaratilgandi. Unda VIII asr Vizantiya jamiyati hayotida juda muhim rol o‘ynay boshlagan qishloq jamoalarida yuzaga kelgan yangi ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Fanda Dehqonchilik qonunining ikkita: ilk va kechki matnlari bir-biridan ajratib ko‘rsatiladi. Ilk matn odat huquqining dastlabki manbai sifatida ancha qimmatli hisoblanadi. Uning qachon va qayerda nashr qilinganligi haqidagi masala xususida yagona fikr yo‘q. Ba’zi tadqiqotchilar uni VII asrning oxiriga (Yustinian II ning nomiga) bog‘laydilar, boshqalar Janubiy Italiyada tuzilgan deb ko‘rsatadilar. Lekin ko‘pchilik olimlar Dehqonchilik qonunini Konstantinopolda Isavrlar sulolasi imperatorlari davrida VIII asrning 20-yillarida taxminan Ekloga bilan bir vaqtda unga ilova sifatida tuzilganligini ko‘rsatishadi.

Dehqonchilik qonuni asosan xususiy qurama asar (boshqalarning ishlaridan ulab-qurab yozilgan asar) hisoblanadi, lekin keyinchalik, ehtimol Ekloga bilan birga, rasman tan olinadi. Dehqonchilik qonunining ilk matni 85 ta moddadan iborat bo‘lib, odat huquqi yodgorliklariga o‘xshab antik ifodalangan ichki tarkibiy qismlarga bo‘linmagandi. Dehqonchilik qonuni Vizantiya imperiyasining butun tarixi davomida harakatda bo‘lgan.

Lekin uning kechki, xususan XIV asrga taalluqli matni biroz tizimga solingan holda nashr qilinib, 10 ta titul va 103 ta moddadan iborat edi.

Dehqonchilik qonuniga kirgan huquqiy normalar qishloq jamoalari doirasida kelib chiqadigan nizolarni tartibga solishga qaratilgandi. Unda yonma-yon joylashgan yer uchastkalari o‘rtasidagi chegaralarga rioya qilishga, birovning yerini o‘zboshimchalik bilan haydash oqibatlariga, yer uchastkalarini ayirboshlashga katta e’tibor berilgan. Qonunning 8-moddasida yer uchastkalarini qur'a tashlash yordamida taqsimlanishi belgilanganligi jamoa tartiblari saqlanib qolganligidan darak beradi. Qonunda yerni va uzumzorlarni ijaraga berishga katta ahamiyat beriladi. Dehqonchilik qonunida davlat xazinasi manfaatlari haqida alohida g‘amxo‘rlik qilinganligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, uning 18-, 19-moddalarida yer uchastkasi egalaridan xazinaga o‘lponlar, shuningdek, favqulodda soliqlar olinishi mustahkamlangan.

Dehqonchilik qonunida birovning chorvasini, qishloq xo‘jalik uskunalarini o‘g‘irlaganlik uchun, birovning o‘rmonini kesganlik uchun va hokazolar uchun javobgarliklar o‘rnatuvchi moddalar juda chigal tarzda ifodalangan. Ko‘p hollarda o‘g‘rilik yoki birovning mulkini nobud qilish uchun faqat avvalo yetkazilgan zararni undirish maqsadida mulkiy jarimalar nazarda tutilgan. Biroq, agar yetkazilgan zarar ancha katta bo‘lsa va rivojlanib borayotgan xususiy mulkchilik tartiblariga xavf tug‘dirsa, tana a’zolarini mayib qilish, tan jazolari va hatto o‘lim jazosi qo‘llanilgan. Bunday hollarda o‘g‘rining, birovning omboriga o‘t qo‘yuvchining qo‘li kesilgan. Agar birovning usti berk xirmoniga qasddan o‘t qo‘yilsa yoki qullar tomonidan o‘g‘rilik sodir etilsa, ularga nisbatan o‘lim jazosi qo‘llanilgan.

Eklogaga ilova sifatidagi yana bir qonun - Dengiz qonuni bo‘lib, u G‘arbiy Yevropada **Rodossa dengiz qonuni** degan nom bilan mashhur bo‘lgan. U VII-VIII asrlarda tuzilgan. Unda antik davrlarda hamda o‘rta asrlarda dengiz savdosi amaliyotida vujudga kelgan va qisman rim yuristlari tomonidanoq ishlab chiqilgan huquqiy odatlar to‘plangan edi. Dengiz qonunida kemalar qatnovi, kemalarda yuk va yo‘lovchilar tashish, dengizda halokat xavfi tug‘ilganda yuklarni dengizga tushirib yuborish, kema egalari va yuk egalari o‘rtasida daromad va zararlarni taqsimlash kabilarga taalluqli qoidalar belgilangan. Bu qonunning ba’zi normalari XV asrga qadar xalqaro dengiz savdosida qo‘llanilgan.

Vizantiya huquqining yanada rivojlanishi Makedoniyaliklar sulolasi imperatorlari (butni hurmat qiluvchilar) Vasiliy I va Lev VI ning qonun chiqarish faoliyati bilan bog‘liq. Vasiliy I o‘zining siyosiy muxoliflari

tomonidan tuzilgan Eklogani bekor qilib, Yustinianning qonunlar to‘plamini qayta ishlab chiqishga, undan eskirib qolgan qoidalarni chiqarib tashlashga, qiyin va chalkash yuridik iboralarga tushuntirishlar berishga va bu qonunlar to‘plamini yunon tiliga tarjima qilishga buyruq bergan. Ushbu qonunchilik ishlari natijasida 879 yilda **Proxiron** deb nomlangan qonunlar to‘plami chiqarilgan. U o‘z davrida Vizantiya huquqining ancha nufuzli huquq manbalaridan biri bo‘lib qolgan va qo‘shni slavyan davlatlari huquqi tarixida sezilarli iz qoldirgan.

Proxiron Eklogaga nisbatan ancha to‘la qonunlar to‘plami edi. Unga qo‘shimcha tarzda 17 ta titul kiritilgandi. Lekin u yuridik texnika jihatidan, xususan huquqiy materiallar joylashtirilishining aniqligi, tahrir qilinishi jihatidan Eklogaga qaraganda qoloq edi. Garchand Proxironning muqaddimasida Ekloga «saralangan» qonun emas, balki «buzilgan» qonunlar deb nomlangan bo‘lsa ham, Vasiliy I uning qator, ayniqsa jinoyat huquqiga oid qoidalarini o‘zlashtirgan.

Proxiron Vizantiya huquqiy tizimiga uncha muhim o‘zgartishlar kirita olmagan. Unda xususiy huquqning ba’zi masalalari bo‘yicha Yustinian qonunchiligi (yoki hatto Yustiniangacha bo‘lgan qonunlar) tomoniga qayishish holatlari uchraydi. Bu, masalan, er va xotin o‘rtasidagi hadyalarda, sep-sidirg‘a berish tartibida, erkinlikka chiqarilganlarning vasiyatlarida va hokazolarda ko‘zga tashlanadi. Lekin, Proxiron ma’lum darajada Vizantiya jamiyatining IX asrdagi yangi sharoitlarini aks ettirgan. Unda shartnoma huquqi ancha to‘liq bayon qilinadi. Xususan, sherikchilik shartnomasi ishlab chiqilgan, qarz bo‘yicha foizlar olish to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlab qo‘yilgan va hokazo. Proxiron oila huquqiga ham ba’zi o‘zgartishlar kiritdi. Masalan, unga muvofiq nikohdan oldin sovg‘a berish tartibi joriy qilindi va hokazo.

Proxiron 884 va 886 yillar arafasida Vasiliy I nomidan uning o‘g‘illari tomonidan tuzilgan edi. Lekin oradan ko‘p o‘tmay, Vasiliy I ning o‘g‘illari va hokimdoshlari «eski qonunlarni tozalash» va Yustinian kodifikatsiyasida bayon qilingan huquqdan foydalanishni osonlashtirish maqsadida huquq bo‘yicha yangi qo‘llanma nashr qildilar. Bu qo‘llanma **Epanagoga** deb atalib IX asrda (har qalay 879 yildan keyin) imperator Vasiliy I va uning o‘g‘illari Lev va Aleksandr nomidan tuzilgan edi. U o‘z tuzilishiga ko‘ra Yustinian Digestalariga o‘xshab ketadi.

Epanagoga Proxiron va Ekloganing ko‘pgina normalarini o‘zida mujassam etgan qurama asar xarakteriga ega edi. Lekin shunga qaramay, u ko‘p masalalarni ancha to‘la tartibga solganligi va xususiy huquqning qator masalalarini yangicha bayon qilganligi bilan ajralib turardi. Epana-

noga ayniqsa ommaviy huquq sohasiga muhim o‘zgartishlar kiritdi. Bu sohada qator yangi qoidalar joriy qilindi. Masalan, unda imperator hokimiyatini to‘ldiruvchi partiarx hokimiyati haqidagi, ruhoniylar huquqlari haqidagi bir qancha yangi normalar mavjud edi. Bu qoidalar pravoslav cherkovi bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydi va oqibatda cherkov huquqida ham keng foydalaniladi.

Vizantiya huquqining yuqoridagi qisqacha to‘plamlari sud amaliyoti ehtiyojlarini to‘liq darajada qondira olmasdi. Shu sababli sudlar ancha eskirib qolgan Yustinian qonunlari to‘plamiga tobora ko‘proq murojaat qilishga majbur edilar. Lev VI Donishmand hukmronligi davri (886-912 yillar)da Yustinian qonunlarini yangitdan qayta ishlab chiqish bo‘yicha Vasiliy I davridayoq boshlangan yirik kodifikatsiya ishlari nihoyasiga yetdi. Natijada 890 yilda taniqli yurist Simbatsiy rahbarligida **«Vasiliklar** («Baziliklar»), ya’ni «podsholar qonunlari» tuzildi. U tobora tushunish qiyin bo‘lib borayotgan Yustinian qonunlari to‘plamini almashtirish maqsadida chiqarilgandi.

«Vasiliklar»da foydalanilgan juda katta material Yustinian qonunlari to‘plamiga nisbatan ancha ixcham va ketma-ketlikda joylashtirilgan. Ma’lumki, Yustinian qonunlari to‘plami bir qancha mustaqil qismlar (kitoblar) dan iborat edi. «Vasiliklar» esa - yagona qonunchilik yodgorligi bo‘lib, 60 ta kitobni o‘z ichiga olgan.

Kitoblar titullarga va parchalarga bo‘lingan. «Vasiliklar» ning har bir tituli Digestalardan sitata keltirgan rim yuristlaridan birining matnidan olingan parcha bilan boshlanadi (boshqa fikrlar uncha nufuzga ega bo‘lmagan fikrlar sifatida tushurib qoldirilgan), so‘ngra Kodeksdan, Institutsiyalardan va Novellalardan olingan tegishli qo‘shimchalar berilgan. «Vasiliklar»da yustiniancha huquqdan bevosita foydalanilmagan. Unga Yustinian qonunlari VI asrda yashagan Vizantiya yuristlari - Anonim, Feofil, Dorofey va boshqalar tomonidan yunon tiliga tarjima qilingan asarlar va sharhlar orqali kirib kelgan. «Vasiliklar»ga uning tuzuvchilarning fikricha, Yustinian qonunlarining amaliy ahamiyatga ega bo‘lmagan qoidalari kiritilmagan edi. Masalan, undan Institutsiyalarning, Digestalar titullarining odil sudlov va huquqning kelib chiqishi haqidagi kattagina qismi va boshqalar tushirib qoldirilgan. Shuningdek, Yustinian Kodeksi va Novellalaridan keyinchalik qayta ko‘rib chiqilgan bir qancha qoidalar ham chiqarib tashlanadi. Biroq, «Vasiliklar»da oldingi huquqni qayta ishlanishi va qisqartirilishi diqqat bilan qilinmay, shoshma-shosharlik bilan amalga oshirilgan. Unda eskirib qolgan yoki iste’moldan chiqib ketgan ko‘pgina normalar ham saqla-nib qolgan edi. Masalan, unda allaqachon yo‘qolib ketgan

mansablar (rim konsullari, imperatorlarning legatlari[84] va boshqalar) haqida eslatib o‘tiladi.

«Vasiliklar» ko‘proq ommaviy va cherkov huquqiga taalluqli juda katta huquqiy materialni o‘z ichiga olgan. Uning 1-, 3-, 5-kitoblari cherkov haqida, 6-kitobi davlat mansabdorlari haqida, 7-, 9-kitoblari sud jarayoni haqida, 60-kitobi jinoyatlar haqida normalar belgilagan va hokazo. Biroq, «Vasiliklar»ning katta qismi xususiy huquq masalalariga, jumladan shaxslarning huquqiy holatiga bag‘ishlangan. Xususan, 46-kitob - qullar haqida, 55-kitob dehqonlar haqida edi va hokazo.

To‘g‘ri, feodal munosabatlarning rivojlanishi natijasida bu sohada meros huquqidagi 45-kitob singari rim huquqining ko‘pgina qoidalari o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qotgandi. Sud amaliyotida hammadan ko‘ra ko‘proq «Vasiliklar»ning majburiyat munosabatlarini tartibga soluvchi normalaridan foydalanilgan. Uning 19-kitobida oldi-sotdi haqida, 23- va 25-kitoblarida garov operatsiyalari haqida, 26-kitobida esa topshiriq va qarz to‘lash haqida me’yorlar belgilanib, ulardan amaliyotda tez-tez foydalanilgan.

«Vasiliklar»ning tuzilishi Yustinian qonunlarining bekor qilinganligini anglatmasdi. Lekin shunday bo‘lsa ham Yustinian qonunlari tobora kam ishlatiladigan bo‘lib bordi. XII asrning oxiridan boshlab «Vasiliklar» Vizantiya huquqining yagona harakatdagi to‘plami bo‘lib qoldi. «Vasiliklar» bizgacha to‘la ko‘rinishda yetib kelmagan.

Uning qator kitoblaridan, jumladan, mulk va egalik huquqi haqidagi 50-kitobidan faqat parchalar saqlanib qolgan xolos. Ko‘pchilik qo‘lyozmalar «Vasiliklar» matni bilan birga VI asrdagi, shuningdek, XI-XII asrlardagi Vizantiya yuristlarining ularga bergan tushuntirishlari, sharhlari - sxoliyalar[85] ko‘rinishida bizgacha etib kelgan. Sxoliyalar «qadimgi» va «kechki» sxoliyalar nomi bilan atalgan. Sxoliyalar rasmiy ahamiyatga ega bo‘lmagan, lekin ular Vizantiya sudlarida e’tiborga olingan. Agar biror huquqiy masalalar «Vasiliklar»da belgilanmay, sxoliyalarda o‘z yechimini topgan bo‘lsa, unday holatlarda sxoliyalarning qimmati juda yuqori edi.

«Vasiliklar» tuzilgandan keyin Vizantiya huquqi imperatorlarning qonun hujjatlari - Novellalar, Xrisovullar (imperatorlarning yorliqlari) chiqarishi yo‘li bilan rivojlangan. Masalan, Lev Donishmand tomonidan chiqarilgan Novellalar bilan huquqda muhim o‘zgarishlar qilingan edi. U davlat mansabdorlariga o‘zlariga tegishli okruglarda yerlarga hech qanday nazoratsiz egalik qilishga ruxsat bergan, qarzlar uchun foizlar olishni

[84] **Legat –** Qadimgi Rimda viloyat hokimlari huzuridagi hokim; Rim papasining diplomatik vakili.
[85] **Sxoliya –** yunoncha Sholion so`zidan olingan bo`lib, izoh, sharh, tushuntirish degan ma'noni anglatadi.

taqiqlovchi cheklashlarni tugatgan, konkubinatni[86] batamom bekor qilgan, cherkovda tan olinmagan nikohni taqiqlagan va hokazo. Vizantiya huquqining rivojlanishiga, shuningdek, ba'zi hususiy yuridik qurama asarlar ham sezilarli ta'sir etgan. Ularning orasida ayniqsa taxminan 1345 yilda Konstantin Armenopulo tomonidan yozilgan «Qonunlarga qo'llanma, yoki Olti kitob» ayniqsa muhim bo'lgan. Bu qo'llanma Vizantiya sudlarida juda nufuzli mavqega ega edi. Vizantiya davlati qulagandan keyin esa u Yunoniston, Valaxiya va Moldoviya hududida o'z kuchini saqlab qolgan va amalda bo'lgan. Armenopuloning «Olti kitobi» XIX asrda Bessarabiya Rossiyaga qo'shib olingandan keyin ham uning harakatdagi huquqi sifatida tan olingan edi.

Vizantiya huquqining tarkibiy qismlaridan birini **cherkov huquqi** tashkil etgan. Cherkov huquqi asosan dunyo xristianlari yig'inlarining va patriarxlarning qarorlaridan tashkil topgan. Bunda VII asrning oxiridagi butun dunyo xristianlarining Trulskiyda to'plangan yig'inining qarorlari muhim o'rin tutadi. Bunda cherkov qonun-qoidalari rasmiy korpusi taqiqlangan va «soxta, yasama cherkov qonunlari»dan yoki qandaydir boshqa xristianlar yig'ini tomonidan taqiqlanmagan cherkov qonunlaridan foydalanish man etilgan. Cherkov huquqining tan olingan normalari, shuningdek, qisman imperatorlarning qonunlaridan maxsus to'plamlar – **Nomokanonlar**[87] tuzilgan. Ulardan VI-VII asrlar bo'sag'asida Konstantinopol patriarxi Ioan Sxolastika tomonidan 50 ta tituldan iborat tuzilgan Nomokanon eng qadimiysidir. 629-640-yillar oralig'ida Enantiofan degan yurist tomonidan tuzilgan 14 ta tituldan iborat Nomokanonlar ommaviy edi. Nomokanonlarning mazmuni vaqti-vaqti bilan yangilanib turgan. Masalan, XI asrlarda Feodor Vest tomonidan tuzilgan Nomokanonning matniga Yustinian qonunlarining bekor qilinganligini belgilovchi muhim qoida kiritilgan edi. Shu tariqa, «Vasiliklar» Vizantiyaning harakatdagi yagona huquqiy hujjati bo'lib qolgandi. Nomokanonlar rus huquqiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazgan, ularning tarjima qilingan nusxalari «Darg'a kitoblar» («Kormchie knigi»)ga kiritilganligi shundan dalolat beradi.

[86] **Konkubinat –** «concubinatus» lotinchacon (com) – birgalikda va cubo – yotaman, birga yashayman degan so`zlardan olingan bo`lib, er va xotinning rasmiylashtirilmagan, ya'ni nikohsiz, lekin kelajakda nikoh tuzish maqsadida doimiy birgalikda yashashi.

[87] **Nomokanonlar –** yunoncha Nomokanones so`zidan olinib, Vizantiyaning cherkov huquqi to`plamlari bo`lgan. Ularga imperatorlarning cherkovga va cherkov qoidalariga taalluqli qonunlari kiritilgan.

VII BOB. O‘RTA ASRLARDA ROSSIYA DAVLATI VA HUQUQI TARIXI (IX ASR-XIX ASRNING O‘RTASI)

- ***Qadimgi Rus davlati va huquqi (IX-XII asrlar).***
- ***Siyosiy tarqoqlik davrida Rusda davlat va huquq (XII-XIV asrlar).***
- ***Oltin O‘rda davlati va huquqi (XIII-XV asrlar).***
- ***Markazlashgan Rus davlatining tashkil topishi va huquqning rivojlanishi.***
- ***Rossiyada tabaqa-vakillik monarxiyasi (XVI asrning o‘rtalari-XVII asrning o‘rtalari).***
- ***Rossiyada mutlaq yakka hokimlikning tashkil topishi va rivojlanishi (XVII asrning II yarmi-XIX asr boshi).***
- ***Mutlaq yakka hokimlik davrida Rossiyada huquqning asosiy belgilari.***
- ***Krepostnoy tuzumning yemirilishi va kapitalistik munosabatlarning o‘sishi davrida Rossiya davlati va huquqi.***

1. Qadimgi Rus davlati va huquqi (IX-XII asrlar)

Davlatning tashkil topishi

VI-VIII asrlar sharqiy slavyanlarda urug‘ jamoa tuzumining to‘la yemirilishi va feodal munosabatlarning o‘rnatilishi davri bo‘lgan. O‘sha vaqtda ijtimoiy tuzumning asosini patriarxal oila jamoasi tashkil etgan. Bundan qo‘shnichilik qishloq jamoasi o‘sib chiqqan. Bu esa feodalizm rivojlanishining boshlanishi edi. Alohida oilalar ajralib chiqib, yakka xo‘jalik yuritish rivojlangan. Jamoaning haydaladigan yerlari va maydonzorlari alohida oilalar qo‘liga o‘tgan. Faqat o‘rmon boyliklari, suv singarilar jamoa qo‘lida qolgan. Bu vaqtda qullar ham bo‘lib, qullik patriarxal, uy xarakterida edi. Qulning mehnati ikkinchi darajali, yordamchi ahamiyatga ega edi. Asosiy ishlab chiqaruvchi kuch qishloq jamoasi edi.

Sharqiy slavyanlarda quldorlik tuzumining tarkib topmaganligiga asosiy sabablar: birinchidan, ishlab chiqaruvchi kuchlar nisbatan yuqori darajada bo‘lib, qo‘shnichilik jamoasi mustahkam rivojlanganligi; ikkinchidan, sharqiy slavyanlarda sinfiy jamiyat, davlat vujudga kelayotgan vaqtda boshqa mamlakatlarda quldorlik tuzumi o‘z umrini allaqachon o‘tab bo‘lganligi edi.

Mulkiy tengsizlikning kelib chiqishi, jamiyatning boy yer egalariga va oddiy mehnatkash jamoa a’zolariga ajralishi, ya’ni sinflarning tashkil

topishi va ekspluatatsiyaning vujudga kelishi natijasida sharqiy slavyanlarda birinchi davlatlar tashkil topgan. Bular: Kuyaba (Kiyev), Slaviya (slovenlar viloyati) va Artaniya (Ryazan) edi. Bu davlatlar hukmron (boy) tabaqalar manfaatini himoya qilish, aholini bo‘ysundirib turish, qabilalar hududini tashqi hujumlardan himoya qilib turish maqsadida slavyan qabilalarining ittifoqi asosida tashkil topgan. Dastlabki davlat birlashmalari knyazliklar deb atalgan. Ular qabilalarning harbiy ittifoqi asosida tashkil topib, bunda eng kuchli qabilaning oqsoqoli - knyazi rahbarlik qilardi. Dastlab qabilaviy knyazliklar, so‘ngra hududiy knyazliklar vujudga keladi. Bunday knyazliklarning markazlari Kiyev, Novgorod, Chernigov, Smolensk, Polotsk va boshqa shaharlar edi.

IX asrning II yarmi - X asrning boshida Novgorod knyazi Oleg Novgorod, Kiyev va boshqa slavyan qabilalari ittifoqlarini o‘z hukmronligiga bo‘ysundirib, qadimgi Rus davlati yoki Kiyev Rusiga asos soladi. Bu jarayon knyaz Oleg tomonidan 882 yilda Kiyevning bosib olinishi bilan nihoyasiga yetgan deb hisoblanadi.

Ijtimoiy tuzumi

IX asrda qadimgi Rusda feodal munosabatlar, ya’ni feodallarning yerga egaligi paydo bo‘ladi. Qabila boshliqlari katta yer egalariga aylanadi. Feodal yer egalariga: knyaz, boyarlar va ruhoniylar kirardi. Knyaz eng yirik yer egasi bo‘lib, uning yer egaligi jamoa yerlarini, bo‘sh yerlarni egallab olish orqali kengayib bordi. **Boyarlar** - urug‘, qabila ichidan o‘sib chiqqan savdogarlar, jamoa a’zolari, boy hunarmandlar bo‘lib, asta-sekin knyazning vassaliga aylangan. Knyaz drujinachilari ham boyarlarga aylandi. Ular xizmat uchun yer olib, tobora boyib boradilar. Yerga egalikning asosan quyidagi ikki shakli mavjud bo‘lgan: votchina va pojalovaniya (xizmat uchun haq) tarzida in'om qilingan yerlar.

Knyazning boyarlari, drujinachilari bo‘lib, ular knyazga harbiy jihatdan ham bo‘ysunardi. Feodallarning hayoti, sog‘ligi, mulki qattiq himoya qilinardi.

Mehnatkashlar ommasining asosiy qismini **smerdrlar** (feodallar tomonidan asoratga solingan qishloq aholisi) tashkil etardi. **Zakuplar** ham bo‘lib, ular feodallardan kupa - pul summasi yoki natural yordam olib, buning evaziga unga ishlab berishi lozim edi. Ularning qarz to‘lashi juda og‘ir edi. Agar zakup qochsa, xolopga - qulga aylantirilardi. Lekin zakupni urish, xoloplikka sotish mumkin emas, uning sudga shikoyat qilish huquqi mavjud edi. Zakupning mulki ham daxlsiz hisoblanardi.

Qadimgi Rus davlatida **qullar** ham bo‘lgan. Ular **xoloplar, chelyadinlar** deb atalgan. Lekin qulning mehnati uy xarakterida edi. Dehqonlar

qarzini o‘z vaqtida to‘lay olmasa, ruxsatsiz uylansa, xo‘jayinini haqorat qilsa xolopga aylanishi mumkin edi. Qullar umuman huquqsiz bo‘lib, ular uchun xo‘jayini javob berardi.

Dehqonchilikning rivojlanishi bilan undan hunarmandchilik va savdo ajralib chiqadi. Hunarmandlar va savdogarlar paydo bo‘ladi. Ularning hayoti va mulki himoya qilinardi. Shaharliklar soliq to‘lashdan ozod edilar.

Davlat tuzumi

Kiyev Rusi qat’iy markazlashgan davlat emas edi. U boshqarish shakliga ko‘ra **ilk feodal monarxiyasi** bo‘lib, u syuzerenitet-vassalitet prinsipiga asoslanardi. Kiyev knyazi buyuk knyaz hisoblansa ham hokimiyati kuchli emas edi. Joylardagi knyazlar unga, ya’ni syuzeren knyazga vassal hisoblanardi. Kiyev knyazi va mahalliy knyazlar o‘rtasida krest (xoch, but)ni o‘pib, qasam ichish orqali shartnomalar tuzilardi. Bunday shartnomalarda katta knyazlarning huquq va majburiyatlari o‘rnatilardi. Bular: «kichik, vassal knyazlarga harbiy yordam ko‘rsatish, yer berish va uni himoya qilishdan iborat edi. Vassal syuzerenga quloq solishi, harbiy, iqtisodiy yordam berishi, uni hurmat qilishi lozim edi va hokazo. Knyazlararo shartnomalarni buzganlik uchun vassallar yeridan mahrum qilinardi.

Davlat tepasida **buyuk knyaz** turgan. U sud, harbiy va qonun chiqarish hokimiyatiga ega edi. Tashqi munosabatlar ham u tomondan olib borilgan. Taxt katta o‘g‘ilga meros bo‘lib o‘tardi.

Buyuk knyaz **Boyarlar kengashiga** tayanib ish olib borardi. Boyarlar kengashi maslahatchi organ edi. U yirik boyarlar, oliy ruhoniylar: mitropolitlar, yepiskoplar va boshqalardan iborat tarkibda edi. Kengashda urush, sulh, boshqa davlatlar bilan ittifoq tuzish masalalari hal qilinardi. U qonunlarni muhokama qilar, ba’zi sud funksiyalarini ham amalga oshirar, harbiy, ma’muriy, moliyaviy va boshqa masalalarni hal etishda ishtirok etardi. Knyaz yo‘qligida yoki o‘limidan keyin Kengash asosiy hokimiyat organi bo‘lib qolardi. Lekin u doimiy organ bo‘lmay, vakolatlari ham aniq o‘rnatilmagandi. U knyaz tomonidan vaqti-vaqti bilan chaqirilgan.

Buyuk knyaz zarur hollarda **Veche -** shahar aholisining yig‘ilishini ham o‘tkazardi. Vecheda asosan erkaklar qatnashardi. Xoloplar va oila boshlig‘iga bo‘ysunuvchilar qatnasha olmasdi. Veche knyazni saylash, tasdiqlash yoki ishdan olish, urush va tinchlik, yuqori mansabdor shaxslarni tayinlash masalalarini hal qilardi. Unda qarorlar baqirishlar yo‘li bilan qabul qilingan. Keyinchalik feodalizm rivojlanishi bilan Veche o‘z ahamiyatini yo‘qotgan.

Maxsus hollarda knyaz tomonidan umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalarni hal etish uchun **feodallarning syezdlari** chaqirilardi.

Syezdlarda knyazlarni saylash va haydash, urush e’lon qilish, tinchlik shartnomalarini imzolash, yangi qonunlar chiqarish va boshqa masalalar hal qilinardi.

Davlat apparati tizimida markazda **saroy-votchina boshqaruvi,** joylarda esa **boqimandalik (kormleniya)** tizimi mavjud edi.

Dastlab harbiy boshliqlardan iborat mingboshilar, yuzboshilar va o‘nboshilar bo‘lgan. Keyin mingboshi harbiy boshliqqa aylangan, yuzboshi esa shaharning sud-ma’muriy mansabdor shaxsi bo‘lib qolgan. Keyinchalik boshqaruvning songa oid tizimi o‘rniga saroy-votchina boshqaruv tizimi vujudga keladi va buyuk knyaz xo‘jaligida **saroybon, xazinachi, otboqar** singari xizmatchilar shakllanadi.

Joylarda boshqaruv juda sodda tashkil etilgan. O‘lkalarda mahalliy knyazlardan tashqari noiblar (namestniklar) va volost boshqaruvchilari ham mavjud edi. Ular o‘z xizmatlari evaziga aholidan yegulik («korm») olardilar. Shu tariqa kormleniya (boqimandalik) tizimi vujudga keladi.

Armiyani buyuk knyaz **drujinasi** tashkil etgan. Drujinniklar professional jangchilar bo‘lib, ayni vaqtda knyazning maslahatchilari ham edi. Yollanma jangchilardan ham foydalanilgan.

Sud ma’muriy hokimiyatdan ajralmagan edi. Uning tepasida buyuk knyazning o‘zi turardi. **Virniklar** - odam o‘ldirganlik uchun jarimalarni yig‘uvchilar sud ishlarini yuritishga yordam berardi. Votchina sudi mavjud bo‘lib, har bir yer egasi o‘ziga qaram kishilarni sud qilishi mumkin edi. Cherkov ham sud organi edi.

Rusda qonunchilik eng qadimgi vaqtlardan ma’lum. Bundan knyaz Olegning 907 yilda greklar bilan tuzgan shartnomasi ham dalolat beradi.

Rus huquqining eng yirik yodgorligi **Rus haqiqati** hisoblanadi. Unga quyidagilar kiradi:

1. Yaroslav haqiqati taxminan XI asrning 30-yillarida tuzilgan. Uning manbalarini odat huquqi, knyazlarning qonunchiligi, sud amaliyoti tashkil etadi.

2. Yaroslavichlar haqiqati esa 1052 yoki 1072 yillarda Kiyevda tuzilgan. Yaroslav haqiqati va Yaroslavichlar haqiqati Rus haqiqatining **qadimiy matni** hisoblanib, **qisqa haqiqat** deb yuritiladi.

3. «Mufassal haqiqat» Yaroslav Ustavi va Vladimir Monamax Ustavidan iborat bo‘lib, Monomax davrida (1112-1125 yillar) Kiyevda tuzilgan. Uning manbalari: knyazlarning qonunlari va sud amaliyoti hisoblanadi.

Qadimgi Rusda ustavlar, shartnomalar, knyazlarning yorliqlari, cherkov ustavlari, podsho huquqining to‘plamlari, masalan, darg‘a kitoblari

(kormchie knigi) va boshqalar ham bo‘lib, huquq manbalarini tashkil etgan.

Qadimgi rus qonunchiligi ancha rivojlangan fuqarolik-huquqiy normalarni tan oladi. Qonunlarda mulkiy munosabatlar keng ifoda etilgan. Mulkni himoya qilish qonunlarning eng asosiy maqsadlaridan biriga aylantirilgan edi. «Mufassal haqiqat»ning 72-moddasida yerlar, o‘rmonlar va tomorqa uchastkalari o‘rtasida chegaralar o‘rnatilganligi ko‘rsatilib, uni buzganlik uchun jarimalar nazarda tutilgan. Shu bilan birga harakatdagi mulklarga nisbatan ham mulk huquqi o‘rnatilgan edi.

Majburiyatlar zarar yetkazishdan va shartnomalardan kelib chiqqan. Masalan, birovga tan jarohati yetkazgan shaxs jinoiy jarima bilan birga jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar uchun ham, jumladan vrach xizmatlari uchun jarima to‘lashi lozim edi.

Majburiyatlar ko‘p hollarda shartnomalardan kelib chiqqan. Shartnomalarning qarz, oldi-sotdi, ayirboshlash, garov, yuk tashish kabi turlari keng tarqalgan. Qarz shartnomasi ko‘pincha guvohlar ishtirokida yozma shaklda tuzilgan. Bunda foizlar nazarda tutilgan. Foizlar juda yuqori edi. 1113 yil Kiyevda bo‘lib o‘tgan shahar kambag‘allarining qo‘zg‘oloni natijasida Vladimir Monomax foizlar miqdorini cheklovchi qator qoidalar chiqarishga majbur bo‘lgan edi.

Qadimgi Rusda xrestianlik qabul qilingandan keyin **nikoh va oila huquqi** cherkov aqidasiga, ya’ni vizantiya huquqiga asoslanadigan bo‘ldi. Bunga ko‘ra, nikoh yoshi erkaklar uchun 14-15 yosh, ayollar uchun 12-13 yosh qilib belgilanadi. Nikoh tomonlarning va ularning ota-onalari roziligi bilan tuzilardi. Uchinchi marta nikohga kirishga yo‘l qo‘yilmasdi. Nikohni cherkov rasmiylashtirgan. Oilada er va ota hukmron edi. Ota-onalar bolalarni jazolash, qul qilib sotish huquqiga ega edi. Rus haqiqatiga homiylik instituti ham ma’lum.

Rus haqiqati vasiyat bo‘yicha va qonuniy **meros**ni tartibga soladi. Meros qoldiruvchi faqat o‘z oila a’zolariga vasiyat qilishi yoki kimnidir merosdan mahrum qilishi mumkin edi. Uning vasiyati o‘zgarmas hisoblangan. Vasiyat bo‘lmasa meros o‘g‘illar o‘rtasida qonuniy tartibda taqsimlangan. Qizlarga sep-sidirg‘a ajratilgan. Eng kenja o‘g‘ilga merosdan ko‘proq - umumiy mulkdan o‘z hissasi va uy, tomorqa o‘tgan. O‘g‘illar bo‘lmasa, qizlar merosxo‘r bo‘lgan. Faqat boyarlarning qizlari merosxo‘r bo‘lishi mumkin edi. Smerdlarning qizlari meros huquqidan mahrum etilib, faqat erga tegmagan bo‘lsa sep-sidirg‘a uchun hissa olardi xolos. Boshqa barcha hollarda meros knyaz foydasiga hal qilinardi.

Jinoyat huquqi borasida Rus huquqining imtiyoz huquqiga ega ekanligi koʻzga yaqqol tashlanadi. Masalan, xoloplarning shaxsi va mulki umuman himoya qilinmagan. Ular jinoyat subyekti hisoblanmagan. Qaram dehqonlarning shaxsi va mulki erkin kishilarnikiga qaraganda kamroq darajada himoya qilingan. Masalan, Rus haqiqatida ognishanin (yuqori tabaqa vakili) yoki knyazlik erkagini oʻldirganlik uchun aybdor knyaz foydasiga 80 griven, erkin kishini oʻldirganlik uchun esa - 40 griven, smerdni oʻldirganlik uchun bor-yoʻgʻi 5 griven jarima toʻlashi nazarda tutilgan.

Rus haqiqati boʻyicha **jinoyat** tushunchasi «ozor yetkazish» sifatida ifoda etilgan. Bunda moddiy, jismoniy yoki ma'naviy talofat yetkazish hisobga olinmagan. Jinoyat subyekti feodallar, shaharliklar va dehqonlar boʻlgan. Xoloplar va qullar qilgan jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilmagan. Ular uchun xoʻjayinlari javob bergan. Rus haqiqati boʻyicha, xolop erkin kishini ursa, erkin kishi xolopni oʻldirish huquqiga ega edi. Bu qoida knyaz Yaroslav tomonidan bekor qilinib, uning oʻrniga aybdor xolopning xoʻjayinidan jarima olinadigan boʻldi. Jinoyat ishtirokchilari aybning darajasiga qarab ajratilmagan, ular bir xil jazolanganlar.

Jinoiy harakat obyekti knyaz hokimiyati, shaxs, mulk, axloq hisoblangan. Qasddan yoki tasodifan qilingan jinoyatlar ajratib koʻrsatilgan. Oʻgʻrini jinoyat joyida oʻldirish uchun jazo berilmagan. Mastlik yoki gʻazab natijasida qilingan jinoyat uchun yengil jazo berilgan.

Qadimgi Rusning huquq tizimi

Rusda uzoq vaqt qonli oʻch olish odati saqlanib qolgan. Bu odat Yaroslav haqiqatining 1-moddasida ham koʻrsatilgan edi. Lekin Yaroslavichlar qonli oʻch olishni pul jarimasi bilan almashtirganlar.

Jazoning quyidagi turlari ma’lum:

1. **Oʻlim jazosi.** Bu Rus haqiqatida yozib qoʻyilmagan boʻlsa ham, lekin yilnomalarda koʻrsatilganidek, turli feodallar hokimiyatiga qarshi qoʻzgʻolonlar va xoinliklar uchun oʻlim jazosi keng qoʻllanilgan. Masalan, 1068 yilda Kiyevda knyaz hokimiyatiga qarshi qoʻzgʻolon tashkilotchilari va ishtirokchilaridan 70 kishi knyaz Izyaslav tomonidan osib oʻldirilgan. Umuman Rusda xoin knyaz udelidan, boyarin esa boshidan mahrum qilingan.

2. **Bosqinchilik va talon-taroj jazosi.** Bu ogʻir jazo boʻlib, ot oʻgʻrilariga, oʻt qoʻyuvchilarga va talonchilarga nisbatan qoʻllanilgan. Bunda jinoyatchining mol-mulklari musodara qilingan, oʻzi va uning oila a’zolari qulga aylantirilgan.

3. **Vira - tovon, xun haqi jazosi.** Qadimgi Rusda **o**dam o‘ldirganlik uchun knyaz foydasiga undiriladigan pul jarimasi shunday deb atalgan. Boylar uchun - 80-40 griven; oddiy xalq uchun - 6-5 griven kumush, shuningdek jabrlanuvchi oilasiga boshqacha alohida jarima undirilgan. Uning miqdori aniq belgilanmagan. Qadimgi Rusda jamoa javobgarligi ham mavjud edi.

4. **Sotish.** Bu - knyaz foydasiga undiriladigan jarima.

5. **Tana a’zolaridan mahrum qilish jazosi.** Qo‘l, burun, quloq va barmoqlarni kesish.

Jinoyat turlari:

1. **Knyaz hokimiyatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar:** qo‘zg‘olon, xiyonat, fitna va boshqalar.

2. **Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar.** Odam o‘ldirish**,** tan jarohati yetkazish, urish, qo‘l, oyoq yoki ko‘zidan mahrum etish, haqorat qilish: so‘z bilan yoki harakat bilan - soqollarini, mo‘ylovlarini kesish, itarib yuborish va hokazo.

3. **Mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar.** O‘g‘rilik, binolarga o‘t qo‘yish, chegara belgilarini buzish va boshqalar.

4. **Dinga qarshi qaratilgan jinoyatlar.** Cherkov o‘g‘irligi, qabrni o‘g‘irlash, cherkovga hayvon va parranda olib kelish, o‘rmonzorlarda, suvlarda xudoga sig‘inish, jodugarlik kabilar.

Sud jarayonida jinoyat va fuqarolik ishlari bir-biridan ajratilmagan. Ikkalasi bo‘yicha ham yagona sud jarayoni mavjud edi. Rus haqiqati bo‘yicha sud jarayoni tortishuvdan iborat edi. Ikkala tomon ham da’vogar hisoblangan va deyarli bir xil huquqlarga ega bo‘lgan. Sudda ular o‘z qarindoshlari va qo‘shnilari o‘rtasida so‘zga chiqqanlar. Qarindosh va qo‘shnilar sudda ularning yordamchilari sifatida qatnashishgan.

Sud jarayoni javobgarni sudga chaqirish bilan boshlangan. Alohida jinoiy ishlar bo‘yicha jinoyatchini izlab topish uchun qidiruv choralari ham ko‘rilgan.

2. Siyosiy tarqoqlik davrida Rusda davlat va huquq (XII-XIV asrlar)

XII asrga kelib joylarda feodallar juda boyib ketdi. Ular o‘zlarining drujinachilariga ega bo‘lib, ekspluatatsiya qilinuvchilarni bostirib turish uchun yetarlicha kuchga ega bo‘ldilar. Buyuk knyaz hokimiyati ularga malol kela boshladi. Markazdan qochish jarayoni kelib chiqdi va XII asrda Qadimgi Rus davlati inqirozga uchrab, bir necha knyazlik va o‘lkalarga

bo‘linib ketdi. Bulardan eng yiriklari: Galich-Volin knyazligi, Vladimir-Suzdal knyazligi va Novgorod hamda Pskov respublikalari edi.

Galich-Volin knazligi

XII asr oxirida Galich va Volin yerlari Volin knyazi Roman Mstislavich (1199-1205 yillar) tomonidan birlashtirilib, yagona Galich-Volin knyazligi tashkil etiladi. Roman «buyuk knyaz» unvonini oldi.

Galich-Volin knyazligida Galich boyarlari muhim rol o‘ynardi. Ular yirik votchinalarga va qaram dehqonlarga ega edi. Boyarlar ichida yer uchun, hokimiyat uchun kurash doimo bo‘lib turadigan hodisa edi. Feodallarning boshqa guruhini **xizmatchi feodallar** tashkil etdi. Bular knyazlik mukofotlari evaziga yer olib turardi. Ko‘pincha ular yerga xizmat davrida shartli egalik qilardilar. Xizmatchi feodallar knyazga qo‘shin berib turishlari lozim edi. Galich knyazlari boyarlarga qarshi kurashda xizmatchi feodallarga tayanardi.

Cherkovning yirik zodagonlari ham hukmron tabaqa edi. Cherkov va monastirlar knyazlarning in'omi va mukofoti hisobiga yerga egalik qilardi. Galich-Volin knyazligida qishloq aholisining asosiy qismini dehqonlar tashkil etgan. Ozod dehqonlar ham, qaram dehqonlar ham smerdlar deb atalardi. Jamoa yerlari asta-sekin shaxsiy tomorqalarga bo‘linib ketdi.

Xoloplik saqlanib qoldi, lekin ularning soni kamayib ketdi. Xoloplarning ko‘pchiligi yerga biriktirib qo‘yildi. Shaharlarda eng ko‘p aholini hunarmandlar tashkil etdi.

Davlat tuzumining hususiyati shunda ediki, Galich-Volin knyazligi uzoq vaqt udellarga[88] bo‘linmagan edi. Roman Mstislavichning o‘g‘li Daniil Romanovich o‘lganidan (1264 yilda) keyin u Galich va Volin yerlariga ajraldi, keyin ular ham udellarga bo‘linib ketdi. Bu davrda hokimiyat amalda yirik boyarlar qo‘lida edi. Galich-Volin knyazlari keng iqtisodiy va ijtimoiy asosga ega bo‘lmay, ularning hokimiyati mustahkam emas edi. Knyazlik hokimiyati katta o‘g‘ilga meros bo‘lib o‘tardi.

Knyaz hokimiyati uncha kuchli emasdi. Galich boyarlari siyosiy hayotda muhim rol o‘ynardi. Ular hatto knyazlarni saylashi, o‘zlariga yoqmagan knyazlarni haydab yuborishlari mumkin edi. Knyazlarning asosiy tayanchi o‘rta va mayda feodallar, shaharliklarning yuqori qismi edi.

Galich-Volin knyazlari ma’lum ma’muriy, harbiy, sud va qonun chiqarish vakolatlariga ega edi. Jumladan, ular shaharlar va viloyatlarda mansabdor shaxslarni tayinlar, xizmatlar evaziga yer berar, rasman qurolli kuchlar bosh qo‘mondoni hisoblanardi. Lekin har bir boyar o‘zining harbiy qo‘shiniga ega edi. Galich boyarlari polkining soni knyazlarnikidan ko‘p-

[88] **Udel –** qadimgi Rusda knaz qo`l ostidagi o`lka, viloyat.

roq edi. Knyazlar boshqarishga oid yorliqlar chiqarardi. Lekin ularni ko‘pincha boyarlar tan olmasdilar.

Boyarlar o‘z hokimiyatini **Boyarlar Kengashi** orqali amalga oshirardi. Unga yirik yer egalari, yepiskoplar va oliy mansabdor shaxslar kirgan. Kengashning tarkibi, huquqi, vakolatlari aniq belgilanmagandi. Kengash boyarlar tashabbusi bilan chaqirilardi. Knyaz uni o‘z holicha chaqira olmasdi. Knyaz Kengashning roziligisiz bironta ham qonun chiqara olmasdi. Kengash rasman oliy hokimiyat organi bo‘lmasa ham, amalda knyazlikni boshqarib turardi. Unga butun davlat apparati bo‘ysunardi, chunki uning tarkibiga davlatning yirik mansabdor shaxslari kirardi.

Galich-Volin knyazligida ham ba’zan **feodallar s’yezdlari** chaqirilib turardi, shuningdek, saroy-votchina boshqaruvi vujudga kelgandi Unda **saroybon** muhim o‘rin tutgan. **Saroy dasturxonchisi** (stolnik) ham bo‘lib, knyaz stolini tashkil etgan, ovqatlanish vaqtida unga xizmat qilgan. **Matbaachi, qush ovi amiri, otboqar, ovchi** va boshqa saroy mansablari ham mavjud edi. Matbaachi devonxona ishlarini yuritib, xazinani saqlagan.

Galich-Volin knyazligi dastlab mingliklarga va yuzliklarga, keyinchalik voqevodlik va volostlarga bo‘linadi. Ularni voqevoda va volost boshliqlari boshqarardi. Jamoalarda oqsoqollar saylanib, ma’muriy va mayda sud ishlarini yuritardilar.

Shaharlarni knyazlar tomonidan tayinlanadigan posadniklar boshqarardi. Ular ma’muriy, harbiy va sud funksiyalarini bajarardi hamda aholidan o‘lpon va soliqlar yig‘ib turardi.

Huquqi. Galich-Volin knyazligida Rus haqiqati normalari ba’zi o‘zgarishlar bilan harakatda edi.

Galich-Volin knyazlari o‘zlarining qonunlarini ham chiqarganlar, albatta. Bularning ichida 1134 yilgi knyaz Ivan Rostislavich Berladnikning **yorlig‘i** muhim o‘rin tutadi. Unda chet el savdogarlariga qator imtiyozlar berilgan edi. 1287 yilda knyaz Vladimir Vasilkovich tomonidan chiqarilgan «Rukopisanie» (qo‘lyozma)da meros huquqi normalari belgilandi. Unda merosxo‘rlar ham dehqonlarni ekspluatatsiya qilishlari mumkinligi ko‘rsatilgan, shuningdek, shahar va qishloqlarni boshqarish haqida ma’lumotlar ham mavjud. 1289 yilda Volin knyazi Mstislav Romanovichning Ustav yorlig‘i chiqariladi. Unda feodallarga qaram aholining majburiyatlari ko‘rsatilgandi.

Vladimir-Suzdal knyazligi

Mazkur knyazlik Oka va Volganing yuqori oqimi oralig‘ida joylashgandi. Knyazlikning eng qadimiy shaharlari Rostov va Suzdal edi.

1097 yilgi feodallar syezdining qarori bilan Kiyev Rusining bo‘linishi natijasida Suzdal yerlari Vladimir Monomaxga o‘tadi. Lekin u bu yerlarni boshqarishni o‘z o‘g‘li Yuriy Dolgorukiyga (1125-1157 yillar) beradi. Yuriy Dolgorukiy Kiyevdan mustaqil birinchi knyaz edi. U Suzdalda yashab, katta yerlarni egallab oladi, knyazlik markazi qilib Suzdal shahrini tanlaydi. Dolgorukiy ko‘p shaharlarga, jumladan 1147 yilda Moskvaga asos soladi. U o‘lgandan keyin o‘g‘li Andrey Bogolyubskiy (1157-1174 yillar) Rostov-Suzdal knyazi bo‘lib qoldi. U poytaxtni Vladimir-Klyazma shahriga ko‘chiradi. Shundan so‘ng bu davlat **Vladimir-Suzdal knyazligi** degan nom oladi. Andrey Bogolyubskiy o‘z hokimiyatini har tomonlama mustahkamlash choralarini ko‘rib, boyarlarni terror qiladi. Natijada boyarlar fitna uyushtirib uni o‘ldiradilar (1174 yil). Shundan keyin ukasi va vorisi Vsevolod Yurevich Katta Uya (1176-1212 yillar) boyarlarning chiqishlarini shafqatsiz bostirdi, boyarlarning fitnalarida qatnashganlarni ayovsiz jazoladi, Chernigov va Smolensk knyazliklarini o‘ziga bo‘ysundirdi.

Vladimir-Suzdal knyazligi ijtimoiy tuzumi bo‘yicha Kiyev Rusidan kam farq qilardi. Hukmron sinflar: katta knyazlik drujinasi, kichik knyazlik drujinasi, «erkin xizmatchilar» (barcha yirik, o‘rta, mayda yer egalari), dvoryanlar, ruhoniylar hisoblangan. Jamoachi-dehqonlar smerdlar deb emas, yetimlar (sirota) deb atalgan. Xoloplar ham mavjud edi. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo rivojlanadi.

Vladimir-Suzdal knyazligida ham saroy-votchina boshqaruvi tizimi shakllanadi. Uning tepasida saroybon turardi. U buyuk knyazning xo‘jalik va boshqarish ishlari bo‘yicha birinchi yordamchisi hisoblanardi. Undan keyingi o‘rinda harbiy ishlarni yurituvchi **voevoda** turardi. Bulardan tashqari otboqar, saroy dasturxonchisi va boshqalar mavjud edi. Ularning yordamchilari tiunlar deb atalardi. Mahalliy boshqaruv namestniklar va volost boshqaruvchilari qo‘lida edi. Ularni buyuk knyaz tayinlardi.

Huquqi to‘g‘risida shuni aytish mumkinki, bu yerda ham asosan Rus haqiqati harakatda edi.

Novgorod va Pskov respublikalari

Ma’lumki, 1136 yilda Novgorod boyarlari Kiyev knyazining noibi knyaz Vsevolod Mstislavichni haydab yuboradilar va mustaqillikni qo‘lga kiritadilar. Novgorod boyarlar respublikasi - «Janob Buyuk Novgorod» bo‘lib qoladi.

Pskov dastlab Novgorod tarkibida edi. XIV asr boshidan u Novgorod posadniklarini qabul qilmay qo‘yadi va Pskov **veche**si pskovlik boyarlardan posadniklar saylaydi. 1323 yilda nemislar Pskovga hujum qiladi. Pskov Novgoroddan yordam so‘raydi. Lekin Novgorod yordam bermaydi. Shunga qaramay nemislar pskovliklar tomonidan haydab yuboriladi. Shu vaqtdan boshlab Pskov mustaqil ichki va tashqi siyosat yurita boshlaydi. Novgoroddan boshqa qo‘shni davlatlar uning mustaqilligini tan oladi. 1348 yilda shvedlar Novgorodga hujum qiladi. Endi Novgorod Pskovdan yordam so‘raydi va evaziga uning mustaqilligini tan olishga va'da beradi. Shvedlar mag‘lubiyatga uchratilib, Pskov va Novgorod o‘rtasida Bolotovo qishlog‘ida bitim tuziladi va Pskov respublikasi mustaqil davlat bo‘lib qoladi. Keyinchalik, markazlashgan Rus davlatining tashkil topishi jarayonida 1510 yilda Pskov siyosiy mustaqillikni yo‘qotadi.

Novgorod va Pskovning **ijtimoiy tuzumida** hukmron tabaqalar «eng yaxshi kishilar» deb atalgan va boyarlar, yirik yer egalari, ruhoniylar va boshqa guruhlarga bo‘lingan. Savdogarlar ham muhim o‘rin tutardi, qolgan barcha aholi qora yoki kichik kishilar hisoblanardi. Ular majburiyatlar o‘tab soliqlar to‘lardilar. Jamoachi-dehqonlar smerdlar deb atalardi. Feodallarga tutqunlikka tushib qolgan dehqonlar esa garovga qo‘yilganlar sifatida edilar. Ular yerga egalik qilar, lekin turli majburiyatlar o‘tashlari lozim edi. Yeridan mahrum bo‘lib, xo‘jalik yuritishga mablag‘i yetmaydigan smerdlarni **polovniklar** deyilardi. Polovniklar feodallardan qarz olib, ularning yerlarida ishlardilar. **Ogorodniklar** ham bo‘lib, ular feodallarning tomorqalarida ishlardilar. **Kochetniklar** (ko‘chmanchilar) baliqchilik bilan shug‘ullanardi. Eng huquqsiz omma **xoloplar** edi. Ular ko‘proq uy xo‘jaligida ishlardilar.

Davlat tuzumi bo‘yicha Novgorod ham, Pskov ham aristokratik respublika edi. Hokimiyat feodallarning yuqori qismi qo‘lida bo‘lib, ular respublika institutlaridan ustalik bilan foydalanardilar.

Novgorod va Pskovda rasman oliy hokimiyat organi **Veche** hisoblanardi. Unda faqat erkin va mulkdor kishilar qatnashar, boyarlar rahbarlik rolini o‘ynardilar. Vecheda barcha mansabdor shaxslar saylangan, urush va tinchlik, elchilar qabul qilish, soliqlar miqdorini belgilash, shahar, cherkov qurilishi, og‘irlik, uzunlik o‘lchov birliklarini o‘rnatish, oliy mansabdorlarni sud qilish, shuningdek, eng muhim jinoyat ishlarini ko‘rish kabi masalalar hal qilingan.

Lekin Novgorodda davlat hokimiyatining oliy organi amalda «Sovet gospod» - «Hukmronlar kengashi» edi. Unga Novgorod arxiyepiskopi, posadnik, mingboshi, sobiq posadniklar va mingboshilar va boshqa yirik yer

egalari kirgan. Bu organ Vecheda ko‘riladigan barcha masalalarni dastlab ko‘rib chiqib, Vechega tayyor qarorlarni taqdim etardi. Kengash harbiy ishlarga, moliyaga, tashqi aloqalarga rahbarlik qilar, mansabdor shaxslarni yo‘naltirib turar, vechega amaldorlar nomzodlarini taqdim etardi.

Novgorod va Pskovda oliy mansabdor shaxs **posadnik** edi. U respublika boshlig‘i hisoblanib, noma’lum muddatga saylanardi. Ikkinchi oliy mansabdor shaxs **mingboshi** edi. U urush vaqtida xalq lashkarlariga qo‘modonlik qilgan, tinchlik vaqtida savdo ishlarini yuritgan va savdo ishlari bo‘yicha sudni amalga oshirgan, shuningdek, politsiyachilik funksiyalarini ham bajargan.

Novgorod va Pskovda knyaz oliy mansabdor shaxslardan biri edi. Uning asosiy vazifasi Novgorod va Pskovni tashqi hujumlardan himoya qilish hisoblangan. Knyaz faoliyati ustidan posadnik nazorat qilardi. Knyaz shahar mudofaasini tashkil etish, ba’zi sud funksiyalarini amalga oshirish ishlarini hal qilgan. Knyaz vecheda ishtirok etib, boshqa davlatlar bilan shartnomalarni ishlab chiqishda, elchilar qabul qilishda qatnashardi. Veche knyazni haydab yuborishi mumkin edi.

Novgorod besh qismga, Pskov olti qism (kontsail)ga bo‘lingan. Ularning har birini vechesi chaqirilib turgan. Kontsa (konchan)lar ko‘chalarga bo‘linib, ularning oqsoqollari mavjud edi.

Novgorod va Pskovning butun hududi viloyatlarga (oblastlarga) bo‘lingan. Ular pyatinalar deyilib, konchanlardan biriga bo‘ysungan. Pyatinalar volostlarga, volostlar pogostlarga bo‘lingan.

Huquq manbalari: Rus haqiqati, odat huquqi, veche «hukmlar»i yoki qarorlari, boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar, knyazlar o‘rtasidagi shartnomalar va nihoyat qonunlar to‘plamlari - Novgorod va Pskov sud yorliqlaridir.

3. Oltin O‘rda davlati va huquqi (XIII-XV asrlar)

XIII asr boshlarida mo‘g‘ullar xoni Temuchin barcha mo‘g‘ul qabilalarini o‘z hokimiyatiga birlashtirdi. 1206 yildagi Qurultoyda u butun mo‘g‘ullar xoni - Chingizxon deb e’lon qilindi va Mo‘g‘iliston davlatiga asos soldi. Chingizxon ko‘p xalqlar va davlatlarga yurish qilib bosib oladi. U dastlab buryatlar, yoqutlar, uyg‘urlar va boshqa xalqlarni, keyin esa Shimoliy Xitoy va Koreyani, so‘ngra O‘rta Osiyo va Kavkaz ortini istilo qiladi. Undan keyin 1223 yilda qipchoqlar va ruslarga Kalka daryosi bo‘yida zarba beradi. 1227 yilda Chingizxon o‘limidan keyin hokimiyat uning o‘g‘illari o‘rtasida bo‘lib olinadi. Mo‘g‘ullar Botu boshchiligida 1237-

1238 yillarda Shimoliy-Sharqiy Rusni, 1239-40 yillarda Janubiy-G‘arbiy Rusni bosib oldilar. Keyin Botu qo‘shinlari Vengriya, Polsha, Chexiya va boshqa davlatlar hududiga kirib bordi, lekin holdan toyganligi uchun orqasiga qaytib, 1243 yilda Qipchoq dashtlarida Astraxan yaqinida Oltin O‘rda davlatiga asos soldilar. Uning poytaxti Saroy-Berka shahri bo‘ldi.

Oltin O‘rda tarkibiga Irtishdan Ural tog‘larigacha bo‘lgan yerlar, Janubiy qora dengiz dashtlari, Qrim, Kavkaz va O‘rta Osiyoning bir qismi kirdi. Rus knyazliklari unga vassal qaramlikda bo‘lib, o‘lpon to‘lab turgan. Oltin O‘rda 1502 yilgacha hukm surgan.

Oltin O‘rdada hukmron sinf ko‘chmanchilardan iborat edi. Yuqori tabaqalar: shahzodalar, xonning oila a’zolari va qarindoshlari hisoblangan. Ular eng yirik feodallar bo‘lib, katta chorvalar, yerlar va ko‘pdan-ko‘p qaram kishilarga egalik qilardi. Ulardan keyingi o‘rinda **beklar** va **no‘yonlar** turgan. Bulardan tashqari **tarxonlar -** savdogarlar ham imtiyozli tabaqa hisoblangan. **Navkarlar** mayda feodallar edi.

Ko‘chmanchi chorvadorlarning asosiy ommasi **qorachu - oddiy xalq** deyilgan. Ular no‘yonlar hokimiyati ostida bo‘lib, oilalari bilan yashab, yakka xo‘jalik yuritardilar, chorva solig‘i to‘lar va turli majburiyatlarni o‘tardilar.

Oltin O‘rda hokimligi ostidagi O‘rta Osiyo, Qrim, Quyi Pavolje va boshqa joylarda dehqonlar bo‘lib, ular **sabonchi** va **o‘rtoqchi** guruhlarga bo‘lingandi. **Sabonchi -** qishloq jamoachilari edi. **O‘rtoqchi** – kambag‘allashgan jamoa a’zolari bo‘lib, tutqunlik shartlarida feodallarning yerlarida ishlardilar. Oltin O‘rdada ko‘p sonli qullar ham mavjud edi.

Davlat tuzumi bo‘yicha Oltin O‘rda ilk feodal monarxiyasi shaklidagi davlat edi. Davlat birligi shakli syuzerenitet-vassalitet munosabatlariga asoslanardi.

Davlat tepasida xon turgan, u kuchli despotik hokimiyatga ega bo‘lgan. Muhim masalalarni hal etish uchun xon **Qurultoy** - feodallar syezdini chaqirardi. Unda shahzodalar, ya’ni xon urug‘i a’zolari, shuningdek, no‘yonlar va beklar ishtirok etardi, urush va tinchlik, xonni saylash va boshqaruv masalalari hal qilinardi.

Markaziy boshqaruv tepasida bevosita xonga bo‘ysunuvchi **ministr** turardi. U xon devonxonasiga, oshxona, otxona va ustaxonalariga boshchilik qilardi, devonlar - markaziy boshqaruv organlari rahbari hisoblanardi.

Davlat boshqaruvining alohida tarmoqlarini **devonlar** yuritgan. Ularning ichida soliqlar, o‘lponlar va majburiyatlarning tushishiga rahbarlik qiluvchi devon, ya’ni davlat xazinasi eng muhimi edi. Devonlarda bitoqchi-

lar, ya’ni kotiblar ish yuritardi. Davlat xazinasini yurituvchi kotib (bitoqchi) asosiy bitoqchi hisoblanardi. Oltin O‘rda qo‘shinlari tepasida **bakovul** turgan. U bevosita xonga bo‘ysungan. Bakovul qo‘shinlarni joylashtirish va ta’minlash, o‘ljalarni taqsimlash, oliy harbiy qo‘mondonlarni kuzatib turish vazifalarini amalga oshirardi. Bakovulga o‘g‘lonlar, ya’ni 100 ming kishilik qo‘shinning qo‘mondonlari, o‘g‘lonlarga esa - tumanbegilar, ya’ni o‘n ming lashkarga qo‘mondonlar bo‘ysunardi. Undan keyin mingboshilar, yuzboshilar va o‘nboshilar mavjud edi.

Butun Oltin O‘rda xonligi bir necha uluslarga bo‘lingandi. Ularning tepasida ulusbeklar - xonning noiblari turardi. Bu mansabga odatda shahzodalar tayinlanardi. Ular deyarli mustaqil edi. Uluslar amirliklarga bo‘linib, ularni amirlar boshqarardi.

Huquq manbalarini asosan **x**onning farmoyishlari va Buyuk Yasoq tashkil etgan. Buyuk Yasoq 1206 yilda Chingizxon buyrug‘i bilan tuzilgan. U mo‘g‘ul qonunlari va odatlari to‘plami hisoblanardi. Mo‘g‘ullar islomni qabul qilganlaridan keyin Oltin O‘rdada shariat huquqning asosiy manbai bo‘lib qoldi.

4. Markazlashgan Rus davlatining tashkil topishi va huquqning rivojlanishi (XIV asrning ikkinchi yarmi-XVI asrning birinchi yarmi)

XIV asrdan boshlab rus knyazliklari birlasha boshlaydi. Buning asosiy sabablari: birinchidan, rus yerliklari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, ikkinchidan, dehqonlarni jilovlab turish va ularning krepostnoylashuvini oxiriga yetkazish zaruriyati, uchinchidan, ayniqsa mo‘g‘ullarga qarshi kurashish, ularning hukmronligiga barham berish zarurati edi.

Markazlashgan davlat Moskva tevaragida tashkil topadi. Ma’lumki, XIII asrdan boshlab Moskva o‘zining doimiy knyaziga ega bo‘lgan mustaqil knyazlikka aylanadi. (Ilgari u Rostov-Suzdal knyazlarining kichik o‘g‘illariga udel sifatida berilardi). Bunday birinchi knyaz Aleksandr Nevskiyning o‘g‘li - Daniil edi. Uning knyazligi ostida XIII va XIV asrlar bo‘sag‘asida rus yerliklari birlasha boshladi. Daniilning ikkinchi o‘g‘li Ivan Kalita (1325-1340 yillar) davrida Moskvaning qudratiga asos solingan. Ivan Kalita tatarlardan buyuk knyazlik yorlig‘ini olishga muvaffaq bo‘ldi va barcha knyazliklardan tatarlar uchun o‘lpon to‘plash huquqini oldi. Moskva pravoslav cherkovining markazi bo‘lib qoldi. Mitropolit Vladimirdan Moskvaga ko‘chib keladi.

Buyuk knyazlar Moskva davlati hududini kengaytira borib, udellarni oddiy votchinalarga aylantirdilar. Udel knyazlari davlat boshlig‘i bo‘lmay, o‘z yerlarida boyarlarga aylandilar. Ular Moskva knyazlariga bo‘ysunardilar. 1380 yilda Dmitriy Donskiy Kulikovo maydonida tatarlarga qaqshatqich zarba berdi.

Ivan III davrida (1462-1505 yillar) rus yerliklarining birlashuvi oxirgi bosqichga kirdi. Moskvaga Buyuk Novgorod, Tver, Ryazan knyazligining bir qismi, Desnadagi yerlar birlashdi. 1480 yilda «Ugra»dagi mashhur jangdan so‘ng Rus mo‘g‘ullar zulmidan batamom xalos bo‘ldi.

Rus yerliklarining birlashishi jarayoni XVI asrning boshida tugadi. Knyaz Vasiliy III Moskvaga Ryazan knyazligining ikkinchi yarmini, Pskovni qo‘shib oldi, Smolenskni esa Litva knyazligidan ozod qildi.

Shu tariqa Moskva hokimligi barcha rus yerliklariga tarqaldi. Uning tarkibiga mordvalar, chuvashlar, korellar, nenetslar, udmurdlar va boshqalar ham kirdi. Ulardan ba’zilari assimilatsiya bo‘lib (aralashib) ketdi. Rusda markazlashgan davlat quyidagi hususiyatlari bilan G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan farq qiladi.

Rusda markazlashgan davlatning tashkil topishi xalqlarning (Buyuk rus, ukrain va belorus xalqlarining) tashkil topishiga olib keldi. G‘arbiy Yevropada esa bunday jarayon millatlarning shakllanishiga sababchi bo‘ldi. Rusda keyinchalik kapitalizm rivojlanishi bilan millatlar vujudga keldi va u ko‘p millatli davlat bo‘lib qoldi.

Ijtimoiy tuzumi

Jamiyatda feodallar: xizmatchi knyazlar, boyarlar, erkin xizmatchilar va boyarlarning bolalari, «saroy xizmati ostidagilarga» bo‘linadi. Xizmatchi knyazlar feodallarning yuqori qismini tashkil etadi. Ular sobiq udel knyazlari bo‘lib, Moskva davlatiga qo‘shilishi bilan mustaqilliklarini yo‘qotgan, lekin o‘z yerlariga egalik huquqini saqlab qolgan edilar. Ular qo‘shinlarda qo‘mondonlik lavozimlarini egallab, urushlarda o‘z drujinalari bilan ishtirok etardilar. Oqibatda ular boyarlar tabaqasi bilan qo‘shilib ketadi.

Boyarlar ham knyazchalar singari katta yer egalari bo‘lib, davlatda qo‘mondonlik lavozimlariga ega edilar. Erkin xizmatchilar va boyarlarning bolalari mayda va o‘rta feodallar hisoblanardi. Ular buyuk knyazga xizmat qilardi.

Feodallar o‘zlari ichidan o‘zlariga syuzeren saylash huquqiga ega edilar. Syuzeren bo‘lib ketgan vassal o‘z vatandoshlarini yo‘qotmadi. Shu sababli ba’zan boyarin boshqa yerda bo‘lib, uning yeri boshqa yerda bo‘lishi mumkin edi, gohida esa dushman yerida bo‘lib qolardi. Keyinchalik vasalllarning ketish huquqi cheklanib, hatto senordan ketish xiyonat

sanalardi. Saroy xizmatchilari eng quyi darajadagi feodallar edi. Ular ko‘proq knyaz xoloplaridan tashkil topardi. Vaqt o‘tishi bilan ba’zi xoloplar saroy va davlatda katta yoki kichik lavozimlarni egallab, knyazdan yerlar olar va shu tariqa feodallarga aylanardi.

XV asrda boyarlarning soni juda o‘sib ketdi. Chunki udel knyazlari o‘z boyarlari bilan buyuk knyaz xizmatiga kela boshlagan edilar. Boyarlik asta-sekin saroy mansabiga aylanardi. Boyar ilgari yirik feodal bo‘lgan bo‘lsa, endi buyuk knyaz taqdim qiladigan saroy mansabi bo‘lib qoladi. Bu ko‘proq buyuk knyazlarga xizmatga o‘tgan knyazlarga berilardi. Ikkinchi saroy mansabi okolnichiy mansabi edi. Bu mansabni ilgarigi (eski) boyarlar olardi. Saroy mansabini olmagan boyarlar boyarlarning bolalari va erkin xizmatchilarga aylanardi. Ilgarigi boyarlar buyuk knyazga doimo yordam berib turardilar. Endigi (yangi) boyarlar - sobiq udel knyazlari esa muxolifiyatda turgan. Shuning uchun ham buyuk knyazlar o‘zlariga tayanch axtara boshlaydilar. Bunday tayanch feodallarning yangi guruhi - dvoryanlar edi. Dvoryanlar avvalo «saroy xizmatchilari», udel knyazlari va yirik boyarlardan tashkil qilindi. Buyuk knyazlar, ayniqsa, Ivan III ko‘p erkin kishilarga va hatto xoloplarga harbiy hizmatlar evaziga pomeste yer egaliklari bera boshlaydilar. Dvoryanlar buyuk knyazga to‘la bog‘liq bo‘lib, uning sodiq tayanchi hisoblanardi. O‘z xizmatlari evaziga dvoryanlar yangi yerlar, dehqonlar olishga umid qilardilar. Dvoryanlar o‘sib, boyarlarning ta’siri esa kamayadi.

Feodallarga qaram aholi bu davrda dastlab sirota-yetimlar deb yuritilgan. XIV asrda uning o‘rniga krestyan (xristian so‘zidan olingan) degan nom paydo bo‘ldi. Lekin XV asrda hali ilgarigi smerdlar iborasi ham ishlatilardi. Dehqonlar ikki toifaga: qora majburiyatli va egalikdagi dehqonlarga bo‘lingan. Egalikdagi dehqonlar pomeshchiklar va votchinniklar yerlarida ishlab, o‘sha yerda yashaganlar. Qora majburiyatli dehqonlar feodallarga berilmagan boshqa yerlarda yashardilar. Bu yerlar bevosita knyazga tegishli edi. XV asrda qora majburiyatli dehqonlarni yerga biriktirish, egalikdagi dehqonlarni tobora krepostnoylashtirish jarayoni nihoyatda kuchaydi. Qora majburiyatli dehqonlar ma’lum knyazlikka biriktiriladi. Bu knyazlar o‘rtasidagi shartnomalar orqali amalga oshirilgan. Bunday shartnomalarga ko‘ra, begona majburiyatli kishilarni o‘z yerlariga qabul qilish mumkinmas qilib belgilandi. Krepostnoylashtirish esa dehqonlarni ma’lum votchina yoki pomestega, ya’ni yerga va uning egasiga biriktirish orqali yuz berardi. Dehqonlar o‘zlariga xo‘jayin tanlash, boshqa xo‘jayinga o‘tib ishlash huquqidan mahrum bo‘la bordilar. Buyuk knyazlar bir guruh dehqonlarni maxsus yorliqlar bilan egalariga biriktirib qo‘ya boshladilar.

Bunday dehqonlardan birinchisi - **starojiletslar** (tub aholi, bir joyda ko‘p vaqtdan yashab kelganlar) edi. Ular feodallarga hamda davlatga majburiyatlar o‘tab turardilar.

Novopodryadchiklar (yangi ijarachilar) ham mavjud edi. Ular ko‘pincha boshqa feodallardan qochib kelgan dehqonlar edi. Yangi ijarachi dehqonlar davlat majburiyatlaridan, ba’zi feodal majburiyatlaridan ham ozod qilingan edi. Ular odatda votchinnik yoki pomeshchikdan yordam yoki pul qarz olib turar va qarzlarini to‘lab bo‘lganlaridan so‘ng boshqa feodallarga o‘tib ishlash huquqiga ega bo‘lar edilar. Agar novopodryadchik bir yerda ko‘p yil yashab qolsa, u starojiletsga aylanardi.

Qaram kishilarning yana bir guruhini **serebrenniklar** tashkil etgan. Bular feodallardan «serebro» (kumush), ya’ni qarzga pul olib, unga ishlab berishlari lozim bo‘lgan dehqonlar edi. Foizlar juda yuqori bo‘lganligi uchun ularning qarzlarini to‘lashi juda og‘ir bo‘lgan. Serebrennik qarzini to‘lamagunicha xo‘jayinidan keta olmasdi.

Qaram kishilarning alohida guruhini **polovniklar** tashkil etardi. Ular buyuk knyaz yerlarida o‘z ot-ulovlari bilan ishlab, hosilning yarmini xo‘jayiniga berishi lozim bo‘lgan yeri yo‘q kambag‘al dehqonlar edi.

XV asr oxirida **bobillar** paydo bo‘ldi. Ular feodallardan turar joy, ba’zan yer olib ishlaydigan dehqonlar edi. Ularning yerlaridan soliq olinmasdi. Ular qishloq jamoasiga bog‘liq dehqonlar edi.

1497 yilgi Qonunnoma (Sudebnik) Yuriy kunini (26 noyabr) joriy qildi. Bunga ko‘ra dehqon o‘z xo‘jayinidan Yuriy kunidan bir hafta oldin va bir hafta keyingina ketishi mumkin edi. Buning uchun dehqon feodalga hovli uchun ijara puli sifatida to‘lov berishga majbur edi. Shu tariqa Rusda dehqonlarni umumdavlat miqyosida krepostnoylashtirish boshlangan edi.

Bu davrda xoloplarning ba’zilari feodallarga aylangan, ba’zilari yerga biriktirildi, ba’zilari erkinlikka chiqarildi. Albatta, xoloplar ham saqlanib qoldi. O‘zini xoloplikka sotish uchrab turardi. Xoloplar va dehqonlar orasidagi farq juda kamaygan edi. Shaharlarda knyaz hokimiyati vakillari, savdogarlar va hunarmandlar yashardi.

Davlat tuzumi

Moskva davlati ilk feodal monarxiyasi bo‘lib qolaverdi. Dastlab syuzerenitet-vassallitet munosabatlari mavjud edi. Keyinchalik markaz va joylar o‘rtasidagi munosabatlar immunitet yorliqlariga va shartnomalarga asoslanardi. Udel knyazlari buyuk knyazlardan xizmatlar evaziga yorliqlar olib unga bo‘ysunardi.

Davlat boshlig‘i buyuk knyaz hisoblangan. U katta huquqlarga ega bo‘lib, qonunlar chiqarar, davlat boshqaruviga rahbarlik qilar, sud vakolatlariga ega edi. Uning hokimiyati vaqt o‘tishi bilan kuchayib bordi.

Ayniqsa, Oltin O‘rda qulagandan so‘ng buyuk knyaz butun Rusning hukmdoriga aylandi. Ivan III va uning vorisi o‘zlariga podsho devonini olishga harakat qilgan.

Davlatning muhim organi **Boyarlar dumasi** hisoblangan. U Qadimgi Rusdagi Kengashdan o‘sib chiqqan. Boyarlar dumasining vakolatlari buyuk knyaz vakolatlariga mos tushgan. Lekin bu holat hech qayerda rasmiylashtirilmagan edi. Buyuk knyaz Boyarlar dumasi bilan hisoblashishi shart emas edi. Biroq, uning barcha qarorlari boyarlar tomonidan ma'qullanmasa, hayotga tadbiq qilinmasdi. Vaqt o‘tishi bilan buyuk knyaz Boyarlar dumasini o‘ziga bo‘ysundirdi.

Feodallar syezdlari ham xuddi ilgarigidek chaqirilib turardi. Ilgarigi saroy-votchina boshqaruvi o‘rniga asta-sekin yangi **prikaz (mahkama) boshqaruvi** vujudga keladi. Avvalo saroy-votchina boshqaruvi murakkablashtirilib, saroy chinlari doimiy xizmatga aylantirildi. XV asrning II yarmidan mahkama tizimi kelib chiqa boshlab, XVI asrning II yarmida rasmiylashtirildi. Shu vaqtdan boshlab «prikaz» atamasi ham o‘rnatildi.

Birinchi mahkama katta saroy prikazi va xazina prikazi edi. Ot-ulov xizmati maxsus prikazga aylanib, faqat knyazlarning shaxsiy xizmatlarini emas, dvoryanlar otliq qo‘shinlarining rivojlanishiga ham xizmat qiladigan bo‘ldi. XVI asrning boshida Razryad prikazi tashkil topib, xizmatchi kishilarni, ularning chinlari va mansablarini hisobga olish bilan shug‘ullandi.

Rus davlati uyezdlarga bo‘linib, ular stanlarga, stanlar volostlarga bo‘lindi. Biroq xali bir xildagi ma’muriy-hududiy birlik to‘liq ishlab chiqilmagandi. Ba’zi joylarda yerliklar (udellar) ham saqlanib qolgandi. Harbiy okruglar, gublar, sud okruglari ham saqlanib qoldi.

Huquq manbalari

Rus haqiqati huquqning asosiy manbai bo‘lib qolaverdi. Odat huquqi ham harakatda edi. Markazlashtirish maqsadida **ustav yorliqlari** ham chiqarildi. Bu davrning eng muhim huquq yodgorligi **1497 yilgi Sudebnik (Qonunnoma)** edi. U Rus davlatining yagona sud amaliyotini joriy qildi, yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soldi, mayda va o‘rta feodallar – dvoryanlar va boyarlarning bolalarining maydonga chiqishini rasmiylashtirdi. Ayniqsa, u dehqonlarni yoppasiga krepostnoylashtirishni boshlab berdi. Chunki unda Yuriy kuni joriy qilingan edi.

Rus haqiqati, Pskov sud yorlig‘i, Moskva knyazlarining keyingi qonunlari Sudebnikning manbalari edi. Qonunnomada asosan jinoyat va

jinoiy-huquqiy normalar mustahkamlangandi. U Rus haqiqatini bir qancha yangi normalar bilan boyitdi. Lekin fuqarolik huquqi va ayniqsa majburiyat huquqi borasida uncha batafsil normalar belgilanmagandi. Shu sababli Rus haqiqatining ba'zi normalari Sudebnik bilan bir qatorda harakatda bo‘ldi.

Mulk huquqining tartibga solinishi

Bu davrda mustaqil jamoa yer egaliklari deyarli yo‘qolib ketgan edi. Jamoa yerlari votchinniklar va pomeshchiklar qo‘liga o‘tadi, knyazlik yer egaligi mustahkamlanadi, votchina egasi unga deyarli cheklanmagan huquqlarda egalik qiladi. U votchinaga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish, ya'ni sotish, hadya qilish, meros qilib o‘tkazish huquqiga ega edi. Shu bilan birga votchina shartli yer egaligi edi. Chunki knyaz o‘zidan ketgan vassalning yerini qaytarib olishi mumkin edi.

Pomeste esa aniq ko‘rinishdagi shartli yer egaligi bo‘lgan. Chunki u senorlar tomonidan vassallarga xizmat davrida mukofot tariqasida berilardi. Shu sababli pomeshchik uni tasarruf etishi mumkin emasdi.

Buyuk knyazlik domeni qora majburiyatli va saroy yerlariga bo‘lingan. Qora majburiyatli dehqonlar pul rentasi to‘lardilar va umumdavlat chinovniklariga bo‘ysunardilar. Saroy dehqonlari barshchina o‘tar yoki natural obrok to‘lardilar. Ular saroy hokimiyati vakillari tomonidan boshqarilardi. Domen yerlari sekin-asta buyuk knyazlar tomonidan votchina va pomeste sifatida taqsimlangandi.

Majburiyat huquqi

1497 yilgi Qonunnoma shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarga Rus haqiqatiga qaraganda kam o‘rin ajratdi. Qarz haqida faqat bitta moddada gapirilgan edi. Bunda qarzini to‘lay olmagan qarzdorning majburiyati haqida gapirilib, bunday norma Rus haqiqatida ham mavjud edi. Qonunnomada oldi-sotdi va shaxsiy ijara shartnomalari haqida ham eslab o‘tilgandi.

Meros huquqi

1497 yilgi Qonunnoma Rus haqiqatiga qaraganda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni ancha aniq ko‘rsatib beradi.

Bunda kam o‘zgarishlar yuz berdi. Lekin Qonunnoma meros huquqida ancha umumiy va aniq normalar o‘rnatgan. O‘g‘illar qonuniy merosxo‘rlar hisoblangan,ular bo‘lmasa qizlar ham yer olishi mumkin edi. Agar qizlar bo‘lmasa, meros yaqin qarindoshlarga o‘tgan.

Jinoyat huquqi

Bu davrda jinoyat huquqi ancha taraqqiy qildi. Bu 1497 yilgi Qonunnomaning chiqarilishi bilan bog‘liq edi. Unda jinoyatga ancha aniq tushuncha berildi. Davlat yoki hukmron sinfga tajovuz qiluvchi har qanday harakatlarga jinoyat deb tu-

shunilgan. Jinoyat atamasini qo‘llab Qonunnoma Pskov sud yorlig‘idan farq qiladi. Unda «yomon ish» (lixoe delo-yomon, yovuz ish) jinoyat deb tushunilgan.

Jinoyat subyekti borasida ham Qonunnoma Rus haqiqatidan ilgarila-di. Xolopga endi jinoyatning subyekti sifatida qaraladigan bo‘ldi, ya’ni endilikda u o‘z harakati va jinoyati uchun mustaqil javob beradigan bo‘ldi. Qonunnoma Rus haqiqatiga ma’lum bo‘lmagan, Pskov sud yorlig‘ida faqat eslab o‘tilgan jinoyatlarning turlarini kiritdi. Masalan, davlat jinoyatlaridan «isyon» va «qo‘zg‘olon» degan tushunchalar paydo bo‘ldi. Isyon deganda asosan boyarlarning buyuk knyazlardan boshqa knyazlarga o‘tib ishlashi tushunilgan. Masalan, Tver yilnomasida eslatilishicha, 1485 yilda Tverdan Moskva buyuk knyaziga o‘tib ketgan knyazlar va boyarlarni isyonchilar (kramolniki) deb e’lon qilingan. Davlatga qarshi jinoyatlar uchun o‘lim jazosi o‘rnatildi.

Qonun mulkiy jinoyatlarning rivojlangan tizimini nazarda tutadi. Bularga bosqinchilik (qaroqchilik, talonchilik), o‘g‘rilik, begona mulkni yo‘q qilish va unga zarar yetkazish kabilar kirgan. Bular uchun qattiq jazolar berilgan. Qonunnoma shaxsga qarshi jinoyatlardan odam o‘ldirish, harakat va so‘z bilan haqorat qilish kabilarni ko‘rsatadi.

Qonunnoma jazolarning maqsadi va tizimi borasida ham ancha o‘zgarishlar yasadi. Ilgari xazina uchun muhim daromad sifatida vira (xun haqi, tovon) va sotishni ko‘zda tutuvchi normalar ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, endi birinchi o‘ringa boshqa manfaatlar chiqdi. Hukmron sinf ekspluatatsiya qilinuvchi ommaning qarshiligini bostirish uchun terroristik usullar qo‘llay boshladi. Jazoning maqsadi sifatida qo‘rqitish birinchi o‘ringa chiqarildi. Agar ilgari mulkiy jazolar asosiy hisoblangan bo‘lsa, endi u keyinga surib qo‘yildi. Qonunnoma o‘limga mahkum etish va savdo qatli deb atalgan yangi jazolarni joriy qildi va bular ko‘p jinoyatlar uchun qo‘llanildi. Qonun o‘lim jazosi turlarini ko‘zda tutmaydi. Tajribada o‘lim jazosining ko‘pgina turlari mavjud edi. Masalan, osish, kallasini kesish, suvga cho‘ktirish va boshqalar. Savdo qatli shunday ediki, bunga ko‘ra, ayblanuvchi savdo maydonida qamchi bilan savalangan, bu ko‘pincha uning o‘limiga olib kelgan. Sotish jazosi ham bo‘lgan, lekin kam qo‘llanilgan. Sudebnikda ozodlikdan mahrum qilish va tana a’zolariga shikast yetkazish (ko‘zini o‘yish, tilini kesish) kabi jazolar ham nazarda tutiladi.

Sud jarayoni

Bu davrda tortishuvchilik jarayoni yanada rivojlandi va sud ish yuritishining yangi shakli - qidiruv paydo bo‘ldi. Tortishuv jarayonida ish da’vogarning arznoma deb ataluvchi shikoyati bilan boshlangan. Arznoma odatda og‘zaki beril-

gan. Sud arznomani olgandan keyin javobgarni sudga olib kelish choralarini ko‘rgan. Javobgarni kafil bo‘lganlar sudga olib kelganlar. Javobgar sudga kelmasa muhokamasiz yutqazgan. Bunda da’vogarga «sudsiz yorliq» berilgan. Agar da’vogar sudga kelmasa ish tugatilgan.

Sud jarayonida tomonlarning shaxsan tan olishligi, guvohlarning ko‘rsatmalari, sud dueli, hujjatlar (shartnomalar, rasmiy yorliqlar), qasam dalillar bo‘lib hisoblangan. Tomonlar duelga chiqib, kim yutsa o‘sha ishda ham yutgan, dueldan qochsa yutqazgan. Duel uchun odam yollash ham mumkin edi.

Bu davrda qidiruv jarayoni paydo bo‘lgan. Bunda sudning o‘zi ish qo‘zg‘atgan, yuritgan va o‘z tashabbusi bilan uni tugatgan. Sudlanuvchi ko‘proq jarayon obyekti bo‘lib qolardi. Haqiqatni bilish uchun «qiynoqqa solish» asosiy vosita edi.

Sud poshlinalari ham o‘rnatilgandi. Da’vogar da’vo summasining 6 foizini sudyaga - boyarga to‘lashi lozim edi. Bundan tashqari dyakka ham alohida haq to‘langan.

5. Rossiyada tabaqa-vakillik monarxiyasi (XVI asrning o‘rtalari-XVII asrning o‘rtalari)

Yuz yildan ortiq davom etgan bu davrda Qozon, Astraxan va Sibir xonliklari tugatilib, ularning hududi-quyi va o‘rta Povolje, shuningdek, Sibir Rossiya tarkibiga qo‘shib olindi. 1654 yilda esa chap qirg‘oq Ukraina Rossiyaga qaytadan qo‘shib olindi.

Dehqonlar va xoloplarning ekspluatatsiya qilishning kuchayishi Ivan Bolotnikov boshchiligidagi urushni keltirib chiqardi. Livoniya urushi va oprichnina mamlakatga katta talofat keltirdi. Ayniqsa polyak-shved interventsiyasi ahvolni yanada murakkablashtirdi.

Chet el bosqinchilarining haydab yuborilishi natijasida xo‘jalik ko‘tarila boshladi. Biroq iqtisodiy qiyinchiliklar uzoq saqlanib turdi.

XVI asrning oxirlaridan dehqonlarni krepostnoylashtirish borasida hal qiluvchi qadam qo‘yildi. Maxsus farmon bilan «taqiqlangan yillar» joriy qilindi. Bu davrda dehqonlarning o‘z yerlaridan ketishi taqiqlandi. 1597 yil oxirida esa «tayin yillar» belgilash to‘g‘risida farmon chiqarildi. Unga binoan o‘z pomeshchigidan qochib ketgan va ro‘yxat daftariga kiritilgan dehqonlarni qidirib topishning 5 yillik muddati o‘rnatildi va bu tartib 1649 yilgacha saqlanib qoldi. Bu holat boyarlarga - yirik votchinniklarga dehqonlarni o‘z tomonlariga og‘dirish imkoniyatini berardi. 1649 yilgi Sobor qonunlari "tayin yillar" ni bekor qilib, dehqonlarning

krepostnoylashtirilishini batamom oxiriga yetkazdi. Endilikda dehqonlarni qidirib topish muddatsiz bo‘lib qoldi.

Bu davrda hukmron tabaqalar ichida kuchli ziddiyatlar bo‘lib turdi. Monarxlar va ularning tarafdorlari bilan boyarlar o‘rtasida qattiq kurash ketardi. Boyarlar davlatning markazlashtirilishiga qarshi kurashdilar. Monarxlar boyarlarga qarshi kurashda dvoryanlarga va shaharliklarning yuqori qismiga tayandilar. Tabaqa-vakillik monarxiyasi markazlashgan davlatni mustahkamlash uchun kurash natijasida vujudga kelgan edi.

Chet el bosqinchilari haydab yuborilganidan so‘ng mamlakat ham iqtisodiy, ham siyosiy mustahkamlana boshladi. Yangi podshoni saylagan 1613 yilgi Zemskiy (Umumdavlat) soboridan boshlab Rossiya davlati asta-sekin mustahkamlana boshladi. XVII asrning o‘rtalariga kelib u yanada qudratli va kuchli bo‘lib qoldi.

Ijtimoiy tuzumdagi o`zgarishlar

Bu davrda feodal munosabatlar juda taraqqiy etib, dehqonlarning krepostnoylashtirilishi oxiriga yetkazildi. Xo‘jalikning barshchina tizimi rivojlandi. Dehqonlar barshchinadan tashqari qator boshqa majburiyatlarni ham o‘tardilar.

Oprichnina sobiq udel knyazlarining iqtisodiy qudratini sindirdi, podshoning yer egaligi o‘sdi, asta-sekin pomeste yer egaligining ahamiyati o‘sib bordi.

XVII asrda manufaktura ishlab chiqarishi paydo bo‘lib, rivojlana boshladi. Shaharlar o‘sib, posad aholisining roli kuchayib bordi, savdo taraqqiy etdi.

Podsho eng birinchi yirik yer egasi hisoblanardi. Oprichnina podshoning iqtisodiy qudratini yanada oshirdi. Boyarlardan juda ko‘p yerlar tortib olindi va dvoryanlarga pomeste tariqasida berila boshlandi. Sobiq udel knyazlari oprichninagacha yirik feodal edilar. Shuningdek mamlakatda yirik va o‘rta boyarlar ham mavjud edi.

Oprichnina. U Ivan IV tomonidan joriy etildi. Bu «oprich», «boshqa», «alohida» so‘zidan olingan bo‘lib, alohida meros mulk degan ma’noni anglatadi. Davlat oprichnina va zemshchinadan iborat ikki qismga bo‘lindi. Oprichninaga yirik boyarlarning votchinalari, Moskva janubidagi yerlar kiritildi. Markazlashtirishning dushmani bo‘lgan sobiq knyazlar va boyarlar bu yerlardan haydalib, ularning mulklari pomeshchiklarga, oprichninadagi harbiy xizmat egalariga bo‘lib berildi. Haydalgan boyarlarga zemshchinadan yer berilgan. Xoinlikda ayblangan boyarlarning mulki tortib olindi.

Dvoryanlar va boyar bolalari boshqarish ishlariga jalb etildi. Ko‘pgina qora so‘qachi va saroy yerlari ham dvoryanlar qo‘liga o‘tdi. Ivan IV dvoryanlarga tayanib, zemshchinadagi yerlardan yangidan-yangi rayonlar tuzib oprichninaga o‘tkazardi. Hukmron tabaqalar tarkibiga ruhoniylar ham kirardi. Cherkov katta yer mulkiga va boshqa ko‘p boyliklarga egalik qilardi.

Oprichnina yillarida oprichniklar deb atalgan dvoryanlar guruhi tashkil topdi. Podsho ular orqali boyarlarga va sobiq udel knyazlariga nisbatan oprichnina terrorini o‘tkazdi. Oprichniklar yer olishda katta imtiyozlardan foydalanib, ya’ni ko‘proq, yaxshiroq yerlar oldilar.

Feodallarga qaram aholi. Dehqonlar ilgarigidek qora so‘qachi (majburiyatli) va xususiy egalikdagi dehqonlarga bo‘linadi. Livoniya urushi va oprichnina dehqon xo‘jaliklarini vayron qildi. Dehqonlar o‘z yerlarini, xo‘jayinlarini tashlab, yaxshi yerlar izlab ommaviy qochib keta boshladilar. Buning oldini olish maqsadida krepostnoylik o‘rnatildi.

Bu davrda xoloplik hali saqlanib qoldi. Tutqunlikka tushgan kishilar (kabalnыe lyudi) deb ataluvchi qaram kishilarning yangi toifasi rivojlandi. Yeridan ajralgan erkin dehqonlar tutqunlikka tushardi. Bu maxsus yorliqlar bilan mustahkamlandi.

Tabaqa-vakillik monarxiyasi davrida shaharlar, hunarmandchilik, savdo o‘sishda davom etdi. Shahar aholisining soni ancha ko‘paydi, ular posadga biriktirib qo‘yildi. Posadning yuqori qismini yirik savdogarlar tashkil etgan. Posadning asosiy ommasi mayda savdogarlar va hunarmandlar bo‘lib, ular turli majburiyatlarni o‘tardilar. Shaharda yana saroy, feodallarning qasrlari, monastirlar, albatta, xoloplar va dehqonlar ham mavjud edi.

Davlat tuzumi

XVI asr o‘rtasida Rossiyada ilk feodal monarxiyasi o‘rniga tabaqa-vakillik monarxiyasi keldi.

Tabaqa-vakillik monarxiyasining kelib chiqishiga sabab, samoderjavie o‘rnatishga harakat qilgan, lekin hokimiyatni Boyarlar dumasi bilan bo‘lib olishga majbur bo‘lgan monarx hokimiyatining nisbatan kuchsizligi bo‘ldi. Chorizmning Boyarlar dumasiga qarshi o‘laroq, davlat boshqaruviga dvoryanlarni va shaharliklarning yuqori qismini jalb etish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Podsho Ivan IV boyarlarga qarshi kurash olib borib, Boyarlar dumasiga ishonmay, ko‘proq «Yaqin duma»ga tayandi. «Yaqin duma»ga podshoga eng yaqin kishilar kiritildi. Podsho asosan shular bilan maslahatlashardi. Bu vaqtda Boyarlar dumasining ham tarkibi ancha o‘zgardi. Uning ba’zi a’zolari - eski boyarlar qatl etildi yoki haydaldi. Ularning o‘rniga Dumaga podshoning qarindoshlari va uncha taniqli bo‘lmagan dvoryanlar,

dyaklar (qadimgi Rusda knyaz kotibi, keyinroq - amaldor) kiritildi. Oprichnina terrori ham Duma roliga ta’sir etdi. O‘sha vaqtda podshoga va uning oprichniklariga qarshi chiqish juda xavfli edi.

Ivan IV ning samoderjavie - mutlaq monarxiya o‘rnatishga urinishi amalga oshmay qoldi. Bunga Boyarlar dumasi xalaqit berdi. Lekin har qalay u Boyarlar dumasining roziligisiz boyarlarni sud qilish va qatl etish huquqini qo‘lga kiritib oldi. Xalq harakatining o‘sishidan qo‘rqqan Boyarlar dumasi buni tan olishga majbur bo‘lgan edi.

Oprichnina joriy qilingandan keyin davlat tuzumida vaqtincha ba’zi o‘zgarishlar yuz berdi. Hokimiyat va boshqaruvning ikki tizimi tashkil etildi. Zemshchinada hamma narsa ilgarigidek qoldi, ya’ni Boyarlar dumasi davlat hokimiyatining oliy organi bo‘lib qolaverdi. U hokimiyatni podsho bilan bo‘lib olgan edi. Oprichninada esa podsho amalda cheklanmagan hokimiyatga ega edi. Bu yerda davlat organlarining maxsus tizimi: oprichnina dumasi, maxsus oprichnina prikazlari (mahkamalari), oprichnina qo‘shini, oprichnina xazinasi tashkil etildi. Oprichnina dumasi Boyarlar dumasini nazorat qilib, uning huquqlarini ancha chekladi.

Biroq, davlat to‘ntarishiga harakat amalga oshmay qoldi. Terror shunga olib keldiki, nafaqat muxolifatchi boyarlar, balki ko‘pgina dvoryanlar ham qatl etildi. Masalan, oprichnina tashabbuskorlaridan biri Basmanov ham davlatga xiyonat uchun qatl etildi.

Ammo oprichnina terrori boyarlar aristokratiyasining muxolifiyatini tugata olmadi. Ruhoniylar ham terrorga qarshi chiqdilar. Mitropolit Filipp xalq oldida ochiqdan-ochiq oprichninaning bekor qilinishini talab qildi. Podsho Cherkov sobori orqali uni o‘limga mahkum etish haqida qaror chiqarilishiga erishadi. Keyin Ivan IV bu jazoni umrbod monastir turmasi bilan almashtirgan edi. Shu bilan birga podsho oprichninani bekor qilishga majbur bo‘ldi. Chunki endilikda barcha hukmron tabaqalar - boyarlar, ruhoniylar, dvoryanlar bundan norozi bo‘la boshlagan edilar.

Oprichnina shunga olib keldiki, u dastlab boyarlar aristokratiyasini kuchsizlantirdi va podsho hokimiyatini mustahkamladi. Lekin, ayni vaqtda oprichnina terrori ishlab chiqaruvchi kuchlarni juda izdan chiqardi. Oprichnina dvoryanlarni siyosiy yuksaltirdi. Biroq, Boyarlar dumasining davlat hokimiyatining oliy organi sifatidagi ahamiyatini tugata olmadi.

Zemstvo soborlari

Bu davrning o‘ziga xos organi Zemstvo (Umumdavlat) soborlari edi. Ularning chaqirilishiga asosiy sabab sinfiy kurashning keskinlashishi bo‘ldi. Shunday paytlarda davlat boshqaruviga faqat boyarlarnigina emas, shuningdek dvoryanlarni, posad aholisini, ba’zan hatto davlat dehqonlarini, o‘qchi

askarlar, kazaklar (bular 1613 yilgi Zemstvo soborida qatnashgan edilar)ni ham jalb qilishga to‘g‘ri keldi.

Zemstvo soborlari sinfiy kurash juda keskinlashgan paytlarda tinchlik, urush, interventlarni haydash, iqtisodiy vayronagarchiliklarni bartaraf qilish uchun mablag‘lar qidirish haqidagi masalalarni hal etish uchun chaqirilardi.

Rossiyada ilk marta 1549 yilda tabaqalar (toifalar) kengashi bo‘lmish Zemstvo sobori ta’sis etilgan (chaqirilgan) edi. Bu Moskva shahar aholisining qo‘zg‘olonidan qo‘rqqan hukmron doiralarning (podsho va feodallarning) birdan-bir chorasi edi. «Murosa sobori» deb atalgan bu yig‘inda podsho boyarlarni, yepiskoplarni va dvoryanlarni yig‘ib, o‘z nutqida boyarlarni ayblaydi va kengash ishtirokchilarini hamkorlikka chaqiradi. Keyinchalik Zemstvo soborida shaharning yuqori tabaqa vakillari ham qatnashadigan bo‘ldi. Hukumat davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ishlarni Zemstvo soborining ijozati bilan hal etadigan bo‘ldi. Boyarlar dumasi Zemstvo soborining tarkibiga kiritilgan bo‘lsada, ammo bunda hal qiluvchi rol o‘ynay olmas edi.

Zemstvo soborlari chaqirila boshlashi bilan Rossiya davlati dvoryanlar va shaharliklarga tayanib ish ko‘ruvchi tabaqa vakillari monarxiyasi bo‘lib qoldi. Zemstvo soborlariga podsho, Boyarlar dumasi, ruhoniylarning yuqori qismi (Muqaddas sobor) to‘liq tarkibda kirdi. Ular xuddi yuqori palata sifatida edi. Ularning a’zolari saylanmagan, balki ijtimoiy mavqeiga qarab ishtirok etgan.

Quyi palatani dvoryanlardan, dyaklardan, shahar (posad) aholisining yuqori qismi (savdogarlar)dan saylangan kishilar tashkil etgan. Zemstvo soborlari ko‘p hollarda podshoning tashabbusi bilan chaqirilardi. Ularning podshosiz yig‘ilgan paytlari ham bo‘lgan. Boyarlar va ruhoniylar, odatda alohida majlis o‘tkazardilar. Soborlarning qarorlari maxsus bayonnomalarda rasmiylashtirilar, podsho, patriarx (1589 yilgacha mitropolit) va oliy mansablar muhrlari bilan mustahkamlanardi.

Zemstvo sobori maslahatchi organ emas, balki davlat hokimiyatining oliy organi edi. XVII asrning 20 yillaridan Zemstvo soborlari tobora kam chaqiriladigan bo‘ldi, podsho hokimiyati kuchayib bordi.

XVI asrning o‘rtasidan markaziy davlat boshqaruv organlari - **prikaz (mahkama)** tizimi yanada taraqqiy etdi va uzil-kesil qaror topdi. Ayniqsa, XVII asrda keng tarmoqli mahkamalar tizimi tashkil etildi. Bu davrda davlat mexanizmi juda murakkablashdi.

Ma’lumki, dastlab o‘qchilarga rahbarlik qiluvchi **O‘qchilik mahkamasi** tuzilgan, shuningdek, yomon kishilar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘ruvchi

Qaroqchilik mahkamasi va taftish organi bo‘lgan **Arz-shikoyat mahkamasi** tashkil etilgandi. Boyarlar va dvoryanlardan iborat otliqlarning shaxsiy tarkibi **Razryad mahkamasi** tomonidan yuritilardi. Mahkama xizmatlarga tayinlash, mansablarga o‘rnashish hollarining hammasini qayd etib turardi. Shuningdek, kazak qo‘shinlarini **Kazachiy mahkama** yuritardi.

Xizmatchi dvoryanlarning pomeste yer egaligini yurituvchi **Pomeste mahkamasi** ham mavjud edi. U dvoryanlarning harbiy xizmatlari evaziga pomeste bilan ta'minlanishini kuzatib turar, ya’ni bularni o‘rnatilgan normalarda bo‘lishini nazorat qilardi. Mahkama yerlarni ro‘yxatga olish, chet el bosqinchiligi davrida pomeshchiklarning buzilgan huquqlarini tiklash ishlarini amalga oshirgan, dehqonlarning pomestelardan qochishiga qarshi faol kurash olib borgan. Uning apparatida maxsus izquvarlari bo‘lib, ular qochoq dehqonlarni izlash bilan shug‘ullanganlar. Mahkamada ko‘p sonli dyaklar va ularning yordamchilari ham bo‘lgan.

XVII asr oxirida **sud mahkamalari** tizimi tashkil etiladi. Moskva, Vladimir, Dmitrov, Qozon mahkamalari va boshqalar shunday mahkamalar edi. Ular oliy sud organlari funksiyalarini bajarar, bevosita ancha muhim va murakkab ishlarni, shuningdek, mahalliy sudlarning qaror va hukmlari ustidan appelyatsion ishlarni ko‘rardilar. Keyinchalik barcha sud mahkamalari yagona sud mahkamasiga birlashtirildi.

1549 yilda rasman **Elchilik mahkamasi** tuzilgan. U tashqi siyosatni yuritgan. Bungacha tashqi siyosiy ishlar bilan Boyarlar dumasining Javob komissiyasi, xazinabon, saroybon kabilar shug‘ullanardi. XVI asrning II yarmida **Xoloplik mahkamasi** tashkil etildi. XVI asr o‘rtasida **mahalliy boshqaruvda islohotlar** o‘tkazildi.

Boqimandalik tizimi «guba» va zemstvo o‘zini o‘zi boshqarish bilan almashtirildi. Dvoryanlar va boyar bolalari guba organi boshlig‘i - guba oqsoqolini saylaydi. Bu mansab Qaroqchilik mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Mazkur mahkama, shuningdek, guba oqsoqolining huquq va majburiyatlarini tushuntiruvchi nakazlar ham berib turgan.

Shunday qilib, uyezdlarda «yomon kishilar» tomonidan qilinadigan «qaroqchilik ishlari» bilan shug‘ullanish noiblar (namestniklar) va volostlar ixtiyoridan olinib, boyar bolalaridan saylab qo‘yiladigan guba oqsoqollariga berildi. Guba oqsoqollari o‘z apparatlariga ega edi. U «selovalnik»lardan iborat edi. «Selovalnik»lar deyilishiga sabab ular bu mansabga sodiq xizmat qilish haqida qasam ichib, krest (xoch, but)ni o‘par edilar. Har bir guba organining maxsus devonxonasi - guba mahkamasi bo‘lib, unda ishlarni guba dyaki yuritardi. Dastlab guba oqsoqollari muddatsiz saylanardi, keyinroq saylovlar har yili o‘tadigan bo‘ldi. Guba

organlari odam o‘ldirish, bosqinchilik, o‘g‘irlik ishlarini ko‘rib hal qilish, turmalarni kuzatib turish ishlari bilan shug‘ullanardi.

50 yillardan boshlab **zemstvo islohoti** ham o‘tkazildi. Boqimandalar sud qilish va soliqlar yig‘ish huquqidan mahrum qilindi. Bu ishlarni boy shaharliklar va qora so‘qachi dehqonlardan saylab qo‘yiladigan «sara boshliqlar» va «selovalnik» lar olib boradigan bo‘ldi. Bulardan tashqari zemstvo mahkamalarida ish yurituvchi zemstvo dyaklari ham saylab qo‘yilardi.

Zemstvo organlari soliq va o‘lponlar yig‘ish, fuqarolik va mayda jinoiy ishlarni hal etish (ancha yirik ishlar guba organlari tomonidan hal etilgan) kabi ishlarni amalga oshirardi. Guba va zemstvo organlari ma’muriy va sud funksiyalarini ham bajarardi. Sud hali ma’muriyatdan ajratilmagan edi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarini Qaroqchilik mahkamasi ham va tegishli joylarda tashkil etilgan mahkama ham kuzatib turgan. «Guba» islohoti joylarda pomeshchiklar hokimiyatini mustahkamladi. Guba muassasalari tabaqa-vakillik organlari bo‘lib qoldi.

Zemstvo islohoti natijasida mamlakatning sud va moliya ishlarini markazlashtirish kuchaytirildi.

Ivan Bolotnikov boshchiligidagi dehqonlar urushi va chet el bosqinchiligi yillarida chorizm shunga amin bo‘ldiki, joylarda guba va zemstvo organlariga to‘liq ishonib bo‘lmas ekan. Shu sababli mazkur organ bilan bir qatorda **voevoda** mansabi ta’sis etildi. Voevoda boyarlar va dvoryanlar ichidan Razryad mahkamasi tomonidan tayinlangan va podsho hamda Boyarlar dumasi tomonidan tasdiqlangan. Voevoda qaysi shahar yoki uyezdda xizmat qilsa, o‘sha yer egasining buyrug‘iga bo‘ysunardi. Katta shaharlarda bir necha voevoda bo‘lib, lekin ulardan biri asosiysi edi. Boqimandalik tamoyili bekor qilinganligi uchun ular xazinadan maosh olardilar. Voevodaning eng asosiy vazifalaridan biri moliyaviy nazoratni ta’minlash edi. U yerlarni va barcha yer uchastkalaridan olinadigan daromadlarni hisobga olib turardi. Davlat soliqlarini yig‘ish bevosita saylab qo‘yiladigan oqsoqollar va «selovolnik»lar tomonidan amalga oshirilardi, lekin ularni voevodalar nazorat qilib turardilar.

Voevodaning yana bir muhim vazifasi dvoryan va boyar bolalaridan harbiy xizmatchilarni yig‘ish edi. Voevoda ularning ro‘yxatini tuzib, hisobga olgan, harbiy ko‘riklardan o‘tkazgan, xizmatga tayyorgarligini tekshirgan. Razryad mahkamasining talabi bilan voevoda harbiy xizmatchilarni xizmat o‘tash joylariga yuborgan. U shuningdek, o‘qchilar va to‘pchilarni ham boshqargan, qal'alarning holatini kuzatib turgan.

Voevoda huzurida maxsus ish yuritish mahkamasi bo‘lib, unga dyak boshchilik qilardi. Mahkamada shahar va uyezdni boshqarish bo‘yicha barcha ishlar amalga oshirilardi. Mahkamada juda ko‘p mayda chinovniklar - pristavlar (nazoratchilar), «nedelshik» lar, qorovullar bo‘lib, voevodaning buyruqlarini bajarardilar. Voevodaga asta-sekin guba va zemstvo organlari, ayniqsa harbiy va politsiya masalalarida bo‘ysuna borgan.

Huquqning rivojlanishi

Bu davrning muhim huquqiy yodgorligi 1550 yilgi Sudebnik (Qonunnoma) edi. Tarixda u podsho Qonunnomasi degan nom olgan. U 1497 yilgi Qonunnomaning yangi nashri hisoblanib, 1497 yildan 1550 yilgacha davrdagi Rossiya qonunchiligida yuz bergan o‘zgarishlarni aks ettirgan. Unda ko‘p yangi normalar paydo bo‘lgan. 1550 yilgi Qonunnoma namestniklarning huquqiy holatiga katta e’tibor bergan. Qonun hali boqimandalik tizimini bekor qilmagan bo‘lsada, namestniklarning ba’zi huquqlarini cheklagan. Yangi qonun bo‘yicha namestniklar birovga mulkiy zarar yetkazganliklari uchun javobgar bo‘ladigan bo‘ldilar. Ilgari bu yo‘q edi. Namestniklar sudidan dvoryanlar va xizmatchi kishilar ozod qilindi. Biroq odam o‘ldirish, bosqinchilik (qaroqchilik), o‘g‘rilik bo‘yicha ular ilgarigidek namestniklar tomonidan sud qilinardi.

1550 yilgi Qonunnomada qaram kishilarning huquqiy holati tartibga solindi, tutqunlik yorliqlarini rasmiylashtirish tartibi o‘rnatildi. Bunda qaram bo‘lishi mumkin bo‘lgan kishilarning yoshi, ijtimoiy ahvoli va boshqalar o‘rnatildi.

1550 yilgi Qonunnomada belgilanishicha, undan keyingi barcha qonunlar unga kiritilishi kerak edi. Bu juda muhim qoida bo‘ldi. Lekin amalda bunday qilinmadi. Yangi normalar Qonunnomaga kiritilmay, u bilan yonma-yon harakat qildi. Odatda yangi qonunlar qaysi mahkamaga taalluqli bo‘lsa, o‘sha mahkamaning kitobiga kiritilardi. Shu tariqa huquqning yana bir muhim manbai mahkamalarning ustav va buyruq kitoblari vujudga keldi. Masalan, bizgacha yetib kelgan Qaroqchilik mahkamasining kitobida jinoyat va protsessual huquqning muhim normalari o‘z aksini topdi, jumladan, jazolash, yoppasiga tintuv o‘tkazish haqida normalar belgilandi.

Bu davrning eng yirik qonunchilik yodgorligi **1649 yilgi Sobor qonunlari** bo‘ldi. Uning qabul qilinishiga bevosita turtki Moskva posad kishilarining 1648 yilgi qo‘zg‘oloni edi. Posad aholisi podshoga murojaat qilib, o‘z holatlarining yaxshilanishini va siquvlardan himoya qilinishini so‘raydi. Dvoryanlar ham boyarlardan himoya qilinishini so‘rab podshoga murojaat etadi. Podsho posadliklar qo‘zg‘olonini bostiradi, lekin ular

ahvolini biroz yaxshilashga majbur bo‘ladi va yangi qonun - «Ulojeniya» («Tuzuklar») ishlab chiqish haqida (1648 yil iyulda) buyruq beradi. Komissiya tuzilib, unga rais etib boyarin N.N.Odoyevskiy tayinlanadi.

1648 yil sentabrda Zemstvo Sobori ish boshlaydi. Unga boyarlar, ruhoniylar, dvoryanlar va savdogarlar kirgan edi. Dehqonlar va posadning majburiyatli qora kishilari unda ishtirok etmagandi. O‘z tarkibi, yo‘nalishi va vazifalari bo‘yicha Zemstvo sobori feodal krepostnoylik xarakteriga ega edi. «Tuzuklar» loyihasi palatalarda muhokama qilinib, ba’zi o‘zgarishlar bilan tasdiqlanadi va 1649 yil 29 yanvarda kuchga kiradi.

«Sobor qonunlari»ning qabul qilinishiga eng asosiy sabab ichki ziddiyatlarning keskinlashishi bo‘ldi. Podsho va hukmron tabaqalarning yuqori qismi posad aholisining qo‘zg‘olonidan cho‘chib, xalq ommasini tinchlantirish maqsadida go‘yo posad aholisining ahvolini yaxshilamoqchi bo‘ldi. Xuddi shu maqsadda Sobor qonunlari qabul qilindi. Sobor qonunlari 25 ta bob, 967 ta moddadan iborat edi. Unda ilgari harakatda bo‘lgan huquqiy normalar yuridik texnika jihatidan ancha yuqori darajada tizimga solinadi. Bundan tashqari asosan dvoryanlar va qora so‘qachi posadliklarning tazyiqi bilan qabul qilingan yangi normalar ham mavjud edi.

1649 yilgi Sobor qonunlarining qabul qilinishi ilgarigi qonunchilikka nisbatan olg‘a tashlangan muhim qadam bo‘ldi. Unda o‘sha vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlari tartibga solingan edi. Shu bois 1649 yilgi Sobor qonunlarida huquqning qator sohalariga oid normalar o‘z ifodasini topadi. Turli huquq sohalari ko‘pincha bitta bobda birlashtirilgan edi va hokazo.

Umuman Sobor qonunlari markazlashgan davlat boshqarmasi va podshoning samoderjaviye hokimiyatini mustahkamladi, siyosiy tarqoqlikning so‘nggi sarqitlariga barham berdi, dehqonlarning krepostniklarga qaramligini batamom rasmiylashtirdi, posad kishilarning ahvolini biroz o‘zgartirdi. Qonunlar krepostnoylik mazmunida bo‘lib, dvoryanlar g‘alabasini aks ettirardi. «Tayin yillar» bekor qilindi, qochoq dehqonlarni umr bo‘yi qidirish mumkin bo‘ldi. Dehqon va uning oilasigina emas, balki mol-mulki ham feodal mulki bo‘lib qoldi. Sobor qonunlari dehqonni yerga emas, balki «xo‘jayiniga» mahkamlab, biriktirib qo‘ydi. Qonunlar dvoryanlarga yer mulklarini votchina singari meros qilib qoldirish huquqini berdi, ammo o‘g‘illarining otasi kabi xizmat qilishlari shart qilib qo‘yildi, cherkov nazorat ostiga olindi. Shu maqsadda **Monastir mahkamasi** ta’sis etildi.

Posad kishilarining ham ahvoli o‘zgartirildi. «Oq joylar» yo‘qotildi, podshoga topshirildi, posad jamoasiga qo‘shilib majburiyatga jalb qilinadigan bo‘ldi. Podsho majburiyatlarini o‘taydigan posad kishilarigagina

savdo-sotiq bilan shug‘ullanishga ijozat berildi. Ammo shahar kamba-g‘allarining ahvoli battar yomonlashdi. Podsho majburiyatlaridan qochib qutulib bo‘lmas edi, dehqon feodalga biriktirilgani kabi posad kishilari ham o‘z jamoalariga biriktirib qo‘yilgandi. Qonunlardan faqat posadning yuqori tabaqalari yutdi xolos.

Fuqarolik huquqi

Qonunlarda feodallarning yerga egalik huquqlarini yanada mustahkamlash davom etdi. Feodal yer egaligining quyidagi uch asosiy turi mavjud edi:

1. Davlat mulki yoki bevosita podsho mulki. Bunga saroy yerlari, shuningdek, qora volostlarning yerlari kirdi. Qora volostlarning yerlarini podsho feodallarga xizmat evaziga taqsimlardi. Boyarlar va dvoryanlar yerga shartli egalik qilardilar. Ular davlatga, podshoga sidqidildan xizmat qilib turish sharti bilan yerga egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin edi.

2. Votchina yer egaligi. Bu pomestedan farq qilib, uning egasi nafaqat unga egalik qilgan va undan foydalangan, balki uni tasarruf etishi ham mumkin edi. Votchinalar meros qilib qoldirilgan. Votchinalarning uchta asosiy ko‘rinishi: a) nasliy (avloddan-avlodga o‘tib kelgan); b) xizmat evaziga olingan (in'om etilgan va boshqalar); v) sotib olingan votchinalar mavjud edi.

Qonunlarda nasliy votchinalarning soni kamaymasligi haqida g‘amxo‘rlik qilindi. Shu munosabat bilan nasliy votchinalarni sotib olish huquqi nazarda tutilgan. Agar feodal votchinani sotib yuborsa, uning qarindoshlari 40 yil ichida uni qayta sotib olish huquqiga ega bo‘ldilar.

3. Pomeste yer egaligi. Bu xizmatlar o‘tash, asosan harbiy xizmatlar evaziga berilgan. Pomeste miqdori xizmat o‘tayotgan shaxsning xizmat mavqeiga bog‘liq edi. Uni meros tariqasida o‘tkazilishi mumkin emasdi. Feodallar undan faqat xizmat o‘tab turgan davrda foydalanishlari mumkin edi.

Dastlab pomesteni ayirboshlash (almashtirish) taqiqlangan. Albatta, uni sotish ham mumkin emas edi. Biroq votchina va pomeste o‘rtasidagi farq sekin-asta yo‘qolib bordi. Garchi pomeste meros qilinishi mumkin bo‘lmasa ham, o‘g‘il agar xizmatga kirsa, uni olishi mumkin edi. Sobor qonunlari bo‘yicha, agar pomeshchik qariligi yoki kasalligi uchun xizmatni tark etsa, uning tul xotini va yosh bolalari «tirikchilik uchun» pomestedan bir qism olishlari mumkin edi. 1649 yilgi Sobor qonunlari pomestelarni votchinalarga almashtirishga ruxsat berdi. Bunday bitimlar quyidagi hollarda haqiqiy deb topilgan: birinchidan, tomonlar o‘zaro ayirboshlash

yozuvini tuzishlari, ikkinchidan, ular bu yozuvni podsho nomiga iltimosnoma bilan birga Pomeste mahkamasiga topshirishlari lozim edi.

Majburiyat huquqi. Bu davrda fuqarolik huquqining garov va topshiriq institutlari yanada rivojlandi. Qonunlar bo‘yicha agar qarzdor qarzini muddatida to‘lamasa, uning garovga qo‘ygan mulki garovga olgan kishiga o‘tardi. Bunda qarzning va garovga qo‘yilgan mulkning farqi hisobga olinmasdi. Ilgarigidek, oldi-sotdi, ayirboshlash, qarz, yuk tashish va boshqa shartnomalar keng tarqaldi.

Qonun shartnomalarni tuzish tartibini ko‘zda tutadi. Yirik summali shartnomalar maydonlarda maxsus amaldorlar tomonidan ikkitadan kam bo‘lmagan guvoh ishtirokida, kichikroq summali shartnomalar esa uy sharoitida tuzilardi. Qonun zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga e’tibor beradi.

Meros ilgarigidek vasiyat bo‘yicha va qonuniy tartibda qoldirildi. Merosxo‘rlar meros qoldiruvchining qarzlari uchun javob berishlari lozim edi.

Jinoyat huquqi

1497 yilgi Qonunnoma singari bu davrdagi qonunchilikda ham jinoyat deganda feodal jamiyat uchun xavfli bo‘lgan «yomon ishlar» tushunilgan. Jinoyatning umumiy tushunchasi hali ishlab chiqilmagan edi.

Sobor qonunlarida jinoyatning sinfiy mohiyati ancha aniq ifodalangan. Bir qancha jinoyatlar uchun jazolar belgilangan. Birinchi marta bu hujjatda harakatlarni qasddan, ehtiyotsizlikdan va tasodifan qilish mumkinligi bir-biridan ajratildi. Suiqasd uchun ham javobgarlik belgilandi. Bu birinchi navbatda davlatga qarshi jinoyatlarga taalluqli edi, albatta.

Birinchi marta Rossiya qonunchiligiga zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat tushunchalari kiritildi.

Ishtirokchilik instituti yanada rivojlantirildi. Qonun endi jinoyatning tashabbuschisini, ishtirokchisini, yordamchisini, yashiruvchisini ajratib ko‘rsatdi. Bular jinoyat huquqining umumiy qismiga oid yangi normalar edi.

Sobor qonunlari jinoyat huquqining maxsus qismiga oid juda ko‘p normalar belgiladi. Jinoyatlarning bir qancha ko‘rinishlari va turlarini o‘rnatdi. Bunda feodal-krepostnoylik tuzumiga xavf soluvchi jinoyatlarga qarshi kurashga katta e'tibor berildi. Qonunlarda cherkovga qarshi jinoyatlar birinchi o‘rinda turardi. Bularga Rossiya qonunchiligi tarixida birinchi marta maxsus bob ajratildi. Ikkinchi o‘rinda albatta davlatga qarshi jinoyatlar turardi. Bular: davlatga xiyonat, podshoning hayoti va sog‘lig‘iga tajovuzlar va boshqalardir. Podsho saroyi tartiblarini buzish, qalbaki

monetalar chiqarish, podsho muhrini qalbakilashtirish va boshqalar ham og‘ir jinoyatlar hisoblanardi.

Harbiy, mulkiy, shaxsga qarshi jinoyatlar haqida qonunlarda alohida normalar belgilandi. Lekin qonunlarda jinoyat huquqining umumiy qismi maxsus qismidan ajratilmadi. Ularda muayyan jinoyatlarning tarkiblarini tavsiflashga asosiy e'tibor qaratildi.

1649 yilgi Sobor qonunlarida jazoning aniq maqsadi qo‘rqitish edi. O‘lim jazosi keng qo‘llanildi. O‘lim jazosining oddiy turlari: kallasini kesish, osish, suvga cho‘ktirish; murakkab turlari: tiriklayin yerga ko‘mish (bu erini qasddan o‘ldirgan xotinga nisbatan qo‘llanilgan), yoqib yuborish, tomog‘iga eritilgan qalayi yoki qo‘rg‘oshin quyish, to‘rtga bo‘lib tashlash, charxpalakka tortib o‘ldirish kabilar edi.

Tana a’zolariga shikast yetkazish va og‘riq keltiruvchi jazolar: quloq, burun, qo‘llarini kesish, qamchi yoki tayoq bilan urish kabilar qo‘llanilgan. Endilikda qamoq va surgun jazolari ham vujudga kelgandi. Jarimalar kam qo‘llaniladigan bo‘ldi.

1649 yilgi Sobor qonunlarida odil sudlovni adolatli amalga oshirish lozim, deyilgandi. Albatta, bu quruq gap edi.

Fuqarolik jarayoni jinoiy jarayondan ajratib ko‘rsatilmagandi. Biroq jarayonning ikki shakli - tortishuvchilik (sud) va tergov (qidiruv) ajratib ko‘rsatilgan. Tergovning ahamiyati ortdi.

6. Rossiyada mutlaq yakka hokimlikning tashkil topishi va rivojlanishi (XVII asrning ikkinchi yarmi-XIX asrning o‘rtalari)

Rossiyada mutlaq yakka hokimiyatchilikning shakllanishi

Rossiyada mutlaq yakka hokimlikning tashkil topish vaqti va rivojlanish bosqichlari haqida olimlar o‘rtasida turlicha fikrlar mavjud. Ba’zilar Rossiyada mutlaq yakka hokimlik podsho o‘zini hokimi mutlaq (samoderjets) deb e’lon qilishi bilan tashkil topgan deb ko‘rsatishsa, boshqalar esa buni Ivan Grozniyning nomi bilan bog‘laydi. Shuningdek, ayrim olimlar Romanovning hokimiyat tepasiga kelishidan Rossiyada absolut monarxiya boshlangan deb e’tirof etadilar. Yana bir guruh olimlar Rossiyada absolut monarxiya 1649 yilgi Sobor qonunlari bilan o‘rnatilgan, deydilar. Va nihoyat, bir guruh olimlar XVIII asr boshlarida Petr I ning islohotlaridan so‘ng absolut monarxiya tashkil topgan deb ko‘rsatishadi.

Biroq, ko‘pchilik olimlar Rossiyada absolut monarxiya umuman XVII asrning II yarmida kelib chiqqan deb, bizningcha, to‘g‘ri ko‘rsatishadi. Chunki shu vaqtdan boshlab tabaqa-vakillik institutlari tugaydi va monarx hokimiyati haqiqatdan ham cheklanmaydigan bo‘lib qoladi.

Fanda absolut monarxiyaning mohiyati haqida ham tortishuvlar mavjud. Ba’zilar absolutizm boshqa samoderjavie boshqa deb ko‘rsatishadi. Samoderjavie deganda monarxning tashqi mustaqilligini, masalan, Oltin O‘rdadan uning suverenligini tushunishadi, absolutizm deganda esa monarxning ichki to‘la hokimiyatga ega ekanligini ko‘rsatishadi. Ana shu yerda V.I.Lenin fikrlari to‘g‘riligini aytib o‘tish kerak. U: «absolutizm», samoderjavie, «cheklanmagan monarxiya» iboralari sinonim so‘zlardir», deb ko‘rsatgan edi. Rossiyada absolut monarxiyaning tashkil topishining sabablari quyidagilardan iborat edi: birinchidan, dehqonlarning batamom krepostnoylashtirilishi, ularning hukmron tabaqalarga qarshi bosh ko‘tarib chiqishlari, jumladan Stepan Razin boshchiligidagi qo‘zg‘olon, shaharliklar qo‘zg‘oloni, shuningdek, Petr I davridagi xalq harakatlari hukmron tabaqalarni cho‘chitib qo‘ydi va ular bu harakatlarni bostirib tura oladigan kuchli, cheklanmagan podsho hokimiyatiga ehtiyoj sezib qolgan edi; ikkinchidan, Rossiyaga qo‘shni davlatlar (Recha Pospolita, Shvetsiya, Turkiya va boshqalar) tomonidan doimiy harbiy tahdidning mavjudligi absolut monarxiyaning tashkil topishini tezlashtiruvchi omil bo‘ldi.

Umuman Rossiyada absolutizmning vujudga kelishi qonuniyati Yevropadagi singari sanoat va savdoning rivojlanishi, burjua munosabatlarining tug‘ilishi, sinfiy ziddiyatlar va sinfiy kurashning o‘sishi, doimiy qo‘shinning, politsiyaning tashkil etilishi, byurokratik apparatning o‘sishi bo‘ldi.

Biroq Rossiya absolutizmining o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud edi. Bular Rossiyaning iqtisodiy qoloqligidan va unda krepostnoylik munosabatlarining hukmronligidan kelib chiqqan. Bu yerda burjua munosabatlari kuchsiz rivojlanishi natijasida dvoryanlar bilan shaharliklar o‘rtasida tengsizlik mavjud edi. Shaharliklarning burjua sinflariga aylanishiga hali ancha vaqt bor edi. Bu jarayon endigina boshlangandi. Shuningdek, rus samoderjaviesi krepostnoylik samoderjaviyasi bo‘ldi. Shuni hisobga olish kerakki, XVII asrdagi samoderjavie hali to‘la ma’nodagi samoderjavie emas edi, u hali tabaqa-vakillik monarxiyasi qoldiqlaridan xalos bo‘lmagandi. Cherkovning ahamiyati ham yuqori edi. Absolutizmning batamom o‘rnatilishi va shakllanishi XVIII asrning I choragi - Petr I davriga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, oxirgi Zemstvo Sobori 1653 yilda to‘plangan. Bundan keyin podsho faqat ayrim tabaqalarning vakillari bilan yig‘ilishlar o‘tkazib turgan. Boyarlar dumasi XVII asrning II yarmida ham hali mavjud edi, lekin juda ahamiyatsiz bo‘lib qolgan edi va Petr islohotlarining eng boshidayoq tugatilgandi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari - guba va zemstvo organlari ham tugatilgan. Cherkovning mavqei tushirilgan. Petr I patriarxlikni tugatdi. XVII asrning oxiridayoq monarx amalda cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘ldi.

Ijtimoiy tuzumdagi o`zgarishlar

Bu davrda tabaqalar yopiq, berk xarakter kasb eta boshladi. Ayniqsa past tabaqadagilarning yuqori tabaqaga kirishi deyarli mumkin bo‘lmay qoldi. Petr I davrida tabaqa tuzumida eng yirik islohotlar o‘tkazildi. Natijada butun aholi 4 tabaqa: shlyaxta (dvoryanlar), ruhoniylar, meshchanlar va dehqonlarga bo‘lindi Bular o‘lpon to‘laydiganlar va o‘lpon to‘lamaydiganlarga ajratilgan edi.

Shlyaxta (dvoryanlik)ning tashkil topishi. Samoderjaviyani tashkil etish kuchli sinfiy kurash sharoitida yuz beradi. Bu hukmron sinflarning birlashib ommaga qarshi kurashini talab qilardi. Lekin feodallar uncha birlashmagandi va turli guruhlarga bo‘linib ketgan (boyarlar, okolnichiylar, duma boyarlari va hakozo) hamda turlicha huquq va imtiyozlarga ega edi.

O‘rta va mayda feodallar yirik feodallar bilan huquqlarini tenglashtirish uchun kurash olib borardilar. Dvoryanlar boyarlar singari chor hukumatidan yaxshi va mustahkam yerlarni, yuqori mansablarni olishni istar edilar. Bu hukmron sinflar ichidagi kurash ularni kuchsizlantirar va samoderjavie uchun to‘g‘ri kelmasdi. Bundan tashqari, boyarlar va okolnichiylar ichida islohotlarga qarshi kayfiyatdagi reaksion kishilar ham mavjud edi. Bular Petr I ning barcha feodallarni tenglashtirishga qaratilgan islohotlar o‘tkazishga majbur qildi. Bu bilan u aristokratlar qarshiligini sindirib, o‘rta va mayda feodallarni o‘z tomoniga og‘dirishni maqsad qilib oldi.

Petr I hukmron sinfni turli huquqlardan foydalanuvchi turli guruhlarga bo‘linishini tugatdi. Uning o‘rniga bitta tabaqa - shlyaxtani yoki dvoryanlikni tashkil etib, ularga bir xildagi huquq va majburiyatlar o‘rnatdi. Bu bilan u hukmron sinflarni jipslashtirdi, ichki sinfiy kurashni kuchsizlantirdi. XVIII asrning II yarmidan shlyaxtachilik degan nom dvoryanlik degan yangi nom bilan almashtirildi.

Bu davrda dvoryanlarning huquqiy holatini belgilovchi qonun hujjatlari: 1714 yilgi «Yagona vorislik haqida»gi Farmon; 1722 yilgi «Rutbalar jadvali»; 1762 yilgi «Butun Rossiya dvoryanlariga erkinliklar berish haqi-

da»gi Manifest; 1785 yilgi Yekaterina II ning dvoryanlarga in'om yorlig‘i («Rossiya olijanob dvoryanlarining erkinliklari va imtiyozlari huquqi yorlig‘i»)dan iborat edi.

1714 yilgi «Yagona vorislik haqida»gi Farmon bo‘yicha pomeste huquqiy jihatdan votchinaga tenglashtiriladi. Hamma yerlar votchina hisoblanib, u nasldan-naslga meros bo‘lib o‘tadigan, xizmat evaziga olingan va sotib olingan turlarga bo‘lindi. Dvoryanlarning barcha yerlari ko‘chmas mulk deb e’lon qilindi.

To‘g‘ri, 1714 yilgi Farmon pomeshchikning egalik qilish huquqini bir muncha cheklar edi: yerni sotish va garovga qo‘yish, shuningdek, merosxo‘rlarga bo‘lib berish taqiqlanardi. Butun ko‘chmas mulk faqat merosxo‘rlardan biriga vasiyat qilinishi mumkin edi, xolos. Harakatdagi mol-mulklarni esa o‘g‘illar, qizlar va beva xotin olardi. Agar vasiyat bo‘lmasa yerlar katta o‘g‘ilga o‘tardi. Bu farmonni chiqarishdan ikkita maqsad ko‘zlangan: birinchidan, o‘lgan dvoryanning kichik o‘g‘illari merosdan mahrum bo‘lib, «o‘z nonini xizmat, bilim, savdo-sotiq va boshqalar orqali topishga» majbur bo‘lar edilar, shu tariqa hukumat dvoryanlardan zarur kadrlarga ega bo‘lishi mumkin edi; ikkinchidan, dvoryanlarning yer egaliklarining parchalanib ketishiga barham berildi. Bu esa davlatning manfaatlari bilan bog‘liq edi.

1731 yilda imperator Anna Ivanovna bu farmonni bekor qiladi. Yangi qonun bo‘yicha harkatsiz mulklar o‘g‘illar o‘rtasida teng taqsimlanadigan bo‘ldi. Lekin shunga qaramay pomeste va votchina egalarining huquqlari tengligi saqlanib qoldi.

1722 yilgi «Rutbalar jadvali» ham dvoryanlar tabaqasining jipslashishiga, shuningdek, dvoryanlar uchun xizmat o‘tashning yangi tartibini joriy etishga qaratilgan edi. Bunga ko‘ra, armiyada, flotda, fuqarolik va saroy xizmatidagi barcha mansablar pog‘ona yoki darajalarga bo‘lindi. «Rutbalar jadvali»ga binoan xizmat o‘tashda va mansabga o‘tirishda endi nasl-nasabga qarab emas, balki dvoryanlarning shaxsiy qobiliyatlari, bilimi va amaliy malakasiga qaraladigan bo‘ldi. Dvoryanlar xizmatni quyi mansablardan boshlab, xizmat zinapoyalaridan o‘tib, keyin yuqori mansablarga ega bo‘lishlari mumkin edi. Faqat maxsus o‘quv yurtlarini tugatganlar bundan istisno qilingan.

Fuqarolik xizmatida oliy mansab kansler mansabi edi, quyi darajadagi mansab esa kollegiya registratori edi. Harbiy xizmatda oliy mansab - fendrik, keyinroq esa praporshchik bo‘lgan.

«Rutbalar jadvali» boshqa tabaqalarga ham dvoryanlik darajasiga erishish imkonini berardi: ular fuqarolik xizmatida 8-darajani va harbiy

xizmatda 1-ofitser (ober ofitser) unvonini olib, avloddan-avlodga o‘tadigan dvoryanin bo‘lib qolar hamda bu tabaqaning hamma huquqlaridan foydalanar edilar. Yuqoridagi ikkala hujjat dvoryanlarning davlatdagi mavqeini mustahkamladi.

Ma’lumki, Petr I davrida barcha dvoryanlar 15 yoshidan boshlab qariguncha yoki sog‘ligini yo‘qotguncha majburiy tartibda harbiy xizmat o‘tashlari lozim edi. Anna Ivanovna harbiy xizmatga kirish yoshini 20 yoshdan qilib o‘rnatdi va uni 25 yillik muddat qilib belgiladi.

1762 yilda Petr III ***«Butunrossiya dvoryanlariga erkinliklar berish haqida Manifest»*** chiqardi. Bunga ko‘ra, dvoryanlar majburiy harbiy xizmatdan ozod qilindilar. Shu bilan birga dvoryanlar davlatga majburiy xizmat qilishdan ham ozod etildilar.

Yekaterina II ning ***1785 yilgi «Dvoryanlarga in'om yorlig‘i»*** dvoryanlarning barcha huquq va imtiyozlarini bitta hujjatda rasmiylashtirdi. Shu vaqtdan boshlab dvoryanlar Rossiyaning imtiyozli tabaqasi bo‘lib qoldi. Bu qonunga ko‘ra, dvoryanlar davlatga majburiy xizmatlardan, soliqlardan, turli majburiyatlardan, jumladan, rekrut yig‘imidan, tan jazolaridan ozod qilindilar. Dvoryanlik unvoni xotin va bolalarga o‘tadigan bo‘ldi. Dvoryanlar shaxsiy va mulkiy daxlsizlikdan foydalandilar. In'om yorlig‘iga asosan dvoryanlar podshoning tasdig‘idan o‘tgan sudlarning qarorisiz unvonidan, obro‘-e’tiboridan, hayotidan va mulkidan mahrum etilishi mumkin emasdi. Bunda faqat sudyalari dvoryanlardan bo‘lgan maxsus sudlargina dvoryanlarni sud qilishi mumkin edi. Dvoryanlar fabrika va zavodlarga egalik qilishlari mumkin bo‘ldi, shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish huquqini qo‘lga kiritdilar. Uyezd va guberna dvoryanlari mansabdor shaxslarni saylash va o‘z tabaqa ishlarini hal etish uchun har uch yilda uyezd va guberna dvoryanlar yig‘ilishiga to‘planib, o‘zlari ichidan boshliqlarini saylardilar.

Dvoryanlarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘zlarining pul jamg‘armalari va mulklariga ega bo‘lishlari mumkin edi. Dvoryanlar tabaqa ishlari bo‘yicha gubernatorga, Senatga va hatto podshoga murojaat qilishga haqli edi.

Ruhoniylar imtiyozli tabaqa bo‘lib, soliq va majburiyatlardan ozod qilindilar. Cherkov XVIII asrda katta miqdordagi yerlarga egalik qilardi. Rossiyadagi butun dehqonlarning beshdan bir qismi cherkovlar ixtiyorida edi. Ruhoniylar kuchli siyosiy mavqega ega edilar. Podsho hukumati cherkovni davlatga bo‘ysundirish choralarini ko‘rdi, uning mulkini davlat mulkiga aylantirdi (1764 yil).

Meshchanlar. XVIII asrning I yarmida shahar aholisining huquqiy holatini belgilovchi muhim qonunchilik hujjati 1721 yilda Petr I tomonidan chiqarilgan **«Bosh magistratga reglament»** edi. Unga koʻra, shahar aholisi ikki toifaga: shaharda doimiy va vaqtincha yashovchilarga boʻlindi.

Doimiy yashovchilarning oʻzi ham ikki gildiyaga boʻlingan. Birinchi gildiyaga bankirlar, yirik savdogarlar, vrachlar, aptekachilar, rassomlar va boshqalar kirgan. Ikkinchi gildiyaga mayda savdogarlar va hunarmandlar kirgan. Ikkala gildiya ma'lum darajada oʻzini oʻzi boshqarish huquqidan foydalangan. Ular oʻzlarining yigʻilishlariga yigʻilib, muhim masalalarni hal qilganlar, oʻz a'zolari ichida pul yigʻimlarini oʻrnatganlar, mansabdor shaxslarni - oqsoqollar va ularning yordamchilarini saylaganlar.

Hunarmandlar ham sexlarga boʻlinib, sexlar tepasida saylab qoʻyilgan - aldermanlar turardi. Aldermanlar hunarmandchilik buyumlarining sifatini kuzatib turganlar, soliqlar va majburiyatlarni taqsimlaganlar va yigʻganlar.

Shaharda vaqtincha yashovchi aholini qora ishchilar va yollanma xizmatchilar tashkil etgan. Ular shahar oʻzini oʻzi boshqaruvida ishtirok etish huquqidan mahrum edi.

1787 yilda shaharlarga in'om yorligʻi chiqarilgan. Unda shahar aholisining huquqiy holati tartibga solingan. Unga koʻra, shahar aholisi oltita razryadga boʻlingan:

1. Haqiqiy shahar aholisi, (shaharda uyi, yashash joyi yoki mulki boʻlganlar).
2. Savdogarlar.
3. Hunarmandlar.
4. Boshqa shaharliklar va chet ellik mehmonlar.
5. Faxriy grajdanlar, ya'ni 50 ming soʻmdan koʻp kapitalga ega boʻlganlar: bankirlar, koʻtara savdogarlar, korabl egalari, olimlar.
6. Posad kishilari: mayda mulkdorlar.

Meshchanlar savdo va hunarmandchilik bilan shugʻullanish huquqiga ega edilar. Dvoryanlarga va dehqonlarga shaharlarda faqat oʻz xoʻjaliklari mahsulotlari bilan savdo qilishga ruxsat etilgan. Biroq meshchanlar ham ayni paytda dehqonlar yashaydigan yerlarga egalik qilish huquqiga ega emas edilar.

Dehqonlar. Petr I jon soligʻi joriy etib, dehqonlarga ham, xoloplarga ham va boshqa turli daydi kishilarga ham bir xildagi soliq yukladi. Boshqa majburiyatlar ham mavjud edi.

XVIII asrda dehqonlar bir necha razryadlarga boʻlingan:

1. Davlat dehqonlari. Bular podshoga tegishli edilar.

2. Saroy dehqonlari. Saroy xo‘jaligida ishlaydigan dehqonlar.

3. Iqtisodiy dehqonlar - sobiq cherkov va monastir dehqonlari.

4. Posession dehqonlar - pomeshchiklardan sotib olinib, fabrika va zavodlarga yozilgan dehqonlar.

5. Mayda xizmatchi kishilarning avlodlari. Bular asosan Rossiyaning chekka o‘lkalarida yashab, Petr I islohoti natijasida shlyaxta tabaqasiga kirmay qolgan kishilar edi. Ular davlat dehqonlaridan kam farq qilardi.

6. Pomeshchiklarning dehqonlari. XVIII asrda ular butun dehqonlarning yarmidan ko‘pini tashkil etgan. Bu dehqonlarni pomeshchiklar sotishi, hadya qilishi, almashtirishi, garovga qo‘yishi mumkin edi. Ularning zimmasidagi obrok va barshchinalarning miqdorini pomeshchiklarning o‘zlari belgilardilar. Pomeshchiklar bularni sud qilish, jazolash huquqiga ega edilar.

Davlat tuzumi

Bu davrda Rossiya boshqarish shakliga ko‘ra, mutlaq monarxiya (samoderjavie) davlati bo‘lib qolgan edi. Bunda oliy hokimiyat butunlay va bo‘linmasdan podshoga tegishli bo‘lgan. Lekin bu jarayon birdaniga yuz bermadi. XVII asrning II yarmida hali Boyarlar dumasi mavjud bo‘lsa ham, lekin ilgarigi ahamiyatini yo‘qotgan edi. Boshqaruvda ilgarigidek nasliy boyarlar muhim rol o‘ynardi, joylarda dvoryanlarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari saqlanib qolgandi, cherkov davlatga to‘liq bo‘ysundirilmagan edi. XVIII asrning birinchi yarmida Petr I davrida samoderjaviyening yanada rivojlanishi va mustahkamlanishi, tabaqa-vakillik organlari qoldiqlarining tugatilishi sodir bo‘ldi.

XVIII asr samoderjaviyasi Rossiya tarixida «ma'rifatli absolutizm» nomini oldi. Chunki chor hukumati hokimiyatni qo‘lda saqlab qolish maqsadida savdo va manufakturalarning rivojlanishini rag‘batlantirdi, cherkov mulklarini davlat mulkiga aylantirdi, dunyoviy bilimlarni, fan va san’atning rivojlanishiga homiylik qildi.

Oliy hokimiyat va boshqaruv organlari. Imperator. Shimoliy urushdan keyin Rossiya qudratli davlat bo‘lib qoldi. 1721 yilda Senat Petr I ni imperator va hokimi mutlaq deb e’lon qildi. Shu vaqtdan boshlab Rossiya imperiya deb yuritila boshladi. Imperator cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lib, qonun chiqarish, ijro etish huquqi faqat unga tegishli edi. Barcha davlat boshqaruvi unga bo‘ysundi. Imperator sud hokimiyatining boshlig‘i hisoblanib, sudlarning barcha qaror va hukmlari uning nomidan chiqarilardi. Oliy cherkov hokimiyati ham unga tegishli bo‘lib qoldi. Imperator bu hokimiyatni maxsus ta’sis etilgan Sinod orqali amalga

oshirardi. Rus provaslav cherkovi boshlig‘i- patriarx mansabi tugatildi. Petr I taxtga voris qilib xohlagan kishisini tanlashi mumkin edi.

Senat. 1711 yilda Petr I Prut yurishiga keta turib, davlatni boshqarish uchun o‘z yaqinlaridan iborat Senatni tashkil etdi. Petr I Prut yurishidan qaytgach, Senat doimiy hukumat organiga aylantirildi. Uning tarkibiga imperator tomonidan tayinlangan 9 ta senator va ober-sekretar kiritildi. 1718 yilda kollegiyalar tashkil etilishi bilan ularning prezidentlari ham Senat tarkibiga kiritildi. Keyin 1722 yilda uchta asosiy kollegiyalar: tashqi ishlar, harbiy va flot kollegiyalarining prezidentlaridan tashqari boshqa kollegiyalarning prezidentlari senat tarkibidan chiqarildi. Shu vaqtdan boshlab Senat kollegiya faoliyati ustidan ham nazorat qilib turadigan bo‘ldi.

Senat, avvalo, qonun tashabbuskorlik funksiyasiga ega edi. Bunga ko‘ra, u qonun chiqarish tashabbusi, qonun loyihasini ishlab chiqish, uni muhokama qilish va e’lon qilish vakolatlariga ega bo‘ldi. Senatning qonunchilik sohasidagi huquqini podsho belgilardi.

Senat oliy davlat boshqaruv organi hisoblangan. U dastlab mahkamalar, so‘ngra kollegiyalar faoliyati ustidan nazorat qilib turgan. Senat, shuningdek, davlat jinoyatlari va mansabdor shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha oliy sud organi edi. U apellyatsion sud vazifasini ham bajarardi. Senatning qarori ustidan shikoyat qilish mumkin emas edi. Uning qarori faqat podsho tomonidan bekor qilinishi mumkin edi. Senat devonxonasiga ober-sekretar boshchilik qilardi.

1711 yilda nazorat funksiyasini amalga oshirish uchun **ober-fiskal** mansabi, 1723 yildan esa **bosh-fiskal** mansabi ta’sis etildi. Unga kollegiyalardagi, provinsiyalardagi va shaharlardagi fiskallar bo‘ysundirilgan. Fiskallarning funksiyasiga mansabdor shaxslarning suiiste’molliklarini yashirincha aniqlash, davlat xazinasi manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilik bilan kurash olib borish kabilar kirardi. Biroq tez orada fiskallarning o‘zi suiiste’molliklarga, poraxo‘rlikka berilib ketadilar. Shu sababli Petr I ning vorislari fiskallik institutini tugatadilar.

1722 yilda **prokuratura** tashkil etildi. Unga bosh prokuror va uning yordamchisi - ober prokuror boshchilik qilardi. Ularga kollegiyalardagi va dvoryanlarning provinsial sudlaridagi prokurorlar bo‘ysundirildi.

Prokuratura fiskallardan farq qilib, (barcha davlat muassasalari faoliyati ustidan) ochiq nazorat olib borgan. Bosh prokuror imperatorga bo‘ysungan. U podsho yo‘qligida Senatga raislik qilar, Senatda yuritiladigan masalalar tartibini belgilar, Senatning noto‘g‘ri qarori ustidan podshoga protest berish huquqiga ega bo‘lib, podshoga Senat faoliyati haqida

doklad qilar, podsho farmoyishlarini Senatga e’lon qilar, qonunlarning bajarilishini kuzatib turar edi.

1720 yilda Senat huzurida **bosh-reketmeystr** mansabi ta'sis etildi. U kollegiya va boshqa markaziy muassasalarning noto‘g‘ri qarorlari va sansalorliklari ustidan shikoyatlarni qabul qilar va ko‘rib chiqardi. Bu haqdagi ishlar podshoga ma’lum qilinar va shundan so‘ng ular bo‘yicha oxirgi qaror chiqarilardi. Bosh-reketmeystrlik mansabi 1763 yilda Senatning qayta tashkil etilishi bilan tugatildi.

Bundan tashqari, Senatga bevosita **geroldmeystr**-dvoryanlar tabaqasi ishlarini yurituvchi mansabdor shaxs ham bo‘ysungan. U dvoryanlarni hisobga olish, ularning xizmat o‘tashini hisobga olish, davlat mansablariga tayinlanishini hisobga olish va hokazo ishlar bilan shug‘ullangan.

1731 yilda Senat huzurida **Yashirin qidiruv ishlari devonxonasi** tuziladi. U davlat jinoyatlarini tergov qilardi. 1762 yilda bu organ tugatilgan, lekin tez orada Senatning **yashirin maxfiy ekspeditsiyasi** ta’sis etilib, u muhim siyosiy jinoyatlarni, jumladan, Pugachov, Radishchev va boshqalarning ishlarini tergov qilish bilan shug‘ullangan.

Petrning o‘limidan keyin Senatning roli pasaydi. Senat rasman oliy hukumat organi bo‘lsa ham, amalda Oliy maxfiy kengash va boshqa imperatorlik kengashlariga va kabinetlariga bo‘ysunardi. Qator kollegiyalar (harbiy, flot va tashqi ishlar kollegiyalari) Senatga bo‘ysunishdan chiqqan, boshqa kollegiyalar unga juda kam darajada bo‘ysunardi. Yashirin qidiruv ishlari devonxonasi Senatga bo‘ysunmagan. Senat faqat oliy sud organi funksiyasini to‘liq saqlab qoldi. Ayniqsa Pavel I davrida u sof sud organi bo‘lib qolgan edi.

Oliy maxfiy kengash. Bu davlat organi 1726 yilda Petrning tul xotini Yekaterina I tomonidan ta’sis etildi. Uning tarkibiga imperatorning 7 ta eng yaqin kishilari kiritildi. Kengash juda muhim ichki va tashqi siyosat masalalarini hal qilardi. Hatto imperator barcha muhim qonunlarni Oliy maxfiy kengash roziligi bilan chiqarishi lozim edi. Bu Kengashga Senat va Sinod ham bo‘ysungan. Bosh prokuror mansabi tugatilgan.

Petr II o‘lganidan keyin (1730 yil) Oliy yashirin kengash taxtga Petr I ning jiyani Anna Ivanovnani taklif qiladi. Lekin uning oldiga qator shartlar qo‘yiladi. Bular: a) kengash ruxsatisiz erga tegmaslik; b) o‘ziga voris tayinlamaslik; v) polkovnikdan yuqori mansablarni tayinlamaslik; g) mamlakatni kengash roziligi bilan boshqarish; d) gvardiya va qo‘shinlarning kengash qaramog‘ida bo‘lishi lozimligi kabilar edi. Agar ushbu shartlar bajarilmasa, Anna Ivanovnaning taxtdan mahrum etilishi mumkinligi ko‘rsatilgan edi. Anna Ivanovna bu shartlarga rozi bo‘ladi va imzo chekadi.

Lekin shlyaxtaning talabi bilan Anna Ivanovna bu talabnomani yo‘q qiladi va 1730 yilda Rossiyada samoderjaviyeni qayta tiklash haqida Manifest chiqaradi. 1731 yilda Anna Ivanovna uch ta ministrdan iborat **Ministrlar Kabineti** ta’sis etadi. Lekin 10 yil o‘tgach, uni Yelizaveta Petrovna tugatadi va Senatning ilgarigi ahamiyatini tiklaydi. Yelizaveta Petrovna 1756 yilda maslahatchi organ - **Yuqori saroy konferensiyasi** ta’sis etib, unga tashqi siyosat va qurolli kuchlarni tashkil etish masalalari bilan shug‘ullanishni topshiradi. Undan keyin ham imperatorlar huzurida turli maslahatchi organlar tashkil etilgan, lekin ular mustaqil bo‘lmagan.

Kollegiyalar. Petr mahkama tizimini tugatib, uning o‘rniga kollegiyalar ta’sis etgan. O‘sha vaqtda hammasi bo‘lib 12 ta kollegiya mavjud edi. Ulardan uchtasi: harbiy, flot va tashqi ishlar kollegiyalari asosiylari edi.

Uchta kollegiya moliyaviy kollegiyalar bo‘lgan: 1) **kamer-kollegiya** davlat daromadlari bilan shug‘ullangan; 2) **shtats-kontor-kollegiya** davlat harajatlarini hal qilgan; 3) **revizion-kollegiya** davlat mablag‘larini harajat qilish va daromadlarini kelib tushishi ustidan nazorat qilgan.

Uchta kollegiya savdo-sanoat kollegiyalari hisoblangan:1) **berg-kollegiya** tog‘ va metallurgiya sanoatini yuritgan; 2) **manifaktur-kollegiya** yirik sanoatga rahbarlik qilgan; 3) **kommerts-kollegiya** savdo masalalari bilan (ko‘proq tashqi savdo bilan) shug‘ullangan.

Yuqoridagilardan tashqari quyidagi kollegiyalar ham muhim o‘rin tutgan: 1) **yustits kollegiya** - sud boshqaruvining oliy organi, muhim ishlar bo‘yicha birinchi instantsiya, provintsial sudlar uchun apellyatsion instantsiya hisoblangan; 2) **votchina kollegiyasi** - dvoryanlarning yer egaligi bilan bog‘liq masalalarni yuritgan, shuningdek dvoryanlarning yer bo‘yicha nizolarini hal qilgan; 3) **diniy ishlar kollegiyasi** - keyinchalik **Sinod**.

Bosh magistrat - shaharlarni boshqarib, kollegiya huquqlariga ega bo‘lgan. Sinod kollegiyalar ichida muhim o‘rin tutgan. Kollegiyalar mahkamalardan farq qilib, bu yerda davlat boshqaruv masalalari aniq taqsimlab qo‘yilgan edi. Bundan tashqari, kollegiyalar yagona tizimga ega edi. Ularning har birini prezidenti, vitse-prezidenti, to‘rttadan maslahatchisi, to‘rttadan asessori hamda devonxonasi mavjud edi. Bular har kuni yig‘ilib turardi. Barcha qarorlar ovozga qo‘yilib, ko‘pchilik ovoz bilan hal qilinardi (mahkamalarda esa yakka boshliq hal qilardi).

Lekin absolutizm davridagi bu kollegiallik juda rasmiy xarakterga ega edi, xolos. Kollegiyalarda prezidentlarning gapi gap edi. Har bir kollegiyada fiskal, keyinroq esa prokuror bo‘lib, u kollegiya faoliyatini nazorat qilardi. Kollegiyalar devonxonasi: kotib, notarius, tarjimon, aktuarius, nusxa ko‘chiruvchilar, registratorlar va ish yurituvchilardan iborat bo‘lgan.

Mahalliy boshqaruv organlari. Mahalliy boshqaruv sohasida islohotlar 1702 yilda boshlangan. Petr I uyezdlardagi guba o‘zini o‘zi boshqarishni tugatib, uning funksiyalarini voevodaga beradi. Har bir uyezdda voevodalar huzurida 2-4 tadan dvoryanlardan iborat dvoryanlar kengashi tashkil etiladi.

Voevodalar uyezdlarni dvoryanlar kengashi bilan birga boshqarishi kerak edi. Hukmron sinflarning hokimiyatini mustahkamlash va dehqonlarning harakatiga qarshi samarali kurashish maqsadida Petr I 1708 yilda 8 ta guberniya tashkil etadi. Guberniyalar provinsiyalarga bo‘lingan. Guberniyalar tepasida gubernatorlar turardi. Ularni podsho tayinlardi. Gubernatorlar guberniyalarni boshqarganlar, qurolli kuchlarga qo‘mondonlik qilganlar, sud hokimiyatiga ega bo‘lganlar. Gubernatorlarning yordamchilari vitse-gubernatorlar edi. Gubernatorlar huzurida 8-12 kishidan iborat landrat kengashlari ham mavjud edi. Landrat kengashlari dvoryanlar tomonidan saylanardi.

Provinsiyalar voevodalar tomonidan boshqarilgan. Ularning yordamchilari bo‘lgan. Uyezdlar tepasida zemstvo komissarlari turib, ular saylab qo‘yilardi. Yekaterina II mahalliy boshqaruvda islohotlar qilib, 1775 yilda guberniyalarni boshqarish uchun muassasa tashkil etdi. Provinsiyalar tugatilib, uyezdlar soni, guberniyalar soni kamaytirildi. Har bir guberniyada guberniya boshqarmalari tashkil etildi. Har bir uyezdda quyi zemstvo sudi tuzildi. U ma’muriy-politsiyachilik ishlarini yuritardi.

Shahar islohoti. Petr I shahar islohoti ham o‘tkazdi. Bundan maqsad shaharlarda savdo va sanoatni rivojlantirish edi. Shu maqsadda savdogarlar huquqi kengaytirildi. 1699 yilda barcha shaharlarda **burmistrlik yoki zemstvo mahkamalari** ta’sis etildi. Ular o‘lponlar, soliqlar yig‘ish bilan shug‘ullanar, shuningdek, sud funksiyalarini amalga oshirardilar.

Burmistrlik mahkamasiga burmistlar kirgan. Ular savdogarlardan, fabrikantlardan va boshqalardan saylanardi. Saylovlar har yili o‘tkazilardi. Burmistrlar o‘z oralaridan har oyga prezidentlar - mahkama boshliqlarini saylardilar. Burmistrlik mahkamalari voevodalarga va mahkamalarga bo‘ysunishdan ozod etildi. Ularga rahbarlik qilish uchun Moskvada Burmistrlik palatasi tashkil etiladi.

1720 yilda kollegiyalar tashkil qilinishi munosabati bilan **Bosh magistrat** ta’sis etiladi. Burmistrlik palatasi tugatiladi. Burmistrlik mahkamalari o‘rniga **magistratlar** tuziladi. Ular savdo va sanoatni rivojlantirish, maktablar tashkil etish haqida g‘amxo‘rlik qilganlar, moliyaviy faoliyat yuritganlar. Petr I o‘limidan keyin Bosh magistrat tugatilib, shahar magistratlari mahalliy ma’muriyatga bo‘ysundirildi.

Yekaterina II 1785 yilda shaharlarga huquq va imtiyozlar haqida yorliq chiqaradi. Bunga ko‘ra, shaharning har bir 6 ta razryadidan shahar yig‘ini saylanadi. Shahar yig‘ini esa **Umumiy shahar dumasi**ni, umumiy shahar dumasi - doimiy organ - 6 kishilik duma saylaydi.

Politsiya boshqaruv organlari. XVII-XVIII asrlarda voevodalar, Moskvada esa - zemstvo ishlari mahkamasi politsiyachilik funksiyasini bajarardi. Guberniya islohotlaridan so‘ng esa bu funksiya gubernatorlar va komendantlar tomonidan amalga oshiriladi. 1718 yilda Petrburgda politsmeystrlar ishi bo‘yicha bosh devonxona tashkil etildi. Uning tepasida bosh politsmeystr turardi. Keyinroq bunday muassasa Moskvada ham tuzilgan. XVIII asrning II yarmida yangi politsiya organlari tashkil topdi.

7. Absolut monarxiya davrida Rossiyada huquqning asosiy belgilari

Huquq manbalari

Bu davrning asosiy huquq manbalarini davlat tomonidan **farmonlar, reglamentlar, ustavlar, manifestlar** shaklida chiqarilgan qonunlar tashkil etgan.

Farmonlar davlat faoliyatining eng muhim va juda xilma-xil tomonlariga taalluqli edi. Masalan, 1714 yil 18 martdagi «Yagona vorislik haqida»gi farmon, 1722 yilgi «Rutbalar jadvali», 1723 yil 5 noyabrdagi «Sud shakli haqida»gi farmon bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlarning xilma-xilligi yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

Reglamentlar davlat boshqaruv organlarining tashkil etilishi tartibi va faoliyat tartibini belgilovchi hujjatlardir. Bularga, masalan, 1720 yil 29 fevraldagi Kollegiyalarning bosh reglamenti, 1721 yil 16 yanvardagi Bosh magistratga reglament, 1721 yil 29 yanvardagi Diniy reglament misol bo‘la oladi.

Ustavlar davlat faoliyatining ma’lum sohaga taalluqli huquq normalarini birlashtiruvchi qonunlar to‘plamidir. 1729 yilgi Veksellar haqidagi ustav, 1781 yilgi Savdo haqidagi ustav, 1782 yilgi Axloq-odob ustavi ana shunday qonunlar to‘plamlari jumlasiga kiradi. 1716 yilgi Harbiy ustav armiya faoliyatini tartibga soluvchi normalardan iborat edi.

Harbiy ustav mutlaq davlatchilik, armiyaning tashkil etilishi manfaatlariga javob beruvchi o‘ziga xos mustaqil kodeks edi. Uni tuzishda ko‘pgina g‘arbiy Yevropa mamlakatlarining harbiy qonunchiligi borasidagi ijobiy tajribasi hisobga olingan edi.

1720 yilda Dengiz ustavi chiqariladi. U o‘z mazmuni bo‘yicha Harbiy ustavga o‘xshash bo‘lib, faqat flotda xizmat qilishga taalluqli edi. Uning «Jarimalar haqida»gi bo‘limi jinoyat huquqi normalariga bag‘ishlanib, deyarli to‘liq Harbiy artikullardan o‘zlashtirib olingan edi.

Imperatorlar alohida, tantanali va muhim hollarda **manifestlar** chiqarishgan. 1762 yilgi «Butun Rossiya dvoryanlariga erkinliklar va ozodliklar berish haqida»gi **Manifest** shular jumlasidandir.

1715 yilda jinoyat kodeksi hisoblangan «Harbiy artikul» va protsessual kodeks hisoblangan «Protseslar va sud tortishuvlarining qisqacha bayoni» chiqarildi. Bu davrda, shuningdek, 1649 yilgi Sobor qonunlari ham amal qilishda davom etdi. XVIII asrda, xususan Petr I davrida ham bir necha marta yangi kodeks tuzishga harakat qilingan, lekin natijasiz chiqqan. Yekaterina II yangi Qonunnoma loyihasini tuzish uchun komissiya tuzadi. Komissiyaga pomeshiklarning dehqonlari va ruhoniylardan tashqari barcha tabaqalar kiritiladi. Lekin komissiya ishi davomida turli tabaqalar manfaatlaridagi qarama-qarshiliklar ochilib, oqibatda Qonunnoma loyihasi tuzilmay qoladi.

Mulk huquq

Bu vaqtga kelib pomeste va votchinani huquqiy jihatdan tenglashtirish bo‘yicha uzoq davom etgan jarayon nihoyasiga yetadi. 1714 yil 23 martda chaqirilgan «Harakatdagi va harakatsiz mulklarni meros qilib qoldirish tartibi haqida»gi («Yagona vorislik haqida»gi) Farmon bilan dvoryanlarning yerga egalik huquqi ancha kengaytirildi, votchina va pomestelar uchun yagona huquqiy rejim o‘rnatildi. Votchina va pomestelar ko‘chmas mulk deb atala boshlandi. Dvoryanlarning iqtisodiy mavqeini mustahkamlash maqsadida ko‘chmas mulkni garovga qo‘yish va odatda sotish taqiqlandi. Uni faqat istisno tartibida «zarurat bo‘yicha», muhtojlikdan va yuqori poshlina to‘lash sharti bilan sotish mumkin edi. Yer egaliklari bo‘linib ketishining oldini olish maqsadida ko‘chmas mulk meros bo‘yicha faqat o‘g‘illardan biriga o‘tkazilardi. Merosxo‘rlar 40 yil mobaynida ko‘chmas mulkni qaytarib sotib olish huquqiga ega edilar.

1731 yilda dvoryanlarning talabi bilan «Yagona vorislik haqida»gi farmon bekor qilindi. Ko‘chmas mulkka nisbatan cheklovlar ham bekor qilindi. Faqat bitta cheklov saqlanib qoldi. Bunga ko‘ra, urug‘ning er egaligi begona kishilarga vasiyat qilinishi mumkin emasdi.

Yerdan foydalanish huquqida qator cheklashlar joriy qilindi. 1719 yil 10 dekabrdagi Farmon bo‘yicha xususiy mulkdorlarning yerlaridagi metallar va minerallarni qazib olish davlat imtiyoziga kirardi. Yer egasi uning yerida zavodlar qurishda imtiyozli huquqdan foydalangan yoki uning yeridan qazib olingan foydali qazilmalarning 1/32 qismini olgan.

Kemalar qurish uchun yaroqli bo‘lgan daraxtlarning ba’zi navlari qo‘riqlanadi deb e’lon qilindi. Yer egalari ularni o‘z yerlarida kesish huquqiga ega emasdilar. Zarang daraxtlarni, tilg‘ochlarni, qayrag‘ochlarni,

qarag‘aylarni kesishda aybdor bo‘lgan shaxslardan jarima undirilgan, dublarni kesganlar esa o‘limga mahkum etilgan.

Yekaterina II dvoryanlarning xohishini inobatga olib, mulkdan foydalanishdagi ushbu barcha cheklovlarni olib tashladi. Dvoryanlar yer osti boyliklariga ham, o‘rmonlarga ham cheklanmagan tarzda egalik qiladigan bo‘lib qoldilar.

Fuqarolik huquqi sanoat va savdo masalalariga, ular faoliyatining huquqiy kafolatlanishiga muhim ahamiyat berdi. Masalan, davlat oltin, kumush, mis qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha zavodlar qurish uchun qarzga pullar berdi. Bunday zavodlarning ustalari soliqlardan, harbiy xizmatlardan ozod qilindi. Sanoat korxonalari davlatning, monarxning mulki hisoblandi. Ular go‘yoki egalariga foydalanish uchun berib qo‘yilgandek edi.

Davlat oltin, kumush, mis va selitralar sotib olishda boshqa sotib oluvchilarga nisbatan imtiyozli huquqqa ega edi. Uning narxini Berg-kollegiya o‘rnatardi. Boshqa metallar va minerallarni sanoatchi mamlakat ichida xohlagan kishiga sotishi, mamlakat tashqarisida esa faqat Berg-kollegiya ruxsati bilan sotishi mumkin edi. Davlat sanoatchilarga va ularning merosxo‘rlariga «mazkur zavodlarni tortib olmasligi» haqida kafolat bergan.

Tashkil etilgan sanoat korxonalari ish kuchiga katta ehtiyoj sezardi, chunki o‘rta asrlarda, tabiiyki, ish kuchini yollash uncha keng tarqalmagan edi. Shuning uchun sanoat korxonasini ish kuchi bilan ta’minlashda 1721 yil 18 yanvardagi «Zavodlarning qishloqlarni sotib olishi haqida»gi Farmon muhim rol o‘ynaydi (ilgari amalda bo‘lgan qonun bo‘yicha savdogarlar va sanoatchilarga aholi yashaydigan qishloqlarni sotib olishga ruxsat etilmasdi). Bunday qishloqlarning huquqiy maqomi o‘ziga xos xususiyatga ega edi. Mazkur qishloqlarni zavodlardan alohida sotish mumkin emas edi va umuman ularni faqat Berg-kollegiya hamda Manufaktur-kollegiya ruxsati bilan sotish mumkin edi. Bunday qishloqlarni garovga qo‘yish ham mumkin emasdi. Yekaterina II dvoryanlarning imtiyozlarini kengaytira borib, zavod egalarining aholi yashaydigan qishloqlarni sotib olishini taqiqladi. Dvoryanlar yana yerga egalik qilish huquqiga ega bo‘lgan yagona tabaqa bo‘lib qoldi.

Garov huquqi ham yanada rivojlandi. Fuqarolarga faqat o‘z mulkini garovga qo‘yishga ruxsat etildi. Harakatdagi mulkni ham, ko‘chmas mulkni ham (1714 yilgacha va 1731 yildan keyin) garovga qo‘yish mumkin edi. Mulkni garovga qo‘yish vasiqa tartibida amalga oshirilardi. Davlatning qurol-yarog‘ini va mundirini garovga qo‘yish haqiqiy emas deb hisoblandi.

Bunday mulklar garovga oluvchidan hech qanday to‘lovlarsiz tortib olinardi. Ularni garovga beruvchilar otib o‘ldirishgacha jazolanardilar.

Majburiyat huquqi

Sanoat va savdoning rivojlanishi, tovar-pul munosabatlarining yanada taraqqiy etishi majburiyat huquqining rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Pudrat, yetkazib berish, saqlab berish, sheriklik, qarz, shaxsiy ijara, oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya, mulk ijarasi shartnomalari keng tarqaldi.

Majburiyat huquqi sohasida turli tabaqalar turlicha huquqlarga ega edi. Dehqonlar, meshchanlar uchun katta cheklashlar joriy qilingandi. Dvoryanlar, ruhoniylar va savdogarlar katta huquqlardan foydalanardilar. Masalan, dehqonlar, meshchanlar (1721 yilgacha va 1782 yildan keyin) va savdogarlar aholi yashaydigan qishloqlarni sotib olishlari mumkin emasdi. Bu dvoryanlarning tanho egaligiga asoslangan huquqi edi. Ba’zi shaxslar shartnomalar tuzish huquqiga ega emasdi. Aqli noraso, voyaga yetmagan, pulni bo‘lar-bo‘lmasga sovuradigan va boshqa homiylik ostidagi shaxslar shartnoma tuzish huquqidan mahrum edi. Ularning o‘rniga homiylari shartnomalar tuzish huquqiga ega edi. Shaxslarning qonunga zid bo‘lmagan har qanday harakati shartnoma predmeti bo‘lishi mumkin edi. Shartnomalar, qoida bo‘yicha, yozma shaklda tuzilgan. Qonunlar tuzilgan shartnomalarni muqaddas deb rioya qilishni talab qilardi va va'dasizlik jarimasini hamda kafillikni shartnomani ta’minlash usullari deb bilardi.

Amaliyotda **shirkat shartnomasi** keng tarqalgan. 1698 yilgi Farmondayoq «savdo kishilariga boshqa davlatlarning kompaniyalaridagi singari savdo qilishga» ruxsat etilgan edi. Shirkat shartnomalari ham savdo, ham sanoat korxonalari tashkil etish maqsadlarida tuzilardi. Davlat sherikchilikni har tomonlama rag‘batlantirgan, lekin Manufaktura va Kommerts-kollegiyalari orqali ular faoliyatini nazorat ham qilardi.

Pudrat shartnomasi binolar qurish hamda ta'mirlashda va boshqalarda mumkin bo‘lgan barcha turli-tuman ishlarni ishlab chiqish uchun tuzilgan. Yetkazib berish shartnomasini tuzishda davlat uchun kafillik muhim edi. Sanoat va savdoning rivojlanishi shaxsiy ijara shartnomasining keng qo‘llanishiga olib kelardi. Shubhasiz, feodalizm sharoitlarida uni qo‘llash cheklangandi. Kishilarni faqat uy xizmatlariga emas, balki dehqonchilik, hunarmandchilik, zavod ishlariga, savdo va sanoatga ham yollash mumkin edi. Krepostnoy dehqonlar o‘z pomeshchiklarining yozma rasmiylashtirilgan ruxsati bo‘yicha yollanib ishlashi mumkin edi. Bunday ruxsatnomalarda dehqonlarning qancha muddatga qo‘yib yuborilganligi ham ko‘rsatilardi. Voyaga yetmagan bolalar va xotin faqat ota yoki erning ruxsati bilan yollanib ishlashi mumkin edi. Oddiy askarlarga faqat boshliq-

larining ruxsati bo‘yicha va xizmatga ziyon keltirmasdan yollanib ishlashga ruxsat etilgan.

Mulk ijarasi shartnomasi juda keng tarqalgandi. U vasiqa tartibida tuzilgan. Shartnoma predmeti ham harakatdagi, ham ko‘chmas mulklar bo‘lishi mumkin edi. Ijara haqi va mulkdan foydalanish muddati tomonlarning kelishuvi bilan belgilanardi.

Majburiyat huquqida oldi-sotdi shartnomasi juda muhim rol o‘ynaydi. 1714 yilgi Farmonga qadar va 1731 yildan keyingi oldi-sotdi shartnomasining predmeti ham harakatdagi, ham ko‘chmas mulklar bo‘lgan. Sotuvchi shartnomaning predmeti va bahosini belgilashdan tashqari, sotib oluvchini uchinchi shaxslar tomonidan bu mulkka nisbatan har qanday da’volaridan «tozalashi» lozim edi.

Hadya va **ayirboshlash** shartnomalari faqat 1714 yilgi Farmonda belgilangan doiralarda cheklangandi, ya’ni ular ko‘chmas mulklarga taalluqli emas edi. Bu cheklovlar 1731 yilda bekor qilindi. Yuk tashish shartnomasi monaxlardan tashqari barcha shaxslar tomonidan har qanday harakatdagi mulklar bo‘yicha tuzilishi mumkin edi. Faqat monaxlarga Diniy reglament bo‘yicha begona ashyolarni va pullarni saqlashga olish taqiqlangandi. Yukni saqlashga olgan shaxs uning butunligini va buzilmasligini saqlashi va egasining birinchi talabi bilan darhol qaytarishi lozim edi.

Qarz shartnomasining bu davrdagi xususiyati shunda ediki, u bo‘yicha qarzdordan foizlar olish taqiqlangandi. Biroq, 1754 yildan boshlab qarz shartnomasi bo‘yicha 6 % gacha olish o‘rnatildi. O‘sha yili qarz beruvchi bank tashkil etildi. 1729 yildan savdogarlar veksellar berish huquqiga ega bo‘ldi.

Oila huquqi

Nikoh va oila qonunchiligida Petr I davrida katta o‘zgarishlar qilindi. Avvalo 1714 yilgi “Yagona vorislik haqida”gi farmon bilan nikoh yoshi erkaklar uchun - 20 yoshgacha, ayollar uchun - 17 yoshgacha ko‘tarildi.

Qonunlar dvoryanlar tabaqasini to‘la qimmatga ega bo‘lmagan avlod paydo bo‘lishidan saqlashga harakat qilgan. Shu munosabat bilan nikohga faqat sog‘lom, aqldan mahrum bo‘lmagan shaxslar kirishi mumkin edi. 1722 yil 6 aprelda chiqarilgan «Esi past kishilarni Senat ko‘rib chiqishi haqida»gi Farmon bilan «esi past kishilar»ning nikohga kirishi taqiqlandi. Yaqin qarindoshlar ham bir-birlari bilan nikohga kira olmasdi.

Harbiy xizmatchilarning nikohga kirishi uchun zaruriy shart boshliqlarining ruxsati edi. Dvoryanlarning nikohga kirishlari uchun esa ular arifmetika va geometriyani bilishlari lozim edi. Qonunlar bo‘yicha nikoh tuzish uchun nikohga kiruvchi tomonlarning va ularning ota-onalarining

roziligi talab etilgan. Shubhasiz, pomeshchiklar o‘z krepostnoy dehqonlariga nisbatan qonunning bu talablariga rioya qilmaganlar, ularning taqdirini o‘z xohishlaricha hal etganlar.

1702 yil 3 aprelda chiqarilgan Farmon bo‘yicha nikoh tuzish tartibi o‘zgardi. Bir qator kelishuv yozuvlari bekor qilindi (nikohga kiruvchilarning mulk haqidagi va sep-sidirg‘a haqidagi kelishuv yozuvlari krepostnoylarning ishi Mahkamasida rasmiylashtirilardi). Endi sep-sidirg‘a haqidagi masala uy sharoitida hal qilinadigan bo‘ldi. Nikoh marosimidan olti oy oldin unashtirish amalga oshirildi. Agar kuyov unashtirishga qadar kelinni ko‘rmagan bo‘lsa va kelin «xunuk, badbashara, kasal va nosog‘lom» bo‘lsa, unashtirishni bekor qilishi mumkin edi. Kelin ham shunday huquqqa ega edi.

Qonunlarda nikohni bekor qilish uchun asoslar belgilangan. Siyosiy o‘limga mahkum etilishi va umrbod katorgaga surgun qilinishi, er-xotindan birining bedarak yo‘qolishi (bedarak yo‘qolgan shaxsning bunda aybi bo‘lmasligi kerak), monaxlikka o‘tishi, er-xotindan birining bevafolik qilishi, tuzalmas kasallikka yo‘liqishi, er-xotindan birining ikkinchisi hayotiga suiqasd qilishi holatlaridan biri nikohni bekor qilish uchun asos bo‘la olardi. Nikohni bekor qilishdan tashqari, er-xotinni ularning turmushida kelishmovchiliklar yuz bergan vaqtda vaqtincha ajratib qo‘yish (masalan, monastirlarga jo‘natish) ham mumkin edi.

Nikoh teng huquqli emasdi. Xotin erga bo‘ysungan. Er xotinni jazolash huquqiga ega edi. Xotinning mavqei erning mavqei bilan belgilangan. Fuqarolik huquqiy munosabatlarida xotin huquqiy layoqatga va muomila layoqatiga ega edi. Xotinning mulkiy huquqlari hech narsa bilan chegaralanmasdi. U o‘zining harakatdagi va ko‘chmas mulklarini erining ruxsatisiz erkin tasarruf qilishi mumkin edi.

Ota-onalar o‘z farzandlariga nisbatan katta hokimiyatdan foydalanganlar. Ular o‘z farzandlarini jazolashi, monastirga berishi mumkin edi. Lekin o‘z bolalarini o‘ldirgan ota-onalar charxpalakka tortib o‘ldirish jazosiga mahkum etilgan (bolasini jazolash vaqtida o‘ldirib qo‘yish hollari bundan mustasno). 1775 yilda ota-onalarga o‘z itoatsiz farzandlarini aqlini kirgazadigan uylarga qamash huquqi berilgan. Nikohsiz tug‘ilgan bolalarning ahvoli endi qonunda o‘z ifodasini topadi. Harbiy ustav bo‘yicha ota o‘zining nikohsiz tug‘ilgan bolalarini va ularning onalarini boqishi lozim edi. Bolalarning mulkiy huquqi ularning ajralgan yoki ajralmaganligiga bog‘liq edi. Oiladan ajralib chiqqan bolalar barcha mulkiy huquqlardan foydalanganlar va o‘z mulklarini ota-onalar roziligisiz tasarruf qila

olganlar. Lekin oiladan ajralib chiqmagan bolalar o‘z mulklariga ega bo‘lmay, ota-onalarining roziligisiz biron-bir bitim tuza olmaganlar.

Homiylik haqidagi ba’zi qoidalar ham yanada rivojlandi. Homiylik voyaga yetmagan bolalarga nisbatan tayinlangan va ular voyaga yetganlariga qadar davom etgan. Ko‘chmas mulkka merosxo‘rlar 20 yoshga to‘lgandan so‘ng, harakatdagi mulkka erkak merosxo‘rlar 18 yoshga, ayollar 17 yoshga to‘lgandan so‘ng voyaga yetgan deb hisoblanardi.

1714 yilgi Farmon bo‘yicha ko‘chmas mulkning merosxo‘ri o‘zining kichik yoshli ukalari va singillari uchun homiy hisoblangan, ularni boqishi, tarbiyalashi va mulki haqida g‘amxo‘rlik qilishi lozim edi. Aqldan ozgan va shafqatsiz pomeshchiklar ustidan ham homiylik tayinlanishi mumkin edi. Albatta, bu juda kam hollarda yuz bergan. Agar shunday qilinganda ham, har doim hukmron tabaqalar manfaatlari nuqtai nazaridan amalga oshirilgan.

1775 yilda homiylikning tabaqaviy organlari: dvoryanlar uchun dvoryanlik homiyligi va shaharliklar uchun yetimlar sudlari ta’sis etildi. 1785 yilda yosh bolalar (14 yoshdan boshlab) uchun vasiylik instituti joriy qilingan edi.

Meros huquqi

1714 yilgi «Yagona vorislik haqida»gi Farmon bo‘yicha meros huquqida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Meros qonun bo‘yicha va vasiyat bo‘yicha qoldirilgan. Ko‘chmas mulkni vasiyat qilib qoldirishda meros qoldiruvchining erki ancha cheklangan edi. U ko‘chmas mulkni o‘g‘illaridan biriga vasiyat qilib qoldirishi mumkin edi. Boshqa o‘g‘illarga harakatdagi mulklardan hissa ajratilgan. Agar o‘g‘illar bo‘lmasa, ko‘chmas mulkka qizlardan biri merosxo‘r etib tayinlangan. Agar farzandlar bo‘lmasa, u holda ko‘chmas mulk faqat meros qoldiruvchi bilan familiyadosh bo‘lgan eng yaqin qarindoshlarga vasiyat qilib qoldirilishi, harakatdagi mulk esa «kimga xohlasa» shunga vasiyat qilinishi mumkin edi. Ayollarga ko‘chmas mulkning vasiyat qilinishi qator shartlar bilan cheklangan. Bunda avvalo ayol kishi meros qoldiruvchining familiyasini olgan bo‘lishi lozim edi. Agar u buni rad etsa, ko‘chmas mulk davlatga o‘tkazilgan.

Qonun bo‘yicha merosda mayorat tartibi amalda edi. Bunga ko‘ra, ko‘chmas mulk katta o‘g‘ilga o‘tkazilar, harakatdagi mol-mulk esa boshqa o‘g‘illar o‘rtasida teng taqsimlanardi. Bunday tartibdagi merosdan uchta asosiy maqsad ko‘zlangan edi. Birinchidan, yirik pomeste yer egaligidan soliqlar yig‘ib olish oson edi. Ikkinchidan, ko‘chmas mulkning bo‘linib ketishiga yo‘l qo‘yilmasligi urug‘ning kambag‘allashuvini oldini olardi.

Uchinchidan, ko‘chmas mulkdan meros olish huquqidan mahrum bo‘lgan bolalar davlatga xizmat qilishlari va foyda keltirishlari mumkin edi.

Ushbu Farmonning hayotga tadbiq etilishi ko‘pgina dvoryanlarning qarshiligiga duch keldi. Chunki unda dvoryanlarning o‘z pomestelarini tasarruf etish huquqi cheklangan edi. Natijada 1731 yilda «Yagona vorislik haqida»gi Farmon bekor qilindi. Endi vasiyat bo‘lmasa, mulk o‘g‘illarga o‘tgan, qizlar ko‘chmas mulkdan 1/14 qism, harakatdagi mulklardan 1/8 qism, xotin ko‘chmas mulkdan 1/7 qism, harakatdagi mulklardan 1/4 qism hissa olardi.

Jinoyat huquqi

Jinoyat huquqi hukmron tabaqalar qo‘lidagi qurol hisoblangan. U davlatning ijtimoiy tuzumini qo‘riqlashda, feodal mulkchilikni va feodal shaxsini himoya qilishda, ekspluatatsiya qilinuvchi omma qarshiligini bostirishda muhim rol o‘ynagan. Jinoyat huquqi, shuningdek, xalq ommasini tutqunlikda ushlab turishda uni ezish uchun qulay imkoniyatlar beruvchi shart-sharoitlar yaratuvchi qudratli omil bo‘lib ham hisoblangan.

Sudlar jinoiy ishlarni hal qilishda 1649 yilgi Sobor qonunlariga va undan keyingi qonunlarga amal qilardi. Jinoyat huquqining ko‘pgina normalari o‘sha davrdagi turli farmonlarda ham belgilangan edi. Harbiy artikullarda jinoyat huquqi normalari tizimga solingan va rivojlantirilgan edi. Garchand unda Umumiy qism mavjud bo‘lmasa ham, ammo harakat va jinoiy natija o‘rtasida salbiy bog‘lanish o‘rnatilishi zarurligi haqida, ayb, jazoning maqsad va vazifalari, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat haqida gapiriladi.

Harbiy artikullar 24 ta bob, 209 ta artikul (modda)dan iborat edi. Uning bir qancha moddalariga sharhlar ham berilgandi. Shuni ta’kidlash kerakki, sharhlar qonun kuchiga ega bo‘lgan va juda muhim masalalarni o‘z ichiga olgandi. Ularda odatda qonunning mohiyati va uni qo‘llash tartibi tushuntiriladi.

Petr I davrida jazolanadigan xatti-harakatlarni belgilash uchun birinchi marta «jinoyat» tushunchasi paydo bo‘ldi. Qonunlarni buzishgagina emas, balki davlatga ziyon yetkazuvchi xatti-harakatlarga ham, garchand qonunda bunday xatti-harakatlar haqida gapirilmagan bo‘lsa-da, jinoyat deb qaralgan. Davlat esa dvoryanlarning manfaatlarini himoya qilardi. Shunday qilib, dvoryanlar davlati uchun ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar jinoyat deb hisoblangan.

Xatti-harakatlarning qasddan, ehtiyotsizlikdan va tasodifan sodir qilinishi bir-biridan farqlangan. Faqat qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoiy xatti-harakatlar uchun javobgarlik kelib chiqardi. Tasodifiy

xatti-harakatlar jinoiy javobgarlikka olib kelmasdi. Jazo ayb darajasiga qarab belgilangan. Qasddan sodir etilgan jinoyatlar qattiq jazolangan. Ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarga yengilroq jazo berilgan. Shaxsiy javobgarlik prinsipi bu vaqtda to‘liq darajada o‘rnatilmagan edi. Ko‘pgina jinoyatlar uchun jinoyatchining faqat o‘zi emas, balki uning mutlaqo begunoh bo‘lgan yaqinlari - xotini va bolalari ham javob berganlar. Ayniqsa, davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar bo‘yicha faqat aybdorlarning o‘zi emas, ularning qarindoshlari ham jazolanardi. Masalan, Bulavin qo‘zg‘olonini bostirishda hech qanday gunohi bo‘lmagan ayollar va bolalar ham jazolangan: qo‘zg‘olon ko‘targan o‘qchilarning bir qismi xotin va bolalari bilan birga umrbod badarg‘a qilingan edi.

Jinoyat huquqida o‘z qilmishiga javob bera olishlik masalasiga e’tibor berilgan. Ruhiy kasallik holatida jinoyat sodir etgan shaxslarga yengilroq jazo va hatto jazo qo‘llanmaslik nazarda tutilgandi. Avvalgi qonunlar odatda mast holatda sodir etilgan jinoyatlar uchun yengilroq jazolarni nazarda tutardi. XVIII asrga kelib bu masala butunlay boshqacha hal etiladigan bo‘ldi. Alohida hollarda mastlik holatining o‘ziyoq jinoyat deb ko‘riladigan bo‘ldi. Mastlik holatida jinoyat sodir etishlik umumiy qoida bo‘yicha aybni og‘irlashtiradigan holat deb e’tirof etildi. Jinoiy javobgarlikka tortish yoshi ham aniq belgilanmay qoldi. O‘z hayotini himoya qilish uchun zaruriy mudofaaga yo‘l qo‘yildi. Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan jinoyatlar ham jazolanmagan.

Qator jinoyatlar bo‘yicha jazo nafaqat ular sodir etilgandan so‘ng, balki jinoyat qilishga qasd (niyat) qilinsa ham qo‘llanilgan. Ba’zi hollarda jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish uchun jazolar nazarda tutilgan. Petr I qonunlari hali jinoyatga suiqasd tushunchasini belgilamagan edi, biroq ularda boshlangan, lekin oxiriga yetmay qolgan jinoyatlar nazarda tutilgandi.

Guruhga uyushgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar juda og‘ir jinoyatlar hisoblanardi. Bunday shaxslarga juda og‘ir jazo choralari qo‘llanardi. Jinoyat ishtirokchilari ayb darajasidan qat’i nazar, bir xil jazolanardi. Jinoyat haqida, ayniqsa davlatga qarshi jinoyatlar bo‘yicha xabar bermaslik mustaqil jinoyat tarkibini tashkil etgan.

Harbiy artikullarda diniy jinoyatlar birinchi o‘rinda turgan. Bu guruh jinoyatlar orasida jodugarlik, «butparastlik» eng og‘ir jinoyatlardan hisoblanardi. Bular uchun o‘lim jazosi nazarda tutilgan edi. Amaliyotda jodugarlik haqidagi ishlar ko‘p uchrab turardi. Xudoni tahqirlash eng og‘ir jinoyatlardan bo‘lib, buning uchun aybdor shaxsning tili qizdirilgan temir bilan kuydirilgan va so‘ngra boshi kesilgan. Cherkov marosimlariga rioya

qilmaslik, ibodatga kelmaslik, cherkovga mast holatda kelishlik jinoyat hisoblangan. Jumladan, cherkovga mast holatda kelgan zobitlar jarima bilan, oddiy askarlar - turma qamog‘i bilan jazolanardi. Xudoni tahqirlashga oid jinoyat to‘g‘risida xabar bermagan shaxslar shunday jinoyat uchun jazolanardilar. Ajralishga undab yo‘ldan urgani uchun mol-mulkni musodara qilib, umrbod katorga ishlariga mahkum etish nazarda tutilgandi. Pravoslav ruhoniylarning ajralishga urinishi uchun yanada og‘irroq jazo - charxpalakka tortib o‘ldirish jazosi belgilangan edi.

Shu tariqa, davlat krepostniklar hukumatining tayanchi hisoblangan cherkovning birligini himoya qilardi. «Cherkov xizmati vaqtida gunohlariga tavba qilmaslik», axloqsiz so‘zlar aytish jinoyat hisoblangan va buning uchun jarima jazosi nazarda tutilgan. Harbiy artikullarda 1649 yildagi Qonunnomaga nisbatan cherkovga qarshi jinoyatlar turlarining soni ancha ko‘paytirilgan edi.

Absolutizmning yanada mustahkamlanishi bilan davlatga qarshi jinoyatlar batafsil tartibga solindi. Harbiy artikullarda podshoni o‘ldirish yoki asirga olish haqida hatto o‘ylash uchun ham og‘ir jazo - to‘rt bo‘lakka bo‘lish va mol-mulkini musodara qilish jazosi nazarda tutilgandi. Qurolli qo‘zg‘olon uchun ham shunday jazo berilgan. Bunday jinoyatlar uchun ularning yordamchilari va qiziqtiruvchilari ham yuqoridagicha jazolangan. Podshoni, uning xotini va merosxo‘rini so‘z bilan haqorat qilish og‘ir jinoyat hisoblangan. Buning uchun o‘lim jazosi - boshini kesish nazarda tutilgan.

Harbiy artikullarda «odobdan tashqari barcha shubhali yig‘ilishlar… (garchand, yomonlik uchun bo‘lmasa ham), …bu orqali g‘alayon yoki qo‘zg‘olon o‘ylab topilishi mumkin» bo‘lganligi sababli o‘lim jazosi berish bilan qo‘rqitib qat’iy taqiqlangan edi. Har qanday qo‘zg‘olon va «g‘alayon» uchun dorga osish jazosi nazarda tutilgan. Bunday jinoyatlarning xavfliligi hisobga olinib, aybdorlar jinoyat sodir etilgan joyning o‘zida jazolanganlar. Hammadan ko‘proq davlatga xiyonat uchun o‘lim jazosi berilgan. Yuqoridagi jinoyatlar tayyorlanayotganligi yoki sodir bo‘lganligi haqida xabar bermaslik ham jinoiy javobgarlik keltirib chiqargan. Qo‘zg‘olon, davlatga xiyonat, podshoga qarshi boshqa jinoyatlar haqidagi xabarlar bevosita podshoga yetkazilishi lozim edi. Zimdan xabar berishlar juda keng tarqalgan edi va ko‘pincha adolatsiz, nohaq chaquvlar oqibatida begunoh kishilar azob tortardi.

Harbiy artikullarda mansabdorlik jinoyatlari katta o‘rin tutadi. Bo‘ysunadigan kishilarning o‘z boshliqlariga so‘zsiz itoat etishi buyurilgandi. Aks holda, o‘lim jazosi berilishi mumkin edi. Tartib-intizomni har qanday

buzish, o‘z majburiyatlariga beparvo munosabatda bo‘lish, xizmat bo‘yicha xatoga yo‘l qo‘yish qattiq jazolanardi. Soqchilik xizmatini buzganlik uchun aybdor shaxsga o‘lim jazosigacha og‘ir jazo chorasi nazarda tutilgan. Boshlig‘ining buyrug‘ini yanglish eshitgan askar otib tashlanishi mumkin edi. Harbiy xizmatchilar qurolini unutib qoldirganligi, yaroqsiz holga keltirganligi, yo‘qotganligi yoki qurol va mundirini sotganligi, ularni yomon saqlaganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilganlar. Davlatga bosqinchilik yurishlari uchun, dehqonlar qo‘zg‘olonlarini bostirib turish uchun itoatkor armiya kerak edi. Lekin armiyada dehqonlar ham bor edi. Shu sababli armiyada juda qattiq tartib-intizom o‘rnatilgandi.

Mansabdorlik jinoyatlaridan poraxo‘rlik keng tarqalgandi. Bunday jinoyatlar uchun tan jazosi, mol-mulkini musodara qilish va o‘lim jazosi nazarda tutilgandi. Biroq ana shunday qattiq jazo choralariga qaramay, davlat apparatidagi poraxo‘rlik avj olgandi. Bundan g‘azablangan Petr I bir safar «mamlakatdagi hamma poraxo‘rlarni osib o‘ldiraman» deb aytganda, bosh prokuror Yagujinskiy beparvolik bilan «arqon yetmaydi» deb javob bergan ekan.

Jinoyatlarning yana bir turi boshqarish tartiblariga qarshi jinoyatlar edi. Bularga: farmon va farmoyishlarni yirtish va yo‘q qilish, qalbaki pullar yasash, muhrlarni, xarajatlar vedomostini soxtalashtirish kabilar kirardi. Farmon va farmoyishlarni yirtish va yo‘q qilishlik uchun og‘ir tan jazolari, katorga ishlariga surgun qilish yoki o‘lim jazosi berilgan. Qalbaki pul yasash bilan shug‘ullangan kishi o‘tda kuydirilgan. Muhrlarni, harajatlar vedomostini soxtalashtirish jinoyatini sodir etgan shaxs ayb darajasiga qarab o‘lim jazosigacha og‘ir jazolardan biriga mahkum etilardi.

Sudga qarshi jinoyatlarga yolg‘on qasam ichish, yolg‘on guvohlik berish kabilar kirib, buning uchun barmoqlarini kesish jazosi tayinlanardi. Harbiy ustav bo‘yicha mulkiy jinoyatlarga o‘g‘rilik, bosqinchilik, o‘t qo‘yish, birovning mulkini zo‘rlik bilan tortib olish yoki buzish kabilar kirardi. O‘t qo‘yuvchilar og‘ir jinoyatchilar hisoblangan. Ularning o‘zi ham o‘tda kuydirilgan. Bosqinchilar charxpalakka tortib o‘ldirilgan. Harbiy artikullar cherkov mulkini alohida himoya qilardi. Masalan, cherkovda o‘g‘rilik qilish (xudobezorilik qilish) charxpalakka tortib o‘ldirish bilan jazolangan.

O‘g‘rilik uchun jazo chorasi tayinlashda uning takroran sodir etilganligi (retsidivligi) va o‘g‘irlangan mulkning qiymati hisobga olingan. O‘g‘ri o‘g‘irlagan mulk qiymati 20 so‘mdan ortiq bo‘lsa, yoki to‘rtinchi marta o‘g‘irlik qilsa, yoki suv toshqini va yong‘in vaqtida o‘g‘irlik qilsa, shuningdek, davlat muassasalaridan, o‘z xo‘jayinidan, soqchilik xizmatini

o‘tayotgan joyidan o‘g‘irlik qilsa uni jinoyat sodir qilingan joyda sudsiz o‘ldirish mumkin edi.

Axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar ham qonunlarning asosiy diqqat markazida turgan. Bularga, masalan, hayvon bilan aloqa qilish, nomusga tegish, bevafolik kabilar kirgan. Faqat o‘z qallig‘ini nomusiga tegish uchun jazo berilmagan. Ikki xotinlik, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi ruxsat etilmagan jinsiy aloqa jinoyat hisoblangan.

Shaxsga qarshi jinoyatlar orasida shaxsning hayotiga, tana daxlsizligiga, sha’niga qarshi qaratilgan jinoyatlar ajratib ko‘rsatilgan. Shaxsning hayotiga qarshi jinoyatlarga odam o‘ldirish kirgan. Harbiy artikullarda qasddan odam o‘ldirish (buning uchun jinoyatchining boshi kesilgan), ehtiyotsizlikdan odam o‘ldirish (buning uchun turma qamog‘i, pul jarimasi nazarda tutilgan), tasodifan odam o‘ldirish (buning uchun jazo berilmagan) bir-biridan ajratib ko‘rsatilgan.

Birovni yollab odam o‘ldirish, zaharlab o‘ldirish, otasini, onasini, yosh bolasini, zobitni o‘ldirish ancha og‘ir ko‘rinishdagi odam o‘ldirish jinoyati hisoblanib, bunday hollarda jinoyatchiga og‘ir jazo - charxpalakka tortib o‘ldirish jazosi berilgan. Jinoyat haqida birinchi marta Harbiy artikullarda o‘zini o‘zi o‘ldirish uchun va o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd uchun javobgarlik o‘rnatilgan. Shuningdek, duel ham taqiqlangan. Bunday xatti-harakatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan o‘lim jazosi nazarda tutilgan.

Zaruriy mudofaa holatida odam o‘ldirish uchun jazo berilmagan. Urush-do‘pposlash va tan jarohati yetkazishda aybdor bo‘lganlar og‘ir jazolangan. Bunday jinoyatlar uchun hatto qo‘lini kesish jazosi berilishi mumkin edi. Og‘zaki tuhmat uchun turmaga qamash jazosi nazarda tutilgan. Yozma tuhmat uchun anonim tuhmat qilganlikda ayblanayotgan shaxsga qanday jazo berilishi mumkin bo‘lsa, tuhmatchiga shunday jazo qo‘llanilgan. So‘z bilan haqorat qilgan shaxs sud oldida haqoratlangan kishidan kechirim so‘rashi lozim edi.

Jazo tizimi

Jazoning asosiy maqsadi qo‘rqitish edi. Qo‘rqitish yo‘li bilan mamlakatda jinoyatchilikni kamaytirishga, dvoryanlar sinfi uchun foydali bo‘lgan tartibni himoya qilishga harakat qilingan. O‘lim jazolari qo‘rqitish maqsadlarida odatda omma oldida amalga oshirilardi.

Jazoning yana bir maqsadi - o‘ch olish hisoblangan. Odam o‘ldirish uchun - o‘lim jazosi, soxta qasam uchun - ikkita barmog‘ini kesish jazosi nazarda tutilgan edi. Jazoning muhim maqsadlaridan biri jinoyatchilarni jamiyatdan ajratib qo‘yish hisoblangan. Bu davrda surgun va turmaga

qamash, tana a’zolaridan mahrum qilish va tamg‘a bosish jazolari keng qo‘llanilgan.

Jinoyatchilarning mehnatini ekspluatatsiya qilish ham bu davrda jazoning maqsadi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ularning mehnatidan Peterburgni qurishda, bandargohlar, yo‘llar, kanallar, qal'alar qurishda, manufakturalarda, konlarda keng foydalanilardi. Mulkiy jazo sifatida undirib olingan mablag‘lar gospitallarni, kasalxonalarni va boshqalarni saqlab turish uchun sarflanardi. Agar jinoyatchi belgilangan summani to‘lay olmasa, ishlab berishi lozim edi. Jinoyatchi bilan birga uning xotini, bolalari jazolanayotgan vaqtda aybsizga ayb qo‘yish «prinsipi» mavjud edi.

Jazolar qo‘llashda jinoyatchining qaysi tabaqaga mansubligi hisobga olingan. Bir xil jinoyat uchun turli tabaqaga mansub shaxslar turlicha jazolanardilar. Zobitlar va oddiy askarlar ham bir xil jinoyat uchun turlicha jazolangan. Ayniqsa siyosiy jinoyatchilarga nisbatan tengsizlik yaqqol ko‘zga tashlanardi. Yuqori tabaqaga mansublik aybni yengillashtiruvchi holat hisoblanardi. Aksincha, quyi tabaqaga mansublik aybni og‘irlashti-ruvchi holat edi.

Bu davrda jazoning o‘lim jazosi, tan jazosi, sharmanda qiluvchi jazolar (sha’ni va huquqlaridan mahrum qilish), mol-mulkini musodara qilish, jarima, surgun, badarg‘a, cherkovlarda gunohlariga tavba qildirish turlari qo‘llanilgan. Harbiy artikullar bo‘yicha 100 dan ortiq holatlarda o‘lim jazosi nazarda tutiladi. Ayni vaqtda 1649 yilgi Sobor qonunlarida esa faqat 35 ta holatda o‘lim jazosi belgilangan edi.

O‘lim jazosi oddiy va murakkab shakllarda amalga oshirilgan. Boshini kesish, osish, otish oddiy shakldagi o‘lim jazosiga kirgan. To‘rt bo‘lakka bo‘lish, charxpalakka tortib o‘ldirish, tomog‘iga eritilgan metall quyish kabilar murakkab shakldagi o‘lim jazolari hisoblangan. XVIII asrning birinchi yarmida tiriklayin yerga ko‘mish jazosi ham qo‘llanilgani ma’lum. XVIII asrning boshida temir krestga qovurg‘asidan osib qo‘yish jazosi ham qo‘llanilgan.

O‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlarga, birinchi navbatda, dehqonlar qo‘zg‘olonlarining rahbarlari va ishtirokchilariga keng tadbiq etilardi. Masalan, Astraxanda 1706 yilda o‘qchilar qo‘zg‘oloni bostirilgandan keyin qo‘zg‘olon ko‘targanlarning ko‘pchiligi (300dan ortiq kishi) qatl etilgan edi. 1708 yil iyunda esa Bulavin qo‘zg‘oloni bostirilgach, 200 kishi qatl etilgan, Bulavinning o‘zini to‘rt bo‘lakka bo‘lib, boshi, qo‘l va oyoqlarini Cherkasskiy shahridagi qoziqlarga osib qo‘yilgan. 1708 yil avgustda Yesaulova shahri olingandan keyin har o‘n kishidan biri qatl etilgan, 200 dan ortiq osilgan tanalar Don daryosiga tashlangan.

Tan jazolari ikkiga: tana a’zolarini mayib-majruh qiluvchi va tana a’zolariga og‘riq yetkazuvchi turlarga bo‘lingan. Tana a’zolarini mayib-majruh qiluvchi jazolarga tilini kesish va qizdirilgan temirda kuydirish, qo‘llarini, barmoqlarini, bo‘g‘inlarini, burun va quloqlarini kesish, tamg‘a bosish, og‘riq yetkazuvchi jazolarga qamchi, kaltak, xivchin, tayoq, darra, arqon bilan urish kabilar kirgan. Qamchi bilan urish ko‘pincha jazolanuvchining o‘limi bilan tugagan. Bu shu tariqa niqoblangan o‘lim jazosi sifatida qo‘llanilgan.

Katorga ishlariga va boshqa ishlarga surgun qilish og‘ir jazo turi bo‘lib, sharmanda qiluvchi jazolar shaklida va badnom qilish shaklida amalga oshirilgan. Sha’nidan mahrum etadigan sharmanda qiluvchi jazolarga o‘limidan keyin oyog‘idan osib qo‘yish, omma oldida tiz cho‘kib kechirim so‘ratish, ismini yozib dorga osib qo‘yish va boshqalar kirgan. Petr I tomonidan birinchi marta joriy etilgan badnom qilish, nomini bulg‘ash jazosi o‘ziga xos jazo turi hisoblanib, bunda jinoyatchining nomi (ismi) yozilib dorga osib qo‘yilgan va jallod uning boshida qilichsimon nayzani sindirib tashlagan va u o‘g‘ri deb e’lon qilingan. Bu jazo jinoyatchi uchun juda og‘ir oqibatlarga olib kelgan: u jamiyatdan va qonundan tashqari deb e’lon qilingan, uni sudsiz talash, kaltaklash, jarohatlash va hatto ko‘rikka kelmasa, o‘ldirish mumkin edi. U la'natlanib, cherkovdan chetlashtirilgan. Uning uchun nikohga kirish taqiqlangan.

Petr I farmonlarida siyosiy o‘lim jazosi degan jazo ham uchraydi. Bunda jinoyatchi jismonan o‘limga mahkum etilmay, mol-mulki musodara qilingan va sha’nidan hamda barcha huquqlardan mahrum etilgan. Mulkiy jazolar uch turga: mol-mulkini musodara qilish, davlat va xususiy shaxslar foydasiga jarima hamda maoshidan ushlab qolishga bo‘lingan.

Jinoyat jarayoni

XVII asrning ikkinchi yarmida tergov jarayonining ahamiyati kuchaytirildi. 1697 yilgi Farmon bo‘yicha fuqarolik ishlarini hal qilishda ham, jinoiy ishlarni hal qilishda ham tergov jarayoni qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Sudda vakillikka yo‘l qo‘yilmagan. Bunga faqat ba’zi hollardagina (masalan, kasal bo‘lish holatida) faqat fuqarolik ishlari bo‘yicha ruxsat etilgan. Lekin bu jinoyat ishlari bo‘yicha taqiqlangan edi. Dalillar to‘rt xil: aybga shaxsan iqror bo‘lishlik; guvohlarning ko‘rsatmalari; yozma hujjatlar va qasamdan iborat edi. Sudlarda qiynoqlardan keng foydalanilgan. Qiynoqlardan asosan jinoiy ishlar bo‘yicha, ba’zan katta va muhim fuqarolik ishlari bo‘yicha ham qo‘llanilgan. Guvohlarga nisbatan ham qiynash usulidan foydalanilishi mumkin edi.

Dalillar tekshirib bo‘lingach, sud hukm chiqarishga kirishgan. Hukm yozma ravishda e’lon qilingan. «Quyi» sudlarning hukmidan «yuqori» sudlarga shikoyat qilish mumkin edi. Umuman sud jarayonida sudning roli hal qiluvchi kasb etardi. Jarayonning boshqa ishtirokchilari huquqsiz mavqega ega bo‘lgan.

Biroq, fuqarolik va jinoyat ishlarining qidiruv jarayonini qo‘llash yo‘li bilan ko‘rib chiqilishi teskari natija beradi. Suiiste’molliklar va sansalorliklar kamayishi o‘rniga ko‘payadi. Barcha ishlarni ko‘rib hal qilish uchun juda katta sud apparati talab qilinardi. Qidiruv jarayonini fuqarolik ishlari bo‘yicha qat’iy va izchil qo‘llab bo‘lmasdi. Hayot protsessual normalarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini taqozo qilgan. Shu maqsadda 1723 yil 5 noyabrda 8 ta moddadan iborat «Sud shakli haqida»gi farmon chiqariladi. Bunga ko‘ra, sud jarayonining tortishuvchilik shakli qaytadan o‘rnatilgan. Unda tomonlarning sudga bir hafta ichida kelishlari lozimligi belgilangan. Arizachi (da’vogar) o‘z shikoyatlarini bandma-band bayon qilishi, javobgar ham har bir band bo‘yicha javob berishi lozim edi.

Sudlarda o‘zboshimchaliklar hukm surgan, poraxo‘rliklar, sansalorliklar avjiga chiqqan edi. Sud jarayonlari ko‘pincha bir necha yilga cho‘zilardi. Ba’zan sud tugaguncha uning ishtirokchilari o‘lib ketardi.

1775 yilgi islohot bo‘yicha ishlarni sudda ko‘rib hal qilishdan daslabki tergovni ajratishga harakat qilingan.

8. Krepostnoy tuzumning yemirilishi va kapitalistik munosabatlarning o‘sishi davrida Rossiya davlati va huquqi (XIX asrning birinchi yarmi)

Ijtimoiy tuzum

XIX asrning birinchi yarmi Rossiyada feodal tuzumning yemirilishi va kapitalistik munosabatlarning kelib chiqishi bilan xarakterlanadi. Rossiyada burjua munosabatlari juda sekinlik bilan rivojlandi. Feodal ishlab chiqarish munosabatlari ham mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda edi, lekin endilikda feodal krepostnoylik tuzumining inqirozi ko‘zga yaqqol tashlanib qolgan va kapitalistik uklad mamlakat ekonomikasiga kirib kelgandi. Qishloq xo‘jaligida ba’zi siljishlarga erishildi: yerni qayta ishlashda mashinalardan foydalanila boshlandi, uch dalali tizim ko‘p dalali tizimga almashtirildi, qand lavlagi, paxta ekish ko‘paytirildi, ipakchilik rivojlana boshladi.

XIX asrning birinchi yarmida yirik sanoat, ayniqsa tog‘ sanoati, metallni qayta ishlash, to‘qimachilik, oziq-ovqat, shuningdek, mayda shahar

sanoati, dehqonlarning hunarmandchiligi ham rivojlandi. Yollanma ishchilar soni ko‘paydi. Ularning soni krepostnoy huquqning bekor qilinishi arafasida umumiy ishchilarning 76,1 foizini tashkil etardi. Bu holat, shuningdek, mashinalarning keng qo‘llanilishi va manufakturalarning fabrikalarga aylanishi XIX asrning 30-40 yillarida Rossiyada sanoat to‘ntarishini boshladi.

Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va feodal krepostnoylik tuzumining inqirozi mamlakatda tabaqalar o‘rtasidagi kurashning keskinlashuviga olib keldi. Jumladan, 1825 yildagi dekabristlar qo‘zg‘oloni buning isboti edi. Bularning hammasi podsho hukumatini sarosimaga solib qo‘ydi va uni ba’zi islohotlar o‘tkazishga majbur qildi. Masalan, savdogarlar va fabrikantlarga qator imtiyozlar berildi, tijorat banki va kommersiya ministrligi ta’sis etildi, «erkin g‘allakorlik haqida» farmon chiqarildi. Shular bilan birga mamlakatdagi dehqonlar harakati shafqatsiz bostirildi, mavjud tuzumdan har qanday noroziliklar qattiq ta’qib qilindi.

Pavel I (1796-1801 yillar) samoderjaviyani kuchaytirish maqsadida 1785 yilgi «Dvoryanlarga in'om yorlig‘i»ni bekor qildi. Dvoryanlar uchun tan jazolari berish qayta tiklandi, ularning kollektiv petitsiyalar berish va bevosita podshoga shikoyat qilish huquqi bekor qilindi, guberna dvoryanlari yig‘inlarini tashkil qilish taqiqlandi, dvoryanlarning ma’muriy va sud organlari faoliyatidagi ishtiroki va boshqalar taqiqlandi.

Bulardan qattiq norozi bo‘lgan saroy zodagonlari podsho Pavel I ga suiqasd uyushtirib, uni o‘z o‘g‘li Aleksandr ishtirokida kechasi bo‘g‘ib o‘ldirdilar. Taxtni meros qilib olgan Aleksandr I dvoryanlarga nisbatan barcha cheklashlarni bekor qildi. U «Dvoryanlarga in'om yorlig‘i»ni tikladi. Lekin Nikolay I Rossiyaga fransuz burjua inqilobi g‘oyalarining kirib kelishidan cho‘chib, yana dvoryanlarning huquqlarini bir oz qirqib qo‘ydi. Masalan, yosh dvoryanlarning chet ellarga borishi taqiqlandi. Bunga ruxsat olganlar esa Rossiyadan tashqarida uch yildan ortiq yashamasligi kerak edi.

Nikolay I bosh gubernatorlarga dvoryanlarni kuzatish bo‘yicha katta vakolatlar berdi, mahalliy boshqaruvda dvoryanlarning rolini ancha chekladi. Lekin Nikolay I dvoryanlarga ba’zi yangi huquq va imtiyozlar berdi. Masalan, 1827 yilda dvoryanlar savdogarlar bilan teng ravishda savdo qilish huquqini oldilar, ular shaharlarda ham fabrika va zavodlarga egalik qilish huquqiga ega bo‘ldilar.

1848 yildan boshlab krepostnoy dehqonlardan tashqari boshqa tabaqalar ham yerga egalik qilish huquqini oldilar. Bu burjua munosabatlarining rivojlanishi natijasida bo‘lgan edi. Boshqa tabaqalarning dvoryanlikka kirib kelishi juda qiyin edi. 1845 yilgi farmonga ko‘ra, biror kishi nasliy

dvoryanin bo‘lishi uchun fuqarolik xizmati bo‘yicha 5-darajali martabani, ya’ni statskiy sovetniklikni, harbiy xizmat bo‘yicha 8-darajali martabani (ya’ni mayorlikni) olishi kerak edi.

Keyinchalik, 1856 yilgi farmon bo‘yicha, faqat harbiy xizmatda polkovnik martabasigacha (6-daraja) yoki fuqarolik xizmatida haqiqiy statskiy sovetnigigacha (4-daraja) xizmat ko‘rsatganlar nasliy dvoryan bo‘lishlari mumkin edi. Dvoryan bo‘lmagan shaxs fuqarolik xizmatida 9-darajali martaba (titulli maslahatchi)ni, harbiy xizmatda esa 14-darajali martabani olsa, shaxsiy dvoryanin bo‘lib qolardi. Dvoryan bo‘lmagan tabaqalarning vakillari fuqarolik xizmatida 14-darajadan boshlab to 10-darajagacha faxriy grajdanin unvonini olardilar.

Bu davrda ruhoniylar boshqa tabaqaga o‘tish va shu munosabat bilan mashg‘ulotlarining turini almashtirish huquqini oldilar. Ruhoniylarning va dehqonlarning bolalari ruhoniylar tabaqasidan chiqsalar, nasliy faxriy grajdanin unvonini olganlar. XIX asrning I yarmida dehqonlar ikki guruhga: krepostnoy va podsholikka qarashli dehqonlarga, podsholikka qarashli dehqonlar davlat va udel dehqonlariga bo‘lindi.

Mamlakatda rivojlanayotgan burjua munosabatlariga xo‘jalikning krepostnoylik tizimini moslashtirish maqsadida chor hukumati turli yo‘llar izlay boshladi. Shu maqsadda **1803 yilda «Erkin g‘allakorlar» haqida farmon** e’lon qilindi. Mazkur farmonga binoan, pomeshchiklarga o‘z xohishlariga ko‘ra, tegishli bitim tuzib, yer haqini to‘lash sharti bilan dehqonlarni yer bilan birga ozod qilishga ijozat berildi. Bunday bitimlarni podsho tasdiqlardi. Pomeshchiklarning dehqonlarni erkin g‘allakorlar haqidagi farmonda sanab o‘tilgan asoslardan tashqari boshqa asoslarda dehqonlarni ozod qilishi taqiqlandi. Pomeshchiklar ozod etgan dehqonlar alohida «erkin g‘allakorlar» tabaqasini tashkil qildilar. Farmonga ko‘ra, hammasi bo‘lib bor-yo‘g‘i 47 mingdan salgina ortiq krepostnoy dehqon «erkin g‘allakor»larga aylandi, bu esa butun krepostnoy aholining yarim foizidan ham kamrog‘ini tashkil qilardi.

1816-1819 yillarda Boltiq bo‘yidagi dehqonlarning doimiy g‘alayonlari natijasida dehqonlar krepostnoy qaramlikdan ozod qilinsalar ham yer olmadilar. **1842 yilda «Majburiyatli dehqonlar»** haqida farmon chiqarilib, unda pomeshchiklar dehqonlarni: yer bermay yoki ma’lum miqdorda yer berib pul obroki to‘lash sharti bilan, pomeshchik yerlarini ishlab berish sharti bilan va boshqa shartlar bilan ozod qilish huquqini oldilar. Bunday shartlar bilan shaxsiy ozodlik olgan dehqonlar majburiyatli dehqonlar deb atala boshlandi.

XIX asrning I yarmida shahar aholisi besh guruhga: faxriy fuqarolar, savdogarlar, sex masterlari, meshchanlar-mayda mulkdorlar va yollanma ishchilarga bo‘lindi. Faxriy fuqarolar nasliy va shaxsiy faxriy fuqarolarga bo‘lindi. Nasliy faxriy fuqarolik unvoni yirik burjuaziya va savdogarlarga, shaxsiy dvoryanlarning bolalariga, ruhoniylar va dvoryanlarga, shuningdek, rassomlarga, agronomlarga, imperatorlik teatri artistlariga va boshqalarga berildi. Shaxsiy faxriy grajdanlik unvonini nasliy va faxriy fuqarolar tomonidan o‘g‘il qilib olinganlar, shuningdek, texnika o‘quv yurtlarini tugatganlar, o‘qituvchilikni tugatganlar va hududiy teatrlarning artistlari (10 yillik staj bilan) oldilar.

Faxriy fuqarolar qator huquq va imtiyozlardan foydalandilar: shaxsiy majburiyatlardan, tan jazolaridan va boshqalardan ozod qilindilar. XIX asrda ko‘tara savdo bilan shug‘ullanuvchi 1-gildiyadagi savdogarlar va chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi 2-gildiyadagi savdogarlar mavjud edi.

Davlat tuzumi XIX asrning birinchi yarmida Rossiyada feodal tuzum saqlanib qoldi.

Imperator hokimiyati cheklanmagan edi. **Pavel I 1797** yilda taxtni katta **o‘g‘ilga meros bo‘lib o‘tishi** tartibini qayta tikladi. Bu davrda dvoryanlar burjuaziya bilan kelishib hokimiyatni yuritishga majbur bo‘ldilar. Markaziy davlat muassasalari oliy va bo‘ysunuvchi boshqaruv organlariga bo‘lindi.

Oliy boshqaruv organlariga podshoning o‘zi rahbarlik qilardi. Bo‘ysunuvchi boshqaruv organlari maxsus mansabdor shaxslar qo‘lida bo‘lgan va ular podsho nomidan harakat qilib uning topshiriqlarini bajarardi. Boshqaruvning bunday bo‘linishini Speranskiy kiritgan edi. Oliy boshqaruv organiga avvalo 1810 yilda Speranskiy tashabbusi bilan tashkil etilgan **Davlat kengashi** kirdi. Davlat kengashi imperatorning maslahatchi organi bo‘lib, podsho tomonidan tayinlanuvchi oliy davlat chinovniklaridan tashkil etildi. Ministrlar ham uning tarkibiga kirdi. Davlat kengashining raisi podsho yoki uning tomonidan tayinlanuvchi kengash a’zolaridan biri bo‘ldi.

Davlat kengashi qonun loyihalarini ishlab chiqish, urush va tinchlik, alohida joylarga favqulodda holat joriy qilish ishlarini, budjet, barcha ministrlik va idoralarning hisobotlarini olish, ba’zi sud va boshqa ishlarni hal etardi. Biroq, Davlat kengashining qarorlari maslahatchi organ sifatida hech qanday kuchga ega emasdi. Podsho ularni ma'qullashi yoki rad etishi mumkin edi.

Imperiyaning ikkinchi oliy boshqaruv organi - **Ministrlar komiteti** edi. U 1802 yilda barcha ministrlar va boshqa markaziy idoralarning rah-

barlaridan iborat tarkibda tuzildi. U oliy ma’muriy muassasa sifatida davlat apparatining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirgan, qonunlarni sharhlagan, bir necha idoralar manfaatlariga tegishli ishlarni ko‘rib hal qilgan.

Ministrlar komiteti ham podshoning maslahatchi organi hisoblangan. Uning asosiy qarorlari faqat podshoning tasdig‘idan keyingina kuchga kirardi. Ministrlar komitetining raisi podshoning o‘ziga yoki uning topshirig‘i bilan a’zolaridan biriga yuklatilardi.

Podsho devonxonasi - oliy boshqaruvning uchinchi organi hisoblangan. U XVIII asr oxirida kelib chiqqan. Nikolay I podsholigi davrida uning roli juda oshib ketdi. Devonxona to‘rtta doimiy va vaqtinchalik bo‘linmalarga bo‘lindi.

Birinchi bo‘linma podshoning shaxsiy topshiriqlarini bajarib, uning nomiga tushgan qog‘ozlarni taqdim etar, ular bo‘yicha podsho qarorlarini e’lon qilar, chinovniklarning shaxsiy tarkibini yuritardi.

Ikkinchi bo‘linma qonunlarni kodifikatsiyasi bilan shug‘ullanardi.

Uchinchi bo‘linma maxfiy politsiya va jandarmeriyaga rahbarlik qilardi. U katta ahamiyatga ega edi. Unda inqilobiy harakat bilan kurashuvchi hamma vositalar mavjud edi.

To‘rttinchi bo‘linma muhtojlarga yordam beruvchi muassasalarni yuritardi.

Saroy va udellar ministrligi to‘rtinchi oliy boshqaruv organi bo‘lib, podsho va podsho xonadoni a’zolariga xizmat qilgan. Bo‘ysunuvchi boshqaruv organiga Senat, Sinod, hay'atlar, ministrliklar kirgan.

Senat XVIII asrning II yarmida oliy ma’muriy organdan oliy sud muassasasiga aylandi. XIX asrning boshida Senatni yana oliy ma’muriy muassasaga aylantirishga harakat qilindi. Shu munosabat bilan Senatga barcha oliy boshqaruv va sud organlari bo‘ysundirildi. Uning vakolatlari faqat podsho tomonidan cheklanardi. 1802 yilda ministrliklar tashkil etilishi bilan Senat ministrlar faoliyati ustidan nazorat qilish huquqini oldi. Tez orada Senat yana faqat oliy sud organi bo‘lib qoldi. Aleksandr I ning fikricha, Senatning cheklanmagan oliy ma’muriy hokimiyati imperator hokimiyatiga zid keladi.

Sinod XIX asrning birinchi yarmida uncha katta rol o‘ynamadi. 1802 yilda **ministrliklar** tuzildi. Hay'atlar asta-sekin tugatildi. Ishlar ular tomonidan kollegial hal qilingan bo‘lsa, ministrliklarda yakka ministr tomonidan hal qilinardi. Ministrlar katta vakolatlarga ega bo‘lib, bevosita podshoga bo‘ysunardilar.

XIX asrning birinchi yarmida Yekaterina II tomonidan tashkil etilgan **mahalliy boshqaruv organlari** amalda edi. Finlandiya, Boltiq bo‘yi,

Sibir, Peterburg va Moskvada mahalliy boshqaruv tepasida bosh-gubernatorlar turgan. Bosh-gubernatorlik tarkibiga bir necha gubernalar kirgan. Gubernatorlar ichki ishlar ministrligiga bo‘ysungan. Ba’zi gubernalarda fuqarolik gubernatorlari o‘rniga harbiy gubernatorlar tayinlandi. Ba’zan ham fuqarolik, ham harbiy gubernatorlar bo‘ldi.

Har bir guberna guberna boshqarmasiga ega edi. Uning tarkibiga rais sifatida gubernator, vitse-gubernator, maslahatchilar va asessorlar kirardi. Guberna boshqarmasi ishlarni kollegial yuritishi kerak edi. Lekin u faqat gubernator qoshidagi maslahatchi organ rolini o‘ynardi, xolos. Guberna boshqarmasi qoshida devonxona mavjud edi.

Gubernalarda mahalliy moliya boshqaruv organi to‘lovlar, soliqlarni boshqaruvchi guberna muassasasi - guberna xazina palatasi vujudga keldi. Gubernalarda chegaralarni belgilovchi idora, jamoat ta’minoti mahkamasi, tibbiy mahkama, rekrut komiteti mavjud edi.

Gubernalar uyezdlarga bo‘lingan. Uyezdlarning tepasida quyi zemskiy sudlari turgan. Zemskiy sud saylanuvchi shaxslardan tashkil topgan. Zemskiy sud asosan politsiyachilik funksiyasini bajarardi. Uyezdlar volostlarga bo‘lingan. Volostlarda volost boshqarmalari bo‘lib, ular volost boshlig‘i, oqsoqollari (maslahatchilari) va kotiblaridan iborat tarkibda edi. Shaharlar shahar hokimlari va cherkovlar mahkamasi tomonidan boshqarilardi.

Politsiya va jandarmeriya. Politsiyani idora etish uchun politsiya ministrligi tashkil etildi. Peterburg va Moskvada politsiyaning tepasida politsmeystrlar turardi. Guberna shaharlarining ayrim qismlari (mavzelari) xususiy pristavlar tomonidan yuritilardi. Mavze kvartallarga bo‘lingandi. Ularga kvartal nazoratchilari yoki komissarlar boshchilik qilardi.

Uyezd shaharlari politsiyasiga shahar hokimi boshchilik qilgan. Uyezd shaharlari ham mavze va kvartallarga bo‘lingandi. Har bir uyezdda uyezd politsiya boshqarmasi yoki zemskiy sud tashkil etilib, uning tepasida uyezd kapitan-ispravnigi (uyezd politsiya boshlig‘i) turardi. 1837 yilda uyezdlar mayda politsiya birliklari - stanlarga bo‘linib, ularga pristavlar rahbarlik qilardi.

XIX asrning boshida Rossiya jandarmeriya qismlari tuzildi. Ular 1826 yilda alohida jandarmlar korpusiga biriktirildi. U 8 ta jandarmeriya okrugiga bo‘lingan. Okruglar bo‘limlarga ajratilib, har bir bo‘lim bir yoki ikkita gubernani birlashtirardi.

Harbiy tuzumi. Armiyaga ketadigan katta harajatlarni kamaytirish maqsadida 1816 yilda Rossiyada harbiy manzilgohlar tuzila boshlandi.

Davlat dehqonlari ularda dehqon xo‘jaligini yuritardi. Harbiy manzilgohlar XIX asrning o‘rtalarida tugatiladi.

Sud organlari. Chor Rossiyasida Senat oliy instantsiyadagi sud edi. 1802 yilda oliy sud boshqaruv funksiyasini bajarish uchun Adliya ministrligi tuzildi. XIX asrning birinchi yarmida eski tabaqa sud organlari, ya’ni Yekaterina II tomonidan tashkil etilgan dvoryanlar uchun - yuqori zemskiy sudlar, davlat dehqonlari uchun yuqori va quyi jazolash organlari va meshchanlar uchun - guberna magistratlari tugatildi.

Gubernalarda sudlov palatalari va fuqarolik sudlov palatalari harakatda bo‘ldi. Ular barcha tabaqalarning ishlarini ko‘rardilar. Palatalar uyezd va shahar sudlarida ko‘rilgan ishlar uchun apellyatsion instantsiya bo‘lgan, shuningdek, dvoryanlar tomonidan sodir qilingan mansabdorlik jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha, o‘t qo‘yish haqidagi va boshqa ishlar bo‘yicha birinchi instantsiyali sud hisoblangan. Fuqarolik sud palatalari turli gubernalarda harakatsiz mulklar haqidagi ishlarni, shahar mulkchiligi haqidagi nizolarni va boshqalarni ko‘rardilar.

Har bir gubernada voyaga yetmaganlar va aqli zaiflar tomonidan sodir qilingan jinoyatlarni ko‘ruvchi diyonat sudlari mavjud edi. Bu sudlarda fuqarolik ishlari ham, jumladan qarindosh-urug‘lar orasidagi mulkiy nizolar ham hal qilinardi. Diyonat sudlari o‘z oldiga tomonlarni yarashtirishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Diyonat sudining qaroridan norozi tomon odatdagi sudga murojaat qilishi mumkin edi.

Petrburg, Moskva, Arxangelsk va Vilnyusda dvoryanlarning provinsial sudlari bo‘lib, ular dvoryan bo‘lmagan intelligentlarning, chinovniklar va harbiy xizmatchilarning harbiy qismdan tashqaridagi ishlarini ko‘rardi.

Uyezdlarda quyi sudlar tabaqa uyezd sudlari (dvoryanlar va davlat dehqonlari ishi bo‘yicha), shaharlarda esa, shahar magistratlari va shahar boshqarmalari (savdogarlar va meshchanlar ishi bo‘yicha) mavjud edi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda maxsus: harbiy, dengiz, diniy, dehqonlar volostligi, o‘rmon, tog‘ va boshqa sudlar ham ish ko‘rardi. Shunday qilib, Rossiyada XIX asrning birinchi yarmida yagona sud tizimi bo‘lmagan. Sudlar o‘z xarakteri bo‘yicha toifaviy edi. Har bir toifa uchun o‘zining maxsus sudlari mavjud edi.

Sud funksiyalarini faqat sudlargina emas, balki mahalliy ma’muriyat vakillari va politsiyachilar ham bajarardi. Sud podsho ma’muriyatiga bo‘ysunardi. Mahalliy boshqaruv organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining qonuniyligi ustidan guberna prokurorlari nazorat qilardi. Uyezdlarda prokurorlik nazorati funksiyalarini uyezd xo‘jaligi ishlari bilan shug‘ullanuvchi xodimlar bajarardi.

Rossiyaga qo‘shib olingan Finlandiya, Polsha, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston kabi o‘lkalarda boshqarishning o‘ziga xosligi shundan iborat ediki, u yerlarda odatda, boshqaruvning harbiy va fuqarolik funksiyalari qo‘shilib ketgandi. Bu hududlarda qattiq harbiy politsiya rejimi o‘rnatilgandi.

Milliy o‘lkalarni boshqarish uchun noiblik, bosh-gubernatorlik, viloyatlar, okruglar va boshqalar tashkil etildi. Milliy o‘lkalardagi boshqaruv organlari katta vakolatlarga ega bo‘ldi. Bu yerlarda mahalliy boshqaruvga mahalliy feodallar va urug‘ zodagonlari jalb qilingan, chunki buni mustamlaka xalqlarni bo‘ysundirib turish zaruriyati talab qilardi.

Ma’lumki, 1809 yilda **Finlandiya Buyuk knyazligi** Rossiyaga qo‘shib olindi. Chor hukumati Finlandiyaga uning ilgarigi konstitutsiyasini tasdiqlab, ba’zi avtonomiya huquqini berdi. Rossiya imperatori bir vaqtning o‘zida Finlandiya buyuk knyazi ham edi. U ijroiya va sud hokimiyatiga ega edi, qonunlarni tasdiqlardi. Finlandiyaning qonun chiqaruvchi organi Seym edi. Har bir qonun uning roziligi bilan chiqarilardi yoki bekor qilinardi.

Seym Finlandiyani boshqarish uchun 1809 yilda Finlandiya Buyuk kengashining hukumat kengashini saylagan bo‘lsa ham, amalda boshqaruv podsho tomonidan tayinlanuvchi Bosh-gubernator qo‘lida edi. 1816 yilda hukumat kengashi Finlandiya imperatorligining Senati deb qayta nomlandi. Uning boshida Bosh-gubernator turardi. Senat ma’muriy va sud ishlarini yuritardi.

Finlandiya 8 ta gubernaga bo‘lingan bo‘lib, ularning tepasida gubernatorlar turar, ular bosh gubernatorga bo‘ysunardi. Chor hukumati vaqt o‘tishi bilan Finlandiyaning avtonomiya huquqini har tomondan cheklagandi. Finlandiyani boshqarishda podsho huzuridagi Finlandiya ishlari bo‘yicha stats-sekretar katta ahamiyatga ega bo‘lib bordi. U senat yoki podshoning tasdig‘iga tushgan barcha ishlar haqida podshoga doklad qilardi.

Vena kongressining qarori bilan 1815 yilda Varshava gersogligining katta qismi **Polsha podsholigi** nomi bilan Rossiyaga o‘tdi. Polshaga Aleksandr I avtonomiya huquqini berdi. Polsha podsholigi konstitutsiya asosida boshqarilardi. Ushbu konstitutsiya bo‘yicha Rossiya imperatori bir vaqtning o‘zida Polshaning ham qiroli hisoblangan. Podsho Polshani boshqarish uchun o‘z noibini tayinlardi. Bu yerda ham qonun chiqaruvchi organ Seym bo‘lgan. Seym ikki palata: Senat va Elchilar mahkamasidan iborat edi.

Polsha podsholigining noibi huzurida ma’muriy funksiyalarni yurituvchi Davlat kengashi turardi. Noibga harbiy, ichki ishlar, adliya, moliya, maorif, diniy ishlar ministrliklari ham bo‘ysunardilar. Polsha podsholigiga o‘z armiyasiga ega bo‘lish huquqi berilgandi. Polsha sakkizta voevodlikka, ular esa povetlarga, povetlar gminlarga bo‘lingandi.

1830-1831 yillardagi Polshada bo‘lib o‘tgan harakat bostirilgandan keyin boshqaruvda islohot o‘tkazildi. Seym va Davlat kengashi yo‘q qilindi. Ministrliklar komissiyalar bilan almashtirildi. Polsha armiyasi tugatildi. Polsha hududiga noibga bo‘ysunuvchi rus qo‘shinlari joylashtirildi. Keyinchalik voevodliklar gubernalar deb, povetlar uyezdlar deb qayta nomlandi.

Gruziya, Shimoliy Ozarbayjon va Armanistonda boshqarish dastlab turlicha edi. Keyinchalik butun Kavkaz xalqlarini boshqarish uchun chor hukumati o‘z noibini tayinladi. U Kavkazning oliy hukmdori sifatida ma’muriy, sud va harbiy hokimiyat sohasida katta vakolatlarga ega edi.

Huquqning rivojlanishi

Bu davrda Rossiyada huquqning turli sohalarida ham bir qancha o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu davr-gacha 1649 yilgi qonunnomadan boshqa kodeks yo‘q edi. Qonunnoma qabul qilingandan XIX asrgacha chiqarilgan qonunlar kodifikatsiya qilinmagandi. Mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy sohadagi o‘zgarishlar imperiya qonunlarini tizimga solishni talab etdi. Shu sababli 1804 yilda mashhur rus yuristi Speranskiy rahbarligida kodifikatsiya komissiyasi tuzildi. Bu komissiya dastlab fuqarolik, jinoyat qonunnoma-larini ishlab chiqdi, lekin ulardan hech biri qabul qilinmadi.

1826 yildan boshlab komissiya imperiya qonunlarini kodifikatsiya qilishga kirishdi. 1830 yilda **Rossiya imperiyasi qonunlarining to‘la to‘plami** chiqarildi. U 46 tomdan iborat edi. To‘plamga 1649 yilgi qonunnomadan boshlab undan keyin chiqarilgan qonunlarning deyarli hammasi kiritildi.

1830 yilda Rossiya imperiyasi qonunlarining to‘plamini tuzishga kirishildi va 1832 yilda Rossiya imperiyasi qonunlari to‘plami chiqarildi. Bu 15 tomdan iborat edi. Qonunlar to‘plamiga faqat harakatdagi qonunlar kiritildi. Har bir tomga qonunlar sohalar bo‘yicha joylashtirildi. Ushbu 15 tomli qonunlar to‘plami 1835 yil 1 yanvardan kuchga kirdi.

Bu davrda 1845 yilda «Jinoyat va axloq tuzatish jazolari haqidagi Qonunnoma» qabul qilinib, 1846 yil 1 mayda kuchga kiritildi. Imperiya qonunlari to‘plamining o‘ninchi tomida **fuqarolik huquqi** institutlaridan egalik qilish, mulk huquqi, birovning mulkiga egalik qilish huquqi, vakolat huquqi kabilar alohida tartibga solindi.

Qonun egalik qilishni mulk huquqidan ajratdi va egalikni daxlsiz deb belgiladi. Imperiya qonunlariga koʻra, egalik ikkiga: *qonuniy egalik* va *gʻayriqonuniy egalikka* boʻlindi. Qonuniy egalik turli vositalar bilan himoya qilindi. Boshqa davlatlarning fuqarolariga, boshqa millatdoshlarga, pravoslav boʻlmaganlarga, ayollarga, dehqonlar va shaharliklarga mulkka egalik qilishda qator cheklashlar oʻrnatildi.

Birinchi marta imperiya qonunlarida mulk huquqiga toʻla ta'rif berilgan edi. 420-moddada mulk huquqi deganda fuqarolik qonunlari tomonidan belgilangan usulda, hech qanday shaxsning aralashuvisiz amalga oshiriladigan abadiy va nasldan-naslga oʻtuvchi tasarruf etish, foydalanish va mulk ustidan buyruq berish vakolatlari tushuniladi, deb koʻrsatilgan.

Qonunlar toʻplamida shartnomalardan kelib chiqadigan va birovga zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bir-biridan ajratib berildi. Qonunlar toʻplamida shartnomalarni tuzish shartlari, shakllari va ularni bekor qilish usullari ham aniq belgilandi. Qonunlar yigʻindisi shartnomalarning: ayirboshlash, oldi-sotdi, oldi-sotdi qilish haqida shartnoma tuzish, mulk ijarasi, pudrat, yetkazib berish, qarz, shirkat, sugʻurta, shaxsiy ijara, vakolat shartnomalari singari turlarini koʻrsatdi.

Qonunlar toʻplamiga koʻra, faqat cherkovda tuzilgan nikoh qonuniy hisoblangan. Nikoh yoshi erkaklar uchun - 18 yosh, ayollar uchun - 16 yosh qilib belgilandi. Boshqa dindagilar bilan nikohga kirish mumkin emasdi. Ajralish shartlari ilgarigidek saqlanib qoldi. Er-xotinning mulkiy munosabatlari quyidagicha belgilandi: nikohgacha boʻlgan er-xotinning mulki ularning oʻzlarida saqlanib qoldi, vorislik huquqi asosida yoki shartnomalar boʻyicha keladigan mulklar ham erning yoki xotinning oʻz xususiy mulki hisoblandi, er bilan xotining oʻzaro turli shartnomalar tuzishiga yoʻl qoʻyildi.

Cherkovda qayd etilmagan nikohdan boʻlgan bolalar qonunsiz deb hisoblanib, hamma mulkiy huquqlardan mahrum etildi. Oilada otaning hukmronligi belgilandi. Meros huquqi sohasida qonuniy va vasiyat boʻyicha vorislik saqlanib qoldi. Aqldan ozgan va oʻzini-oʻzi oʻldirganlarning vasiyati haqiqiy emas deb topildi. Vasiyatnomani uch kishi guvohligida tuzish va uni notarial guvohlantirish belgilandi. Lekin harbiy sharoitlarda, chet el mehmonxonalarida tuzilgan vasiyatnomalar qaysi shaklda tuzilganiga qaramay qonuniy deb hisoblandi. Qonuniy vorislar: oʻgʻillar va nevaralar, ular boʻlmasa qizlar va qiz nevaralar, ular ham boʻlmasa, aka-ukalar va jiyanlar, ular ham boʻlmasa, opa-singillar va ularning nasllariga oʻtishi tartibida boʻldi. Ular ham boʻlmasa ota-onalar taklif qilinardi.

Agar 10 yil ichida merosxo‘r topilmasa, mulk vorissiz deb hisoblanib, u davlatga yoki, agar o‘lgan dvoryanin bo‘lsa, guberna dvoryanlariga o‘tadigan bo‘ldi.

Jinoyat huquqi. Qonunlar to‘plami birinchi kitobining XV tomi jinoyat huquqi normalariga bag‘ishlandi. Kitob 11 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, bo‘limlar, boblarga, boblar moddalarga ajratilgan edi. Unda hammasi bo‘lib 765 ta modda mavjud. Ushbu kitobda jinoyat huquqining umumiy va maxsus qismlari birinchi marta ajratib berildi.

Qonunlar to‘plamining XV tomi rus jinoyat huquqining rivojlanishida va tizimlashtirilishida muhim o‘rin tutgan. Biroq shunga qaramay, unda ko‘pgina bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan va qarama-qarshi normalar mavjud edi. Shuning uchun jinoyat huquqining yangidan kodifikatsiya qilish ishlari boshlangan. Bunga rahbarlik qilish M.M.Speranskiyga topshirilgan edi. Lekin yangi jinoyat kodeksini tayyorlash bo‘yicha ishlar uning o‘limidan keyin nihoyasiga yetkazildi.

Maxsus komissiya tomonidan tayyorlangan Jinoyat kodeksining yangi loyihasi Davlat kengashiga taqdim etildi. Davlat kengashi uni ko‘rib chiqib ma'qulladi. Shundan so‘ng loyiha 1845 yilda imperator tomonidan tasdiqlandi va 1846 yildan kuchga kiritildi. Yangi kodeks «Jinoiy va axloq tuzatish jazolari haqidagi qonunnoma» degan nom oldi. Qonunnoma bo‘limlarga, bo‘limlar - boblarga, boblar esa moddalarga bo‘lingan edi. Ba’zi boblar alohida qismlarga ham ajratilgandi. U jami 2224 ta moddadan iborat edi. Bu esa 1832 yilgi qonunlarning moddalariga nisbatan uch baravar ko‘p deganidir.

Qonunnoma umumiy qismga oid normalarni belgilashdan boshlanadi. Jinoyat tushunchasi Qonunlar to‘plamidan olingan bo‘lib, ancha kengroq ta’riflandi. Qonunnomada «jinoyat» va «nojo‘ya xatti-harakat» (ayb, xato) tushunchalari o‘rtasidagi aniq farqlar ko‘rsatilmagan. Uning 4-moddasida shunday deyiladi: «Avvalo jinoyat yoki axloq tuzatish jazolari buyurilgan qonunga xilof xatti-harakat jinoyat yoki ayb deb e’tirof etiladi». Javobgarlikka tortish muddati faqat jinoyatlar uchun belgilandi. Qonunnomada ayb shakllari, jinoyatni sodir etish bosqichlari, ishtirokchilik turlari, aybni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi, jinoiy javobgarlikni bekor qiluvchi holatlar o‘rnatildi. Jinoiy javobgarlik 7 yoshdan kelib chiqishi mumkin edi. Qonunni bilmaslik jazodan ozod qilmasdi. Qonunnoma Rossiyaning barcha fuqarolari uchun majburiy edi. Undan ruhoniylar sudi va harbiy sudlar sudlovligiga taalluqli ishlar ajratildi. Diplomatik immunitetga ega bo‘lmagan chet el fuqarolari ham Rossiya davlatida sodir qilgan jinoyatlari uchun Qonunnomaga asosan sud qilindi.

Qonunnoma bo‘yicha jinoyatlar tizimi ancha murakkab edi. Eng avvalo an’anaviy tarzda dinga qarshi jinoyatlar haqidagi normalar belgilangandi. Davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlarga ko‘proq o‘rin ajratilgandi. Bunda imperatorni ag‘darib tashlashga suiqasd qilish, kirishish va hatto bu haqda o‘ylash uchun og‘ir jazo - barcha huquqlardan mahrum qilish va o‘limga mahkum etish belgilandi. «Isyonga qo‘zg‘ash» maqsadida yozma va nashr qilingan asarlarni tuzish va tarqatish uchun barcha huquqlardan mahrum qilish va 8 yildan 10 yilgacha muddatga katorga ishlariga surgun qilish jazosi nazarda tutildi. Bunda tan jazolaridan ozod qilinmagan shaxslarga qo‘shimcha 50 tadan 60 tagacha qamchi bilan urish va tamg‘a bosish tayinlanardi.

Qonunnomada boshqarish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga, mansabdorlik jinoyatlariga maxsus bo‘limlar bag‘ishlangan edi. Unda yangi moddalar va hatto «Fabrika va zavod kishilarining bo‘ysunmasligi haqida»gi maxsus qism paydo bo‘ldi. Ayniqsa, ishchilarining uyushgan tarzdagi norozilik chiqishlari qattiq jazolanardi. Fabrika va zavod kishilarining fabrika yoki zavod egalariga yoki boshqaruvchilariga ochiqdan-ochiq bo‘ysunmasligi hokimiyatga qarshi qo‘zg‘olon sifatida ko‘rsatilib,buning uchun o‘lim jazosi belgilangan edi. Ish tashlashda qatnashganlarga ham jazolar nazarda tutilgandi. Bunda ish tashlashni «boshlab berganlar»ga uch haftadan uch oygacha, «boshqalar»ga esa yetti kundan uch haftagacha qamoq jazosi berilardi.

Qonunnomaning «Mol-mulklar haqidagi qonunlarga qarshi jinoyatlar va xatti-harakatlar to‘g‘risida»gi bo‘limida jamiyatning tabaqaviy bo‘linishi qo‘riqlanib va mustahkamlanib, tabaqaviy huquq va imtiyozlarni himoya qilish nazarda tutiladi. Qonunnomaga asosan har kimning muayyan tabaqaga mansubligini yashirganligi uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi. Bunda aybdor shaxslar barcha mulkiy huquqlardan mahrum qilinib, Sibirga surgun qilinardi, agar tan jazolaridan ozod qilinmagan bo‘sa, qo‘shimcha tarzda 10 tadan 20 tagacha qamchi bilan urilardi. Mazkur bo‘limda «Krepostnoy kishilarning o‘z xo‘jayinlariga qarshi jinoyatlari haqida» maxsus qism mavjud edi. Krepostnoy dehqonlarning o‘z xo‘jayinlariga qarshi bosh ko‘tarib chiqishlari hukumatga qarshi qo‘zg‘olonga tenglashtirildi. Qanday tarzda bo‘lmasin, pomeshchikka bo‘ysunmagan krepostnoy dehqonlar xivich bilan 20 tadan 50 tagacha, o‘z pomeshchiklari ustidan shikoyat qilgan krepostnoy dehqonlar xivich bilan 50 tagacha savalanardilar. Dehqon o‘z egasining ruxsatisiz boshqa xo‘jayinga yoki «boshqa holatga» o‘tsa, 30 tadan 60 tagacha savalanishi mumkin edi.

Qonunnomaning maxsus bo‘limida shaxs hayoti, sog‘ligi, erkinligi va sha’niga qarshi jinoyatlarga taalluqli normalar belgilangan edi. Qasddan odam o‘ldirganlik uchun barcha mulkiy huquqlardan mahrum qilish va umrbod yoki uzoq muddatga katorga ishlariga surgun qilish jazosi tayinlanardi.

Qonunnomaning katta bo‘limi mulkka qarshi jinoyatlarga bag‘ishlangan edi. Birovning ko‘chmas mulkini (yer, uy va boshqalarni) zo‘rlik yo‘li bilan egallab olishlik uchun barcha mulkiy huquqlardan muhrum qilish va Sibirga surgun qilish jazosi berilardi. Birovning turar-joy binosiga qasddan o‘t qo‘yuvchilar ham barcha mulkiy huquqlaridan mahrum qilinib, 8 yildan 10 yilgacha katorga ishlariga jo‘natilishi mumkin edi. Agar bino cherkovga, imperatorga yoki imperator xonadoni a’zolariga tegishli bo‘lsa, jazo og‘irlashtirilardi. Bosqinchilik, talonchilik (qaroqchilik) jinoyatiga barcha mulkiy huquqlardan mahrum qilish va umrbod yoki uzoq muddatlarga qal'alarda, zavodlarda, konlarda katorga ishlariga surgun qilish jazosi tayinlanardi.

O‘g‘irlik uchun, jinoyatni sodir etish holatiga qarab, surgun, uy ishlariga qamash, mahbusning axloq tuzatish rotalariga jo‘natish va xivich bilan savalash jazolari tayinlanardi. Qonunnomada jazolarning ancha murakkab tizimi joriy qilinadi. Barcha jazolar ikki darajaga: jinoiy jazolar va axloq tuzatish jazolariga bo‘linadi. Ikkala darajadagi jazolar o‘z navbatida bir necha turlar va darajalarga bo‘lingan. O‘ziga xos «jazolar zinapoyasi» tashkil etilgan edi.

Jinoiy jazolarga barcha mulkiy huquqlardan mahrum etish, o‘lim jazosi, katorga ishlari, Sibir yoki Kavkaz ortiga surgun qilish, tan jazolaridan ozod qilinmagan shaxslarga qamchi bilan urish kabilar kiradi. Katorga ishlariga mahkum qilinganlarga tamg‘a bosilardi. Ularning peshona yoki bet (yuz)lariga «kat» (katorgadagi, surgundagi) degan so‘z tamg‘alanardi.

Ba’zi mulkiy huquqlardan mahrum etish jazosi - ma’lum tabaqaga taalluqliligi bilan bog‘liq barcha imtiyozlarning yo‘qotilishi, er-xotinlik munosabatlarining tugatilishi, mulkiy huquqlardan mahrum qilinishi (u merosxo‘rlarga o‘tkazilgan), ota-onalik huquqlaridan mahrum qilinishi degani edi. Axloq tuzatish jazolariga: surgun, mahbuslarning axloq tuzatish rotalariga jo‘natish, qal'aga, turmaga qamash, majburiy aqlini kirgizadigan yoki uy ishlariga jalb qilish, qisqa muddatli qamoq, sud ishtirokida hayfsan berish, jarimalar kirdi. Bu jazolarga odatda tan jazolaridan ozod qilinmagan shaxslarga xivich bilan urish qo‘shib berilardi.

Qonunnomada tabaqaviy imtiyozlar ham o‘z ifodasini topgan edi. Masalan, turma ma’muriyati faqat «meshchanlar va dehqonlarni» ishlashga majburlashi mumkin edi, boshqa tabaqadagilarga esa o‘z xohishiga qarab ish berishi lozim edi. Qisqa muddatga qamoqqa olingan dvoryanlar va chinovniklar bu jazoni uyda o‘tashlari mumkin bo‘lsa, boshqalar esa faqat politsiya idoralarida o‘tashlari kerak edi. Dvoryanlar, ruhoniylar, faxriy fuqarolar, birinchi va ikkinchi gildiyadagi savdogarlar, boshqa xalqlarning hukmron tabaqalari (yer egalari) tamg‘a bosish, kishan solish (zanjirband qilish), qamchi, xivich, kaltak, tayoq bilan savalash jazolaridan ozod qilingandi.

Sud jarayoni bu davrda asosan inkvizitsiya (qiynash, azoblash)ga oid shafqatsizligi bilan ajralib turgan. To‘g‘ri, 1801 yilgi Farmon bilan tergov ishlarini yuritishda qiynoqlardan foydalanish taqiqlangandi. Lekin amaliyotda ular keng qo‘llanilardi. Qonunlar to‘plamida jinoyat jarayoniga katta e’tibor berilardi. Uning ikkinchi kitobi XV tomining 800 tadan ortiq moddalari jinoyat jarayoniga bag‘ishlangandi.

Kodeksda politsiyaga hal qiluvchi o‘rin ajratilgan edi. Politsiyaga tergov va hukmni ijro etish topshirilgan edi. Tergovning o‘zi dastlabki va rasmiy tergovga bo‘lingan. Ish alohida shaxslarning chaquvi, shikoyati bo‘yicha yoki prokuror, sud nazoratchilari (stryapchiy) yoki politsiyaning tashabbusi bo‘yicha boshlanardi. Prokurorlar va sud nazoratchilari tergov ustidan nazoratni amalga oshirardilar.

Tergov tugagach, ish sudga yuborilgan. Sud tergovi sud muhokamasining bir qismi sifatida mavjud emas edi. Ishni tuzilgan «yozuvlar» asosida sud a’zolaridan biri yoki kotib o‘qib eshittirardi. Qonun bo‘yicha, guvohlar va ekspertlar sudga chaqirilmasdi. Ayblanuvchining o‘zi ham sudga faqat tergovda unga nisbatan ruxsat etilmagan usullar qo‘llanilganligini aniqlash uchun chaqirilardi. U jarayonning subyekti emas, obyekti hisoblanardi.

Qonunlar to‘plami 1716 yilgi «Jarayonlar yoki sudlashuvlarning qisqacha tasviri»da belgilangan rasmiy dalillar tizimini mustahkamlagandi. Dalillar mukammal va mukammal bo‘lmagan dalillarga bo‘linadi. Mukammal dalillarga: ayblanuvchining iqror bo‘lishi; yozma dalillar; tibbiy ekspertiza xulosasi; ikkita guvoh ko‘rsatmasi kiritildi. Qonun ayblanuvchining aybini suddan tashqari guvohlar oldida tan olganligi; ularga nisbatan begona shaxslarning tuhmati; yalpi tintuv; bitta guvoh ko‘rsatmasi; jinoyat belgilari kabilarni mukammal bo‘lmagan dalillar deb hisoblaydi.

Og‘ir jinoyatlar bo‘yicha birinchi instantsiya sudi o‘z «fikr-mulohazalarini» tuzardi va uni jinoiy sud palatasiga hukm chiqarish uchun taqdim etardi. Hukmlar mustahkam emasdi. Ular ko‘pincha qonunning o‘zida ko‘rsatilganidek, jumladan, mahkumlarning shikoyatlari bo‘yicha yuqori sudlar tomonidan reviziya tartibida qayta ko‘rib chiqilardi. Tan jazolaridan ozod qilingan shaxslar faqat tan jazolarini qo‘llash nazarda tutilgan hukm ijro etilganidan so‘ng shikoyat qilishlari mumkin edi. Shikoyatlar asossiz bo‘lsa, shikoyatchi yana tan jazosiga yoki turma qamog‘iga tortilardi.

Ish bo‘yicha dalillar yetarli bo‘lmasa, sud ayblanuvchi yoki oqlovchi hukm chiqarmasdi. Bunday holda sudlanuvchi shubha ostida qoldirilgan (gumondor deb topilgan). Agar dehqon yoki meshchan shunday gumondor deb topilsa, mahalliy jamoalar hukmi bilan Sibirga majburan ko‘chirilgan. Rasmiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, sudlar aksariyat jinoiy ishlar bo‘yicha ayblanuvchilarni shubha (gumon) ostida qoldirish haqida qarorlar qabul qilganlar.

Qonunlar to‘plamining davlat uchun juda xavfli bo‘lgan jinoyatlar bo‘yicha sud ishlarini yuritish haqidagi bo‘limida davlatga, dinga qarshi jinoyatlarning ko‘rib chiqilishi tartibi belgilandi. Uning 1241-moddasida ko‘rsatilishicha, yuqoridagi ishlar zudlik bilan «hech qanday kechiktirmasdan» ko‘rib chiqilishi lozim edi. Bunday ishlarni ko‘rib hal qilish uchun podsho farmoni bilan maxsus oliy jinoiy sudlar tuzilishi mumkin edi. Sudning tarkibi ham shaxsan podshoning o‘zi tomonidan belgilanardi. Bu oliy jinoiy sud bevosita imperatorning nazorati ostida sud ishlarini ko‘rib hal qiladi. Jumladan, dekabristlar ustidan sud bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Dehqonlarning o‘z pomeshchiklariga qarshi bosh ko‘tarib chiqishlari va uni bostirish uchun yuborilgan harbiy qismlarga qarshilik ko‘rsatishlari to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishning maxsus tartibi mavjud edi. Ularni harbiy sud ko‘rib hal etardi. Bunday sudning hukmi gubernator yoki ichki ishlar ministri tomonidan tasdiqlangandan keyin darhol ijro qilinardi. «Kam ahamiyatli jinoyatlar» (20 so‘mgacha miqdordagi o‘g‘rilik, engil urish-kaltaklash, ichkilikbozlik va boshqalar) haqidagi ishlar politsiya chinovniklari tomonidan qisqartirilgan tartibda ko‘rib hal etilardi.

Pomeshchiklar kam ahamiyatli jinoyatlar bo‘yicha o‘z krepostnoy dehqonlari ustidan sud qilish huquqiga ega edilar. Sudlarda poraxo‘rlik kuchaygandi. Sudyalarning ma’lumoti darajasi juda past edi. Sansolor-liklar avjiga chiqqandi. Ba’zi ishlarni ko‘rish yillab, o‘n yillab cho‘zilib ketardi. Jumladan, 1844 yilda uyezd sudi tomonidan 115 ming so‘m miqdorda moneta o‘g‘irligi bo‘yicha ish ko‘rish boshlanib, u 1865 yilgacha davom etgan va sud islohotidan keyin tugatilgan edi.

IKKINCHI BO‘LIM

O‘RTA ASRLARDA SHARQ MAMLAKATLARI DAVLATI VA HUQUQI

XIII BOB. O‘rta asrlarda sharq mamlakatlari davlati va huquqining rivojlanish xususiyatlari

O‘rta asrlarda Sharq jamiyatlarining tadrijiy rivojlanishi Yevropa feodal jamiyatlaridan farqli o‘laroq alohida yo‘llar bilan bordi. Sharqda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tuzumlarning an’anaviyligi ushbu rivojlanishning juda sekinlik bilan yuz berishiga sabab bo‘ldi. Bu esa ma’lum darajada o‘quv adabiyotlarida keng qo‘llaniladigan feodalizm tushunchasining ushbu jamiyatlarga nisbatan ishlatilishini xuddi quldorchilik tushunchasi singari shartli qilib qo‘yadi. Sharqda quldorchilik ijtimoiy ishlab chiqarishda hech qachon muhim rol o‘ynamaydi.

Lekin qulchilik munosabatlari o‘rta asrlarda ham mavjud bo‘lishda davom etgan. Ayni paytda Yevropa feodalizmining ba’zi ijtimoiy institutlari qadimgi davrda ham, o‘rta asrlarda ham Sharqqa yot (begona) bo‘lmas edi. Masalan, qadimgi Xitoyning ilk Chjou davridagi udel tuzumiga asoslangan davlatining markazlashtirilmaganligi sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy tuzumini esga olish kifoya.

Yangi davr istoriyagrafiyasida[89] o‘rta asrlar haqidagi tasavvurlar XVII-XVIII asrlardagi ma'rifat va inqilobiy o‘zgarishlar natijasidagi «Yangi tarix» tushunchasi bilan bir qatorda shakllandi. Bunda G‘arbiy Yevropaning yangi tarixi uning o‘tmishiga, ya’ni qadimgi antik va o‘rta asrlariga qarama-qarshi qo‘yiladi. Yangi davr yuqoridagi antik va o‘rta asrlar o‘rniga kelgan tadrijiy tarixiy bosqich sifatida qabul qilinadi. Bu uch bosqichli sxema, antik qadimiylik quldorchilik bilan, feodalizm esa - o‘rta asrlar bilan bog‘lana boshlangach, tugallangan shakllarni olgan edi. Yangi davr istoriyagrafiyasida o‘rta asrlar o‘ziga xos maxsus ijtimoiy-siyosiy tuzum sifatida ko‘riladi. Unga binoan, o‘rta asrlar jamiyatining siyosiy tuzilishi markazlashmaganligi va vassalliklenga oid munosabatlar tizimining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Feodalizm tushunchasi markscha adabiyotlarda mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya sifatida ifodalanib, ishlab chiqarishning maxsus usuli haqidagi ta’limot darajasiga ko‘tariladi.

Jamiyat taraqqiyotiga nisbatan formatsion yondashuvlarda ishlab chiqarish munosabatlari asosiy omil sifatida ajratib ko‘rsatiladi, har bir

[89] **Istoriyagrafiya –** tarix ilmi taraqqiyotini va tarix manbalarini o`rganuvchi fan.

muayyan jamiyat tizim tarzida ko‘riladi. Bunda ishlab chiqarish munosabatlaridan boshqa barcha ijtimoiy aloqalar ular ustida turuvchi yasama ustqurma hisoblanadi. Bu tarixga monistik-materialistik qarashni belgilaydi. Tarixga monistik-materialistik qarashning asosida tarixiy jarayonlarni formatsion davrlashtirish yotadi. Unga ko‘ra, quldorchilik tuzumi o‘rniga feodalizmning, feodal tuzum o‘rniga kapitalizmning va nihoyat, «oxir-oqibatda butun insoniyatning porloq kelajagi» sifatida kommunizmning kelishi go‘yoki birin-ketin keladigan qonuniy va muqarrar tarixiy jarayonlardir.

Lekin Karl Marksning o‘zi ham ko‘pgina jamiyatlarning tarixini bunday sxemaga solib o‘rganish mumkin emasligiga ma’lum darajada tushunib yetgandi va o‘zining dastlabki asarlaridayoq «osiyocha ishlab chiqarish usuli»ning alohidaligi haqidagi ta’limotni yaratgan edi. «Osiyocha ishlab chiqarish usuli» haqidagi masala yuzasidan yaqin-yaqinlargacha ilmiy adabiyotlarda tortishuvlar mavjud edi. Biroq, sharq jamiyatlarida qadimgi davrda ham, o‘rta asrlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tuzumning o‘ziga xosligi, ularning juda sekinlik bilan rivojlanib borish xususiyati, ko‘p ukladliligining turg‘unligi, tarixiy an’analar, diniy mafkura va boshqalarning ijtimoiy taraqqiyotga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi so‘zsiz tan olingandan so‘ng bunday tortishuvlarga o‘rin qolmadi.

Sharq jamiyatlarining kamdan-kam uchraydigan hodisa ekanligi ijtimoiy taraqqiyotning ko‘p qirrali ekanligidan, faqat bazisdagi o‘zgarishlargagina bog‘liq ekanligidan dalolat beradi. Ma’lumki, Yevropa mamlakatlarida feodalizm tushunchasi o‘rta asrlar iborasining sinonimi sifatida ishlatiladi. Lekin buni Sharq mamlakatlariga nisbatan qo‘llanishi to‘g‘ri emas. Xuddi shuningdek, Yevropa mamlakatlarida ham, Sharq mamlakatlarida ham o‘rta asrlar yoki feodalizm davrining quyi va yuqori xronologik chegaralarini belgilash juda qiyin. Shunday bo‘lsa-da, sof metodik nuqtai nazardan insoniyat tarixining bunday uzoq davom etgan bosqichini ma’lum tizimga solib, chuqur va atroflicha o‘rganish maqsadida davrlashtirish va buning uchun uning quyi va yuqori chegaralarini aniqlab olish taqozo qilinadi.

Sharq tarixiga oid o‘quv adabiyotlarida o‘rta asrlarning chegaralari (quyi chegarasi sifatida, odatda, V-VII asrlar ko‘rsatiladi) qator tarixiy omillar majmui bilan bog‘lab tushuntiriladi. Ularning orasida siyosiy tuzumdagi sifat o‘zgarishlari, markazlashgan imperiyalarning tashkil etilishi, juda yirik sivilizatsiya markazlarining, jahon dinlarining tashkil topishi va chet mamlakatlarga kuchli ta’sir ko‘rsata boshlashi bilan bog‘liq omillar va boshqalar muhim ahamiyatga ega.

Xitoyda o‘rta asrlarning quyi xronologik chegarasi ancha aniq ajratilgan bo‘lib, u V-VII asrlarga to‘g‘ri keladi. Aynan shu vaqtda Xitoyda yer egaligining va dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning an’anaviy shakllari bilan o‘ziga xos «osiyocha» ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tuzum o‘rnatilgan, imperiya shaklidagi markazlashgan davlat mustahkamlangan, an’anaviy huquqning normativ asosi tashkil topgan. Xitoy konfutsiylik-buddizm markazi sifatida ilk Yaponiya jamiyati va davlatini o‘z madaniy ta’sir doirasiga tortgan edi.

Hindistonda o‘rta asrlarning quyi xronologik chegaralarini ajratib olish biroz qiyin. Agar bularni ham shartli ravishda V-VII asrlar deb olsak, u holda ularni, birinchidan, yerning taqsimlanishi, mehnat taqsimoti jarayonlarining chuqurlashuvi bilan birga sodir bo‘lgan an’anaviy varna-kasta tizimining ma’lum darajada qayta qurilishi bilan, ikkinchidan, Hindiston madaniyatining ko‘p mintaqalarga, avvalo janubiy-sharqiy Osiyoga va boshqalarga keng ta’siri natijasida ulkan hind-budda sivilizatsiya zonalarining shakllanishi bilan bog‘lash mumkin.

Yaponiyada o‘rta asrlarning quyi chegarasi ijtimoiy tabaqalashuvning kuchayishi va davlatning tashkil topishi bilan bog‘liq ravishda VI-VII asrlar deb belgilanadi. Yaqin Sharq mintaqasining ko‘pgina mamlakatlari uchun esa o‘sha VII asr jahon islom dinining o‘rnatilishi, ko‘pgina xalqlar uchun yangi hayot tarzining shakllanish bosqichi bo‘lib qolgan edi. Bu vaqtga kelib qadimgi Yaqin Sharq davlatlari o‘tmishda qoladi va «jangovar diniy jamoa», Arab xalifaligi davlatlari vujudga keladi. Bu davlatlar bo‘lg‘usi yirik arab-eron-turk islom davlatlari - imperiyalarining tashkil topishi uchun asos bo‘ladi.

Sharq mamlakatlarida o‘rta asrlarning yuqori xronologik chegarasini, ya’ni qachongacha davom etganligini aniqlash ham ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq. Sharq davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumidagi sifat o‘zgarishlari, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi ularning hammasida bir vaqtda sodir bo‘lmagan. Shu sababli Sharq uchun o‘rta asrlar qachon tugaganligini umumiy tarzda aniqlash ancha murakkab masala bo‘lib hisoblanadi. Lekin shunga qaramay, alohida Sharq davlatlari uchun o‘rta asrlarning yuqori xronologik chegarasi belgilanadi. Masalan, Xitoy uchun XX asrning boshidagi inqilobiy o‘zgarishlar (1911-1913 yillardagi inqilob), Yaponiya uchun XIX asr o‘rtasidagi Meydziisin inqilobi, mustamlaka ostidagi Sharq mamlakatlari, avvalo Hindiston uchun kolonial hukmronlikning o‘rnatilishi, an’anaviy tuzulmalarning asta-sekin sindirilishi, bu mamlakatlarning jahon kapitalis-

tik bozoriga tortilishi o‘rta asrlarning yuqori xronologik chegarasi hisoblanadi.

O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlari (Hindiston, Xitoy, Arab xalifaligi, Yaponiya)ning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi umumiy belgilarni ajratib olishda shuni ko‘rsatish mumkinki, bu mamlakatlarning birontasi ham kechki feodalizm davrida kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi sohasida Yevropa mamlakatlari erishgan darajaga chiqmagan edi. Sharq mamlakatlari o‘rta asrlarda asosiy Yevropa mamlakatlariga qaraganda sanoat, tovar-pul, bozor munosabatlari rivojlanishi jihatidan ancha orqada qolgan edi. O‘rta asrlardagi Yevropa mamlakatlariga birmuncha o‘xshash bo‘lgan Yaponiyada esa (Hindiston va Xitoyga nisbatan ertaroq) XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida manufaktura ishlab chiqarishi shaklidagi kapitalizm elementlari vujudga kelgandi. O‘rta asrlarda Sharq jamiyatlarining juda sekinlik bilan rivojlanish xarakteri ulardagi mustahkam ko‘p ukladlilikni, patriarxal-urug‘chilik, urug‘ jamoachiligi, quldorchilik, yarim feodal va boshqa ukladlarning uzoq vaqt mavjud bo‘lib qolishini belgilagan.

Sharq mamlakatlarining butun tarixiy rivojlanishiga yerga nisbatan davlat mulkchiligining keng tarqalishi katta ta’sir ko‘rsatdi. Albatta, davlat mulki jamoachi-dehqonlarning xususiy yer egaligiga asoslangan jamoa mulkchiligi shakli bilan qo‘shilib ketgan edi. Davlat mulki tor ma’noda faqat monarxning juda katta yer egaligini va davlat xazinasini o‘z ichiga olgan. U keng ma’noda hokimiyatga aloqasi bo‘lgan shaxslarga davlat fondidan in'om tarzida hadya qilib berilgan yerlarni ham o‘z ichiga olgan.

Bunday yerlarni olgan kishilar ma’lum hududlarda soliqlar yig‘ish va renta-solig‘ini o‘zlashtirish huquqiga ega edilar. Davlatdan mukofot tariqasida yer olgan mulkdorlar amalda xususiy mulk egalari bo‘lib qolishlari mumkin edi. Ular o‘z egalik huquqlarining kengaytirilishiga, bu huquqlarni meros bo‘yicha o‘tkaziladigan doimiy huquqqa aylantirilishiga erishib, haqiqiy xususiy mulkdorlar bo‘lib qola olar edilar. Lekin o‘rta asrlardagi Sharq jamiyatlarida davlat yerga nisbatan davlat mulkchiligini har tomonlama muhofaza qilgan, xususiy mulkchilikning rivojlanishiga imkon bermagan. Bu esa xuddi G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagiga o‘xshash xo‘jalikning boy-to‘ralarga xos tizimining tashkil etilishiga to‘sqinlik qilgan.

O‘rta asrlardagi hamma Sharq jamiyatlarida yer egaligi turli shakllarining qo‘shilib ketganligi, iqtisodda davlatning o‘ziga xos nazorat qiluvchilik-tartibga soluvchilik rolining mavjudligi, avvalo, hukmron sinfning alohida tuzilishida o‘z ifodasini topadi. Agar o‘rta asrlardagi

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan xususiy yer egalari qaram dehqonlarni ekspluatatsiya qilishda o‘z irodasini ob’yektiv ifoda etuvchi feodal davlatga tayangan bo‘lsalar, Sharq mamlakatlarida esa davlatning o‘zi hokimiyatga aloqador bo‘lgan va asosan erkin dehqonlardan renta solig‘i undirish hisobiga yashovchi chinovnik-byurokratlardan iborat hukmron doiralardan tuzilgan edi.

Bunda shuni hisobga olish kerakki, o‘rta asrlardagi Sharq mamlakatlarining muayyan jamiyatlari ularda davlatning iqtisodga aralashuvi darajasiga qarab byurokratiya bilan hukmron sinfning monand kelishi, yirik xususiy yer egaligining rivojlanishi turli darajada bo‘lganligi bilan tavsiflanadi. Jumladan, o‘rta asrlardagi Xitoyda bunday monandlik ancha yuqori bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

O‘rta asrlardagi Sharq jamiyatlari uchun (Yevropa mamlakatlariga qiyoslaganda) bevosita ishlab chiqaruvchilar-dehqonlar qaramligining nisbatan kuchsizligi, dehqonlarning o‘z yer uchastkalarini boshqarish bilan bog‘liq huquqlari nisbatan ko‘pligi xarakterlidir. Bu yerda boy-to‘ralar xo‘jaligi va barshchinaning mavjud emasligi shunga olib keldiki, dehqonlar alohida feodallar yeriga biriktirib qo‘yilmagan edi. Bu mamlakatlarda dehqonlarning qaramlik holati ularning soliqlar to‘lash majburiyati bilan belgilanardi. Soliqlar dehqonlardan davlat apparati, chinovniklar yordamida undirilardi. Dehqonlarning bunday qaramligi «oddiy kishilar»ning tabaqaviy to‘la qadr-qimmatga ega emasligida o‘z ifodasini topardi va huquq, din hamda jamoa tartiblari bilan mustahkamlanardi.

Sharqda o‘rta asrlar shahari ham o‘ziga xos o‘ringa ega edi. Sharq mamlakatlarida ijtimoiy mehnat taqsimotining nisbatan quyi darajasi shunda o‘z ifodasini topgan ediki, bu yerda shahar ijtimoiy taraqqiyotning tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi kuchi bo‘lib qolmadi. Shahar renta-solig‘ining qayta taqsimlanishi hisobiga yashardi, chunki alohida ijtimoiy guruhlar qo‘lida to‘plangan ortiqcha mahsulot kapital bo‘lib qolmadi, ishlab chiqarishga qo‘shilmadi. Hunarmandchilik mahsulotlari bozorga emas, hukmron chinovnik-byurokratlarning, jumladan, harbiy doiralarning ehtiyojini qondirishga kelib tushardi. Savdo kapitali bunda savdogarlar va hunarmand-ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘ziga xos agent vazifasini bajarardi.

Sharqda qishloq jamoasi merosiy, yopiq kichik xo‘jalik guruhi bo‘lib, bozordan mustaqil edi. U shahar va qishloq o‘rtasidagi ikki tomonlama tovar ayrboshlashning rivojlanishiga, shu bilan birga shaharliklar, shahar tipidagi savdogarlar tabaqasining shakllanishiga to‘sqinlik qilardi.

Bu o‘z navbatida Sharq shaharida mavjud bo‘lgan tartiblarni ham belgilab bergan. Bu yerda hunarmand byurokratik davlat apparatining qattiq nazorati ostida bo‘lgan, huquqiy, diniy ko‘rsatmalar, tabaqaviy, kastaga oid cheklashlar bilan siqib qo‘yilgan. O‘rta asrlardagi Sharq shaharlarida maxsus shahar huquqi yo‘q edi.

Shahar aholisining huquqiy holati qadimgi davr aholisining huquqiy holatidan farq qilmagan. Hindistonda, masalan, shaharning ma’muriy chegaralarini aniqlash qiyin edi. Bu yerda juda ko‘p dehqonlar aholisi bo‘lgan hunarmandchilik qishloqlari va shaharlarini uchratish mumkin edi. Xitoyda shahar oilasi xuddi qishloqdagi singari umumdavlat soliq reestriga kiritiladigan xonadon - xu hisoblanardi. Sharq shahari, Yevropanikidan farqli o‘laroq, davlat shakllarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir qiluvchi sahnaga aylanmadi. U Yevropada bo‘lganidek, markaziy hokimiyatning siyosiy tarqoqlikka qarshi kurashida mustahkam, kuchli tayanchi ham bo‘lib qolmadi.

Sharq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari bu yerda G‘arbiy Yevropa feodal mamlakatlariga xos bo‘lgan davlat shakllarining tashkil topmaganligi bilan belgilanadi. Sharqda o‘z domenlari hududi doirasida suveren huquqlarga ega bo‘lgan feodallar-senorlarning o‘ziga xos ittifoqi tarzidagi senorlik monarxiyasi shakllanmadi. Davlat boshqaruvining bunday shakli sinflarning tashkil topish jarayoni nihoyasiga yetgan jamiyatda vujudga kelishi mumkin edi. Shuningdek, Sharq shaharining qandaydir biror mustaqilligi yo‘q edi, binobarin o‘z tabaqa maqsadlari va manfaatlari uchun kurashuvchi shaharliklar tabaqasi shakllanmagan jamiyatda tabaqa-vakillik monarxiyasining ham tashkil topishi mumkin emas edi. O‘rta asrlardagi Sharq davlatlarida boshqaruvning keng tarqalgan shakli merosiy monarxiya bo‘lib qolgan edi. Ularda hukmdor hokimiyatini cheklashning institutsiyaviy shakllari qaror topmadi. Shu bilan birga bu davlat shakllari bir-biriga o‘xshash ham bo‘lmadi.

Bu davlatlarning markazlashish darajasi, davlat hokimiyatini amalga oshirishdagi harbiy-despotik vosita va usullarni qo‘llash darajasi turlicha edi. Bundan tashqari, ular muayyan Sharq o‘rta asrlar davlatlarining alohida rivojlanish bosqichlarida o‘zgarib turardi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, o‘rta asrlarda Xitoy davlati «sharq despotiyasi» shaklida idora etilgan[90]. Buni u yerda tashkil etilgan imperator boshchiligidagi byurokratik apparatning juda kuchliligi, markazlashtirilganligi, shaxs usti-

[90] **Qarang:** История государства и права зарубежных стран.Часть 1. Учебник для вузов/ Под ред. проф. Крашенинниковой Н.А. и проф. Жидкова О.А.-М.:Издательство НОРМА, 1996. – 374-bet.

dan kuchli politsiya nazoratining o‘rnatilganligi, davlatning iqtisodiy funksiyalarining kengligi va boshqalar ham tasdiqlaydi. Xitoyda despotizm qadimgi davrlardayoq qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tartibotlardan o‘sib chiqqan.

Sharq jamiyatlari ijtimoiy-siyosiy tuzumining yana bir muhim o‘ziga xos xususiyatini u yoki bu jamiyatning hukmron diniy mafkurasi, jamiyat a’zolarining dinga va hokimiyatga nisbatan munosabati belgilaydi. Masalan, konfutsiylikni o‘rta asrlardagi Xitoy davlati va huquqining hal qiluvchi elementi sifatida e’tirof etganda shuni ta’kidlash joizki, uni faqat shartli ravishda din deb atash mumkin. Bu ko‘proq axloqiy-siyosiy ta’limot, falsafiy an’anadir. U xitoyliklarning hukmdor - «osmon o‘g‘li» shaxsida muqaddaslashtirilgan, ilohiylashtirilgan hokimiyat haqidagi qadimgi an’anaviy tasavvurlaridan kelib chiqqan edi. Xitoyliklar dinlarga nisbatan (Xitoyda konfutsiylik bilan bir qatorda boshqa dinlar: buddizm, daosizm va boshqalar ham tarqalgan edi) faqat ushbu hokimiyat ravnaqi yo‘lida foydalanish mumkin bo‘lgan ta’limot sifatida munosabatda bo‘lganlar. Ta’limotga nisbatan bo‘lgani singari dinga ham manfaatparastlik munosabatida bo‘lish, ya’ni uyg‘unlikka erishish yo‘lida dindan tarbiyaning majburlov usullarisiz xalqni o‘zgartirishga da'vat qilingan yordamchi vosita sifatida foydalanish o‘rta asrlar Xitoyida cherkov muassasalarining davlatga bo‘ysunganligi mavqeini belgilardi.

Konfutsiylik o‘zining aql-idrokka asoslangan axloqi bilan, legizmga qarshi kurashning barcha murakkabliklariga qaramay, boshqa dinlar orasida alohida o‘rin egallashga erishdi. Shuningdek, bu ta’limot bunday darajaga o‘zining amaliy qadriyati kuchi bilan ham ko‘tarilgan edi. Konfutsiylik ta’limotining taniqli vakillaridan biri VI asrda yashab o‘tgan Vey Chjenning tasdiqlashicha, bu ta’limot «davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatni to‘g‘rilash»ga, «oddiy xalqning ko‘z va quloqlarini ochish» ga da'vat qildi.

Diniy xilma-xillik, dinga oddiy ta’limot sifatida qarash, davlat hokimiyati va izchil diniy tizim o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaning yo‘qligi o‘rta asrlardagi Xitoy jamiyati va davlatining o‘ziga xos boshqa xususiyatlarini ham belgilab berdi. Bu yerda, masalan, mazhab kabi institut yo‘q edi. Bu esa o‘z navbatida inkvizitsiyaga oid sudlarning mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymadi. Xitoyda G‘arbdagi singari ruhoniylarning shakllangan tabaqasi va zo‘ravonlik yo‘q edi, ruhoniylar davlat apparatida yagona o‘qimishli shaxslar tabaqasidan emasdilar. Xitoyda Tan imperiyasi davrida (VII asrda) davlatning diniy tashkilotlar ustidan siyosiy, ma’muriy, huquqiy, mafkuraviy jihatdan to‘la, cheklanmagan hukmronligi batamom

mustahkamlanadi. Natijada bironta ham diniy institut hatto nomigagina bo‘lsa ham, o‘zini o‘zi mustaqil idora etish huquqiga ega bo‘lmay qoladi.

Arab xalifaligi davlatining va boshqa musulmon dunyosi davlatlarining o‘ziga xosligi bevosita ularning universal din - islom bilan bog‘liqligida edi. Islom ta’limotiga binoan, diniy va dunyoviy hokimiyat bo‘linmas hisoblanib, bu Qur’onda ham o‘z ifodasini topgan. Bu hokimiyat Allohning cheksiz qudrati, kuchi va bo‘linmasligi haqidagi ilohiylashtirilgan (teokratik) g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan: «Allohdan boshqa xudo yo‘q va Muhammad - uning payg‘ambari». Islom musulmonlar dunyosidagi ijtimoiy tuzumning xarakterini ham, davlat muassasalarini ham, huquqiy institutlarni ham, axloqni ham, bir so‘z bilan aytganda, musulmonlarning butun ma'naviy sohasini belgilaydi. Musulmon jamiyatining diniy-huquqiy asoslariga alohida (maxsus) ijtimoiy tuzum mos keladi. Bu ijtimoiy tuzum hukmron sinfning ma’lum darajada qiyofasini o‘zgartirganligi, unvon va imtiyozlarning meros qilib o‘tkazish tizimining yo‘qligi, saylov tizimining mavjud emasligi va hokazolar bilan tavsiflanadi. Musulmon jamiyatida rasman hamma teng huquqlidir, ammo ayni paytda teokratik davlat, uning boshlig‘i - xalifa, sulton oldida barcha teng darajada huquqsiz hisoblanadi.

Musulmon dunyosida ruhoniylar dunyoviy hokimiyatga da’vo qilishlari, shuningdek, o‘rta asrlardagi Yevropa davlatlarida bo‘lganidek, diniy va dunyoviy hokimiyat o‘rtasida nizo ham kelib chiqishi mumkin emas edi. Islom xudoga ishonmaslikni - dahriylikni istisno qiladi, unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ham, bilvosita ham qarshi chiqish mumkin emas. Islomga nisbatan ishonchsizlik bildirgan yoki har qanday ko‘rinishda qarshilik ko‘rsatgan shaxslar musulmonlar jamoasidan o‘chirilgan. Islomning universalligi, musulmon mafkurasining asosiy g‘oyasi hamda diniy va dunyoviy hokimiyatning qo‘shilib ketganligi haqidagi siyosiy nazariya islom jamiyatida davlatning alohida o‘rnini, uning jamiyat ustidan shak-shubhasiz mutlaq hukmronligini, teokratik-avtoritar shakl olishini belgilagan.

Hindiston ham, Yaponiya ham o‘rta asrlarda hech qachon Xitoy va Arab xalifaligi davlatlariga xos cheksiz qudratga ega bo‘lmagan. Masalan, Hindiston jamoasi va kasta tizimining juda mustahkam barqarorligi keng dehqonlar ommasi ustidan, o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi qishloq jamoalari ustidan markaziy byurokratik davlat apparatining nisbatan kuchsiz nazorati o‘rnatilishiga sabab bo‘lgan. Bu yerda davlat chinovnigi emas, balki o‘z shogirdlarini dxarmaga, kastaga oid norma va marosimlarga og‘ishmay

amal qilish ruhida tarbiyalash funksiyalarini bajaruvchi olim - braxman alohida ijtimoiy ahamiyatga ega edi.

O‘rta asrlarda Hindiston va Yaponiyada davlat shakllarining bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga o‘tishiga boshqa omillar ham katta ta’sir o‘tkazdi. Xususan, Hindistonning XIII asrda chet el musulmonlari tomonidan bosib olinishi va Yaponiyada XII asrda imperator hokimiyatining «buyuk lashkarboshi» - syogun tomonidan tortib olinishi bu yerlarda davlat shakllarining bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga o‘tishiga ta’sir etgan omillar bo‘lib hisoblanadi. Yaponiyadagi syogunat mutlaq monarxiyaga xos bo‘lgan qator belgilarni o‘zida mujassam etgan. Syogunatga xos bo‘lgan belgilar majmuiga qarab, bu davrda feodallar yuqori qismining harbiy diktaturasi o‘rnatilgan Yaponiyada nisbatan markazlashgan davlatning o‘ziga xos avtokratik shakli vujudga kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagilar bilan birga, barcha Sharq mamlakatlarining davlat apparatida quyidagi umumiy belgilar: davlat organlarining qo‘pol va beso‘naqayligi, bir-birining ishini takrorlashi va shu kabi holatlar mavjud bo‘lganligini ajratib ko‘rsatish mumkin. Boshqarish, soliq yig‘ish, sud funksiyalari davlat apparatining alohida bo‘g‘inlari o‘rtasida uncha aniq taqsimlanmagan edi. Qurolli kuchlar tashkil etilishi prinsiplarining o‘zi ham aniq emas edi.

Sharq mamlakatlarida boshqaruvning tashkil etilishida yana shunday umumiy jihatni kuzatish mumkinki, bu yerda hukmron tabaqalarning ko‘pchilik qismiga boshqaruv tuzulmasining norasmiy bo‘g‘inlari berib qo‘yilgan edi. Hatto Xitoyda davlat apparatining rasmiy bo‘g‘inlarini tashkil qilish sohasidagi ishlar uyezddan nariga o‘tmagan. Mahalliy boshqaruvdagi norasmiy organlarda rasmiy mansab va darajalarga ega bo‘lmagan «o‘qimishli» tabaqa vakillari - shenshiga juda katta rol tegishli bo‘lsa ham, lekin ular ancha past saviyada faoliyat yuritishgan. Hindistonda ham qishloqning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, oqsoqollar boshchiligidagi jamoa va kasta panchayatlari hokimiyatning rasmiy tizimiga qo‘shilmagan edi.

Sharq mamlakatlari davlat apparatiga xos bo‘lgan bunday xususiyatlarni juda ko‘p sonli ekspluatatsiya qiluvchi guruhlarning hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lishi, ularning dehqonlar tomonidan ishlab chiqilgan qo‘shimcha mahsulotdan o‘z hissalarini olishga intilishlari natijasi sifatida izohlash mumkin. Bu qo‘shimcha mahsulotga urug‘ zodagonlari ham, qishloq jamoasining yuqori qismi ham, o‘rta va yirik merosiy yer egalari ham, davlat apparatining turli bo‘g‘inlari vakillari ham va nihoyat,

ruhoniylar ham da’vo qilardilar. Qo‘shimcha mahsulotdan hissalar tegishlicha davlat foydasiga renta solig‘i olish ko‘rinishida, urug‘ dohiysiga hurmat tarzidagi to‘lov shaklida, mahalliy ma’muriyatga sud va boshqa funksiyalarni bajarganligi uchun yig‘imlar shaklida, kastaga oid va diniy qoidalarni buzganlik uchun jarimalar tarzida va boshqa shakllarda olinardi.

O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarining huquqi va huquqiy manbalari turli bo‘lishiga qaramay, ko‘pgina umumiy xususiyatlarga ega edi. Sharq mamlakatlarining huquqi va axloq qoidalari haqida gap ketganda avvalo shuni ta’kidlash joizki, ular konservativligi[91], turg‘unligi, barqarorligi, an’anaviyligi bilan ajralib turadi. Bu an’anaviylik iqtisodiy tuzumning juda sekinlik bilan rivojlanishini o‘zida aks ettirib, kishilarda ijtimoiy axloq qoidalarining qadimiyligiga, oliy hikmatli ekanligiga, tugallanganligiga ishonch tug‘dirgan.

Huquq va axloq normalarining konservativligi ularning dinlar: induizm, islom, konfutsiylik bilan chambarchas bog‘liqligidan, shuningdek diniy, axloqiy va huquqiy ko‘rsatmalarning bir-biridan ajratilmaganligidan kelib chiqqan. Hindistonda davlatning majburlov kuchi bilan sanktsiyalanadigan va ta'minlanadigan dxarma ayni vaqtda din talabi asosida bajarilishi lozim bo‘lgan axloq normasi hisoblangan. Hind dxarmasiga yapon girilari asosan mos kelgan. Yapon girilari kishilar uchun hayotning turli holatlari yuzasidan yurish-turish qoidalarini belgilagan.

Arab xalifaligida, Dehli sultonligida va Boburiylar Hindistonida barcha musulmon davlatlaridagidek, Qur’on huquqning asosiy manbai edi. Nazariy jihatdan islom hukmdorlarning qonun chiqarish vakolatlarini istisno qiladi. Ular faqat musulmon ilohiyotchilarining fikri bilan hisoblashgan holda Qur’on ko‘rsatmalarini sharhlashlari mumkin. Shuningdek, hindlarning «muqaddas vedalar»ga asoslangan dxarmashastralar huquqi ham «o‘zgarmas» hisoblangan. Xitoyda qonun, imperator farmoni huquqning muhim manbalari bo‘lgan. Lekin konfutsiylik ideologlari tomonidan saralab olingan va imperativ, namunaviy xulq-atvor qoidalari, konfutsiylik axloqining normalari (li) darajasiga ko‘tarilgan konfutsiylik an’analari ushbu farmonning asosini tashkil etardi.

O‘rta asrlardagi barcha Sharq mamlakatlarining huquqiy tizimlari ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning yurish-turish qoidalarini ikir-chikirlarigacha tartibga solib, tabaqaviy, kastaga oid, oilada jinsiy belgilarga qarab tengsizlik o‘rnatgan edi.

[91] **Konservatizm –** eskilikni yoqlash, eskilikka yopishib olish, yangilikka dushmanlik, mutassiblik.

IX BOB. ARAB XALIFALIGI VA MUSULMON HUQUQI

- ***Arab xalifaligining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari.***
- ***Ijtimoiy va davlat tuzumi xususiyatlari.***
- ***Musulmon huquqining asosiy belgilari.***
- Musulmon huquqining manbalari.
- ***Shariat bo‘yicha fuqarolik huquqi masalalarining tartibga solinishi.***
- ***Musulmon huquqida nikoh-oila va meros masalalarining tartibga solinishi.***
- ***Shariat bo‘yicha jinoyat huquqi va sud ishlarini yuritish tartibi.***

1. Arab xalifaligining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari

VII asrda tashkil topib, XIII asrgacha hukm surgan Arab xalifaligi insoniyat tarixida chuqurroq iz qoldirgan. Arab xalifaligining davlat tuzumi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan huquqiy tizimi - musulmon huquqi Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrika hududlariga tarqalgan. Xususan, O‘zbekiston hududida ham VIII asrdan XX asrgacha islom davlatchiligi va musulmon huquqi amalda bo‘lgan.

Musulmon huquqi hozirgi vaqtda ham Yaqin va O‘rta Sharq hamda Shimoliy Afrikaning qator davlatlarida ma’lum darajada harakat qilmoqda.

Arab xalifaligining dastlabki hududi Arabiston yarim oroli bo‘lib, u hududiy jihatdan Yevropaning to‘rtdan uch qismiga to‘g‘ri kelgan va uchta asosiy viloyatlarga bo‘lingan edi. Uning janubiy-g‘arbiy viloyati - Yaman yoki «baxtli Arabiston» bo‘lib, bu yerda dehqonchilik va chorvachilik mashg‘ulotlari uchun qulay shart-sharoitlar mavjud edi. Yaman miloddan avvalgi I ming yilliklardayoq yuksak iqtisodiy darajaga erishgan va muttasil ravishda birining o‘rnini ikkinchisi egallab kelgan bir necha davlatlardan iborat edi. Yaman aholisi qo‘shni mamlakatlar bilan qizg‘in savdo-sotiq ishlarini yuritgan. Yarim orolning Qizil dengiz bo‘ylab cho‘zilib ketgan kambar qismi Hijoz («chegara») deb atalib, g‘arbda joylashgan. Uning faqat ayrim vohalaridagina dehqonchilik qilish mumkin edi. Hijoz aholisining bir qismi ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanardi. Bu yerda, shuningdek, Yamandan keltiriladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan, Eron va Vizantiyada ishlab chiqariladigan hunarmandchilik buyumlari bilan savdo qilish juda rivojlangan. Yamandan Misr, Suriya va Ikki daryo oralig‘iga qadar savdo yo‘llari o‘tgan edi. Yarim orolning eng katta

qismi - Najd - sug‘oriladigan yerlari juda kam bo‘lgan g‘oyat katta yassi tog‘liklardan iborat bir joy bo‘lib, faqat chorvachilik uchun yarar edi. Bu yerda cho‘l aholisi - badaviylar («bad-havi»- arabcha cho‘lda yashovchi odam, ko‘chmanchi degani) yashardi.

Arab xalifaligi tarixini uch davrga ajratish mumkin.

Birinchi davr - arablarda davlatning tashkil topishidan to Umaviylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishigacha bo‘lgan vaqtga to‘g‘ri keladi va qarayib 30 yil davom etadi. Bu vaqtda arab davlati tashkil topgan, arablarning ijtimoiy va davlat tuzumida ibtidoiy jamoa tuzumining ko‘pgina qoldiqlari, harbiy demokratiya belgilari saqlanib qolgan edi. Aynan shu davrdan boshlab Arab xalifaligining o‘ziga xos belgilari - davlat boshlig‘i qo‘lida ham dunyoviy, ham diniy hokimiyatning qo‘shilib ketishi sodir bo‘ladi.

Ikkinchi davr - Damashq (Suriya) davri - Umaviylar sulolasining hukmronligi davri (661-750 yillar) bo‘lib, bu vaqtda o‘ziga xos despotiya ko‘rinishidagi merosiy xalifa boshchilik qiladigan nisbatan markazlashgan davlat tashkil topgan. Xalifa ayni paytda islom dinining ham boshlig‘i hisoblangan.

Uchinchi davr - Bog‘dod (Eron-Mesopatamiya) davri - Abbosiylar sulolasining idora qilish davri bo‘lib, 750 - 1055 yillarni o‘z ichiga oladi va xalifalikning turklar tomonidan bosib olinishi bilan tugaydi.

VI-VII asrlardagi arablarning ijtimoiy tuzumida hali urug‘chilik belgilari kuchli edi. Arablar - ko‘chmanchi (badaviy) arablar ham, o‘troq arablar ham juda ko‘p urug‘ va qabilalarga bo‘lingan edi. Xun olish bor edi. Urug‘ning boyroq a’zolari qurbsizroq qarindoshlariga iqtisodiy jihatdan yordam berishi lozim edi. Har bir qabilaning o‘z diniy marosimi mavjud edi. Qabila va urug‘larning boshida shayx va saidlar turib, hokimiyat faqat shularning qo‘lida edi. Biroq urug‘chilik tuzumining yemirilish alomatlari ro‘y bera boshlagan edi. Urug‘-qabila zodagonlari eng yaxshi yaylovlarni va dehqonchilik uchun yaroqli uchastkalarni - vohalarni (bunday uchastkalarning o‘zi oz edi) o‘z qo‘liga kirgizib olmoqda edi. Zodagon oilalarning ko‘pdan-ko‘p mollari, shuningdek, qullari bor edi. Shayx va saidlar shu oilalardan chiqardi. Urushda qo‘lga kiritilgan o‘ljalarning eng ko‘p qismi bularga ajratilardi. Arablarda urug‘-qabila zodagonlaridan tashqari, ya’ni qabila-urug‘ boshliqlari va oqsoqollaridan tashqari, yana shaharli savdogar-sudxo‘rlardan iborat boshqa bir yuqori tabaqa ham avj olib bordi, bu tabaqa ham muayyan bir qabila va urug‘ga kirgan bo‘lib, odatda badaviy qabilalarning boshliqlari bilan qattiq bog‘langandi. O‘rta dengizdan Hindistonga boradigan muhim savdo yo‘li qadimdan Arabistondan

o‘tardi. Shu savdo yo‘lida ilk vaqtlardayoq katta-katta savdo punktlari, Makka, Yatrib va boshqalar vujudga keldi. Makka shahri ayniqsa katta ahamiyatga ega edi. Arablar o‘rtasida juda dong‘i ketgan ibodatxona bo‘lmish Ka'ba va undagi muqaddas qora tosh (hajari asvad) shu Makkada edi. Makkada shu Ka'ba atrofida har yili katta yarmarka bo‘lib turardi. Makkaning savdogar-sudxo‘rlardan iborat yuqori tabaqasi savdodan katta-katta foyda ko‘rardi. Ular qullarni ekspluatatsiya qilish va qul qilib sotish bilan ham shug‘ullanardilar. Shahardagi mayda hunarmandlar ham shu savdogar-sudxo‘rlardan hamma vaqt qarzdor bo‘lib, iqtisodiy jihatdan ularga qaram edi.

VI asrning oxiri - VII asrning boshlarida arablar qattiq iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga uchradi. Yarim orolning aholisi ko‘payib, yer yetishmay qoldi. Oddiy arablar uchun katta madad bo‘lib kelgan karvon savdosi ham tushkunlikka uchradi. VI asrda eronlar bilan habashlar o‘rtasida bo‘lgan va uzoq-uzoq davom etgan urushlar natijasida Yaman deyarli butunlay xarob va vayron bo‘ldi. Shimoldan janubga va janubdan shimolga tovar olib borish juda ham kamayib ketdi.

Eroniylar Hindistonga boradigan va o‘zlari uchun foydali bo‘lgan boshqa bir yo‘lga, ya’ni Tigr (Dajla) va Yevfrat (Frot) daryolari bo‘ylab Fors qo‘ltig‘iga boradigan yo‘lga homiylik qilardilar. Ana shunday sharoitda arablarda sinflarning tashkil topish jarayoni tezlashib ketdi. Arab shaharlaridagi aholining quyi tabaqalari o‘z ahvolidan norozi edi, ular sudxo‘r boylarga nafratlanib qarardi. Bu norozilikni va nafratlanib qarashni dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq qabilalardagi va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘chmanchi qabilalardagi oddiy omma ham quvvatladi, bu qabilalar ham yerga muhtoj edi va o‘z urug‘-qabilasidagi feodallasha boshlagan zodagonlardan jabr-zulm ko‘rardi.

Urug‘doshlik tuzumining yemirilishi jarayoni ayniqsa Hijozda, xususan, Makkada ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bu yerdagi quraysh qabilasida urug‘ - qabila aristokratiyasi ajralib chiqib, hokimiyatni qo‘lga olgan edi. Badaviylarda urug‘chilik tuzumi ancha uzoq saqlanib qolgan. Lekin ularda ham tez orada urug‘-qabila aristokratiyasi - qabila oqsoqollari (shayxlar, amirlar, sayid (hukmron)lar, qoid (dohiy)lar) va boshqalar ajralib chiqadi. Ularning hokimiyati amalda meros bo‘lib o‘tadigan bo‘ldi. Urushlar vaqtida maxsus dohiylar saylanardi.

Arablarda ham davlatning tashkil topishining asosiy sababi jamiyatning sinflarga ajralishi edi. Bundan tashqari, arablar iqtisodiy inqiroz tufayli yangi-yangi hududlarga muhtoj bo‘lib, Eron va Vizantiya yerlariga kirib borishga harakat qilganlar. Bu inqiroz arab qabilalarining ittifoqlarga

birlashishi jarayonini tezlashtirdi, oqibatda butun Arabistonda yagona davlatning tashkil etilishiga olib keldi.

Mayda arab qabilalarini birlashtirish harakati, ayniqsa, VI asrda kuchaydi. Bunga urug‘ va qabila zodagonlari boshchilik qilardi. Qabilalarni birlashtirish yakka xudoga sig‘inish - monoteizmni targ‘ib qilish shiori ostida o‘tardi. Arab xalq ommasining ijtimoiy noroziligi mafkura tarzida, yangi din - islom dinining vujudga kelishida ifodalandi. VII asrning boshlaridan Muhammad (SAV) arab qabilalarini birlashtirish maqsadida islom dinini targ‘ib qila boshlaydi. 610 yilda u din targ‘ibotchisi (payg‘ambar) sifatida maydonga chiqqandi.

Shu bilan birga urug‘lar o‘rtasidagi o‘zaro urush-janjallarni to‘xtatishni ham talab qildi, urug‘larning bir-biridan qasos olishiga, urug‘ va qabilalarning tor qon-qarindoshlik doirasida biqinib yotishiga qarshi chiqdi. Arab jamiyatining bundan buyog‘iga rivojlanishiga g‘ov bo‘lgan urug‘chilik tuzumining tor doirasiga qarshi olib borilgan bu kurash Muhammadning ko‘p xudolikdan qaytib, bitta xudoga - Allohga sig‘inish kerak, degan asosiy diniy talabida ifodalandi (islom dinining «Lo iloha illalloh, Muhammadun rasululloh» degan asosiy formulasi - «xudo - bir, Muhammad uning payg‘ambari», demakdir). Alloh - quraysh qabilasidagi bosh xudoning nomi bo‘lib, Muhammad unga butun olam xudosi tusini berdi. Mo‘min musulmonlar «Allohning haqiqiy payg‘ambariga» (Muhammad o‘zini shunday deb e’lon qilgan edi) so‘zsiz itoat qilishlari kerak edi.

Muhammad (SAV) sudxo‘rlikni qattiq qoraladi, har bir kishidan kambag‘allarga yordam berishni, o‘z daromadining o‘ndan bir qismini kambag‘allarni boqish uchun ajratishni talab qildi.

Muhammad (SAV) vujudga keltirgan yangi dinning beshta asosiy qoidasi, ya’ni: 1) bitta xudoga - Allohga ishonish, 2) har kuni albatta besh vaqt namozni tark qilmaslik, 3) yilda bir marta ramazon oyida ro‘za tutish, 4) zakot (kambag‘allarga ushur) berish va 5) haj qilishdan iborat besh farzi muhim ahamiyatga ega. Muhammad (SAV) qullikni qonuniy deb hisobladi, ko‘p xotin olishga fatvo berdi, savdoga va xususiy mulkchilikka homiylik qildi. Shu bilan birga yangi din dastlabki vaqtlarda xalq ommasining kayfiyati bilan hisoblashishga har holda majbur bo‘ldi. Zakotning farz qilib qo‘yilishi va sudxo‘rlikning birmuncha cheklanishi buning yorqin dalilidir.

Dastlabki vaqtlarda Makkadagi quraysh aristokratiyasi Muhammad (SAV)ga nihoyatda dushmanlik ko‘zi bilan qaradi. Muhammad Makkaning azaldan beri davom etib kelayotgan urf-odatlarining ildiziga bolta urayotgandek, Ka'baning ahamiyatini gumon ostida qoldirayotgandek

tuyulgan edi. Qurayshlar payg‘ambarning o‘zini va uning barcha muridlarini o‘ldirmoqchi bo‘lishdi. Muhammad (SAV) Makkadan qo‘shni Yatrib shahriga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldi; Yatrib o‘sha vaqtda Makka bilan raqobat qilardi. Bu voqea eramizning 622 yilida yuz berdi.

Muhammad (SAV)ning Yatribga ko‘chishi (arabchasiga «hijrat») islom tarixida bir era bo‘lib, musulmonlar o‘z hisobini mana shu eradan boshladi. Shundan keyin Yatrib shahri Madinat-un-Nabi, ya’ni «payg‘ambar shahri» deb atala boshladi. Madinada Muhammad (SAV) mo‘minlar - «Alloh bandalari»ning katta jamoasini tuzdi («islom» degan so‘z «banda» demakdir). Madinadalik davrida ham Muhammad (SAV) bilan Makka o‘rtasida nihoyatda dushmanlik munosabati davom etdi. Madinaga hamda ittifoqchi badaviy qabilalarga suyanib turib, Muhammad (SAV) qurol kuchi bilan makkaliklarni o‘z hokimiyatiga bo‘ysundirdi. Makka aristokratiyasi oxir-oqibatda yon berishga majbur bo‘ldi. Makka aristokratiyasi islom dinini va Muhammad (SAV)ning e’tiborini tan oldi. Lekin Muhammad (SAV) ham Makkaning diniy ustunligini, Ka'baning va undagi qora toshning muqaddasligini e’tirof etib, har bir musulmon Makkaga haj qilishi shart, deb e’lon qildi. Bu bilan Muhammad (SAV)ning yangi diniy tashkiloti quraysh zodagonlarining siyosiy ta’sirini ham tan oldi. Haqiqatda, arablarda turli arab qabilalarini bitta qilib birlashtirgan davlat dini teokratik shaklda tashkil topa boshladi. Makka zodagonlari va badaviy qabilalarning boshliqlari bu yangi davlatda o‘zlarining hukmronlik mavqeini kengroq, umum Arabiston doirasida mustahkamlab olish imkoniga ega bo‘ldi. Muhammad (SAV) vafot etgandan keyin, oradan ko‘p o‘tmay, islom bayrog‘i ostiga birlashgan arab qabilalari Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqib, Vizantiya, Eron yerlarini istilo qila boshladi.

Shunday qilib, turli arab qabilalarining birlashtirilishi natijasida yagona arab davlati tashkil topadi. Bu davlat teokratik - dinga tayangan davlat bo‘lib, quldorlik tuzumining yemirilishi bilan feodal davlat sifatida paydo bo‘ldi. Muhammad (SAV) vafotidan keyin Abubakr (632-634 yillar), Umar (634-644 yillar), Usmon (644-656 yillar), Ali (656-661 yillar) hukmronlik qilishgan. Bu xalifalar kelib chiqishlari jihatidan Muhammad (SAV)ning qarindoshlari yoki yaqin do‘stlari edi.

Islom ta’limoti bo‘yicha Muhammad (SAV) Allohning yerdagi noibi, unga ummaning yo‘lboshchisi degan unvon ham Alloh tomonidan berilgan. Bundan keyin hech kim Allohning yerdagi noibi bo‘lishi mumkin emas. Undan keyin faqat o‘rinbosarlar, merosxo‘rlar, ya’ni xalifalar bo‘lishi mumkin edi. Yuqoridagi to‘rt xalifa xuddi shunday merosxo‘rlar edi. Xalifalar ham dunyoviy, ham diniy hokimiyat boshlig‘i edi. Qonun chiqa-

rish, ijro etish, sud hokimiyati ham ularga tegishli edi. Ushbu to‘rt xalifalar islomda «xulafo ar-roshidin» («to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar»), dindorlar o‘rtasida **choryorlar** deb atalgan.

Abubakr Muhammad (SAV)ning safdoshlaridan, uning qaynotasi (Oyshaning otasi) bo‘lib, yirik savdogar edi. Uning davrida Iroq va Suriya bosib olingan, sosoniylarga (633 yil), vizantiyaliklarga qarshi (Falastin yerlariga, 634 yil) qo‘shinlar yuborilgan va Arabistonda islom musatahkamlangan. U o‘zi hukmronlik qilgan ikki yil ichida ridda nomli arab qabilasining kuchli va xavfli qo‘zg‘oloniga duch kelgan. U o‘limi oldidan kengash chaqirib o‘zining yaqin safdoshi Umarni (634 yil) vasiyat yo‘li bilan o‘ziga voris etib tayinlagan.

Umar xalifaligi davrida Suriya, Falastin, Misr, Iroq va Eronning katta qismi bosib olingan va Arab xalifaligiga qo‘shilgan. U davlat apparatini ancha mustahkamlagan, soliq tizimini tartibga solgan, davlat xizmatchilari va harbiy boshliqlar maoshini aniq belgilagan, bosib olingan mamlakatlarda, shaharlarda arablarning harbiy lagerlarini, ulardan keyinchalik Basra, Sheroz, Qohira va boshqalarni vujudga keltirgan. Aynan shu davrda yangi musulmon yil hisobi - hijriy yil kalendari joriy etiladi. Islom an’anasida Umar hukmronligi davri islomning «oltin asri» deb hisoblanadi.

644 yilda xalifa Umarga xristian qullardan biri (hunarmand kishi) suiqasd qiladi. U o‘limi oldidan o‘z atrofidagi 6 kishidan iborat kengashga (shuuraga) o‘z oralaridan merosxo‘r saylashni topshiradi. Kengash Madina aholisi fikrini o‘rganib chiqadi va Usmonni uchinchi xalifa sifatida tasdiqlaydi (644 yil).

Xalifa Usmon quraysh qabilasining umaviylar shajarasidan kelib chiqqan edi. Uning davrida xalifalik hududi ancha kengaydi, uning buyrug‘i bilan Qur’on matnlari to‘plandi. U makkalik, ayniqsa umaviy zodagonlarga homiylik qiladi, qarindosh va yaqinlariga davlat mansablarini va katta-katta yerlarni, xazina mablag‘larini bo‘lib beradi. Natijada norozilik kelib chiqadi va birinchi xalifa Abu-Bakrning o‘g‘li Abdullo ibn Bakr rahbarligida (656 yilda) o‘ldiriladi.

Shundan so‘ng, 656 yilda Madinadagi masjitda musulmonlarning ulkan jamoasi - ummada Muhammad payg‘ambarning yaqin qarindoshi (amakivachchasi va qizi Fotimaning eri) Ali xalifa etib saylangan. Lekin umaviylar uning hokimiyatiga bo‘ysunmadilar. Ular eski arab qabilalari qonunlariga binoan, Usmonning o‘limi uchun qonli o‘ch olishni talab qiladilar. Bu harakat tez orada Aliga qarshi muxolifiyatning asosiy shiori bo‘lib qoladi, unga Suriyaning umaviychi noibi Muoviya boshchilik qiladi. U yangi xalifani tan olish va unga bo‘ysunishdan voz kechadi hamda 658

yilda Damashqda o‘zini xalifa deb e’lon qiladi. Ali taxt uchun kurashda g‘alaba qozonolmay, umaviylar bilan kelishishga ko‘nadi. Ali o‘z davlat poytaxtini Madinadan Iroqning Kufa shahriga ko‘chiradi. Alining murosasizlik siyosatidan norozi bo‘lgan uning tarafdorlaridan bir qismi (xorijiylar) suiqasd uyushtirib, 661 yilda uni o‘ldiradilar. Shu bilan xalifalikning «respublika davri» deb atalgan davr, ya’ni to‘rt xalifa davri tugaydi.

Muoviya Suriya hokimi etib tayinlangandan so‘ng arablar istilosi natijasida egalari tashlab ketgan yerlarni, Sosoniy shahanshohlari va Vizantiya imperatorlarining mol-mulklarini qo‘lga oladi. Hijozdagi otasidan qolgan mulkni harbiy asirlar kuchi bilan obod qiladi. Asoratga solingan xalqlarning ichki ishlariga aralashmay, faqat soliqlar yig‘ish bilan kifoyalanadi, joylarda boshqarish ishlarini mahalliy amaldorlarning ixtiyorida qoldiradi. Shuning uchun ular uni qo‘llab-quvvatlagan edilar. Ali vafotidan keyin (661 yil) Muoviya arab zodagonlari va harbiy boshliqlar yordamida yagona hukmron bo‘lib qoladi.

661-685 yillarda Umaviylar Ali tarafdorlari va xorijiylar ustidan g‘alaba qozonib, hokimiyatni mustahkamlab oladilar. Umaviylar qator islohotlar o‘tkazadilar. Ular xalifa lavozimini nasliy mulkka aylantirish, davlat xazinasi va davlat arxivini tashkil etish, arab tilini davlat tili deb e’lon qilish, yangi oltin, kumush va mis pul chiqarish, harbiy-dengiz floti tashkil etish va boshqalar bo‘yicha islohotlar o‘tkazadilar. Bu tadbirlar Umaviylar davlatining harbiy-siyosiy hamda iqtisodiy qudratini oshiradi. Poytaxt Damashqda qoladi. Suriya xalifalikning markaziy viloyatiga aylanadi. Umaviylar davrida arablar sharqda Afg‘oniston, Hindistonning shimoliy qismi, Armaniston, Gruziya, Movarounnahr, g‘arbda Shimoliy Afrika va Ispaniyaning katta qismini bosib oladilar.

Umaviylar sulolasi VIII asrning o‘rtasidagi Abu Muslim boshchiligidagi qo‘zg‘olon natijasida ag‘dariladi. Xalifalik taxtiga Muhammad (SAV)ning amakisi avlodlaridan bo‘lgan Abul-Abbos as Saffoh (749-754 yillar) o‘tiradi va umaviylar avlodlaridan bo‘lgan shahzodalarni qirib tashlaydi va abbosiylar sulolasiga asos soladi. Poytaxt Damashqdan Bog‘dodga ko‘chiriladi. Bu sulola 750-1055 yillar mamlakatni idora etadi. Mahdiy (775-785 yillar), Xorun ar-Rashid (786-809 yillar), Amin (809-813 yillar), Ma'mun (813-133 yillar), Mu'tasim (833-842 yillar) va boshqalar davrida Arab xalifaligi markazlashgan qudratli davlatga aylanadi, unda feodal munosabatlar rivojlanadi. Arab xalifaligiga Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Afrika davlatlari kiradi. Feodallar zulmi kuchayishi bilan xalq qo‘zg‘olonlari (masalan, Bobak, Muqanna, Sumbod Mug‘ boshchiligidagi qo‘zg‘olonlar, zinjiylar qo‘zg‘oloni va boshqalar) ko‘tariladi. IX asrning II yarmi-

dan boshlab Abbosiylar xalifaligining markaziy hokimiyati zaiflasha boradi, xalifalik tarkibida bir necha mustaqil davlatlar vujudga keladi. Masalan, 756 yilda Ispaniyada Qurtoba amirligi tashkil topadi, Shuningdek, tez orada Afrikada Ag‘labiylar davlati, Xuroson va Movarounnahrda Somoniylar davlati, Marokash, Tunis, Misr va boshqa mustaqil davlatlar vujudga keladi. 945 yilda Erondagi Buvahiylar Bog‘dodni egallab, Abbosiylarni siyosiy hokimiyatdan chetlashtiradilar.

1055 yilda Bog‘dodni saljuqiy turklar bosib oladilar va o‘z boshliqlari To‘g‘rulbekni sulton deb e’lon qiladilar. So‘nggi xalifa Mustasimni mo‘g‘ullar xoni Xulagu qatl ettirgan edi (1258 yilda). XIV asrda Arab xalifaligi hududi Amir Temur tomonidan bosib olingan. XV asrda xalifalik Usmonli Turk saltanati tarkibiga qo‘shib olinadi.

2. Ijtimoiy va davlat tuzumi xususiyatlari

Ijtimoiy tuzum

Arab xalifaligi ijtimoiy munosabatlarining o‘ziga xos tomoni shunda ediki, unda Yevropa mamlakatlaridagi singari tabaqaviy tuzum o‘rnatilmadi. Bu yerda aholi turli guruhlari huquqiy holatidagi o‘ziga xos belgi, avvalo, musulmonlar va nomusulmonlar, arablar va boshqa xalqlarning huquqlari noteng va har xil ekanligida edi.

Shariat bo‘yicha kishining huquqiy layoqati va muomila layoqati islomga e’tiqod qilishiga qarab belgilanadi. Musulmonlar musulmon bo‘lmaganlar oldida imtiyozli hisoblanadilar. Hatto qul musulmonlar erkin nomusulmonlarga nisbatan imtiyozli huquqlaridan foydalanadilar. Shariat bo‘yicha faqat musulmonlar to‘la huquqiy layoqatga ega. Boshqa dindagilar - **zimmiylar** to‘la huquqiy layoqatga ega emas, deb hisoblanganlar. Ular islom davlatida musulmon hukmdorlarga tobe bo‘lib yashayotgan hamda o‘zlarining jon va mol-mulklarini musulmonlar omon saqlamoqlari uchun har yili juz'ya solig‘i (jon solig‘i) to‘lab turmoqni o‘z zimmalariga olgan g‘ayridinlar hisoblanadi. Bu haqda Qur’oni karimning 10-pora 9-Tavba surasining 29-oyatida shunday deyiladi: «Allohga va oxirat kuniga ishonmaydigan, Alloh va Rasuli harom qilgan narsalarni harom sanamaydigan, haq din (Islom)ni din qilib olmaydigan ahli kitoblardan iborat kishilarga qarshi - to ular o‘zlarini past tutib, jiz'ya (soliq)ni naqd bermagunlaricha - jang qilingiz!». Juz'ya solig‘ini to‘lab turgan zimmiylar va musulmon hukmdorlar o‘rtasidagi ahdga qat’iy rioya qilmoqlari haqida Payg‘ambarimiz hadislarini Imom Al-Buxoriy ham o‘z kitobida ta’kidlab

o‘tgan[92]. Zimmiylarga nisbatan shariat normalari faqat ular musulmonlar bilan bitimlar tuzganlarida yoki jinoyat sodir etganlarida qo‘llanilgan. Boshqa hollarda, ular o‘z fuqarolik-huquqiy aloqalariga amal qilganlar va o‘z oqsoqollari tomonidan idora etilganlar. Zimmiylarning musulmonlar bilan nikohga kirishi, musulmonlardan qullarga ega bo‘lishi taqiqlangan. Ular ot minib yura olmaganlar, faqat xachir va kichkina eshaklarda yurishlari mumkin edi. Ular uchun yana boshqa bir qancha taqiq va cheklovlar mavjud edi.

Arab xalifaligida ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi qullarning huquqiy holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Musulmon huquqi bo‘yicha qullar huquq subyekti bo‘lmagan, lekin ular o‘z xo‘jayinlarining roziligi asosida erkin kishilar bilan shartnoma tuzishlari va mulkka egalik qilishlari mumkin edi. Musulmon qulni erkinlikka qo‘yib yuborish savobli ish hisoblangan.

Erkinlikni qo‘lga kiritgan qullar **mavalilar** deb yuritilgan. Lekin ularning erkinligi to‘liq bo‘lmagan. Ularning ahvoli xuddi Rim imperiyasidagi erkinlikka chiqarilgan qullarning ahvoliga o‘xshash edi. Mavalining mol-mulki u o‘lgandan so‘ng merosxo‘ri bo‘lmasa, xo‘jayiniga o‘tgan. Arablar tomonidan bosib olingan xalqlarning aholisi ham mavalilar deb atalgan.

Davlat tuzumi

Arab xalifaligi rivojlanishining yuqoridagi uchta bosqichida uning davlat tuzumi o‘zgarib borgan. Arab xalifaligining birinchi davrida hali davlat tuzumida harbiy demokratiya qoldiqlari saqlanib qolgan bo‘lsa, Umaviylar va Abbosiylar davrida xalifalik despotik davlatga aylangan.

Muhammad (SAV) Makkadagi muhojir sheriklari (muxojirun) va madinalik tarafdorlari (ansor) bilan birgalikda o‘zining «Umma» nomli diniy-siyosiy jamoasini tuzadi. Bu ayni vaqtda arablar yerida qon yoki qarindoshlik rishtalari asosida emas, balki g‘oya asosida ijtimoiy tashkilot vujudga keltirishga dastlabki urinish bo‘lgan edi. Buning uchun shunday universal qonun talab qilinadiki, u ana shu vaqtgacha kuchli yoki ayyor rahbarlik irodasi ustunlik qilgan jamiyatda yangilik kiritishi lozim bo‘lgan qabila yo‘lboshchisi bo‘lishi yoki yerdagi qandaydir boshqa mavjudotdan yuqori turishi kerak edi.

Muhammad (SAV) tashkil etgan diniy-siyosiy jamoa ana shu g‘oyaga asoslangan bo‘lib, unda Alloh davlat mustaqilligining timsoli, payg‘ambar esa umrbod uning qonuniy noibi va yerdagi oliy rahbar edi. U ana shu tariqa o‘z qiyofasida yakka hokimga xos obro‘-e’tiborning barcha jihatlari-

[92] **Qarang:** Imom al-Buxoriy. «Hadis». 1997, 2-jild, 346-bet.

ni birlashtirgan edi. U Allohning qonun-qoidalarini dindorlarga uning so‘zlari bilan e’lon qilgan va ularni o‘zi va boshqalar oldida muvaffaqiyatli himoya qila olgan edi. Shu bilan birga Muhammad (SAV) qavmlari uchun mutlaq qonun chiqarish hokimiyatini o‘zida saqlab qoldi.

Bundan tashqari u oliy sudya, cheklanmagan ijroiya va harbiy hokimiyatga ham ega edi. Zabt etilgan qabilalar unga itoat etishardi; u bilan shaxsan ittifoqlar tuzilardi. U aholining butun-butun guruhlarini quvg‘in qilish yoki ularni jazolash to‘g‘risida qaror qabul qilar, soliqlar va ularni undirib olish usulini belgilar, qo‘lga kiritilgan o‘ljalarini erkin tasarruf etardi. Muhammad (SAV)ning obro‘siga doir mutlaq va shaxsiy o‘ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, u hech qanday kengash, hech qanday majlis o‘tkazishni joriy etmagandi. Aytilishicha, garchi u o‘z tevarak-atrofidagilardan tez-tez maslahat so‘rab tursa-da, lekin ularda hamisha tasodifiy va aslo majburiy bo‘lmagan tavsiyalar haqida gap borardi.

Butun ijtimoiy hayot masjid qonunlari doirasida borardi. Bu yerda barcha muhim davlat va jamoa masalalari hal etilardi, ommaviy ibodatlar o‘tkazilardi, hukmlar e’lon qilinar va ijro etilardi. Masjidga tirkab qurilgan suffa deb ataluvchi zal o‘quv xonasi, masjid hovlisi esa harbiy o‘quv maydoni hisoblanardi.

Garchi yosh musulmonlar jamoasida ruhoniylar tabaqasini belgilash va ierarxiya tashkil etishdan voz kechilgan bo‘lsa-da, payg‘ambar (SAV) tez orada o‘z vakolatining bir qismini shaxsiy vakillariga topshirishga majbur bo‘ldi. Ana shu vakillarining malaka mezonlari ularning halolpokligida, musulmon huquqini (shariatni), bunga qadar islomga ko‘rsatib kelingan xizmatlarni bilishda edi. Muhammad (SAV) harbiy boshliqlar, soliq yig‘uvchilar, harbiy boylikni saqlovchilarni, shuningdek, hujjatlar, mulkiy holatlarni qayd etish, soliq tushumlarini baholash, xatlar yuborishni tartibga solish uchun kotiblar ham tayinlardi.

Birinchi musulmon davlati Madina shahrida tashkil etilgandan keyin bir necha yil o‘tgach, u Arabiston yarim orolining katta qismini qamrab oldi, shundan keyin payg‘ambar viloyat boshqaruvi tizimini joriy qildi. Har bir viloyat tepasida endi valiy turardi, u jamoat xavfsizligi va tartibini saqlash, shuningdek, sud vazifalarini ham ado etishi lozim edi. U ayni vaqtda imom ham bo‘lib, dindorlarning ommaviy ibodatlariga boshchilik qilardi. Muhammad (SAV) hayot vaqtida musulmon davlatchiligi shak-shubhasiz teokratik (diniy hukmronlikka asoslangan) edi. Alloh davlatining oliy mustaqil hokimi sifatida Muhammad (SAV) Allohning buyruqlarini amalga oshiruvchi, yetkazuvchi sifatida maydonga chiqdi. Payg‘ambar (SAV) shu tariqa o‘zining farmoyishlarini ifodalamasdan, xudo amrini bajaruvchi

sifatida ish ko‘rdi. Bu lavozimda u ikki vazifani ado etdi: birinchidan, payg‘ambar vazifasini bajardi, ya’ni Alloh so‘zlarini dindorlarga yetkazib turdi; ikkinchidan, Allohning yerdagi dunyoviy noibi vazifasini bajardi.

Payg‘ambar (SAV)ning Madinada barpo etilgan davlatdagi davlat-huquq vaziyati o‘ziga xos darajada noyob va betakror edi, chunki Muhammad (SAV) Qur’on bo‘yicha «Allohning payg‘ambari va payg‘ambarning so‘nggisidir». Shu tariqa payg‘ambar lavozimini meros qilib olishga avval boshdanoq barham berilgan edi: Muhammadning (SAV) Alloh vakili sifatidagi mavqei faqat uning shaxsi bilan cheklangan bo‘lib, uning izdoshlariga meros bo‘lib o‘tishi mumkin emas edi. Lekin musulmon dinshunoslarining fikricha, Muhammad (SAV) yerdagi noib, ya’ni musulmonlar jamoasi - ummaning yo‘lboshchisi sifatida bevosita Allohning o‘zi tomonidan e’lon qilingan bo‘lib, uni faqat xalifalar meros qilib olishlari mumkin edi.

Arabcha - «xalifa» so‘zi merosxo‘r yoki o‘rinbosar ma’nosini bildiradi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, xalifalar (arabcha «xillaafa») diniy vazifalar bilan birga dunyoviy vazifalarni ham bajarardilar. Shu tariqa ular davlat va hukumat boshlig‘i, shuningdek, musulmonlar ommaviy ibodatlarining ma'naviy rahbari ham edilar.

Dastlabki to‘rt xalifa musulmon aslzodalari orasidan saylangan edi. Muhammad (SAV) payg‘ambarning vorislari hisoblangan bu xalifalar ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga (qonun chiqaruvchi, ijrochi, sud hokimiyatiga) ega bo‘ldilar. V.V.Bartold ana shu o‘ziga xos xususiyatni qayd etar ekan, bunday deb yozgan edi: faqat «dindor xalifalar davridagina Arab xalifaligidagi oliy hokimiyat teokratik xususiyatni saqlab qoldi. Bu davrda xalifalar faqat diniy rahbarlar (imomlar) emas, shu bilan birga harbiy rahbarlar (amir al-mo‘minin) ham bo‘lib qoldilar».

Shunday qilib, xalifalik teokratik shakldagi davlat bo‘lib, unga xalifa - payg‘ambar (Allohning yerdagi «vakili» va «noibi») ning o‘rinbosari boshchilik qilgan.

Xalifalar o‘z qo‘lostilarida ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatni jamlagan edilar. Shundan keyingi davrlarda mahalliy musulmon hukmdorlari tomonidan xalifalardan mustaqil, alohida hokimiyatning o‘zlashtirilishi, arab huquqshunoslari ta’limotiga ko‘ra dinga asoslanmagan hukmronlik edi.

Xalifa hokimiyatining manbai quyidagilar edi:

birinchidan, uning musulmon jamoasi tomonidan saylanishi;

ikkinchidan, xalifaning vasiyat tariqasidagi farmoyishi.

Vaqt o‘tishi bilan haqiqiy real hokimiyatni qo‘lga kiritish usuli odatdagi usulga aylandi. Xalifa o‘z talabini qondirgan har qanday kishini o‘zi-

ga voris qilib tayinlashi mumkin edi. Xalifalar xalifa oilasining a’zolaridan biri bo‘lishi yoki hech bo‘lmasa Muhammad (SAV) payg‘ambarning urug‘idan, ya’ni qurayshlar qabilasidan chiqqan bo‘lishi, kamolatga yetgan va tanasida kamchiliklar bo‘lmasligi lozim edi. Bundan tashqari muayyan axloqiy sifatlarga va ma’lumot darajasiga ham ega bo‘lishi talab qilinardi.

Dastlabki to‘rt xalifa (al-xulafo ar-roshidin) davlati keyingi asrlarda ham an’anachilar sifatida, ham islohotchilar sifatida, ham musulmonlarning ideal davlati sifatida maqtalib, unda davlatning dastlabki musulmon tushunchasi sof ma’noda amalga oshgan edi. Musulmonlar orasida, hatto, ekstremistik qarashlar ham mavjud bo‘lib, ularga binoan ushbu xalifalardan keyingi davrdagi qonuniy musulmon idora usulining mavjudligi umuman inkor etilardi. Ularning hukmronlik davri Abubakrning 632 yilda birinchi xalifa lavozimiga o‘tirishidan to 661 yilda to‘rtinchi xalifa Alining o‘ldirilishiga qadar bo‘lgan qariyb o‘ttiz yilni qamrab oldi.

Musulmon ta’limotida dastlabki to‘rt xalifa hech vaqt begunoh kishilar deb qaralmagan, lekin ular birmuncha e’tibor va ishonchga sazovor bo‘lishgan. Taxmin qilishlaricha, ularning sofligi va Muhammad (SAV)ga sadoqati uning farmoyishlariga qarshi qaratilgan xatti-harakatlardan saqlanishlariga yordam bergan. Bordi-yu, ulardan birortasi bu farmoyishlarni bilmasdan buzgan taqdirda payg‘ambarning boshqa muxlislari ularni to‘g‘rilagan bo‘lishardi. Buning oqibati shu bo‘ldiki, to‘rt xalifaning tajribasi, xuddi Muhammad (SAV)niki kabi tez orada qonun tusini olgan ediki, keyingi musulmon hukmdorlarida odatda bu narsa bo‘lmagan.

Muhammad (SAV) va uning to‘rt bevosita merosxo‘rlari davrida musulmon davlati vujudga kelishi tongotarida hukumatning shakli va vazifalari o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bo‘ldiki, ular keyinroq musulmon davlati huquqiy tizimining yanada rivojlanishini belgilab berdi. Keyinchalik tashqi ko‘rinishi jihatidan bu davlatga Eron va Vizantiya ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa ham ular muhim o‘zgarishlarga olib kelmadi. Lekin musulmon davlatining aniq ifodasi: monarxiya shakli, hukmdorning shaxsiy obro‘si va davlat boshqaruvining teokratik xarakterda bo‘lishi namoyon bo‘lib qoldi.

Bu yerdagi mutlaq hokimiyat ma’nosidagi monarxiya shakli lavozim egasining mumtozligidan, shuningdek, xalifaning o‘z lavozimini umrbod egallaganidan va saylanganidan keyin hech bo‘lmaganda nazariy jihatdan davlatdagi birdan-bir obro‘li kishi ekanligidan kelib chiqar edi.

Faqat bitta musulmon jamoasi - umma mavjud bo‘lib, shunga monand jamoaning yo‘lboshchisi ham bitta edi. Aytishlaricha, Abubakrni saylash oldidan davlat boshlig‘i qilib muhojir va ansor vakillaridan iborat

kengash belgilashga intilish bo‘lgan edi. Asosan Umarning bu g‘oyaga qarshi keskin norozilik bildirishi tufayli bu intilishni bostirishga muvaffaq bo‘lindi. Umar yerdagi mustaqqillikni hech qanday shaxs yoki tashkilot bilan bo‘lib o‘tirmadi, vali (viloyat hukmdori) lar, harbiylar yoki vaqt o‘tishi bilan xalifalik hududida ta’sis etilgan tashkilotlar xalifa obro‘si asosida va uning rahbarligida ish olib bordilar. To‘g‘ri, dastlabki xalifalar ko‘pincha o‘z atrofidagi kishilardan maslahat so‘rashardi, lekin bu uning shaxsiy obro‘si cheklanishini anglatmas edi.

Xalifaning nufuzi muayyan hududga egalik qilishga yoki hukmronlikka emas, balki ishonch, umumiy manfaatlar kabi shaxsiy xislatlarga, o‘zining yagona va noyob asoschi bilan aloqasiga asoslanardi: xalifa xudoning marhamati bilan hukmron bo‘lgan edi. U o‘sha vaqtda odat tusiga kirib qolgan va mavhum davlat obro‘siga asoslangan dunyoviy unvonlardan birortasiga ega emasdi. U xalifa, demak, payg‘ambarning noibi ediki, bu narsa favqulodda shaxsiy unsurni anglatardi. Xalifa so‘ngra tom ma’nodagi imom, ya’ni diniy marosimlar o‘tkazilayotgan vaqtda ummaning yo‘lboshchisi, nihoyat «dindorlarning boshlig‘i (amir al-mo‘minin)» degan rasmiy unvonga ega bo‘ldi, u birinchi navbatda harbiy-siyosiy ishlarga, ikkinchi navbatdagina xalifalikning diniy ishlariga e’tibor qilardi.

Amir unvoni aslida maxsus yoki favqulodda xususiyatga ega emas. «Amara» - buyurmoq so‘zining ildizi va «amir» iborasi buyruq berishga, ayniqsa harbiy ishda buyurish huquqiga ega bo‘lgan har qanday shaxsni bildiradi. Masalan, har bir harbiy boshliq amir bo‘lgan. Musulmon davlatidagi harbiy boshliq faqat dindorlarga qo‘mondonlik qilganligi sababli uni ko‘pincha amir al-mo‘minin deb atashgan. Tez orada bu unvon, chamasi, ikkinchi xalifa Umar davridan boshlab musulmonlar jamoasi - ummaning oliy rahbariga berilgan. Demak, bu hol yuz bergach, u tezda rasmiy tus olgan va bu unvonga faqat xalifa haqli bo‘lgan. Xalifa klassik musulmon davlati nazariyasiga ko‘ra sof diktatorlik vazifasiga ega deb qabul qilinsa ham, o‘z hukmronligini umma nomidan emas, balki bevosita Alloh nomidan olib borgan.

Musulmonlar jamoasi - umma oldida o‘z asoschisi vafotidan keyin boshqarishni qay tarzda davom ettirish lozimligi haqidagi muammo kelib chiqqan. Arab xalifaligining taqdiri ana shunga bog‘liq edi. Qur’on ham, hadislar ham, uning vafoti tafsilotlari ham Muhammad (SAV) hokimiyati kimga meros bo‘lib o‘tishi haqida hech qanday yo‘l-yo‘riq bermagan edi. Buning ustiga payg‘ambarning erkak merosxo‘ri ham yo‘q edi.

Sharqdagi odat bo‘lib qolgan kattalik huquqi yoki birinchi bo‘lib tug‘ilgan kishi huquqi bo‘yicha meros tariqasida tartibga solishga avval

boshdanoq o‘rin yo‘q edi. Qonuniy merosxo‘r sifatidagi shaxs, uning tayinlanish belgilari mutlaqo noaniq bo‘lib qolayotgan edi. Shu sababli Muhammad (SAV)ning vafotidan keyin uning safdoshlari orasida hokimiyatning meros bo‘lib o‘tishi masalasida o‘z-o‘zidan bir necha guruhlar paydo bo‘ldi. Bir tomonda «muhojirlar» turishardi. Ular Muhammad (SAV) mansub bo‘lgan qurayshlar qabilasi orasidan merosxo‘rni ilgari surish huquqini ko‘tarib chiqdilar, bu qabila a’zolari Makkada uning maktubini birinchi bo‘lib qabul qilgan edilar. Ularga «ansor» lar qarshi turishardi, ular ham meros ko‘rsatish huquqiga da’vo qildilar, chunki payg‘ambarga Madinada boshpana bergan edilar, busiz islom chuqur ildiz otishi mumkin emasdi. Nihoyat, shialarning[93] fikricha, merosxo‘r tanlashda tasodiflarga va saylov yig‘ilishining qarshilik ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yish Allohning va Muhammadning irodasi bo‘la olmaydi: bu lavozim shuning uchun alohida mo‘ljallangan shaxsga, ya’ni Muhammad (SAV)ning amakivachchasi Aliga tegishli bo‘lishi lozim.

Mazkur qarshi kurashda muhojirlarlar g‘alaba qozonishdi. Ular Abubakrni merosxo‘rlikka nomzod qilib ko‘rsatishga rozilik bildirishdi. Payg‘ambar muxlislari orasida u ancha nufuzli va hurmatli shaxs bo‘lib, Muhammad (SAV)ni va uning ta’limotini e’tirof qilgan dastlabki makkaliklardan biri edi. Muhammad (SAV) boshqalardan ko‘ra unga alohida e’tibor berardi. Abubakr Madinadagi birgalikda o‘qilgan ommaviy ibodatlarda va 631 yilda Makkaga qilingan birinchi safarda payg‘ambarning o‘rinbosari bo‘lishi mumkin edi. Bundan tashqari, u Muhammadning qaynotasi (Oyshaning otasi) edi

Hal qiluvchi yig‘ilishda g‘ayratli Umar o‘zini davlat hokimiyatini meros qilib olish uchun eng munosib kishi deb atadi va mutlaqo kutilmaganda Abubakrni yoqlab chiqdi: u to‘s-to‘polon avjiga chiqqan bir vaziyatda Abubakrning qo‘lini ko‘tardi, uni noib va Allohning yuborgan vakili deb e’lon qildi. Shunday qilib, xalifalik islomning ko‘pgina jarayonlari va muassasalari kabi kutilmaganda paydo bo‘ldi. Ayni vaqtda Abubakrni saylash vaqtida shunday usulga ruxsat etildiki, bu usul islomgacha bo‘lgan davrda qabila yo‘lboshchilari bo‘lgan sayidlarni[94] saylash chog‘ida tatbiq etilgan edi. Ikki tomonlama prinsip: xalifaning qurayshlar qabilasidan

[93] **Shiyalar** dastlabki uch xalifani xalifalikni barbod qiluvchilar deb bilishadi va faqat Alini va uning qonuniy avlodlarini payg`ambar merosxo`rlari deb tan olishadi. Hozir ularning markazi Eron bo`lib, bu yerda XVI asrdan boshlab islom davlat dini hisoblanadi. Yamandagi zayditlar va ismoiliylar shiyalarning mazhablari hisoblanadi.

[94] **Sayid** islomdan oldingi Arabistonda hukmronlikning birdan-bir mashhur tipi edi. Qabila boshlig`i, ba'zi birlashgan qabilalar boshlig`i bo`lgan sayidning obro`si shaxsiy hurmatga asoslangan bo`lib, u qisman uning kelib chiqishiga, lekin avvalo yo`lboshchining shaxsiy xislatlariga, saxiyligiga, qabiladoshlariga muomala qilishda chapdastligiga bog`liq edi. Uning huzuriga qabiladoshlari istalgan vaqtda kelaverar, hech qanday rasmiyatchilik uni va unvonini himoya qilmas edi.

kelib chiqishi va uning rasmiy ravishda saylanishi sunnalar islomida xalifalik bilan bog‘liq bo‘lib qoldi.

Musulmon tadqiqotchilarining fikricha, Abubakr og‘ir, vazmin, sof vijdonli va xayrihoh kishi bo‘lib, o‘ziga meros tariqasida topshirilgan davlat hokimiyati Mas’uliyatiga hushyorlik bilan qat’iy munosabatda bo‘lgan. U o‘zi hukmronlik qilgan ikki yil ichida ridda nomli arab qabilasining xavfli qo‘zg‘oloniga duch keladi. Qo‘zg‘olon payg‘ambar vafotidan keyin ko‘tarilgan edi. Aftidan, Abubakrning xalifalikni va islom ta’limotini himoya qilish bilan bir qatorda, davlat ichidagi tartibni mustahkamlash uchun vaqti qolmas edi.

Xalifa Umar musulmon arab davlatini boshqarishni bu davlatning o‘rnatilishi hal qiluvchi o‘n yilligi davrida egalladi. Amerika olimi F. Xitti uni Muhammaddan (SAV) keyin ikkinchi musulmon diniy davlatining asoschisi deb ataydi. Umar yosh davlatning yirik istilolari davrida oddiy ma’muriy tashkilotlar tuzish tashabbuskori bo‘ladi. Garchi bu yerda voqealar va tuzilmalar ancha sekinroq va izchillik bilan sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, musulmonlar tarafdorlari bu aynan xalifa Umarning xizmati deb ko‘rsatadilar. Ikkinchi xalifa hukmronlik qilgan davrda islom dinini shunday darajaga ko‘taradiki, bu davr keyingi yillar uchun islomning oltin asri bo‘lib qoladi.

Xalifa Umar dastlabki mustaqil sudyalarni tayinlaydi, harbiy nafaqalar uchun harbiy-qabila ro‘yxatlarini joriy etadi. Harbiylarning bunday ro‘yxatini tuzish xalifa tomonidan qaror qabul qilinganidan keyin zarur bo‘lib qoldi. Mazkur qarorga binoan bosib olingan barcha yer mulklari harbiylar o‘rtasida taqsimlanishi kerak bo‘lsa ham, muayyan yer solig‘i to‘lash yo‘li bilan avvalgi egalari mulki bo‘lib qoladi. Davlat bu pullarni olib, o‘z jangchilariga nafaqa to‘laydi. Bu xuddi yer maydonlaridan olinadigan tovon - rentadan iborat edi. Bu arablarda katta yangilik bo‘lib, ular boshqarishdagi rasmiyatchilik usullariga unchalik o‘rganmagan edilar. So‘ngra soliq tizimi hisoblash va hisobot tuzish ishlarini talab qilardi. Shu sababli bosib olingan yerlarda ularni joriy etishda ma’lum darajada Vizantiya va Eron tajribalaridan foydalanildi. Davlat yerlari va egalari tashlab ketgan yerlar bundan mustasno bo‘lib, ular bevosita davlat mulki bo‘lib qolardi.

Harbiy-siyosiy gubernatorlar - valilar bilan bir qatorda (ular lavozimga o‘tirish vaqtida tegishli viloyatning bosh masjidida o‘zlarining tayin etilganligini o‘qib berishlari lozim edi) xalifa harbiy viloyatga moliyaviy boshqaruv - aamila uchun yana arab vakilini ham tayinlardi. Barcha daro-

madlar jamoat xazinasiga yoki davlat xazinasi (bayt-al-mol) ga tushardi, ularga dastlabki xalifalar patriarxal tarzda boshchilik qilishardi.

Shunday qilib, xalifa Umar o‘z hukmronligi davrida yagona musulmon davlati dushmanlarining qarshiligini uzil-kesil bostirdi va Arabistonda siyosiy birlik o‘rnatdi. Ayniqsa, u yagona davlat apparatini tashkil etishga intildi va mamlakatda davlat boshqaruviga asos soldi. Xalifa Umar sudning vazifalarini ma’muriy vazifalardan ajratdi. Mahalliy hokimiyatlar sudlarning qaroriga aralashish huquqiga ega emas edilar. Oliy sudyalar xalifalarning o‘zlari hisoblanar edi, joylarda qozilar sudya hisoblanardi, ular xalifa tomonidan tayinlanib, keng vakolatlarga ega edilar. Ular sud ishlaridan tashqari vasiylar tayinlashar, merosni taqsimlar va vaqf mulkini boshqarardilar[95].

Xalifa Usmon quraysh qabilasining umaviylar shajarasidan kelib chiqqan edi. Arab tarixchilarining ta’kidlashicha, u chinakam olijanob va shaxsan tartib-intizomli kishi edi, qolgan sohalarda esa unga o‘z o‘tmishdoshining g‘ayrat-shijoati yetishmasdi. U ancha zaif bo‘lib, o‘z urug‘i a’zolarining tayziqiga qarshi turolmasdi, shu sababli o‘zi hukmronlik qilgan davrda davlatning ancha yuqori lavozimlarini, shu jumladan viloyat boshliqlari lavozimini umaviylar urug‘ining a’zolari egallab olishdi.

Shu tariqa, xalifa Umarning harbiy-aristokratik ma’muriyati uning kuchsiz merosxo‘ri davrida haddan tashqari sun’iy bir ma’muriyatga aylanib qoldi. Umaviylar hukmron tayinlashda eski arab tanlov prinsipini valiahdlik (merosxo‘rlik) prinsipi bilan almashtirishga erishdilar. Bu qoidani xalifalikning keyingi davrida butunlay bekor qilishning imkoni bo‘lmadi. Saylov qoidalariga rioya qilish xalifa hayotligida uning o‘zi tayinlagan o‘rinbosarga viloyat beklari va davlatning obro‘li kishilarini qasamyod qildirish orqali ta'minlanardi.

Merosxo‘rlik haqida aniq bir qonunning yo‘qligi har xil tortishuvlarga sabab bo‘lardi. Hukmdor ota o‘zining eng iqtidorli o‘g‘lini valiahd etib tayinlashga harakat qilardi. Bunda yaqin qarindoshchilik prinsipi yot edi, bu esa yoshi ulug‘ erkak katta mavqega ega bo‘lishiga asoslangan arab qabilaviy prinsiplariga zid kelardi. Shu sababli bo‘lsa kerak, 14 ta umaviy xalifalardan faqat to‘rttasigina o‘z o‘g‘illarining valiahd (merosxo‘r) bo‘lishiga erishganlar.

Umaviylar davrida davlat mutlaqlashtirilgan monarxiyaga aylanib ketdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, arab tilida bizning umumiy siyosiy-huquqiy tushunchamizdagi «davlat» so‘zi yo‘q. Ibn Xaldun (1333-

[95] **Qarang:** Хайдарова М.С. Формирование и развитие мусульманского права в Арабском халифате в VII-VIII вв.//Quyidagi kitobda: историко-правовые иследования: проблемы и перспективы.М.,1982, 33-bet.

1406 yillar) kiritgan «daula» atamasi hozirda «davlat» deb tarjima qilinsa ham aslida «sulola» tushunchasiga mos keladi. Bu «qirollik», «qirol hokimiyati» tushunchalarini anglatuvchi «mamlakat» so‘zida ham ifodalangan bo‘lib, arablarning o‘ziga xos tafakkurini ko‘rsatadi.

Davlat tepasida xalifa turgan. Unga butun oliy hokimiyat tegishli bo‘lgan. U qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatiga ega bo‘lgan. U Allohning yerdagi vakili va noibi, Muhammad (SAV)ning merosxo‘ri, shuningdek, imom, ya’ni xudoning yerdagi soyasi hisoblangan.

Arab xalifaligining birinchi davrida xalifa saylanib qo‘yilardi. Umaviylar va Abbosiylar davrida xalifa lavozimi nasldan naslga meros bo‘lib o‘tadigan bo‘lgan. Xalifa cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan despot bo‘lib qolgan. Arab xalifaligining birinchi davrida xalifalar xalqdan alohida bo‘lishga intilmagan hamda kamtarona hayot tarzida yashagan bo‘lsalar, Umaviylar va Abbosiylar juda boy-badavlat turmush kechirganlar. Umaviylar va Abbosiylar davrida ancha keng va nisbatan markazlashgan byurokratik apparat tashkil etilgan.

Xalifa huzurida **kengash (shuura)** mavjud bo‘lib, muhim ishlarni hal etgan. Xalifaning bevosita maslahatchisi va o‘rinbosari, davlatda oliy mansabdor shaxs buyuk ministr bo‘lgan. **Ministr** so‘zi arabcha «og‘irliklarni ko‘taruvchi» degan ma’noni bildiradi. Buyuk ministr juda katta vakolatlarga ega edi. U xalifa nomidan davlatning daromad va xarajatlarini nazorat qilardi, amirlar va sultonlarni tayinlardi. U xalifa devonxonasi boshlig‘i hisoblangan.

Saroydagi muhim mansablar: xalifaning shaxsiy qo‘riqchilari boshlig‘i; politsiya boshlig‘i; boshqa mansabdor shaxslarni nazorat qiluvchi maxsus chinovnik edi.

Davlat boshqaruvining markaziy organlari **devonlar** deb atalardi. Arab xalifaligida quyidagicha **devonlar** bo‘lgan:

Al-Xiroj - ichki ishlar devoni - moliyaviy ishlarga rahbarlik qilgan;

Al-Xatim – xalifa kotibiyati hisoblangan, yashirin politsiya funksiyasini ham bajargan;

Al-Rasoil - pochta va aloqa devoni bo‘lgan. U pochtalarni va davlat yuklarini yetkazib bergan. Yo‘llarni, karvon-saroylarni, quduqlarni qurilishiga rahbarlik qilgan;

Al-Mustaqilot - harbiylarni hisobga olish, armiyani ta'minlab turish vazifasini bajargan.

Ushbu ko‘rsatilgan to‘rtta devon Umaviylar davrida tashkil topgan bo‘lsa, Abbosiylar davrida devonlarning soni 10 taga yetadi. Devonlarning boshida xalifa tomonidan tayinlanadigan ministr, ya’ni **rais-ud-devon**

turardi. Yuqoridagilardan tashqari, davlat xazinasi - **bayt-al-mol** ham bo‘lib, u zakot solig‘ini undirish ishlarini yuritgan.

Armiya. Dastlab armiya asosan arab qabilalaridan va ko‘ngillilardan iborat edi. Xalifa oliy bosh qo‘mondon hisoblangan. U armiyadagi oliy va o‘rta darajadagi zobitlar tarkibini tayinlagan va almashtirib turgan. Umaviylar davrida har bir viloyatning o‘z qurolli kuchlari (otryadlari) mavjud edi. Ularga tegishlicha viloyat hukmdorlari boshchilik qilgan. Abbosiylar davrida ulkan harbiy dengiz floti tashkil etiladi.

Sud. Sud hokimiyati ma’muriy hokimiyatdan ajratilgan edi. Mahalliy hokimiyatlar sudyalarning qaroriga aralashish huquqiga ega bo‘lmaganlar.

3. Musulmon huquqining asosiy belgilari

Musulmon huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi xususiyatlari

Musulmon huquqi - shariat o‘rta asrlardagi Sharq sivilizatsiyasining juda katta hodisasi hisoblanadi. Bu huquqiy tizim Arab xalifaligi doirasida vujudga kelib, rasmiylashgan va asta-sekin xalqaro ahamiyat kasb etib borgan. Uning rivojlanish jarayoni arab davlatchiligining VII asr boshida (Muhammad salollulohu alayxi vassallam davrida) kichik patriarxal diniy jamoadan VIII-X asrlarda (Umaviylar va Abbosiylar davrida) yirik imperiyalardan biriga o‘sib o‘tishi jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Arab xalifaligi qulagandan so‘ng musulmon huquqi nafaqat o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qotdi, balki yanada taraqqiy etdi, xuddi o‘rta asrlarda Yevropadagi rim huquqi singari «ikkinchi marotaba dunyoga keldi» hamda o‘rta asrlardagi Osiyo va Afrikaning u yoki bu darajada islomni qabul qilgan qator mamlakatlari (Misr, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi va boshqa ko‘pgina davlatlar)ning amaldagi huquqida ham musulmon huquqi arab istilosidan boshlab to «qizil imperiya» hukmronligi o‘rnatilgunga qadar muhim o‘zgarishlarsiz harakatda bo‘ldi.

Musulmon huquqi o‘zidan oldingi Sharq huquqiy madaniyatining ko‘pgina elementlarini, jumladan, islomga qadar Arabistonda va arablar tomonidan bosib olingan hududlarda harakatda bo‘lgan huquqiy odatlar va an’analarni ham o‘zida aks ettirdi. Masalan, Umaviylar davrida ancha vaqtgacha sosoniylar, Eron, Vizantiya huquqi, shuningdek, qisman rim huquqi ham ahyon-ahyon qo‘llanib turilgan. Ushbu manbalar tashqi jihatdan va kam ahamiyatli bo‘lsa-da, shariatning vujudga kelishida ma’lum o‘rin tutgan. Lekin ularning oqibatda shariatning betakror va o‘ziga xos, mustaqil va original huquqiy tizim sifatida shakllanishiga hech qanday aloqasi

yo‘q. Shariatning vujudga kelishida Muhammad (SAV) va dastlabki to‘rtta xalifaning o‘rni juda katta. Aynan ularning hukmronligi davrida musulmonlarning muqaddas kitoblari - Qur’oni Karim va Sunna tuzilgan.

Shariat eng boshidan (hech bo‘lmaganda dastlabki ikki asr mobaynida) qat’iy diniy huquq sifatida vujudga keldi va rivojlandi. U islom ilohiyoti bilan uzviy qo‘shilib ketdi, uning diniy axloqiy tasavvurlarini mujassam etdi. Islom ta’limoti bo‘yicha diniy qoidalar yagona Alloh tomonidan o‘rnatilgan tartib va qonunlarning bir qismi bo‘lib, ular bilan butun dunyo boshqariladi. Ayniqsa dastlabki vaqtlarda umuman shariat va xususan fiqh[96] o‘zida faqat huquqiy qoidalarni aks ettiribgina qolmay, diniy ta’limot va axloqni ham mujassam etgan. Shariatda din, axloq va huquqning bunday qo‘shilib ketganligi, bir-biridan ajralmaganligi, bo‘linmaganligi o‘ziga xos ifodasini shundan topgan ediki, uning normalari (qoidalari, ko‘rsatmalari) bir tomondan ijtimoiy («kishilik») munosabatlarni tartibga solgan, ikkinchi tomondan esa - musulmonlarning Alloh bilan munosabatlarini (ibodat qilishlarini) belgilagan. Shariatning ilohiy tadbiq etilishi va diniy-axloqiy asoslari huquqni tushunishning, shuningdek, qonuniy va noqonuniy xatti-harakatga baho berishning o‘ziga xosligida o‘z aksini topgan. Masalan, huquqning islom ilohiyoti bilan chambarchas bog‘liqligi shariatda har bir musulmon tomonidan sodir etilishi lozim bo‘lgan yoki mumkin bo‘lmagan xatti-harakatlarning aniq ko‘rsatib qo‘yilganligida o‘z ifodasini topgan. Shariatda barcha xatti-harakatlar dastlab ikki turga – xarom va halolga ajratilgan. Keyinchalik shariat shakllanib tugallangan davrda beshta toifa vujudga kelgan. Bular: *farz* - bajarilishi qat’iy majburiy hisoblangan xatti-harakatlar; *mandub (sunnat)* - majburiy emas, lekin ma'qul, lozim deb hisoblangan normalar; *muboh* - ixtiyoriy normalar; makruh-noma'qul normalar; *xarom* - qat’iy ravishda taqiqlangan xatti-harakatlar. Bular ham huquqiy, ham axloqiy-diniy mazmunga ega bo‘lib, majburlovchi, tavsiya qiluvchi, yo‘l qo‘yuvchi, lekin jazo qo‘llanilmaydigan, taqiqlovchi va jazoga loyiq (mustahiq) xarakterdadir. Shariat me’yorlarining ilohiyligi, oldindan belgilab qo‘yilganligi musulmonlar irodasining shariat doirasidagi erkinligi haqidagi masalaning juda katta ahamiyatini belgilaydi. Bu masalaga duch kelgan diniy-falsafiy maktablar turli mavqeni egallagan. Masalan, shunday maktablardan biri - jabariylar[97] ikki inson irodasi erkinligini butunlay inkor etgan. Ular inson taqdirini xudo mutlaq oldindan belgilab qo‘ygan, hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo‘q, bular faqat

[96] **Fiqh** (arabcha – tushunish) – musulmon huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug`ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi.

[97] **Jabariylar** (arabcha jabr qilish, majburlash degani) – VII asr oxiri va VIII asr boshida islom ilohiyotida paydo bo`lgan ilk oqim tarafdorlari.

xudoda mavjud, inson esa ana shu faoliyatni o‘zlashtirib olish imkoniyatigagina ega, degan ta’limotni ilgari surganlar.

Shariat uchun, ayniqsa uning rivojlanishidagi dastlabki bosqichlarda, musulmonning huquqlariga emas, balki uning Alloh oldidagi burchlariga e’tibor berish xarakterlidir. Shariatda musulmonlarning bunday majburiyatlarini o‘rnatuvchi normalar juda ko‘p bo‘lib, ular musulmonning butun hayotini (har kuni besh vaqt namoz o‘qishi, ro‘za tutishi, dafn marosimlariga rioya qilishi va hokazo faoliyatini) belgilaydi. Shariat normalarining o‘ziga xos xususiyati aynan ushbu normalarning faqat musulmonlarga va musulmonlar o‘rtasidagi munosabatlarga tadbiq qilinishida ekanligi ham tasodifiy emas. Ilk islom va shariatga jamoa tuzumidan o‘sib chiqqan normalar - qoidalar xosdir. Bunday normalarda kollektivchilik, rahmdillik, mayib-majruh va boshqa nochor kishilar haqida g‘amxo‘rlik elementlari saqlanib qolgan edi. Biroq albatta shariatda insonning xudo oldida ojizligi haqidagi, unga so‘zsiz itoat etishi haqidagi tasavvurlar ham o‘z ifodasini topgan. Qur’oni Karimda musulmon uchun sabr-toqat va mo‘minlik zarurligi alohida ta’kidlanadi: «Sabr qiling, Alloh sabr qiluvchilar bilan». Shu tariqa shariatda musulmonning xalifaga va davlat hokimiyatiga bo‘ysunish majburiyati mustahkamlangan: «Allohga bo‘ysuning va uning elchisiga va oralaringizdagi hokimiyat egalariga itoat eting».

Shariatning dastlab o‘ta ilohiy-diniy xarakterda bo‘lganligi uning huquqiy tuzilishi va tushunchalarining o‘ziga xosligini belgilagan, aql-idrokka asoslangan huquq ijodkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilgan. Biroq, VIII-IX asrlarda shariat patriarxal jamoa va qabilaviy idrok qilish doirasidan tashqari chiqib, feodallashayotgan ijtimoiy munosabatlar bilan to‘qnash kelgan va juda ko‘p musulmon ilohiyotchi huquqshunoslarining faol sa'i-harakatlari sharofati bilan tobora ko‘proq darajada aql-idrokka asoslangan huquq sifatida namoyon bo‘la boshlagan. Musulmon huquqshunos olimlari shariatning asosiy va an’anaviy qoidalarini saqlab qolgan holda sof yuridik tabiatga ega bo‘lgan ko‘pdan-ko‘p huquqiy ta’limotlar va normalar ishlab chiqdilar. Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit (699-767 yillar), Malik ibn Anas Abu Abdulloh (721-795 yillar), Abu Abdullo Muhammad ibn Idris ash-Shofi’iy (767-820 yillar), Ahmad Abu Abdulloh ash-Shayboniy ibn Hanbal (tug‘ilgan yili ma’lum emas-825 yillar) va boshqalar musulmon dunyosida juda mashhur va nufuzli bo‘lganlar.

Abu Hanifa sunniylikdagi hanafiya mazhabining asoschisi va imomi, ilohiyotchi fiqhshunoslardan biri bo‘lib, shariat huquqini tartibga solgan, qiyosni tadbiq etgan, istihon (manbalar asosida chiqarish mumkin bo‘lgan xulosa yoki hukmlardan musulmonlar jamoasi uchun maqbulrog‘i va foy-

dalirog‘ini qabul qilish) prinsipini ishlab chiqqan, mahalliy huquq normalarini (odatni) shariat bilan kelishtirib qo‘llashni joriy etgan, huquqshunoslikka ratsionalizm elementlarini kiritgan. Undan yozma asarlar qolmagan, lekin ayrim manbalarga ko‘ra, u «Buyuk huquqshunoslik» («Al-fiqh al-akbar») nomli mashhur kitobning muallifi hisoblanadi.

Malik ibn Anos molikiya mazhabining asoschisi, ilohiyotchi faqihlardan biri bo‘lib, islom diniy huquq tizimini ishlab chiqishda konservativ mavqeda turgan, Muhammad (SAV) davridagi an’analarni yoqlab chiqqan, ya’ni «ashob al-hadis» («hadis tarafdorlari») oqimining yirik namoyondasi bo‘lgan. Uning yagona asari - «Al-Muvatta'» («Ommaviy», «Barchaga tushunarli» ma’nosida) bo‘lib, ilk hadis to‘plamlaridan biri hisoblanadi.

Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy sunniylikdagi shofi'iya mazhabining asoschisi va imomi, ilohiyotchi faqihlardan biri bo‘lib, Makkada yashagan, hadislar va fiqxni o‘rgangan, 810 yildan Bog‘dodda o‘z ta’limotini targ‘ib qilgan. Shofi'iy o‘z asarlarida islom huquqini an’anaviy normalar bilan bog‘lashga intilgan. U fiqh asoslariga to‘la ta’rif bergan, ijmo‘dan foydalanishga e’tibor qilgan. Uning asosiy asarlari shogirdlari tomonidan «Kitob al umma» to‘plami shakliga keltirilgan.

Ibn Hanbal hanbaliya mazhabining asoschisi va imomi bo‘lib, izchil, e’tiqodi mustahkam sunniylikni himoya qilgan va mu’taziliylarga qarshi kurashgan. Uning ta’limoti XVIII asr oxirlarida vahhobiylarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Diniy huquq va hadisshunoslik sohasidagi 6 jildlik «Musnad» («Suyanchiq» yoki «Tirgak», Qohira, 1895) nomli asari hozirgacha yetib kelgan.

O‘rta asrlardagi, ayniqsa dastlabki paytlardagi, musulmon huquqini tavsiflovchi muhim belgilardan biri uning nisbatan yaxlitligi, butunligida edi. Unda yakka xudo - Alloh haqidagi tasavvurlar bilan birga universal xarakterga ega bo‘lgan yagona huquqiy tartibot haqidagi g‘oya ham o‘rnatilgan. Darhaqiqat, dastlab Arabiston yarim orolida vujudga kelgan musulmon huquqi xalifalikning chegaralari kengaya borishi bilan ko‘pdan-ko‘p yangi hududlarga tarqalgan.

Biroq, musulmon huquqi avvalo hududiy emas, diniy, masjidlarga oid prinsip asosida maydonga chiqqan. Har bir musulmon u qayerda, qaysi mamlakatda bo‘lishidan qat’i nazar, shariatga rioya qilishi, islomga sodiq qolishi lozim. Islomning asta-sekin keng tarqala borishi va jahon dinlaridan biriga aylanishi bilan shariat o‘ziga xos jahon huquqiy tizimi bo‘lib qolgan. Shariatning ana shunday yaxlit, bir butun huquqiy tizim sifatida maydonga chiqishi uning g‘arbiy Yevropa mamlakatlari huquqidan farq qiluvchi muhim jihatlaridandir. Ma’lumki, g‘arbiy Yevropa mamlakatlari-

da huquq xilma-xilligi, bir butun, yaxlit emasligi, harakat doirasining cheklanib qolganligi, ichki qarama-qarshiliklari va boshqa jihatlari bilan tavsiflanadi.

Shariat diniy huquq sifatida Yevropa mamlakatlaridagi kanonik (diniy, muqaddas, qat'iylashgan, o‘rnak bo‘lib qolgan) huquqdan ham farq qilib, ijtimoiy va cherkov hayotining faqat aniq ko‘rinib turgan sohalarinigina emas, balki keng qamrovli va juda ko‘p masalalarini o‘z ichiga olgan huquqiy tizim sifatida maydonga chiqadi. Musulmon huquqi-shariat dastlab Osiyo va Afrikaning bir qator mamlakatlarida o‘rnatilgan bo‘lsa, so‘ngra vaqt o‘tishi bilan uning harakat doirasi O‘rta Osiyo, Kavkaz orti, Shimoliy, shuningdek, qisman Sharqiy va G‘arbiy Afrikaga, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi qator mamlakatlarga ham tarqaladi. Biroq islom va shariatning bunchalik shiddat bilan va keng tarqalishi unda tobora mahalliy xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga olib kelgan. Buning natijasida alohida huquqiy institutlarni sharhlash va muayyan huquqiy nizolarni hal qilishda shariatda turli qarama-qarshiliklar, turli xil yondoshuvlar yuzaga kelgan. Oqibatda esa islomda turli oqimlar, yo‘nalishlar va mazhablar paydo bo‘lgan.

Islomda oqimlar va

Islomda yuz bergan dastlabki ixtiloflar natijasida VII asrning II yarmida unda uchta asosiy yo‘nalish - xorijiylar, sunniylar, shialar paydo bo‘lgan.

Xorijiylarning bo‘linishi jarayonida paydo bo‘lgan sektalar (azraqilar, sufriylar va boshqalar) asosan o‘rta asrlarda yo‘qolib ketib, ulardan faqat bittasi ibodiylar (abodiylar) hozirgacha saqlanib qolgan.

Sunniylik eng katta yo‘nalish bo‘lib (hozir jahondagi barcha musulmonlarning qariyb 92,5 foizi sunniylar hisoblanadi), u islomda doimo ortodoksal oqim deb tanilgan, unda ixtiloflar kam bo‘lgan. Shuning uchun sunniylik ichidan o‘rta asrlarda hech qanday sektalar ajralib chiqmagan. Yangi davrda vahhobiylar diniy-siyosiy oqimi va o‘ziga xos sekta sifatida shakllangan ahmadiya sunniylikdan ajralib chiqqan.

Shialik sunniylikka nisbatan oppozitsiyada turgan yo‘nalish bo‘lib, undan bir necha sekta ajralib chiqqan. O‘rta asrlardayoq yo‘qolib ketgan qarmatlar, hashshoshiylar, hozirgacha mavjud bo‘lgan imomiylar, ismoiliylar, druzlar, zaydiylar, nusayriylar (alaviylar), aliilohiylar, yangi davrda paydo bo‘lgan bobiylar, behoiylar shular jumlasiga kiradi.

Sunniylik yo‘nalishi «Ahli sunna val jamoa» deb ataladi va 4 ta fiqxiy: hanafiy, shofi'iy, molikiy, hanbaliy va 2 ta aqidaviy: ash'ariy va moturidiy mazhablaridan iborat. Sunniylar mazhablar bo‘yicha quyidagicha nisbatda bo‘lganlar: hanafiylar - 47 %, shofi'iylar - 27 %, molikiylar - 17 %,

hanbaliylar - 1,5 %. Shia yo‘nalishi ismoiliy, ibodiy, ja'fariy, zaydiy mazhablarini o‘z ichiga olib, dunyodagi musulmonlarning 7,5 % ni tashkil qiladi.

Sunniylik tarafdorlari asosan Osiyo va Afrikada (Pokiston, Bangladesh, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Xitoy, Afg‘oniston, Turkiya, Arabiston yarim oroli va Fors ko‘rfazi atrofidagi arab mamlakatlarida, Suriya, Livan, Iordaniya, Eron, Shimoli-Sharqiy va G‘arbiy Afrika mamlakatlarida), shuningdek, MDHda (Ozarbayjon va Tojikistonning tog‘lik rayonlaridan tashqari), Bolgariya, Yugoslaviya, Albaniya, Kipr va AQSHda yashaydilar. Sunniylik VII asrning II yarmida Arabistonda vujudga kelgan. VIII-XII asrlarda arab xalifligidagi diniy-siyosiy kurashlar jarayonida islomda yirik yo‘nalish sifatida shakllangan. Sunniylar Qur’on bilan birga Sunnaga ham e’tiqod qiladilar, unda Muhammad (SAV) va xalifa Ali bilan bir qatorda, shialik tarafdorlari rad etadigan dastlabki xalifalar (Abubakr, Umar, Usmon) ham e’tirof etiladi. Sunniylikda to‘rtta diniy-huquq mazhabi mavjud, ulardan hanafiya bilan shofi'iya MDHda yashaydigan musulmonlar orasida ham tarqalgan edi.

Sunniylik bilan islomdagi ikkinchi asosiy yo‘nalish-shialik o‘rtasidagi hokimiyat masalasida (sunniylik xalifalik hokimiyati, shialik esa imomat tarafdori), ayrim diniy marosim va an’analar (masalan, azon, mut'a, shaxsey-vaxsey, mazdiylik va h. k.)da birmuncha tafovutlar bor.

Shialik (arabcha - guruh, tarafdorlar) - islomdagi asosiy yo‘nalishlardan biri. O‘zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan sunniylikdan keyingi o‘rinda turadi. Shialik VII asr o‘rtalarida xalifa Ali hokimiyati tarafdorlaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan. VII asr oxirlariga kelib Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo‘nalishga aylangan. Shialik diniy-aqidaviy ta’limotda, marosim va urf-odatlarda ortodoksal sunniylikdan ma’lum darajada farq qiladi. Diniy-siyosiy harakat sifatida xalifalar hokimiyatiga qarshi kurash olib borgan feodal guruhlarning, hatto xalq qo‘zg‘olonchilarining mafkurasi sifatida ham maydonga chiqqan. Shialik aslida feodal guruhlar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash oqibatida vujudga kelgan bo‘lsa-da, bu ixtiloflar ko‘pincha diniy ta’limotdagi tafovut shaklida namoyon bo‘lgan. Shialik tarafdorlari (shialar) sunniylar kabi Qur’onni ilohiy deb e’tirof etadilar, lekin xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan deb hisoblaydilar. Shialik ilohiyotchilari Qur’onning mazmunini majoziy talqin qilish yo‘li bilan o‘z ta’limotlarini asoslaydilar. Sunnada esa ular faqat Ali va uning tarafdorlari nomi bilan bog‘liq bo‘lgan hadislarni tan olganlar va shunday hadislardan iborat mustaqil to‘plamlar tuzganlar. Bu to‘plamlar Axbor deb atalgan.

Sunniylikda e’tirof etilgan diniy aqidalardan farq qilib, shialikda tavhid, adl, nubuvvat, imomat, qiyomatdan iborat 5 ta aqidaga e’tiqod qilinadi. Bulardan to‘rt aqida-tavhid (Allohning yagonaligini e’tirof etish), adl (adolat, Allohning odilligi, ya’ni taqdir aqidasi), nubuvvat (payg‘ambarlik), iyomat yoki ma'od (oxirat kunining kelishi va o‘lganlarning tirilishi) asosan sunniylik ta’limoti bilan mos tushadi. 5-aqidaga e’tiqodda imomat (imomlar hokimiyatini e’tirof etish) sunniylikka va sunniy xalifalar hokimiyatiga zidligi bilan farq qiladi. Shialik Ali va uning avlodlaridan iborat o‘n ikki imom hokimiyatini tan oladi. Shu munosabat bilan barcha xalifalarni xususan dastlabki xalifalardan Abubakr, Umar va Usmonni hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egallab olgan shaxslar sifatida qoralaydi. 874-878 yillar orasida 7-9 yoshida bedarak yo‘qolgan (tarixiy nuqtai nazardan o‘ldirilgan bo‘lishi kerak) 12-imom Muhammad Al-Mahdiyni ular «yashiringan» hisoblaydilar, zamona oxir bo‘lganda uning qaytib kelishini va adolat o‘rnatishini kutadilar (imomi mahdiy, imomi oxir zamon). Bu tasavvur ma’lum darajada sunniylikda ham tarqalgan. Ba’zi urf-odat va marosimlarda, shariat normalarida ham shialik bilan sunniylik o‘rtasida ma’lum tafovutlar bor. Shialar sunniylar kabi Makka va Madinani «muqaddas» hisoblash bilan birga, imom Husaynga motam tutadilar, «shaxsey-vaxsey» deb nom olgan motam yurishlari o‘tkazadilar va h.k. O‘rta asrlarda shialar ichida ham ixtiloflar yuz bergan, natijada ko‘p sektalar vujudga kelgan. Bulardan zaydiylar, ismoiliylar, ibodiylar va boshqalar hozir ham mavjud. Shialik hozirgi vaqtda Eronda hukmron e’tiqod hisoblanadi. Iroq, Afg‘oniston, Hindiston va Pokistonda shialar bor. Shialik MDH hududida Ozarbayjon va Tojikistonda (Pomirda ismoiliylar) dindorlar orasida saqlanib kelmoqda.

Xorijiylar (arabcha - ajralib chiqqan, isyonchi) - islomdagi ilk oqim tarafdorlari. Xalifa Ali bilan umaviylar o‘rtasidagi kurash davomida VII asrning II yarmi boshlarida vujudga kelgan. Taxt uchun kurashda Ali Muoviya tarafdorlari (umaviylar) bilan muzokara olib borishga ko‘ngan. Bu hol Ali haqiqiy vorislik huquqiga ega deb hisoblagan tarafdorlarining o‘rtasida norozilik tug‘dirgan. Qo‘shinning bir qismi (12 ming kishi) Alini kelishuvchanlikda ayblab, undan ajralib ketgan va keyinchalik Aliga ham, umaviylarga ham babbaravar qarshi kurash boshlagan. Ana shu guruh tarafdorlari xorijiylar deb nom olgan. Xorijiylar harakati arablar tomonidan bo‘ysundirilgan Iroq va Eron aholisi, oddiy arab-musulmonlar hamda mehnatkashlar ommasi manfaatini ifodalagan demokratik harakat bo‘lgan. Ular o‘zlarini haqiqiy musulmon deb hisoblaganlar. Xorijiylar «dindan qaytgan», yo‘qotilishga mahkum etilgan deb e'lon qilingan siyosiy va

g‘oyaviy raqiblarga nisbatan murosasiz bo‘lganlar. Xorijiylar ta’limotiga ko‘ra, xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo‘ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto qul yoki negr bo‘lsa ham) xalifa bo‘lib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa vazifasidan bo‘shatiladi va hatto qatl etiladi. Xorijiylar fikricha, e’tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi lozim. E’tiqod, gunohkor kishilarni jazolash masalalarida xorijiylar murji'iylarga qarama-qarshi turganlar. Keyinchalik xorijiylar bir necha mayda guruhlarga bo‘linib ketgan. Umaviy va abbosiy xalifalar VII-IX asrlarda xorijiylarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Buning natijasida xorijiylarning ko‘pi qirib tashlandi, ularning qolganlari Shimoliy Afrikada o‘z davlatini vujudga keltirdilar. Xorijiylar xalifalikdagi ko‘pgina qo‘zg‘olonlarga (Zinjiylar qo‘zg‘oloni, Abu Muslim qo‘zg‘oloni va boshqalar) qatnashganlar. Hozirgi davrda xorijiylarning ibodiylar sektasi mag‘rib mamlakatlarida (Jazoir, Tunis va boshqalarda), Ummon, Tanzaniyada uchraydi.

Islomdagi oqimlarning yana bir turi mazhablardir. Masalan, sunniylikda fiqhiy maktablardan tashqari aqidaviy muammolarda ixtilofga borgan ko‘pgina mazhablar mavjud bo‘lib, ular asosan quyidagi masalalarda bir-biridan farq qiladi:

1. Oliy hokimiyat (imomat, xalifalik) masalasi.
2. Imon masalasi.
3. Qazo va qadar masalasi.
4. Allohning zoti va sifatlari masalasi.
5. Fiqhiy masalalar.

Har qanday musulmon fiqhda ma’lum maktab yoki mazhabga (masalan, hanafiylikka) erishgan bo‘lishi bilan bir vaqtda, imon masalasida ash’ariy, qadr masalasida qadariy, sifat masalasida esa mu’taziliy aqidasida bo‘lishi mumkin. Albatta, bunday holat kam uchraydi. Chunki yirik mazhab sohiblari nafaqat bir yo‘nalishda, balki islomdagi barcha masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirganlar.

Azaldan bizning yurtimizda fiqhda hanafiylik, aqidada esa moturidiylik maktabi ta’limotlariga rioya qilib kelingan. Lekin usul (asosiy masalalar)da yuqorida sanab o‘tilgan sunniylik mazhablari orasida hech qanday ixtilof, qarama-qarshilik yo‘q. Ularning barchasi «to‘g‘ri yo‘ldan boruvchi» deb e’tirof etilgan.

Hanafiya - sunniylikdagi diniy-huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa an-Nu'mon asos solgan. Undan keyin hanafiya mazhabi qonunlari Abu Yusuf Yoqub (795 yilda vafot etgan), Muhammad ash-Shaybon (804 yilda vafot etgan), Quduriy (1036 yilda vafot etgan) va boshqalar asarlarida ish-

lab chiqilgan. Iroqda vujudga kelib, islom tarqalgan barcha mamlakatlarda, jumladan, Xuroson va Movarounnahrda ham keng yoyilgan. Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya» to‘plami bu mazhabning asosiy shariat qo‘llanmasi sifatida tanilgan. Hanafiya qonunlari nisbatan yumshoqroq va qulayroqligi, xalqlarning mahalliy an’analarini e’tiborga olganligi sababli keng yoyilgan. Sunniylik yo‘nalishiga mansub bo‘lgan musulmonlarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i bu mazhabga kiradi, u bir necha arab davlatlarida, Afrikaning ayrim mamlakatlarida, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Afg‘oniston, Xitoy musulmonlari orasida tarqalgan. Ularda hanafiya mazhabi qonunlari hozirgi davrda ham o‘z ta'sirini saqlab qolgan.

Shofi’iya - sunniylikdagi Shofi’iy asos solgan diniy-huquq mazhablaridan biri. Suriya va Misrda shakllangan, o‘rta asrlarga kelib Yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Keyinchalik bu mazhabning ta’sir doirasi torayib borgan. Hozirgi vaqtda Misr, Indoneziya musulmonlari orasida, Sharqiy Afrika mamlakatlarining ba’zilarida, qisman Suriyada va janubiy arab sultonliklarida shofi'iya mazhabi diniy-huquq tizimiga amal qiluvchilar bor. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida musulmon mamlakatlarida shariatning, jumladan, shofi’iya mazhabining huquqiy hayotdagi ta’siri borgan sari susaymoqda. Shofi’iy o‘z asarlarida islom huquqini an’anaviy normalar bilan bog‘lashga intilgan.

Sunniylikdagi yana bir diniy-huquq mazhabi - Malik ibn Anas tomonidan asos solingan malikiyadir. Bu mazhab tarafdorlari huquq masalalarida ratsionalistik metodga, ya’ni Qur’on va hadislarni aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. Bu mazhab dastlab Hijoz va Madinada, keyin boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi davrda malikiya mazhabi Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va ayrim boshqa mamlakatlarda musulmonlar o‘rtasida ta’sirga ega.

Va nihoyat, sunniylikdagi so‘nggi mazhab hanbaliya bo‘lib, unga Ibn Hanbal asos solgan. Hanbaliya huquq tizimi o‘ta torligi, har qanday ko‘rinishdagi «yangilik»ka, diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi, shariat normalariga rioya etishga qat’iy mutaassibligi bilan ajralib turgan. Hanbaliya tarafdorlari Qur’on va hadislarni erkin talqin etish yo‘lidagi har qanday urinishlarni qoralaganlar. Shuning uchun ham bu mazhab keng tarqalmagan. Faqat IX asrning II yarmida Arab xalifaligida mu'taziliylarning va ilohiyot sohasidagi hurfikrlilikning ta’qib ostiga olinishi tufayli hanbaliya bir muncha kengaygan va XII asrda mustaqil mazhabga aylangan. X asrda Eronda, XI asrdan XV asrgacha Suriya va Falastinda hanbaliya izdoshlari ko‘p bo‘lgan. Undan keyingi asrlarda hanbaliya tarafdorlari yana kamayib ketgan. XVIII asrda paydo bo‘lgan vahhobiylar hanbaliya taraf-

dorlari bo‘lib chiqqan. Vahhobiylar Saudiya Arabistonida hokimiyatni qo‘lga olgach (XX asrning 20-yillari), hanbaliya qonunlarini amalga kiritganlar. U yerda hanbaliyaning ilk islomga xos qonunlari hozir ham amalda. Hanbaliya Saudiya Arabistonidan boshqa mamlakatlarda kam uchraydi. Islomda ikkinchi yo‘nalish - shialik ham ismoiliy, ibodiy, ja’fariy, zaydiy kabi mazhablarni[98] o‘z ichiga oladi.

4. Musulmon huquqining manbalari

Musulmon huquqining manbalarini asosan shariat, urf-odatlar va qonunlar tashkil etadi. «Shariat» so‘zi arabcha «sharia», «shar'» so‘zlaridan olinib, uning lug‘aviy ma’nosi «suvga olib boradigan yo‘l» deganidir. Shunga asosan, shariat to‘g‘ri yo‘l, ilohiy yo‘l, qonunchilik degan ma’nolarni anglatuvchi islom diniy huquq tizimidir. Shariatda sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy normalar va amaliy diniy talablarga ham qonun tusi berilgan. Ilk islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur’on asosida olib borilgan. Feodalizm rivojlanishi bilan musulmonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy va diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug‘ilgan. Islom ilohiyotchilari bir necha asr mobaynida shariat qonunlarini ishlab chiqqanlar. Shariatga asos qilinib Qur’on va sunna, keyinchalik ijmo‘ va qiyos olingan. Ular fiqxda shariat manbalari (usul al-fiqh) deb e’tirof etilgan. Shariat diniy-huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Islomdagi sunniylik va shialik shariat tizimlari o‘rtasida ma’lum tafovut bor. Sunniylikda hanafiya, malikiya, shofi'iya va hanabaliya mazhablarining, shialikda esa ja'fariya mazhabining o‘ziga xos huquqiy tizimlari mavjud. Shariatda davlat (xalifalik) huquqi normalari, majburiyat, meros, jinoyat, jazo va oila-nikoh huquqlari, shuningdek, sud yuritish, vasiylik ko‘rsatmalari berilgan. Shariat xususiy mulkni xudo tomonidan belgilangan, doimiy va o‘zgarmas deb hisoblaydi. Shariatda, shuningdek, namoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot, haj kabilar haqida batafsil ko‘rsatmalar keltirilgan. Shariatning asosiy manbalari to‘rtta va ular o‘zgarmas hisoblanadi. Bular: Qur’oni Karim, Sunna, ijmo‘ va qiyosdir.

Qur’oni Karim[99] Islom dinining asosiy muqaddas kitobi va shariatning eng asosiy manbaidir. Islom an’anasida Qur’on Alloh tomonidan Muhammad (SAV)ga 23 yil mobaynida (610-632 yillarda) hazrati Jabroil alayhissalom (farishta) orqali vahiy qilingan (uqtirilgan) deb tasavvur eti-

[98] Ushbu mazhablar haqida batafsil ma'lumotlar quyidagi manbada berilgan: Xusniddinov Z. Islom: yo`nalishlar, mazhablar, oqimlar.-T.: «O`zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2000.

[99] **Qur'on –** arabcha «qiroat», o`qimoq degani.

ladi. Qur’onning nozil qilinishi - vahiy qilib yuborilishi muqaddas ramazon oyining yigirma yettinchi kuni kechasi boshlangan hisoblanadi. Shu sababli bu muqaddas deb ro‘za tutilgan kunning yigirma yettinchi kechasi esa «Laylat ul-Qadr», ya’ni qudrat kechasi, ilohiy qudrat namoyon bo‘lgan tabarruk kecha deb ulug‘lanadi. Qur’onda islom aqidalari, e’tiqod talablari, huquq va axloq me’yorlari, inson uchun foydali bo‘lgan, har bir zamonga to‘g‘ri keladigan hikmatli hukmlar yozilgan. Qur’oni Karimning asosiy mavzusi va maqsadi, bashariyat tafakkurida ko‘pxudolikka barham berish, yakka xudolikni targ‘ib qilish va Islom dinini o‘rnatishdir.

Qur’oni Karim 30 pora, 114 sura (tizma, qator), 6236 oyat (modda) dan iborat bo‘lib, oyatlarning 63 foizini Makkada, 37 foizini Madinada nozil bo‘lgan oyatlar tashkil etadi. Ya’ni Qur’on suralarining 95 tasi 13 yil davomida Makka shahrida nozil bo‘lib, **makkiy** suralar deb ataladi. Ularning 19 tasi esa 622 yili yuz bergan hijratdan keyin 10 yil davomida Madinada nozil bo‘lib, **madiniy** suralar deb qabul qilingan. Bu ikki turkum suralarning farqi shundaki, makkiy suralar asosan e’tiqod, ibodat masalalarini, oliy axloqiy fazilatlar, erkin fikrlik, ilmu tafakkurni targ‘ib qilishga qaratilgan bo‘lsa, madiniy suralar fiqhiy ahkom-muomalot, jinoyat va jazo, ommaviy munosabatlar, sulhu tinchlik bitimlari va musulmonlararo boshqa aloqalarga tegishlidir. Makkiy suralarda ko‘pincha «Ey iymon keltirganlar, Ey mo‘minlar!» deb, madiniy suralarda esa asosan «Yo ayyuhannos!» (Ey odamlar, ey insonlar) deb xitob qilinadi. Makkiy suralar 4780 ta, madiniy suralar 1456 ta oyatdan iborat.

Qur’oni Karim Muhammad (SAV) tomonidan hali jam qilinib to‘plam holiga keltirilmagan edi. Muhammad (SAV) vafot etgan vaqtlarida Qur’on ayrim sahobalar, tomonidan to‘liq yod olinib, xurmo po‘stloqlariga, toshtaxtalarga, teri va boshqa narsalarga yozib qo‘yilgan edi. O‘sha davrlarda Qur’onni to‘liq yod olgan sahoba-hofizlardan 30 kishi sanab o‘tilgan. Rasulullohning 24 nafar vahiy yozuvchi kotiblari bo‘lgan. Ular navbatma-navbat kotiblik qilganlar. Rasulullоh mirzalaridan eng mashhuri Zayd ibn Sobit raziyallohu anhudir.

Payg‘ambarimiz davrlarida Qur’onni to‘plam, muqovalangan qilib jam qilinmaganligining sababi Rasulullоh Qur’onning ba’zi hukmlariga, uning tilovatiga bekor qiluvchi oyatlar yoki yana yangi oyatlar kelib qolarmikan deb kutganlaridadir. Zotan, ilk Qur’on mufassiri ham hazrati payg‘ambarning o‘zlaridir.

Ma’lumki, Muhammad alayhissalom o‘qish-yozishni bilmaganlar. Ul zot Qur’on oyatlarini farishta Jabroil alayhissalomdan eshitib, yod olganlar va sahobalariga aytib, o‘qitib, uqtirib turganlar, ular esa yodlab olganlar.

Payg‘ambarimiz har bir yangi oyatni qaysi suraga taalluqli ekanligini va o‘rnini kotiblariga (mirzalarga) tushuntirib turganlar. Qur’on suralari shu tariqa 23 yil davomida yod olingan va xatga bitilgan.

Qur’oni Karim tarixan uch marotaba jam qilindi. Birinchi marotaba payg‘ambar alayhissalom zamonlarida, ikkinchi marotaba xalifa Abu Bakr siddiq davrlarida va uchinchi marotaba xalifa Usmon zunnurayn vaqtida Bani Quraysh qiroatida (lahjasida) jamlanib kitob holiga keltirildi.

Qur’oni Karim xalifa Usmon farmoniga muvofiq qadimgi arabcha kufiy xatda 6 nusxa yozilgan, ularning har biriga quraysh qiroati bilan o‘qishni o‘rgatadigan bir qori-hofizni qo‘shib, Makka, Shom, Basra, Kufa va Madina ahli uchun yuboriladi, oxirgisini xazrati Usmon o‘zlari uchun olib qolganlar. Ana shu oltinchi kitob ustida hazrati Usmon shahid bo‘ldilar va muborak qonlari Qur’on sahifalariga to‘kildi.

Xalifa Usmon Qur’onini Amir Temur Basradan Samarqandga keltirgan. 1869 yilda Turkiston general-gubernatori Konstantin fon Kaufman buyrug‘i bilan podpolkovnik Serov uni Peterburgga olib ketdi. Mazkur Qur’on ikkala tarafiga yozilgan 353 varraq - 706 betdan iborat bo‘lib, varaqlari bo‘yi 68 santimetr, eni esa 53 santimetr.

1917 yildagi davlat to‘ntarilishidan keyin Peterburgda tuzilgan Islom sho‘rosi tashkilotining talabi va Leninning 1917 yil 9 dekabrda chiqargan farmoyishi bilan mazkur Qur’on Rossiya musulmonlariga qaytarib berildi: Ufa diniy nazorati qarorgohida 1924 yilgacha saqlandi. Shundan keyin Turkistondagi tarixiy muzeylar va qadimiy osori atiqalar ishi bo‘yicha tuzilgan qo‘mitaning talabnomasi va Rossiya hukumatining qaroriga asosan xalifa Usmon Qur’oni 1924 yil 18 avgustda zo‘r tantana bilan Turkiston muxtor jumhuriyati poytaxti - Toshkentga olib kelindi va hozirgacha avaylanib, e’zozlanib ko‘z qorachig‘idek saqlanmoqda.

Qur’onda fiqhiy-huquqiy masalalarga ko‘pincha umumiy yondoshiladi va ayrim masalalar batafsil yoritiladi.

Mashhur fiqhshunos olim doktor Muhammad Yusuf Muso ko‘rsatishicha, fiqhiy-huquqiy masalalar bo‘yicha Qur’onda quyidagi sohalarda oyatlar mavjud:

1. Xaqqulloh (amaliy ibodatlar) bo‘yicha - 140 ta oyat.

2. Shaxsiy huquq (oila, taloq, vasiyat va boshqalar bo‘yicha) - 70 ta oyat.

3. Muomalot yoki fuqarolik huquqi (oldi-sotdi, ijara, garov, qarz, shirkat va boshqalar) bo‘yicha - 70 ta oyat.

4. Jinoyat va jazo bo‘yicha - 30 ta oyat.

5. Sud, sud jarayoni, guvohlik va unga bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha - 20 ta oyat.

6. Bizning fikrimizcha, davlat huquqi sohasida - 3 ta oyat, hammasi bo‘lib Qur’onda - 333 ta huquqiy oyat bor.

Qur’onning boshqa ilohiy kitoblardan asosan farqi shundan iboratki, u faqat aqidaviy-g‘oyaviy manba emas, balki qonun va axloq huquqidir[100].

Shariatning ikkinchi manbai-sunnaning, arabcha - lug‘aviy ifodasi odat, an’ana, xatti-harakat tarzi bo‘lib, yo‘l-yo‘riq degan ma’noni bildiradi. Sunna Muhammad (SAV)ning so‘zlari, qilmishlari, xatti-harakatlari, fe'l-lari (amallari), tasdiqlari, shuningdek, sahobalarning so‘zlari va amallari majmuidan iborat. Sunna haqidagi rivoyatlar hadislarda berilgan. Hadislar to‘plamiga sunna deyiladi. Hadis arabcha rivoyat degan so‘zdan olinib, is-lom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Hadislar Mu-hammad (SAV)ning hayoti, faoliyati va ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlar-dan iborat. Qur’on musulmonlar jamoasining barcha huquqiy va axloqiy masalalarini qamrab ololmaganligi sababli VII asr oxiri-VIII asr boshida hadislar yozila boshlandi va asta-sekin tizimga solindi. IX-X asr boshlarida dindorlar orasida obro‘li deb tanilgan hadislarning 6 ta to‘plami vujudga kelgan. Bular: Muhammad Al-Buxoriyning «al-Jome' as-Sahih» kitobi, Muslim An-Nishopuriyning «as-Sahih» to‘plami, Ibn Mojaning «Sunan» to‘plami, Abu Dovud As-Sijistoniyning hadislar to‘plami, Muhammad At-Termiziyning «al-Jome' al-Kabir» kitobi, An-Nisoniyning «Sunan» kitobi-dir. Ulardan «Sahihi Buxoriy» va «Sahihi Muslim» ko‘proq e’zozlanadi. Sunna va Payg‘ambar hadislarini to‘plab, ularni ja'liy (to‘qima) hadislar-dan ajratib olishda vatandosh allomamiz Imom Muhammad ibn Ismoil Bu-xoriy (810-892 yillar) unutilmas hissa qo‘shib, o‘zidan abadiy va barhayot asarlar qoldirgan.

Ko‘pgina hadislar Qur’onning turli qoidalarini tushuntirib beradi va to‘ldiradi. Ular ko‘plab amaliy masalalarni hal etishda muhim ijtimoiy vazifani bajaradi, ular haqida Qur’onda hech narsa aytilmagan hollarda esa hadislarning ahamiyati yanada ortadi. Lekin hadislar Qur’onga zid kelib qolgan taqdirda ular manba kuchiga ega bo‘lmaydi.

Dastlabki xalifalarning an’analari huquqiy xarakterda bo‘lib, pay-g‘ambarimizning obro‘si bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. X asrdan buyon yuqorida ko‘rsatilgan sunniylikning oltita mashhur to‘plami o‘zida islom an’analarini aks ettiradi. Islom amaliyoti ularni shunchalik muvofiqlashtir-ganki, oltita to‘plamning hammasida mavjud bo‘lgan hadislar muqaddas

[100] **Qarang:** Juzjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O`rta Osiyo faqihlari –T.: «Toshkent islom universiteti», 2002.-64-65-betlar.

qonun mavqeiga ega bo‘lgan. Islomshunos olim A.Sh.Juzjoniy ko‘rsatishicha, tadqiqotchi olimlar sunnani ikki xilga bo‘lib o‘rganadilar.

Birinchi turi shundan iboratki, agar biror ish qilinmoqchi bo‘lsa, yaratuvchi tomonidan o‘sha ishga tegishli fikr Payg‘ambarga vahiy (vahyi xafiy) orqali bildiriladi. Payg‘ambar uni o‘z so‘zlari orqali bayon etadi. Bu vahiy, ya’ni vahyi xafiyning Qur’on oyatlari, ya’ni vahyi jaliydan farqi shundaki, Qur’on oyatlarining ham mazmuni va ham iborasi Alloh tomonidan Jabroil orqali yuborilgan.

Sunnaning ikkinchi turi shundan iboratki, agar musulmonlar hayotiga tegishli biron bir yangilik kiritilishi zaruriyati sezilsa-yu, lekin uni hal qilish uchun Payg‘ambarga vahiy kelmasa, bunday ahvolda Payg‘ambarga ijtihod qilish, ya’ni masalani o‘z shaxsiy fikri asosida yechish uchun ruxsat berilgan hisoblanadi. O‘shanda Payg‘ambar ijtihod qilib, sahobalar bilan kengash - maslahat o‘tkazib, bir to‘xtamga keladi.

Agar Payg‘ambar tomonidan qabul qilingan qaror yoki bildirilgan fikr Qur’on oyatlari orqali to‘g‘rilansa, Sunna (Payg‘ambarning so‘zi yoki qabul qilgan qarori) Qur’on orqali mansux bo‘ladi, ya’ni bekor qilinadi va Qur’onning hukmi amalga oshiriladi.

Payg‘ambar Qur’onning sharhlovchisi sifatida tashri' qilish (qonun tuzish) vakolatiga ega edi. Shunga binoan Sunna tashri' (qonun tuzish) bo‘yicha ikki asosiy sohani qamrab oladi:

Birinchi soha Qur’onda zikr etilgan hukmlarni yoritib berishga bog‘liq.

Ikkinchi soha Qur’onda ko‘rsatilmagan hukmlarning tashri'i (qonuniy shaklda chiqarish)ga bog‘liq bo‘ladi.

Birinchi sohada Sunna Qur’oni karim oyatlarini tafsir va ta'vil qiladi, mujmal iboralarini izohlaydi, umumiy ma’noga ega bo‘lganini xoslashtiradi, mutlaq, ya’ni qaydu shartsiz oyatlarga qaydu shart qo‘yadi. Ba’zi bir misollar: Qur’onda **«Namoz o‘qinglar»** deb amr qilingan, lekin namozlarning soni, sifati, rak’atlarining soni Payg‘ambar tomonidan belgilab va amalda ko‘rsatib berilgan. Bu esa mujmal iborani izohlash misolidir.

Umumiy mazmunni xos qilishga misol: Qur’onda meros tizimi umumiy ma’noda kelgan, lekin Payg‘ambar meros olish uchun din birligi, qotil bo‘lmaslik va qul bo‘lmaslikni shart qilib qo‘yib, uni xoslashtirgan. Masalan, otasini o‘ldirgan yoki nohaq yo‘l bilan uning o‘limiga sabab bo‘lgan farzand otasidan meros olish huquqidan mahrum bo‘ladi va shu kabilar.

Ikkinchi sohada Sunnaga tegishli bahs: zarurat chog‘ida Qur’onda aytilmagan biron-bir yangi hukmni Sunna belgilab beradi. Bu o‘rinda ba’zi hukmlar Payg‘ambardan vahyi xafiy (ilhomga o‘xshagan holat) orqali

sodir bo‘lgan va ba’zilari uning ijtihodi va shaxsiy fikridan kelib chiqqan. Albattaki, Payg‘ambar ijtihod qilishda ham islom ruhi va falsafasini nazarda tutadi.

Bu o‘rinda ko‘p misollar keltirish mumkin. Masalan, jadda (buvi)ga merosdan oltidan bir hissa berish, nikoh bitimining to‘g‘ri bo‘lishi uchun guvohlar shartligi, badan a’zolari xuni, ya’ni bahosini belgilash, shuningdek, urf asosida amal qilinganda uning to‘g‘riligini tasdiqlash[101]. Vaqt o‘tishi bilan musulmonlar jamoasi - ummada vujudga kelgan vaziyat va muammolarni Qur’on va sunna to‘liq qamrab ololmagan. Ular musul-monlar jamoasi - ummada ro‘y bergan barcha muammolar va vaziyatlarga to‘liq javob bera olmay qolgan.

Shu tariqa shariatning yangi manbaiga zarurat tug‘iladi va **ijmo‘** islom huquqi (shariat)ning asosiy manbalaridan biri sifatida tasdiqlanadi. Ijmo‘ (arabcha - yakdillik, yakdillik bilan qabul qilingan qaror, ijmo‘ al-umma - “diniy jamoaning yagona fikri”) - Qur’on va hadislarda aniq ko‘rsatma berilmagan huquqiy masalani hal etishda faqih va mujtahidlarning to‘planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi (fatvo berishi)dir. Shariatda shunday yo‘l bilan chiqarilgan hukm shar’iy (qonuniy) deb qabul qilingan. Ijmo‘ga fiqh manbai sifatida qarash Arab xalifaligida feodalizm tarkib topa boshlagan davr (VIII asr oxiri IX asr boshlari)da kelib chiqdi. Mujtahid tomonidan aytilgan fikrgina hal qiluvchi fikr hisobanadi. Oddiy musulmonlar fikrining esa ijmo‘ga hech qanday aloqasi yo‘q. Mujtahid deb diniy olimga aytiladi. Mujtahid (arabcha - intiluvchi, g‘ayrat qiluvchi) - o‘rta asrlarda islomda ijtihod huquqiga ega bo‘lgan, ya’ni mustaqil ravishda diniy aqidaviy masalalar bo‘yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs. Sunniylarda diniy huquq mazhablarining asoschilari, shialarda yuqori martabali ruhoniylar va diniy huquqshunoslar mujtahid deb yuritiladi. Mujtahid musulmonlar orasida obro‘-e’tibor qozongan bo‘lishi lozim. Shuningdek, shariat mujtahidning boshqa xislatlarini, masalan, arab tilini to‘la bilishini, shariatga qat’iy rioya qilishini, hozirgi zamonga doir chuqur saviyaga ega bo‘lishi va hokazolarni belgilab beradi.

Misrlik olim Abdulvahhob Xallof ijmo‘ga quyidagicha ta’rif beradi: «Ijmo‘ning lug‘aviy ma’nosi «qasd qilmoq»dir. Mushtahidlarning bir hukmga qilgan ittifoqiga «ijmo‘» deyilishining boisi - mazkur hukmning shar’iy hukm deb qasd qilishlaridir. Usul ulamolari istilohida esa, ijmo‘-ning ta’rifi bundaydir: Musulmonlardan bo‘lgan mujtahidlarning Rasu-

[101] **Juzjoniy A.SH.** Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O`rta Osiyo faqihlari –T.: «Toshkent islom universiteti», 2002.-65-68-betlar.

lulloh sallallohu alayhi vassallam vafotlaridan so‘ng, biror davrda, shar’iy hukmga qilgan ittifoqiga ijmo‘ deyiladi.

Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, ijmo‘ bo‘lishi uchun to‘rtta rukn lozim: avvalo, mujtahidlardan bo‘lishi kerak, mujtahid bo‘lmagan olimlarning ittifoqi ijmo‘ emas; ikkinchidan, ular musulmonlardan bo‘lishi shart; uchinchidan, Janobi Payg‘ambar alayhissalom vafotlaridan so‘ng bo‘lishi kerak, chunki hayotlik vaqtlarida barcha shar’iy masalalarda janobning o‘zlariga murojaat qilingan, shuningdek, ijmo‘-ittifoq ko‘pchilik tomonidan bo‘ladi, yakka kishidan ijmo‘ sodir bo‘lmaydi; to‘rtinchidan, ijmo‘ qilinadigan masala shar’iy masala bo‘lishi kerak, dunyoviy masalalarda bunday ijmo‘ qilinmaydi.

Demak, Payg‘ambar alayhissalomdan so‘ng biror voqeaning hukmi Qur’ondan ham, sunnadan ham topilmasa, o‘sha davrning mujtahidlaridan masalaning shar’iy hukmi so‘raladi. Ularning mazkur masala yuzasidan bir fikrga ittifoqi ijmo‘ bo‘lib, u shar’iy qonun hisoblanadi va unga itoat qilish lozim, qarshi chiqish mumkin emas. Ijmo‘ qilingan masala ikkinchi bor, keyingi davr mujtahidlari uchun ijtihod mavzui bo‘lishi mumkin emas. Chunki ijmo‘ bilan sobit bo‘lgan hukm qat’iy bo‘lib, unga qarshi chiqish hamda uni nasx (hukmini bekor) qilish mumkin emas[102].

Islomning ilk davrlarida Muhammad (SAV)ning muxlislari va izdoshlari ijmo‘ga katta e’tibor berdilar. Barcha hollarda bu tushuncha diniy-huquqiy masala bilan bog‘liq ravishda belgilab berildi va ular bilan tasdiqlandi: ijmo‘ ulamolarning bir ovozdan roziligi olingach amalga oshirilgan.

Qiyos - fiqhning to‘rtinchi manbai. Qiyos arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, «taqqoslash», «solishtirish» degan ma’noni anglatadi. Bunga ko‘ra, biror huquqiy masala o‘ziga o‘xshash ikkinchi huquqiy masala bilan taqqoslanadi, solishtiriladi va ular bir-biriga tenglashtiriladi. Demak, bunga binoan Qur’on va Sunnada berilmagan biror huquqiy masala ulardagi shunga o‘xshash masala bo‘yicha berilgan ko‘rsatmaga taqqoslash yo‘li bilan sharhlanadi. Qiyos faqihlar huquqini kengaytirib, shariatning turli huquqiy masalalarga tadbiq etilishiga imkon yaratadi.

Qiyosning fiqhning to‘rtinchi klassik manbai sifatida e’tirof etilishi hadisga borib taqaladi. Unda hikoya qilinishicha, Muhammad (SAV) bir kuni o‘z sahobalaridan biri Muoz ibni Jabal raziyiallohu anhuni Yamanga dindan ta'lim berishga yuborayotganida uning odil sudlovni amalga oshirishida nimalarga tayanishini so‘raydi. U quyidagicha javob beradi: «Allohning kitobi bilan. Agar undan topmasam, Alloh rasulining sunnati bilan.

[102] **Abdulvahhob Xallof.** Usulul fiqh (Islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar.-T.: “Adolat”, 1997.-50-51-betlar.

Agar undan ham topmasam, ijtihod qilaman va ijtihodda nuqsonga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilaman»[103]. Payg‘ambar (SAV) bunday fikrni ma'qullagan ekanlar. Ijtihod arabcha «intilish», «g‘ayrat qilish» so‘zlaridan olingan bo‘lib, diniy va huquqiy masalalar bo‘yicha mustaqil fikr yuritish prinsipidir. O‘rta asrlarda faqat yirik musulmon faqihlari va ilohiyotchilari - mujtahidlar ijtihod huquqiga ega edilar. X asrda sunniylik yo‘nalishidagi shariat mazhablari shakllanib, islom aqidalari ishlab chiqilgach, «ijtihod eshiklari yopib qo‘yiladi», ilohiyot, huquq, axloq, ijtimoiy ta’limotda faqat ilgarigi ilohiyotchilarga taqlid qilish mumkin, deb hisoblangan. Taqlid konsepsiyasi birinchi o‘ringa chiqqan. XIX asr oxiridan islom diniy ilohiyotchilari ijtihod huquqini yana tiklaganlar, Qur’onni va islom ta’limotini yaxshi bilgan har bir musulmon ijtihod qilishi mumkin deb hisoblangan.

Shunday qilib, qiyos huquqiy atama sifatida hukmi aniq bo‘lmagan masalalarni hukmi aniq bo‘lgan masala bilan solishtirib, oralarida mushtarak sabab mavjud bo‘lgan suratda ikkinchi masala hukmini hukmi aniq bo‘lmagan masalaga ko‘chirishdan iborat. O‘shanda ikkinchi masala islom qonuniga muvofiq bo‘lsa, birinchi masala ham qonuniy bo‘ladi yoki aksincha.

Masalan, xamr (uzum yoki xurmodan tayyorlangan ichimlik) Qur’onda qat’iy harom deb hukm qilingan, ammo aroq va boshqa mevalar yoki o‘simliklardan tayyorlangan ichimliklar haqida „nass“ mavjud bo‘lmagani sababli uning hukmi (ya’ni halol yoki harom ekanligi) aniq emas edi. Qiyos orqali ular orasidan mushtarak sabab borligi, ya’ni har ikkalasi ham ichuvchini mast va irodasiz qilish xususiyatiga ega ekanligi ma’lum bo‘lgani natijasida, xamrning hukmi, ya’ni haromlik aroqqa ko‘chirilib, u ham xamr kabi harom deb hukm etildi.

Qiyos uslubi ayniqsa Abu Xanifa va uning izdoshlari-xanafiylar tomonidan keng asoslantirilgan. Qiyosga xanbaliylar qarshi chiqqanlar. Shialar esa qiyosni umuman huquq manbai sifatida tan olmaganlar.

Shariat musulmon huquqining asosiy manbai bo‘lsa, urf-odat uning qo‘shimcha, ikkinchi darajali manbalari hisoblangan. Masalan, O‘rta Osiyo faqihlari tomonidan yaratilgan asarlarda mintaqa xalqlarining urf-odatlari, rasm-rusumlarining katta qismi qonunlashtirilib, shariat va islom huquqi (furu’ul-fiqh) tarkibiga kiritilgan.

Shariat birdaniga bugungi o‘z mukammal shaklida yuzaga kelmagan, balki Payg‘ambarimiz davridan boshlab rivojlanib borgan, turli millatlar va xalqlar urf-odatlaridan foydalanilgan holda sahobalar, tobiinlar va buyuk mujtahidlar ijtihodi orqali erishilgan yutuqlar orqali takammul daraja-

[103] Qarang: Abdulvahhob Xallof. O`sha asar, 62-bet.

siga ko‘tarilgan. Hatto islom dinining birinchi bosqichidan johiliyat arablari hayotiga singib ketgan urf-odat qonunlari, masalan, muzorabat (pulni foydaga sheriklikka berib ishlatish), hakamiyat (hakamlik), salam (pishib yetilmagan don, paxta yoki boshqa narsalarni oldindan pul to‘lab sotib olish), arablarda qonuniy hisoblangan olti xil nikohning ikki turi, ya’ni hozirgi qonuniy nikoh, vaqtincha nikoh va islomning asosiy qoidalariga qarshi bo‘lmagan boshqa bir necha urf-odatlari qabul qilinib, islom huquqi tarkibiga kiritilgan. Ulardan ayrimlari, masalan, salamga bir oz o‘zgartirishlar kiritilib, ayrimlari shundayligicha qabul qilingan.

Shar’iy asoslarga mos kelmaydigan bir qator urf qonunlari, masalan, ribo (sudxo‘rlik), xotinni almashtirish, o‘z xotinini aslzoda oilalarga yuborib nasl olish va noqonuniy yo‘l bilan homilador bo‘lib, bola tug‘ilgandan keyin uning otasini belgilab olish kabi nikoh turlari bekor qilindi. A.Sh.Juzjoniy yozishicha, urf ikki xildir: biri **urfi fosid -** nassga zid bo‘lgan urf-odat, islom huquqida qo‘llanilmaydi, ikkinchisi **urfi sahih –** xalqning nassga zid bo‘lmagan urf-odatlari bo‘lib, Islom qonunchiligida, ayniqsa, Abu Hanifa mazhabida katta ahamiyatga ega.

Islom huquqining asosiy manbalari, ayniqsa, Qur’onda oldi-sotdi bitimiga doir bir-ikki oyatdan boshqa nass mavjud emas. Hadis kitoblarida ham bu sohaga tegishli hadislar soni 20 dan oshmaydi. Shunday bo‘lsa ham bugun fiqh kitoblarida bu soha bo‘yicha minglab masalani ko‘rish mumkin. Buning sababi shundaki, Payg‘ambar zamonida uluslararo muomalot urf-odat asosida tartibga solinar edi, Payg‘ambar ko‘pincha urfni qabul qilib, yangi hukm bermasdi. Abu Hanifa Qur’on yoki hadis yoki sahobalardan rivoyat qilingan qavl va amal mavjud bo‘lmagan holda, shuningdek, qiyos urfiga qarshi turganda, urf-odatga asoslanib hukm chiqarardi.

Urfga katta e’tibor qaratish Hanafiy mazhabi rivojlanib, keng ko‘lamda tarqalishining muhim omillaridan biri edi. Masalan, savdo va tijorat bitimlari bo‘yicha urf-odatga katta e’tibor qaratilgan. Bunday shartnomalarni tuzish uchun shariat manbalarida biron ko‘rsatma mavjud bo‘lmagan taqdirda, Hanafiy mazhabida urfga asoslanib amal qilinadi va unga (urfga) zid bo‘lgan narsa tark etiladi. Chunki Abu Hanifa nuqtai nazarida asosiy manbalardan keyin urf eng muhim qo‘shimcha huquqiy manba hisoblanadi.

Shunday qilib, islom dinini qabul qilgan xalqlarda urf-odatlar shariat qonunlari bilan bir qatorda jamoa hayotini tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Va nihoyat, musulmon huquqining shariatdan kelib chiqadigan yana bir manbai xalifalarning farmon va farmoyishlari hisob-

lanadi. Keyinchalik boshqa musulmon davlatlarida qonunchilik faoliyatining rivojlanishi bilan huquq manbai sifatida qonunlar yuzaga kelib, ularning ahamiyati tobora oshib borgan. Farmonlar va qonunlar, shuningdek, shariat prinsiplariga zid kelmasligi lozim edi. Ular shariatni, avvalo, davlat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi va davlat hokimiyatining aholi bilan ma'muriy-huquqiy munosabatlarini belgilovchi normalar bilan to'ldirgan.

A.Sh.Juzjoniyning yozishicha, Abbosiylar hokimiyatning birinchi bosqichida imom yo xalifa islom jamoasining mutlaqul-inon rahbari, ya'ni yakka hokimi bo'lsa ham, qonun tuzish va qonun chiqarish huquqiga ega emas edi. Lekin shahar chegarasidan chiqmasdan idoriy ishlarni tartibga solish uchun muqarraralar (hujjatlar) chiqarishga haqli edi.

O'sha davrda **«Qonun chiqarish huquqiga ega emaslik»** nazariyasi qabul qilingan bo'lsa ham, bu nazariya ochiq suratda qonun chiqarish va ijro etish salohiyatlarini bir-biridan ajrata olmadi. Keyingi xalifalar (dunyoviy hokimlar)ning har biri o'z mahkamalari uchun qonun tuzardilar. Ularning bunday amallari haqiqatda bir nav' qonun chiqarish bo'lsa ham, hokim farmon ravolar ularni idoriy qo'llanmalar deb atardilar. Ularcha bunday qonun chiqarish faoliyatlari faqat shariatni takmil etish va uning hukmlarini amalga oshirishga qaratilgan edi va ularning siyosiy salohiyati doirasiga kirardi. Bunday idoriy qonunlarning yaqqol misoli Usmoniy sultonlarining **«qonunnomalari»** edi.

Islom dunyosida qonunlar tizimini tartibga solish Usmoniylar imperiyasida Sulton Sulaymon Qonuniy (1520-1566 yillar) davrida boshlandi. O'sha davr shayxul-islomi buyuk faqih Imodiy Muhammad Abu Suud Afandi keng ko'lamli faoliyat olib borib, Sulton Sulaymonning eng mashhur qonunnomasi (qonunlar majmuasi)ni to'pladi. Manbalarda ta'kidlanishicha, o'sha davrda Abu Suud Afandining yordami va rahbarligida tuzilgan qonunlar shariatdan olingan bo'lsa ham, ularning bir qismi, ayniqsa, davlat yerlariga tegishli qoidalar ko'pincha mahalliy urf-odatlardan olingan edi.

5. Shariat bo'yicha fuqarolik huquqi masalalarining tartibga solinishi

Shariat bo'yicha fuqarolik huquqi munosabatlari (muomalot) batafsil tartibga solinadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarining sub'yekti jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin. Shariat yuridik shaxslarning huquqiy holatini alohida tarzda ko'rib chiqmaydi. Jismoniy shaxslar tomonidan qilingan

fuqarolik-huquqiy harakat qonuniy (halol) va yo‘l qo‘yilgan (joiz) yoki qonunsiz, yo‘l qo‘yilmagan (harom) bo‘lishi mumkin. Harakat, shuningdek, shariat nuqtai nazaridan maqtovga loyiq (mustahib) va tanbehli (makruh), majburiy va majburiy bo‘lmagan kabi turlarga bo‘linadi.

Jismoniy shaxslarning layoqatligiga jinsi, tabaqasi, mulkiy ahvoli, ayniqsa e’tiqodi ta’sir etadi. To‘liq darajadagi huquq layoqatiga va muomala layoqatiga mulkdor musulmon erkak kishilar, hukmron tabaqa vakillari ega bo‘lgan. Huquqiy layoqat tug‘ilishdan boshlab, meros masalalarida esa tug‘ilmasdan ham avval vujudga kelgan va o‘lim bilan yoki bedarak yo‘qolish bilan tugagan. Yosh bolalar, 15 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar, shuningdek, ruhiy kasallar va aqli zaiflar muomala layoqatiga ega emas deb hisoblangan.

Fuqarolik huquqining ob’yektini ashyolar, mulkiy, shuningdek, mulkiy xarakterga ega bo‘lmagan shaxsiy huquq (masalan, ismga ega bo‘lish huquqi) tashkil etgan. Ashyolar harakatda va harakatsiz (ko‘chmas), almashtiriladigan va almashtirilmaydigan, nasliy va nasliy bo‘lmagan, bo‘linadigan va bo‘linmaydigan, iste’molga yo‘l qo‘yilgan va iste’molga yo‘l qo‘yilmaydigan, muomaladan olingan va muomaladan olinmagan bo‘lishi mumkin.

Musulmon huquqida mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar muhim o‘rin tutadi. Unda avvalo mulkka ashyoviy huquq ob’yekti sifatida qarash mustahkamlangan. Musulmonlarning xususiy mulki hisoblanmaydigan ashyolar-havo, dengiz, cho‘l-dashtlar, machitlar, suv yo‘llari va boshqalar alohida turkumdagi ashyolarni tashkil etgan. Shuningdek, «harom ashyolar» - vino, cho‘chqa go‘shti, islomga zid kitoblar va hokazolar ham musulmonning mulki emas deb hisoblanadi. Shu sababli arablarning bosqinchilik yurishlari davomida ko‘pincha bunday mulklar yo‘q qilingan. Lekin bu yerda shuni aytib o‘tish kerakki, nomusulmonlarga tegishli mol-mulklarni nobud qilish masalasida islomdagi mazhablar o‘rtasida turlicha qarashlar mavjud.

Musulmon huquqshunoslari yer mulkini tasniflashtirishga katta e’tibor beradilar. Yer mulkchiligining quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: davlat yerlari, xususiy egalikdagi yerlar, jamoa yerlari va vaqf yerlar. Bulardan tashqari muqaddas yerlar ham mavjud bo‘lib, ular hijoz deb atalgan. Bunga Muhammad (SAV)ning oyoqlari tekkan yerlar, ya’ni u yashagan joylar kiradi. Bunday yerlarga boshqa dindagilarning kirishi man etilgan. Bu yerlarda faqat musulmonlar yashashlari mumkin bo‘lib, daraxtlarni kesish, ovchilik qilish mumkin emas edi va hokazo. Tarixiy va yuridik manbalarda ko‘rsatilishicha, arab va boshqa musulmon mamlakatlarida ma’-

lum xizmatni bajarish evaziga feodallarga beriladigan yerlar ham mavjud bo‘lib, bu shartli yer egaligi hisoblangan va iqto yerlari deb yuritilgan. Bunday yerlar egasi (iqtador) o‘z hokimiyati ostidagi aholidan o‘z hisobiga o‘lpon va soliqlar yig‘ish huquqini olgan. Iqto vaqt o‘tishi bilan meros tariqasida o‘tkazila boshlangan va xususiy egalikdagi mulk bo‘lib qolgan. Dastlab ichiladigan suvlar, havo singari umumiy foydalaniladigan mulk hisoblangan. Lekin quduqlar, hovuzlar va mayda ko‘llar asta-sekin yirik yer egalariga o‘tib borgan. Faqat katta daryolar va ko‘llar ilgarigidek jamoa va davlat mulkchilik tizimiga kirgan. Chunki buni mansabdor shaxslar nazorati ostida amalga oshiriladigan birgalikdagi irrigatsiya ishlarini o‘tkazish zaruriyati taqazo qilardi.

Shariatda mulk huquqining vujudga kelish usullari batafsil belgilangan. Bunda turli mazhab vakillari turli fikrlar bildirganlar. Masalan, arablarning ko‘pdan-ko‘p bosqinchilik yurishlari harbiy o‘ljalarning huquqiyligi yoki huquqiy emasligi masalasini kun tartibiga qo‘ygan va bu shariatda umumiy mulk huquqining kelib chiqish usullaridan biri sifatida tan olingan. Bosib olingan yerlar umumiy qoida bo‘yicha davlat mulki hisoblangan va xalifa hamda amirlarning tasarrufiga kelib tushgan. Dushmandan o‘lja qilib olingan boshqa mulklarning miqdori alohida mazhablarda turlicha belgilangan. Bunday mulklarning bir qismi uni egallab olgan shaxsga, ikkinchi qismi davlatga, uchinchi qismi-machitlarga o‘tkazilgan va hokazo. Shariat bo‘yicha mulk huquqi meros olish, shartnoma tuzish, ashyolarni topib olish yo‘li bilan ham kelib chiqishi mumkin. Masalan, o‘z yer uchastkasidan begona ashyoni topib olgan shaxs unga nisbatan mulk huquqiga ega bo‘lgan.

Shariatda rim huquqidan farqli o‘laroq, **majburiyatlarning** umumiy kontsepsiyasi ishlab chiqilmagan edi. Lekin shartnoma huquqining amaliy masalalari tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida har tomonlama ishlab chiqilgan edi. Majburiyatlar haq to‘lanadigan va haq to‘lanmaydigan, ikki tomonlama va bir tomonlama, muddatli va muddatsiz turlarga bo‘linadi. Islom dunyosida o‘ziga xos bir tomonlama majburiyatlarning - ahdlashuvlarning tarqalganligi tez-tez uchrab turadigan hodisadir.

Umuman shariatda majburiyatlarning ancha rivojlangan tizimi mavjud bo‘lgan. Majburiyatlarning kelib chiqishiga ko‘ra shartnomalardan kelib chiqadigan va zarar yetkazishdan kelib chiqadigan turlari bir-biridan ajratilgan. Shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar keng tarqalgan.

Shartnoma munosabatlarining sub’yekti jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin edi. Yosh bolalarning harakati homiylar tomonidan tan olinsa, qullarning harakati esa ularning egalari tomonidan ma'qul-

lansa, qonuniy bo‘lishi mumkin edi. Aqli zaiflar fuqarolik huquqiy munosabatlarining sub’yekti bo‘lolmagan.

Shartnoma munosabatlarida vakillikka ham yo‘l qo‘yilgan. Yosh bolalarning, ayollarning, aqli zaiflarning qonuniy vakillari ularning otalari, akalari, tog‘alari, erlari, homiylari bo‘lganlar. Shariat, shuningdek, shaxslarning majburiyatda almashtirishga yo‘l qo‘ygan. Kreditor roziligi bilan qarzdor almashtirilishi mumkin edi. Shariat bo‘yicha tan olingan va himoya qilinadigan bitimlar shartnoma hisoblanardi.

Shariatda shartnomaga tomonlarning o‘zaro bitimidan kelib chiqadigan aloqa sifatida qaralardi. Biroq bu tomonlarning mulkiy notengligi sharoitlarida sof rasmiy xarakterga ega edi. Shartnoma shartlari har qanday ko‘rinishda: hujjatda, norasmiy xatda, og‘zaki tarzda ifoda etilishi mumkin edi. Tuzilgan shartnomalar mustahkam va o‘zgarmas hisoblanardi. Qur’onda «shartnomalarga» rioya qilish majburiyatiga muqaddas burch sifatida qaralgan: «Ular (mo‘minlar) (odamlarning bergan) omonatlariga va (o‘zaro) ahdlariga rioya etuvchi zotdirlar»[104] (23-Mo‘'minun surasi, 8-oyat).

Shartnomaning haqiqiyligi shartlari: uning qonuniyligi, ya’ni shartnomalarning huquqqa xilof bo‘lmasligi, tomonlarning o‘zaro roziligi va huqiqiy layoqatliligi bo‘lib hisoblangan. Amalda o‘zaro aldashlar, tomonlar irodasi ustidan kuch ishlatib shartnomalar tuzish hollari tez-tez uchrab turardi. Bu ayniqsa tutqinlik, qarz shartnomalari tuzilishida namoyon bo‘lgan.

Shartnoma predmeti bo‘lib shariat bo‘yicha yo‘l qo‘yilmagan deb e’lon qilinmagan ashyolar va harakatlar bo‘lishi mumkin. Masalan, oldi-sotdi shartnomasining predmeti daryolarda suzib yuradigan baliqlar, havoda uchib yuradigan qushlar, hayvonlardagi junlar, jamoat dalalaridagi o‘tlar, ayollarning suti, cho‘chqa go‘shti va boshqalar bo‘lsa haqiqiy emas deb topilgan. Shariatda zakalat, kafolat, garov va aybona (va'dasizlik shartnomasi) majburiyatlarni ta’minlash usullari edi.

Shartnomalar, odatda og‘zaki shaklda tuzilgan. Agar tomonlar uchun qimmati katta summali shartnoma bo‘lsa, yozma shaklda ham tuzilishi mumkin edi. Shariatda shartnomalarning bir qancha turlari tartibga solinadi. Oldi-sotdi, qarz, hadya, ijara, ssuda, saqlash, shirkat va boshqa shartnomalar keng tarqalgan.

Savdo rivojlanishi bilan oldi-sotdi shartnomasi eng ko‘p tarqalgan shartnomalardan biri bo‘lib qolgan. U yozma tuzilishi, shuningdek guvohlar ishtirokida yoki ularning ishtirokisiz og‘zaki tuzilishi mumkin edi. Oldi-sotdi shartnomasining ob’yekti bo‘lib muomaladan olinmagan har

[104] **Qur'oni Karim.** «Toshkent islom universiteti» nashriyoti.-2001.-342-bet.

qanday ashyo bo‘lishi mumkin. Shariatda **shafoat** (shuf'at) instituti, ya’ni sotib oluvchilardan bittasining boshqalari oldida ashyolar sotib olishda imtiyozga ega bo‘lishi mavjud.

Shariatda oldi-sotdi va boshqa shartnomalar haqida akademik H.Rahmonqulov qiziqarli ma’lumotlar keltiradi. Quyida shulardan parchalar keltiramiz:

Oldi-sotdi shartnomasi quyidagi turlarga bo‘linadi:

«Bay-qat’iy». Ushbu shartnomaga asosan sotilgan mol-mulk oluvchiga uning haqi to‘lanmasdan oldin topshirilishi mumkin.

«Bay-jaiz». Ushbu shartnomaga asosan taraflar ma’lum va kelishilgan muddat davomida, shartnoma bo‘yicha berilgan, olingan narsalarni bir-birlariga qaytarib berish sharti ko‘zda tutiladi.

«Bay-fasid». Ushbu shartnoma bo‘yicha sotilgan mol-mulk uni mazmun yoki shakl jihatidan o‘zgartirish yoki qaytadan uchinchi shaxsga sotish mo‘ljallangan taqdirda ushbu mol-mulk uning birinchi egasi tomonidan o‘zi sotgan narxda qaytarib olish sharti bilan tuziladi.

Oldi-sotdi shartnomasi asosan fuqarolar o‘rtasida tuziladi. Shartnomaning narsasi bo‘lib, turar joy, uy-ro‘zg‘or buyumlari, asbob-uskunalar, chorva mollari, iste’mol qilish uchun zarur bo‘lgan buyumlar, mahsulotlar va boshqalar hisoblanadi. Shartnoma narsasi ba’zan tirik tovarlar - qullardan iborat bo‘lishi mumkin edi.

Shartnoma bo‘yicha tovarlar ko‘pincha nasiyaga (qarzga) yoki haqini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotiladi. Bunday shartnomalar yozma ravishda rasmiylashtirilmasdi ham. Ko‘char mol-mulk sotilgan vaqtda shartnoma og‘zaki bo‘lsa ham, lekin albatta guvohlar ishtirok etishlari shart edi. Ko‘chmas mol-mulk bo‘yicha shartnoma umumiy qoidaga binoan yozma shaklda tuzilib, qozi tomonidan guvohlantirilardi.

Ayirboshlash shartnomasi hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarda keng qo‘llanilardi. Ayirboshlash savdogarlar tomonidan ham qo‘llaniladi. Ular qishloq va ovullarga turli tovarlar olib borib, ularni qishloq xo‘jalik va chorva mahsulotlariga ayirboshlash bilan shug‘ullanardi.

Shartnomaning narsasi bo‘lib bug‘doy, paxta, gazmol, chorva mollari, charm, jun, quritilgan mevalar va boshqalar hisoblanadi. Ko‘chmas mol-mulk bo‘yicha tuzilgan ayirboshlash shartnomasi qozi tomonidan guvohlantiriladi. Ko‘char mol-mulkni ayirboshlash uchun yozma shaklda tuzilgan shartnoma talab qilinmas, lekin guvohlarning ishtirok etishi inkor etilmasdi.

Ijara shartnomasi faqat mol-mulkka emas, shaxsga nisbatan ham qo‘llanadi. Shartnomaning narsasi ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar hisoblanardi. Shartnoma ko‘pincha yerdan foydalanish uchun tuzilardi. Lekin unda nazarda tutilgan shartlar dehqonni og‘ir sharoitga soladigan darajada bo‘lardi. Yerni ijaraga olgan dehqon olingan hosilning deyarli yarmini yer egasiga berardi. Shaxs ijarasi haqida tuzilgan shartnomaning mazmuni asosan ishga yollovchining xohishi bilan belgilanadi. Ishlar ko‘pincha vaqtincha xarakterga ega bo‘lib, mehnatni muhofaza qilish shartnomada nazarda tutilmaydi. Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik taraflarning aybi bilan bo‘lishi yoki bo‘lmasligi hisobga olingan holda yuklatiladi.

Qarz shartnomasi - eng ko‘p tarqalgan shartnomalardan biri. U iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan turli ahamiyatga ega bo‘lgan munosabatlar bo‘yicha qo‘llaniladi. Ushbu shartnoma vositasida buyumni, asbob-uskunani tekinga foydalanish uchun berib turish, shuningdek, boshqa sabablar, ya’ni nasiyaga sotish, mol-mulkni ijaraga berish, pudrat va shunga o‘xshash boshqa munosabatlarni amalga oshirishda ham foydalanilgan.

Maishiy pudrat shartnomasi rivoj topgan shartnomalardan iborat. Shartnoma bo‘yicha bir tomondan - hunarmandlar (ko‘nchi, etikchi, bo‘zchi, temirchi, duradgor, bo‘yoqchi, tegirmonchi, nonvoy, juvozchi), ikkinchi tomondan iste’molchi - fuqaro va savdogarlar qatnashadi. Savdogarlar hunarmandlar tayyorlagan narsalarni, asbob-uskunalarni olib-sotish bilan shug‘ullanadi. Shartnomaning narsasi mahalliy aholi keng ravishda iste’mol qiladigan va hunarmandlar ishlab chiqaradigan qurol-asboblar va mahalliy ustalar, quruvchilar bajaradigan qurilishlar va boshqa mahsulotlardan iborat bo‘lgan.

Shirkatlik shartnomasida ikki yoki undan ko‘p shaxslar qatnashgan bo‘lib, ma’lum bir maqsadga erishish uchun tuziladi. Shirkatlik shartnomasi quyidagi ikki turga bo‘linadi: «shirkati milk», ya’ni birgalikda mol-mulkka egalik qilish va «shirkati aqid», ya’ni birgalikda bitim tuzish, o‘z navbatida «shirkati aqid» quyidagi turlarga bo‘linadi:

«Shirkati-mufavazat» - shartnomada nazarda tutilgan maqsadga erishish uchun uning a’zolari (ishtirokchilari) tomonidan mol-mulklarini teng hissada umumiylashtirish va majburiyatlar bo‘yicha olinadigan daromadlarni ham teng hissada olish bo‘yicha tuzilgan shirkat.

Shartnomaga muvofiq sheriklar bir vaqtning o‘zida bir-biriga nisbatan ham muovin, ham ijrochi vazifasini bajaradi. Sheriklardan bir-biri tomonidan o‘z vakolati doirasida tuzilgan bitim ikkinchisi yoki boshqa ishtirokchilari uchun ham majburiyatlarni vujudga keltiradi. Bunday

shirkat unda qatnashuvchilarning har tomonlama teng huquqli bo‘lishiga asoslanadi.

«Shirkati-inon» - o‘z mol-mulklarining bir qismini umumlashtirib tijorat (savdo) bilan shug‘ullanish uchun tuzilgan shirkat. Ushbu shartnoma bo‘yicha bir shirkat a’zosi ikkinchisiga nisbatan kafil emas, balki ishonchli shaxs hisoblanadi. Shirkatga qo‘yilgan sheriklarning mol-mulki hissasi teng bo‘lmasligi mumkin. Hissani va shirkat faoliyatini bajarishda uning a’zolarining shaxsiy ishtirok etishi teng bo‘lmasligidan qat’i nazar, olingan daromad shartnomada nazarda tutilgan shartga muvofiq taqsimlanadi. Bir sherik ikkinchi sherikning shaxsiy qarzi uchun javob bermaydi. Shirkatga yetkazilgan ziyon shartnomaga muvofiq to‘ldiriladi.

«Shirkati-vudjux» - qarz berish yoki ishonchga asoslangan sherik. Shartnomaga asosan shirkat a’zolarining har biri o‘zining shaxsiy mablag‘i hisobiga tovar olib uni birgalikda sotishadi. Ushbu shartnoma bo‘yicha shirkat a’zolari bir-biriga nisbatan ham ishonchli shaxs, ham kafil hisoblanadi. Shartnoma taraflaridan har birining daromadi yoki ko‘rgan ziyoni uning shirkat faoliyatida ishtirok etgan hissasiga muvofiq tenglashtiriladi.

«Shirkati-sanaiya» - hunarmandchilik shirkatidan iborat bo‘lib, ma’lum bir ishni bajarish yoki kasb bilan shug‘ullanish maqsadida shartnoma tuziladi. Ushbu shirkat a’zolarining bitta hunar bilan shug‘ullanishi yoki bitta joyda ishlashi shart emas. Olingan daromadni taqsimlash teng bo‘lmasligiga yo‘l qo‘yiladi. Shuning bilan birga majburiyat bo‘yicha sheriklar birgalikda javob beradi. Qishloq joylarda «teng sherik» degan sherikli shartnomalar tuzilardi. Bunday shartnomaga asosan sheriklar teng miqdordagi hissa sifatida yer, chorva mol, urug‘lik va boshqa narsalar, shuningdek, o‘z mehnatini qo‘shadilar. Hissa sifatida ba’zi sheriklar ishchi hayvon va ishlab chiqarish qurollari, boshqalari esa faqat yer bilan qatnashadilar. Bunday hollarda yig‘ishtirib olingan hosil bab-baravar taqsimlanadi. Faqat o‘z mehnatini qo‘shgan sheriklar olingan hosilning uchdan bir qismini oladi.

Shartnomaga asoslanmagan, ya’ni shaxsga, uning hayotiga, sog‘lig‘iga hamda uning mol-mulkiga zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni tartibga solish qoidalari ham mavjud. Ushbu qoidalarga muvofiq yetkazilgan zarar, uning qanday ahamiyatga ega bo‘lishidan qat’i nazar, birinchi galda pul, mol-mulk to‘lash bilan, agar zararni bunday tarzda qoplash imkoniyati bo‘lmasa, aybdor jabrlangan shaxsga ishlab berishi yoki o‘z qizini, singlisini topshirish yo‘li bilan qutilishi mumkin edi.

Shariat normalarida «diyata» degan qoida ishlatilgan. Ushbu qoidaga binoan qozi shaxsning salomatligiga yetkazilgan zararni undirish haqida

qaror chiqaradi. Mulkiy zararni undirish bo‘yicha taraflar (jabrlanuvchi va javobgar) betaraf shaxslardan tashkil topgan xolislar (treteyskiy) sudlariga murojaat qilishadi. Ushbu yo‘l bilan da’vo bo‘yicha bironta bitimga kelishish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda nizo taraflarning kimligi va ularning mulkiy sharoiti hisobga olingan holda qozi tomonidan hal qilinadi[105].

6. Musulmon huquqida nikoh-oila va meros masalalarining tartibga solinishi

Shariat bo‘yicha nikoh va oila masalalari batafsil tartibga solinadi. Islomda nikoh - halollik, nikohsiz qo‘shilish esa haromlik belgisi hisoblanadi. Shariatga binoan nikoh musulmonlarning diniy majburiyati, nikohsizlik esa ularning xush ko‘rilmaydigan holati sanaladi.

«Shariat bo‘yicha nikoh shartnoma xarakteriga ega bo‘lib, xususan oldi-sotdiga o‘xshab ketadi, - deb yozadi taniqli huquqshunos olim F. Otaxo‘jayev. Bir tomondan shartnomaning predmeti - kelin, ikkinchi tomondan - sotib oluvchi sifatida kuyov qatnashib, kelinga belgilangan bahoni, ya’ni shartnomaning asosiy sharti hisoblangan to‘lovni - qalin[106] va mahrni[107] to‘lashdan iborat»[108]. Shariat bo‘yicha nikoh shartnomasi odatiy shartnomalardan farq qilgan. U umrbod muddatga tuzilgan. Shariat muddatli nikoh ahdida muddatli shartlarga ma’lum hafta, oy yoki yilga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, bunday nikoh haqiqiy emas deb sanalgan.

Shariat bo‘yicha nikohdan o‘tish uchun tomonlardan quyidagi shartlarga rioya etish talab qilingan: 1) nikohdan o‘tuvchilar o‘zaro roziligi; 2) nikoh yoshiga to‘lgan bo‘lish; 3) nikohni guvohlar ishtirokida tuzish; 4) kelin uchun qalin va mahr to‘lash; 5) diniy e’tiqod birligi; 6) nikohdan o‘tayotganlarning yaqin qon-qarindosh bo‘lmasligi; 7) tabaqa bo‘yicha tenglik; 8) nikohdan o‘tuvchilarning ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lishi. Nikoh tuzish uchun rasman tomonlarning roziligi talab qilinadi. Bunda kelinning ham roziligi olinadi (faqat shofi'iylar bunday rozilikni shart emas deb hisoblaganlar). Burhoniddin Marg‘inoniyning mashhur «Hidoya» asarida ko‘rsatilganidek, «valiyning[109] balog‘atga yetgan qizni nikohga majburlashi joiz emas… Agar balog‘atga yetgan qizdan valiyi turmushga chiqishga izn so‘rasa, shunda qiz jim tursa yoki kulib yuborsa, bu ishi rozilik

[105] **H. Rahmonqulov.** O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar.-«Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, Toshkent, 1997, 28-33-betlar.

[106] **Qalin –** kelinga, uning ota-onasi, qarindosh-urug`lari, vasiylariga pul, mol yoki boshqa mulklar bilan bir qatorda to`lanadigan haq.

[107] **Mahr –** nikoh ahdi tuzilishi jarayonida er tomonidan o`z mulkidan xotiniga berilishi lozim bo`lgan uy-joy, sep.

[108] **Otaxo`jayev F.** Nikoh va uning tartibga solinishi.-T.: O`zbekiston, 1995.-33-bet.

[109] **Qarang:** Otaxo`jayev F**.** O`sha asar, 36-bet.

alomati bo‘ladi… Agar juvondan izn so‘ralsa, roziligini so‘z bilan aytishi lozim… Bokira qizning roziligi sukut saqlashi bilan botil bo‘ladi. O‘g‘il bolaning ixtiyori esa, toki «roziman» demaguncha yoki undan roziligini ifoda etadigan biror ish sodir bo‘lmaguncha botil bo‘lmaydi». Lekin nikohga kiruvchilar uchun ularning ota-onalari ham rozilik berishlari mumkin edi. «Yosh bola va yosh qizni otasi yoki bobosi uylantirsa yoki turmushga bersa balog‘at yoshiga yetganlaridan keyin, ularda ixtiyor huquqi qolmaydi. Chunki ota va bobo to‘la ongli va farzandlariga nisbatan mehr-shafqatli kishilardir, shunday ekan, ularning bevosita ishtiroki bilan nikoh bog‘lanaveradi… Shuningdek, balog‘atga yetganlaridan keyin ham ularning roziligi bilan nikohga ishtirok etishsa, nikoh bog‘lanaveradi». Shuning uchun nikoh shartnomasi ba'zida ota-onalari tomonidan qizlarini sotishning niqoblangan shakli bo‘lib qolgan. Bunda ko‘pincha ayol kishi shartnomaning teng huquqli sub’yekti bo‘lmasdan, shartnoma predmeti hisoblangan.

Demak, shariat bo‘yicha zo‘rlik yo‘li bilan, majburiy nikohdan o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi. Lekin qiz bolaning erga tegmaslikka haqqi yo‘q edi. U yolg‘iz yashashi mumkin emas, albatta turmush qurib, nikoh munosabatida bo‘lishi lozim edi. Yoshlarning muomilaga layoqatsizligi yoki ularning qarshiligi nikoh ittifoqini tuzishga to‘siq bo‘la olmasdi. Muomilaga layoqatli bo‘lgan yigitlar va qizlar o‘z xohishlari bilan, ota-onalarining bu ishga aralashuvisiz, nikoh-huquqiy munosabatlariga kirishlari mumkin bo‘lgan[110]. Shariat bo‘yicha nikohning haqiqiy bo‘lishligi shartlaridan yana biri tomonlarning nikoh yoshiga to‘lgan bo‘lishligidir. Unga ko‘ra nikoh yoshi o‘g‘il bolalar uchun 12 yosh, qizlar uchun 9 yosh belgilangan. Bunda o‘g‘il bolalar jinsiy jihatdan voyaga yetgan bo‘lishlari lozim edi. Nikohga kiruvchilar uchun belgilangan bu yosh voyaga yetganlikni belgilashda so‘nggi pog‘ona hisoblangan. Amalda esa o‘g‘il bolalar -14, qizlar -12 yoshga to‘lganda nikoh tuzilgan. Shariat nikoh yoshining yuqori chegarasini belgilamagan. Nikoh yoshining quyi chegarasini belgilashda asosan fiziologik asoslarga tayanilgan. Oilada yigirma yoshdan oshgan «bo‘ydoq» bo‘lishi isnod hisoblangan.

Shariat bo‘yicha nikohdan o‘tish shartlaridan biri bunday shartnomaning guvohlar ishtirokida tuzilishi lozimligidir. Burhoniddin Marg‘inoniy yozganidek, «Bilginki, nikoh bobida guvohlik shartdir. Chunki Rasulullоh (SAV): Guvohlarsiz nikoh nikoh emas, deganlar… Musulmonlarning nikohlari faqatgina (kamida) ikkita guvoh hozirligida bog‘lanadi. Guvohlarning ikkisi ham hur, oqil, bolig‘ musulmon erkaklar yoki bir er, ikki ayol

[110] **Qarang:** Otaxo`jayev F**.** O`sha asar, 36-bet.

bo‘lmog‘i lozim»[111]. Musulmonlarning nikohlarida guvohlarning musulmon kishilardan bo‘lishligi talab qilinadi. Nomusulmon (kofir)ning musulmon ustidan guvohligi o‘tmaydi. Agar musulmon odam xristian yoki yahudiy bilan nikohdan o‘tsa, bunday holda xristian yoki yahudiy dinidagi kishilar guvohlikka o‘tishlari mumkin edi. Guvohlar erkaklar bo‘lsa 15 (16) yoshga, ayollar bo‘lsa 9 yoshga to‘lgan bo‘lishlari lozim edi. Chunki bu yoshda ular muomalaga layoqatli deb hisoblangan.

Shariat bo‘yicha nikoh ahdini tuzishning navbatdagi sharti qalinni to‘lash va ajratilgan mahrni berishdan iborat edi. Busiz nikoh haqiqiy emas, deb sanalgan. Qalin, yuqorida aytilganidek, kelinga, uning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, vasiylariga pul, mol yoki boshqa mulklar bilan bir qatorda to‘lanadigan haqdir. Mahr esa kuyov tomonidan bevosita kelinga beriladigan uy-joy yoki sep-sidirg‘a va boshqa mulklardan iborat bo‘lgan. Qalin bevosita kelinning otasi tasarrufiga tushib, kelinning qalinga hech qanday haqqi bo‘lmagan, mahr esa bevosita kelinning shaxsiy mulki hisoblangan. «Muxtasar» (Shariat qonunlariga qisqacha sharh)da ko‘rsatilganidek, «nikoh qilgan vaqtda nikohlanuvchi er xotinga mahr berishi shart. Mahrning eng kami o‘n dirhamdir, ya’ni bir so‘m qirq tiyin kumush. Garchi undan kam berib nikohlansa-da, o‘n dirham berishga vojib bo‘ladi»[112].

Shariat bo‘yicha nikohga kiruvchilar islom dinida bo‘lishi talab qilingan, ya’ni faqat islom diniga mansub bo‘lgan shaxslargina o‘zaro nikoh tuza olganlar. Islom diniga e’tiqod qiluvchi er boshqa dinga e’tiqod qiluvchi yoki umuman hech qanday dinga mansub bo‘lmagan ayol bilan nikoh tuzishga haqqi yo‘q edi. Agar xristian yoki yahudiy islom diniga kirsa, u holda musulmonlar bilan nikoh ahdini tuza olgan. Shariat bo‘yicha, hatto er-xotindan bittasi boshqa dinga o‘tsa (islomga xoinlik qilsa), nikoh bekor qilingan. Agar islomga nisbatan xoinlik er tomonidan sodir etilsa, u xotiniga mahr berishdan va «idda»[113] vaqtida unga nafaqa to‘lashdan ozod etilmaydi. Agarda bu ish xotin tomonidan sodir etilsa, idda vaqtida nafaqa olish huquqidan mahrum bo‘ladi.

Shariat yaqin qarindosh-urug‘chilik aloqasida bo‘lgan shaxslarning o‘rtasidagi nikohni taqiqlaydi. Islomda nikoh tuzish uchun to‘sqinlik qiladigan qarindoshlik darajasi belgilangan. Qur’oni Karimning 4-Niso surasi, 22-24-oyatlarida nikoh taqiqlangan hollar batafsil belgilab berilgan. 22-

[111] Muxtasar: (Shariat qonunlariga qisqacha sharh).-T.: Cho`lpon, 1994.-96-bet.

[112] Muxtasar: (Shariat qonunlariga qisqacha sharh).-T.: Cho`lpon, 1994.-96-bet.

[113] **«Idda»** - xotin nikohdan ajralgan yoki uning nikohdagi eri vafotidan so`ng turmushga chiqmay turishi uchun belgilangan muddat; nikohdan ajralgandan so`ng ayol uch marotaba hayz ko`rishi (uch oy-u 10 kun), eri o`lgan bo`lsa, o`limidan so`ng 4 oy-u 10 kun, ya'ni homiladorligi yoki homilador emasligi ma'lum bo`lguncha boshqa nikohga kirmay turishi lozim bo`lgan.

oyatda shunday deyiladi: «Otalaringiz uylangan xotinlarni nikohlaringizga olmang. Magar ilgari o‘tgan bo‘lsa (ular kechiriladi). Albatta, bu qabih, jirkanch va yomon yo‘ldir». 23-oyatda esa quyidagilar belgilanadi: «Sizlarga (nikohi) harom qilingan (ayollar) - bu onalaringiz, qizlaringiz, opa-singillaringiz, ammalaringiz, xolalaringiz, aka-ukalaringizning qizlari, opa-singillaringizning qizlari, emizgan «ona»laringiz, emishgan «opa-singil»laringiz, qaynonalaringiz, jinsiy yaqinlikda bo‘lgan xotinlaringizning qaramog‘ingizda bo‘lgan qizlari - jinsiy yaqinlikda bo‘lmagan bo‘lsangiz, sizlarga gunoh bo‘lmas - yana, o‘z pushti kamaringizdan bo‘lgan o‘g‘illaringizning xotinlaridir. Ikki opa-singilni qo‘shib (nikohlab) olishingiz (ham harom qilindi). Magar ilgari o‘tgan bo‘lsa (Alloh afv etar). Albatta, Alloh mag‘firatli va marhamatli zotdir. Shuningdek, 24-oyatda: «Yana, erli xotinlar (nikohi ham harom qilindi), magar qaramog‘ingizdagi joriyalar (bundan mustasno)[114]. Bu (mazkurlarning hammasi) Allohning bitigi (farzi)dir. Ana shulardan boshqa ayollarga zinokorona emas, (balki) mollaringiz (mahr) bilan uylanishingiz sizlarga halol qilindi. Ular bilan (nikoh orqali) yaqinlik qilishingiz bilanoq belgilangan mahrlarni beringiz. (Mahr) belgilangandan keyin o‘zaro kelishsangiz (xotin o‘z mahridan kechsa), sizlar uchun gunoh yo‘qdir. Albatta, Alloh ilm va hikmat egasidir».

Shunday qilib, erkaklarga yaqin qon-qarindoshlar, tug‘ishganlari bilan nikohdan o‘tish taqiqlangan. Yuqoridagilar bilan bir qatorda shariat nikohdan o‘tuvchilarning tabaqaviy jihatdan teng bo‘lishligini, ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lishini ham talab qiladi. Shuningdek, nikoh shartnomasi tuzishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘sqinlik qiluvchi boshqa holatlar ham ko‘rsatiladi. Jumladan, musulmonlar ehrom holatida bo‘lsalar, agar nikohga kirayotgan ayolga boshqa kishi tomonidan uylanish istagi bildirilgan bo‘lsa, erkaklar o‘z xotinlarining singillari bilan nikohga kirayotgan bo‘lsalar, tomonlardan biri jinsiy kamolatga yetmagan bo‘lsa va hokazo holatlar shariatga binoan nikoh ahdi tuzishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘sqinlik qiladi. Shular bilan birga Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya» asarida ham hadislar misolida quyidagi hollarda nikohning taqiqlanishi ko‘rsatib o‘tilgan: «Kishining o‘z onasiga va otasi yo onasi tomonidan bo‘lgan buvilariga uylanishi halol emas… Bolasining qiziga va undan pastdagilarga ham uylanishi halol emas… Otasining va bobolari xotiniga ham uylanishi halol emas… O‘g‘lining bolalarining xotiniga uylanishi halol emas… Xotin o‘z ammasi yoki xolasi yoki aka-ukasining qizi yoki opa-singilisining qizi ustiga nikohlanmaydi… Kimki birorta ayol bilan zino qilsa, unga mana shu

[114] Joriyasini nikohlab olmoqchi bo`lgan kishi uning iddasi chiqishini kutadi. Zero, odatda joriyalar janglarda yengilgan kofir erlarini tashlab kelgan bo`ladi. Shuning uchun homilali bo`lishligi ehtimolidan iddaga buyurilgan.

ayolning onasiga va qiziga uylanish haromdir… Kimki (biror) ayolni shahvat bilan ushlasa, unga u ayolning onasi ham, qizi ham harom bo‘ladi. (Lekin shofi'iylar buni «harom bo‘lmaydi» deydilar)… Xo‘jayin o‘z cho‘risiga uylanmaydi, xotin o‘z quliga erga tegmaydi… Majusiy ayollarga uylanish joiz emas… Butparast ayollarga ham uylanish mumkin emas»[115].

Yuqorida sanab ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta'minlagan. Shuni aytib o‘tish lozimki, shariat normalarida belgilangan shartlardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad sog‘lom, halol nikoh munosabatini vujudga keltirishdan iborat edi.

Shariat erkaklarga bir vaqtning o‘zida to‘rttagacha nikohda bo‘lish huquqini beradi. Bu haqda Qur’oni Karimda shunday deyiladi: «Agar yetimlarga (nisbatan) adolatli bo‘la olmaslikdan qo‘rqsangiz, sizlar uchun (nikohi) halol bo‘lgan ayollarga, ikkita, uchta, to‘rttadan uylanaveringizlar. Bordiyu (ular o‘rtasida) odil bo‘la olmaslikdan qo‘rqsangiz, bir ayolga (uylaning) yoki qo‘l ostingizdagi cho‘rilar (bilan kifoyalaning)» (4-Niso surasi, 3-oyat). Islomshunos olim Alouddin Mansur ushbu oyatga izoh berib, Qur’oni Karimning 1992 yilgi nashrida quyidagilarni ta’kidlaydi: «Islom - voqeiy dindir. Ya’ni u insonlarni pokiza hayot kechirishga da'vat qilishda g‘ayrivoqeiy yo‘llarni tutmaydi. Binobarin, bu qonunda voqeiy insoniy hayot nazarda tutilgan. Birinchidan, asrlar davomidagi tajribalar ko‘rsatishicha, o‘g‘il boladan ko‘ra qiz bola ko‘proq tug‘iladi. Ikkinchidan, ayol kishi erkak kishidan ko‘ra uzunroq umr ko‘rishi ham voqeiy haqiqatdir. Uchinchidan, turli fojialar, xususan, urush va to‘qnashuvlarda asosan erkaklar halok bo‘ladilar. Mana shu va yana boshqa ko‘p sabablar natijasida insoniyat olamida mudom ayollarning sanog‘i erkaklarnikidan ortiq bo‘ladi. Demak, bir erkak faqat bir ayolga uylanishi mumkin deyilsa, erkaklar sanog‘idan ortib qolgan ayollarga zulm qilingan bo‘lur edi. Ya’ni, bu ayollar o‘zlarining turmush qurish va ona bo‘lish huquqlaridan mahrum bo‘lib qolar edilar. Natijada jamiyatda nopoklik va maishiy buzuqliklar yuzaga keladi. Shuning uchun Islom moddiy imkoniyatlari bo‘lgan kishilarga, agar adolat qila olishning uddasidan chiqsalar, birdan ortiq ayol bilan turmush qurishga ruxsat beradi va shu yo‘l bilan birga ayollar o‘rtasida adolat qilmay, faqat shahvoniy nafsni qondirish uchungina ko‘p xotin olishga ruju qo‘ygan kimsalar uchun oxiratda ashaddiy azob borligi haqida ogohlantiradi»[116].

[115] Burhoniddin al-Marg`inoniy. Hidoya. I jild. T.: Adolat, 2000, 650-658-betlar.
[116] **Qur'oni Karim,** (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur), Cho`lpon, T.: 1992.-55-bet.

Musulmon huquqida er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar batafsil tartibga solinadi. Bular haqida huquqshunos olim F.Otaxo‘jayevning[117] asarlarida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Quyida biz asosan ushbu olimning kitoblaridan olingan ma’lumotlarni keltiramiz.

Shariat va odatda er-xotinning huquq va majburiyatlari atroflicha ishlab chiqilgan. Erning oiladagi huquqlari quyidagilardan iborat. Er oila boshlig‘i hisoblangan, binobarin, oila ta’minoti uchun zarur bo‘lgan moddiy ne'matlarni ishlab topishi lozim bo‘lgan. Xotin esa oilada asosan uy-ro‘zg‘or ishlari va bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullangan.

Erning huquqi bo‘yicha, agar er qalin va mahr to‘lagan bo‘lsa, xotin albatta uning uyida yashashi lozim edi. Eri er-xotinlik munosabatlariga xiyonat qilsa ham na fuqarolik, na jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Bu hol xotinning diniy e’tiqodini haqoratlash hisoblanib, u bilan qo‘pol munosabatda bo‘linganligini bildiradi. Xotin biror joyga borishi lozim bo‘lsa, albatta eridan ruxsat olishi darkor edi. Er xotinini moddiy ta’minlashi lozim edi. Agar er uyda olti oydan ortiq muddat bo‘lmasa, xotinini moddiy jihatdan ta'minlamasa, bu holat xotiniga erining nikohidan ajralish uchun asos bo‘la olgan.

Agar erning bittadan ortiq xotini bo‘lsa, u holda har bir xotini uchun alohida xona ajratib, hovliga chiqish uchun alohida yo‘l ochib berish erning burchi bo‘lgan. Uning mulkidan hamma xotinlari baravar foydalanishlari mumkin edi. Boshqa munosabatlarda ham shunday bo‘lgan. Xotin o‘zi uchun ajratilgan xonadan eridan bo‘lak shaxslarni chiqarib yuborishi mumkin edi. Er xotiniga ota-onasini ko‘rib kelishi uchun bir haftada bir marta ruxsat berishga majbur edi. Unga qarindosh mahram bo‘lgan shaxslarni ko‘rish uchun bir yilda kamida bir marta ruxsat berishi lozim edi. Biroq u nomahram shaxslarning uyiga borishiga yoki ularni o‘z uyida qabul qilishiga, to‘yga, jamoat hammomlariga borishiga ruxsat etmasligi mumkin edi.

Xotinning erdagi haqqiga nisbatan majburiyatlari ko‘proqdir. Xotin albatta erining uyida yashab, uyni ozoda va toza saqlab, ro‘zg‘or ishlarini bajarib, bolalarni tarbiyalashi lozim bo‘lgan. Ajratilgan xonada eriga o‘zi bilan axloq qoidalariga rioya qilgan holda yaqin aloqada bo‘lishga yo‘l qo‘yishi zarur. Unga bo‘ysunib, topshirgan ishlarini bajarishi kerak. Nikoh ahdi tuzilgandan boshlab er-xotinlik munosabatiga xiyonat qilmasligi darkor. Erining ruxsatisiz ommaviy joylarda ko‘rinmasligi kerak. Xotin eridan moddiy ta’minot talab qilishga haqlidir.

[117] **Qarang:** Otaxo`jayev F. Nikoh va uning tartibga solinishi.-T.: O`zbekiston, 1995.-47-53-betlar.

Agar er xotiniga nisbatan zo‘rlik, qo‘pollik qilsa, erlik majburiyatlarini bajarmasa, xotin eri bilan yashashni rad etishi mumkin edi. Xotin o‘z zimmasidagi majburiyatlarni bajarmasa, eri unga nisbatan jismoniy ta’sir choralarini ko‘rishi, hatto ajralish masalasini ham qo‘yishi mumkin bo‘lgan. Agar er xotiniga tirikchilik uchun yetarli miqdorda mablag‘ bermasa, u holda xotini, qozining ruxsati bilan, erining nomidan va uning javobgarligi bilan qarz olishi, o‘ziga tegishli mulkdan ayrimlarini sotishi mumkin bo‘lgan. Agar xotin eri oldidagi majburiyatlarni bajarmasa, u holda er uni jazolashi, ya’ni uni zarar keltirmasdan urishi va ma’lum muddat moddiy ta’minotdan mahrum etishi mumkin bo‘lgan.

Agar er yoki xotindan biri, avvalgi sahifalarda ta’kidlanganidek, boshqa dinga kirsa, ya’ni islom dinidan chiqsa, bunday hollarda ular o‘rtasidagi nikoh munosabati tugatilib, mavjud bo‘lgan hamma majburiyatlar bekor qilingan. Ammo dinga nisbatan hiyonat er tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, u xotiniga mahr berishdan va idda vaqtida moddiy ta’minlashdan ozod etilmagan. Bunday harakat xotin tomonidan sodir etilsa, u idda davrida moddiy ta’minot olish huquqidan mahrum bo‘lgan. Xotini o‘limidan so‘ng, er hamma vaqt boshqa ayolga uylanishi mumkin bo‘lgan. Xotinga esa eri o‘limidan so‘ng boshqa shaxsga turmushga chiqishga faqat idda muddati o‘tganidan so‘nggina ruxsat berilgan. Xotin idda muddatini nikohda qayerda turgan bo‘lsa, shu yerda o‘tkazishi lozim edi, chunki shundagina uning o‘z shaxsiy huquqlari va mulki to‘la saqlangan.

Idda vaqtida xotinni moddiy ta’minlash erga yuklatilgan. Ammo u biron asos bo‘yicha xotinini moddiy ta’minlashdan ozod etilgan bo‘lsa, yoxud bandalikni bajo keltirsa, u holda xotin o‘zini o‘zi moddiy ta'minlaydi. Agar marhum meros qoldirgan bo‘lsa, erining merosi hisobiga ta'minlanadi. Shariat oilaviy turmush davomida er-xotin tomonidan topilgan mulk ularning umumiy mulki ekanligini tan olmagan, birgalikdagi turmush davrida mulk kimning mablag‘iga olingan bo‘lsa, o‘shaniki hisoblangan.

Qur’oni Karim nikohdan ajralishga (taloqqa) yo‘l qo‘yadi. Ammo islom taloqni - oila buzishni maqsadga muvofiq ish deb hisoblamaydi. Iloji boricha oilani buzmay saqlab qolishni targ‘ib qiladi. Nikohni bekor qilishga tegishli «qonuniy» asoslar bo‘lganidagina yo‘l qo‘yilgan. Shariat bo‘yicha ajralish «taloq» so‘zi bilan belgilangan. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi qo‘yish, qo‘yib yuborish demakdir. Taloq qilish huquqi erkakka berilgan. Shuningdek, bu ish uning ishonchli vakili tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Erkaklar tabiatan ayollarga nisbatan og‘ir-bosiq, har bir ishning oqibatini o‘ylab qiladigan va og‘ir-yengil kunlarda oilani sabrtoqat bilan boshqarib boradigan kishilar bo‘lganligi uchun bu huquq ularga berilgan.

Xotinning bevosita ishtirokisiz, u taloq so‘zini eshitmasa ham, «taloq» yozma ravishda e’lon etilishiga yo‘l qo‘yilgan. Bunda ajralish to‘g‘risida vasiqa kelinning bevosita o‘ziga yoki uning otasiga yoxud qozining qo‘liga topshirilishi lozim. Agar ajralish to‘g‘risidagi xatda qandaydir shartlar bajarilishi lozimligi ko‘rsatilsa, bu shartlar albatta bajarilishi lozim, aks holda ajralish sodir bo‘lmaydi. Ajralish vasiqa tuzilgan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Ajralish vaqtida diniy-dogmatik normalarga rioya qilinishi lozim bo‘lgan. Nikohdan ajralish vaqtida er-xotin mutlaqo tengsiz holatda bo‘lishgan. Er xotindan ajralish uchun o‘ylab topilgan har xil vajlarni keltirib, hech bir isbotsiz o‘z xohishicha ajralishi mumkin edi. Erning xotini bilan qo‘pol muomalada bo‘lishi, er-xotinlik munosabatlariga xiyonat qilishi xotinga nikohdan ajralish huquqini bermas edi.

Quyidagi holatlardagina xotini nikohni bekor qilishni so‘rashi mumkin edi:

1. Agar eri olti oy muddat davomida xotinini moddiy ta’minlamasa.

2. Agar eri nikohda yashashga qodir bo‘lmasa (erlik iqtidori bo‘lmasa).

3. Agar nikoh yoshlik vaqtida tuzilgan bo‘lib, jinsiy balog‘atga yetgandan so‘ng yoki ma’lum yoshga to‘lgandan so‘ng qiz nikohda yashashga rozi emasligini izhor etsa.

4. Agar eri islom dinidan boshqa dinga o‘tsa.

Taloq qilingan ayol avval aytib o‘tilganidek, nasl-nasablar aralashib ketmasligi uchun uch hayz mobaynida o‘zini kuzatib, boshqa turmush qurmay turishi lozim edi. Shu muddat o‘tib, homila yo‘qligi ravshan bo‘lgach u ayol erga tegishi mumkin bo‘lgan. Agar homilador ekanligi ma’lum bo‘lsa, bola tug‘ilib, nifos muddati o‘tgandan keyin boshqa turmush qurishi mumkin. Idda asnosida er qilgan ishidan pushaymon bo‘lib, yarashishni istasa, bunga uning haqqi bor. Agar shu muddat ichida xotiniga yaqinlashmasa, muddat tugagach taloq sodir bo‘lib, nikoh munosabati tugallanadi.

«Taloq ikki martadir. So‘ngra (oilani) yaxshilik bilan saqlash yoki chiroyli suratda ajralish (mumkin). Ularga (xotinlaringizga) bergan narsalardan (mahrlaridan) biror narsani qaytarib olishlaringiz sizlarga halol emas, magar (er-xotin) Allohning (oila to‘g‘risidagi) buyruqlarini bajara olmaslikdan qo‘rqsalar (bu undan mustasno). Agar ularning Alloh buyruqlarini bajara olmasligidan qo‘rqsalaringiz (eridan taloq olish niyatida) evaz berishida (va erning shu evazni olishida) er-xotin uchun gunoh yo‘q[118]. Bu

[118] Bu evazni shariat tilida «xul'» deyiladi. Er ajralishni xohlamagan taqdirda xotini taloq so`rasa, evaz yoki badalni to`lab, erni ko`ndirish shariatda joriy etilgan.

Allohning (belgilab qo‘ygan) hadlaridir. Ulardan tajovuz qilmangizlar! Kim Allohning hadlaridan tajovuz qilsa, ana o‘shalar zolimdirlar». (Qur’oni Karim, Baqara surasi, 229-oyat).

«Agar uni (uchinchi marta) taloq qilsa, (u ayol) to boshqa er bilan nikohlanmaguncha (va undan ham taloq olmaguncha), unga halol bo‘lmaydi. Bas, agar (keyingi er) uni taloq qilsa, (qaraladi,) agar Allohning buyruqlarini bajara olishga ishonsalar, (avvalgi er bilan) turmushga qaytishlarida gunoh yo‘qdir. Bular Allohning (belgilab qo‘ygan) hadlaridir. Ularni anglatuvchi qavm (odamlar) uchun bayon qilur». (Qur’oni Karim Baqara surasi, 230-oyat).

Shariat bo‘yicha **meros huquqi** juda murakkab va chalkash bo‘lgan. Meros huquqi borasida musulmon huquqining turli huquqiy mazhablari o‘rtasida katta farqlar mavjud. Umuman meros vasiyat bo‘yicha va qonun bo‘yicha qoldirilgan. «Vasiyat» so‘zining lug‘atda bayon qilingan ma’nosi - «topshirmoqdir». Shariat bo‘yicha esa, mol-mulkni o‘lgandan so‘ng kimga berilishini aytish. Vasiyat qonuniy merosxo‘rlar foydasiga tuzilishi mumkin emas edi. Shuningdek, mol-mulkning uchdan bir qismidan ortig‘ini vasiyat qilishga ham ruxsat etilmagan. Vasiyatni tuzishda ikkita guvoh ishtirok etishi lozim bo‘lgan. Shariatda ayniqsa qonun bo‘yicha meros tartibi bir muncha puxta ishlab chiqilgan edi. O‘lgan kishining mol-mulkidan avvalo uni dafn etish marosimlariga ketadigan xarajatlar qoplangan, so‘ngra uning barcha qarzlari to‘langan. Qolgan mol-mulklar qonuniy merosxo‘rlar o‘rtasida taqsimlangan. Merosdan birinchi navbatda o‘lgan kishining bolalari o‘z hissalarini olishgan, ular bo‘lmasa uning aka-ukalari, amaki-tog‘alari va boshqalar merosga chaqirilgan. Ayollar merosdan erkaklarga nisbatan ikki hissa kam ulush olganlar. Dindan qaytganlar, ajralgan er-xotinlar, meros qoldiruvchining o‘limiga sabab bo‘lganlar meros olish huquqidan mahrum edilar.

7. Shariat bo‘yicha jinoyat huquqi va sud ishlarini yuritish tartibi

Musulmon huquqida jinoyat huquqi normalari fuqarolik huquqi normalariga nisbatan uncha batafsil ishlab chiqilmagan. Ular qadimiyligi, eskirib qolganligi, yuridik texnikasi jihatidan nisbatan uncha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi.

Shariatda **jinoyat tushunchasining** asosini diniy g‘oyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan huquqiy qonun-qoidalar tashkil etadi. Shuning uchun ham musulmon huquqida jinoyat tushunchasini tahlil etishga alohida yondashish lozim. Zero, ba’zi rus olimlari shariatda jinoyatning

umumiy tushunchasi mavjud emas deb hisoblaydilar[119]. Biroq, bu fikrga unchalik qo‘shilib bo‘lmaydi. Binobarin, Burhoniddin Marg‘inoniyning «Hidoya» asarida jinoyat deb, qonun tilida-shaxsga va mulkka qarshi qaratilgan qonun bilan taqiqlangan qilmish tushuniladi[120], - deb ko‘rsatiladi. Shariatdagi ushbu ta’rif jinoyat tushunchasiga berilgan umumiy ta’rif bo‘lib, shariat masalalariga bag‘ishlangan asarlarda jinoyatning ayrim turlariga alohida tushuncha berilgan. Jumladan, «Muxtasar» (Shariat qonunlariga qisqacha sharh) da ko‘rsatilganidek, «jinoyat» so‘zi lug‘atda jinoyat va gunoh ma’nosini, shariat istilohida odamning joniga yo a’zolariga zarar keltirish ma’nosini[121] bildiradi.

Musulmon jinoyat huquqida jinoyat tarkibidagi to‘rtta asosiy belgilar ham nazarda tutiladi. Jinoyat tarkibining asosiy elementlaridan biri **jinoyat ob’yekti** hisoblanadi. Hozirgi zamon jinoyat huquqida shaxsning ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof jinoiy qilmishi qanday maqsadga qaratilganligi, ya’ni tajovuz qaysi ijtimoiy munosabatlarni buzishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, shu munosabat jinoyatning ob’yektini tashkil etadi. Shariat bo‘yicha jinoyatlarning umumiy ob’yekti din va davlat asoslari, shaxsning hayoti, sog‘ligi, qadr-qimmati, nomusi, mulkning turli-tuman shakllari, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi, diniy qoidalar, savdo-sotiq tartib-qoidalari, odil sudlov asoslari va boshqa munosabatlar bo‘lishi mumkin. Masalan, dindan qaytish, Allohga shak keltirish, ko‘p xudolik (ma'jusiylik), islomdan yuz o‘girish bir jinoyatning turli ko‘rinishlaridir. Bu jinoyatlarning umumiy ob’yekti diniy munosabatlar bo‘lib, aybdorning jinoiy qilmishi diniy munosabatlarga putur yetkazishga qaratilgan bo‘ladi[122]. Shariatda, shuningdek, **jinoyatning ob’yektiv tomonini** tavsiflovchi qator belgilar ham mavjud. Masalan, o‘g‘rilik, bosqinchilik, zino, zinokorlikda ayblash (tuhmat) va boshqa jinoyatlar tarkibining ob’yektiv tomoni ularning ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof harakatlardan iborat ekanligidadir. Bunday jinoyatlar bir-biridan, asosan, qilmishning xususiyati bilan, mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar esa bir-biridan mulkni qonunsiz egallash usuli, ya’ni jinoyatning ob’yektiv tomoni bilan farq qiladi.

Shariatda **jinoyat sub’yekti** masalasiga ham e’tibor beriladi. Unga binoan, har qanday jismoniy shaxs emas, balki es-hushi joyida, o‘z qilmishiga o‘zi javob bera oladigan, ya’ni o‘z yurish-turishining mohiyatini tushunadigan va o‘z xatti-harakatini iroda qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan,

[119] **Qarang:** История государства и права зарубежных стран.Часть 1. Учебник для вузов/ Под ред. проф. Крашенинниковой Н.А. и проф. Жидкова О.А.-М.:Издательство НОРМА, - 1996.-426-bet.
[120] **Qarang:** Hidoya. – T., 1883.-211-bet.
[121] **Qarang:** Muxtasar.-T.: Cho`lpon, 1994. -304-bet.
[122] **Qarang: Rajabova M.A.** Shariatda jinoyat va jazo.-T.: Adolat, 1996.-58-59-betlar.

aqli raso kishilargina jinoyatning sub'yekti hisoblanganlar. Xanafiy mazhabi bo‘yicha jinoyat sub'yektining yoshi 15 yosh qilib belgilangan. Ta'kidlash joizki, musulmon jinoyat huquqida aqli zaif, isrofgarchilik va nobudgarchiliklarga yo‘l qo‘yyuvchilar, aqldan ozganlar, go‘daklar, xotirasi sust, seruyqu va gung (tilsiz) kishilar aqli norasolar qatoriga kiritilgan. Masalan, «Muxtasar»da: «tilsiz, yozuv va ishora bilan o‘ziga javob vojib bo‘ladigan darajadagi ishga, misol uchun, zino, xamr (aroq) ichish, o‘g‘rilikka iqror bo‘lsa, jazo berilmas, qo‘li kesilmas. Chunki iqrori shubhalidirki, shubha bilan jazolanmas»[123], - deb qayd etilgan.

Musulmon jinoyat huquqida **jinoyatning sub'yektiv tomonini** tavsiflovchi belgilar ham hisobga olinadi. Unga binoan qasddan yoki ehtiyotsizlikdan qilingan jinoyatlar bir-biridan farqlanadi. Masalan, odam o‘ldirish jinoyatining o‘zi aybning shakliga qarab bir necha turlarga bo‘linadi. Masalan, «Hidoya» asarida bu jinoyat besh turga bo‘lib ko‘rsatilgan: 1) qasddan odam o‘ldirish; 2) qasdga o‘xshash o‘ldirish; 3) beqasd (bilmay) o‘ldirish; 4) beqasdga (bilmasdan) o‘xshash o‘ldirish; 5) sababli qotillik. Shuningdek, shaxsning sog‘ligiga qarshi jinoyatlar ham musulmon huquqida qasd va ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkinligi inobatga olingan. Bunda har ikkala ayb shakliga alohida-alohida jazo turi belgilangan.

Musulmon huquqida asosan tugallangan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Suiqasd tushunchasi to‘liq ishlab chiqilmagan edi. Masalan, shariatda o‘g‘rilik va tan jarohati yetkazish kabi qator jinoyatlarda jinoiy oqibatning yuz berishi ko‘zda tutilgan. Jumladan, odam o‘ldirishdagi jinoiy oqibat jabrlanuvchining hayoti bo‘lsa, o‘g‘rilik, bosqinchilik, talonchilik, mulkni o‘zlashtirish yo‘llari bilan talon-taroj qilishda esa mulkiy xarakterdagi zarar yetkazish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, tugallanmagan jinoyatlar, jinoyatga suiqasd uchun yengilroq jazo belgilangan. Masalan, qaroqchilar yo‘l to‘sayotganlarida hali molni olmay va hech kimni o‘ldirmay turib qo‘lga tushsalar, ularga o‘lim jazosi emas, qamoq qo‘llanilgan. Shuningdek, o‘g‘ri narsani xonadan olib chiqib ketmay turib qo‘lga tushsa qo‘li kesilmagan va hokazo.

Shariat bo‘yicha jinoyatda ishtirokchilik masalasi ham uncha to‘liq ishlab chiqilmagan. Lekin shariatning jinoyat huquqi nazariyasida **zaruriy mudofaa** tushunchasi nazarda tutilgan. Masalan, bir shaxsning ikkinchi shaxsga jinoyat quroli (qilich, tayoq va hokazolar) bilan o‘qtalganda mudofaalanuvchining hayotiga tajovuz qilish ochiq-oydin bo‘lganda, tajovuzchini o‘ldirsa, uning harakati zaruriy mudofaa doirasida sodir qilingan, deb sanalsa, bunday hollar jinoyat hisoblanmagan. Zaruriy mudofaa nafaqat

[123] Muxtasar.-T.: Cho`lpon, 1994. -332-bet.

mudofalanuvchi tomonidan, balki o‘zga manfaati yo‘lida boshqa shaxslar tomonidan ham sodir qilinishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, musulmon jinoyat huquqida qilmishning zaruriy mudofaa holatida sodir qilinganligini baholashda qator holatlar: qilmish sodir qilingan joy, vaqt, sharoit (kunduzi yoki kechqurun, shahar yoki hech kim bo‘lmagan dasht va hokazo), qilmishning xavflilik darajasi, qurol turi va boshqalar inobatga olingan. Shariatning jinoyat huquqi nazariyasida nafaqat zaruriy mudofaa tushunchasi mavjud, shu bilan birga zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish tushunchasi ham aks etgan. Masalan, «Muxtasar»da qayd etilganidek, «kunduzi shahar yoki qishloq ichida tayoq bilan o‘qtaluvchini o‘ldirish sababli qasos vojib bo‘lur, chunki kunduzi shaharda yordamga birov ulgurishi mumkin, shuning uchun tayoq o‘qtalishi bilan o‘ldirib qo‘yish tuzuk bo‘lmaydi»[124].

Shariatda aybni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar ham hisobga olinadi. Aybni yengillashtiruvchi holatlar qatoriga quyidagilar kirgan: 1) aybini bo‘yniga olish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish; 2) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda to‘lash; 3) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan qaramlik sababli jinoyat sodir etish; 4) jabrlanuvchining aybdorni kechirishi; 5) voyaga yetmaganlar yoki ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi; 6) qullar tomonidan jinoyat sodir etilishi; 7) podsho tomonidan jinoyat sodir etilishi va hokazo. Shariatda takroran jinoyat sodir etishlik, guruh bo‘lib jinoyatga qo‘l urish va boshqalar aybni og‘irlashtiruvchi holatlar hisoblanib, bunday hollarda og‘irroq jazolar nazarda tutilgan.

O‘rta asrlardagi musulmon huquqshunoslari barcha jinoyatlarni uch guruhga ajratadilar. Birinchi guruhga bevosita Muhammad (SAV)ning ko‘rsatmalaridan kelib chiqadigan jinoyatlar kiritiladi. Ular «Allohning huquqlari»ga tajovuz qiladigan jinoyatlar sifatida talqin qilingan va avf etilmagan. Bunga birinchi navbatda islomdan qaytish jinoyati kiritilgan. Buning uchun o‘lim jazosi nazarda tutilgan. Boshqarish tartibotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar - isyon va davlat hokimiyatiga qarshilik ko‘rsatish kabi jinoyatlar ham og‘ir jazolangan. Og‘ir diniy gunoh deb e’lon qilingan ushbu guruh jinoyatlariga yana o‘g‘rilik, spirtli ichimliklar iste’mol qilish, zinokorlik, shuningdek, zinokorlikda ayblab tuhmat qilish kabilar ham kirgan.

Ikkinchi guruh jinoyatlarni butun musulmonlar jamoasiga emas, balki alohida shaxslarning huquqlariga tajovuz qiluvchi huquqqa xilof xatti-harakatlar tashkil etgan. Ularni tartibga soluvchi normalar urug‘doshlik

[124] O`sha asar. 307-bet.

tuzumi odatlaridan kelib chiqqan, jumladan qasos olish huquqini belgilagan. Masalan, qasddan odam o‘ldirish yoki tan jarohati yetkazish jinoyatlarini sodir etgan shaxslarga «jinoyatga teng jazo» (tallion) tamoyili asosida jazo nazarda tutilgan. Ammo shariat manbalari, jumladan, Qur’oni Karim va hadislarda bu guruhga kiritilgan jinoyatlar uchun ko‘zda tutilgan jazoni bir muncha yumshatish haqida so‘z yuritilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, qo‘shimcha qonli qasos olish o‘rniga «tovon» to‘lash kabi yengilroq jazo berilishi nazarda tutiladi. Qur’oni Karimda odam o‘ldirish va tan jarohati yetkazish jinoyatlari uchun «jonga jon, ko‘zga ko‘z, burunga burun, quloqqa quloq, tishga tish va jarohatlarga qasos (olinur)» deb belgilangan (Moida surasi, 45-oyat). Shuningdek, ushbu odatda «kimki u (qasos)ni sadaqa qilib (kechib) yuborsa, u (gunohlariga) kafforatdir» deyiladi. Kafforatning ma’nosi evaz, badal, afvdir. Demak, Qur’oni Karimda qasos olmay, xunidan kechishga ma'qul, savobli ish sifatida qaraladi.

Va nihoyat, uchinchi guruhni tashkil etuvchi jinoyatlarga o‘z tabiatiga ko‘ra, ijtimoiy munosabatlarga qarshi jinoiy tajovuz qilishga qaratilgan boshqa barcha turdagi jinoyatlar, jumladan, zakot to‘lamaslik, shaxslarga moddiy zarar yetkazish (o‘g‘rilik va bosqinchilikdan tashqari), bitimlar yuzasidan majburiyatlarni bajarmaslik, xun olish uchun tovon to‘lamaslik, kam o‘lchash, kam tortish, tovlamachilik qilish, poraxo‘rlik, xazinani yoki yetimning haqini o‘zlashtirish, qonunga xilof holda qasddan sud qarorlarini chiqarish, yolg‘on guvohlik berish, jamoat joylarida yurish-turish qoidalarini buzish, fuqarolarga yoki o‘ziga bo‘ysunuvchilarga nisbatan zulm o‘tkazish, eng muhim diniy aqidalarni inkor qilish, davlat mulkini turli xil nopok yo‘llar bilan talon-taroj qilish, jodugarlik va sehrgarlik, nomusga tegish, besoqolbozlik, nafaqa to‘lash majburiyatidan qasddan bosh tortish va hokazolar kiritiladi[125].

Ushbu jinoyatlarning aksariyati uchun Arab xalifaligining tashkil topishi davrida jazolar nazarda tutilmagan. Shu sababli ular shariatning asosiy manbalarida eslatilmaydi. Huquqiy ta’limotning rivojlanishi va hukmron tabaqalarning tarkib topgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga urinishi natijasida ilgari jinoiy hisoblanmagan ko‘pgina xatti-harakatlar, jumladan, zakot to‘lamaslik, ro‘za tutmaslik, yengil tan jarohati yetkazish, haqorat, bezorilik, aldoqchilik va firibgarlik, davlat mulklarini isrof qilish, qimor o‘ynash va hokazolar jinoyat sifatida ko‘riladigan va sud tarkibida jazolanadigan bo‘ldi. Bunday ishlar bo‘yicha jazo chorasi berish mujtahidlar tomonidan bildirilgan fikrlarga va alohida qozilarning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lgan.

[125] **Rajabova M.A.** Shariatda jinoyat va jazo.-T.: Adolat, 1996.-57-betlar.

Musulmon jinoyat huquqi bo‘yicha **jazolar**ning xilma-xil turlari nazarda tutilgan. Albatta, bunda davlatdan oldingi jamiyatga xos, eskirgan jazo usullaridan ham foydalanilganligini ta’kidlash joiz. Masalan, shariatda ko‘pgina jinoyatlar uchun qasos olish, tovon, ta’zir va boshqa jazo turlari belgilangan. R.Sharlning ta’kidlashicha, musulmon huquqshunoslari VIII asrdan boshlab musulmon axloqini tuzatishga oid jazolardan ta’zirni qo‘llash orqali jazolarni individuallashtirish, ya’ni jinoyatning turiga qarab, har bir jinoyatchiga alohida-alohida jazo choralari belgilash tamoyiliga suyangan edilarki, bu qoida Yevropa qonunlariga ancha kech kiritilgan[126].

Musulmon jinoyat huquqida jazolar og‘irlik darajasiga qarab quyidagi uch turga: 1) had; 2) qasos yoki tovon va kafforat; 3) ta’zir jazosi turlariga bo‘linadi. «Had» so‘zining lug‘aviy ma’nosi «Muxtasar»da ko‘rsatilganidek, chekka, chet, ikki narsa orasidagi parda, mone' deganidir. Bu shariatda jinoiy xatti-harakatlar uchun Alloh tomonidan belgilanadigan jazo deb tushuniladi. Had jazosi turlariga 40 martadan ko‘proq darra urish, ya’ni 80, 100 darra urish, qo‘l yoki oyog‘ini kesish, toshbo‘ron qilib, osib yoki boshini tanasidan ayirib o‘ldirish kiradi. Had jazosi haqida Qur’oni Karim oyatlarida aytib o‘tilgani uchun ham shariat olimlari uni qat’iy jazo - Allohning haqi deb hisoblaydilar. Had jazosi turlari asosan zino, tuhmat, o‘g‘rilik, qaroqchilik (bosqinchilik), spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, islom dinidan qaytish, isyon ko‘tarish va boshqa jinoyatlarga nisbatan belgilangan. Shuningdek, «Muxtasar»da had jazosi zino, tuhmat qilish, o‘g‘rilik, qaroqchilik uchun qo‘llanilishiga ko‘ra u jinoyatlarni cheklab bayon qilish zarur[127], deb bu jazo turlarini faqat bir nechta muayyan jinoyatlarga nisbatan qo‘llanilganligi sababli cheklagan degan ma’noni anglatishi ta’kidlangan. Shariatda had jazosi turlarining «qasos» yoki tovon (diya, xun) va ta’zir jazo turlaridan farqi ham ko‘rsatiladi. Jumladan, «Muxtasar»da: «Bas, ta’zir va qasos had emas, chunki ta’zir cheklanmagan jazodir, qasos esa bandaning haqqidir, banda kechsa, kechiladi. Had kechilmaydi»[128], - deb qayd etilgan.

Qasos yoki tovon (diya) va kafforat jazosi turlari shaxsning hayoti va sog‘ligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar, xususan, odam o‘ldirish va tan jarohati yetkazish jinoyatlariga nisbatan qo‘llanilgan. Bu hol shariatda «jinoyatga teng jazo» qoidasiga rioya qilish, deb yuritiladi. Jumladan, Qur’oni Karimda: «Kim sizlarga tajovuz qilsa, sizlar ham o‘sha me’yorda tajovuz qiling!» (Baqara surasi, 194-oyat), deyiladi. Shuningdek, Moida

[126] **Qarang:Шарл Р.** Мусульманское право. – М.: 1959.-41-bet.
[127] Muxtasar, 284-bet.
[128] Muxtasar, 284-bet.

surasi, 45-oyatda ham «jonga jon, ko‘zga ko‘z, burunga burun, quloqqa quloq, tishga tish va jarohatlarga qasos» olinishi ko‘rsatiladi. Demak, qasos olishda qasddan odam o‘ldirish yoki qasddan tan jarohati yetkazish jinoyatini sodir etgan aybdorga o‘lim jazosi, agarda u yoki bu darajada tan jarohati yetkazilgan bo‘lsa, aybdorning ham badaniga yetkazilgan jarohati darajasida qasos-teng jazo qo‘llanilgan. Qasosdan tovon (xun) to‘lash va kafforat jazosi orqali qutulish mumkin edi. Kafforatda bir qulni ozod qilish, qul topilmasa, aybdor ikki oy muttasil ro‘za tutishi shart bo‘lgan. Bu haqda Qur’oni Karimda shunday deyiladi: «Mo‘min (ikkinchi bir) mo‘minni faqat yanglishibgina o‘ldirib qo‘yishi mumkin. Kimda-kim mo‘minni yanglishib o‘ldirgan bo‘lsa, (uning zimmasiga) bir mo‘min qulni ozod qilish va u (marhum)ning oilasiga - agar kechib yubormasalar - xun to‘lash (farzdir). Agar (marhum) sizga dushman qavmdan bo‘lib, o‘zi mo‘min bo‘lsa, bir mo‘min qulni ozod qilish (buyuriladi). Agar sizlar bilan ular o‘rtasida sulh (tuzilgan) qavmdan bo‘lsa, uning oilasiga xun to‘lash va bir mo‘min qulni ozod qilish (buyuriladi). Kimda-kim (qul) topmasa, Allohdan kechirim so‘rab, ikki oy muttasil ro‘za tutish (bilan kifoyalanadi)» (Niso surasi, 92-oyat). Umuman, qasos yoki tovon olish jazosi ibtidoiy jamoa tuzumi davridan meros qolgan edi.

Ta’zir jazosi «had» yoki «qasos» jazolarini qo‘llash mumkin bo‘lmagan hollarda, shuningdek, diniy jihatdan gunohni yuvish bilan jazolanadigan jinoyatlar sodir etilgan taqdirda qo‘llanilishi mumkin edi. Masalan, o‘g‘irlikda o‘g‘irlangan narsa shariatda joriy etilgan miqdordan kam bo‘lsa, had emas, balki ta’zir qo‘llanilgan. Shuningdek, qaroqchilar yo‘l to‘sayotganlarida hali molni olmay va hech kimni o‘ldirmay turib qo‘lga tushsalar, ularni to tavba qilgunlariga qadar qamab qo‘yilgan yoki o‘g‘ri narsani xonadan olib chiqib ketmay turib qo‘lga tushsa, qo‘li kesilmagan. Ta’zir jazo turlariga 3 darradan 39 darragacha urish, qamoq, ogohlantirish, vatanidan haydab yuborish, jamoat izzasi, jarima, salla o‘rab yurish huquqidan mahrum etish va hokazolar kiradi.

Ta’kidlash lozimki, musulmon jinoyat huquqi masalalari bilan shug‘ullangan hozirgi zamon huquqshunos olimlarimiz shariatdagi jinoiy jazo tizimini bir nechta guruhlarga bo‘lib, ular haqida bir-biridan farq qiluvchi fikrlarni bayon qilganlar. Jumladan, M.I.Sadagdar musulmon huquqida jazo alohida xususiyatga ega bo‘lib, quyidagi turlarga: qasos - o‘ch olish; diya - tovon haqi; o‘lim jazosi; toshbo‘ron qilish; qo‘l-oyoqlarini kesish; savalash; darra urish; surgun va badarg‘a; mol-mulkini musodara qilish va boshqalardan iboratdir, deb ko‘rsatgan bo‘lsa, G.M.Kerimov shariatdagi barcha jazolar asosan to‘rt turga: 1) bir xilda o‘ch-qasos olish; o‘ldirganda

- o‘ldirish, haqoratlaganda - haqoratlash, jarohatlaganda - jarohatlash va shunga o‘xshash; 2) qon to‘kkanda, ya’ni o‘ldirilganda ham, jarohat yetkazilganda ham to‘lov yoki jarima belgilash; 3) qiyos (anologiya) asosida qonun bilan belgilangan jazo; 4) shariat qozilarining ixtiyoriga ko‘ra belgilanadigan jazolarga bo‘linadi, degan fikrni ilgari surgan. A.S.Bogolyubov esa qasos olish choralari va ehtiyot choralari son jihatidan ko‘p emas va ular oddiy bo‘lib, o‘lim jazosi, qasos - teng jazo, diya - o‘ldirilgan yoki qon to‘kkandagi tovon to‘lash; ta’zir, adab-ogohlantirish, jamoat izzasi va sodir etgan jinoiy qilmish uchun chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish, pand-nasihatdan tashkil topgandir, deb ta’kidlaydi. L.R.Syukiyaynen va V.A.Lixachov esa musulmon jinoyat huquqidagi barcha huquqbuzarliklarni uch guruhga bo‘ladilar: birinchi guruhga - Allohning huquqini buzishga qaratilgan o‘ta og‘ir jinoyatlarga nisbatan had jazolari; ikkinchi guruhga - shaxsning hayoti va sog‘ligiga qarshi qaratilgan qasos yoki tovon to‘lash jazolari qo‘llanadigan jinoyatlar, nihoyat, uchinchisiga esa qolgan barcha huquqbuzarliklar kiritilgan bo‘lib, ularga nisbatan ta’zir jazolari qo‘llanadi deb bizningcha to‘g‘ri ko‘rsatganlar.

Shunday qilib, shariatda jazolar o‘rta asrlarga xos bo‘lgan shafqatsizligi va qattiqligi bilan ajralib turardi. Jazoning asosiy maqsadlari qo‘rqitish bo‘lgan. Masalan, o‘lim jazosi ko‘p hollarda oddatda omma oldida osish yoki to‘rt bo‘lakka bo‘lish yo‘li bilan ijro etilgan. Shuningdek, o‘lim jazosining suvga cho‘ktirish, tiriklayin ko‘mish kabi turlari ham qo‘llanilgan. Tana a’zolariga shikast yetkazish va tan jazolari-barmoqlarni, qo‘l va oyoqlarni kesish, axtalash, toshbo‘ron qilish va hokazolar ko‘p qo‘llanilgan. Ozodlikdan mahrum qilish uyga yoki machit xonalaridan biriga qamashda ifodalangan. Musulmon jinoyat huquqida mulkiy jazolar (mol-mulkini musodara qilish, jarima va boshqalar) va sharmanda qiluvchi jazolar (soqollarini olib tashlash, salla taqib yurish huquqidan mahrum qilish, jamoat izzasi va boshqalar), shuningdek surgun va badarg‘a jazolari (mayda jinoyatlar uchun) ham ma’lum.

Musulmon huquqida **sud ishlarini yuritish tartibi** o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turgan. Sud jarayoni, odatda ayblov xarakteriga ega bo‘lgan. Ish ko‘pincha davlat nomidan emas, manfaatdor shaxslar tomonidan qo‘zg‘atilgan. Fuqarolik va jinoyat sudlovlari o‘rtasida farq yo‘q edi. Sud ishlari oshkora tartibda, odatda machitlarda ko‘rib hal qilingan. Unda ishtirok etishni xohlovchilarning barchasi qatnashishlari mumkin edi. Tomonlarning o‘zlari himoyachilarning yordamiga tayanmay ish yuritishlari lozim edi.

Sud jarayoni asosan og‘zaki amalga oshirilgan, dastlab yozma ish yuritish qo‘llanilgan. Abbosiylar hukmronligi davridan boshlab fuqarolik ishlari bo‘yicha sud bayonnomalari tuzila boshlangan. Sudda tan olish (aybiga iqror bo‘lish), guvohlarning ko‘rsatmalari, qasamlar, versiyalar dalil bo‘lib hisoblangan. Ish bir majlisning o‘zida hal qilinishi lozim edi, uni keyingi kunga qoldirish mumkin emasdi. Sud jarayoni tortishuvchanlik xarakterga ega bo‘lgan. Sud ishlarini yuritishning qozilar uchun belgilangan qoidalari yo‘q edi. Shuning uchun ular ishlarni o‘z xohishlaricha erkin ko‘rish imkoniyatidan keng foydalanganlar. Ishda guvoh bo‘lib 10 yoshga to‘lgan, ilgari sudlanmagan, faqat musulmon dinidagi aqli raso kishilargina qatnashishi mumkin bo‘lgan. Ikki ayol kishining ko‘rsatmasi bir erkak kishining guvohligiga teng hisoblangan. Ishonchli dalillar bo‘lmasa, javobgar yoki ayblanuvchi odatda Qur’oni Karimni ushlab Alloh oldida tantanali qasam ichishi lozim edi.

X BOB. XITOY DAVLATI VA HUQUQI

- ***O‘rta asrlarda Xitoy davlatining rivojlanish bosqichlari.***
- ***Xitoyning ijtimoiy tuzumi.***
- ***Xitoy davlat tuzumining xususiyatlari.***
- ***O‘rta asrlarda Xitoy huquqining asosiy belgilari.***

1. O‘rta asrlarda Xitoy davlatining rivojlanish bosqichlari

Xitoyda ko‘p ukladlilikning turg‘unligi, sinflarning tashkil topish jarayoni tugallanmaganligi, patriarxal-urug‘chilik va quldorchilik munosabatlari qoldiqlarining saqlanib qolganligi, juda katta hududdagi turli rayonlarning xo‘jalik va ijtimoiy rivojlanishi notekisligi va boshqalar natijasida o‘rta asrlarning boshlanish vaqtini aniq vaqt (sana) bilan belgilash ancha murakkab. Yuqorida ko‘rsatilganidek, Qadimgi Xitoy davlatidayoq o‘z erkinliklarini yo‘qotmagan kam yerli va yersiz dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning turli shakllariga asoslangan yirik xususiy yer egaligi shakllangan edi. Soliqlar to‘laydigan dehqonlarning davlat tomonidan ekspluatatsiya qilinishi ham keng tarqalib borgan. Dehqonlardan asosan davlat foydasiga renta-solig‘i olinardi.

O‘rta asrlarda Xitoy davlati tarixini davrlarga bo‘lishda hukmron sulolalarning vaqti-vaqti bilan o‘zgarib turishini va yirik imperiyalarning tashkil topishini hisobga olish zarur. Bu davrda tez-tez bo‘lib turgan xalq qo‘zg‘olonlari davlatning ijtimoiy-sinfiy tuzilishida, shuningdek, siyosiy va huquqiy institutlarida u yoki bu darajada o‘zgarishlarga olib kelgan.

III asrda yerlarning xususiy yer egalari qo‘lida to‘planishi va II-III asrlardagi kuchli xalq harakatlari natijasida Xan imperiyasining qulashi yuz yillik ichki notinchlikka sabab bo‘ldi. Keyinchalik yagona davlatning qayta tiklanishi Shimoliy Xitoyda asos solingan Szin sulolasi (260-420 yillar) ko‘rinishidagi markazlashish jarayoni bilan bog‘liq edi.

Xitoyda yagona davlatning tashkil topishida ayniqsa Szin davlatining asoschisi Sim Yan islohotlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Islohotlarga binoan yerlarning katta qismi imperatorning, ya’ni davlatning mulki deb e’lon qilingan. Mustaqil dehqonlar esa davlatning yerlarini ushlab turuvchilar va buning evaziga soliq to‘lovchilar bo‘lib qolgan. Ular turli darajalarga bo‘lingan. Birinchi darajali soliq to‘lovchilar - «chek yerlarni foydalanishga oluvchi» (erkaklar uchun 70 mu[129] ayollar uchun 30 mu) va «soliqqa oid chek yerlar»ni (tegishlicha erkaklar uchun 50 mu, ayollar

[129] 1 mu – 1/16 gektar yer.

uchun 30 mu) oluvchi 16 yoshdan 60 yoshgacha erkak va ayollar tashkil etadi. Bu yerlardan olinadigan hosil yer uchun soliq va to‘lovlar sifatida to‘liq davlatga o‘tkazilgan. Ikkinchi darajali soliq to‘lovchilarga 13 yoshdan 15 yoshgacha va 61 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan dehqon oila a’zolari kirib, ular chek yerlarning yarmisini olardilar. Soliq to‘lash yoshiga yetmagan va undan oshgan kishilar hech qanday chek yerlar olmagan. Davlatdan chek yer olgan soliq to‘lovchi dehqonlar ishlab berish majburiyatlarini ham o‘taganlar.

Islohot yerlarning tenglashtirilishini anglatmagan. Masalan, chinovniklar o‘z mavqelariga (martabalariga) qarab 1 mudan 5 mugacha yer uchastkalari olgan. Ular soliq va majburiyatlardan ozod etilgan edi. Har bir chinovnikning ixtiyorida egallab turgan yer egaligi hajmiga qarab, 1 tadan 15 tagacha dehqonlarning tomorqa xo‘jaliklari bo‘lardi. Ular yerni ijaraga olib ishlovchi dehqonlar edi.

Yerlarni taqsimlab berish tizimining yangi varianti («teng maydonlar» tizimi) 485 yilda Shimoliy Xitoyda Shimoliy Vey sulolasi davrida, so‘ngra esa VI va VII asrlarda Suy sulolasi hamda uning o‘rniga kelgan Tan sulolasi davrida joriy qilingan. Bu tizim oxir oqibat butun Xitoy bo‘ylab yoyilgan. 15 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan dehqonlar davlatdan aniq tayinlangan maqsadlarda yerlar olishgan. Ular bunday yerlarda bug‘doy, kanop, tutli daraxtlar ekib yetishtirishlari va davlatga topshirishlari shart edi. G‘alla ekish uchun mo‘ljallangan yer uchastkasining katta qismi (erkaklar uchun 40 mu va ayollar uchun 20 mu yerlar) faqat vaqtincha foydalanishga berilgan va u dehqonning belgilangan soliq to‘lash yoshidan oshganidan keyin yoki o‘limidan so‘ng davlat tomnidan qaytarib olingan. Yer uchastkasining qolgan ozginagina qismi meros tariqasida o‘tkazilgan.

Yerlarni taqsimlash tizimi soliqlar to‘lovchi dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning an’anaviy tizimini faqat mustahkamlashnigina anglatmas edi. U qishloq jamoasi orqali amalda dehqonlarning yerga bog‘lanib qolishini, davlat xazinasiga birgalikda soliq to‘lash majburiyatini keng tarqalishiga ko‘maklashgan. Bu tizim mavjud yirik xususiy yer egaligining kamayishiga emas, balki yanada ortishiga olib keldi. Masalan, «teng maydonlar» tizimi qaram kishilarning mehnatini ekspluatatsiya qilayotgan yer egasiga chek yerlar olish huquqini ham berardi.

Tan qonunchiligi rasman chek yerlarni sotishni taqiqlar edi. Lekin ko‘pgina qo‘shimcha tushuntirishlar (masalan, oilaning ko‘chib o‘tishi holatida, dafn marosimlarini o‘tkazish maqsadida va hokazo holatlarda chek yerni sotish mumkin edi) yerlarning xususiy shaxslar qo‘lida to‘planib borishiga imkon tug‘dirdi. Bunday cheklashlar rasman olib tashlangandan

keyin esa bu jarayon yanada kuchaydi. Bu dehqonlarning mulkiy tengsizligini, xususiy yer egalariga qaramligini kuchaytirdi. Shu bilan birga Tan imperiyasida «teng maydonlar» tizimi ma’lum bosqichda uning iqtisodini mustahkamlanishiga, siyosiy ahvolning ma’lum darajada barqarorlashuviga shart-sharoit yaratdi.

Tan imperiyasida urug‘doshlik separatizmi tendensiyasi yirik yer egaligi o‘sishining muqarrar ifodasi bo‘lib qolgandi. Bu tendensiya harbiy gubernatorlik (szedushi) mansabining joriy qilinishi bilan ham bog‘liq edi. Harbiy gubernatorlar ko‘chmanchilar va boshqalarning tinimsiz qochishlariga qarshi kurashda juda katta vakolatlarga ega edilar. Gubernatorlar vaqt o‘tishi bilan qudratli noiblarga, yirik yer egalariga aylandilar va markaziy hokimiyat bilan tobora hisoblasha boshladilar.

VIII asrda yangicha tarzda «yerlarning to‘planish kulfati», dehqonlarning ommaviy yersizlanishi va qishloq aholisiga taqsimlab berish uchun mo‘ljallangan davlat yerlarining kamayib ketishi munosabati bilan yerdan foydalanishning chek tizimi to‘la barbod bo‘ldi. Soliqlar, o‘lponlardan, har xil davlat majburiyatlari o‘tashdan ezilgan dehqonlar qashshoqlashib, juda og‘ir kun kechirishga majbur edi. Ochlik natijasida tez-tez bo‘lib turgan epidemiyalardan yuz minglab dehqonlar qirilib ketdi. Dehqonlarning chek yerlari kamayib bordi, chunki chek yerlarni «kuchli xonadonlar» - katta-katta yer egalari, davlat amaldorlari, sudxo‘rlar doim o‘z qo‘llariga kirgizib olmoqda edilar (yilnomalarda obrazli qilib aytilganidek, «yutib yubormoqda edilar»). Davlat dehqonlari sonining kamayishi natijasida davlat xazinasiga tushadigan daromadlar ham kamaydi. Dehqonlarning bir qismi xususiy shaxslarga qaram bo‘lib qolayotgan edi, bu shaxslar o‘z daromadlarini mana shu dehqonlardan olar edilar. Shu ahvolni hisobga olib, hukumat 780 yilda soliq tizmini isloh qildi. Loyihaning sobiq muallifi Yan Yanning yangi qonuniga binoan soliqlar chek yeri bo‘lgan dehqonlardangina olinmasdan, shu bilan birga xususiy yer egalaridan va davlat yerlarini vaqtincha ijaraga olgan shaxslardan ham yig‘ib olinadigan bo‘ldi, ammo mana shu yer egalari va ijarachilar ularning yerlarida yashab, ularga krepostnoy qaramlikda bo‘lgan dehqonlar uchun ham soliq to‘lashlari lozim edi. Vujudga kelgan bu yangi vaziyatni, ya’ni davlat dehqonlarining bir qismi feodalning krepostnoyi yoki qaram kishisiga aylanganligini tan olib, hukumat «kuchli shaxslar» tomonidan chek yerlarning «yutib yuborilishiga» qarshi kurashni ataylab susaytirdi, bu hol butun chek yer tizimning inqirozi kuchayganligidan dalolat berar edi.

Shu tariqa buzilgan muvozanatni tiklash, ijtimoiy portlashni qandaydir bartaraf etish maqsadida 780 yilda Xitoyda yangi soliq tizimi joriy

qilingan edi. Bunga ko‘ra, hamma dehqon xo‘jaliklari o‘z mulkiy ahvoliga qarab turkumlarga bo‘lingan va egallab turgan yerlarining hajmiga qarab soliq to‘lashlari lozim edi. Bunda soliq to‘lovchi shaxslarning yoshi ham, mehnat layoqati ham hisobga olinmadi. Ayni paytda yerlarni sotishdagi taqiqlar olib tashlangan, yerlarning hajmini chegaralash bekor qilindi. Bu esa kam yerli va yersiz ijarachi dehqonlarni ekspluatatsiya qilishga asoslangan yirik pomeshchik yer egaligining o‘sishi uchun yangi imkoniyatlar tug‘dirdi.

VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xitoyda umumiy dehqonlarning yarmiga yaqini birovlarning yerlarini ishlash hisobiga yashab, xususiy mulkdorlar tomonidan ekspluatatsiya qilindi. Dehqonlarning boshqa qismini mustaqil mayda ishlab chiqaruvchilarning keng qatlami tashkil etdi. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan qo‘shimcha mahsulot davlatga soliq tarzida berilardi.

Mayda yer egalarining ommaviy yersizlanishi ijtimoiy portlashlarga, qo‘zg‘olonlarga, urushlarga olib kelardi, oqibatda hukmron sulolalar ag‘darilardi. Natijada dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning an’anaviy tizimi, mustaqil dehqon xo‘jaliklarining solishtirma og‘irligi davriy tiklanib bordi.

IX asr oxiri - X asrning boshlaridagi notinch yillar va kuchli dehqonlar qo‘zg‘olonlaridan keyin Sun sulolasi (X-XIII asrlar) ning o‘rnatilishi bilan ma’lum darajada davlat va yirik xususiy yer egaligining muvozanatiga erishildi. XI asrda Sun amaldori **Van Anshi**ning islohotlari ushbu muvozanatga yordam berdi. Shu davrda dehqon xo‘jaliklarini tiklash va rivojlantirishga, yer kadastrini joriy qilish asosida soliq tizimini tartibga keltirishga qaratilgan yangi qonunlar qabul qilindi. Ayni vaqtda dehqon xo‘jaliklari sharoitlarini yaxshilash, irrigatsiya inshootlarini qurish va boshqalar bo‘yicha chora-tadbirlar nazarda tutildi.

Van Anshi islohotlari eng avvalo imperator xazinasining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadiga bo‘ysundirilgan edi. Shu bilan birga islohotchilik harakatida dehqonlarning yerlarini «yutib yuborishni» to‘xtatishga, yirik xususiy yer egaligining, chinovniklar zo‘ravonligining o‘sishini cheklashga urinish ham yaqqol ifodalangan.

XIII asrning oxirida Xitoy mo‘g‘ullar tomonidan istilo qilindi. 1279 yilda mo‘g‘ullarning Yuan sulolasi hukmronligi o‘rnatildi. Mo‘g‘ullar istilosi Xitoyning iqtisodi va madaniyati uchun og‘ir oqibatlar keltirib chiqardi, lekin xo‘jalikning an’anaviy tizimi asoslarini yemirib tashlamadi. Mo‘g‘ullar dehqonlardan soliqlarni so‘rib olishga moslashgan Xitoyning byurokratik tashkilotini o‘z xizmatlariga oldilar. Shuni aytib o‘tish kerakki,

xuddi shu vaqtda Xitoyda qullarning va obrok to‘laydigan tutqin shaxslarning soni birdaniga oshib ketdi.

XIV asrda bo‘lib o‘tgan milliy ozodlik kurashi va kuchli dehqonlar harakati natijasida mo‘g‘ullar hukmronligi quladi. Mamlakatda yangi butun Xitoy Min sulolasi (1368-1644 yillar) o‘rnatildi. Bu sulola davlat va xususiy yer egaligining muvozanatini har tomonlama ushlab turishga harakat qildi.

XVII asrda Xitoyga manchjurlar bostirib kirdi va u yerda Manchjurlar sulolasiga asos soldi. Bu sulola 1911-1913 yillardagi revolutsiyaga qadar mamlakatni boshqardi. Qulchilik ham Xitoyda revolutsiyaga qadar davom etdi va revolutsiya vaqtida maxsus qonun bilan bekor qilingandi.

2. Xitoyning ijtimoiy tuzumi

Xitoy an’anaviy jamiyatida shaxslar haqidagi masalani huquqning sub’yekti sifatida ko‘rish alohida ijtimoiy qatlamlar, tabaqalar, aholi guruhlarining huquqiy holatidagi farqlarni aniqlash bilan chambarchas bog‘liq. Xitoy an’anaviy huquqiga shaxs, fuqaro, individning sub’yektiv huquqlari haqidagi yevropacha konsepsiya ma’lum emas. Xitoy kodekslarida va rasmiy hujjatlarida shaxs huquqiy holati «se» (rang) atamasi bilan belgilangan. Bu individning muayyan huquq va aniq o‘rnatilgan majburiyatlarga ega bo‘lgan u yoki bu ijtimoiy guruhga mansubligini anglatadi.

O‘rta asrlar Xitoyida ijtimoiy farqlar sinfiy farqlarga qaraganda ancha aniq ko‘zga tashlanib qolgandi. Ular faqat alohida tabaqalarning emas, balki turli darajadagi unvonli, martabali chinovniklarning ham huquq va majburiyatlarini mustahkamlovchi qonun va an’analar bilan qattiq himoya qilingan. Shuningdek, ularning turmushdagi yurish-turishlari, kiyimlaridagi, marosimlaridagi farqlar ikir-chikirigacha va qat’iy tartibga solingan edi.

Xitoyning an’anaviy ijtimoiy tuzumi turli davrlarda u yoki bu o‘zgarishlarni boshidan kechirgan bo‘lishiga qaramay, hamma vaqt asosan uchta ijtimoiy guruhga: 1) «oliyjanob kishilar»; 2) «rahmdil, yaxshi kishilar»; 3) «past tabaqadan kelib chiqqan kishilar»ga bo‘lingan.

Birinchi toifadagi kishilar guruhini imtiyozli, «oliyjanob» shaxslar – dunyoviy va diniy aslzodalar, harbiy va fuqarolik mansabdor shaxslar tashkil etgan. Ular mehnat majburiyatlaridan va tan jazolaridan, ba’zilari esa soliqlar to‘lashdan ham ozod etilgan edi. Bu tabaqa vakillari faqat yirik yer egalari bo‘lib qolmasdan, shuningdek, xazinaga kelib tushadigan anchamuncha daromadlarni o‘zlashtirib olishga sherik ham edi. Masalan, Min sulolasi hukmronligi (1368-1644 yillar) ning oxiriga kelib imperatorning

yuqori unvon, martaba, faxriy nomga ega bo‘lgan «qarindoshlari»ning umumiy soni 100 mingdan oshgan edi. Ularni boqishga maosh tariqasida soliq tushumlarining anchagina qismi sarflanardi.

O‘rta asrlarda Xitoyning imtiyozsiz tabaqasi hisoblangan savdogarlar, sudxo‘rlar, yirik yer egalari - boylar alohida mavqega ega bo‘lib, hukmron tabaqalar safini to‘ldirib turgan. Bu tabaqalarning «oliyjanob kishilar» tabaqasiga o‘sib o‘tishi uchun jiddiy to‘siqlar qo‘yilmagan edi. Chunki, Xitoyda yangi era boshidayoq faxriy unvonlarni va ilmiy darajalarni sotib olishning rasmiy amaliyoti o‘rnatilgandi. Bu boylarning xizmat o‘tamaydigan amaldorlar darajasiga o‘tish huquqiga ega bo‘lishining eng oddiy usuli hisoblangan. Ular, shuningdek, ma’lum imtiyozlardan, masalan, tan jazolaridan pul to‘lab qutilish, martabasini hisobga olib sodir etgan jinoyati uchun jazoning yumshatilishi va boshqa shu singari huquqlardan ham foydalanganlar.

O‘rta asrlar Xitoyida eski urug‘ aristokratiyasi ma’lum darajada o‘z o‘rnini yangi xizmatchi aristokratiyaga-mansabdorlarga bo‘shatib bergan. O‘qimishli tabaqaviy guruh-**shenshi** qudratli konservativ kuch, markaziy hokimiyatning tayanchi, soliq to‘lovchi dehqonlarni an’anaviy ekspluatatsiya qiluvchi bo‘lib qoladi. Shenshi ikki toifaga bo‘lingan. Birinchi toifaga bevosita hokimiyatga aloqasi bo‘lgan va son jihatdan nisbatan kamchilikni tashkil etgan shaxslar qatlami - hukmdorning yaqinlari, katta amaldorlari va ierarxiyaga asoslangan butun byurokratik davlat apparati kirgan. Ikkinchi toifaga birinchi tabaqaga nomzod bo‘lgan va konfutsiylik ta'limini olgan, lekin mansabga ega bo‘lmagan juda ko‘p o‘qimishli kishilar kirgan. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat vakolatlariga ega emasdilar, lekin joylarda, jamoa boshqaruvida juda katta rol o‘ynaganlar. Bu esa o‘z navbatida Xitoyda davlat hokimiyatining markazlashuviga katta yordam bergan.

Konfutsiylik fani qonun-qoidalaridan ta'lim olgan va imtihon topshirgan barcha kishilarga chinovniklik mansablari uchun yo‘l rasman ochiq edi. Biroq, amalda ta'lim olishga va ayniqsa chinovniklik martabasiga erishishga faqat boylarning, chinovniklarning o‘z bolalari qodir edi. Bunday tartib VIII asrga qadar mahalliy hukmdorlar tomonidan «munosib kishilar»ni chinovniklik mansabiga tavsiya qilish tizimi bilan ta'minlangan.

Xitoyda chinovniklarning xizmati uchun don (g‘alla) bilan (200 dan 10 ming dan[130]gacha miqdorda) haq to‘lash tizimi asosida 9 ta darajaga bo‘linishi oliy, o‘rta va quyi chinovniklarga bo‘linishi bilan birga saqlanib qolgan. Chinovnikning darajasi (martabasi)ga nafaqat lavozimi, xizmat mavqeidagi o‘rni, balki obro‘-e’tibori va oladigan maoshi ham bog‘liq edi.

[130] 1 dan – 103,5 litr g`alla.

III asrning oxirida chinovniklarga g‘alla va pul bilan maosh berish o‘rniga turli miqdorlarda chek yerlar beriladigan bo‘ldi. Bunday yerlar o‘z navbatida ijarachilarga ishlash uchun o‘tkazilardi. Ijara to‘lovi, shu tariqa maosh bilan almashtirilgan. VIII asrdan to 1911-1913 yillardagi revolutsiyaga qadar chinovniklarga g‘alla va pul bilan maosh berilgan. Ularga xizmat evaziga beriladigan chek yerlar va «boqimandalik» sifatida taqdim qilinadigan to‘lovlar faqat qo‘shimcha mukofot bo‘lib xizmat qilgan. Xitoyda daos va budda monaxlarining maqomi ham chinovniklarning maqomiga tenglashtirilgan.

Ikkinchi imtiyozsiz tabaqa vakillarini oddiy xalq, «mayda kishilar» tashkil etgan. Bular asosan dehqonlar va hunarmandlar bo‘lib, barcha soliqlar to‘lash va mehnat majburiyatlarini o‘tash ana shularning zimmasiga yuklangan edi. III-VIII asrlarda davlatning chek yer tizimi mavjudligi davrida dehqonlarning asosiy ommasi amalda davlat yerlarini ijaraga oluvchilarga aylangan.

Jamiyatdagi uchinchi tabaqaviy guruh - «past tabaqadan kelib chiqqan kishilar» toifasiga to‘la huquqli bo‘lmagan erkin kishilar va mutlaqo huquqsiz kishilar - davlatga tegishli va xususiy egalikdagi qullar kirgan. Chek yer tizimining barbod bo‘lishi, yirik yer egaligining rivojlanishi tobora yerga biriktirilib borgan yersiz va kam yerli arendator-dehqonlar sonining o‘sishiga olib keldi.

To‘la huquqli bo‘lmagan tabaqaviy guruh - XIII asrga qadar «kuchli xonadonlar» qaramligi ostidagi shaxslardan iborat edi. Ulardan qurolli kuchlar, yarim krepostnoy ijarachilar, batraklar, uy xizmatchilari sifatida foydalanilgan. Xususiy yerlarni ijaraga oluvchilar va batraklar, xuddi qullar singari, xo‘jayinining buyruqlarini so‘zsiz bajarishlari lozim edi. Ularni kaltak bilan urish, xususiy turmalarga qamash, ba’zan esa sudsiz o‘ldirish mumkin edi. Ular xo‘jayinining ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga ega bo‘lmagan. Davlat organlari yer egalarining manfaatlarini himoya qilgan, ularga yerlarni shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda ishlamasdan va ijara haqqi to‘lamasdan qochib yurgan ijarachilar va batraklarni izlab topishida yordam bergan. Keyinchalik, 1727 yildagina xo‘jayinlarning o‘ziga qaram kishilarni o‘z holicha sudsiz jazolashi rasman taqiqlangan edi.

3. Xitoy davlat tuzumining xususiyatlari

Xitoyda qadimgi davrlardayoq yaqqol namoyon bo‘lgan Sharq despotiyasi belgilari o‘rta asrlarda yanada rivojlandi. Bu davrda oliy va mahalliy boshqaruv organlari tizimining an’anaviy asoslari asosan boshqaruv-

ning umumma’muriy, nazorat-tekshiruv, sud va harbiy-qo‘mondonlik funksiyalari bo‘yicha taqsimlanishi hisobiga mustahkamlandi va takomillashdi. Davlat oldida turgan vazifalarning o‘zgarishi munosabati bilan ushbu tizimning u yoki bu bo‘g‘inlari qayta qurildi, ularning vakolatlari va nomlari ham almashtirildi.

Davlatning markazlashish jarayonining kuchayishi yoki markazlashishdan qochish tendensiyasining rivojlanishi ta’sirida hokimiyatning markaziy va mahalliy organlari vakolatlarida va o‘zaro munosabatlarida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Buni, masalan, VIII asrda Tan sulolasi davrida harbiy gubernatorlarning amalda hech qanday nazorat qilinmaydigan mahalliy hukmdorlarga aylanganligida yaqqol ko‘rish mumkin.

Xitoyda markazlashgan imperiyaning gullab-yashnashiga Tan sulolasining (618-907 yillar) imperatorlari asos soldi. Ularning hukmronligi davrida xazinaga doimiy soliqlar kelib tushishini ta'minlagan yer islohotlari o‘tkazildi, shuningdek, tekin ishchi kuchidan, mehnat majburiyatlaridan foydalanish hisobiga imperiyada yo‘llar, kanallar, saroylar, ibodatxonalar, butun-butun shaharlar qurildi, shular bilan birga hunarmandchilik va davlatning qattiq nazorati ostida bo‘lgan savdo-sotiq jadal rivojlandi.

Tan imperiyasining murakkab va yetarlicha qat’iy tuzilgan davlat boshqaruv tizimi tepasida **imperator** turgan. Uning huzurida ancha taniqli mansabdorlardan iborat **Davlat kengashi** mavjud edi. Davlat kengashi a’zolari orasida imperatorning qarindoshlari muhim o‘rin tutardi. Boshqaruvning barcha jilovlari davlatda oliy mansabdor shaxslar-ikkita kantslar qo‘lida edi. Birinchisi imperatorning chap qo‘l ministri - katta kantslar, ikkinchisi - o‘ng qo‘l ministr-kichik kantslar hisoblangan. Ularning har biri o‘sha vaqtdagi 6 ta: 1) martabalar (mansablar, xizmatlar) bo‘yicha; 2) marosimlar bo‘yicha; 3) soliqlar (daromadlar) bo‘yicha; 4) harbiy ishlar bo‘yicha; 5) sud ishlari (jazolar) bo‘yicha; 6) ijtimoiy ishlar bo‘yicha mahkamalar (ministrliklar)dan uchtasini yuritardi.

Tan sulolasi davlat apparatining bunday oliy boshqaruv organlari Xitoyda asrlar mobaynida harakatda bo‘lgan. U ayniqsa mo‘g‘ullar hukmronligi (1368-1644 yillar) tugatilgandan keyin minlar sulolasi davrida har tomonlama yuzaga chiqadi. Bu apparatga imperator boshchilik qilardi. Davlatda butun oliy qonun chiqarish va sud hokimiyati imperator qo‘lida to‘plangan edi. Taxt imperatorning katta o‘g‘liga meros bo‘lib o‘tardi. Imperatorning boshqa o‘g‘illariga knyazliklar - udellar berilgan. Udellar ularning xususiy yer egaliklari bo‘lib qoladi. Imperator saroyi ko‘p sonli xizmatchilar, imperatorning xotinlari, bichilgan qullardan iborat bo‘lib, davlat boshqaruvida muhim rol o‘ynaydi. Ayni paytda pastdan yuqoriga

bo‘ysunish (ierarxiya) asosida tashkil etilgan maxsus chinovniklar apparati rivojlanadi va takomillashadi. Bu apparatning tepasida, xuddi Tan sulolasi davridagidek, oltita mahkama (ministrlik) ning boshliqlari, shuningdek, **senzorat,** oliy nazorat-tekshiruv organi, beshta komissarlar hamda oliy harbiy-qo‘mondonlik organlari turardi.

XV asrdan e’tiboran haram xodimlari (bichilgan qullar) ning siyosiy ta’siri kuchaya boshlagan. Hukmdorlar ularni davlat mansablariga jalb qilganlar. Ular bu bilan separatizmning-ajralib chiqishga, harakatning rivojlanishini, o‘z xususiy sulolalarida kalandimog‘ mansabdorlarning tashkil etilishini bartaraf etishga harakat qilganlar. Haram xodimlaridan iborat amaldorlarga imperatorlar juda katta vakolatlar berardilar. Ba’zan ularning vakolatlari, hatto, saroy ishlari doirasidan ham chetga chiqar edi. Bu vaqt o‘tishi bilan hokimiyatning ikkita markazi - saroy («ichki») va mahkama («tashqi») hokimiyatining tashkil topishiga sabab bo‘ldi.

Minlar sulolasi davrida oltita markaziy mahkamalarning faoliyati dastlab ikkita maslahatchi va birinchi darajali chinovniklar boshchiligidagi **Katta kotibiyat** tomonidan muvofiqlashtirib turilgan. Kotibiyat 1380 yilgacha faoliyat ko‘rsatgan. Hokimiyatni bosh maslahatchi qo‘lida to‘planishi xavfini oldini olish maqsadida imperator uning barcha vazifalarini bevosita o‘z qo‘liga olgan edi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, markaziy boshqaruv organlari o‘zlarining bajaradigan asosiy vazifalariga muvofiq tarzda martabalar (mansab-xizmatlar) bo‘yicha, marosimlar bo‘yicha, soliqlar (daromadlar) bo‘yicha, harbiy ishlar bo‘yicha, sud ishlari (jazolar) bo‘yicha va ijtimoiy ishlar bo‘yicha mahkamalar (ministrliklar)ga bo‘lingan.

Martabalar mahkamasi barcha fuqarolik amaldorlari va boshqaruv apparati xizmatchilarining mansabga tayinlanishi, boshqa lavozimlarga o‘tkazilishi va almashtirilishiga javob bergan. O‘rta asrlar Xitoyida amaldorlik mansabi shunchalik buyuk ediki, aynan ushbu mahkama va uning boshlig‘i boshqalari orasida eng asosiysi hisoblanardi.

Daromadlar mahkamasi aholini va qishloq xo‘jaligi yerlarini hisobga olish ishlarini yuritgan. U soliqlar miqdorini belgilagan, soliqlarning yig‘ilishiga javob bergan. Ushbu mahkamaning har bir bo‘limi 13 ta provinsiyalardan bittasi doirasida faoliyat ko‘rsatgan.

Marosimlar (rasm-rusumlar) mahkamasi imperator hokimiyatining shon-shuhratini ko‘tarishga qaratilgan marosimlar va tadbirlarni o‘tkazish, shuningdek, diniy qurbonliklar keltirish bilan shug‘ullangan. U marosimlar o‘tkazish, qurbonliklar keltirish, qabul uyushtirish va diniy

marosimlarni birxillashtirish maqsadlarida buyruq-farmoyishlar berish bo‘limlaridan iborat bo‘lgan.

Harbiy mahkama barcha harbiy amaldorlarni (mansabdorlarni) tayinlash, boshqa lavozimga o‘tkazish va ishdan bo‘shatish, armiyani ta’minlash va pochta xizmati ishlarini yuritgan. **Sud mahkamasi**, yoki **jazo mahkamasi** butun imperiya bo‘yicha sud ishlari yuritilishini nazorat qilgan. U xuddi daromadlar mahkamasi singari 13 ta provinsiyaning har birida o‘z bo‘limlariga ega edi. Bu mahkamaning faoliyati taftish-tergov organi bo‘lmish poytaxt sudi faoliyati bilan kesib qo‘yilgan.

Markazda ham, provinsiyalarda ham turli toifalardagi senzorlik, nazorat organlari ma’muriyatdan mustaqil mavqega ega edi. **Senzoratga** ikkita bosh (asosiy) senzor-birinchi darajali mansabdorlar boshchilik qilardi. Uning apparatiga 100 ga yaqin nazorat qiluvchi senzorlar kirardi va ular provinsiyalar bo‘yicha guruhlarga bo‘lingan edi. Min sulolasi davridagi davlat apparatida hech qaysi organ senzorat singari katta vakolatlarga ega bo‘lmagan. Senzorat barcha mansabdorlar va ularning faoliyatini o‘z nazorati ostida ushlab turgan. U faqat mansabdorlarning suiiste’molchiliklarini, xatolarini aniqlash huquqigagina emas, balki bevosita ularni tuzatish, mansabdorlarga nisbatan jazo choralarini qo‘llash huquqiga ham ega edi.

Mahalliy boshqaruv

Tan imperiyasi o‘nta provinsiya (dao)ga, provinsiyalar esa viloyat (chjou)lar va uyezd (syan) larga bo‘lingan. Barcha ma’muriy birliklar soliqlar to‘lash miqdori bo‘yicha bir-biridan farq qilgan va tegishlicha toifalarga ajratilgan. Bu ularning huquqiy maqomini va markazdan tayinlanadigan nazorat qiluvchi mansabdorlar miqdorini ham belgilanishiga ta’sir etardi.

Min sulolasi davrida ham Xitoyning ma’muriy-hududiy bo‘linishi yuqoridagi prinsiplar asosida tashkil etilgan edi. Lekin harbiy byurokratik apparat va uning organlarining faoliyati mahalliy joylarda ham, umumimperiya darajasida ham ancha murakkablashtirilgan edi. Bu davrda mahalliy organlarning imperator oldidagi o‘zaro javobgarligi, bo‘ysunishi va nazorat qilinishi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar shakllangan edi. Mahalliy boshqaruv shunday tuzilgan ediki, bunda separatizm (ajralib chiqishga qaratilgan harakat), hokimiyatning bir kishi qo‘lida to‘planishi istisno qilinardi, mahalliy boshqaruv organlarining faoliyati nafaqat muntazam tekshirib turilardi, balki qayta tekshirilardi.

Provinsiyalarda boshqaruv organlarining ma’muriy, harbiy va nazorat-tekshiruvdan iborat uchlik tizimi mavjud edi. Ularning tepasida markazning vakillari, oliy darajali mansabdorlar turardi. Bu boshqaruv organ-

larining faoliyatini muvofiqlashtirish uchun, shuningdek, ular ustidan nazorat qilib turish uchun markazdan mamlakatning turli qismlariga imperiyaning maxsus vakillari yuborilardi. Bular «tinchlik elchilari» deb atalardi. XV asrdan boshlab ular «buyuk muvofiqlashtiruvchilar» degan nom olgan va imperator tomonidan provinsiyalarga, shuningdek, alohida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan mintaqalarga uzoq muddatlarga tayinlanadigan bo‘ldi. «Buyuk muvofiqlashtiruvchi» hisobot berish va kundalik ishlarni hal qilish uchun yiliga bir marta poytaxtga kelishi lozim edi. Bu vaqtda «Oliy qo‘mondonlar» instituti shakllana boshlagan. Ular «buyuk muvofiqlashtiruvchilar» faoliyatini, ayniqsa, tashqi hujum yoki isyon xavfi tug‘ilganda qator provinsiyalarning harbiy boshqarmalarini muvofiqlashtirganlar.

Har bir provinsiyada ma’muriy boshqaruv ikki - «chap» va «o‘ng» vakillarga yuklangan. Ularning o‘z yordamchilari bo‘lgan. «Chap» va «o‘ng» vakillar zimmasiga aholini va yerlarni hisobga olish, soliqlar yig‘ish, qurilish ishlarini va suvlarning taqsimlanishini kuzatib turish majburiyatlari yuklangan edi.

Provinsiyalardagi uchta boshqaruv xizmati orasida nazorat boshqarmasi alohida mavqega ega bo‘lgan. U butun mahalliy boshqaruv apparatini nazorat qilgan, korrupsiya va mansabdor shaxslarning suiiste’molliklariga qarshi kurash olib borgan. Unga ham, boshqa boshqarmalar singari, sud funksiyalari tegishli edi. Bu boshqarma boshqa boshqarmalarda sud ishlarining hal qilinishini nazorat qilib, apellyatsion sud vazifasini bajarardi.

Mahalliy boshqaruvda imperiya organlari tomonidan yuborilgan ko‘p sonli mansabdorlar faoliyat ko‘rsatgan. Masalan, har bir provinsiyaga imperiya senzoratidan bir yilga maxsus vakil jo‘natilardi. Undan butun mahalliy xizmatlarni nazorat qilish, aholidan shikoyatlar qabul qilish, u yoki bu mahalliy boshqaruv organlari harakatini to‘xtatish yoki tuzatish, mahalliy amaldorlar faoliyati haqida imperatorga dokladlar jo‘natish, mahalliy hukmdorlarga va «buyuk muvofiqlashtiruvchilar»ga maslahatlar berish talab qilingan. Poytaxtdan joylarga ancha tor doiradagi vazifalar bilan senzorlar ham jo‘natilardi. Masalan, harbiy sohada nazorat uchun yuborilgan senzorlar rekrut yig‘inini kuzatib turishlari, xizmatdan bosh tortganlarni ta’qib qilishlari, agar harbiy harakatlar boshlangan bo‘lsa, harbiy operatsiyalarning borishini kuzatib turishlari, imperatorlarga tegishli hisobotlar jo‘natishlari lozim edi.

Xitoyda butun o‘rta asrlar mobaynida quyi hududiy birliklarda o‘zini o‘zi boshqarish organlari saqlanib qolgan edi. Jamoalarning oqsoqollari jamoat tartibini, yerlarning ishlanishini kuzatib turardilar. Qishloq jamoa-

sining hamma a’zolari soliqlar yig‘ish, mehnat majburiyatlarini o‘tash va boshqa maqsadlarda o‘nta-o‘nta tomorqaliklarga ajratilgan edi. Shu tariqa ularning bir-biriga kafilligi ta'minlanardi.

Min imperiyasi tarkibiga o‘lka knyazliklari kirardi. Ular imperatorning o‘g‘illari va nevaralariga berib qo‘yilardi. O‘lkalarning knyazlari ma’muriy hokimiyatga ham, sud hokimiyatiga ham ega emas edilar. Ular ba’zi davrlarda faqat harbiy vakolatlar olardilar. Mahalliy soliqlarning ma’lum qismi ularga kelib tushardi. Imperiyada boshqa xalqlarning vakillari yashaydigan ba’zi provinsiyalar o‘zini-o‘zi boshqarish huquqidan foydalangan. Xitoyning janubiy-g‘arbiy chegaralari bo‘ylab joylashgan bu hududlarning mahalliy boshliqlari imperator tomonidan tasdiqlangandan keyin hukmdor bo‘lib qolaverganlar. Ular shu tariqa mahalliy amaldorlarning alohida guruhini tashkil etib, unvonlar bilan taqdirlanardilar, lekin imperatordan maosh olmasdilar.

Sud

O‘rta asrlar Xitoyida sud ishlari ham sud organlarida, ham sud funksiyalarini bajaruvchi ma’muriy organlarda ko‘rib hal qilingan. Min sulolasi davrida nisbatan izchil sud pog‘onasi tashkil topgan. Sudning eng yuqori pog‘onasida imperatorning o‘zi, eng quyi pog‘onasida qishloqning saylab qo‘yiladigan oqsoqoli turardi. Ko‘p sud ishlari uyezd boshlig‘i tomondan uyezd boshqarmalari (yaminlar)da ko‘rilgan. Ish bo‘yicha dalillar yetarli bo‘lmasa, ishni ko‘rish yo qoldirilgan, yoki jinoiy ish bo‘yicha maxsus tergovchi-sudyaga o‘tkazilgan (bu tergovchi-sudyaning martabasi uyezd boshlig‘ining martabasi bilan tenglashtirilgan edi). Og‘ir jinoyatlar - odam o‘ldirish, katta miqdordagi o‘g‘irlik, poraxo‘rlik bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar tegishli viloyat yoki provinsiyalardagi maxsus hukumat-sud organlariga kelib tushgan. Xususan, «ma’muriy ishlar boshqarmasi» ma’muriy ishlarning to‘g‘ri ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirgan; «Harbiy ishlar bo‘yicha boshqarma»da harbiy ishlar tekshirilgan; «Sud ishlarini ko‘rish bo‘yicha boshqarma»da aholining boshqa toifalariga oid ishlar ko‘rib hal qilingan. Bu sud asosan ko‘pgina sud ishlari uchun oxirgi bosqich hisoblangan. Agar ish viloyat yoki provinsiyada oxirigacha hal qilinmagan bo‘lsa, u holda ish poytaxtning u yoki bu sud-tergov organlariga yuborilgan. Min sulolasi davrida **Jazolar mahkamasi** (sin bu), **Katta haqiqat ibodatxonasi** (dalisa), **Markaziy taftish-tergov jinoiy sud** poytaxtning ana shunday sud-tergov organlari hisoblanardi. Markaziy taftish-tergov jinoiy sud o‘ta murakkab ishlarni ko‘rib hal qilardi. Bu yerda qaror imperator nomidan chiqarilardi. O‘lim jazosi haqidagi barcha hukmlar imperatorga ma’lum qilinardi. Imperator amnistiya e’lon qilish, shuningdek, jazoni yumshatish huquqiga ega edi.

Armiya

Xitoyda armiyani tashkil etish prinsiplari o‘rta asrlarning turli bosqichlarida ichki va tashqi omillar ta’sirida o‘zgarib turgan.

Tan imperiyasida erkaklar 60 yoshga to‘lgunga qadar harbiyga majbur bo‘lganlar va armiyada xizmat o‘tashga jalb qilinganlar. Jang vaqtida urushni tashlab qochish, harbiy yurishdan bo‘yin tovlash uchun o‘lim jazosi berilgan.

VIII asrdan boshlab imperatorlar ko‘proq yollanma qo‘shinlardan, shuningdek, turklar, uyg‘urlar va boshqalardan tuzilgan otliq askarlardan foydalana boshladilar. XI asrda imperatorning birinchi ministri Van An-shi (1021-1096 yillar) ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan birga harbiy islohotlar ham o‘tkazib, yollanma armiya o‘rniga umumiy harbiy majburiyat joriy qilmoqchi bo‘ldi. Asosiy qo‘shin dehqon lashkarlaridan iborat bo‘lishi kerak edi. Har uch xonadondan biri bitta piyoda askar, o‘n xonadondan biri bitta otliq askar berishi kerak edi. Shu tariqa, qo‘shinlarning rekrut yig‘ini yordamida doimiy armiya tashkil etilgan va u davlat tomonidan ta'minlab turilgan. Rekrut yig‘ini Xitoyda uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan edi.

Min imperiyasi davrida «okrug qo‘shinlari» va chegara gornizonlarining eski tizimi saqlanib qolgan edi. Bu qo‘shinlarning asosiy tarkibi o‘zining chek yeriga ega bo‘lgan, juda qariguncha va ba’zan o‘lgunicha xizmat o‘taydigan harbiy ko‘chmanchilardan iborat edi.

Doimiy qo‘shinlar hamma davrlarda mahalliy harbiy otryadlarning, tartibni qo‘riqlashga chaqirilgan jamoa harbiy qismlarining ko‘magiga tayanardi. Bu otryadlar asosan boy dehqonlardan iborat bo‘lib, dehqonlar qo‘zg‘olonlari vaqtida ayniqsa faol harakat qilardilar. Min sulolasi imperatorlari ittifoqchi davlatlarning yordamchi harbiy qismlaridan ham keng foydalanganlar. Bunday harbiy qismlar yo yollanardi, yoki front rayonlarida xizmat o‘tashga majbur qilinardi.

Min sulolasi davrida armiya to‘xtovsiz o‘sib bordi, XVII asrda u 4 million kishini tashkil etdi. Mintaqaviy harbiy qo‘shilmalar provinsiyalar va hayotiy muhim harbiy viloyatlar bo‘yicha joylashtirilgan edi. Tayanch harbiy qo‘shilmalardan vaqti-vaqti bilan poytaxtda xizmat o‘tovchi maxsus qo‘shinlar tanlab olinardi va maxsus tayyorlanardi. Ularning orasida imperator saroyini qo‘riqlashga safarbar qilingan imperatorning shaxsiy gvardiyasi alohida ajralib turardi. Harbiy birikmalarning yana bir maxsus toifasini har bir shahzodani kuzatib turuvchi harbiy soqchilar otryadi (eskort) tashkil etardi.

Boshqarish maqsadlarida barcha harbiy qo‘shilmalar beshta harbiy okrug o‘rtasida taqsimlangandi. Ularga poytaxtdagi bosh harbiy komis-

sarliklar rahbarlik qilardi. Bosh harbiy komissarliklarning boshliqlari harbiy-hududiy okruglar ustidan nazoratni amalga oshirar va hukumat tarkibiga kirardilar.

Armiyaning doimiy bosh qo‘mondoni bo‘lmagan. Urush harakatlari boshlangan hollarda oliy harbiy amaldorlardan yoki mansabdorlardan biri general yoki hatto generallissimus etib tayinlanardi. Biroq, asta-sekin doimiy taktik qo‘mondonlik tizimi rivojlanib borgan. Bunda shaxsiy tarkib chegaralar, portlar va boshqa strategik punktlar bo‘ylab to‘planardi.

Min sulolasi davrida Xitoyning mahalliy qo‘shinlar qo‘mondonlari markazdan ma’lum muddatga tayinlanadigan maxsus mansabdorlar tomonidan nazorat qilingan. XV asrda barcha mahalliy taktik harbiy xizmatlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi «bosh harbiy muvofiqlashtiruvchi» mansabi joriy etildi.

4. O‘rta asrlarda Xitoy huquqining asosiy belgilari

Huquq manbalari

O‘rta asrlarda Xitoyda huquqning rivojlanishi asosan jinoiy-huquqiy normalarni ishlab chiqish, tabaqaviy-darajaviy farqlarni, aholining soliq majburiyatlarini, davlat yerlarini ushlab turuvchilarining turli toifalarini, shuningdek, davlat mulkini saqlash uchun, davlat xazinasini to‘ldirish uchun Mas’ul bo‘lgan shaxslarning majburiyatlarini tartibga solish yo‘lidan bordi. Bularning hammasi o‘zaro bir-biriga bog‘liq normalar bo‘lib, ko‘p sonli huquqiy yodgorliklarning, sulolalarning kodekslar deb nom olgan qonunlar to‘plamlarining mazmunini tashkil etdi.

Sulolaviy qonunlar to‘plamlarining o‘zak normalarini sulolaning asoschilari yaratgan edi (bunday normalar vaqt o‘tishi bilan ilohiy o‘rnatilganlik belgilariga ega bo‘lib borgan). Sulolaning vorislari esa bu o‘zak normalarni takomillashtira borib, o‘z qonun hujjatlari bilan kengaytirganlar, to‘ldirganlar.

Xandan boshlab qonunlar to‘plamlari an’anaviy-huquqiy normalar - **lyuy**ning barqaror o‘zagini o‘zgarishsiz mustahkamlash asosida tuzilgan. Lyuy yangi normalar - **lin** bilan to‘ldirib borilgan. Asta-sekin lyuy va lin o‘rtasida huquqiy tartibga solish sohasi bo‘yicha ajralish yuz bergan. Lyuy jinoiy qonunlarni, **lin** - ma’muriy qarorlar va boshqalarni o‘z ichiga olgan.

Suy (VI asr) va Tan (VII asr) sulolalarining hukmronligi davrida Xitoyda qonunlarni tizimga solish bo‘yicha katta ishlar amalga oshiriladi. Suy sulolasi davrida (581-618 yillar) va Tan hukmronligining dastlabki davrida kodekslar har bir podsholik tomonidan qaytadan ko‘rib chiqilgan.

«Deyarli har bir sulola, - deb yozadi A.I.Rogojin va Straxovlar - taxtni egallagandan keyin harakatdagi qonunni tartibga solish va yangilashni o‘zining vazifasi qilib qo‘yadi»[131]. Bizgacha yetib kelgan birinchi qonunlar to‘plami -VII asrdagi Tan sulolasi kodeksi - «Tan lyuy shui» hisoblanadi. Bu qonunlar to‘plamida qonunlarning to‘rtta turkumi: **lyuy** - jinoyat qonunlari; **lin** - ma’muriy qonunlar; **ko** - jinoyat va ma’muriy qonunlarga qo‘shimcha; **shi** - qonunlarni qo‘llash haqidagi qoidalar o‘rnatiladi.

Sun imperiyasi davrida markaziy hokimiyatning kuchayishi munosabati bilan imperatorlarning qonun chiqarish faoliyati yangidan faollashadi. 960-963 yillarda «Jinoyat qonunlarining tuzatilgan va qayta ko‘rib chiqilgan to‘plami» tuziladi. U Tan kodeksini deyarli to‘liq takrorlaydi.

Joriy qonunlarning ancha ko‘payishi munosabati bilan keyingi yillarda ham qonunlar va qarorlarni tasniflashtirish ishlari davom etadi. XI asr oxirida Xitoyda qonunlarni qayta ko‘rib chiqish va tasniflashtirish bo‘yicha maxsus byuro tuziladi. U, jumladan, «900 ta moddadan iborat qonunlar to‘plami»ni tayyorlaydi. XIV asrning oxirida «Min sulolasi qonunlari to‘plami» dunyoga keladi. U oldingi kodekslarning ko‘p qoidalarini xuddi o‘zidek qaytargan. Shu narsa xarakterliki, bu amaliyot Xitoyda manchjurlarning Sin sulolasi (1644-1912 yillar) o‘rnatilgandan keyin ham o‘zgarishsiz qoladi. Pekin manchjurlar tomonidan bosib olingandan keyin, 1644 yildayoq Min kodeksiga yangi siyosiy shart-sharoitlarga mos tuzatishlar va o‘zgartirishlar kiritish maqsadida uni o‘rganish ishlari boshlab yuborilgan edi.

Manchjurlarning saroy amaldorlari va sudyalari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida 1647 yilda Kodeks tuzilgan. Uning juda ko‘p qoidalari eski Min sulolasining kodeksidan o‘zlashtirilgan edi. Bundan tashqari, unda Min kodeksining asosiy, tub qoidalari (lyuy)ni o‘zgartirishga ruxsat etilmagan edi. Sin kodeksining 300 dan ortiq qoidalari Min kodeksining qo‘shimcha qoidalaridan olingandi. Bularga o‘z navbatida Tan kodeksining ko‘p qoidalari hech qanday o‘zgarishlarsiz kiritiladi. XVII asrda eski kodekslar asosida tuzilgan Manchjurlarning kodekslari deyarli hech qanday o‘zgarishsiz Xitoyda XX asrning boshiga qadar harakatda bo‘ldi hamda Xitoy an’anaviy huquqining prinsip va normalarining mazmunini belgiladi.

O‘rta asrlarda Xitoy huquqida qadimdan an’ana bo‘lib qolgan bir qator belgi va xususiyatlar saqlanib qolgan edi. Xususan, bunda axloq nor-

[131] История государства и права зарубежных стран. (Рабовладельческое и феодальное право).-М.: Госюриздат, 1980.-524-bet.

malari (li) va qattiq huquqiy normalar (fa) o‘zaro bog‘liq harakat qilgan. Masalan, Tan kodeksida 60 dan ortiq holatlarda axloq normalariga, konfutsiylik asarlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri havolalar qilinadi. Shu bilan birga, Kodeks birgalikdagi (jamoaviy) javobgarlik haqidagi, chaqimchilik (zimdan beriladigan xabarlarning) taqdirlanishi haqidagi va boshqalar to‘g‘risidagi legistlarning talablaridan kelib chiqadi. Shuningdek, konfutsiylik ta’limotining huquqqa ta’siri o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmadi. Masalan, Konfutsiylik ta’limotiga binoan, mahkumning o‘z ota-onasi va qarindoshlari ustidan chaqimchiligi muqaddas «syao» prinsipining buzilishi hisoblanadi. Aynan mazkur ta’limotning bevosita ta’sirida Tan kodeksida birinchi va ikkinchi avlodga oid to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarindoshlar ustidan chaqimchilik qilish uchun o‘lim jazosi nazarda tutilgan.

Bu andazaning amal qilishiga legizmdan kelib chiqadigan ommaviy ongning boshqa belgisi ham bog‘liq. Qonunning asosiy maqsadi - shaxs erkinliklari sohasini tartibga solish emas, balki kattalarga, hukmdor irodasiga bo‘ysunishning an’anaviy prinsiplarini to‘ldiruvchisini ta’qib qilish, jazolash bo‘lgan.

Xitoyda jinoyat huquqi boshqa huquq sohalariga qaraganda ko‘proq rivojlangan. Jinoyat huquqi normalari o‘rta asrlar Xitoyi huquqi tizimida bosh o‘rinni egallaydi. Jinoyat huquqining ko‘p normalari faqat jinoyat sodir etilgandagina qo‘llanilmay, balki oddiy axloq normasini mavhumiy buzish: «qilish mumkin bo‘lmagan narsani qilishlik» uchun kaltak bilan urish jazosining nazarda tutilganligi an’anaviy huquqiy ong tantanasiga misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kishilarning jinsi, yoshi, qarindoshlik munosabatlarida tutgan o‘rniga qarab har qanday axloqsizlik xatti-harakatlarining baholashga bevosita ta’sir etadigan qattiq huquqiy daraja an’anaviy huquqda ijtimoiy-sinfiy farqlarni xas-po‘shlagan, jinoyat huquqiga og‘ishmay amal qilish talab qilinadigan umummilliy manfaatlar himoyachisi sifatida qarashni shakllantirgan.

Erkin kishi ham, qul ham jinoyat sub’yekti bo‘lishi mumkin edi. Kodeksda maxsus ko‘rsatilmagan hollarda shaxsan erkin bo‘lmagan kishi - butsuy erkin kishi sifatida sud javobgarligiga tortilardi. Lekin bu holat ko‘p turdagi jinoyatlar uchun jazo qo‘llashda alohida tabaqaviy prinsipni istisno qilmagan. Shaxsan erkin bo‘lmagan kishilar ham jinoyatning sub’yekti sifatida qaralishi mumkin edi.

Jinoyat huquqining umumiy prinsiplari haqida gap ketganda shuni ta’kidlash joizki, Xitoy qonunlari qator hollarda ayb shakllari: qasd va

ehtiyotsizlikni hisobga olardi, lekin har doim ham emas. Axloq normalari bilan huquq o‘rtasidagi chegaralarning rasman aniqlanmaganligi va buning oqibatida qonunda aniq ifodalangan huquqiy tushuncha, ta’riflarning yo‘qligi huquqda ayb shakllarining aniq ajratilishiga to‘sqinlik qilgan, jazolar tayinlashda ko‘pincha «bilmaslik», «atayin qilinmaganlik», «e’tiborsizlik», «esdan chiqqanlik», «xato qilganlik» kabi tushunchalardan foydalanishga sabab bo‘lgan. Bu tushunchalardan qadimgi davrlardayoq afv etish asosi sifatida foydalanilgan.

III-IV asrlarda huquqiy ta’limot jinoyat sodir etish rejasini tuzishni jinoyatga qasd qilishning asosiy ko‘rsatkichi sifatida hisoblay boshladi. Qasd qilingan jinoyat Tan kodeksi bo‘yicha faqat reja tuzish bilangina emas, balki ikki yoki undan ortiq kishining oldindan kelishuvi bilan ham ajralib turgan.

Xitoy qonunlarida, jumladan, Tan kodeksida hali zaruriy mudofaa instituti ishlab chiqilmagan edi. Lekin ota yoki onasini himoya qilgan o‘g‘il, buva yoki buvisini himoya qilgan nevara birovga yetkazgan tan jarohati uchun va hatto buning natijasida birovni o‘ldirib qo‘yganligi uchun ham javobgarlikka tortilmagan. Xuddi shuningdek, xo‘jayinning buyrug‘i bilan jinoyat sodir qilgan xizmatkorlar ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan. Chunki bunday jinoyatlarni sodir qilish ularning jinoiy irodasi tomonidan buyurilmagan.

«O‘g‘illik diyonati» talabi yuqoridagi normalarning Xitoy qonunchiligida XX asrga qadar o‘zgarishsiz saqlanib qolishga sabab bo‘lgan. Shuningdek, qonunlarda o‘z yaqin qarindoshlari ustidan chaqimchilik qilish jinoyat deb tan olinishi haqidagi va jinoyat sodir etgan oila a’zolarini yashirganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinishi haqidagi normalar ham Xitoy xujjatlarida XX asrgacha saqlanib qolgan edi.

O‘rta asrlar Xitoyi huquqiga aybni yengillashtiruvchi holatlar ham ma’lum. Tan kodeksi bo‘yicha, odatda, uchta toifadagi shaxslar: «qarilar va kichiklar», shuningdek, nogironlarning qilgan jinoyatlari uchun jazo yumshatilishi mumkin edi. Biroq, ko‘pincha jinoyatchining bolalari qullikka sotilardi. Ayollar qatl etilishi mumkin edi, lekin surgun qilinmasdi. Homilador ayolni qatl etish bolasi tug‘ilgach 100 kundan keyin amalga oshirilishi lozim edi.

Xitoy an’anaviy huquqida konfutsiylik ta’limoti nuqtai nazaridan jinoyatlarni ularning ijtimoiy xavfliligiga qarab tasniflashtirish juda qadimgi davrlardayoq vujudga kelgan va bu asrlar mobaynida yashab kelayotgan ***«O‘nta yovuzlik» kontsepsiyasi*** asosida amalga oshirilgan. Bunda diniy marosim jinoiy tajovuz ob’yekti sifatida chiqqan. Bu bo‘ysunmaslik,

o‘g‘ilning ota-onaga quloq solmasligi, ota-onasi bilan kelishmovchiligi va boshqa shakllarda buzilishi mumkin edi. Bularning hammasi jinoiy-huquqiy normalarning nihoyatda mujmal, noaniq ekanligini belgilash, sudyalarga jinoyatlarning og‘irlik darajasini mustaqil va erkin baholash, amalda har qanday jinoyatga u yoki bu turkumdagi taomil, odat deb qarash imkonini bergan. «O‘nta yovuzlik»ning bu xususiyatlari Xitoyda hamma asrlarda qadrlangan. Natijada Xitoyda huquqiy normalarning keng sharhlanishiga yo‘l qo‘yilmagan, yozilgan qonunga nisbatan chuqur hurmat qaror topmagan.

«O‘nta yovuzlik»dan birinchisiga «podshohga qarshi isyon, fitna» taalluqli edi. Bu turkum jinoyatlarga imperatorga har qanday tarzda zarar yetkazish haqidagi til biriktirishlarni kiritish mumkin edi. Ushbu turkumdagi jinoyatlarda asosiysi - jinoiy tajovuzning imperatorga, «osmon o‘g‘li»ga, tabiiy «osmon» qonunlariga qarshi qaratilganligi edi. Yovuzlikning keyingi ikki shakli ham xuddi shu tarzda talqin qilingan. «Buyuk bo‘ysunmaslik», mavjud tartiblar va axloqqa qarshi isyon ko‘tarish ***ikkinchi yovuzlik*** hisoblangan. Bu turkumdagi jinoyatlarga imperator avlodlarining maskanlari va qabrlarini yoki imperatorning qarorgohini buzishga qasd qilish, harakat qilish kabilar kirgan. ***Uchinchi yovuzlik*** - «fitna, xiyonat» imperatorga, davlatga xiyonat qilish, dushman tomoniga o‘tish, isyon ko‘tarish, mamlakatdan qochish yoki qamal qilingan shahardan qochishga harakat qilish kabi jinoyatlarni o‘z ichiga olgan.

Yuqoridagi uchta yovuzlikka oid jinoyatlarni sodir qilgan shaxslar, shuningdek, ularning oila a’zolari «fuqarolik majburiyatini bajarmaganlar» deb hisoblangan. Jinoyatchilar, ularning otalari va 16 yoshdan katta o‘g‘illari o‘limga mahkum etilgan, ya’ni ularning boshi tanasidan judo qilingan. Jinoyatchining oilasidagi ayollar (onasi, turmushga chiqmagan qizlari, xotinlari, jazmanlari - xizmatchilari bilan birga) qullar sifatida musodara qilingan.

«O‘nta yovuzlikka» kiradigan boshqa jinoyatlar ham yovuzlikning dastlabki uchta shakli bilan mantiqan bog‘liq bo‘lgan.

To‘rtinchi yovuzlik - «bo‘ysunmaslik, itoat etmaslik» yaqin qarindoshlarga qarshi qaratilgan jinoyatlarni o‘z ichiga olgan. Bunday jinoyatlarga buvasi, buvisi, ota-onasini o‘ldirish yoki urush-do‘pposlash, ularni o‘ldirish haqida qasd qilish, katta akalarini, opalarini, erining (xotinining emas) yaqin qarindoshlari (ota-onasi, buva yoki buvisi)ni o‘ldirish kabilar kirgan.

Beshinchi yovuzlik - «adolatsizlik, axloqsizlik» bo‘lib u ashyolarning tabiiy tartibiga zid xatti-harakatlarni, o‘ta shafqatsizlik bilan, yovuzlik

bilan qilingan jinoyatlarni anglatgan. Xususan bunga bir oiladan uch kishini (agar ular o‘lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar sodir etmagan bo‘lsa) o‘ldirish yoki o‘ta shafqatsizlik bilan jinoyat sodir etish, masalan, odamni bo‘laklarga bo‘lib o‘ldirish, shuningdek, barcha turdagi sehrgarlik-jodugarlik xatti-harakatlari, jumladan, zahar tayyorlash, saqlash hamda boshqa shaxslarga o‘tkazish kabilar kirgan.

Oltinchi yovuzlik - «buyuk narsaga itoatsizlik bildirish» bo‘lib, unga **li** tomonidan taqiqlangan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan cheklashlarning buzilishi bilan bog‘liq jinoyatlar kirgan. Ularning qatoriga, masalan, ibodat qilinadigan narsalarni, shuningdek, imperator tomonidan foydalaniladigan ashyolar (imperatorning muhri, uning xotinlari, ota-onasi, buva-buvisining muhrlari)ni o‘g‘irlash, imperator uchun ovqat, dori-darmon tayyorlash chog‘ida xatoga yo‘l qo‘yish, uning nomini yomonlab gapirish kabilar kirgan. Imperatorning sog‘lig‘iga tajovuz qiluvchi yoki unga ma'naviy yoki moddiy zarar keltiruvchi (masalan, uning farmonini bajarmaslik yoki soxtalashtirish) xatti-harakatlarni sodir etgan barcha shaxslar osib o‘ldirilgan. Bunda gap ushbu harakatning ehtiyotsizlik, xato qilishi natijasida sodir qilinishi to‘g‘risida bormoqda. Aks holda, yuqoridagi jinoyatlar birinchi yovuzlik toifasiga taalluqli bo‘lgan.

Yovuzlikning yettinchi, sakkizinchi, to‘qqizinchi va o‘ninchi shakllari ijtimoiy tartibning asosi sifatida qaralganda oiladagi axloqiy tartibni u yoki bu darajada himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan. ***Yettinchi yovuzlik*** - «o‘g‘illarning itoatsizlik bildirishi», ota-onasiga bo‘ysunmasligi bo‘lib, unga masalan, buvasini, buvisini, ota-onasini nojo‘ya, yomon harakatlarda ayblash, ularni so‘kish, haqoratlash, yomon boqish, ularning roziligisiz oiladan ajralib chiqish va mol-mulkni bo‘lish, motam vaqtida nikohga kirish yoki bu vaqtda motam kiyimlarini kiymay, boshqa liboslarda yurish va hokazo jinoyatlar kiritilgan.

Sakkizinchi yovuzlik - yaqin qarindoshlar orasidagi «kelishmovchilik, qarama-qarshilik» bo‘lgan. Bu turkum jinoyatlarga yaqin qarindoshni o‘ldirishga qasd qilish yoki qullikka sotishdan tortib to xotinning erini urishi va katta avlod qarindoshlari ustidan chaqimchilik qilishgacha bo‘lgan keng doiradagi jinoiy xatti-harakatlar kirgan.

To‘qqizinchi yovuzlik - «adolatsizlik, nohaqlik» hisoblanib, u oilaviy emas, rasman, ijtimoiy-ierarxik rishtalar bilan bog‘liq kishilarning bir-biriga qarshi sodir qilgan jinoyatlarini o‘z ichiga olgan. Masalan, bo‘ysunuvchi shaxsning o‘z xo‘jayinini, qo‘mondonini, konfutsiylik axloqi bo‘yicha o‘qituvchi-ustozini o‘ldirishi kabilar ana shu yovuzlik turkumiga kiruvchi jinoyatlar hisoblangan. Bunga yana xotinning eriga nisbatan turli shakllar-

da ifodalangan bo‘ysunmasligi, masalan, eri yoki uning qarindoshlari vafot etganda motam libosini kiyib yurmasligi va boshqalar ham taalluqli bo‘lgan.

Yaqin qarindoshlarning o‘zaro jinsiy aloqalari ***«o‘ninchi yovuzlik»*** hisoblangan. Bu «qushlar va hayvonlarning» xatti-harakatiga tenglashtirilgan. Bunda faqat yaqin qarindoshlar bilan emas, buva yoki otasining jazmani bilan jinsiy aloqa qilish ham shunday jinoyat tarkibini tashkil etgan.

O‘nta yovuzlikka kirgan jinoyatlar kechirilmagan. Sin qonunlariga asosan katta amaldorga tegishli odamlar, imperatorlar hurmatiga sazovor bo‘lganlar, olimlar, harbiy xizmatlari uchun nomlari hurmat kitobiga kiritilgan kishilar hamda so‘zlari, qilgan ishlari jamiyatda qonundek qabul qilingan kishilar bundan mustasno. Qo‘zg‘olonlarda qatnashgani va xiyonat qilgani uchun faqat jinoyatchining o‘zi emas, hatto uning qarindosh-urug‘lari ham jinoiy javobgarlikka tortilib, ularning boshi tanasidan judo qilingan. Bunday jazoga 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar va ayollar tortilmagan, ular qullikka berilgan.

«O‘nta yovuzlik» barcha jinoiy harakatlarni qoplamagan. Ular boshqa jinoyatlarga nisbatan o‘ziga xos mezon bo‘lgan. Boshqa jinoyatlar orasida hamma davrlarda muayyan insonga, uning hayotiga, sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlar va boshqalar ajralib turgan. Ushbu jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda Xitoy an’anaviy huquqida qator omillar: jinoyatchi va jabrlanuvchining ijtimoiy ahvoli, qarindoshlik aloqasi, hamda shiddatliligi va boshqa holatlar hisobga olingan. Qasddan odam o‘ldirish uchun eng og‘ir jazo - boshini tanasidan judo qilish jazosi nazarda tutilgan. Erkin kishi birovni «xato qilib», masalan, o‘yin vaqtida o‘ldirib qo‘ysa, jazodan pul to‘lab qutilishi mumkin bo‘lgan. Qullar va butsuylar (qaram kishilar) ning o‘z xo‘jayinini o‘ldirish uchun faqat til biriktirishining o‘ziyoq ularga nisbatan oliy jazo - o‘limga mahkum etish jazosi qo‘llanilishiga olib kelgan. Agar xo‘jayin o‘zining ayb qilgan quli yoki butsuyini o‘ldirsa, u Tan kodeksi bo‘yicha yo‘g‘on kaltak bilan 100 marta urilgan. Agar xo‘jayin tomonidan o‘ldirilgan qul yoki butsuy aybsiz bo‘lsa, u holda xo‘jayin bir yilga katorgaga juda og‘ir ishlarga jo‘natilgan. Agar xo‘jayin o‘z quli yoki butsuyini «xatoga yo‘l qo‘yish orqali» o‘ldirib qo‘ysa, umuman jazolanmagan.

Birovga tan jarohati yetkazganlik uchun jazo berishda ham yuqoridagi holatlar hisobga olingan, lekin bunda yengilroq jazo chorasi qo‘llanilgan. O‘z xotiniga jarohat yetkazgan er, boshqa birovga jarohat yetkazganga qaraganda, yengilroq jazoga tortilgan. Jazmaniga jarohat yetkazgan erkak esa umuman jazolanmagan.

Tan kodeksida shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarga erkin kishilarni qullikka sotishning ko‘p holatlari kiritilgan. Bunda jabrlanuvchi va jinoyatchining yoshi, jinsi, qarindoshlik aloqasi hisobga olingan.

Shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar ko‘pincha mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar bilan birga kelgan. Mulkiy jinoyatlardan o‘g‘irlik va turli xil mulklarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘zlashtirish alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bu jinoyatlar xususiy mulkka yoki davlat mulkiga, shuningdek, xususiy shaxslarga yoki mansabdor shaxslarga qarshi qaratilganligiga qarab tasniflashtirilgan. Bunda mulkni g‘ayriqonuniy o‘zlashtirish usullari: talonchilik, o‘g‘irlik, poraxo‘rlik, ma’muriyatchilik huquqlaridan foydalanib mulkni o‘zlashtirish va xizmat mavqeidan foydalanib mulkni g‘ayriqonuniy o‘zlashtirish ham hisobga olingan. O‘g‘irlik mulkni yashirincha talon-taroj qilish bo‘lib, buning uchun yo‘g‘on tayoq bilan urish jazosi tayinlangan. Bosqinchilik birovning mol-mulkini do‘q-po‘pisa qilib yoki kuch ishlatib ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish hisoblangan.

Jinoyatlarning alohida guruhini turli shakllarda g‘ayriqonuniy boyish, mulkni aldash, qo‘rqitish yo‘li bilan qo‘lga kiritish, kuch ishlatib zo‘ravonlik bilan yoki haddan ortiq darajada foyda olish bilan sotib olish kabilar tashkil etgan. Shu tariqa, jinoyat va shartnoma shartlarini buzish o‘rtasidagi chegaralar yuvilib ketgan. Zero, bu an’anaviy huquqqa xos jihat bo‘lib, unda umumiy va xususiy manfaatlar sohasi o‘rtasida aniq farqlar ajratilmagandi.

Jazo tayinlashda o‘g‘irlangan narsaning bahosi ham hisobga olingan. Juda katta miqdordagi o‘g‘irlik uchun Tan kodeksi bo‘yicha qo‘shimcha katorga ishlari bilan birga surgun qilish va o‘g‘irlangan ashyoning ikki baravari miqdorini undirish jazosi nazarda tutilgan. Davlat mulkini o‘g‘irlaganlik uchun og‘irroq jazo, qarindoshlarining mulkini o‘g‘irlaganlik uchun esa yengilroq jazo chorasi qo‘llanilgan. Birovning mulkiga zarar yetkazish o‘g‘irlik bilan teng hisoblangan. O‘t qo‘yish, birovning yer maydonini suvga bostirish qattiq jazolangan.

Qaroqchi va talonchilarning ham boshi kesilgan. Odamlarni o‘g‘irlash, ayniqsa ayollarni o‘g‘irlab ko‘ngil ochish maskanlariga sotish jinoyatlar ichida ajralib turgan. Ajralib chiqmagan katta oilalarning bir necha a’zolari tomonidan qilingan o‘g‘irlik uchun shu oilaning boshlig‘i javobgarlikka tortilgan, qolganlari ishtirokchi sifatida jazolangan. Qarindosh-urug‘lar orasidagi o‘g‘irlik og‘ir jinoyat hisoblangan. Qonunlar bo‘yicha o‘g‘irlik va bosqinchilik bir-biridan farqlangan.

Bo‘ysunuvchi shaxsning boshliqqa, odiy kishini mansabdor shaxsga umumiy shaxsiy qaramligi prinsiplari turli xil mansabdorlik jinoyatlari-

ning, avvalo poraxo‘rlikning kelib chiqishiga zamin yaratgan. Poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo berishda mansabdor shaxsning «sovg‘a» olayotgan vaqtda qonunni buzgan yoki buzmaganligi, qilmishidan pushaymon bo‘-lishi, shuningdek, olingan poraning qiymati, bahosi inobatga olingan. Jinoyatda ikkala tomon - pora beruvchi ham, pora oluvchi ham aybdor hisoblangan.

Ko‘pdan-ko‘p huquqiy g‘ayriqonuniy yo‘llarning mavjudligidan davlatning mansabdorlik jinoyatlariga qarshi shafqatsiz, lekin muvaffaqiyatsiz kurash olib borganligidan boshqa misollar ham darak beradi. Masalan, Tan kodeksi bo‘yicha mansabdolarning, hatto u iste'foga chiqqandan keyin ham, o‘ziga bo‘ysunuvchi shaxsdan har qanday sovg‘a olishi mansabdorlik jinoyati hisoblangan. Lekin bo‘ysunuvchi shaxsning boshliqqa minnatdorchilik belgisi sifatidagi «motam va musibatli» kunlarida bergan «yordamlari», «ma’lum mezonlarga rioya qilgan holda» tekinga ishlab berishi jinoyat hisoblanmagan.

Jinoyat huquqida mansabdor shaxslarning qilgan jinoyatlari uchun beriladigan jazolar alohida o‘rin tutgan. Ular faqat jinoyalari uchun emas, hatto qilgan xatolari uchun ham qonun oldida javob berganlar. Boshliqlarga uning yordamchilari tomonidan qilingan qonunsizliklari uchun beriladigan jazo ko‘paytirilgan. Soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olishda qiladigan xatolar va o‘z mansabini suiiste’mol qilish davlat tomonidan qattiq ta’qib qilingan.

Xitoy qonunchiligi ma’muriy va jinoiy jazolarni bir-biridan ajratmagan. Ma’muriyat faoliyati sohasidagi har qanday tartibbuzarliklar: mansabdor shaxsning ishga kechikishi yoki kelmasligi (chiqmasligi) yoki davlat sirlarini oshkor qilishi jinoiy jazoga loyiq hisoblangan. Agar mansabdor shaxs bunday xatti-harakatni boshlig‘ining buyrug‘iga ko‘ra sodir qilgan bo‘lsa, jazoga tortilmagan.

Jinoyatlarning maxsus guruhini oiladagi axloq tartiblarini turlicha buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar, jinsiy jinoyatlar tashkil etgan. Jinsiy jinoyatlarga salbiy baho berishda jinoyatchining jinsi va jabrlanuvchi bilan qarindoshlik aloqalari tizimida tutgan o‘rni juda muhim mezon bo‘lib xizmat qilgan. Xitoy an’anaviy huquqida «O‘nta yovuzlik»ka kiruvchi jinoyatlar bilan bir qatorda xotinning eriga, erning xotiniga nisbatan xiyonati, mansabdor shaxsning o‘z ma’muriy hokimiyati ostidagi ayolni avrab yo‘ldan urishi, nomusiga tegishi, ayniqsa, qulning erkin ayolning nomusiga tegishi va boshqalar qattiq jazolangan. Agar xo‘jayin o‘z kanizagi yoki butsuyining qizi bilan jinsiy aloqa qilsa, jinoyat hisoblanmagan.

Jazolar asosiy, qo‘shimcha va o‘zgartiriladiganlarga bo‘lingan. Asosiy jazolarga katorga qilish, tayoq yoki qamchi bilan savalash, surgun qilish hamda o‘lim jazolari; boshqa jazolarga tamg‘alash, barmoq yoki qo‘lini kesish, axta qilish, avlodini qirish kabilar kirgan. Yovvoyi hayvonlar ovlanadigan provinsiyalarga surgun qilishlar ham qo‘llanilgan. Bundan tashqari, turli xil jarimalar, mol-mulkini davlat hisobiga musodara qilish, qullikka sotish kabi jazolar ham qo‘llanilgan. Qullar qilgan jinoyatlari uchun surgun qilinmagan, uning o‘rniga 200 marta qamchi bilan urilgan.

Shimoliy Vey sulolasi davrida (V asr) jazolarning boshini kesish, osib o‘ldirish, katorga ishlariga surgun qilish, surgun qilmay katorga ishlariga jo‘natish kabi turlari mavjud edi. Aynan shu vaqtdan e’tiboran tayoq bilan urish jazo sifatida qo‘llanila boshlangan. Suy davrida (VI asr) yo‘g‘on tayoq bilan urishga ingichka kaltak bilan urish qo‘shilgan. Tan kodeksi ming yildan ortiq vaqt mobaynida jazolarning beshta asosiy tizimini tartibga solib turgan. Ular: 1) ingichka kaltak bilan urish (besh darajali: 10 marta, 20 marta, 30 marta, 40 marta, 50 marta); 2) yo‘g‘on tayoq bilan urish (besh darajali: 60 marta, 70 marta, 80 marta, 90 marta, 100 marta); 3) katorga ishlari (uch darajali: 1 yilga, 2 yilga, 3 yilga); 4) surgun (joyning uzoqligiga qarab uch darajali: 2 mingdan 3 ming li[132]gacha); 5) o‘lim jazosi (ikki shaklda: boshini kesish va osib o‘ldirish)dan iborat. 623 yilda qo‘shimcha katorga ishlari bilan birga surgun qilish jazosi joriy qilingan. Buni o‘lim jazosiga almashtirish mumkin edi. X-XI asrlarda o‘lim jazosiga jinoyatchining murdasini bo‘laklarga bo‘lish jazosi qo‘shimcha qilingan.

Xitoy huquqi, shu tariqa, umrbod katorgani bilmaydi. Lekin ma’lum muddatli katorga erkin kishini amalda qulga aylantirar edi. Shuning uchun ham mansabdor shaxslar katorga ishlari bilan jazolanmasdilar. Mahkumlar surgun qilingan joyda odatda umrbod qolib ketgan, faqat Tan sulolasi davrida amnistiya bo‘yicha uyga ketishlari mumkin edi. Davlat qullariga surgun o‘rniga kaltak bilan urish jazosi qo‘llanilgan.

Konfutsiylik manbai bo‘lmish Li szidan sulolaviy kodekslarga yuqori ijtimoiy mavqedagi shaxslarga jazo berishning «sakkizta qoidasi» o‘tkazilgan. *Aslzoda shaxslarning sakkiz toifasi* (*birinchisi* - imperatorning qarindoshlari; *ikkinchisi*-imperatorning sodiq do‘stlari, «unga uzoq vaqt davomida xizmat qilganlar»; *uchinchisi* - «so‘zlari va xatti-harakatlari namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan oliyjanob kishilar»; *to‘rtinchisi* - «harbiy va davlat ishlarida qobiliyatli, iste'dodli kishilar»; *beshinchisi* – xizmat ko‘rsatgan harbiy xizmatchilar; *oltinchisi* - oliy martabali va darajali aslzoda mansabdorlar; *yettinchisi* - tirishqoq, g‘ayratli mansabdorlar va

[132] 1 ming li – taxminan 500 km.

sakkizinchisi - «mehmonlar», ya’ni podsholar sulolarining avlodlari o‘lim jazosiga loyiq qator jinoyatlarni sodir qilganida oddiy sudlar tomonidan sud qilinmagan. Bunda jazo tayinlash, jazoni yumshatish yoki jinoyatchini afv etish uchun bu toifa shaxslar imperatorning ixtiyoriga berilgan. Ular imperatorga pul (pora) berib jazodan qutulib qolishlari mumkin edi.

Jinoyat uchun jazolar haqidagi masala hal qilinayotganda boshqa toifadagi mansabdorlar ham imtiyozlardan foydalanganlar. Xitoyda jazolarning almashtirilishi tizimining mavjudligi sharofati bilan ko‘pgina mansabdor shaxslarga beriladigan katorga yoki surgun jazosi mansabi, martabasi, unvoni yo‘qotilishi bilan almashtirilishi mumkin edi. Mansabdor shaxsda qancha ko‘p unvon, qancha yuqori martaba bo‘lsa, shunchalik asosiy jazoni «bekor qilish» imkoniyati bo‘lgan. Agar mansabdor shaxs og‘ir jinoyatlar sodir etgan bo‘lsa va jazodan qutulishga unvon va martabalari yetarlicha bo‘lmasa, u holda jazoning qolgan qismi uchun jarima to‘lashi mumkin edi.

Xitoy an’anaviy huquqida «soya» deb nomlanuvchi o‘ziga xos huquqiy institut bo‘lib, bu byurokratiyaning jamiyatdagi hukmronlik mavqeini belgilaydi. Unga ko‘ra, mansabdor («soyaparvar»)ning qarindoshlari uning martabasi va unga qarindoshlik darajasi bilan o‘lchanadigan «soya kuchlari»ga qarab qator maxsus ijtimoiy va huquqiy imtiyozlar olganlar. «Soya» davlat xizmatida mansab olish imkoniyatini bergan, shuningdek, jinoyat sodir etilganda javobgarlikdan ozod qilgan yoki jazoni yengillashtirgan. «Soya»ning kuchi va oqibatlari Tan kodeksida juda batafsil tarzda qayd etilgan. Imperatorning «soyasi» nihoyatda qudratli bo‘lgan. U imperatorning juda ko‘p qarindoshlarini o‘z «panohi» ga olgan. Lekin hatto eng kichik mansabdor shaxs ham o‘zining buvasi, buvisi, otasi, onasi, xotini, bolalari, nevaralarini o‘z «soyasi» bilan «berkitib turishi» (himoya qilishi) mumkin edi.

Xitoyning butun huquqiy tartiboti asosida yotuvchi birgalikdagi javobgarlik prinsipi javobgarlikka tortiladigan shaxslar doirasining ancha aniq belgilanganligi hisobigagina emas, balki jazo shakllarining o‘zgarishi hisobiga ham shaklan o‘zgarib borgan. Birgalikdagi javobgarlikka faqat qarindoshlik va xizmat aloqalari bilan bog‘langan shaxslargina emas, balki hududiy, ma’muriy jihatdan bog‘liq shaxslar (qo‘shnilar, mahalliy hokimiyatlar) ham tortilar edi. Birgalikdagi javobgarlikda jazolar tizimi tobora murakkablashib va mukammallashib borgan. U faqat o‘lim jazosini emas, boshqa jazolarni ham o‘z ichiga ola boshlagan.

Mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi

Xitoyning o‘rta asrlar huquqi manfaati yo davlat yer egaligi, yo xususiy yer egaligi bilan bog‘liq ijtimoiy-sinfiy kuchlarning tinimsiz qarama-qarshi kurashlari sharoitlarida shakllandi. Jamoa yer egaligi Xitoyda qadimgi davrlardayoq tugatilgan edi. Yerga birgalikdagi egalik avlodlarning diniy marosimlarini qo‘llab-quvvatlashga va jamoat qabristonlariga ajratilgan oilaning bo‘linmaydigan mulki, urug‘ mulki shaklida uzoq vaqtgacha mavjud bo‘lib turgan. Budda va daos jamoalarining mulki alohida turdagi mulkchilik edi. Xitoy uchun xarakterli hisoblangan xususiy yer egaligini umumdavlat ro‘yxatiga olish tizimi minlar davrida rivojlandi. Bu davrda yerlar davlat mulki va xususiy mulkka bo‘lindi. Soliq solish va mehnat majburiyatlarini aniqlash maqsadida xususiy yerlarni ro‘yxatga olish alohida amaldorlarning funksiyasiga aylandi. Ular tomonidan yer bo‘yicha barcha kelishuvlar umumdavlat reestrida qayd etib borilardi. Bundan tashqari, saroy ahllari egalik qiladigan xususiy yerlar toifasi mavjud edi. Bu egalik turi shu yerdan chiqadigan yer osti boyliklariga ham egalik qilish huquqini berardi. Xitoy huquqi yer osti va yer usti boyliklariga egalik qilishni juda erta farqlagan.

Xitoy huquqi mulkni harakatdagi va ko‘chmas mulkka ajratgan. Unda oddiy narsalarni va yer, odam, qora mollarni olib sotish bir-biridan farqlangan. Oddiy narsalarni olishda yoki sotishda vasiqa, ya’ni rasmiy hujjat talab qilinmagan. Yerni uy egasi, ya’ni oila boshlig‘i sotish huquqiga ega edi. Sotilayotgan yerni birinchi bo‘lib sotayotgan kishining qarindosh urug‘lari, so‘ngra qo‘shnilari, undan keyin begona odamlar sotib olishga haqli bo‘lgan. Katta oila mulkini begonalashtirishga dastlab faqat juda ehtiyoj tug‘ilgan paytlardagina qayta sotib olish huquqi saqlangan holda ruxsat etilgan. Bunday cheklovlar yerni garovga qo‘yish institutining keng rivojlanishiga olib kelgan. Yerni garovga qo‘yishning o‘ziga xos xususiyati shunda ediki, yerni garovga qo‘yuvchi shaxs uzoq vaqtgacha garovga qo‘yilgan yerga nisbatan egalik huquqini yo‘qotmagan, qarz to‘lash muddati o‘tgandan keyin yerni qayta sotib olish huquqini saqlab qolgan. 962 yilgi farmon bo‘yicha, yerni qayta sotib olish huquqi, hatto, garovga qo‘yuvchi avlodlariga ham o‘tkazilgan.

Yerni garovga qo‘yish shartnomasi albatta yozma ravishda rasmiylashtirilishi lozim edi. Garovga oluvchi shaxs garovga olingan yerni, garchand qarz shartnomasida uni sotishi mumkinligi aytilgan bo‘lsa ham, uchinchi shaxsga garovga berishi mumkin emas edi. Yerini garovga qo‘ygan qarzdor qarzini o‘z vaqtida to‘lamasa, garovga qo‘yilgan yerni

sotib olishga dastlab qarzdorning qarindoshlari, so‘ngra qo‘shnilari taklif qilingan. Bu davrda ayniqsa odamlarni, hammadan avval, qullarni garovga qo‘yish keng tarqalgandi. Qarzni to‘lash uchun ishlab berishda bir kishining ish kuni bahosi bir kun davomida ho‘kiz, ot, to‘rt g‘ildirakli aravani ekspluatatsiya qilish bahosiga teng bo‘lgan. Amalda shaxsan erkin kishilarni garovga qo‘yish hollari kam uchrab turgan. Ular bunda qul hisoblanmasalar ham, ammo haqiqatda qullik holatiga tushib qolardilar, tayoqlar, kaltaklar ostida ishlardilar. Bu yerda shuni ta’kidlash joizki, kodekslarda oilaning erkin a’zolarini sotish va garovga qo‘yish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan edi. Lekin yerni ijaraga berish, garovga qo‘yish va boshqa mahalliy darajadagi munosabatlar sohasida, qoida bo‘yicha, odat huquqi harakatda bo‘lgan. Xitoyda mahsulot rentasi shaklida keng tarqalgan teng sheriklikka yer ekish ham mahalliy odat huquqiga asoslanardi.

Xitoyning odat huquqida, xuddi Hindiston, Yaponiya va boshqa davlatlarning odat huquqidagidek, qarz uchun olinadigan foizlarning miqdori qarz summasidan ortib ketishi kerak emas, degan prinsip o‘rnatilgandi.

Harakatdagi (ko‘chadigan) mulkni garovga qo‘yishda, garchand shartnomani bajarish muddati o‘tib ketgan bo‘lsa ham, garovga oluvchi uni o‘z holicha mustaqil boshqarishi mumkin emas edi. Oila mulkini faqat oila boshlig‘i, hech bo‘lmaganda katta o‘g‘il garovga berishi mumkin bo‘lgan.

Xitoy huquqi qarz shartnomasidan ssuda shartnomasini farqlaydi. Ssuda shartnomasida muayyan - aniq ashyo foydalanishga beriladi va ushbu ashyo qaytarilmasa, jinoiy javobgarlik kelib chiqishi mumkin edi. Kodeksda alohida ravishda ta’kidlanishicha, ixtiyorida davlat qullari, qora mollari bo‘lgan amaldorlarning ssuda shartnomasi tuzishi, shuningdek, davlat mablag‘laridan o‘ziga yoki boshqa shaxsga foizlarsiz qarzlar taqdim qilishi taqiqlanadi.

Xitoy majburiyat huquqida oldi-sotdi shartnomasi alohida o‘rin tutardi. Oldi-sotdi shartnomasining haqiqiyligi uchun tomonlarning kelishuvi asosiy shart hisoblanardi. Oddiy ashyolarni olish-sotish nafaqat yerlarni, balki odamlar va qoramollarni olish-sotishdan ham farq qilgan. Odamlarni sotishda sotilayotgan kishining tug‘ilganidan buyon shaxsan erkin bo‘lganligini tasdiqlovchi guvohlik talab qilingan. Xitoyda Xan davridan boshlab qarzga sotish tajribasi ma’lum. Oddiy ashyolarni, shuningdek, qullarni va qoramollarni olish-sotishda vasiqa (mol-mulkni sotib olganlik haqidagi rasmiy hujjat) tuzish talab qilingan. Uni tuzishni inkor

(rad) etganlarga jarima solingan. Vasiqalarni o‘z vaqtida tuzmaganlar yo‘g‘on tayoq bilan urish jazosiga tortilgan.

Yerni ijaraga olish uchun oldindan uch yilgacha vznos (badal) to‘langan, bu esa kambag‘allarga og‘irlik qilar edi. Agar ijara vaqti tomonlar orasida oldindan belgilanmagan bo‘lsa, yer egasi ijarachini istagan paytida haydab yuborish huquqiga ega bo‘lgan.

Xitoy davlati bozorlarning holatini hushyorlik bilan kuzata borib, okrug, uyezd nazorat organlari tizimini tashkil qilgan. Maxsus tayinlangan amaldorlar savdo rasta (xan)lari faoliyatini kuzatib turganlar. Ma’muriyat har o‘n kunda bozordagi narxlarni o‘rnatgan, sotuvchilarning barcha do‘konlarini, ko‘chmas mulklar, odamlar, qoramollar sotish bo‘yicha barcha bitimlarini rasmiylashtirgan, og‘irlik va uzunlik o‘lchov tizimini nazorat qilib turgan. Tomonlarning o‘zaro kelishuvisiz, roziligisiz, kuch ishlatib yoki o‘rnatilgan narxlardan yuqori bahoda savdo bitimlari tuzishda aybdor bo‘lgan shaxslarga yo‘g‘on tayoqlar bilan urish jazosi berilgan. Bir qancha tovarlarga: tuz, choy va boshqalarga davlatning savdo monopoliyasi o‘rnatilgan edi. Sotib olish shartnomasini tuzishga kafillar va guvohlar jalb qilinardi. Yerni sotishda uning usti va ostidagi narsalar ham sotilishi maxsus ta’kidlangan.

Nikoh-oila va meros huquqi

Xitoyda nikoh-oila huquqining diniy an’analar bilan chambarchas bog‘liqligi o‘rta asrlar huquqida uning normalari ustunligining barqarorligini belgilagan. Patriarxal oila asoslari - otaning oila a’zolari ustidan, yerning xotin ustidan hukmronligi va boshqalar ushbu normalarning mohiyatini belgilagan.

Boshqa-boshqa tabaqalarning vakillari o‘rtasidagi nikohlar qattiq qoralangan va xatto qator hollarda qonun bo‘yicha ta’qib qilingan. Nikohga kirish har bir kishining burchi hisoblangan. Nikohga kirish burchini bajarish oila manfaatlariga, avlodlarning diniy marosimlari talablariga xizmat qilishi lozim edi. Nikoh tuzishdan maqsad yerdan nasl qoldirish bo‘lgan. Nikoh kelin va kuyovning oilasi o‘rtasidagi kelishuvdan iborat bo‘lib, bunda nikohga kiruvchilarning roziligi talab qilinmagan, lekin otalarining roziligi bo‘lishi shart edi. Nikohga kirish yoshi kodekslarda ko‘rsatilgan. Qoida bo‘yicha, bu erkaklar uchun 15-16 yosh, ba’zan 20 yosh, ayollar uchun 14-15 yosh atrofida belgilangan. Hali tug‘ilmagan bolalarni unashtirish odati keng tarqalgan edi.

Erkin kishilar bilan qullar o‘rtasidagi, erkak tomonidan har qanday darajadagi qarindoshlar o‘rtasidagi, bir familiyadagi kishilar o‘rtasidagi nikohlar taqiqlangan edi. Poligamiya (ko‘p xotinlik) taqiqlangan, birinchi

xotinning hayotligi vaqtida ikkinchi nikohga kirish haqiqiy emas deb hisoblangan. Erkaklarda cheklanmagan miqdorda jazmanlar bo‘lishi mumkin edi. Jazmanlarning huquqlari urf-odat bilan belgilanardi.

Xitoy nikohi muqaddas hisoblangan, uni bekor qilish qiyin bo‘lgan. Nikoh er-xotinning o‘zaro ikki tomonlama roziligi bo‘yicha bekor qilinishi mumkin edi. Er quyidagi hollarda: xotini bola tug‘masa, buzuqlik qilsa, eri va uning ota-onasiga hurmatsizlik ko‘rsatsa, ezma bo‘lsa, o‘g‘irlikka moyil bo‘lsa, baxil bo‘lsa, shubhali xarakterga ega bo‘lsa, tuzalmaydigan kasalligi bo‘lsa, nikohni bekor qilish huquqiga ega edi. Xotin quyidagi hollarda: agar er uni uch oydan ortiq muddatga tashlab ketsa, qullikka sotsa va axloqsiz harakatlar qilishga majbur etsa, ajralishni talab qilishi mumkin edi.

Meros umuman huquqning meros bo‘lib o‘tishi xarakteriga ega bo‘lgan. Merosxo‘rlar meros qoldiruvchining qarzlarini to‘lash majburiyatiga ega edi. Unvon, mansab, agar meros tariqasida o‘tkazilsa, alohida tarzda meros qilib qoldirilgan. O‘lgan shaxsning mol-mulki ham erkak kishining nasl-nasabi bo‘yicha pasayib boruvchi qarindoshlarga alohida tarzda, meros tarzida o‘tkazilgan. Erga tegib ketgan qizlar meros olish huquqiga ega emas edi, erga tegmagan qizlar esa aka-ukalariga beriladigan hissaning yarmiga teng miqdorda meros olgan. Unvon (daraja) faqat katta o‘g‘ilga meros tariqasida o‘tgan.

Ota o‘g‘lini merosdan mahrum qila olmagan, bir o‘g‘lining hisobiga ikkinchi o‘g‘ilning hissasini ko‘paytirish huquqiga ham ega bo‘lmagan. Erlar faqat diniy maqsadlarda «xayrli ishlar» uchun hadya qilinishi mumkin edi.

Sud ishlarini yuritish tartibi

Sud jarayoni asosan inkvizitsion xarakterga ega bo‘lgan. Ish odatda jabrlanuvchining uyezd sudiga yozma yoki og‘zaki shikoyati bilan boshlangan. Shikoyat ma’lum shaklda tuzilgan. Uni jabrlanuvchilarga sud darvozalari oldida o‘tiruvchi maxsus ko‘cha kotiblari tuzib berardilar.

Jinoyatchini ta’qib qilish davlatning majburiyati bo‘lgan. Jinoyatchini qidirish uchun Mas’ul bo‘lgan maxsus amaldorlar uni ma’lum muddat ichida qidirib topishi lozim edi. Bu muddat 1690 yilgi qonunlar to‘plami bo‘yicha bir oy qilib belgilangan edi. Agar amaldor shu muddat ichida jinoyatchini izlab topa olmasa, kaltak bilan savalangan. U jinoyatchini izlab topish muddatini ikki oyga o‘tkazib yuborsa, tayoq bilan 30 marta kaltaklangan. Bu ko‘pincha aybsiz kishilarni javobgarlikka tortilishiga olib kelgan. Jinoyatchi sudga qadar turmada saqlangan, ayollar uyda erining kafilligiga berilgan.

Sudlarda sudyalar va amaldorlardan tashqari sud nazorati xodimlari, ish yurituvchilar, xat tashuvchilar, qo‘riqchilar, jismoniy jazo beruvchilar (ekzekutorlar) ham mavjud edi. Guvoh sudga kelmasa, tayoq bilan 40-50 marta urilgan. Sudyalar so‘roq qilganlar, yuzlashtirish o‘tkazganlar, aybiga iqror bo‘lmaganlarga nisbatan qiynoqlar qo‘llashni tayinlaganlar. Ular ayblanuvchining aybdorligi prezumpsiyasidan kelib chiqqanlar. Ayblanuvchilarning aybini tan oldirishga erishish sudyalarning asosiy maqsadi bo‘lgan. Agar ayblanuvchi qiynoq yo‘li bilan uch marotaba so‘roq qilinganda ham aybiga iqror bo‘lmasa, unda yolg‘on guvohlik berganligini fosh qilish uchun ayblovchiga nisbatan qiynoq qo‘llanilishi mumkin edi. Qullar o‘z xo‘jayinlariga qarshi ko‘rsatmalar bera olmaganlar. Hukm yozma shaklda chiqarilgan. Ayblanuvchi oqlanishi, mahkum qilinishi yoki uning ishi shubhali deb topilishi mumkin edi.

Tan imperiyasi sudida qattiq legastik usullardan chetga chiqish hollari ham bo‘lgan. Bular haqida quyidagilar dalolat beradi. Katorga ishlariga mahkum qilish jazosini berish (yoki ancha og‘ir jazolarni berish) haqida hukm chiqarilayotganda ayblanuvchining roziligi talab qilingan. Agar u rozi bo‘lmasa, ish qayta ko‘rib chiqilgan. Agar ish bo‘yicha dalillar yetarli bo‘lmasa va ayblanuvchi aybini tan olmasa, kafillar taklif qilingan va ayblanuvchi ozodlikka qo‘yib yuborilgan. Shubhali qarorlar bo‘lganda ham ayblanuvchiga aybdan pul to‘lab qutilish imkoniyati berilgan. O‘lim jazosi haqidagi hukm imperator tomonidan tasdiqlangan. Qatl etilgan jinoyatchilarning jasadlari va boshlari hamma ko‘radigan joyga osib qo‘yilgan. O‘limga mahkum etilgan oddiy kishilar savdo maydonida, amaldorlar esa uyda qatl etilgan.

XI BOB. YAPONIYA DAVLATI VA HUQUQI

·Yaponiya davlatining tashkil topishi, shart-sharoitlari, xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlari.
·Yaponiya jamiyatining tabaqaviy tuzilishi.
·Yaponiyaning davlat tuzumi va uning o‘ziga xosligi.
·O‘rta asrlarda Yaponiya huquqining asosiy belgilari.

1. Yaponiya davlatining tashkil topishi, shart-sharoitlari, xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlari

Ko‘pgina tarixiy-huquqiy manbalarda Yaponiya hududida urug‘-doshlik tuzumining yemirilishi va ilk davlatning tashkil topishi jarayoni VII asrda nihoyasiga yetganligi ko‘rsatiladi.

Yaponiyada ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish jarayoni III asrda boshlangan. Urug‘lar ichidan urug‘ aristokratiyasi ajralib chiqqan, mulkiy va ijtimoiy tengsizlik chuqurlashib borgan, urug‘ning imtiyozli zodagonlari tomonidan o‘z hamyurtlarini va urushlarda bosib olingan qabilalar aholisini ekspluatatsiya qilishning turli shakllari rivojlangan. Urug‘ zodagonlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mavqelarini mustahkamlashga yordam beruvchi ekspluatatsiyaning qulchilik shakllari keng tarqalmagan. Yaponiyaning jug‘rofiy shart-sharoitlari, orolda joylashganligi, tog‘li joydaligi uning rivojlanishini siqib qo‘ygan. Bu yerda primitiv (oddiy, qoloq) mehnat qurollari bilan yirik latifundiyalarni tashkil etish, shuningdek, harbiy yurishlar hisobiga yetarli miqdordagi qullarni qo‘lga kiritish mumkin bo‘lmagan. Zero, sug‘oriladigan sholichilikning mavjudligi kichkinagina yer uchastkalarida dehqonning zo‘r berib mehnat qilishini talab qilardi.

Yaponiya davlati va jamiyatiga o‘sha vaqtlarda juda taraqqiy etgan Xitoy sivilizatsiyasining ta’siri ancha katta bo‘ldi. Xitoy o‘zining an’anaviy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi va davlat tizimi, shuningdek, buddizm va konfutsiylik dinlari bilan Yaponiya davlati va jamiyati rivojiga ayniqsa ilk bosqichlarda kuchli ta’sir o‘tkazgan. Xitoyning Yaponiyaga kuchli diniy ta’siri haqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, bunda Xitoyning ikki: konfutsiylik va buddizm dinlaridan birinchisining ta’siri ko‘proq bo‘lgan.

IV asrdan Yaponiyada qabilalarning ittifoqi tashkil topdi. V asrda esa qabilalar ittifoqining yo‘lboshchisi Yamato mamlakat hududining katta qismini o‘z hukmronligi ostida birlashtirdi. VI asrda Yaponiyada jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi jarayonlarining kuchayishi va davlat apparati-

ning shakllanishiga alohida urug‘larning qabilaviy ittifoq ustunligi uchun uzundan-uzoq olib borgan kurashi va Syotokutaysining g‘alabasi katta ta’sir ko‘rsatdi. Syotokutaysi hukmronligi davrida, 604 yilda Yaponiyada birinchi qonun hujjati - Yamato podsholarining birinchi deklaratsiyasi - Syotoku Konstitutsiyasi, ya’ni 17 ta moddadan iborat Qonun paydo bo‘ldi. Unda davlat boshqaruvining prinsiplari belgilangan edi.

17 ta moddadan iborat Qonun siyosiy-huquqiy qoidalardan ko‘ra ko‘proq diniy va etik qoidalarni o‘zida mujassamlashtirgan. U kelishuv, uyg‘unlik, umumga xizmat qilish haqida so‘z yuritadi. Qonunning butun yaponlarga emas, umumga xizmat qilishi alohida ta’kidlangan edi. Unda aholining tengsizligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustahkamlab qo‘yilgan edi. Bunda avvalo hukmdor alohida ajratib ko‘rsatiladi, so‘ngra mansabdorlarga va undan keyin oddiy xalqqa e’tibor beriladi. Hukmdor - yagona suveren hisoblangan. Mansabdorlar esa - uning amaldorlari, xalq ularga bo‘ysunadigan kishilar ommasi sifatida maydonga chiqqan.

«Umumiy qonun» jamiyat tartiblarining asosi (4-5-moddalar), podshoh esa uning ifodachisi deb e’lon qilingan. Podshoh o‘z amaldorlaridan «umumiy qonun»ga so‘zsiz bo‘ysunishni talab qilish huquqiga ega edi. «Agar yuqoridagilar buyursa, -deyiladi 3-moddada, - unda quyidagilar itoat etishlari lozim». Qonunda urug‘lar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, xususiy yer egaligi qoralanadi, yerga nisbatan davlat mulkchiligi va dehqonlarning davlatga soliqlar to‘lashi va majburiyatlar o‘tashi e’lon qilinadi.

O‘zaro urushlar bu davrda samarali harakat qiluvchi markaziy hokimiyatni tashkil etishga xalaqit bergan. 645 yilda o‘sha vaqtdagi urug‘lar orasida eng kuchli urug‘ning boshlig‘i Nakano Oe to‘ntarish qilib, yirik islohotlar o‘tkazgan, buning natijasida barcha yerlar davlat yerlari, jamoachilar esa imperator fuqarolari deb e’lon qilinib, Yamato urug‘ining oliy hukmdoriga imperator unvoni berilgan. Shu tariqa, 645 yildan boshlangan podsholik davri Tayka[133] yillari degan nom olib, Yaponiyada markazlashgan davlat tuzish jarayoni va qator islohotlar o‘tkazish boshlangan. Bu islohotlar Tayka manifestida mustahkamlangan. Manifest esa keyinchalik maxsus **«Tayxo ryo»**[134] kodeksi bilan to‘ldirilgan edi.

Islohotlar Xitoy namunasi asosida boshqaruv tizimini va agrar munosabatlarni qayta tashkil etishga qaratilgan edi. Islohotlar urug‘-qabila zodagonlarining maxsus daraja va imtiyozlari tugatilishiga, ular tomonidan egallab olingan jamoa yerlaridan mahrum bo‘lishiga va Xitoydan o‘zlash-

[133] **«Tayka»** so`zining lug`aviy ma'nosi – «buyuk o`zgarishlar».

[134] **«Tayxo ryo»** kodeksi «Tayka qonunlari to`plamlari» bo`lib, 646 yildan 700 yilgacha chiqarilgan barcha qonun hujjatlarini o`zida mujassamlashtirgan va 702 yilda chiqarilgan edi.

tirib olingan davlat chek yer tizimining joriy qilinishiga olib keldi. Davlatning chek yer tizimiga asosan yer qaram kishilari bilan birga xususiy shaxslardan tortib olindi va davlat mulkiga o‘tkazildi.

Yer uchastkalari, chek yerlar ovqatlanuvchi kishilar soniga qarab to‘la huquqli dehqonlar (ryominlar) o‘rtasida taqsimlandi. Qullar ham chek yerlar olgan. Ularga beriladigan chek yerning hajmi erkin kishilarga beriladigan chek yerning 1/3 qismini tashkil etardi. Davlat yer egasi sifatida dehqonlarning uch yoqlama majburiyatini nazarda tutgan. Dehqonlar don bilan renta solig‘i to‘lash, hunarmandchilik buyumlari bilan soliq to‘lash va ishlab berish majburiyatlariga ega edilar. Dehqonlarning ishlab berish muddati - bir yilda o‘rtacha yuz kunni tashkil etgan, ba’zan undan ham oshgan.

Biroq, Yaponiyada chek yer tizimining joriy qilinishi yerlarning tenglashtirilishini anglatmas edi. Yerlarning katta qismi xizmat mansablari uchun ajratiladigan chek yerlar sifatida chinovniklar qo‘liga o‘tgan. Albatta, chinovniklarga ajratiladigan bunday yerlarning hajmi mansab yoki martabaning katta-kichikligiga bog‘liq edi. Ba’zi yerlarni zodagonlar umrbod foylanishga olardi. Bunday yerlar ba’zan bir avloddan uch avlodgacha to‘g‘ridan-to‘g‘ri meros bo‘lib o‘tardi.

Chek er tizimi Yaponiyada iqtisodiy samarasiz bo‘lib chiqqan va uzoq yashamagan. Dastlabki vaqtlardanoq uning tadbiq etilish doirasi faqat poytaxtga tutash viloyatlar bilan chegaralanib qolgan. Chinovniklarning suiiste’molliklari oqibatida yerlarning muddatlari buzilar edi va hokazo.

Yaponiya jamiyatining yanada feodallasha borishi chek yer tizimining tushkunlikka uchrashiga olib keldi. Yerlarning davriy o‘tkazilishi haqiqatda X asrda tugatilgan. Chek yer tizimi o‘rniga o‘rta hol xususiy egalikdagi pomeste (syoen) kelgan. Pomeste yer egaligi jamoa yerlarini majburiy tartibda tortib olish, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, ko‘p sonli in'om qilingan yerlar hisobiga tashkil etilgan. Xususiy egalikdagi pomestelarning tashkil etilishi chek yerli dehqonlarning feodalga qaram dehqonlarga aylanishi bilan birga sodir bo‘lgan.

Yangi pomeste yer egaligi tizimi yirik feodal yer egaligini tashkil etish, demak, mamlakatning siyosiy tarqoqligi yo‘lidagi barcha to‘siqlarni olib tashladi. Bu tizim mamlakatda homiylik, hukmronlik va bo‘ysunish, vassalliklenga oid munosabatlarning rivojlanishini tezlashtirdi. Hukmron yer egalarining safi hukmdorlarning drujinachilari va harbiy xizmat evaziga lenlar oluvchi yirik feodallar hisobiga kengayib bordi.

Mayda yer egalari tomonidan to‘ldirilib turadigan bu toifadagi professional jangchilar tobora kuchli pomeshchiklarning homiyligi ostiga o‘ta borganlar va vaqt o‘tishi bilan **samuray** deb nomlanadigan yopiq tabaqaga aylangan. Samuraylarning xo‘jayiniga sodiqligini qattiq talab qiluvchi, hatto uning uchun hayotini ham berishga tayyor turishi lozimligini belgilovchi o‘z iftixor qoidalari mavjud edi.

Shunday qilib, X asrdan boshlab Yaponiyada Sharq uchun g‘ayrioddiy bo‘lgan yerga egalikning feodal tashkiloti o‘rnatilgan. Ayni paytda mayda dehqon xo‘jaligi ham keng rivojlangan. Bu jihatdan Yaponiya o‘rta asrlari g‘arb o‘rta asrlariga o‘xshab ketadi. Yuqoridagilarga qator omillar yordam bergan. Avvalo Yaponiyada, Xitoydan farq qilib, mulkchilikning feodal shakllarini tashkil etishga nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi funksiyalarga ega bo‘lgan kuchli davlat to‘g‘anoq bo‘lmagan. Chunki Yaponiyada konfutsiylikning nufuzli namoyondalari ham, imtihon-tanlov tizimi asosida shakllantiriladigan ko‘p sonli kuchli amaldor-ma’muriyatchilar ham yuzaga kelmagan edi.

Davlatda markaziy hokimiyatni zaiflashtiruvchi, hokimiyat jilovini o‘z qo‘lidan chiqarmagan yirik urug‘chilik guruhlarining an’anaviy kuch-qudrati ham sezilib turgan. O‘zlarining sodiq samuraylaridan iborat xususiy harbiy kuchlariga ega bo‘lgan qudratli urug‘larning mavjudligi mamlakatning uzoq vaqt mobaynida tarqoq bo‘lib turishiga asosiy sabab edi. Harbiy kuchlarga tayanish orqali markaziy hokimiyatning kuchayishi faqat Tokugavaning uchinchi syogunati davrida (XVII asrning boshi - XIX asrning birinchi yarmi) sodir bo‘lgan.

Yaponiyada uzoq vaqt davom etgan siyosiy tarqoqlik uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini to‘xtatib qo‘ygan. Mamlakatda feodal munosabatlarning hukronligi to XIX asrning o‘rtasidagi burjua inqilobigacha, ya’ni «Meydzining[135] qayta tiklanishi» deb nom olgan davrgacha davom etgan.

2. Yaponiya jamiyatining tabaqaviy tuzilishi

Yaponiyada, xuddi Xitoydagidek, urug‘ aristokratiyasining ajralib chiqishi, qullar va boshqa toifadagi qaram aholining paydo bo‘lishi munosabati bilan ikkita ijtimoiy tabaqa: «aslzoda» va «aslzoda bo‘lmagan» kishilar tabaqasi shakllangan. Ularning ikkalasi bir qancha ijtimoiy guruhlarga bo‘lingan. Ular o‘rtasidagi chegaralar yetarli darajada qo‘zg‘aluvchan bo‘lgan. «Aslzoda» kishilar orasida imperatorga yaqin imtiyozli tabaqa, podsho saroyi a’zolari, urug‘ aristokratiyasi, yirik amaldorlar ajralib turgan.

[135] **Mzydzi –** imperator Mutsuxito boshqaruvi yillari (1868-1912 yillar).

«Aslzoda kishilar» (ryomin)ning asosiy qismi, ilgari qudratli urug‘ boshliqlariga shaxsan qaramlikda bo‘lgan «davlat kishilari» singari, chek yer tizimi joriy qilingandan keyin davlat yerlariga o‘tkazib qo‘yilgan. Ular yerga, biron-bir yer egasi - xo‘jayinga biriktirib qo‘yilmagan edi, lekin o‘zi xizmat qilayotgan uyezd boshlig‘i yoki xo‘jayinining ruxsatisiz yerini tashlab ketishi mumkin emas edi.

Katta oila yoki kichik oilalar guruhi hovlini, ya’ni dehqon xo‘jaligini tashkil etgan. «Hovli» o‘lpon (soliq) to‘laydigan va majburiyatlarni bajaradigan xo‘jalik birligi hisoblangan. «Hovli» boshlig‘i hokimiyat tomonidan tan olingan. U belgilangan muddatda soliq ro‘yxatlarini tuzishi lozim bo‘lgan, barcha oilalarning to‘lovlari, ishlab berishlari uchun Mas’ul hisoblangan, oilaviy mulkni boshqargan, avlodlarning diniy marosimlarini qo‘llab-quvvatlagan.

Davlat oilalarni soliq (o‘lpon) to‘laydigan va majburiyatlarni bajaradigan birlik sifatida har tomonlama mustahkamlashga harakat qilgan. Masalan, **«Tayxo Yoro ryo»**[136] deb nomlangan qonunlar to‘plamida kasallarni, keksalarni, cho‘loq, mayib-majruhlarni boqish majburiyati qarindoshlarga, ular bo‘lmasa, jamoa yoki mahalliy hokimiyat zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, hosilsizlik yoki tabiiy ofatdan zarar ko‘rgan oilalarga yordam ko‘rsatish majburiyati mavjud edi. Qonun tomorqaning ajratilishini, agar bunda kichik yoshli bola yoki beva xotin yolg‘iz qoladigan bo‘lsa, taqiqlagan. Agar merosni taqsimlash paytida tomorqadan ajratma berilgan bo‘lsa va ajralib chiquvchining oilani boshqara olishiga hech qanday shubha bo‘lmasa, u holda yuqoridagi qoida istisno qilinishi mumkin edi.

Yaponiyada irqiy va diniy mansubligiga qarab kishilarga turlicha munosabatda bo‘lish tan olinmagan. Mansabdorlik xizmati davlat lavozimlariga har qanday iqtidorli nomzodlarning shaxsiy va umrbod imtiyozi bo‘lgan. Bu lavozimni olgan kishi u yoki bu amaldorlar sirasiga kirgan va biron-bir martaba (daraja, unvon) olgan. Bu yerda martaba (daraja, unvon) emas, mansab (lavozim) hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Yaponiya bu sohada Xitoydan farq qilgan, chunki, Xitoyda martaba (daraja, unvon) mansabni belgilardi. Umuman, Yaponiyada mansab va martabalariga qarab amaldorlarning natural to‘lovlari va chek yeri miqdori belgilanardi.

Oliy toifali amaldorlarning, kuchli urug‘ vakillarining dastlabki to‘rtta darajasi alohida mavqega ega edi. Ular mansabdorlar ro‘yxati boshida turgan va bevosita imperator saroyi bilan bog‘liq bo‘lgan. Masalan, I toifali shahzoda xizmati uchun mukofot tariqasida (suyurg‘ol sifatida) 80

[136] **«Tayxo Yoro ryo» -** 717-723 yillarni o`z ichiga olgan Yoro davrining umumiy qonunlar to`plami.

te (5 ming gektar atrofida) yer, uni ishlash uchun ro‘yxatga olingan 800 ta dehqon xonadoni va 100 ta xizmatchi olgan.

Yirik amaldorlarning urug‘-aymoqlari Yaponiyada nafaqat oilaviy-xo‘jalik birliklar sifatida, balki o‘ziga xos siyosiy birlik sifatida ham maydonga chiqqan. Masalan, «Tayxo Yoro re» da yuqori darajali amaldorlarning uylariga taalluqli bo‘lgan «Uy boshqaruvini tashkil etish va shtatlar haqida»gi maxsus bob mavjud. Feodal uylarning boshliqlari, yuqori mansabli va darajali amaldorlarning vakillari o‘z farzandlarini saroyga shaxsiy qo‘riqchilar va boshqa xizmatchilar sifatida berishlari lozim edi. Bunday mansablar oxir-oqibat meros bo‘lib o‘tadigan bo‘lgan. Davlatda amaldorlarning yetishmasligi munosabati bilan mansablarning o‘rindoshlik tizimi amalda keng qo‘llangan.

«Aslzoda bo‘lmagan kishilar» guruhi juda zich edi. Unga, masalan, dafn etishga xizmat qiluvchi xizmatchilarning maxsus guruhi, «davlatga qarashli xonadonlar»ning a’zolari, saroyga qarashli qullar, xususiy qullar hamda xoloplar kirardi.

Qullar (nuxi), manbalarning darak berishicha, Xitoydagi qullar singari ba’zi huquqlarga ega edi. Ularni sotish va meros qilib qoldirish mumkin edi, ular nikohga kirish va mulkka egalik qilish huquqidan foydalanganlar. «Aslzoda» va «aslzoda bo‘lmagan» kishilar o‘rtasidagi nikoh qonuniy hisoblanardi. Agar bular o‘rtasida «bilmay turib» nikoh tuzilgan bo‘lsa, bunday nikohdan tug‘ilgan bolalar «aslzodalar» deb hisoblangan. Erkin ayol bilan quldan tug‘ilgan bolalar esa davlatga qarashli xonadonlarga berilardi. Davlat qullari va xususiy qullar uncha ko‘p bo‘lmagan. Qulchilik manbalari: jinoyatchilarning va qator hollarda ularning oila a’zolarining qulga aylantirilishi, o‘zini qullikka sotish yoki ota-onalari tomonidan qullikka sotilishi, qarz uchun garovga qo‘yilishi va harbiy asirlik bo‘lgan. Qul dehqonlar alohida qadrlangan, ularga chek yerlar berilgan va ulardan soliqlar olinmagan. 830 yilgi qonun qullarni chek yerdan foydalanish huquqida va xazina foydasiga majburiyatlar o‘tashida amalda erkin dehqonlar bilan tenglashtiradi.

«Aslzoda bo‘lmaganlarning» alohida turkumini saroy xodimlari tashkil etgan. Davlat qullari va xoloplarga o‘xshab ularni hisobga olishning qattiq tartibi mavjud edi. Saroy xizmatchilari (ishchilari) maxsus ro‘yxatga kiritilgan, ular tomonidan yetishtiriladigan hosil ham qattiq nazorat qilingan. Podsholikka qarashli xonadonlarning a’zolari qonun bo‘yicha ba’zi huquqlarga ega edi. Ularga har dekadada (o‘n kunlikda) bir kun dam olish kuni berilgan, ayollarga tuqqandan keyin ancha yengilroq ish taqdim qilinardi. Bunday xonadonlarning a’zolari kiyim-kechak, oyoq kiyimlar bilan

ham ta'minlanardi. Amaldorlar ulardan o‘z shaxsiy ehtiyojlari yo‘lida foydalana olmaganlar.

Azaliy (nasliy) xoloplar (kedin)ning ahvoli mahalliy xususiyatlari bilan ajralib turardi. Ularni qullar singari sotish mumkin emas edi. Biroq, qochoq xolop xo‘jayiniga qaytarilgan. Davlatga qarashli «aslzoda bo‘lmagan kishilar» 60 yoshga to‘lgandan keyin shaxsiy qaramlikdan ozod qilingan.

Yaponiyaning tabaqaviy-sinfiy tuzilishi keyingi asrlarda ham ancha aniq ifodalana borgan. Bunga tobora rivojlanib borgan feodal, vassallikllenga oid munosabatlar bilan bir qatorda mamlakatdagi tub siyosiy o‘zgarishlar ham ta’sir etgan. Masalan, 1192 yilda shimoliy feodallardan biri Minamoto o‘z raqiblari - boshqa feodallarni samuraylardan tuzilgan qo‘shin yordami bilan tor-mor keltirib, mamlakatning poytaxti Kiotoni qo‘lga kiritadi va shu tariqa Yaponiyada syogunlik vujudga keladi. Imperator hokimiyati o‘zining real ahamiyatini yo‘qotadi. Eng katta feodallar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar natijasida imperator qo‘lida faqat diniy hokimiyat qoladi, xolos. Dunyoviy oliy hokimiyat esa eng kuchli **feodal - syogun - oliy hokim** qo‘liga o‘tadi. Yaponiyada ikki parallel sulola - imperator sulolasi **va syogun sulolasi** o‘rnatiladi. Shunday qilib, XIII asrda mamlakatda birinchi syogunlikning o‘rnatilishi, harbiy-feodal oligarxiya boshqaruvining joriy qilinishi feodallarning oliy imtiyozli feodallar, bevosita syogunning vassallari (gokenin), boshqa feodal egaliklar, ibodatxonalar va monastirlarning vassallari (xigokenin) kabi guruhlarga bo‘linib ketishiga olib kelgan.

Oddiy xalq - dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar feodallar tabaqasiga kirmagan. Dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning asosiy shakli natural obrok shaklida jon boshidan olinadigan renta bo‘lib qolgan. Bunda dehqondan hosilning (sholining) 40 foizidan 60 foizigacha miqdorida soliq olinardi. Biroq, XIII asrda ham, XIV asrda ham Yaponiyada dehqonlar to‘la qaramlikka tashlanmagan edi. Shunga qaramay, XII-XIII asrlardayoq yapon dehqonlarining ahvoli juda og‘ir edi. Feodallar yer egalari sifatida qo‘llaridagi shaxsiy va harbiy hokimiyatdan ham, shuningdek, davlat tashkiloti va uning butun moliyaviy-ma'muriy tizimidan ham keng suratda foydalanib, dehqonlarga juda ko‘p har xil to‘lov va soliqlar solardilar. Bir necha saroyni - mikado, syogun, sikken saroylarini ta’minlash mamlakatda juda qimmatga tushardi. Shu bilan birga katta va mayda feodallarning tinmay davom etgan o‘zaro urushlari dehqonlarning ahvolini og‘irlashtirardi. Yapon dehqonlari ko‘p jihatdan shahar sudxo‘rlariga qaram edilar, chunki soliq yig‘ish ishi odatda sudxo‘rlarga topshirilardi. Dehqonlar ko‘pincha kelgusi yil hosilini garovga qo‘yib, sudxo‘rlardan qarzga urug‘lik olardilar.

Hamisha ocharchilik va buning natijasida doim bo‘lib turadigan yuqumli kasalliklar epidemiyasi XIV va XV asrlarda yapon qishloqlarida keng tarqalgan hodisa edi. XV asrda ko‘tarilgan dehqonlar qo‘zg‘olonlari ham tasodif emas edi. Bu vaqtda, ayniqsa, XIII-XIV asrlarda dehqonlar armiyaning asosiy kuchini tashkil etardi. Yuqoridagilarning o‘ziyoq shuni tasdiqlaydiki, XIII-XV asrlarda dehqonlarning ahvoli nihoyatda og‘ir bo‘li-shiga qaramay, ular hali krepostnoy qaramlikka tashlanmagan edi.

XIII-XV asrlardan boshlab Yaponiyada hunarmandchilik, savdo va shaharlar ancha jadallik bilan rivojlana boshladi. Bu esa muhim ijtimoiy o‘zgarishlarga olib keldi. Shaharlarda hunarmandlar va savdogarlar (dzya) ning birinchi birlashmalari tashkil topdi. Savdogarlarning bir qismi bevosita bozorlarga chiqib, ba’zi mustaqillikni qo‘lga kiritdi. Feodallar orasida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Samuraylarning bir qismi qarz evaziga yer egaliklarini yo‘qotdi va to‘liq o‘z xo‘jayinlarining qaramog‘iga o‘tdi. Haydaladigan yerlarning katta qismi yirik hokim-knyazlar - «daymyo» («katta nom») qo‘lida to‘plandi. Daymyo egaligi alohida provinsiyalarni va hatto bir necha provinsiyalarni qamrab olgan edi.

Yapon jamiyatining tabaqaviy-sinfiy tuzilishi uchinchi syogunat davrida ancha tugallangan shakllarga ega bo‘ldi. U qonun bilan mustahkamlandi va butun syogunat tomonidan har tomonlama muhofaza qilinadigan bo‘ldi. Yapon feodal jamiyati to‘rtta tabaqaga bo‘lindi. Tabaqaviy bo‘linish asosan sinfiy bo‘linish bilan mos tushgan. Bu bo‘linish rasman **«si-no-ko-syo»: samuraylar (si), dehqonlar (no), hunarmandlar (ko) va savdogarlar (syo) formulasi** bilan belgilangan. Feodal jamiyatning eng tubida kam sonli parilar («eta») guruhi turgan.

1615 yilda tokugavalar sulolasining birinchi syoguni Ieyasu tomondan «O‘n sakkizta qonunlar» chiqarilgan va unda jamiyatdagi to‘rttala tabaqa vakillarining yurish-turishlari qattiq tartibga solingan. Bu qonunga binoan, keyingi har bir syogun o‘z mansabiga o‘tirish chog‘ida feodal knyazlar yig‘ini oldida Ieyasu qonunlariga sodiqligi haqida qasamyod qilishi lozim edi.

Tokugavalar sulolasining uchinchi syoguni Iemitsu (1623-1651 yillar) esa 1637 yilda Kyusyu orolidagi Samaberi okrugida dehqonlarning juda katta qo‘zg‘olonini shafqatsiz ravishda bostirib, 1639 yilda Yaponiya davlatida tarkib topgan feodal tuzumni yuridik jihatdan rasmiylashtirib bergan qonunlar to‘plamini nashr qildi. Bu qonunlar to‘plamida mehnatkashlar uchun juda og‘ir turmush sharoitlari ko‘zda tutilgani holda politsiyachilik-krepostnoylik rejimi yaqqol ifodalangan edi. 1639 yilgi kodeksga ko‘ra ijtimoiy munosabatlar: harbiylar, dehqonlar, hunarmandlar va

savdogarlardan iborat to‘rtta tabaqa munosabatlari ifodalangan edi. Shu aholi guruhlarining munosabatlari qattiq tartib va qoidalar bilan belgilangan edi. Oqsuyaklar va samuraylarga mansub turli guruhlarning huquq va imtiyozlari qonunda ikir-chikirlarigacha mufassal ko‘rsatib berilgan edi. Davlat sanoat va savdo-sotiq ishlarini o‘chakishib nazorat qilar va unga bachkanalik bilan vasiylik qilardi. Savdogarlarning gildiyalari va ayniqsa hunarmandlarning sexlari butunlay hukumatga bog‘liq edi, hukumat savdo-sotiqdan va sanoatdan katta daromadlar olish uchun ham ulardan keng foydalanardi. Dehqonlarga nisbatan belgalangan tartib-qoidalar ayniqsa qattiq edi. Ularning turmushdagi har bir qadamini hukumat qattiq kuzatib turardi. Dehqonlarga guruch yeyish man etilgan edi, chunki ular uchun bu «ortiqcha ne'mat» deb qaralar edi. Ularga shoyi va ipak kiyim kiyish ham man qilingan, faqat arzon baholi ip-gazlamadan kiyim kiyish mumkin deb ko‘rsatilgan edi. Hatto to‘y, azalar va hokazolarga sarf bo‘ladigan xarajatlar ham ma’lum miqdordan oshmasligi shart edi.

O‘zi va Kiotodagi saroyi uchun aniq tayinlangan maoshga yashovchi mikado nomigagina hokimiyat egasi edi. Qonunlar aslida uni tashqi dunyo bilan aloqa qilish imkoniyatidan tamomila mahrum qilib qo‘ygan edi. Syogunlarning poytaxti Edo shahri bo‘lib, u juda tez o‘sib, katta markazga aylanib bordi. Syogunlar bu yerda dabdabali hayot kichirardilar. Katta feodallar, mulkdor knyazlar - daymyo va boshqalarning ko‘p vaqt poytaxtda yashab, syogunlar saroyiga qatnab turishlari shart edi. Ular o‘z viloyatlariga qaytib kelganlarida xotin va bola-chaqalarini garov qilib Edoda qoldirishlari lozim edi. Tokugavalar o‘rnatgan butun rejim keng tarmoqli politsiya apparatiga asoslangan edi. Hukumat o‘zining oshkora va maxfiy agentlari vositasi bilan dehqonlarni, shahar plebslarini, katta savdogarlarning xonadonlarini, samuraylarni va feodal knyazlarni kuzatib turardi.

Dvoryanlarning hukmron tabaqasini ham avval syogunlar tashkil etgan. XVII asrning boshida Yaponiyaning haqiqiy hukmdori - syogunning oilasiga mamlakat hududining 1/3 qismiga yaqini va mulkdor knyazlar – daymyoning 300 yaqin oilalari tegishli edi. Bu tabaqa o‘ziga xos toifaviy guruhlarga bo‘lingandi. **Daymyo (feodal knyazlar)** juda katta yerlarga egalik qilib, ikki: **fuday-daymyo va todzama-daymyo** toifalarini tashkil etgan. **Fudayday-myo** Tokugava oilasiga bevosita vassal qaramlikda bo‘lib, mamlakatdagi barcha oliy hukumat mansablarini egallagan edi. Tashqi knyazlar deb ataladigan **todzama-daymyo** esa boshqaruv ishlaridan chetlashtirilgan edi.

Samuraylar tabaqasining alohida qismini saroy zodagonlari (kuge) tashkil etgan. Ular haqiqiy hokimiyatdan mahrum bo‘lgan imperatorning

saroyida oliy darajali dvoryanlar edi. Lekin, odatda, ular yer egaliklariga ega emas, hamda maosh to‘lanadigan mansablarni olmas va syogundan guruch ulushlarini olib, uning ma’muriyatiga to‘la qaram edilar.

Hukmron tabaqalarning asosiy ommasini yogunning qo‘shinlariga va daymyoning harbiy otryadlariga kiruvchi samuraylar - xizmatchi dvoryanlar tashkil etgan. Ular o‘z xizmatlari evaziga ma’lum darajada dehqonlardan soliqlar yig‘ish yoki o‘z xo‘jayinlaridan guruch ulushlarini olish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. 1653 yilda syogun hamma samuray-jangchilardan, daymyo vassallaridan yerlarni olish haqida va ularni maoshga, guruch ulushlarga o‘tkazish to‘g‘risida farmon chiqargan. Samuraylar quyi uch tabaqaga qarama-qarshi qo‘yilgan. Samuraylar ikkita qilich ko‘tarib yurishgan va shu bilan ular tashqi qiyofada boshqa tabaqalardan ajralib turganlar. Faqat samuraylar davlat lavozimlarini, fuqarolik va harbiy mansablarni egallashi mumkin edi.

Dehqonlar jamiyatda ancha ezilgan, eng ko‘p ekspluatatsiya qilinadigan tabaqa hisoblangan. Ular mamlakat aholisining 80 foizini tashkil qilib, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan bir xil emas edi. Dehqonlarning asosiy qismi kichik-kichik yer uchastkalariga egalik qilib, mustaqil xo‘jalik yuritganlar. Ular bu yerlarni umrbod qo‘lda tutib turish va meros tariqasida o‘tkazish huquqiga ega edilar. Bu dehqonlar avvalo soliq to‘laydigan va majburiyatlar o‘taydigan besh xonadonlar tarkibiga kiruvchi jamoa a’zolari edi. Soliqlar, odatda, hosilning yarmi miqdorida, ba’zan undan ham ko‘proq miqdorda undirilardi. Dehqonlar, shuningdek, yerlarni, sug‘orish tomorqalarini ta'mirlash bo‘yicha va boshqa shu kabi qator majburiyatlarni ham o‘tardilar.

Yapon dehqoni bu vaqtga kelib amalda asoratga (qullikka) solingan, qaramlikka tushib qolgan edi. U yerni ishlashni to‘xtatish, o‘ziga boshqa mashg‘ulot turini tanlash, boshqa yashash joyiga ko‘chib o‘tish huquqidan mahrum edi. To‘g‘ri, uni sotish yoki sotib olish mumkin emas edi, xolos.

Shaharning oraliqdagi o‘rta hol tabaqalarini hunarmandlar va savdogarlar tashkil etgan. Ularning hayoti va faoliyati syogun tomonidan qattiq tartibga solinardi. XVIII asrda savdogarlarning boyigan tabaqasi jamiyatda muhim o‘rin tuta boshladi. Bu vaqtda Yaponiyada savdo-sudxo‘rlik kapitali nazorati ostida bo‘lgan manufaktura ishlab chiqarishi vujudga keladi. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida, bir tomondan feodallar hukmron sinfining yemirilishi to‘xtovsiz kuchayib bordi, ikkinchi tomondan esa, dehqonlarning tabaqalashuv jarayonlari chuqurlashdi.

Yerlarni olish-sotish taqiqlangan bo‘lishiga qaramay, u yashirincha, niqoblangan shaklda begonalashtirilgan, qishloqning yuqori tabaqalari, shuningdek, shaharlarning sudxo‘rlari qo‘lida to‘planib borgan. Feodal dvoryanlarning savdo-sudxo‘rlik kapitaliga iqtisodiy qaramligi kuchaygan. O‘sha vaqtda eng yirik bo‘lgan Mitsui uyi 1697 yilda syogunning moliya agenti, 1707 yilda esa imperatorning bankiri bo‘lib olgan edi. Tushkunlik, ayniqsa, xizmatchi samuraylar orasida ko‘zga yaqqol tashlangan. Daymyoning kambag‘allashuvi natijasida ular o‘z xo‘jayinlarini, shu bilan birga tirikchilik manbalarini yo‘qotganlar va **ronin** (daydilar) bo‘lib qolishgan. Samuraylar asrlar davomida yashab kelayotgan an’analarga xilof ravishda hunarmandchilik va savdo bilan tobora ko‘proq shug‘ullana boshlaganlar va xizmatchilar, ishchilarga aylanganlar.

3. Yaponiyaning davlat tuzumi va uning o‘ziga xosligi

Ma’lumki 645 yilda boshqa urug‘lar orasida ta’siri kuchli bo‘lgan Tayka urug‘i tomonidan hokimiyatning bosib olinishi bilan Yaponiyada markazlashgan davlat tuzish jarayoni boshlanadi. Shu davrda yerga nisbatan davlat egaligi joriy etiladi.

VII asrda Yaponiyada o‘tkazilgan va siyosiy inqilob ahamiyatiga ega bo‘lgan Tayka islohotlari merosiy yakka hokim boshchiligidagi ilk feodal davlatning o‘rnatilishiga olib keldi. Uning islohotlari quyi tabaqa kishilarining yuqori tabaqalarga itoat etishlari zarurligi to‘g‘risidagi, tepasida cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan «donishmand yakka hokim», «xudolar avlodi» turadigan yagona davlat haqidagi buddizm va konfutsiylik ta’limotlari bilan asoslantirilgan edi. Bunga, shuningdek, hukmdor – imperatorning ilohiy kuchi haqidagi xitoyliklar dini g‘oyalarini o‘ziga osongina singdirgan yaponlarning qadimgi dini sinto («ruhlar yo‘li») ham yordam bergan.

«Tayka davlat to‘ntarishi» natijasida qudratli Fudzivara urug‘ining qo‘llab-quvvatlashiga tayanuvchi va imperator boshchiligidagi yagona yapon davlati tashkil etilgan. Fudzivara urug‘idan keyinchalik imperatorning avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadigan **regentlari** - hokimdoshlari tayinlanadigan bo‘ldi.

Yapon hukmdorlari VI asrdayoq Xitoydan «tensi» yoki «tenno» - «osmon o‘g‘li» nomini o‘zlashtirib olgan edilar. Biroq, agar Xitoyda hukmdor hokimiyatining manbai «Osmon irodasi»ga bog‘liq bo‘lgan, imperator almashinuvi esa «Osmon buyrug‘i»ning o‘zgarishi bilan tushuntirilgan bo‘lsa, Yaponiyada «tenno» ma’nosi ko‘proq yerga oid bo‘lgan, u

xitoyliklar sajda qiladigan oliy ilohiy asos - «qonun» singari osmon ko‘rsatmasiga ega bo‘lmagan. Yaponlarning tabiat haqidagi tasavvurlari ancha aniq bo‘lgan. Ular nafaqat osmonga, balki quyosh, tog‘lar, daryolarga ham sig‘inganlar.

Yaponlarning eng qadimgi dini sinto («ruhlar yo‘li») hukmdorni birinchi ruhoniy, quyoshni inson qiyofasini olgan ilohiy ajdod deb hisoblagan. Yaponlarning VI-VII asrlarda sinto va buddizm dinlarining aralashib ketishidan tashkil topgan dini - **«rebu sinto»** (bir butun sinto) imperatorlarni nafaqat din boshlig‘i va oliy kohin sifatida, balki dunyoviy monarx, avvalo qo‘shinlar boshlig‘i deb ham tan olgan. Unga ko‘ra, imperatorning chinovniklar uchun e'tiroz bildirib bo‘lmaydigan nufuzi kodeks va qonunlarga asoslangan. Xuddi shundan boshlab Yaponiya huquqida davlatning barcha markaziy va mahalliy, diniy va dunyoviy muassasalari puxtalik bilan ishlab chiqila bordi. 17 ta moddadan iborat Qonun «suverenning ilohiyligi» to‘g‘risida so‘z yuritib, unda maslahatchilarning «muhim ishlarni to‘g‘ri hal qilishning zaruriy sharti» sifatidagi ahamiyati haqida gapiriladi. Syotoku-taysi esa yakka bir shaxsga taalluqli boshqaruvni inkor qilib, «ishlar shaxsan podsho tomonidan hal qilinmasligi lozim», deb tasdiqlaydi. Har qanday darajadagi maslahatchi Yaponiyada eng qadimgi vaqtlardan boshlab imperatorning davlat apparatida asosiy siymo bo‘lib qolgan edi. Darhaqiqat, amalda va qonun bo‘yicha oliy qonun chiqarish, ijro etish va harbiy hokimiyatga ega bo‘lgan ilohiy «tenno» VIII asrdayoq qudratli Fudzivara urug‘i davrida mamlakatni boshqarishdan ko‘ra ko‘proq podshohlik qila boshladi. 794 yilda Kiotoda yana bir poytaxtning qurilishi uning kuch-qudrati ramzi bo‘lib qoldi. Bu vaqtda imperatorning qarorgohi Naro shahrida edi. Oqibatda Yaponiyada ikki poytaxtning mavjudligi, an’anaviy ikki hokimiyatchilik va hatto davlat boshqaruv ishlariga buddizm ruhoniylari kiritilgandan keyin uch hokimiyatchilik, an’anaviy bo‘lib qolgan.

«Tayxo Yoro ryo»ning «Muassasalar va shtatlar» deb nomlangan maxsus bo‘limi hukumatning keng tarmoqli markaziy va mahalliy, diniy va dunyoviy hokimiyatlari tizimi haqidagi, mansabdor shaxslarning quyidan yuqoriga qarab bo‘ysunishi va amaldorlarning darajalari, ularni tayyolash (Yaponiyaga xitoyliklarning mansablarga tayinlashdagi imtihon ti-zimi kirib kelmagan), shuningdek, ularga xizmatlari uchun «boqimandalik» sifatida, natural yoki yer uchastkalari tarzida maosh bilan ta’minlash to‘g‘risidagi me’yorlarga bag‘ishlangan.

Yaponiyada qonunga binoan, oliy davlat hokimiyati, Xitoydagi singari, Davlat kengashi **(«Dadze-kan»)**ga tegishli bo‘lgan. Davlat kengashi

davlat siyosatining umumiy yo‘nalishlarini ishlab chiqqan, imperatorning farmonlarini butun mamlakat bo‘ylab jo‘natgan. Yaponiyada dunyoviy Davlat kengashi bilan bir qatorda, Xitoydan farqli o‘laroq, maxsus diniy Davlat kengashi **(«dzingi-kan»)** yoki «osmon va yer ruhlarining ishlari bo‘yicha Kengash» ham mavjud edi. U sintoistlarning butxona va ibodatxonalari ruhoniylarining, ibodatxonalarda ro‘yxatga olingan dehqonlarning faoliyati va hokazolar ustidan nazoratni amalga oshirgan. Uning shtati uncha katta bo‘lmagan. **«Dzingi-kan»** boshqa idoralardan ajralgan holda faoliyat ko‘rsatgan, lekin ularning orasida ancha yuqori mavqega ega bo‘lgan.

Yaponiyada dunyoviy Davlat kengashining ichki tuzilishi Xitoy namunasida tashkil etilgan. Uning tepasida «katta ministr» yoki kansler turgan. **Kansler** mamlakat imperatorining boshqaruv ishlarida «tinchlik, osoyishtalik va uyg‘unlikni» ta’minlashning axloqiy o‘lchovi sifatida safarbar qilingan murabbiysi hisoblangan. Qonun, bunday benuqson kishini topish qiyinligini tan olib, ushbu mansabning bo‘sh qolishiga yo‘l qo‘ygan.

Davlat kengashida bevosita boshqaruv funksiyalari ikkita **oliy ministrlar**: chap (katta) va o‘ng (kichik) ministrlar tomonidan amalga oshirilgan. Bu ministrlar o‘z navbatida barcha ishlarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi, «katta ishlar bo‘yicha» kichik maslahatchilarga tavsiyalar beruvchi, shuningdek, «kichik ishlar bo‘yicha» ham maslahatlar beruvchi «katta maslahatchilarga tayanganlar. Aynan ushbu ministrlar kundalik ishlarning borishini kuzatib turardilar va bu haqda Davlat kengashi oldida javob berardilar. Davlat kengashi o‘z rahbarligi ostidagi sakkizta ministrlikka va senzorlar palatasiga ega bo‘lgan. Ministrliklar, Xitoydagidan farq qilib, imperator saroyi bilan chambarchas bog‘liq edi. **Senzorlar palatasining** boshlig‘i esa Xitoydagiga qaraganda tor doiradagi vakolatlarga ega bo‘lib, urf-odatlar va axloqlarning sofligini kuzatib turgan, axloq qoidalarining buzilishi hollari bo‘yicha tekshiruv o‘tkazgan, bular haqida imperatorga doklad qilgan. Uning qaramog‘ida sayyor senzorlar-nazoratchilar shtati bo‘lgan. **Senzoratning** qarorlari **Davlat kengashi** tomonidan to‘xtatilishi mumkin edi.

Yaponiyada harbiy, moliyaviy va adliya ministrliklari bilan bir qatorda maxsus **«umumiy ishlar» ministrligi** mavjud bo‘lgan. U kundalik saroy ishlarini yuritish, marosimlar uyushtirish, imperator farmonlarini tahrir qilish, mamlakat tarixini, qondosh shahzodalarning, saroy xonimlarining va buddizm ruhoniylarining ro‘yxatlarini, shuningdek, aholining asosiy ro‘yxat daftari (reestri)ni tuzishni kuzatib turish kabilarni amalga oshirgan. Bu ministrlik mamlakatning xuddi oliy devonxonasi sifatida davlat boshqaruvida birinchi o‘rinni egallagan. Binobarin, uning boshlig‘i imperatorga

juda yaqin turardi. U Davlat kengashi va boshqa ministrliklar o‘rtasidagi aloqalarni amalga oshirib, dokladlar qabul qilgan va imperatorga petitsiyalar yuborgan.

Umumiy ishlar ministrligi funksiyalarining nihoyatda kengligidan uning o‘nta boshqarmasidagi ko‘p sonli shtatlarning mavjudligi ham dalolat beradi. Bu boshqarmalar orasida imperator ayollarining maxsus saroy boshqarmasi, bosh arxiv boshqarmasi, astrologik boshqarma, rassomlik, saroy ahllari etiketi (saroy ahllariga xos mulozamat va muomalalar) boshqarmasi ajralib turgan. Oxirgi ministrlik faoliyati maxsus marosimlar ministrligi faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ushbu ministrlar faqat saroy ahllariga xos mulozamat va muomalalarga rioya qilinishini kuzatish bilan cheklanmay, davlat maktablarini nazorat qilish, mansabdorlik lavozimlariga nomzodlarni attestatsiyadan o‘tkazish, mansabdorlarni tayinlash va almashtirish, ularni mukofotlash haqida tavsifnomalar berish va boshqa ishlarni ham yuritgan.

O‘sha vaqtda asrlar mobaynida (II jahon urushining oxiriga qadar) yashab kelgan imperator saroyining maxsus ministrligi tashkil etilgan edi. U **«Tayxo Yoro ryo»**ga asosan: bitta maxsus oshxona boshqarmasi, to‘rtta bosh boshqarmalar va o‘n uchta oddiy boshqarmalar tarkibida tuzilgan edi. Maxsus oshxona boshqarmasi saroy uchun oziq-ovqat yetkazib berish va tayyorlash, shuningdek, oshpaz faoliyatini yuritish ishlari bilan shug‘ullangan. To‘rtta bosh boshqarma jumlasiga saroy oshxonasi bosh boshqarmasi, saroy omborxonalari va xo‘jaligi boshqarmasi, saroy qullarini boshqaruvchi boshqarma va boshqalar; oddiy boshqarmalar qatoriga saroy bog‘lari va hovuzlari boshqarmasi, saroyni suv bilan ta’minlash boshqarmasi va boshqalar kirgan. Xullas, imperiya saroyi maxsus ministrligining shtat jadvali juda to‘la bo‘lgan. Unda, boshqa ministrliklardagi singari, ma'murlar, mutaxassislar, devonxona xodimlari va boshqalar ishlagan. Ko‘p sonli ministrliklar va boshqarmalarning mavjudligi sharoitida, **«Tayxo Yoro ryo»** dan ham ko‘rinib turganidek, ular o‘rtasidagi funksiyalar aniq taqsimlab qo‘yilmagan edi. Bu keng tarmoqli davlat apparatini imperator saroyi bog‘lab turardi.

«Tayxo Yoro ryo»ning budda rohiblari va rohibalariga bag‘ishlangan VII qonuni Yaponiyada buddizm dinining ruhoniylari alohida mavqega ega bo‘lganligidan va davlatning oliy nazorati ostida turganligidan dalolat beradi. Qonun budda diniga oid tashkilotlar maqomini tartibga solib, butxona xodimlarining uylariga, bog‘lariga egalik qilishini, sotishini va sudxo‘rlik bilan shug‘ullanishini, sovg‘a tariqasida qullar, qoramollar,

qurol-yarog‘lar olishini taqiqlagan. Bu taqiqlar budda monastrlari va ibodatxonalari yer egaliklarining o‘sishini to‘xtatib qola olmagan.

Urug‘lar o‘rtasidagi nizolar sharoitida budda bosh ruhoniylarining boyligi o‘sishi bilan bir qatorda ularning siyosiy ta’siri ham, siyosiy da’volari ham o‘sgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, buddizmning siyosiy ta’siri o‘rta asrlardagi Uzoq Sharqdagi budda dini hukmron bo‘lgan davlatlarning birontasida Yaponiyadagidek kuchli bo‘lmagan. Yaponiyada XI asr oxiri-XII asr boshiga kelib amalda uchta: imperator saroyi, hukmron urug‘larning uy boshqarmasi (u ko‘p asrlar mobaynida Fudzivara urug‘iga tegishli bo‘lgan) va budda monastirlari siyosiy markazlar bo‘lib qolgan. Imperator voyaga yetgandan so‘ng majburan monaxlikka o‘tkazilgan. Yosh imperator esa hukmron urug‘ qo‘lidagi itoatkor qurol bo‘lib qolgan. Budda ruhoniylari ko‘pincha ushbu hukmron urug‘ga muxolifiyatda bo‘lgan urug‘ni qo‘llab-quvvatlardi.

XII asrdan e’tiboran mahalliy urug‘larning gubernatorlari, noiblari va boshqalar iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuksala boshlagan. Ular amalda o‘z egaliklarida cheklanmagan hukmdorlar - yer egalari bo‘lib qolganlar. Hukmron sinfning turli guruhlari: saroy a'yonlari, kuchli urug‘lar, ruhoniylar o‘rtasida to‘xtovsiz urug‘chilik urushlari sharoitlarida, XII asrda Yaponiyada boshqaruvning yangi shakli - syogunat o‘rnatilgan. **Syogunat** feodallarning o‘ziga xos harbiy diktaturasi bo‘lib, bunda markazda ham, ma’lum darajada mahalliy joylarda ham hokimiyat syogunning - «buyuk lashkarboshi»ning qo‘lida to‘plangan.

Yangi harbiy-byurokratik apparat (bakufu)ga tayanuvchi Minomotoning (1192-1333 yillar) birinchi syogunati[137] o‘rnatilishi bilan Yaponiya feodal davlati rivojlanishining ikkinchi davri boshlangan. Aynan shu vaqtdan e’tiboran davlatning harbiy-siyosiy birlashtirilishi davri boshlangan. Bu Minomatoning tarqoqlikni tugatish, nizolarni bostirish, feodal davlatni o‘z xususiy manfaatlari va butun feodallar sinfi manfaatlari yo‘lida mustahkamlash uchun qilgan sa'i-harakatlari natijasida yuz berdi.

Faqat ba’zi vakillik funksiyalariga ega bo‘lgan imperatorning nomigagina davlat boshlig‘i sifatida saqlanib qolganligi syogunatning xarakterli belgisi hisoblangan. Imperator o‘z martabasiga oid barcha hurmat-ehtiromdan to‘la foydalangan, lekin u ham, uning saroyi ham mamlakat siyosiy hayotida qandaydir muhim rol o‘ynamagan. Imperator saroyi bu davrda feodallar muxolifiyatchiligining markaziga aylandi. Bu o‘zaro urushlarning yangidan ko‘tarilishi sabablaridan biri bo‘lib qoldi.

[137] **Ikkinchi syogunat –** Asigaga (1333-1573 yillar) syogunati, uchinchisi – Tokugava (1603-1867 yillar) syogunati bo`lgan.

Birinchi syogunning markaziy hokimiyatni mustahkamlashga urinishi muvaffaqiyatsiz chiqdi. Syoguning vazifasi ham ancha vaqtgacha nominal bo‘lib qoldi. XII asrning oxiri - XIII asrning boshida syogunatning maxsus ko‘rinishi - **sik-kenat** (sikken - hokim) o‘rnatildi. Minomota vorislari juda yosh bo‘lganligidan, 1199 yildan boshlab davlatni sikkenlar (hokimlar) degan boshqa feodal xonadonlaridan bo‘lgan, asosan buddistlardan iborat regentlar idora qila boshlaydi. Shu tariqa Yaponiyada siyosiy hokimiyatning rasman mavjud bo‘lib turgan ikki «qavati» ustida yana bir «qavat» siyosiy hokimiyat tashkil qilingan. Natijada sikkenlik avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘ta boshlagan. Rasman imperator va syogun siyosiy tuzumda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, lekin katta hokimiyat sikkenga o‘tgan. Sikkenat birinchi Kamakura syogunati qulashigacha davom etgan, lekin Yaponiyada XIX asrning ikkinchi yarmigacha mavjud bo‘lgan harbiy-feodal diktatura xarakterini biron-bir tarzda o‘zgartirmagan.

Imperator saroyi faoliyati ustidan qattiq nazoratni amalga oshiruvchi organlar syogunat hukumati mexanizmining o‘zgarmaydigan bo‘g‘ini edi. 1221 yildan boshlab bakufu (markaziy hukumat) Kiotodagi imperator qarorgohiga syogunning vakili (**tendaya**)ni yo‘llaydigan bo‘ldi. Tendaya syogun nomidan farmonlar chiqarish huquqiga ega edi. Bu farmonlarning bajarilishi tendayaning ixtiyoridagi maxsus harbiy kuchlar-samuraylar qo‘shini bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, syogun yangi imperatorni tasdiqlash, taxt vorisligi tartibini belgilash, regentlar va boshqa oliy saroy maslahatchilarini tayinlish huquqiga ega bo‘lib oldi.

Biroq, hukmron harbiy-feodal doiralar syogunatning doimiy siyosiy-ma’muriy tuzumini birdaniga shakllantira olmadi, syogun hokimiyatini o‘tkazishning merosiy prinsipini o‘rnatolmadi, haqiqiy hokimiyatni o‘z qo‘llarida to‘play olmadi. Buning ustiga ikkinchi syogunat davrida bakufu hokimiyati ancha zaiflashdi. Chunki bu davrda yapon syoguni Xitoyga vassal qaramlikni tan olishga majbur bo‘lgan edi. Bundan keyin yapon imperatorlarini tasdiqlash huquqi Xitoyga o‘tgandi. Bu vaqtda Yaponiyada 20 ga yaqin yirik va ko‘p sonli o‘rta va mayda daymyo mavjud bo‘lib, ular o‘z egalarini amalda mustaqil boshqarar edilar.

Syogunat faqat XVII-XVIII asrlarda mutlaq boshqaruv belgilarini olgan, boshqarish usullari qattiqqo‘llik bilan amalga oshiriladigan bo‘lgan, keng tarmoqli politsiya apparati tashkil etilgan. Uchinchi Tokugavalar syogunatining hukmdori Ieyasi harbiy yo‘l bilan mamlakatni birlashtirdi. U ko‘p feodallar va budda monastirlarining yerlarini musodara qilib, juda yirik yer egasi bo‘lib qoldi.

Uchinchi syogunat mavqeining mustahkamlanishi natijasida imperatorning har qanday siyosiy ta’siri tugatildi. Tokugavalar syogunatida yangi **syosidaya** mansabi - imperatorlik poytaxtida syogunning noibi mansabi joriy qilindi. 1615 yilgi qonun asosida imperator saroyining, hatto, diniy funksiyalari syoguning nazorati ostiga olindi. Syogun barcha oliy darajali saroy amaldorlarining tayinlanishiga aralashardi.

Biroq, bu vaqtda ham Yaponiyaning markazlashtirilishi nisbiy xarakterga ega bo‘ldi. Feodal knyazliklar ma’muriy-siyosiy birliklar sifatida tugatilmagan edi. Mahalliy knyazlar o‘z hududlarida boshqarish, sud qilish huquqini saqlab qoldilar. Lekin syogunda daymyodan hamma yoki bir qism yer egaliklarini barcha vakolatlari bilan tortib olish hokimiyati mavjud edi. Yirik shaharlarda savdo va hunarmandchilik, konruda sanoat korxonalari o‘zgarishsiz bakufu nazorati ostida qoldi.

1635 yilgi qonun bilan mustahkamlangan garovga qo‘yish tizimi bu vaqtda syogun hokimiyatini mustahkamlash vositalaridan biri bo‘lgan. Qonunga binoan hamma daymyo navbatma-navbat syogun uyida yashashlari, o‘z egaliklariga qaytayotganlarida esa oilalarini syogunat poytaxti Edoda qoldirishlari lozim edi. Garovga qo‘yish tizimi imperator o‘g‘illariga ham taalluqli bo‘lgan.

Syogun butun hokimiyat vakolatlarini markazda to‘play borib, imperator boshqaruvi davridagi ko‘p dabdabali belgilaridan mahrum bo‘ldi, lekin baribir ko‘p sonli va keng tarmoqli hisoblangan harbiy-politsiya apparatiga tayanardi. Syogunning eng yaqin yordamchisi uning birinchi maslahatchisi-tayro bo‘lgan. Tayro zaruriyat tug‘ilganda regent vazifasini ham bajarishi mumkin edi. U, qoida bo‘yicha, favqulodda holatlarda tayinlangan. Bundan tashqari, syogun huzurida bevosita hukumat (bakufu)ni tashkil etuvchi katta maslahatchilar ham mavjud edi. Ular o‘z burchlarini uch oy maboynida galma-gal bajarganlar. Bir necha katta maslahatchilar Tokugava syogunatining oxirgi yillarida Davlat kengashini tashkil etganlar. Bu bilan qishloq beshxonadonliklar tizimi joriy qilingan. Bunda davlat oldidagi barcha majburiyatlarni bajarish bo‘yicha hammaning bir-biriga kafilligi bilan bog‘langan beshta qo‘shni dehqon xonadonlari birlashtirilgan edi. Uyezd boshliqlari, hattotlar, kvartal va qishloq oqsoqollari soliqlar yig‘ish, dehqonlar tomonidan ijtimoiy ishlarning bajarilishini nazorat qilish, sud va politsiya funksiyalarini amalga oshirish kabi ishlarni yuritganlar.

Syogunatning o‘rnatilishi bilan barcha provinsiyalarga imperator tomonidan harbiy gubernatorlar, yoki protektorlar (syugo) tayinlanadigan bo‘ldi. Ular viloyatlarning boshliqlari bilan bir qatorda faoliyat ko‘rsatganlar. Ularning vazifasiga markaziy hukumat foydasiga majburiyatlar bajari-

lishini nazorat qilish, isyonlarni bostirish, syogunning siyosiy raqiblarini ta’qib qilish, provinsiyalarni qo‘riqlash kirgan. Syugo ixtiyorida mahalliy gornizon bo‘lgan. Xususiy egalikdagi pomestelarga hukumatning maxsus vakillari yuborilardi.

Ularning asosiy majburiyati pomestelardan keladigan daromadlarni nazorat qilish, feodallar tomonidan barcha soliqlarning, avvalo, harbiy soliqlarning to‘lanishini kuzatib turish, fitnachi, buzg‘unchi, g‘alamislarni ta’qib qilish hisoblangan. Biroq, bu va boshqa tadbirlar syogun hokimiyatining zaiflashuvi davrlarida ko‘zlangan natijalar bermadi. Masalan, XV asrda sobiq protektordan bo‘lgan mahalliy knyazlar o‘z egaliklarida syogun amaldorlarining paydo bo‘lishini taqiqlab, sud va soliq immuniteti huquqini qo‘lga kiritib olganlar. Mahalliy knyazlarning o‘zboshimchaligini qattiq harbiy-politsiyachilik choralari yordami bilan sindirishga ma’lum darajada faqat Tokugavalar sulolasi davrida erishilgan edi.

Tokugavalar sulolasining davlat apparatida qidiruv organlari, maxsus politsiya inspektorlari - **metske** («biriktirilgan ko‘zlar») alohida o‘rin tutgan. Ular amaldorlardan tortib dehqonlargacha mamlakatning barcha aholisi ustidan yashirincha siyosiy nazoratni amalga oshirardilar. Bu apparat tepasida ometske (katta, mashhur metskelar) deb ataluvchi zodagonlar turardi. 1632 yilda ularning huquq va majburiyatlari haqidagi qonun qabul qilinadi. Beshta asosiy politsiya inspektorlari barcha knyazlar va oliy mansabdorlarni kuzatib turardilar.

Mamlakatda ko‘chib yurish qattiq ruxsatnoma tizimi bilan tartibga solingan. Bakufuning oldindan berilgan roziligisiz daymyo qal'alar qurish, uylanish huquqiga ega bo‘lmagan. Dehqonlarni va hammadan avval ulardan soliq yig‘ilishini nazorat qilish uchun Tokugavaning barcha egaliklariga 1644 yilda daykanlar tayinlana boshladi. Daykanlarga qishloqlarning oqsoqollari bo‘ysundirildi.

Shaharlarga tayinlangan shahar boshliqlari boshchilik qilardilar. Ular keng ma’muriy, politsiyachilik va sud hokimiyatini amalga oshirardilar. Shahar boshliqlari bilan birga yirik savdogarlarning kengashlari ham mavjud edi. Lekin, Yaponiyada shaharlarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimi deyarli rivojlanmadi.

Armiya

Yaponiyada hududiy bo‘linish joriy qilingunga qadar armiya urug‘larning drujinasidan iborat edi. Yaponiyada chek yer tizimi bilan birga majburiy harbiy xizmat joriy qilindi.

«Tayxo Yoro ryo» boshqa ministrliklar orasidan harbiy ministrlikni ham ajratib ko‘rsatdi. Harbiy ministrlik zobitlar tarkibi yozilgan ro‘yxatlarni, ularni attestatsiyadan o‘tkazish, tanlash, tayinlash va hokazolarni

yuritgan. Unga bir necha shtab va boshqarmalar: qurol-yarog‘ ombori, harbiy-musiqa, kemasozlik, lochin ovi kabi boshqarmalar bo‘ysungan.

Armiya qismlari hududiy bo‘lgan, lekin provinsiya va uyezdlarda tashkil etilgan va ushlab turilgan. Bir xonadondan bitta yangi askar olingan. Darajali va martabali shaxslarning o‘g‘il va nevaralari imtiyozlardan foydalangan, armiyada xizmat qilishdan ozod etilgan. Hududiy dehqon lashkarlarining jangchilari o‘ziga xos zaxirani tashkil etgan, ular kundalik dehqonchilik ishlaridan ajratilmagan. Chegara qo‘shinlarida, gvardiya va soqchilik qismlarida muddatli xizmat uch yilgacha bo‘lgan.

Armiya o‘nlik tizimi asosida tuzilgan. Ellikboshi, yuzboshi, ikki yuzboshilar nasabi aslzoda bo‘lmaganlardan bo‘lishi mumkin edi, lekin jasur jangchilar bo‘lardi. Mingboshilardan boshlab yuqori lavozimga tayinlanish uchun tegishli daraja (martaba) talab qilinardi. 20 dan ortiq armiya qismi faqat imperatorning buyrug‘i bilan harbiy yurishga chiqishi mumkin edi.

Jangovar buyruqni bajarmaslik yoki jang paytida qurolning yo‘qligi uchun qo‘mondonning buyrug‘i bo‘yicha o‘lim jazosi berilishi mumkin edi. Chegara qo‘shinlarida xizmat qilish xonadonning chaqiruv yoshiga etgan boshqa a’zolarini safarbarlikdan ozod qilgan. Agar yangi chaqiriluvchining otasi yoki xonadon kattasi kasal bo‘lsa, muddatli saroy va chegara xizmatlaridan ozod qilingan. Chegarachilar xizmatga o‘zlari bilan qullarini, xotinlarini, jazmanlarini olib ketardilar.

Xususiy feodal mulkchilikning o‘sishi, o‘zaro urushlar, dehqonlarning qo‘zg‘olonlari natijasida alohida harbiy-feodal tabaqa - samuraylar - professional jangchilar, yirik feodallarning vassallari shakllangan. Yapon samuraylarining maxsus dunyoqarashi, maxsus «iftixor kodeksi» dehqonlar mehnatiga nafratlanish, konfutsiylikning bo‘ysunish va buyruqqa so‘zsiz itoat etish prinsiplari asosida shakllangan edi. Iftixor kodeksini buzish samuray uchun o‘zini o‘zi o‘ldirish - xarakiriga olib kelgan.

Dehqonlarning xalq lashkarlari XVI asrgacha mavjud edi. Dehqonlarning ommaviy qo‘zg‘olonlari munosabati bilan hukmron doiralar endilikda dehqonlarda qurolni saqlab qolish ma'qul emasligini tushunib yetdilar. XV asrdayoq feodallar alohida knyazliklarda dehqonlarni qurolsizlantirdilar, lekin bu umummilliy miqyosda XVI asrning oxirida sodir bo‘ldi, ya’ni syogun Moyotomi Xudeyosi 1588-1590 yillarda butun mamlakat bo‘yicha dehqonlardan qurol-yaroqlarni tortib oldi. Bu tadbir «qilichlar uchun ov» degan nom oldi. 1591 yilgi farmon bilan dehqonlarga jangchi bo‘lish, samuraylarga esa - qandaydir tadbirkorlik bilan shug‘ullanish taqiqlandi.

Samuraylar qo‘shini asosan otliqlardan iborat edi. O‘q otish qurolining paydo bo‘lishi bilan otliq qo‘shinlar yo‘q bo‘la bordi va uning o‘rniga piyoda askarlar keldi.

4. O‘rta asrlarda Yaponiya huquqining asosiy belgilari

Huquq manblari

Yaponiyaning o‘rta asrlardagi huquqi uchun u yoki bu jamoalarda amalda bo‘lgan, u yoki bu tabaqaviy guruhda qaror topgan odat huquqi normalarining hamma joyda tarqalishi xarakterli edi.

Huquq bu vaqtda, agar gunoh, jazo, «xudo sudi» haqidagi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan jazolar to‘g‘risidagi alohida tushunchalarni hisobga olmaganda, hali diniy va axloqiy normalardan ajralmagan edi. Eng qadimgi yapon manbalarida ular «yetti osmon gunohlari» (ancha og‘ir jinoyatlar) va «sakkiz osmon jinoyatlari» (ancha yengil jinoyatlar) ko‘rinishida maydonga chiqqan. Bunday jinoyatlar uchun yo jazo, yoki tuzatish nazarda tutilgan. Yaponiyada yozilgan huquqning tashkil topishi diniy-huquqiy mafkuraning, shuningdek, Xitoy huquqi normalarining kuchli ta’siri ostida yuz berdi. Biroq, Yaponiya davlati va huquqiy institutlari o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qoldi.

Huquqiy normalarninig birinchi yozma nusxalari, masalan, 604 yilgi **Syotoku-taysi Konstitutsiyasi** pand-nasihat, yo‘l-yo‘riq, hukmdorlarning o‘z mansabdorlariga axloqiy o‘gitlari: «farmonlarni hurmat bilan qabul qilish», «ularga so‘zsiz rioya qilish», «xizmatlarni va majburiyatlarni adolatli baholash» va boshqa shu kabi o‘gitlari xarakteriga ega edi.

VII asrda chek yer tizimining joriy qilinishi, jamiyatning darajalarga qat’iy bo‘linishi, xuddi Xitoydagi kabi «kodeks» deb nom olgan qonun hujjatlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Kodekslar yer munosabatlarini, unvonli va darajali amaldorlarning turli guruh va vakillarining huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi normalarni, jinoyat huquqi (ritsu) va ma’muriy huquq (ryo) normalarini (garchand Yaponiya huquqida ular o‘rtasidagi aniq farqlarni ajratish juda qiyin bo‘lsa ham) belgilaydi. Yaponiyaning birinchi kodeksi **«Tayxo ryo»** hisoblanadi. Kodeksni tuzish ustida, 720 yilgi yilnomada ko‘rsatilganidek, **shahzoda Osakabe va Fudzivara** xonadonining vakili Fubito boshchiligidagi 18 kishidan iborat komissiya ishlagan. Kodeks 701 yilda tuzilib, 702 yilda kuchga kirdi. Kodeks ustida ishlash keyinchalik yana davom etdi. U 718 yilda «Yoro ritsu ryo» degan yangi nom bilan chiqarildi va 953 ta moddadan iborat edi. **«Yoro ritsu ryo»** - «Yoro yillari jinoiy va ma’muriy kodeksi» degani edi. Bu kodeks

mamlakatdagi siyosiy barqarorlik munosabati bilan 757 yilda amalga kiritildi.

«Tayxo» va «Yoro» kodekslari birgalikda o‘z davrining yagona qonunlar to‘plamini tashkil etdi. Bu qonunlar to‘plamida Yaponiyaning ilk feodal davlati haqida, o‘z ahamiyatini rasman Meydzi davrigacha (XIX asr) saqlab qolgan yapon an’anaviy huquqi normalari haqida keng ma’lumotlar beriladi. U Yaponiyaning o‘ziga xos sivilizatsiya belgilaridan, yaponlarning boshqa madaniyat yutuqlarini ko‘r-ko‘rona emas, ularni shaklan o‘zgartirib, o‘z mamlakatlari tarixiy-madaniy, milliy xususiyatlariga moslab o‘zlashtirishni bilganliklaridan dalolat beradi.

To‘plamda huquq xususiy va ommaviy huquqqa bo‘linmaydi. Ashyo, nikoh-oila, meros munosabatlari unda ommaviy-huquqiy xarakter kasb etib, jinoiy va ma’muriy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Qonunlar to‘plamida huquq sohalar bo‘yicha ham aniq ajratilmaydi. Agar **«Tayxo Yoro ryo»**ning mazmuniga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda fuqarolik, nikoh-oila, jinoyat va ma’muriy huquq nomalari mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Lekin jinoiy-huquqiy normalarda jinoyatchi yoki jabrlanuvchi tabaqaviy mansubligiga yoki boshqa sabablarga ko‘ra, sodir qilingan jinoyatlar uchun beshta og‘ir jinoiy jazo (o‘lim jazosidan tortib tayoq bilan urush jazolari) nazarda tutilmagan edi. Bu jinoyatlar maxsus kodeks - «**Tayoxo ritsu ryo»**da alohida ajratib ko‘rsatilgandi.

«**Tayoxo Yoro ryo»** 30 ta qonundan iborat edi. Uning I qonuni «Lavozimlar va martabalar» deb nomlanadi va «ministrlardan tortib mirzalarning» darajalari haqidagi jadvalni belgilaydi. Bunda martabalar «aslzoda» va «aslzoda bo‘lmagan» martabalarga, lavozimlar esa - «yuqori» va «quyi» darajalarga ajratiladi. **«Tayxo Yoro ryo»** kodeksining «Muassasalar va shtatlar haqida»gi II qonuni davlatning barcha markaziy va mahalliy muassasalari tuzilishini (tarkibini), shuningdek, ularning shtatlarini o‘rnatadi.

«Budda rohiblari va rohibalari haqida»gi 27 ta moddadan iborat tuzilgan va kengaytirilgan VII qonunning muhim qismi ruhoniylarning jinoyatlari va qilmishlariga bag‘ishlanib, unda bular uchun dunyoviy va cherkov jazolari (kaforat) nazarda tutilgan. VII qonun Yaponiyada budda diniy tashkilotlari, ibodatxonalari va ruhoniylari ustidan oliy davlat nazorati o‘rnatilganligidan ham darak beradi.

O‘sha vaqtdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar to‘g‘risida yaqqol guvohlik beruvchi VIII qonun «hovli» haqida, asosan, dehqon xo‘jaliklari haqida so‘z yuritib, ularni xo‘jalik, tashkiliy, harbiy hisobga olinadigan va asosiysi - soliq (o‘lpon)lar to‘laydigan va majburiyatlar o‘taydigan birliklar sifatida mustahkamlaydi. Bu qonunda meros haqidagi, nikoh va ajralish

haqidagi muhim huquqiy masalalarga oid me’yorlar mavjud. Masalan, Qonunning 27-moddasida nikohgacha munosabatlarda bo‘lgan shaxslarning nikohi so‘zsiz bekor qilinishi talab qilinadi. Bu norma marosimning buzilishiga taalluqli bo‘lgan konfutsiylik axloqining li normalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirib olingan edi.

«Meros qilib olish va meros qilib qoldirish haqida»gi XIII qonun chinovniklardan tortib imperatorgacha aslzodalar uylarining boshliqlari unvonlarini meros qilib qoldirish (taxt vorisligi qoidalari) haqida, shuningdek ular tomonidan tuzilgan nikohlarning qonuniylik shartlari haqida normalar belgilaydi. Jinoiy-huquqiy normalarning eng ko‘p qismi «Tekshiruv va attestatsiya haqida»gi XIV qonunga kiritilgan. U zodagonlar korpusining tashkil etilishi va faoliyatiga bag‘ishlanib, unda xususan, zodagonlarning jinoyatlari va qilmishlari, shuningdek bular uchun jazolarning maxsus tizimi haqida me’yorlar belgilangan. «Jangchilar va chegarachilar haqida»gi XVII qonun qurolli kuchlarning tashkil etilishi haqidagi, jumladan, harbiy jinoyatlar haqidagi qoidalardan iborat edi.

Bu vaqtdagi Yaponiya huquqiy tizimini ko‘rib chiqishda jinoiy-protsessual huquqning juda ko‘p normalarini belgilagan «Turmalar haqida»gi XXIX qonun alohida ahamiyatga ega. Qonunlar to‘plamining mazmunidan ko‘rinib turganidek, konfutsiylik axloqining normalari uning mazmuniga so‘zsiz ta’sir o‘tkazgan. Bundan nafaqat 27-moddaning mazmuni, balki bir qator boshqa normalar ham dalolat beradi. Jumladan, unda «sodir qilinishi mumkin emas» deb hisoblangan har qanday xatti-ha-rakatlar (qilmishlar) uchun jazo berilishini talab qiluvchi konfutsiylikning umumiy qoidasi mustahkamlangan edi.

Shu bilan birga to‘plam ancha kechki davrning axloqiy o‘gitlari emas, huquqiy asar edi. U hukmron rejimning qonunchilik tayanchi bo‘lib qolishga, Yaponiya uchun yagona bo‘lgan, batafsil ishlab chiqilgan huquqiy tizim yordamida uning asoslarini mustahkamlashga da'vat qilingan edi. Shu maqsadda odat huquqini va ilgari chiqarilgan qonun normalarini har tomonlama qayta ko‘rib chiqish, bir xillashtirish, tizimlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Tarixiy adabiyotlarda Yaponiya davlatining bu davrini (VIII-X asrlarni) «huquqiy» deb atalishi ham tasodif emas edi. Chunki bundan keyingi davrlarda qator tarixiy omillar ta’sirida qonunning roli birdaniga tushib ketgan edi.

Bu davrda kodekslar bilan bir qatorda imperatorning farmonlari va qarorlari huquqning muhim manbai hisoblangan. Farmonlar ancha mustaqil xarakterga ega edi. Qarorlar ma’muriy va jinoiy qonunlarning rivojlanishi bilan ularni amaliy tushunish sifatida chiqarilgan.

Farmonlar to‘plamlarga birlashtirilgan. Masalan, 927 yilda «Engi yillarining qarorlar to‘plami» tuzilib, 967 yilda amalga kiritilgan. Farmonlar vaqt o‘tishi bilan tobora kodekslarni ikkinchi o‘ringa surib chiqargan. Yaponiyada syogunat o‘rnatilgandan keyin yagona huquqiy tartibotning barbod bo‘lishi natijasida huquqiy sohada birdaniga o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

«Ritsu» va «ryo» imperatorlik farmoyishlari sifatidagi o‘zining umumyapon me’yoriy xarakterini yo‘qotdi, ahamiyati jihatidan birinchi o‘ringa axloqiy-huquqiy odatlar - **giri** chiqdi. Giri individning hayotning hamma holatlari: ota va o‘g‘il, er va xotin, tog‘a va jiyan munosabatlaridagi xulq-atvorini tartibga soluvchi tartib-intizom tasavvurlaridan kelib chiqqan. U oiladan tashqari munosabatlarda, masalan, mulk egasi va ijarachi, qarz beruvchi va qarz oluvchi, savdogar va mijoz, katta amaldor va unga bo‘ysinuvchi shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan.

Bu davlat hokimiyatining detsentralizatsiyasi[138] va umumiy zaiflashuvi bilan bog‘liq edi. Bakufiyning harbiy diktaturasi sharoitida umum tan olingan ma’muriy-sud organlari, adliya (jazolar) ministrligi ham, imperator shaxsidagi oliy apellyatsiya instansiyasi ham faoliyat ko‘rsatmay qo‘ygan edi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq, yuqoridagilarning quyidagilarga ko‘rsatmalari, eng yaxshi holatda - odat huquqi normasi harakatda bo‘ldi. Bu yangi tartiblar Yaponiyada oldindan tayyorlangan asosga ega edi. Ularning mafkuraviy bazasi konfutsiylik bo‘lib qoldi. Konfutsiylik, ma’lumki, huquqni yoqimsiz deb hisoblagan, uni sud qarorining qat’iyligi bilan birga inkor qilgan. Giriga «tartib-intizomning buzilishi» uchun jamiyat tomonidan tanbeh berilishidan qo‘rqib, g‘ayriixtiyoriy ravishda rioya qilingan.

Ha, haqiqatan ham «tartib-intizom» normalarining maxsus kodeksi, «iftixor kodeksi» (buke-xo) bu vaqtda samuraylar tabaqasi uchun batamom shakllangan edi. U vassalning o‘z syuzereniga mutlaq shaxsiy sodiqligi talablari asosida vujudga keldi, huquq va majburiyatlarning yuridik xususiyati g‘oyasining o‘zini istisno qildi. Vassal-jangchi bilan uning syuzereni o‘rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida emas, soxta qarindoshlik, oilaviy asoslarda, ota va o‘g‘il munosabatlari tarzida bo‘lgan. Vassal bunda o‘z xo‘jayinining o‘zboshimchaligiga qarshi hech qanday kafolatlarga ega emas edi. Bunday deb o‘ylashning o‘zi haqoratli hisoblangan. Samuraylarning har qanday ko‘rinishda haqoratlanishi, badnom bo‘lishi, o‘zini o‘zi o‘ldirish bilan tugagan.

Giri ba’zan qonun yo‘li bilan mustahkamlangan. Masalan, 1232 yilda I syogunat davrida **Dzyoey yillari Qonunnomasi** tuziladi. Qonunnoma samuraylarning «iftixor kodeksi»ni mustahkamlab, feodallarning isyonlari

[138] **Detsentralizatsiya –** markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o`tish yoki o`tkazish.

va fitnalari uchun, ular tomonidan yerlarning noqonuniy egallab olinishi uchun qattiq jazolarni nazarda tutadi. U mavjud yer munosabatlarini tartibga keltirib, yerni meros qilib qoldirishning umumiy tartibini o‘rnatadi.

Syogun va uning vassallari, shuningdek, boshqa feodallar o‘rtasidagi vassalliklenga oid munosabatlarni tartibga solish maqsadida syogunat asosan davlatning, bakufu hukumatining feodal yer egaliklarini mustahkamlashga qaratilgan farmonlar chiqardi. Bunda alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi. Masalan, 1267 yilda gokeninning lenga oid yer egaliklarini sotish va garovga qo‘yishni taqiqlovchi, ularning ilgari garovga qo‘yilgan yerlarining o‘zlari tomonidan sotib olinishi lozimligini belgilovchi hukumat farmoni chiqarildi.

XIII asrning oxiridan boshlab samuraylarning yerlarini sotish va garovga qo‘yish bo‘yicha barcha bitimlarni, ularning sudxo‘rlardan qarzlarini bekor qilishga qaratilgan maxsus «rahm-shafqat» farmonlari chiqarildi. Masalan, 1643 yilda shunday noyob farmonlardan biri chiqarilgan edi. XV-XVI asrlarda umumyapon huquqining roli juda pasayib ketdi. Har bir knyazlik, har bir tabaqa o‘z xususiy qonun-qoidalariga, odat huquqining normalariga amal qilardi. Bunday qonunlar va odat huquqi normalari ba’zi hollarda, asosan axloqiy muqaddas burchlar, instruksiyalar, pand-nasihatlar ko‘rinishlarida to‘plamlarga birlashtirilgan edi.

Ana shunday yirik tabaqaviy me’yoriy to‘plamlardan biri **«Kemmu yillari kodeksi»** (1334-1338 yillar) edi. Mazkur to‘plam «mamlakatdagi isyon»ni tugatishga, syogun siyosiy hokimiyati barqarorligini ta’minlashga qaratilgan edi. Dastlab Yaponiyaning an’analari asosida 17 moddadan iborat tuzilgan ushbu kodeks keyinchalik qator yangi qoidalar bilan to‘ldirilgan. Kodeks ikkinchi syogunat asoschisi Asikaganing savollariga olimlar – monarxlarning javoblari shaklida yozilgan edi. Unda samuraylarning o‘z-boshimchaliklariga bardosh berishga majbur bo‘lgan, soliqlar to‘laydigan va majburiyatlar o‘taydigan yapon dehqonlarining og‘ir ahvoli qonunlashtirilgan edi. Kodeksda hokimiyatga «birovning uyiga o‘z holicha bostirib kirish» amaliyotiga chek qo‘yishi, bo‘shab yotgan yerlarning dehqonlarga berilishi, jinoyatchilarni, ayniqsa, isyonchilar va bosqinchilarni qattiq jazolash buyurilgan edi. Unda poraxo‘rlik va uning uchun javobgarlikka alohida e’tibor berilgan. Poraning miqdoriga qarab mansabdor shaxs umrbod yoki vaqtincha mansabidan chetlashtirilishi mumkin edi. Bu kodeks 1596 yilda alohida kitob tarzida chop etildi va shu tarzda dunyo yuzini ko‘rdi.

Yaponiyada XVII - XVIII asrlarda mamlakatning nisbatan markazlashtirish davrida, xususan, Tokugavaning uchinchi syogunati davrida

qonun ijodkorlik faoliyati ancha jonlandi. Biroq, bu davrda ham u alohida adresga, qonun bo‘yicha, biron-bir tabaqalarga taalluqli edi.

Bu qonunlarda imperatorlar va yirik feodallar (daymyo) ning faoliyati qat’iy tartibga solindi, aholining alohida guruhlari (samuraylar, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar) ning tabaqaviy huquqiy holati o‘rnatildi va buning asosida aholining majburiyatlari hamda ularni buzganlik uchun jazolar mustahkamlandi. Syogun Ieyasuning 1615 yilgi «18 moddali Qonuni» yuqoridagi qonunlarga misol bo‘lishi mumkin. Xususiy huquq, tovar ayirboshlash sohasida ilgarigidek mahalliy odat huquqi hukmronlik qildi.

Faqat XVIII asrda, uchinchi syogunat davrida syogun tomonidan «eski qonunga qat’iy rioya qilish» siyosati e’lon qilinib, «huquqiy davlat» ning eski tartiblariga qaytishga qaratilgan harakat boshlandi. Shu maqsadda 1742 yilda «100 ta moddadan iborat Kodeks» qabul qilindi. Unda ilgarigi qonunlarning, odat huquqi normalarining asosiy mazmuni batartib bayon qilindi. Kodeks VIII asrdagi **Tayxo va Yoro** davrlaridagi eski kodekslarning ko‘p qoidalarini o‘zida mujassam etadi.

Bu davrda qonunni bilish saralangan kishilarning imtiyozi hisoblanganligi sababli yuqoridagi siyosatning pozitiv oqibatlari uncha ahamiyatsiz bo‘ldi. Qonunlar bosib chiqarilmadi. «Qonunni bilish emas, bajarish kerak» degan prinsip harakat qildi. Aholiga faqat qonunninng kichkinagina qismi-qat’iy taqiqlovchi ko‘rsatmalari yetkazildi, xolos. 1742 yilgi Kodeks maxfiy saqlandi. U bilan faqat bakufu hukumatining uchta yuqori amaldori (bugyo) tanishishi mumkin edi. Qonunlarning amal qilish doirasi ham faqat bevosita Tokugava urug‘i egaligiga kiruvchi hududlarga tarqatildi. Daymyoning o‘z xususiy huquqi mavjud edi.

Jinoyat huquqi

Yaponiyaning o‘rta asrlar huquqida deliktlar va jinoyatlar, jinoyat huquqi va ma’muriy huquq normalari va hokazolar o‘rtasida aniq farqlar ajratilmagan edi. An’anaviy tushunchada ryo (xitoycha lin) - qonunlar bo‘lib, uni buzganlik uchun, ritsudan farq qilib, beshta og‘ir jazodan (o‘lim jazosidan tortib tayoq bilan urushgacha) birontasi ham nazarda tutilmagan.

«Huquqiy davlat» davrida Yaponiya huquqi «qonuniylik» talablariga asoslandi. «Qonuniylik» tushunchasi o‘sha vaqtda quyidagi qator qoidalarni: qonun ko‘rsatmalariga og‘ishmay amal qilish haqidagi, jinoyat, qilmish va hatto, xato qilganlik uchun hammaning, xolopdan tortib budda monaxigacha jazolanishi haqidagi, sudyalar va tergovchilarning odil va xolis bo‘lishi haqidagi, ish yuritishning, jumladan, sud jarayonining aniq bo‘lishi haqidagi, shuningdek, jazolarni, ayniqsa o‘lim jazosini qo‘llashda diqqat bilan tekshirish va qayta-qayta tekshirish haqidagi, muayyan ish bo‘yicha

tergov boshlangunga qadar chiqarilgan qonunlarda koʻrsatilgan aybni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olish va aybning ogʻirlashtiruvchi holatlarini hisobga olmaslik haqidagi qoidalarni oʻz ichiga olgan edi.

«Tayxo ritsu ryo» jinoyat kodeksi talonchilik haqidagi, bosqinchilik haqidagi, mushtlashish-urishish chogʻida jarohatlar yetkazish haqidagi va boshqalar haqidagi oʻn ikkita boʻlimdan iborat edi. Kodeksning hamma qoidalari bizgacha yetib kelmagan. Uning har bir qismi xitoyliklarning Tan sulolasi kodeksi boʻyicha qayta tiklangan.

Kodeks jazolar va ogʻir jinoyatlar roʻyxati bilan boshlanadi. Yaponiyada axloq (li) buzilishlar ancha ogʻir jinoyatlar ekanligi haqidagi konfutsiylik tasavvurlari asosida «sakkizta yovuzlik» (Xitoyda - oʻnta yovuzlik) ajratib koʻrsatiladi. «sakkizta yovuzlik» qatoriga, avvalo, imperator hokimiyatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar kiritilgan.

Bular: «isyon» (davlat istiqomatgohlari va maqbaralarini buzish va boshqa jinoyatlar), «davlatga xiyonat» (imperatorning yaqin qarindoshlarini oʻldirish, shuningdek, ularni oʻldirishga suiqasd qilish, urish-doʻpposlash va boshqalar), «shafqatsizlik bilan odam oʻldirish» (bir oiladan uch kishini oʻldirish, oʻz yaqin qarindoshlarini oʻldirish, xotin yoki jazman tomonidan erning qarindoshlarining oʻldirilishi, shuningdek ularni urish-doʻpposlanishi va hokazolar), «buyuk hurmatsizlik» (ibodatxonalarni, muqaddas narsalarni buzish va boshqalar), podshoga nisbatan «yomon soʻz aytish va hurmatsizlik», otaga yoki yaqin qarindoshlarga nisbatan hurmatsizlik (ularga qarshi sud ishlari qoʻzgʻatish yoki ularga la'nat oʻqish, otaonasi tirik paytida oiladan ajralib chiqish, oʻzboshimchalik bilan nikohga kirish va boshqalar), «burchni buzish» (xoʻjayinini, boshligʻini, ustozini oʻldirish va boshqalar) kabi jinoyatlardan iborat boʻlgan.

Besh turkumli jazolar tizimi: oʻlim jazosi (osib oʻldirish yoki boshini tanasidan judo qilish), katorga ishlariga surgun qilish, surgun qilmay, katorga ishlariga mahkum qilish, tayoq bilan urish (60 tadan 100 tagacha), xipchin bilan savalash (10 tadan 50 tagacha) jazolarini oʻz ichiga olgan. Oddiy kishilarning oʻlim jazosi shahar maydonida amalga oshirilgan. Ayollar va mansabdorlar xalq oldida qatl etilmagan. Yuqori darajali mansabdor shaxslarga oʻzini oʻzi oʻldirishga imkoniyat berilgan. Surgun qilish tayinlangan joyning uzoq-yaqinligiga qarab, yaqin, oʻrta va uzoq boʻlishi mumkin edi. Surgunga mahkum qilingan shaxsning xotini va jazmanlari majburiy tartibda joʻnatilgan. Katorga, qoida boʻyicha, yashash joyida majburiy ishga jalb qilish boʻlgan.

«Tayxo Yoro ryo», shuningdek, mol-mulkni musodara qilish, jarima va boshqa jazolarni ham nazarda tutadi. Jinoyatchining musodara qilingan

mol-mulki davlat va uning yaqin qarindoshlari o‘rtasida teng taqsimlangan. Bunda ushbu qarindoshlarning jinoyat ishtirokchisi bo‘lmasligi talab qilingan. Jazodan, hatto o‘lim jazosidan (qadimgi urf-odat in'omi sifatida) pul to‘lab qutilib ketish mumkin edi. Lekin bunday imkoniyat hokimiyatning xohishiga bog‘liq edi. Pul to‘lab jazodan qutilish huquqidan imperatorning qarindoshlari, «6 ta toifadagi munosib» eng yirik amaldorlar so‘zsiz foydalanganlar. Harbiy va fuqarolik mansabdorlari uchun beriladigan maxsus jazolar umumiy jazolardan farq qiladi. Jinoyat sodir etgan mansabdor shaxs o‘lim jazosiga mahkum etilganmi yoki yo‘qmi, imperator tomonidan avf etilganmi yoki pul to‘lab jazodan qutilganmi, qat’i nazar, ma’lum darajada o‘z mansabdorlik huquqlaridan mahrum bo‘lgan: mansabi yoki martabasi pasaytirilgan, bir yoki hamma mansabidan bo‘shatilgan va hokazo. Agar mansabdan bo‘shatish og‘ir jazo sifatida qo‘llanilgan bo‘lsa, undan pul to‘lab qutilish mumkin emasdi. Mansabdorlar ro‘yxatidan o‘chirib tashlash ayniqsa og‘ir jazolardan hisoblanib, bunday shaxslar kelajakda xizmatga qaytish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan.

Yapon huquqida qator og‘ir jinoyatlar uchun mahkum etilgan jinoyatchining yaqin qarindoshlari, shuningdek, mahalliy hokimiyatning (masalan, ro‘yxatga o‘tmagan rohiblarni yashirganlik uchun va h.k.) birgalikdagi javobgarligi mavjud edi. Shu bilan birga chinovniklarning oila a’zolari uchun jazolarning yengillashtirilishi imkoniyati ham nazarda tutilgandi. Mansabdorlarning oila a’zolari o‘z aslzoda qarindoshlarining «soyasi» homiyligidan foydalanishi mumkin edi.

Yaponiya jinoyat huquqining o‘ziga xos belgisi uning normalarining budda cherkovi vakillariga ham qo‘llanishida; kodekslarda dunyoviy jazolar qatorida diniy jazolarning ham tan olinganligida, rohib va rohibalar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar va xatti-harakatlarning xarakteriga qarab dunyoviy jazolarning diniy jazolarga almashtirilishida, ruhoniyning qator diniy qilmishlari uchun, masalan, taqiqlangan kitoblarni tarqatish, saqlash va o‘qish haqida ommaviy va yolg‘on e’lon qilganlik uchun, unvon uchun patentni boshqa shaxsga g‘ayriqonuniy o‘tkazganlik uchun yoki o‘zboshimchalik bilan unvonni qabul qilganlik uchun, o‘ziga o‘t qo‘yishga urinish yoki boshqa shaxsni bunga undaganlik uchun odatdagi jinoiy jazolarning qo‘llanishida ko‘zga tashlanadi.

Odam o‘ldirish, zo‘ravonlik, o‘g‘irlik va boshqa jinoyatlar uchun og‘ir jazolarga mahkum qilingan budda ruhoniylarining vakillari dastlab unvonidan mahrum qilingan. Ularga nisbatan jazolarning ba’zan yengillashtirilishi ham nazarda tutilgan. Masalan, surgun qilish jazosi to‘rt yilga

katorga ishlari bilan almashtirilgan. Tayoq bilan urush jazosida har o‘nta tayoq bilan urish o‘rniga o‘n kunlik kaforat[139] tayinlanishi mumkin edi.

Yaponiya jinoyat huquqida ayb shakllari (qasd va ehtiyotsizlik) haqidagi, suiqasd haqidagi, turli shakllardagi ishtirokchilik haqidagi aniq ifodalangan umumiy prinsiplar va normalar mavjud emasdi. «Shafqatsizlik bilan odam o‘ldirish» holatida «suiqasd» va «qasd» tugallangan jinoyat sifatida ko‘rilgan. Qator hollarda jinoyatga undash, qiziqtirish ancha og‘ir jazolangan.

Yetkazilgan zararni ixtiyoriy to‘lash, keltirilgan zararni bartaraf etish, aybiga iqror bo‘lib kelish, jinoyatni ochishga faol yordam berish kabilar aybni yengillashtiruvi holatlar qatoriga kirgan. Shuningdek, moddiy jihatdan yoki xizmat bo‘yicha qaram kishilar qo‘rqitish yoki majburlash ostida jinoyat sodir etishi, qarindoshlariga nisbatan o‘g‘irlik qilishi singarilar ham aybni yengillashtiruvchi holatlar hisoblangan. Biroq, agar oilaning kichik a’zosi o‘z uyida o‘g‘irlik sodir qilsa, aybni og‘irlashtiruvchi holat bo‘lgan. Retsidiv[140] (uch marta o‘g‘irlik qilish) va mast holatida jinoyat sodir etish aybni og‘irlashtiruvchi holatlar deb topilgan.

Kodeksda «sakkizta yovuzlik»dan tashqari oddiy tarzda odam o‘ldirish, og‘ir tan jarohati yetkazish, tuhmat kabi jinoyatlar uchun ham javobgarliklar o‘rnatilgan. Bular «bevosita» jinoyatlar turkumiga kirgan. Shuningdek, kodeksda jinoyat sodir etishga undash va asossiz sudga berish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Mulkka qarshi jinoyatlardan o‘g‘irlik, (bu bosqinchilikka tenglashtirilgan), shuningdek, yozma ravishda qo‘rqitib (do‘q-po‘pisa va boshqa yo‘llar bilan) mulkni tortib olish va boshqalar ajralib turgan.

Birovning uyiga kechasi bostirib kirgan shaxsni uy egasi «chaqirilmagan mehmon» sifatida o‘ldirish huquqiga ega bo‘lgan. Bu, shu tariqa, zaruriy mudofaaga tenglashtirilgan. Yapon jinoyat huquqi bu vaqtda hali shuursizlik[141] tushunchasini bilmagan. Lekin yosh bolalar, keksa kishilar, ruhiy kasallar, mayib-majruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun jazolar yengillashtirilgan, ularga pul to‘lab jazodan qutilish huquqi berilgan.

Syogunat o‘rnatilgandan keyin jazolar qo‘llashning deyarli barcha «qonuniy» chegaralari yemirilib ketgan, huquqsiz jazolash yoki «nojo‘ya odatlar» shakllari qo‘llana boshlangan. Masalan, samuray o‘zini haqorat qilgan oddiy kishini sudsiz o‘ldirishi mumkin edi. Huquq, shuningdek, odam o‘ldirish uchun albatta jazo berilishi qoidasini o‘rnatmagan edi. Masalan, erning bevafo xotinini va uning jazmanini o‘ldirishi jazolanmagan,

[139] **Kaforat –** gunohkorlarga cherkov tomonidan beriladigan jazo – uzoq toat-ibodat qildirish, ro`za tuttirish va h.k.
[140] **Retsediv –** jinoyatning takrorlanishi.
[141] **Shuursizlik –** kishi o`zini (nima qilayotganligini) bilmaydigan holat.

jinoyat sodir qilgan joyida jinoyatchini o‘ldirishga yoki otasini o‘ldirgan shaxsni qasos tariqasida o‘ldirishga ruxsat etilgan. O‘z bolalarini sudsiz o‘ldirish amaliyoti keng tarqalgan edi. Bu ayniqsa dehqonlarning oilalarida «ortiqcha og‘izlar»dan qutilish uchun tez-tez bo‘lib turadigan holat edi.

Bundan tashqari, jazolar barcha choralar bilan qattiqlashtirilgan, ko‘pincha juda shafqatsiz shakllarda qo‘llanilgan. Masalan, yapon manbalarining darak berishicha, jinoyatchini ko‘pincha yo‘lning o‘tish joyiga bo‘ynigacha tirik holda ko‘mib, oldiga yog‘och arra qo‘yib qo‘yilgan va bu arradan uning yonidan o‘tib ketayotgan har bir kishi uni boshini tanasidan ajratishda foydalanishi mumkin bo‘lgan.

Kodeksning 100 ta moddasida uncha katta miqdorda bo‘lmagan (10 ien summali) o‘g‘irlik uchun javobgarlik belgilangan. Bunday hollarda asosan tan jazosi va tamg‘a bosish qo‘llanilgan. Katta miqdordagi o‘g‘irlik uchun jinoyatchining boshini kesish va murdani mayda bo‘laklarga bo‘lib, toptab, boshini hamma ko‘radigan joyga osib qo‘yish yo‘li bilan qatl etish jazosi nazarda tutilgan. Agar retsidivist tomonidan mayda o‘g‘irlik sodir etilsa ham, unga nisbatan o‘lim jazosi berilishi mumkin edi.

Mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi

VII asrdan boshlab Yaponiyada asrlar mobaynida yer egaligining uchta shakli: davlat yerlari, jamoat yerlari va katta oilalarning yerlari mavjud bo‘lgan. Davlatning chek yer fondi erkin kishilar, xoloplar, qullar (erkin kishiga berilgan chek yerning 1/3 qismi miqdorida), shuningdek, davlat xonadonlari va davlat qulari o‘rtasida taqsimlangan edi. Davlat xonadonlari va davlat qullari, boshqa barcha chek yer oluvchilardan farq qilib, davlat xazinasiga soliqlar to‘lamasdi.

Alohida dehqon xo‘jaliklari ixtiyoridagi yerlar (tomorqa yoki yer uchastkasi, sug‘orilgan yoki haydalgan bo‘z yerlar) oilalarning uch avlodi egaligiga o‘tkazilgan. Tomorqa yoki bog‘ uchastkalari hajmi bo‘yicha «aslzoda» va «aslzoda bo‘lmagan» oilalarda, a’zolarining sonidan qat’i nazar, teng miqdorda edi.

Oila mulki davlat tomonidan har tomonlama qo‘riqlangan. Dehqon xo‘jaligini sababsiz bo‘lish, oiladan o‘zboshimchalik bilan, ruxsatsiz ajralib chiqish va boshqalar taqiqlangan. Oiladan ajralib chiqishni xohlovchi shaxs besh xonadondan «qochoq yoki yolg‘onchi» bo‘lmaganligi haqida kafillik olishi lozim edi. Jamoa mulkiga o‘rmonlar, tog‘lar, bo‘sh yerlar, yaylovlar kirgan. Ulardan har kim foydalanishi mumkin edi.

Alohida muassasalarga mustahkamlab qo‘yilgan yerlardan boshqa davlat yerlari chek yer sifatida taqsimlab berish uchun mo‘ljallangan. Ularning orasida o‘z hajmining kattaligi jihatidan amaldorlarga mansablari va

unvonlari uchun berilgan chek yerlar ajralib turardi. Davlat yerlarining maxsus zahira fondi mavjud edi. Ulardan davlat oldidagi xizmatlari uchun «mukofot tarzida» berilardi. Shu maqsadda imperatorning maxsus farmonlari chiqarilardi. «Buyuk xizmatlari» uchun beriladigan yer uchastkasi cheklanmagan tarzda meros qilib qoldirish huquqi bilan, boshqa xizmatlari uchun - bir yoki ikki avlodga meros qilib qoldirish huquqi bilan egalik qilishga o‘tkazilardi.

Davlat yerlari orasida «saroy» maydonlari ham ajralib turgan. Bunday yerlar mehnat majburiyatlari o‘tash tartibida ishlangan. Faqat xususiy yerlarni sotish mumkin edi. Lekin davlat yerlarini (zaxiradagi fonddan) ham, mansabdorlarning yerlarini ham ijara (arenda)ga berish uchrab turgan. Dehqonlarning chek yerlari faqat boshliqlarining roziligi bilan juda kamdan-kam hollarda ijaraga berilishi mumkin edi. Bog‘ uchastkasini xohlagancha muddatga, haydalgan yerlarni - bir yilga ijaraga berishga ruxsat etilgan. Budda ibodatxonalariga nafaqat maydonlarni, balki bog‘ uchastkalarini ham hadya qilish, sotish qat’iyan taqiqlangan. Ular bilan, hatto, yerlarni almashtirish mumkin emas edi. Yer osti va uning boyliklari o‘z huquqiy maqomi bo‘yicha davlat yerlaridan farq qilmasdi. Ular davlat hokimiyati tomonidan natural majburiyatlar o‘tash sharti bilan xususiy tartibda mis, temir qazib olish uchun berilardi.

O‘rta asrlar yapon huquqida ashyolarning ko‘chadigan va ko‘chmas ashyolarga bo‘lish aniq ishlab chiqilmagandi, lekin topib olingan ashyoning alohida huquqiy maqomi nazarda tutilgandi. Bunday ashyo topib olinganligi e’lon qilingandan so‘ng o‘ttiz kundan keyin uni topib olgan kishining egaligiga o‘tgan. Bir kishi birovning yeridan xazina topib olsa, unga nisbatan egalik huquqi topib olgan kishi va yer egasi o‘rtasida teng hissalarda taqsimlangan. Chek yer tizimining tugatilishi va vassalliklenga oid munosabatlarning rivojlanishi bilan samuray-jangchining merosiy yerlari va benefetsiyalari singari feodal yer egaligi shakllari tobora keng tarqala boshlandi. Keyinchalik samuray-jangchilarga yerlar o‘rniga «sholi ulushlari» beriladigan bo‘ldi.

Tovar-pul munosabatlarining kuchsiz rivojlanishi o‘rta asrlarda Yaponiya huquqida majburiyat haqida aniq yuridik tasavvur, tushuncha shakllanmay qolishiga sabab bo‘ldi. Yevropacha «majburiyat» iborasiga yapon tilidagi «gimu» so‘zi mos tushadi. «Gimu» so‘zi har bir kishining o‘z huquqiy holatidan kelib chiqib qilishi lozim bo‘lgan yoki qilishi taqiqlangan narsani anglatadi. Hamma majburiyat munosabatlari azaliy mavjud deb tan olingan va shu tariqa qat’iy yo‘l qo‘yilgan doiralarda amalga oshirilgan.

«Tayxo Yoro ryo»da faqat o‘nta modda shartnomalarga bag‘ishlangan. Oldi-sotdi, ijara, qarz, garov shartnomalari davlat tomonidan tartibga solingan va ularning buzilishi uchun, qoida bo‘yicha, jinoiy jazo berilgan.

Xususiy savdo Yaponiyada hatto dehqon uchun e’tiborga loyiq hisoblanmagan. U bilan shug‘ullanish beshinchi darajadan boshlab amaldorlarga, samuraylarga va budda rohiblariga taqiqlangan edi. Taqiqlovchi choralarning ko‘pchiligi ichki va ayniqsa tashqi savdoni qamrab olgan. Davlatning o‘zi udel hisoblangan. Uchinchi syogunat davrida tashqi savdo deyarli yo‘qqa chiqarilgan edi, mamlakatning o‘zini o‘zi yakkalab qo‘yish siyosati faol yuritilgandi. Ba’zi turdagi tovarlarni, masalan, qurol-yarog‘larni olish-sotish taqiqlangan. Bozorlardagi savdo ustidan davlatning qattiq nazorati o‘rnatilgan edi. Bu nazorat maxsus tashkil etilgan «bozor idoralari» tomonidan amalga oshirilardi. «Bozor idoraralari» o‘lchov va tarozilarning, qullar savdosida hujjatlarning to‘g‘riligini, tovarlarning sifatini, tovarlardan poshlinalar olinishini va boshqalarni yuritgan. Bozorlardagi narxlar ham davlat tomonidan tartibga solingan. Baholardagi farqlardan ayniqsa amaldorlarning chayqovchilik yo‘lida foydalanishi qattiq jazolangan. Biroq, bu cheklashlar davlat bilan xususiy shaxslar o‘rtasidagi bitimlarga tarqatilmagan edi.

Yapon huquqiga urug‘larni, pullarni xususiy tartibda va davlat tomonidan qarzga berish, jumladan, foizli qarzga berish ma’lum edi. Sudxo‘rlik faqat budda ruhoniysiga taqiqlangan edi. Qarz garov va kafillik bilan ta'minlanardi. Yaponiyada ham, xuddi Hindiston va boshqa sharq mamlakatlaridagidek, kreditor (qarz beruvchi)ning qarz summasidan ortib ketadigan foizlar olishi mumkin emas edi. Kafillardan qarzni undirish, garovga qo‘yilgan mulkni o‘z holicha boshqarish taqiqlangandi. Qarzdor qarzi uchun ishlab berishi mumkin edi, lekin qarz beruvchining qarzdorni qarzi uchun qulga aylantirishi qat’iyan taqiqlangandi. Xonadon oddiy a’zolarining o‘z holicha bitimlar tuzishiga, jumladan, qarz shartnomalari tuzishiga ruxsat etilmagan, chunki faqat oila boshlig‘i oila mulkini boshqarish huquqiga ega edi.

Ish kuchini ijaraga berish shartnomasi ham keng tarqalmagan. Chunki mehnat majburiyatlari, keng tarmoqli ishlab berish mavjud edi. **«Tayxo Yoro ryo»**da ustalar, quruvchilar, tunukachilar, kulolchilar va boshqalarga nisbatan ish vaqtidan tashqari (mehnat majburiyatlariga) ishlar bo‘yicha ish kuchini yollash shartnomasi haqida eslatiladi. Shuningdek, davlat cho‘ponlar va «soliqlar ko‘tarib yuruvchilar»ni doimiy va vaqtincha ishga yollardi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu shartnoma ish kuchini yollovchi shaxsning xodimga nisbatan o‘zboshimchaliklariga qarshi qator kafolatlar

belgilaydi. Masalan, ish kuchini yollash muddati xodimning roziligisiz ellik kundan ortishi mumkin emas edi va hokazo (VIII qonun 22-modda).

Nikoh-oila huquqi

Yaponiya nikoh-oila huquqi din bilan bog‘liq an’anaviy huquq sifatida o‘rta asrlarning barcha bosqichlarida biron-bir ko‘zga ko‘rinarli o‘zgarishlarni boshidan kechirmadi.

Nikohlar oilalar tomonidan tuzilardi. Ota-ona va yaqin qarindoshlarning roziligi nikoh haqiqiyligining majburiy shartlaridan biri bo‘lgan. Shuningdek, kelin va kuyovning tabaqaviy jihatdan tengligi, ularning nikohgacha bo‘lgan munosabatlarining «badnom bo‘lmaganligi» talab qilingan. Nikoh yoshi erkaklar uchun - 15 yosh, ayollar uchun -13 yosh qilib belgilangan edi.

Nikoh ota-onalarning oldindan kelishuvi va unashtirish yo‘li bilan tuzilardi. Uni sababsiz buzish uchun jazolar nazarda tutilgan edi. Nikoh, agar kuyov bir oy mobaynida kelmasa yoki unashtirilgandan keyin uch oy mobaynida tuzalmasa, kelishuv va unashtirish bekor qilinardi. Kuyov yoki kelinning jinoyat sodir qilishi ham unashtirishning bekor qilinishiga olib kelardi.

Erkin kishilar va qullar o‘rtasidagi, «aslzoda» va «aslzoda bo‘lmaganlar» o‘rtasidagi nikohlargina emas, balki «aslzoda bo‘lmaganlar»ning alohida toifalari o‘rtasidagi o‘zaro nikohlar ham taqiqlangan edi. Bunda o‘ziga xos kastaga oid prinsip amalda bo‘lgan. Xitoyda rioya qilinadigan familiyaviy endogamiya[142] ning majburiyligi Yaponiyada o‘rnatilmagan.

Patriarxal oila tartiblari Yaponiya huquqida ham o‘z ifodasini topgan. Lekin bu oilada ayollarning juda huquqsiz holati mavjud bo‘lgan Xitoyga nisbatan kuchsizroq edi. Nikoh asosan monogamiya ko‘rinishida bo‘lgan, jazmanlar hisobga olinmagan. Xotin, Xitoydagi singari, erkaklar: ota, er, o‘g‘illar homiyligi ostida bo‘lgan. Lekin bu homiylik ancha yengil bo‘lgan va qonun bilan tartibga solingan. Er xotinni jazman bilan tenglashtira olmagan, u xotinini jazman uchun majburan o‘tkazib qo‘ya olmagan va nikohni bekor qilolmagan. Nikohning sababsiz bekor qilinishi yangi nikohga kirishning taqiqlanishiga olib kelgan.

Muayyan holatlarda er-xotinning roziligisiz ham nikoh bekor qilinishi mumkin edi. Masalan, ota-onasini va er yoki xotinning boshqa qarindoshlarini o‘ldirishga urinishi, urish-do‘pposlash hollarida er-xotinning roziligini olmay, nikoh bekor qilinishi mumkin edi. Nikoh, xuddi ajralish singari, faqat er-xotining ishi emas, balki ular oilasining ishi ham bo‘lgan. Er yoki xotinning tashabbusi bilan nikohni bekor qilishda ikkalasining ota-

[142] **Endogamiya –** faqat o`z qabilasidagi, urug`idagi kishiga uylanish yoki erga tegish adabi.

onasining roziligi talab qilingan. Bunda ota-onalar «ajralish qog‘ozini» imzolashlari lozim edi. Erning nikohni bekor qilish imkoniyati xotininikiga qaraganda kengroq bo‘lgan. Xotin faqat eri uzoq vaqt, besh yil mobaynida daraksiz yo‘qolganda yoki erning ota-onasi tomonidan qattiq haqoratlanganida nikohni bekor qilishi mumkin edi.

Erning nikohni bekor qilishga bo‘lgan qonuniy asoslari xuddi Xitoydagidek bo‘lgan, lekin bunda hamma holatlarda ham er ajralishgan xotinini uydan haydab yubora olmagan. «Buzuqlik», «qaynona yoki qaynotasiga quloq solmaslik», «esi pastlik» dan tashqari, xotin er bilan ajralishgandan keyin ham (masalan, uning mahmadonaligi, o‘g‘il bola tug‘maganligi, rashkchiligi, egri qo‘lligi bilan bog‘liq ajralishlarda), agar ota-onasining marosimi bo‘yicha motam liboslarini kiyib yurgan bo‘lsa, agar uning ota-onalik oilasi bo‘lmasa, erining uyida qolib yashashi mumkin edi. Er agar xotinining sep-sidirg‘asi bilan boyib ketgan bo‘lsa ham, uning nikohni bekor qilish talabi rad etilishi mumkin edi.

Yapon huquqi noqonuniy tug‘ilgan bolalarga va ota-onasining ijtimoiy mavqei noteng bo‘lgan bolalarga nisbatan adolatsiz bo‘lmagan. Qoida bo‘yicha, ota-onalar o‘zlarining haqiqiy past mavqeini bilmasalar, ularning bolalari ryomin bo‘lib qolgan. Noqonuniy tug‘ilgan bolalar yuqoriroq ijtimoiy mavqeini egallagan ota-onalardan birining oilasiga tarbiya uchun berilgan, lekin bunday bolaning ota-onasi bir-biridan ajratilgan. Xo‘jayin tomonidan qul ayolning zo‘rlanishi natijasida tug‘ilgan bola ham ryomin statusini olgan.

Bolasiz oilalarga urug‘ni davom ettirish maqsadida yaqin qarindoshlaridan farzandlikka olish huquqi berilgan. Bunday bolalar qonuniy tug‘ilgan bolalar ega bo‘lgan barcha huquqlarni olgan. Yapon kodekslarida qonun bo‘yicha meros instituti nisbatan batafsil ishlab chiqilgan edi. Meros qilib qoldiriladigan narsalar qatoriga xoloplar (ya’ni, qaram kishilar, lekin urug‘ning «aslzoda bo‘lmagan kishilari» toifasiga kirmaydiganlar), maydonlar, qurilishlar, boshqa mulklar kirgan. Bunga yana vafot etgan oila boshlig‘i xotinining sep-sidirg‘asi ham kirgan.

Xizmatlar uchun in'om qilingan maydonlar va mulklar meros qilib qoldirilsa, unga nisbatan o‘g‘illar va qizlarning hissasi teng bo‘lgan. Boshqa hollarda birinchi xotinning, shuningdek, katta o‘g‘ilning (xotinidan bo‘lgan o‘g‘illarining ham, jazmanidan bo‘lgan o‘g‘illarining ham) hissasi ikki baravar ko‘p bo‘lgan. Qizlarning hissasi katta o‘g‘ilning oladigan hissaning 1/4 qismi miqdoriga teng edi.

Yaponiya huquqida vasiyat haqidagi masala uncha batafsil ishlab chiqilmagan edi, chunki katta oila mulkchiligi ustunlik qilgan. Vasiyat

bo‘yicha faqat shaxsan orttirilgan yoki shaxsan meros tariqasida olingan mulklar o‘tkazilishi mumkin edi.

Sud jarayoni

«Tayxo Yoro ryo» ning «Turmalar haqida»gi XXIX qonuniga binoan sud jarayoni aralash, ayblov-inkvizitsion xarakterda bo‘lgan. Sud ishi yo davlat muassasasining, yoki alohida shaxsning arizasi bilan boshlangan. «Oshkora» va «yashirincha» chaqimchilik keng tarqalgan.

Yaqin qarindoshlarining o‘ldirilishi haqida xabar berish majburiy bo‘lgan. Agar ular 36 kun ichida odam o‘ldirganligi haqida xabar bermasalar jinoyatda ishtirokchilar sifatida javobgarlikka tortilganlar. Agar xabar isyon haqida, «janobi oliylarining haqorat qilinishi» haqida bo‘lsa, xabar beruvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri imperatorga olib kelingan. Imperatorning yaqin qarindoshlari va xizmatchilarining jinoyati xabar qilinishi mumkin emas edi.

Tergov maxsus tayyorlangan tergovchilar tomonidan olib borilgan. Tergovchilar jinoyatchi bilan qarindosh bo‘lsalar yoki u bilan alohida munosabatda bo‘lsalar, almashtirilishi mumkin edi. Og‘ir jinoyat sodir etilgan hollarda chaqimchini ham, gumondorni ham dastlabki qamoqda saqlash chorasi qo‘llangan. Tergovni olib boruvchi amaldor dalillarning to‘la qimmatligiga ishonch hosil qilishi lozim edi. Og‘ir jinoyatlar sodir etilganda va dalillar aniq bo‘lmaganda qamoqda tergov qilinayotgan shaxsga nisbatan 20 kun ichida 3 marta qiynoq qo‘llash mumkin bo‘lgan. Bunda qiynoqlar orasida muayyan masofalar bo‘lishi lozim edi. Isyon bo‘yicha tergov ishlari diqqat bilan uch marotaba o‘tkazilgan.

Sud ma’muriyatdan ajralmagan edi. Sud ishi javobgarning yashash joyi bo‘yicha, masalan, uyezd boshqarmasida yoki unga yetib borish imkoniyati bo‘lmasa, yaqin oradagi davlat muassasasida qo‘zg‘atilgan.

Ishning biror sud idorasiga oidligi jinoyat sodir etilgan joy bo‘yicha, yoki uning muhimlik darajasi, yoki berilishi mumkin bo‘lgan jazoning og‘irligi bo‘yicha belgilangan. Katorga haqidagi va muddatli surgun haqidagi ishlar provinsiya boshqarmalarida hal qilingan. Og‘ir jazolar deb nazarda tutilgan ishlar esa Adliya ministrligi ko‘ruviga o‘tkazilgan. Bu ministrlikning maxsus sudyalari va tergovchilari nafaqat muhim ishlarni tergov qilganlar, balki quyi instansiya tomonidan chiqarilgan hukmlarni tekshirganlar va qayta ko‘rganlar, qarzlarni undirish haqidagi masalalarni hal qilganlar.

Adliya ministrligi qaramog‘ida ikkita boshqarma: jazolar boshqarmasi va turma boshqarmasi mavjud edi. Jazolar boshqarmasi xazina foydasiga mol-mulkni musodara qilish va jarimalar undirish ishlarini yuritardi.

Turmalar boshqarmasi qamoqqa olinganlar ishining tergov qilinishini, majburiy ishlatilishini, hukmlarning ijro etilishini nazorat qilardi. Adliya ministrligiga o‘lim jazosi, muddatsiz surgun yoki mansabdorni ro‘yxatdan o‘chirish bilan ishdan bo‘shatishga oid ishlar majburiy tartibda o‘tkazilardi. Ba’zi ishlar ko‘rib chiqish uchun Davlat kengashiga yuborilardi. Davlat kengashi bunday ishlarni maxsus qonunshunos-tergovchilar yordamida qo‘shimcha tergov qilishi va bekor qilishi mumkin edi. U o‘zining maxsus inspektorlari yordamida mahalliy sudlar qarorlarining to‘g‘riligini tekshirib turgan. O‘lim jazosi, muddatsiz surgun va mansabdorlarni ro‘yxatdan o‘chirish bilan bog‘liq ishlar imperatorga doklad qilingan. Imperator oliy apellyatsion instantsiya sifatida maydonga chiqqan.

XII BOB. O‘RTA ASRLARDA HINDISTON DAVLATI VA HUQUQI

- ***O‘rta asrlarda Hindiston davlatining rivojlanish xususiyatlari va davrlarga bo‘lish masalalari.***
- ***Hindiston ijtimoiy tuzumining xususiyatlari.***
- ***Hindistonda hokimiyat va davlat boshqaruvining tashkil etilishi.***
- ***O‘rta asrlarda Hindiston huquqining asosiy belgilari.***

1. O‘rta asrlarda Hindiston davlatining rivojlanish xususiyatlari va davrlarga bo‘lish masalalari

O‘rta asrlarda Hindiston jamiyatining sekin va notekis rivojlanishi ushbu davlatni davrlarga bo‘lishni ancha murakkablashtiradi. Qadimgi Hindiston davridayoq feodal munosabatlarni eslatuvchi ba’zi institutlarni uchratish mumkin edi. Masalan, Hindistonda yirik xususiy yer egaligi, qaram dehqonlarning ekspluatatsiya qilinishi va hokazolar qadimgi davrdayoq mavjud bo‘lgan. Qulchilik esa nafaqat o‘rta asrlarda, balki undan keyin ham yo‘qolmagan.

V-VII asrlar Hindiston tarixida shartli ravishda o‘rta asrlarning boshlanish davri hisoblanadi. Lekin bu vaqtda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tuzumida tubdan o‘zgarishlar yuz bermagan edi. Masalan, qadimgi davrdagi Mauriylar imperiyasiga o‘xshagan yirik davlatlar tashkil topmagan edi. O‘rta asrlarda Hindiston siyosiy jihatdan tarqoq bo‘lgan. U IV asrning boshlarida bir necha o‘nlab mayda va yirikroq davlatlardan iborat bo‘lib, bu davlatlar tepasida kichik-kichik podsholar - rojalar turardi.

Ular o‘rtasida tinimsiz o‘zaro urushlar bo‘lib turardi. 320 yilda shimoliy Hindistonning rojalaridan biri Chandragupta I (320-340 yillar) tevarak-atrofdagi podsholarni o‘ziga bo‘ysundirib, Gang daryosi havzasida xiyla katta bir davlat tuzdi, bu davlat Gupta davlati deb atalib, VI asrning boshigacha yashadi. U V asrdayoq tushkunlikka uchraydi, buning asosiy sababi mehnatkash omma ahvolining og‘irligi edi. Gupta podsholigiga uzil-kesil zarba bergan narsa ko‘chmanchi eftalitlar, ya’ni oq gunnlarning bostirib kirishi bo‘ldi, ular V asrning oxiri - VI asrning boshlarida shimoliy chegarani yorib o‘tib, Shimoliy Hindistonning ko‘pgina shahar va qishloqlarini nihoyatda vayron va xarob qilib tashladi. 530 yilda oq gunnlar podsho Guptaning vassali roja Yasodxarma tomonidan tor-mor qilindi. Gunnlarni yenggandan keyin, Yasodxarma Gupta sulolasiga itoat qilishdan bosh

tortib, o‘zi maxaroja unvonini oldi. Lekin unga Gupta davlati hududining bir qismigina bo‘ysundi.

VII asrning boshlarida Xarsha (606-647 yillar) davlati burmuncha vaqtgacha yuksalib bordi. Xarsha Kanauja knyazligining rojasi edi, so‘ngra u butun Shimoliy Hindistonni o‘ziga bo‘ysundirdi. Xarsha davlati Gang daryosi vodiysi bo‘ylab Sharqiy Panjobdan to Bengaliya qo‘ltig‘igacha bo‘lgan hududni o‘z ichiga oldi. Markaziy Hindistonning knyazlari ham Xarshaga vassal qaramlikda edi. Hammasi bo‘lib 40 tacha knyaz unga qaram edi. Xarsha imperiyasi uzoq umr ko‘rmadi. Uning hokimiyati feodallashuv jarayonining kuchayishi, o‘z vassallari - rojalar qudratining tobora ortib borishi natijasida zaiflashdi; bu rojalar pirovardida butunlay mustaqil bo‘lib, markazga itoat etmay qo‘ydi. Xarsha vafotidan keyin uning davlati parchalanib ketdi. Uzoq vaqtgacha Hindiston chet el bosqinchilariga qarshilik ko‘rsata olmaydigan tarqoq bir mamlakat bo‘lib keldi.

Shiddatli va shafqatsiz o‘zaro urushlar mamlakatni og‘ir ahvolga solib qo‘ydi hamda musulmon istilochilarini Hindistonning shimoliy qismini bosib olishini yengillashtirdi. Natijada Hindistonning shimoliga juda ko‘p musulmonlar - xurosonliklar, turk va afg‘onlar borib o‘rnashdi. Shimoliy-Sharqiy Hindiston (hozirgi Pokiston) aholisining bir qismi islom dinini qabul qilib, bora-bora istilochilar bilan aralashib ketdi.

XII asr oxirlarida Hindistonga Fazna istilochilari hal qiluvchi hujum qildi. 1175 yilda Fazna hokimi Muhammad Guriy Panjobga bostirib kirib, uni egallagach, sharqqa qarab siljishni davom ettirdi. 90-yillarda u Jamna bilan Gang daryolari o‘rtasidagi butun yerlarni, so‘ngra esa Bengaliyani bosib oldi, Guriy vafotidan (1206 yildan) keyin uning noibi Qutbiddin Oybek Faznadan ajralib chiqib, Hindistonning shimolida (hozirgi Hindiston Respublikasining poytaxti Dehlini markaz qilib) mustaqil davlat tuzdi. Yangi davlat poytaxt shaharning nomi bilan Dehli sultonligi deb yuritiladigan bo‘ldi. 1206 yilda Fazna sultonlaridan mustaqil bo‘lib olgan Dehli sultonligi XIII va XIV asr davomida ancha katta davlat sifatida yashadi.

Dehli sultonligi ayniqsa XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida kengaydi, bu vaqtda uning tarkibiga Shimoliy Hindistondan tashqari Markaziy Hindiston viloyatlari va Dekan yassi tog‘ligidagi ko‘pchilik davlatlar kirardi. Dekan 1306-1310 yillarda sulton Oloviddin Xiljiy tomonidan bosib olindi. Navbatdagi sultonlardan biri - Muhammad Tug‘laq (1325-1351 yillar) deyarli butun Hindistonni bo‘ysundirib, hatto Eron bilan Xitoyni zabt etishni orzu qilgan edi. Ammo sultonlikning kengayishi mustahkam xarakterga ega emas edi. XIV asr o‘rtalarida Dehli ajralib chiqdi, ko‘p o‘tmay Dehlidan shimoldagi ko‘pgina viloyatlar, shu jumladan, Bengaliya ajralib

ketdi. Dehli sultonligi tarkibiga kirgan koʻpchilik viloyatlar XIV asrning ikkinchi yarmida mustaqil davlatga aylanib oldi. Sulton Dehlining oʻzida uncha mustahkam hokimiyatga ega emasdi, chunki u yerda feodallarning turli guruhlari oʻrtasida hokimiyat uchun uzluksiz kurash borardi.

XIV asrda Hindiston tamomila tarqoq feodal davlat edi. Juda koʻp musulmon va hind feodal davlatlari bir-birlari bilan uzluksiz kurash olib borardilar. Shafqatsiz feodal ekspluatatsiyasi va toʻxtovsiz ichki feodal urushlari. 70-yillarda Dehli sultoni oʻz qoʻlida qolgan ozgina yerlarni ham himoya qilishga qodir emasdi. Markaziy hokimiyatning zaifligi Hindistonni yangi chet el hujumlariga qarshilik koʻrsata olmaydigan qilib qoʻydi. XIV asrning oxirida Dehli sultonligi Amir Temur qoʻshinlari tomonidan qaqshatqich zarbaga uchradi. Ammo Temur Hindistonni birlashtirish va hatto uni Oʻrta Osiyodagi oʻz yerlari bilan biror darajada mustahkam bogʻlash maqsadini qoʻymagan edi. Boshqa yurishlar bilan band boʻlgan Temur Hindistonni oʻz holicha tashlab qoʻya qoldi. Temur vafotidan keyin Hindiston oʻzining mustaqil davlatini tuzishi mumkindek tuyuldi, biroq bu yerdagi iqtisodiy inqiroz bunga halaqit bergan edi. Toʻgʻri, XIV-XV asrlarda Hindistonning janubida ancha yirik davlatlar - Baxmani va Vijayanagar mavjud edi. Lekin ular ham uzoq yashamadi va tez orada bir necha mayda knyazliklarga ajralib ketdi. XVI asrda Hindistonda yevropaliklar paydo boʻldi. Portugallar yevropaliklar ichida Hindistonni mustamlakachilik ekspluatatsiyasiga birinchi boʻlib duchor qildilar. Keyinchalik, XVI asr oxiri XVII asr boshlarida ularga gollandlar va inglizlar kelib qoʻshildilar. XV asr mobaynida Dehli sultonligi buyuk davlat boʻlmay qolgan edi. Dehli shahri va uning atrofidagi yerlar hukmroni Dehlining buyuk sultoni degan dabdabali unvonga ega boʻlsa ham, Shimoliy Hindistondagi oddiy davlat - knyazliklardan biri edi. Eng yirik davlat - qoʻshni Bengaliya knyazligi edi, biroq u ham loaqal Shimoliy Hindiston uchun gegemonik rolini oʻz zimmasiga ololmas edi.

1526 yilda Temurning evarasi - amir Bobur afgʻon togʻ yoʻllari orqali Hindistonga kirib bordi. U Dehlini bosib olib, oʻzini Hindiston imperatori (toʻgʻirogʻi - shoh) deb eʼlon qildi. Bobur bu yerda Hindiston va Afgʻoniston yerlaridan iborat katta bir davlatga asos soldi. Bu davlat koʻpgina tarixiy, shuningdek, huquqiy-tarixiy adabiyotlarda Buyuk moʻgʻullar imperiyasi[143] deb notoʻgʻri yuritiladi. Chunki uning asoschisi Bobur oʻzbek shoiri va yozuvchisi, sarkarda va davlat arbobi boʻlib, uni moʻgʻullar avlo-

[143] Qarang: История государства и права зарубежных стран.Часть 1. Учебник для вузов/ Под ред. проф. Крашенинниковой Н.А. и проф. Жидкова О.А.-М.:Издательство НОРМА, 1996. – 409-b.; История государства и права зарубежных стран. Т.1,-М., 1963. – 572-, 579-, 581-betlar.

diga hech qanday aloqasi yo‘q. Shuning uchun Bobur asos solgan ushbu sulolani Boburiylar saltanati deb atash haqiqatga yaqindir. Bundan tashqari, Boburning avlodlari o‘zlarini «mo‘g‘ullar» deb emas, «Boburiy mirzolar» deb atashgan[144].

Bobur va uning vorislari davrida Hindiston har tomonlama ravnaq topdi. Lekin Boburiylarning so‘nggi vakili Avrangzeb vafotidan so‘ng bu saltanat ayrim parchalarga bo‘linib ketdi va tez orada Yevropa mustamlakachilari tomonidan asoratga solindi. Shu tariqa, Hindistonning o‘rta asrlardagi rivojlanishi ham nihoyasiga yetdi.

Umuman, o‘rta asrlarda Hindiston davlati va huquqi tarixini quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1) Hind feodal davlatining tashkil topishi davri (IV-X asrlar); 2) Dehli sultonligi va Boburiylar saltanati davri (X-XVI asrlar); 3) Hind feodal davlatining inqirozi va Angliya hukmronligining o‘rnatilishi davri. Garchand, Hindistonning o‘rta asrlarda davrlarga bo‘linishi masalasida yagona fikr bo‘lmasa-da, uni yana quyidagicha davrlarga bo‘lish ham mumkin: 1) ilk o‘rta asrlar (VI-X asrlar); 2) rivojlangan o‘rta asrlar (X-XVI asrlar); 3) kechki o‘rta asrlar (XVI asrdan keyingi davr).

2. Hindiston ijtimoiy tuzumining xususiyatlari

Ilk o‘rta asrlardan boshlab dehqonlar jamoalarini asoratga solish, ularni soliqqa tortish jarayoni kuchaygan, xususiy yer egaligining o‘sishi bilan feodal ekspluatatsiyaning turli shakllari vujudga kelgan.

Gupta davrida Hindistonning ijtimoiy tuzumi asosan hali quldorlik xarakterini saqlab qolgan edi. Qullar turli irrigatsiya va qurilish ishlarida, qishloq xo‘jaligida hamda ko‘pdan-ko‘pi xizmatkor va malay sifatida uy-ro‘zg‘or ishlarida keng foydalanilardi. Qullar bozori keng yo‘lga qo‘yilgunicha davom etmoqda edi. Qullar Osiyodangina emas, hattoki Afrikadan ham keltirilardi.

Hind jamiyatida quldorlikka xos alomatlarning mavjudligi aholining kastalarga (tabaqalarga) bo‘linishida ham namoyon bo‘lgan edi, bu bo‘linish Gupta davrida ham saqlanib, yanada rivojlanmoqda edi. Qadimiy kastalarning to‘rtta asosiy turi - braxmanlar (kohinlar), kshatriylar (jangchilar), vayshiylar (dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar) va shudralar (sobiq qullarning va har toifadagi qaram kishilarning eng past tabaqasi bo‘lib, bular «kishi hazar qiladigan» ishlarni bajaruvchi kishilar edi) - hali juda

[144] **Muqimov Z.** Chet mamlakatlar davlat va huquqi tarixi. (Qadimgi va o`rta asrlar davlati va huquqi tarixi). – Samarqand, 1992. 154-b.;Азимжонова С. Государства Бабура в Кабуле и в Индии.-М.: Наука, 1979.

qadim zamonlarda tarkib topgan hind jamiyati ijtimoiy tuzilishining turli bosqichlarini ifoda etardi. O‘rta asrlarning boshlarida hind kastalari ancha evolyutsionlashdi. Braxmanlar va kshatriylar kohin va harbiy tabaqalarga aylanib ketdilar, davlat hokimiyati ularning qo‘lida edi, shu bilan birga ular juda ko‘p qullari bo‘lgan eng yirik yer egalari edilar. Ikkinchi bir o‘rtacha va past darajadagi kastalar vaqt o‘tishi bilan maydalashib bordi. Gupta davrida kastalarning miqdori bir necha o‘n turdan oshdi. Jamiyatning shudraga oid eng tuban kastasi «hazarli kishilar» deb atalar edi, chunki ular oliy kasta vakillariga yaqinlashsa, bu oliy zotlarni go‘yo harom qiladi deb hisoblanardi.

Eng past kastalarning haq-huquqsizligi, xo‘rlanishi quldorlik tuzumi mafkurasining eng yorqin ifodasi edi, quldorlik tuzumi davrida kishilar, bir tomondan, to‘la huquqli, erkin quldor-hukmdorlarga, ikkinchi tomondan, butunlay haq-huquqsiz, xo‘rlangan, zadalangan qullarga yoki shularga o‘xshab ketadigan kishilarga bo‘lingan edi.

Ammo Hindistondagi quldorlik tuzumining yana bir xarakterli xususiyati shu ediki, rivojlangan quldorchilik va ekspluatatsiyaning quldorlik tizimi bilan bir qatorda g‘oyat katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan jamoa dehqonchiligi ham doim mavjud bo‘lib, yashab kelmoqda edi. Qishloq jamoasi quldorlik tuzumi davrida ham, keyinchalik borib feodalizm davrida ham hind jamiyatining quyi ijtimoiy-iqtisodiy yacheykasi bo‘lib xizmat qildi, bu jamiyat shu yacheyka ustiga qurilgan edi. Har bir qishloqning ma’lum miqdorda ekinzor yeri va yaylovi bor edi. Har bir qishloqning tepasida oqsoqol va yana bir necha mansabdor kishi turardi. Qishloq jamoasi bir necha o‘n yoki bir necha yuz oiladan iborat bo‘lib, hunarmandchilikning qishloq xo‘jaligi bilan qo‘shilishiga asoslangan boshlang‘ich ishlab chiqarish yacheykasini tashkil qilardi. Gupta podsholarining iqtisodiy qudrati birinchi navbatda behisob dehqon jamoalarini ekspluatatsiya qilishga asoslangan edi.

Biroq, Gupta davri quldorlik tizimining tushkunlikka yuz tuta boshlaganligi bilan tavsiflanadi. Quldorlik tuzumi zamirida feodal tuzumi elementlari tashkil topayotgan edi. G‘arbiy Yevropa va Arab xalifaligi mamlakatlarida ko‘rganimizdek, feodal jamiyatining negizi bo‘lgan juda ko‘p sonli jamoa dehqonchiligining mavjudligi hind jamiyatiga quldorlik tuzumidan feodal tuzumiga o‘tishni yengillashtirdi. Gupta davrida quldorchilik tugatilib, feodalizm tug‘ila boshlaganligini bir qancha faktlardan ko‘rishimiz mumkin. Qullar tez-tez erkinlikka qo‘yib yuboriladigan va muayyan xizmatlarni o‘tash sharti bilan ularga uncha katta bo‘lmagan yer uchastkalari ajratib beriladigan bo‘ldi. Podsho xo‘jaligidagi yerlarning hammasida

qullar ishlamas edi, bu yerlarning talay qismi hosilning bir qismini podsho xo‘jaligiga topshirish sharti bilan ijaraga berilardi. Mayda ijarachilikka o‘tilishiga sabab, manbalarning ko‘rsatishicha, qullarning yetishmasligi edi. Shu bilan bir vaqtda qishloq jamoasining o‘z ichida muhim jarayonlar yuz bermoqda edi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi va ishlab chiqarish qurollarining takomillashishi natijasida kichikroq oilaning kuchi bilan ham xo‘jalik yuritish mumkin bo‘lib qoldi. Katta oilalar mayda-mayda oilalarga bo‘linib ketdi; katta oilaga qarashli chek yerlar ham parchalanib ketdi; bunda to‘ng‘ich o‘g‘ilga ukalariga qaraganda ko‘proq yer ajratib berilar edi. Oddiy jamoachilarning bir qismi xonavayron bo‘lib, jamoaning ancha boyroq a’zolariga qaram bo‘lib qolardi. Jamoa ichida ekspluatatorlar qatlami bunyodga kelar edi, bularning juda ko‘p mol-hayvonlari va mehnat qurollari bo‘lib, xonavayron bo‘lgan jamoachilarni ekspluatatsiya qilar edilar. Bularning hammasi oqibat-natijada feodal qaramligi munosabatlarining o‘rnatilishiga olib keldi.

XIII-XVI asrlarda Hindistonda feodal tuzumi o‘ziga xos tarzda rivojlandi. Bir tomondan, Hindistonda musulmon yer egaligi tizimi qaror topib, shu tufayli butun yerlar davlat boshlig‘i - sultonning mulki hisoblanardi. Kelgindi musulmon feodallari sultonning harbiy xizmatchisi bo‘lib, undan iqta - vaqtincha va umrbod foydalanish uchun yer olardilar. Ular aholidan (dehqonlardan) renta undirib olish huquqiga ega edilar. Ikkinchi tomondan, mamlakatda mahalliy feodallar - knyazlar (rojalar) saqlanib qolgandi. Ular o‘z viloyatlarini amalda mustaqil ravishda boshqarib, sultonga muayyan miqdorda boj to‘lardilar. O‘rta va mayda hind feodallari - rojaputlar va boshqalar - qisman meros bo‘lib qolgan feodal mulkchiligi huquqi asosida, qisman harbiy xizmatni o‘tab turgan paytida vaqtincha beriladigan in'om tariqasidagi yerga egalik qilardilar. Vaqt o‘tishi bilan kelgindi iqtadorlar ham yerning merosxo‘r egalariga aylanib bordilar, ammo bu jarayon XIV asrning oxirigacha ham tugallanmadi. Yerlarning katta qismi har ikkala din - mahalliy hind dini (eski ibodatxona yer egaligi) hamda yangi, musulmon dinidagi (vaqf yerlari) ruhoniylarning qo‘lida edi.

Bu davrda Hindiston feodal tuzumining yana bir xususiyati - jamoachi dehqon xo‘jaliklarining ilgarigidek ustun bo‘lib qolganligidir. Mahalliy hind va kelgindi turk-musulmon feodallarining o‘zlari odatda xo‘jalik bilan shug‘ullanmas, balki qaram dehqonlardan oziq-ovqat rentasi, qisman pul rentasini undirib olardilar. Barshchina ishlari mavjud bo‘lgan joylarda asosan qullar va past tabaqa dehqonlar mehnatidan foydalanilardi.

XIII-XIV asrlarda Hindiston feodal tuzumining xarakterli xususiyati - shahar hayotining ancha intensiv rivojlanishidir. Qadimgi tarix davrida-yoq mavjud bo‘lgan shaharlar qatoriga sultonlar va ularning nabiralari - feodallarning rezidentsiyasi sifatida vujudga kelgan ko‘pgina yangi shaharlar qo‘shildi. Dehli shahrining o‘zi ana shunday feodal-poytaxt shahri uchun misol bo‘la oladi. Bu yerda juda ko‘plab saroy ahli va xizmatchilari, askarlar, amaldorlar va shu singarilardan tashqari, ko‘pgina hunarmandlar va savdogarlar yashab, ular sulton saroyi hamda poytaxtdagi boshqa feodallarning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirdilar.

Agrar munosabatlar ilgari Dehli sultonligida qanday rivojlangan bo‘lsa, Boburiylar davrida ham xuddi shunday yo‘nalishda rivojlanaverdi, ammo ularning Hindistonning yangi yerlarini bosib olishi natijasida yerga davlatning feodal usulida egalik qilishi yanada kuchaydi. Imperator hamma yerlarning oliy egasi deb hisoblanardi. Aslida u yerlarning bir qis-migagina egalik qilardi. Imperatorga tegishli yerlar mamlakatdagi ekin ekiladigan hamma yerlarning taxminan sakkizdan bir qismiga teng edi.

Ana shu yerlardan olinadigan daromad shoh saroyi va shoh qo‘shin-lari harajatlari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilardi. Qolgan yerlarni imperator asosan feodal zodagonlariga, ko‘proq musulmonlarga jagirlar sifatida bo‘lib berar edi. Jagirning ma’nosi harbiy xizmat o‘talayotgan muddatda beriladigan va meros bo‘lib qoladigan yer demakdir. Jagir egasi - jagirdor rasman o‘ziga qarashli yerlarda yashovchi aholidan feodal ren-tasi yig‘ish huquqinigina olardi. Amalda esa jagirdor mehnatkash aholi ustidan hukmdlorlik qilar, aholiga o‘zi xohlaganicha turli soliqlar solar va oddiy xalqni har xil ishlarni bajarishga majbur qilar edilar. Jagirlarning hajmi har xil bo‘lardi; ularning ko‘pchilik qismi juda katta bo‘lib, ularda bir yo‘la o‘n minglarcha dehqonlar ishlardilar.

Feodal yer egaligining asosiy shakli bo‘lgan jagir bilan bir qatorda mamlakatdagi yerga egalik qilishning ilgari tarkib topgan va yangidan ri-vojlanayotgan boshqa shakllari ham bor edi. Jumladan, Boburiylar davlati-da hind feodallari bosib oluvchilarga bo‘ysunish va ularga muntazam boj to‘lash sharti bilan yerga egalik qilishni saqlab qolgan edilar. Mahalliy beklar va qabilalarning rahbarlari - zamindorlar kelgindi zabtchilar uchun aholidan soliq to‘plash huquqini olgan edilar. Zamindorlar vazifasi meros bo‘lib o‘tadi deb e’lon qilinganligi sababli, zamindorlar vaqt o‘tishi bilan soliq yig‘iladigan ana shu yerlarni ham o‘z yer mulklarining bir turi deb hisoblay boshladilar. Yer mulki asosan, musulmonlar qo‘liga o‘tgan bo‘-lsa, savdo, sudxo‘rlik operatsiyalari va ayniqsa hunarmandchilik mahalliy hind aholisi qo‘lida qoldi. Musulmon savdogarlari qadimdan beri O‘rta

Osiyo va Yaqin Sharq bilan savdo aloqalari qilib kelayotganliklari sababli quruqlikda va qisman dengiz orqali tashqi savdodagina hindlardan ustun turardilar.

Aholining asosiy qismini dehqonlar ommasi tashkil qilib, feodal zulmning butun og‘irligi shular zimmasiga tushardi. Qisman natura tarzida, qisman pul rentasi tarzida soliq to‘laydigan jamoachi dehqonlarning ahvoli asosan ilgarigi asrlardagidek qolavergan bo‘lsa ham, Boburiylar davrida har holda Hindistonda muhim iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y berib, bu o‘zgarishlar eski jamoa tizimining buzila boshlanganligidan dalolat berardi. Buning asosiy sababi mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bo‘ldi. Ayni vaqda Hindistonda shaharlar rivojlandi, sanoat ishlab chiqarishi o‘sdi; rivojlanayotgan shaharlar qishloq xo‘jalik mahsulotlariga tobora ko‘proq ehtiyoj sezdilar. Bularning hammasi mayda qishloqlarning biqiqligini ko‘p jihatdan yo‘qotgan edi. Dehqon jamoalari tobora ko‘proq bozor munosabatlariga jalb qilindilar.

Shuning natijasida jamoalar ichida dehqonlarning turli guruhlari o‘rtasida tengsizlik kelib chiqdi. Jamoa zodagonlari (oqsoqol, mirza, mahalliy do‘konchi va boshqalar) jamoaning chek yerlariga ega bo‘lgan a’zolari bilan birgalikda dehqon kambag‘allariga qarama-qarshi turardilar. Kambag‘allarining katta qismi «moxov» kastalari deb ataladigan past tabaqa vakillaridan iborat edi. Bu kambag‘allar batraklar sifatida ekspluatatsiya qilinardilar. Kambag‘al dehqonlar, shuningdek, ip yigirish va gazlama to‘qish bilan shug‘ullanardilar. Patriarxal-jamoa tartiblarining yemirilishi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va feodal ekspluatatsiyasining o‘sishi sharoitida hind qishlog‘ining qashshoqlashuvi keyinchalik ko‘plab keng xalq harakatlarini keltirib chiqardiki, bu harakatlar oqibat natijada Boburiylar davlatini inqirozga olib keldi.

3. Hindistonda hokimiyat va davlat boshqaruvining tashkil etilishi

Markaziy boshqaruv

Milodning IV asrlari boshlariga qadar Hindiston bir necha mustaqil davlatlardan iborat bo‘lib, har bir davlat boshida mamlakatini to‘la egallagan podsholar – Maxarajalar turgan. IV asrning boshlarida shimoliy Hindiston, Gang va Hind daryolari havzasini birlashtirgan juda katta imperiya - Guptalar davlati vujudga keladi. Bu boshida hindlar turgan oxirgi saltanat bo‘lib, VI asrlargacha hukm suradi. Hindiston VI-XII asrlarda bir-biri bilan iqtisodiy aloqada bo‘lgan ko‘p sonli davlatlar - knyazliklarning yig‘indisidan iborat bo‘lib, dastlabki davrlarda ushbu davlatlarda urug‘doshchilik munosabat-

larining ko‘pgina qoldiqlari saqlanib qolgan edi. Bu davlatlar tepasida kichik-kichik podsholar-rojalar turar edi, ular hukmron tabaqalarga – braxmanlar tabaqasiga (kohinlarga) va kshatriylar tabaqasiga (harbiy zodagonlarga) suyanar edi. Vaqti-vaqti bilan bu davlatlar urushlar natijasida hukmdorlar tomonidan ancha yirikroq davlatlarga birlashtirilib turardi.

VII asrda rivojlangan Xarsha, Chalukilar davlatlari, VIII asrdagi Gudjara-Pratixarlar davlatlari ana shunday davlatlar bo‘lgan. Lekin ular ham qabilaviy podsholiklar yig‘indisidan iborat primitiv davlatlar edi. Ularning chegaralari doimo o‘zgarib turardi hamda muntazam ma’muriy apparati tashkil etilmagandi. Bu davlatlar tepasida **maxarajalar** - buyuk knyazlar turardi. Ba’zi mayda podsholiklarda podsholar saylab qo‘yilardi. Maxarajalarga maslahatchilar yordam berardi. Maslahatchilar **mantri-parishad** deb ataluvchi maslahatchi organ tarkibiga kirardilar. Davlat apparatida muhim o‘rin harbiylarga va soliq yig‘uvchilarga tegishli edi.

An’anaviy siyosiy tarqoqlik, markaziy davlat apparatining kuchsizligi o‘rta asrlar Hindistoni uchun xos bo‘lgan belgi edi. Bu hind jamiyati jamoaviy tashkilotlarining mustahkamligi, barqaror mavjudligi va o‘z-o‘zidan rivojlanishi bilan ham tavsiflanadi.

Hindiston musulmonlar tomonidan bosib olingandan so‘ng ma’lum darajada davlat birligiga erishilgan. Musulmonlarning Hindistondagi bosqinchilik urushlari XII asrdayoq boshlangan edi. Bosib olingan hind yerlari dastlab Guriylar davlati tarkibiga kiritilgan, so‘ngra esa XIII asrdan Dehli sultonligi nomini olgan mustaqil davlatga ajratilgan. 1229 yilda Dehli sultonligi Bog‘dod xalifasi tomonidan mustaqil davlat sifatida tan olingan. Biroq Dehli hukmdorlarining boshqa musulmon dunyosi bilan mustahkam aloqalari uzilib qolmagan. Dehli sultonlari u yoki bu chet el hukmdorlarining - turklar, tojiklar, forslarning gumashtalari bo‘lib qolaverganlar.

XVI asrning boshida Hindiston Bobur qo‘shinlari tomonidan bosib olingan. Yuqorida aytganimizdek, tarixda noto‘g‘ri nom bilan yuritiladigan «Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi» vujudga kelgan. Bu aslida Boburiylar saltanati edi. XVI asrning oxiri - XVII asrda ushbu davlat juda ravnaq topgan.

Dehli sultonligida ham, Boburiylar saltanatida ham monarxiya boshqaruv tizimiga asoslangan davlat hokimiyati organlari musulmon davlatining islom diniy ta’limoti asosida tashkil etilgan edi. Bu ta’limotga asosan Allohga ishonuvchi barcha musulmonlar bitta boshliqqa ega bo‘lishi kerak. Musulmon davlati bevosita Alloh tomonidan boshqarilmaydi. Balki Alloh qonunlari asosida uning yerdagi vakili tomonidan yoki ko‘p hollarda ruhoniylar kengashi tomonidan boshqariladi, bu kengash islom dinining

o‘ziga xos qoidalariga ega bo‘ladi. Rasman musulmon hukmdorlarining vakolatlari ana shu qoidalar asosida belgilanadi.

Lekin amalda bu vakolatlar hukmdorlar va zodagonlar o‘rtasidagi hokimiyat uchun tinimsiz kurashlar natijasida belgilanar edi. Masalan, Dehli sultonligida musulmon zodagonlarining kuch-qudrati Nasriddin Mahmud (1246-1265 yillar) hukmronligi davrida sultonlar mavqeining mustahkamlanishi bilan almashgan. Muhammad Tug‘loq (1325-1351 yillar) o‘z tanga pullariga «Sulton - xudoning soyasi» deb yozdirib qo‘ygan edi. Bobokalonimiz Bobur esa ilohiy huquqlarga ega bo‘lgan **podshoh** unvonini olgan edi.

Davlat boshlig‘i (sulton, podshoh)ning hokimiyati merosiy bo‘lgan. U o‘ziga taxt vorisi tayinlashi mumkin edi. Qur’onda hukmdorlarning majburiyatlari sanab o‘tilgan. Ulardan birinchisi islomni himoya qilish, jumladan, diniy urf-odatlarni qo‘llab-quvvatlash va bid'atchilarni ta’qib qilish hisoblangan. Musulmon hukmdorlar bu talablarga bosib olingan Hindistonda har doim amal qilavermaganlar. Chunki hayot ko‘pincha ularni ma’lum yon berishlar qilishga, din erkinligi siyosatini yuritishga majbur qilardi.

Musulmon hukmdorlari oliy qonun chiqarish va sud hokimiyatiga ega edi. Musulmon davlatida davlat boshlig‘idan keyin ikkinchi shaxs - oliy chinovnik - **vazir** bo‘lgan. U harbiy va moliyaviy idoraga rahbarlik qilgan. Uning asosiy majburiyati sultonning buyruqlarini hayotga tadbiq qilish edi. Vazirlar ko‘pincha butun hokimiyatni o‘z qo‘llarida to‘plardilar.

Dehli sultonligida ham, Buyuk Boburiylar saltanatida ham markaziy boshqaruvni maxsus hukumat idoralari - **devonlar** amalga oshirgan. Devonlar boshqaruvning turli sohalarini idora qilganlar, turli ma’lumotlarni saqlovchi maxsus kitoblar yuritganlar, umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan statistik ma'lumotlar to‘plaganlar.

Harbiy mahkama musulmon davlati mexanizmida alohida o‘rinni egallardi. U harbiy kuchlarni, yollanma qo‘shinlar sonini, sulton yoki podshohning shaxsiy qo‘riqchilarini, yer va pul mukofotlarini, gornizonlarning joylashgan joyini hisobga olish bilan shug‘ullanardi. Bu mahkamaning bosh intendanti[145] va xazinachisi Boburiylar saltanatida jagirlar berilishini nazorat qilgan, ko‘riklarda qo‘shinlar hisobini, uning qurollanishini tekshirgan. Moliya mahkamasi davlat xazinasiga soliqlar, o‘lponlar va boshqa tushumlarning kelib tushishini va hisobga olinishini nazorat qilgan.

Barcha davlat xizmatchilarining tayinlanishini va ularga davlat xazinasidan mablag‘lar hamda yerlar berilishini maxsus mahkama amalga

[145] **Intendant –** armiyada moddiy ta'minot xizmatini bajaruvchi harbiy xodim.

oshirgan. Bu mahkama tepasida XVI asrda **mirsamana** turardi. U bir vaqtning o‘zida podshohlik ustaxonalari va omborxonalarini ham yuritardi. Davlatning yana bir muhim mahkamasi - **Sadr-us-sudur** bo‘lgan. U o‘ziga xos din va sud bosh boshqarmasi hisoblangan. Unga bevosita podshohning o‘zi yoki uning tomonidan tayinlangan maxsus vakil boshchilik qilgan. Qozilar xuddi shu mahkama tomonidan tayinlanardi.

Dehli sultonligida ham, Boburiylar saltanatida ham saroy mansabdorlari va davlat mansabdorlari funksiyalari o‘rtasida aniq chegaralar yo‘q edi. Dehli sultonligining saroyi mamlakat siyosiy hayotining va imperiya boshqaruvining markazi bo‘lgan. Saroyda saroy boshqaruvchisi - **vakildor** alohida o‘rin tutardi. U sultonning oilasiga va yaqinlariga qilinadigan xizmatlarni uyushtirgan, ularning ovqatlanishini ta'minlagan, sultonning xizmatkorlarini boshqargan. Boburiylar saltanatida barcha saroy xizmatchilari harbiy unvon va darajaga ega bo‘lganlar. Ular ko‘pincha davlat mansabdorlari faoliyati ustidan nazorat qilib turganlar. Markaziy boshqaruvda podshohning shaxsiy kotibi katta rol o‘ynardi. U podshoh farmonlarini ko‘rib chiquvchi maxsus amaldor edi.

Dehli sultonligi va Boburiylar saltanati davlat mexanizmining umumiy belgilari ular o‘rtasidagi farqlarni istisno qilmagan. Har ikki davlat o‘z vaqtida o‘ziga xos davlat organlari, mansabdor shaxslari va siyosiy rejimi bilan ajralib turgan. Dehli sultonligining hukmdorlari bosib olingan mamlakatlarda o‘z hokimiyatini xalq va isyonchi hind hukmdorlari qarshiligini bostirishning qattiq usullari bilan o‘rnatganlar. Sultonlar harbiy kuchlarga suyanib, bo‘ysunmagan kishilarning mol-mulklarini musodara qilganlar, o‘zlarini o‘ldirganlar. Islom (sunniylik oqimi) davlat dini, fors tili esa - sud ishlarini yuritish tili bo‘lib qolgan. Boburiylar hukmronligi mutlaqo boshqacha yo‘ldan bordi. Masalan, Boburning nevarasi shoh Akbar o‘zidan oldin o‘tgan shohlardan boshqacha yo‘l tutib, hind feodallarini o‘z xizmatiga tortishga harakat qilgan edi. Shuningdek, u hind savdogarlariga doim homiylik qilib kelgan edi. Induizmga e’tiqod qiluvchilarga nisbatan diniy ta’qib ham Akbar davrida to‘xtatildi.

Hind aholisi juz'yadan, ya’ni hindlarni kamsituvchi, jon boshiga solinadigan og‘ir soliqlardan ozod qilingan edi, bundan oldin esa bu soliqdan faqat musulmonlargina ozod edi. Akbar din erkinligi to‘g‘risida farmon chiqarib, avvallari majburiy ravishda islom diniga kiritilgan hindlarga o‘zlarining ilgarigi dinlariga bemalol qaytishga ruxsat etgan edi. Akbar podsholik qilgan davr har ikkala lager - musulmon va hind feodallari muayyan darajada jipslashgan davr bo‘ldi. Bu davrda juda katta miqdordagi yerlar nafaqat musulmon ruhoniylariga, balki induslarning ibodatxonalariga ham

berildi. Shaharlarga nisbatan siyosatda ham ba’zi o‘zgarishlar yuz berdi. Masalan, Akbar davridan boshlab ma’muriy va soliq apparatidagi oliy mansablarga savdogarlardan, hunarmandlardan va past tabaqadan shaxslar tayinlana boshlandi.

Boburiy hukmdorlar sunniylik oqimining xanafiylar mazhabidan bo‘lganliklari uchun boshqaruv va sud ishlarini yuritishda mahalliy sharoitlarni hisobga olishni talab qilardilar. Akbarning bu yo‘ldagi siyosatini uning vorislari - o‘g‘li Jahongir (1605-1627 yillar) va nabirasi shoh Jahon (1627-1658 yillar) davom ettirdi.

Mahalliy boshqaruv

Qadimgi Hindistondayoq ma’muriy bo‘linishning joriy qilinishi jamoachi dehqonlardan soliq va o‘lponlar undirish maqsadiga bo‘ysundirilgan edi. Masalan, Gupta va Xarsha imperiyalari provinsiyalarga bo‘linib, ularni chegara viloyatlarining boshliqlari yoki noiblar boshqarardilar. Provinsiyalar okruglarga bo‘lingandi. Eng kichik ma’muriy birlik qishloq jamoasi edi.

Musulmon hukmdorlari yangi ma’muriy-hududiy bo‘linishni joriy qilganlar. Dehli sultonligi 23 ta provinsiyaga bo‘lingan. Yirik provinsiyalar **shiki** (viloyat)larga bo‘lingan edi. Undan keyingi ma’muriy-hududiy birlik - **pargana** (tuman) bo‘lgan. Uning tarkibiga bir qancha qishloqlar va **patta** - bir-ikki qishloq kirgan. Boburiylar saltanati Akbar podsholigi davrida 15 ta viloyatga bo‘linib, har bir viloyatga shoh noibi - hakam (gubernator) boshliq qilib qo‘yilgan edi. Shuningdek, har bir viloyatga **foujarlar** - harbiy boshliqlar, **gumashtalar** - soliq yig‘uvchilar va **kutvollar** - shahar boshliqlari tayinlanardi.

Dehli sultonligida ham, Boburiylar saltanatida ham ma’lum darajada braxman-kshatriylarning yuqori tabaqasi boshchiligidagi jamoalarning o‘zini o‘zi boshqaruvi saqlanib qolgan edi. Musulmon hukmdorlari hind jamoalarini, ayniqsa yirik jamoalarni to‘liq bo‘ysundira olmaganlar. Masalan, Boburiylar mahalliy hukmron urug‘larning egaliklarini tan olmaganlar. Lekin amalda pargana va patta singari ma’muriy birliklar urug‘larning egaliklari bilan mos tushgan.

Hind jamoalari tepasida **mukkadamlar, chaudxrlar** (dohiylar) turgan. Ular hukmron bo‘lgan kastalarning boshliqlari edilar. Jamoalar tarkibida bir nechta qishloqlar bo‘lardi. Qishloq tepasida **xuta** turgan. Mukkadamlar, chaudxrlar, xutalar markaziy apparatning mansabdorlari emas, soliq to‘lovchilarning vakillari edi. Jamoa mansablari meros bo‘lib o‘tardi, shuningdek merosxo‘rlar o‘rtasida taqsimlanardi. Bu vaqtda jamoa kengashlari - panchayatlar ham mavjud edi. Panchayatlar okrugda, qishloqda hukmron bo‘lgan kastalarning vakillaridan iborat tarkibda bo‘lardi.

Armiya Musulmon hukmron rejimining musathkamligi uning armiyasining jangovarligini belgilagan. Musulmonlardan iborat otliq askarlar armiyaning asosiy kuchi bo‘lgan. Saroy qo‘riqchilariga va boshqa saralab olingan qo‘shinlarga alohida o‘rin ajratilgan edi. Dehli sultonligining armiyasi o‘nlik tizimi asosida tashkil etilgan edi. Harbiy va fuqarolik chini harbiylarning soniga qarab belgilangan. **Amir** yuzta chavandozga, **malik** - mingta chavandozga, **xon** - o‘n mingta chavandozga qo‘mondonlik qilardi.

Boburiylar saltanatida qo‘shinlar soni yollanma askarlar hisobiga ancha ko‘paytirilgan edi. YOllanma askarlarga bevosita xazinadan haq to‘lanardi. Yollanma askarlar alohida imtiyozli mavqega ega edilar. Ular bevosita podshohga itoat etardilar. Shunisi diqqatga sazovorki, qudratli yer egaliklari o‘zlarining harbiy qo‘shinlariga ega edilar. Yirik hind jamoalari o‘z hududlarini va huquqlarini qo‘lga qurol olib birgalikda himoya qilardilar.

Sud Barcha musulmon davlatlarida sud ishlarini yuritish Qur’on qoidalari asosida amalga oshirilgan. Bunga ko‘ra, sud ma’muriyatdan ajratilgan va davlat boshlig‘i tomonidan tayinlangan qozilar tomonidan amalga oshirilar edi. Sud tizimida sud mansabdorlarining pog‘onama-pog‘ona bo‘ysunishi, fuqarolik va jinoiy sud ishlarini yuritish o‘rtasidagi farq ham mavjud emas edi. Qozilar ishlarni yakka o‘zlari ko‘rib hal qilganlar. Mahalliy qishloq, kastaga oid jamoalarning barqarorligi maxsus panchayatlar sudlarining mavjudligini belgilagan. Panchayatlar sudlari muhim vakolatlarga ega edilar. Ular jamoalarning yerlarini taqsimlaganlar, kastalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solganlar, kastaga oid va oilaviy tartib-qoidalarga rioya qilinishini kuzatib turganlar.

4. O‘rta asrlarda Hindiston huquqining asosiy belgilari

Huquq manbalari O‘rta asrlarda Hindistonning huquqiy tizimi musulmon huquqi ta’siri ostida muhim o‘zgarishlarga uchradi. Hindistonda musulmon hukmronligi o‘rnatilgandan keyin mahalliy huquq va dxarmashastra huquqining qo‘llanishi ham shaxslar doirasi jihatidan, ham bu huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi jihatidan qisqardi. Jinoyat ishlari musulmon huquqi normalari asosida musulmon sudyalari - qozilar tomonidan hal etilishi lozim edi. Musulmon huquqi hududiy xarakter kasb etib, bosib olingan hududlar aholisining barchasiga qo‘llanilardi. Musulmon huquqi normalari o‘zining eskirgan kontsepsiyalari, sun’iy, kam samarali dalillar

tizimi bilan 1832 yilda mustamlakachi davlat tomonidan musulmon huquqi normalarining barcha nomusulmonlarga nisbatan qo‘llashning bekor qilinishi haqidagi qonun qabul qilinguncha qaror harakatda bo‘ldi.

Din bilan bog‘liq hisoblangan barcha munosabatlar - nikoh-oila munosabatlari, meros, diniy muassasalar faoliyati alohida huquqiy tizimlar bilan, ya’ni musulmonlar haqidagi ishlar musulmon huquqi bilan, induizm dinidagi kishilar haqidagi ishlar hind huquqi bilan tartibga solingan. Bundan tashqari, musulmon bosqinchiligi kasta va jamoa tartiblariga kam ta’sir etgan. Bu yerda panchayat, kasta sudlari harakat qilavergan. Ular jinoiy ishlarni ham mahalliy odat huquqi asosida ko‘rib hal qilardilar.

O‘rta asrlar Hindistonida qadimgi dxarmashstralar huquqini qaytadan tahlil qilish, tanqidiy o‘rganish, sharhlash, uni yangi sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan jadal jarayon boshlangan. Ko‘p sonli huquqiy traktatlar (asarlar)ning, u yoki bu dxarmashstralarga sharhlarning yoki u yoki bu huquqiy masalalar bo‘yicha indiuzm dinida e’tibor qozongan kishilarning fikrlari to‘plamlari (nibandxlar) ning paydo bo‘lishi ushbu jarayonning natijasi bo‘ldi. Sharhlar va nibandxlar vaqt o‘tishi bilan hind huquqining asosiy manbalari sifatida maydonga chiqa boshlaydi. Digestalar (nibandxlar) mualliflari va sharhlovchilari tomonidan dxarmashstralar huquqidagi qarama-qarshiliklarni, noaniqliklarni, kamchiliklarning bartaraf etilishi shunga olib keldiki, sudlarda dxarmashstralarni bevosita sharhlash oqibatda yetarlicha ishonarli va nufuzli deb tan olinmaydigan bo‘ldi.

Eng dastlabki sharhlovchilardan biri Asaxayya (taxminan VII asrda) bo‘lib, u mashhur Narada dxarmashstrasini - Naradab-xaziyani sharhlagan. Ayniqsa Manu qonunlari tez-tez qayta yozilgan va sharhlangan. Bizgacha Manu qonunlariga yozilgan Bxaruchchi (VIII asr), Medxatitxi (IX asr), Gavindaraji (XII-XIII asrlar) va boshqalarning sharhlari yetib kelgan. Shuningdek, yana bir boshqa mashhur dxarmashstra - Yajna-valka ham bir necha marta sharhlangan. Yajnavalkaga sharhlardan biri XI asrda Vijnaneshvara tomonidan yozilgan **Mitaksharа**dir. Vijnaneshvara Hindistonda keng tarqalgan ikki hind huquqi maktablaridan biriga ana shunday nom bergan edi. Hind huquqining boshqa maktabi - **Dayabxachi**ning asoschisi Jimutavaxan bo‘ladi. U XII asrda nibandxa tuzgan edi. Nibandxada meros huquqi va katta ajralmas hind oilasi mulkini taqsimlashning ba’zi masalalari Mitaksharaga qaraganda boshqacharoq hal qilingan.

O‘rta asrlar Hindistonida sharhlar qadimgi dxarmashstralar kabi davlat qonunchiligi tomonidan siqib qo‘yilmadi. Hind huquqi rivojlanishining bu xususiyati bir qator omillar bilan izohlanadi. Shuni ta’kidlash joizki, ba’zi sharhlar hukmdorlar topshirig‘i bo‘yicha yozilgan

va ularning sanksiyasi bilan harakatda edi. Sharhlovchilar orasida yuqori martabali rasmiy kishilar koʻp boʻlgan.

Oʻrta asrlar Hindistonida XIII asrda musulmon bosqinchilari kelgunga qadar davlat birligi boʻlmagan. Bu narsa huquqning xilma-xilligiga sabab boʻlgan. Nibandxlar adabiyoti - muayyan huquq institutlari boʻyicha sitatalarning tematik toʻplamlari dxarmashstralarning turli mualliflari qoidalarini ma'lum darajada yagona holga keltirish, bir-biri bilan moslashtirishga harakat natijasi edi. Bunga yangi huquqiy asarlar yaratish yoʻli bilan erishish mumkin edi. Sharhlovchilar dxarmashstralarni tuzuvchilardan keyin huquqni hind jamiyatini birlashtirish tendensiyasiga javob beradigan darajada birxillashtirishga harakat qiladilar.

Hindiston uzoq vaqt mobaynida induizmning huquqiy, axloqiy, falsafiy qarashlar barqarorligi bilan ajralib turadi. Muqaddas deb hisoblangan an'anaviy huquqni rivojlantirish yoʻllari haqida ham alohida qarashlar mavjud edi. Sharhlovchilarning faoliyati bu qarashlarga mos tushgan. Chunki ular yangi qonunlar yaratishga da'vo qilmaganlar, oʻz oldilariga faqat dxarmashstralar talablarini sharhlashni, ularning koʻrsatmalarini e'lon qilishni maqsad qilib qoʻyganlar, xolos.

Huquqni birxillashtirishga qaratilgan barcha harakatlarda sharhlovchilarning fikrlari hamma masalalarda mos kelishi mumkin emas edi. Chunki ular avval turli vaqtlarda odat huquqiga asoslanib yozilgan edi. Ancha keyingi sharhlovchilar koʻpincha ilgarigi sharhlovchilarni faqat ularni inkor qilish uchun eslab oʻtardilar. Oʻrta asrlar Hindistonining turli qismlarida ba'zi sharhlovchilarning obroʻ-e'tibori tan olinsa, boshqa sharhlovchilarning obroʻ-e'tibori inkor qilinardi. Bu esa yuqorida koʻrsatilgan ikki huquqiy maktablarning vujudga kelishiga olib keldi.

Qadimgi davrdagidek, oʻrta asrlar Hindistonida ham odat huquqi an'anaviy hind huquqining muhim manbalaridan biri boʻlib qolaverdi. Odat huquqi normalaridan keng foydalangan sharhlovchilar nazariy jihatdan oʻzgarmas hisoblangan «muqaddas» dxarmashstralar huquqini yangi sharoitlarga moslashtirdilar. Koʻpincha odatlar sharhlovchilar tomonidan amaldagi hind huquqiga kiritilgan.

Hind huquqi asrlar mobaynida koʻp tilli, xilma-xil irqli, tarqoq Hindistonda mahalliy odatlarga, kishilarning oʻziga xos yurish-turishlariga moslashib, huquqni bir butun qilib birlashtirishda muhim oʻrin tutadi. Hindistonning huquq tizimida odatlarning tutgan oʻrni haqida dxarmashastralarning mualliflari toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatib oʻtadilar. Masalan, VI asrga oid dxarmashastralardan biri - **Brixaspatismriti**da oʻrnatilishicha, qadimgi odatlar ularga asoslangan har qanday amaliyotni qonunlashtiradi va sud

qarori faqat dxarmashastralarning ko‘rsatmalari asosidagina chaqirilishi mumkin emas. Agar dxarmashastralar huquqning mohiyatiga va qadimgi odatlarga zid kelsa, ular odil sudlovga zarar keltirishi mumkin (II, 26-28). Shuningdek, Medxatitxining Manu qonunlariga yozgan sharhlarida ko‘rsatilganidek, mahalliy odatlarga jiddiy zid kelgan dxarmashastralarga amal qilmaslik lozim edi.

Odatlarning o‘rta asrlar hind huquqi manbalari orasida tutgan o‘rni bu vaqtda Hindistonning rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi. Turli xil siyosiy elitalar o‘rtasidagi urushlar, tarqoqlik an’anaviy huquqning chuqur diniy-g‘oyaviy ildizlariga ta’sir etmadi yoki juda kam ta’sir etdi. Nazariy jihatdan o‘zgarmas bo‘lgan diniy-huquqiy tizim turli yo‘llar bilan jamiyat ehtiyojlariga moslashdi. Agar musulmon huquqida bir mazhab boshqa mazhabga moslashishda qiyosiy huquq usulidan foydalangan bo‘lsa, hind huquqi jamiyat ehtiyojlariga odatlarni o‘z huquqiy tizimiga kiritish orqali moslashdi.

An’anaviy konsepsiyalarning kundalik amaliyot bilan o‘zgarib borishi ma’lum darajada «haqiqat prinsiplari»ni dxarmalarning qo‘shimcha ko‘rsatmalari sifatida qo‘llashga yordam berdi. Dxarmashastralarning diniy nufuziga, ularning an’anaviy huquqiy mavzulariga murojaat qilish xususiy huquqni, xususan, nikoh-oila, meros, shaxs huquqiy holati institutlarini ishlab chiqish bo‘yicha sharhlovchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Dayabxaga ham, Mitakshara ham katta bo‘linmas hind oilalari munosabatlarini, shuningdek, ushbu oila a’zolarining boshqa shaxslar bilan va davlat bilan munosabatlarini tartibga solishga bag‘ishlangan.

Katta, bo‘linmas (birlashgan) hind oilasi u yoki bu darajada o‘rta asrlar hind huquqining deyarli barcha normalari mazmunini belgilaydi. Bu vaqtda Hindistonda ham ota liniyasi bo‘yicha, ham ona liniyasi bo‘yicha oilaviy, uy jamoalari mavjud bo‘lishda davom etdi. Ular ikki asosiy belgisi: katta oila a’zolarining birgalikdagi mehnati va mehnat mahsulotlarining ular o‘rtasida teng taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Mulkka birgalikda egalik qilish va xo‘jalikni birgalikda yuritish - katta (bo‘linmagan) oilaning asosi, an’anaviy huquqning asosiy prinsipi esa - ko‘chmas mulk: yer oilada qolishi kerak edi.

Bundan shu narsa kelib chiqadiki, oilaning alohida a’zolari mulkdor deb tan olinmaydi, oila mulkini tasarruf qilish cheklanadi, uni faqat oila boshlig‘i, boshqaruvchisi tasarruf qilishi mumkin. Oila boshlig‘ining hokimiyati kattalik obro‘ e’tiboriga, uning avlodlar diniy udumlari bilan bog‘liq urf-odatlarni bajarishiga asoslangan. Ota-bobolarga hurmat, ibodat qil-

ish katta oilaviy jamoalarning diniy asosi, uni bog‘lab turuvchi omil hisoblangan. Bu bilan nikoh marosimi ham bog‘liq edi. Nikoh kuyov va kelin o‘rtasida tuziladigan, ularning ittifoqini buzilmas qilib belgilaydigan muqaddas bitim hisoblanardi.

Nikoh, farzandlikka olish, meros institutlarining asosiy maqsadi avlodlarni hurmat qilish, urf-odatlarni, dinga xizmat qilishni ado etish hisoblangan. Zero, bularga oilaning moddiy va ma'naviy boyligining asosiy sharti sifatida qaralgan. Masalan, Dayabxaga bo‘yicha katta oilaning mulki ilgari ham, endilikda ham otaga tegishli edi. Ota oila boshlig‘i sifatida uni o‘z xohishicha tasarruf qilish: sotish, garovga qo‘yish, hadya qilish va boshqa huquqlarga ega bo‘lgan. Dayabxaga bo‘yicha o‘g‘illar ota hayotligida oila mulkiga nisbatan hech qanday huquqqa ega bo‘lmaganlar; otadan oila mulkini sotganligi, hadya qilganligi va boshqa yo‘llar bilan begonalashtirganligi uchun hisobot talab qila olmaganlar, shuningdek, undan oilaviy mulkdan hissa ajratib berishini ham talab qilolmaganlar va hokazo. Ota vafotidan so‘ng oila mulki oila boshlig‘ining bevosita avlodlariga - o‘g‘illarga o‘tkazilgan.

Hozirgi Hindistonda ham keng tarqalgan katta bo‘linmas oilaning huquqiy asosini Mitakshara huquqi bo‘yicha mulk huquqi instituti va hamvorislik tashkil etadi. Bu ota, bobo va katta bobo tomonidan o‘z ota-bobolaridan meros qilib olingan oilaviy mulkka nisbatan o‘g‘il, nevara va evara huquqlarida o‘z ifodasini topadi. Bunday oilaga faqat hamvorislar emas, balki ularning onalari, o‘gay onalari, bolalari (erga tekkan qizlaridan tashqari), bevalar, vafot etgan hamvorislarning erga tegmagan qizlari ham kirgan. Shuningdek, boshqa hamvorislarning e'tirozi bo‘lmasa, birgalikda yashash davomida nikohsiz tug‘ilgan bolalar ham, agar boshqa farzandlar bo‘lmasa, oilaning a’zosi hisoblangan. Biroq, yuqorida ko‘rsatilgan oila a’zolari oila mulkidan faqat ta’minot olish huquqiga ega edi. Mulkdorlardan birontasi ham oila mulkidan ko‘proq hissa olish huquqiga ega emasdi. O‘lgan kishilarning oilaviy mulk huquqi tirik hamvorislarga o‘tardi.

Mitakshara bo‘yicha hamvorislar tomonidan katta oila mulkini oila boshqaruvchisining ruxsatisiz, hatto boshqa hamvoris foydasiga yakka tartibda begonalashtirilishi mumkin emas edi. Shuningdek, uchinchi shaxslar hamvoris huquqini olishi mumkin emas edi. Biroq, hamvorislar oila mulkini begonalashtirish huquqiga ega bo‘lmasalar ham, oila mulkini faqat hamvorislar tomonidan begonalashtirilishiga e'tiroz bildirish huquqiga ega edilar. Ular boshqaruvchidan oila mulkini taqsimlashni va taqsimlash vaqtida mulkning holati haqida hisobot berishini talab qila olganlar. Hamvoris oila boshlig‘i va shu tariqa oilaning bo‘linmas mulki boshqaruvchisi bo‘lib

qolishi mumkin edi (agar bu o‘rin bo‘sh qolgan bo‘lsa va boshqa hamvorislar bunga e'tiroz bildirmasa). Barcha hamvorislarning huquqlari teng bo‘lgan. Biroq, bunday huquqdan mahrum etiladigan hamvorislar ham nazarda tutilgan. Masalan, aqli zaif, esi past yoki mayib-majruh tug‘ilgan kishilar oila mulkidan o‘zlariga tegishli hissaning ajratilishini talab qilishi yoki katta oila ishlarini boshqarishi mumkin emas edi.

O‘rta asrlar Hindistonida oilaviy munosabatlar sohasi bilan ashyo huquqining boshqa qator an’anaviy normalari chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Shuni ta’kidlash joizki, keyinchalik mustamlaka o‘lkasi bo‘lgan Hindistonda XIV asrda huquq sohalarining kodekslashtirilishi ashyo huquqi normalariga taalluqli bo‘lmagan. Bu o‘z ahamiyatini hozirgi vaqtda ham yo‘qotmagan. O‘rta asrlar Hindistonida ashyo huquqining muhim institutlaridan biri **«benami»** mulkchiligi edi. U inglizlardagi ishonib topshirilgan mulk institutiga juda o‘xshash bo‘lgan. Benami - o‘z pullariga, lekin boshqa shaxs nomidan yoki o‘z nomidan sotib olingan, biroq boshqa shaxsga uning uchun qandaydir foyda keltirish maqsadini ko‘zlamasdan berilgan mulkdir. Benamidan, bir tomondan, mulk egasining mulki miqdorini, boyligini yashirish vositasi sifatida foydalanilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, qarindoshlarni, umumiy merosxo‘rlarni chalg‘itish vositasi sifatida foydalanilgan.

Oilaviy munosabatlar sohasi bilan mustahkam bog‘liq bo‘lgan mulk huquqining yana bir an’anaviy instituti **«rejiya»** edi. U oilaning bo‘linmas mulki hisoblangan. Bu mulk meros bo‘yicha oilaning faqat bitta a’zosiga o‘tkazilgan. Oilaning boshqa barcha a’zolari ushbu mulkka nisbatan hech qanday huquqlarga ega bo‘lmagan. O‘rta asrlar Hindistonida xususiy yer egaligining o‘sishi sharoitlarida rivojlangan bo‘linmas mulk uzoq vaqt mobaynida boshqa, ancha qadimiy hisoblangan katta, bo‘linmagan oila mulki bilan birga yashagan. Bo‘linmagan, katta hind oilasi mulki bilan oilaning bo‘linmas mulki o‘rtasidagi farq asosan shundan iboratki, bo‘linmas mulk hamvorislar o‘rtasida taqsimlanmagan. Katta oila a’zolari (hamvorislar) uni taqsimlanishini, undan birgalikda foydalanishni, uning yagona egasi tomonidan tasarruf qilinishini taqiqlashni talab qila olmaganlar. Lekin, katta oilaviy taqsimlanmagan mulkchilik ta’siri ostida, ba’zi kastalardagi urf-odatlar kuchi bilan hamvorislar ba’zan bo‘linmas mulkdan ta’minot olishni talab qilish huquqiga ega bo‘lganlar. Bu huquqdan ko‘pincha bo‘linmas mulkni ushlab turuvchilarning o‘g‘illari foydalanishlari mumkin edi. Bo‘linmas mulkni meros qilib qoldirishning alohida qoidalari belgilangandi. U asosan mayorat prinsipi bo‘yicha, ya’ni vafot etgan mulk egasining o‘g‘liga meros qilib qoldirilardi.

Hindistonning an’anaviy huquqida rivojlangan o‘ziga xos mulkchilik instituti - butlar, sanamlar (xudolar), diniy va xayr-ehson muassasalari, ibodatxonalar mulklari bo‘lgan. Bunday mulklar xayr-ehson, sadaqa va qurbonlik qilish natijasida vujudga kelgan. Bunda diniy qurbonliklar va xayr-ehson qilish bir-biriga mos tushgan. Chunki Hindistonda muhtojlarga yordam berish, xayr-sahovat ko‘rsatish alohida diniy ish sifatida ko‘rilgan. Hindistonda diniy mulk shakllarining keng tarqalishiga ierarxik tashkil qilingan hind cherkovining mavjud emasligi, induizmning ko‘p xudoligi, raqobatlashuvchi dinlar (shaynizm, buddizm va boshqalar)ning keng tarqalganligi yordam bergan. Bu holat o‘rta asrlar Hindistonining diniy-madaniy birligining mustahkamlanishiga halaqit bermadi. Chunki induizm tabaqa-kasta tashkilotining qattiq qoidalari bilan bir qatorda, maxsus din erkinligiga yo‘l qo‘yishi, egiluvchanligi, yangi sharoitlarga nisbatan oson moslashuvchanligi bilan ajralib turardi. Diniy mazhablar, odatda, kasta shakllariga ega bo‘lib, to‘rtta varnaning umumiy tizimiga kirardi.

Yuqoridagilar bilan birga, muhtojlarga yordam berish maqsadida kiritilgan diniy mulkchilikning ta’sis etilishi boshqa, amaliy maqsadlarni ham ko‘zda tutardi. Bunday mulk, bir tomondan ta’sischining vafotidan so‘ng uning avlodlarini va boshqa qarindoshlarini ta’minlash maqsadiga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, boylar mulkining haqiqiy maqsadlarini yashirish maqsadiga xizmat qilgan va hokazo. Bu institutning nonormal xarakteri shunda ifodalanadiki, bu yerda ishonchli mulk ta’sis etilmaydi, balki o‘z huquqlarini qonuniy vakillari - shebaidlar orqali amalga oshiruvchi xudo, but-sanam (masalan, oddiy «muqaddas» tosh) mulkdor bo‘lib qoladi. Bu mulk abadiy, doimiy hisoblangan. Xayr-ehson hadya qiluvchi tomonidan qaytarib olinishi mumkin emas edi.

Xudoga o‘tkazilgan mulk «devattaram» (devata - xudo, but, sanam so‘zidan) deb atalgan. Odatda ta’sischining o‘zi ushbu mulkning tasarruf etuvchisi bo‘lgan yoki tasarruf etuvchi - shebait tayinlagan. Shebaitning vazifasi, odatda, maxsus taklif etilgan braxman-pujariaga topshirilgan mulkni xudo yo‘liga xizmat qilishini kuzatib turish edi.

Xudolik mulkini boshqaruvchisi yoki boshqaruvchilari keng vakolatlarga ega edi. Agar ta’sischi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlanmagan bo‘lsa, u bu mulkni garovga qo‘yishi, sotishi va «xudo-manfaatlari» yo‘lida, masalan, ibodatxonani ta'mirlash uchun uning daromadlarini tasarruf etishi mumkin edi. Bu daromadlarning boshqaruvchi tomonidan o‘zlashtirilishi, agar «xudolik manfaatlari» buzilmagan, masalan, Xudoning «foydasiga» xizmat qilishdan voz kechilmagan bo‘lsa, qonuniy hisoblangan. Shebait va pujaria mansabi merosiy bo‘lishi mumkin edi.

O‘rta asrlar Hindistonida tarqalgan diniy mulkchilikning yana bir shakli - **matxa** (diniy monaxlari bo‘lmagan monastirni eslatuvchi hind maktabi) foydasiga qurbonlik qilingan mulk edi. Bunday mulk shaklining tarqalishiga Hindistondagi mazhabchilik harakati sabab bo‘lgan. Matxalar u yoki bu ta’limotlarni targ‘ib qilish, o‘z izdoshlarini to‘plash maqsadlarida ham tuzilgan. Masalan, o‘rta asrlar Hindistonida mazhablar va kastalar ko‘pincha bir-biriga mos tushadi, ko‘pincha kasta (mazhab) boshlig‘i yoki uning panchayati (o‘zini-o‘zi boshqarish organi)ning oliy diniy hokimiyatga ega bo‘lgan ilg‘or a’zosi-maxant, mazhab boshqaruvchisi, uning mulkini boshqaruvchisi sifatida maydonga chiqadi.

Ko‘pchilik matxalarning o‘z ibodatxonalari mavjud edi. Maxant bir vaqtning o‘zida ham shebait, but-sanam mulkini boshqaruvchisi, ham ibodatxona xizmatchisi bo‘lishi mumkin edi. Maxantlarning huquqiy holati mahalliy odatlar bilan belgilangan. Maxant katta huquqlarga ega bo‘lib, matxa boshlig‘ining merosxo‘ri bo‘lishi, hatto o‘ziga voris tayinlashi, kasta (mazhab) ning panchayatiga boshliq etib saylanishi mumkin edi. Ba’zi yirik matxalar o‘zlarining mahalliy bo‘limlari - **pitxalariga** ega edi. Matxalarning diniy ta’sirini siyosiy ahvoldagi hech qanday o‘zgarishlar sindira olmagan. Matxalar nafaqat induizmning, balki diniy falsafa, siyosiy fikrlarning ham tarqalishida juda katta rol o‘ynaganlar, bu bilan o‘rta asr hind jamiyatini birlashtirishda kuchli omil bo‘lgan diniy-madaniy aloqalarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadilar.

Hindistonda yuz yillab davom etgan musulmon boshqaruvi uning to‘liq islomlashuviga olib kelmadi. Lekin bu vaqtda Hindistonda musulmon huquqi va uning asosiy manbai - Qur’on yoyildi. Musulmonlar o‘rtasidagi va huquqiy munosabatda qatnashayotgan tomonlardan biri musulmon bo‘lganda ishlar musulmon huquqi asosida ko‘rilgan, hindu, braxmanizm dinidagilarning ishlariga Manu qonunlari va boshqa qonunlar qo‘llanilgan. Shuningdek, hindlarning oila-nikoh, vorislik munosabatlaridan kelib chiqadigan munosabatlar hind huquqi bilan tartibga solingan. Guptalar saltanati davridagi jinoyat huquqi davlat jinoyatlari, mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar, shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarliklar o‘rnatgan edi. Jazoning asosiy turi jarima va turma qamog‘i hisoblangan. Boburiylar davrida qatl etish jazosi faqat imperator tasdig‘i bilan berilishi mumkin edi. Ammo shunga qaramay, bu jazo joylardagi sudlar tomonidan ham berilardi. Bu davrda tan jazolari ham keng yoyildi. Sudlov jarayonida urug‘doshlik tuzumining qoldiqlari saqlanib qolgan edi. Masalan, unda suv, o‘t, tarozi va zahar bilan sinab ko‘rilib, ko‘rsatmaning to‘g‘ri-noto‘g‘riligi aniqlanardi.

MUNDARIJA

So‘z boshi..... 3

BIRINCHI BO‘LIM
O‘rta asrlarda Yevropa mamlakatlari davlati va huquqi 6

***I bob.* Yevropa mamlakatlarida o‘rta asrlar davlati va huquqi xususiyatlari..... 6**

***II bob.* Franklar davlati va huquqi (V asr - IX asrning birinchi yarmi)..... 10**
1. Franklar davlatining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari 10
2. Franklar davlatining ijtimoiy tuzumi 15
3. Franklarning davlat tuzumi 22
4. Franklar davlatida huquqning asosiy belgilari..... 31

***III bob.* Fransiya davlati va huquqi (IX asrning o‘rtasi - XVIII asr oxiri)..... 56**
1. Fransiya davlatining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari 56
2. Sen'orlik monarxiyasi (IX-XIII asrlar)..... 57
3. Tabaqa-vakillik monarxiyasi (XIV-XV asrlar)..... 66
4. Mutlaq monarxiya davri (XVI-XVIII asrlar)da ijtimoiy va davlat tuzumi xususiyatlari 77
5. Fransiyada huquqning asosiy belgilari..... 88

***IV bob.* Germaniya davlati va huquqi (IX asrning o‘rtasi - XVIII asr) 109**
1. Germaniya davlatining tashkil topishi, rivojlanish xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlari 109
2. Ilk feodal monarxiyasi. “German millatining muqaddas Rim imperiyasi” (X-XIII asrlar) 111
3. Germaniyada kurfyuristlar oligarxiyasi va tabaqa-vakillik monarxiyasi davri (XIII-XVII asrlar)da ijtimoiy-siyosiy tuzumda yuz bergan o‘zgarishlar 118
4. "Knyazlik absolutizmi" davrida (XVII-XVIII asrlarda) Germaniya 126
5. O‘rta asrlarda Germaniyada huquqning asosiy belgilari 136

V bob. **Angliya davlati va huquqi (V asr-XVII asrning o‘rtasi) 159**
1. Angliya davlatining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari 159
2. Ingliz-sakslarning ilk feodal monarxiyasi (IX-XI asrlar)..... 160
3. Angliyada markazlashgan sen’orlik monarxiyasi (XI-XII asrlar)..... 169
4. Tabaqa-vakillik monarxiyasi (XIII asrlarning II yarmi-XV asr)..... 178
5. Absolut monarxiya davrida Angliyaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi (XV asrning oxiri- XVII asrning o‘rtasi)..... 194
6. Huquqning asosiy belgilari 200

VI bob. **Vizantiya davlati va huquqi (V-XV asrlar).....** 230
1. Vizantiya davlatining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari 230
2. Sharqiy Rim imperiyasining ijtimoiy tuzumi 231
3. Vizantiya davlat tuzumi 235
4. Vizantiyada huquqning asosiy belgilari..... 240

VII bob. **Rossiya davlati va huquqi tarixi (IX asr-XIX asrning o‘rtalari) 253**
1. Qadimgi Rus davlati va huquqi (IX-XII asrlar)..... 253
2. Siyosiy tarqoqlik davrida Rusda davlat va huquq (XII-XIV asrlar)..... 259
3. Oltin O‘rda davlati va huquqi (XIII-XV asrlar)..... 264
4. Markazlashgan Rus davlatining tashkil topishi va huquqning rivojlanishi (XIV asrning ikkinchi yarmi-XVI asrning birinchi yarmi) 266
5. Rossiyada tabaqa-vakillik monarxiyasi (XVI asrning o‘rtalari-XVII asrning o‘rtalari) 273
6. Rossiyada mutlaq yakka hokimlikning tashkil topishi va rivojlanishi (XVII asrning ikkinchi yarmi-XIX asrning o‘rtalari)..... 284
7. Absolut monarxiya davrida Rossiyada huquqning asosiy belgilari..... 295
8. Krepostnoy tuzumining yemirilishi va kapitalistik munosabatlarning o‘sishi davrida Rossiya davlati va huquqi (XIX asrning birinchi yarmi) 309

IKKINCHI BO‘LIM

O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlari davlati va huquqi 324
***VIII bob.* O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlari davlati va huquqining rivojlanish xususiyatlari 324**

IX bob Arab xalifaligi va musulmon huquqi..... 334
1. Arab xalifaligining tashkil topishi va taraqqiyot bosqichlari 334
2. Ijtimoiy va davlat tuzumi xususiyatlari..... 341
3. Musulmon huquqining asosiy belgilari..... 351
4. Musulmon huquqining manbalari 360
5. Shariat bo‘yicha fuqarolik huquqi asoslarining tartibga solinishi..... 369
6. Musulmon huquqida nikoh-oila va meros masalalarining tartibga solinishi..... 376
7. Shariat bo‘yicha jinoyat huquqi va sud ishlarini yuritish tartibi 384

***X bob.* O‘rta asrlarda Xitoy davlati va huquqi 393**
1. O‘rta asrlarda Xitoy davlatining rivojlanish bosqichlari 393
2. Xitoyning ijtimoiy tuzumi..... 397
3. Xitoy davlat tuzumining xususiyatlari 399
4. O‘rta asrlarda Xitoy huquqining asosiy belgilari..... 406

***XI bob.* O‘rta asrlarda Yaponiya davlati va huquqi.....** 422
1. Yaponiya davlatining tashkil topishi, shart-sharoitlari, xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlari 422
2. Yaponiya jamiyatining tabaqaviy tuzilishi 425
3. Yaponiyaning davlat tuzumi va uning o‘ziga xosligi 432
4. O‘rta asrlarda Yaponiya huquqining asosiy belgilari 441

***XII bob.* O‘rta asrlarda Hindiston davlati va huquqi..... 457**
1. O‘rta asrlarda Hindiston davlatining rivojlanish xususiyatlari va davrlarga bo‘lish muammolari 457
2. Hindiston ijtimoiy tuzumining xususiyatlari 460
3. Hindistonda hokimiyat va davlat boshqaruvining tashkil etilishi 464
4. O‘rta asrlarda Hindiston huquqining asosiy belgilari..... 469

Haydarali Muhamedov

XORIJIY MAMLAKATLAR DAVLATI VA HUQUQI TARIXI

(O‘rta asrlar davlati va huquqi tarixi)

II qism

Muharrir: H. Jalolov.
Texnik muharrir: A. Boymamatov.
Kompyuterda sahifalovchi: F. Nurlibaev.

Bosishga ruxsat etildi: 25.08.2003. Bosma tabog‘i 35,8, 1/16. Bichimi 47/65. Adadi:1000. Buyurtma: № 132. Narxi shartnoma asosida.
TDYUI Nashriyot bo‘limi, kichik bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Sayilgoh 35.